

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI

“O'ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN

MA'RUZALAR KURSI

Andijon – 2018

1-Modul: “O‘zbekiston tarixi” fanining predmeti, uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.

- 1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot ob‘ekti.**
- 2. O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning nazariy-metodologik tamoyillari**
- 3. Vatan tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni va ahamiyati**
- 4. Yuksak ma‘naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda O‘zbekiston tarixini o‘rganishning ahamiyati**

1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot ob‘ekti.

Mustaqil Vatanimiz O‘zbekiston va o‘zbek xalqi o‘zining boy va sermazmun tarixiga ega. Qadim zamonlardan buyon Vatanimiz Xitoy, Xindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoga mashhurdir.

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O‘zbek xalqining boy va qadimiy davlatchilik tarixi bor. O‘lkamiz hududida dastlabki davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo‘lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib dunyo davlatchiligi rivojida yuksak darajaga ko‘tarilgan.

O‘zbeklar Somoniylar(819-1005), Chig‘atoy ulusi(1227-1370), Temur va Temuriylar davlati(1370-1506)ning ijtimoiy siyosiy xayotida katta rol o‘ynaydilar. O‘zbeklarning ajdodlari Saljuqiylar(1028-1194) va G‘aznaviylar(977-1186) davlatining xarbiy-siyosiy tayanchi bo‘ldilar. O‘zbeklar XVI asrning boshida SHayboniylar davlatiga(1500-1601) asos soldilar. Ashtarxoniylar(1601-1757) va Mang‘itlar (1757-1920) davlatini ham asosan ular boshqardilar. Quqon(1709-1876) va Xiva(1512-1920) xonliklari ham o‘zbeklarning davlati edi.

Vatanimiz tarixi o‘zbek xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga o‘lkan hissa qo‘shganligidan guvohlik beradi. O‘zbeklar o‘z tarixi davomida o‘zlariga qo‘shni bo‘lgan va ko‘p vaqtlar bir davlat, masalan, Somoniylar, Temuriylar va x.k. tarkibiga kirgan tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar va turkmanlar, Eron va Afg‘oniston xalqlari bilan yaqindan iqtisodiy va madaniy hamkorlikda bo‘ldilar, ulardan nimalarnidir o‘rgandilar, ularga nimalarnidir o‘rgatdilar.

O‘rta asrlarda ikki daryo oralig‘ida yaratilgan yuksak madaniyatni o‘sha xalqlarning mushtarak madaniyati deb hisoblamok kerak. Al-Forobiy va Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ibn-Sino va Abu Rayxon Beruniy, At-Termiziy va Burxoniddin Marg‘inoniy, Abdurazzoq Samarqandiy va Ulug‘bek, Ali Qushchi va Bobur, Xofiz Tanish Buxoriy va Ahmad Donish singari ko‘plab jahonga mashhur olimlar shu zaminda yetishdi. Ularning riyoziyot va falakiyot, tibbiyot va falsafa, xadis va fiqh, tarix va adabiyot, xullas ilmning boshqa ko‘p sohalari bo‘yicha yaratgan asarlari bugun jahon ilm-fani xazinasiga ko‘rk bo‘lib turibdi. Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva va

SHahrisabz kabi ko'hna shaharlar bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohga aylangan. Muqaddas yerimiz orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li Osiyo va Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turgan xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixini, o'lkamizda ming yillar davomida yashab, kurashib, ijod qilib kelayotgan xalqimiz o'tmishini «O'zbekiston tarixi» fani o'rgatadi. Xo'sh «O'zbekiston tarixi» fani qanday fan va bu fanning predmeti nimadan iborat?

O'zbekiston tarixi umumjahon insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, qadim va yaqin ajdodlarimizning hayotiy kechmishlarini, ularning jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini holisona va haqqoniy o'rganadi.

«O'zbekiston tarixi» fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini holisona o'rganishdan iboratdir.

O'zbekiston tarixi ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga ko'tarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san'atini yoritadi. Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy Me'rosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini o'rgatadi. Vatanimiz tarixi xalqimizning ma'lum bir davrlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolganligini, qaramlik azobining naqadar ayanchli, mashaqqatli bo'lganligini, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashini va bunda mardlik, jasorat ko'rsatgan xalq qahramonlari va davlat arboblari faoliyatlarini keng rejada o'rgatadi.

«O'zbekiston tarixi» fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi.

«O'zbekiston tarixi» fani xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi ko'zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar majmuasidir.

Har qanday fan kabi O'zbekiston tarixi fani ham o'zining g'oyaviy-nazariy asoslari, ilmiy ta'limotlari, metodi (usuli) va metodologik tamoyillariga ega. Bular O'zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va milliy manfaati yo'lida nufuzining ortib borishida, Vatan tarixining haqqoniy yozilishi va tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida xizmat qiladi.

Vatanimiz tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari hamda O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoevning ma'ruza va nutqlari, farmon va farmoyishlari, mustaqillik davrida qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Birinchi Prezident Islom Karimov tarixning muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini

ta'kidlab, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Tarix-xalq ma'naviyatining asosida» degan teran falsafiy fikrlarni ilgari surdi. Uning tarix ilmiga oid nazariya va ta'limotlari hamda metodologik tamoyillari faqat ichki milliy doiradagi talabgagina emas, balki halqaro qoidalarga ham mos keladi. Tarixiy voqealarni o'rganishda qanday ilmiy-nazariy metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sho'rolar davrida har qanday voqeani yoritishga kamfirqa mafkuraviyligi, partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondashildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga eksplutator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag'allarga ajratildi. Mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqealar jamiyat a'zolarining bir qismi kambag'allar va yo'qsillarni himoya qilgan holda ularning manfaatiga bo'ysundirilgan holda yoritildi. Buyuk olimlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru-ulamolar, yozuvchilar ikkiga materialistlar va idealistlarga bo'lindi.

Oqibatda ko'pgina tarixiy voqea-hodisalar sohtalashtirildi, o'tmishi qoralandi, ma'naviy Me'rosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Xalqimiz tarixining bu qadar sohtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning roli katta bo'ldi. Tarix esa uning xizmatkoriga, targ'ibotchisi va himoyachisiga aylantirilgan edi.

2. O'zbekiston tarixi fanini o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari

O'zbekiston tarixini o'rganishda, tarixiy voqea, hodisalarni to'g'ri yoritishda bir qator nazariy-metodologik tamoyillardan foydalaniladi.

Dialektik usul ana shunday tamoyillardan biridir. Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yahlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Dialektikaning bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Aristotel, Xorazmiy, Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Dekart, Spinoza, Gegel, Gertsen va boshqalarning xizmati katta. Ular tabiat, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni ularni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, taraqqiy qilib turadigan holda, taraqqiyotni ichki bog'lanishida olib o'rganish metodologiyasini yaratdilar.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari, qolaversa bashariyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Shu sababdan O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda, bir xalqni ikkinchi bir xalqqa qarama-qarshi qo'ymagan holda o'rganish taqozo etiladi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, hind, arab va boshqa xalqlar, mamlakatlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O'zbekiston xalqlari

tarixini ham shunchalik chuqur, har tomonlama o'rganish imkoniga ega bo'lamiz. Vatan tarixini yoritishda holislik, tarixiylik metodlari muhim ahamiyatga ega. Holislik usuli tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi.

Mustaqillik tarixini holisona yoritish imkoniyatini yaratdi. «O'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan, -deb yozadi. Birinchi Prezident I.A.Karimov,-tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri, XIX asr oxiri, XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifasi umuman olganda bajarib bo'lindi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir».¹

Tarixiylik usuli voqea, hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan, o'sha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bo'lagi deb qaramoq zarur.

Har bir hodisa, jarayon qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu shaklda sodir bo'lganligini, bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak u birinchidan, qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi. Uchinchidan, uning tarixiy o'rnini, mavqei qanday, degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixiylik tamoyili xalqning o'tmishini yagona tabiiy-tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamoni tayyorlaydi, hozirgi zamon esa kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'tmishni yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamoni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz.

Vatan tarixini o'rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik tamoyillar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur. Vatan tarixini yaratishda beg'araz ilmiy xulosalar va holislik, biror-bir mafkuraning sun'iy ustuvorligiga yo'l qo'ymaslik va tariximizga insonparvarlik ko'zi bilan qarash g'oyasiga amal qilinishi kerak. Vatan tarixini o'rganish va yoritishda uning davrlarini ilmiy asosda tug'ri belgilash ham muhim ahamiyatga ega.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997, 141-bet.

Sho'rolar xokimiyati yillarida chop etilgan O'zbekiston tarixiga oid asarlar, darslik va boshqa adabiyotlarda tarixiy jarayonlar buzib talqin qilindi va sun'iy tarzda tarixiy davrlar o'nlab topildi. O'zbekiston tarixini davrlarga bo'lishda K.Marks, F.Engels va Lenin asarlari, KPSS s'ezdlari, konferentsiyalari va partiya markaziy komiteti qarorlari nazariy asos bo'lib xizmat qildi va o'lchov mezoni bo'ldi. Ko'p hollarda tarixiy davrlarni belgilashda xalqimizning tarixiy o'tmish jarayonlaridan kelib chiqqan holda yondoshmasdan Rossiya olimlari asarlaridan ko'r-ko'ronaandoza ko'chirildi. Vatanimiz tarixini Rossiya tarixiga moslashtirish yo'lidan borildi.

3.Vatan tarixini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni va ahamiyati.

O'zbekiston tarixini va umuman o'tmish avlodlarimiz tarixini o'rganishda tarixiy manbalar muhim rol o'ynaydi.

Vatanimiz tarixiga oid manbalarni shartli tarzda ikkiga moddiy va ma'naviy (yozma, xalq og'zaki ijodi namunalari) manbalarga bo'lishi mumkin.

1. Moddiy manbalarga arxeologik va antropologik ashyolar mehnat va urush qurollari, uy-ruzg'or va zeb-ziynat buyumlari, muzey shaharlar, tarixiy obidalar, yodgorliklar kiradi.

Misollar: mehnat va urush qurollari ajdodlarimiz eng qadimgi zamonlardan tortib shu ko'ngacha ho'jalik va harbiy ishda ishlatish uchun yasagan buyumlar-oddiy tosh qurollardan tortib, bugungi kunda ishlatilayotgan eng zamonaviy asbob-uskunalar. Turli davrlarda turli ustalar tomonidan yaratilgan zeb-ziynat buyumlari. Afrosiyob kabi qadimiy shaharlar qoldiqlari, Samarqand, Xiva, Buxoro va boshqa shaharlarda saqlanib qolgan tarixiy obidalar.

2. Ma'naviy manbalarga ota-bobolarimizning yillar davomida yaratilgan yozma asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari kiradi. Yozma manbalar qadim zamonlardan to shu kunlarga qadar ulug' ajdodlarimiz, buyuk allomalar yozib qoldirgan asarlar, turli yozma hujjatlar, arxiv materiallari, kitoblar, vaqtli matbuot materiallari, kino-foto hujjatlar vahokazo.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VII-VIII asrlardagi hayotini o'rganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifodasini topgan.

Vatanimiz tarixiga doir ma'lumotlar yunon va rim manbalarida, chunonchi, Geradotning «История» (M.1972), Ksenofontning «Греческая История» (M.1935), Polibiyning «Всеобщая история» (M.1980-1989), Arriani «Поход Александра» (M., L., 1962), Strabonning «География в 17 книгах» (M., 1964); Kurtsiy Rufning «История Александра Македонского» (M., 1963) va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. Antik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarni to'plovchi I.V. Pyankovning «Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия» (Dushanbe, 1975), N.G.Gorbunovning «Фергана по сведениям античных авторов. История и

культура народов Средней» (L., 1976) kabi kitoblar ham Vatanimiz tarixini o'rganishda yordam beradi.

Xitoy yozma manbalaridan «Tarixiy guvohliklar» (mil.avv.I asr), «Ulug' Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (milodiy V asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr), «Shimoliy podshoxliklar (Beyshi) tarixi» (milodiy VII asr) va boshqalarda Turkiston tarixi haqida ma'lumotlar bor. SHuningdek, arman, vizantiyalik mualliflarning asarlarida ham Vatanimiz tarixi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Vatanimiz tarixini o'rganishda turkiy, fors, arab manbalarining ahamiyati katta. Qadimgi turk yozuvi to'g'risida S.E. Malovning «Памятники древне-тюркский письменности» (M., 1951) va «Eniseyskaya pismennost tyurkov. Tekst i perevodo'» (M., L., 1951), A. Sa'dullaevning «Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda» (T., 1996) asarlarida, Nasimxon Rahmonning «Turk xoqonligi» (T., 1993) kitobida qimmatli ma'lumotlari bor. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishda Abulg'oziyning «Shajarayi turk» (T., 1992), L.N. Gumilevning «Древние тюрки» (M., 1960), Jabborovning «O'zbek xalqi etnografiyasi» (T., 1994) asarlaridan foydalanish mumkin.

O'zbek xalqining o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotini o'rganishda Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» (T., 1993), Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (T., 1968), Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» (T., 1960), M. Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk. Uch jildlik» (T., 1960-1963), Abu Toxirjonning «Samariya» (T., 1991), Narshahiyning «Buxoro tarixi» (G., 1991), Nizomulmulkning «Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk» (T., 1997), Amir Temurning «Temur tuzuklari» (T., 1991), Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» (T., 1994) va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Vatanimiz tarixini o'rganishda o'z davrida hokimiyat tepasida turgan sulolalar tarixini yoritishga bag'ishlangan bir qator kitoblar-Shahobiddin an-Nasaviyning «Siyrat as Sulton Jaloliddin Mangbo'rni» (T., 1999), Nizomiddin Shomiyning «Zarafnoma» (T., 1996), Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (T., 1997), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi. Ikki jildlik» (T., 1992), Xofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» (T., 1999), Mulla Muhammad Solihning «Shayboniynoma» (T., 1989), Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» (T., 1991) va boshqalar qimmatli manba sifatida diqqatga sazovordir.

Bizgacha yetib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Sharq qo'lyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qo'lyozmalar xazinalaridan biri hisoblanadi. Bu yerda 40 mingdan ziyod qo'lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq Sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Shuningdek, Vatanimiz tarixiga oid muhim qo'lyozma hujjatlar, nodir kitoblar, qimmatli ma'lumotlar xorijiy

mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda saqlanmoqda. Ana shu qo'lyozma hujjatlar va kitoblarning hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi Vatanimiz tarixini yanada to'laroq, holisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi «oq» va «qora» dog'larning barham topishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston tarixiga doir tarixiy manbalar haqida ma'lumotlar B. Ahmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» (T.,1991), T. Saidqulovning «O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar» (T., 1993) nomli kitoblarda ham to'laroq berilgan, o'quv jarayonida ulardan foydalanish zarur.

4.Yuksak ma'naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda O'zbekiston tarixini o'rganishning ahamiyati.

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi. U yoshlarni vatanparvar ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantirishda xizmat qiladi. Vatanimiz tarixi "Har bir fuqaroni boy madaniy merosimizni qadrlashga, asrab-avaylashga, yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmishi merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi"¹. Mustaqillik davrida O'zbekiston tarixida burilish pallasi, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumdan xoli, demokratik tizimga o'tish davri boshlandi. Millatimizni haqqoniy tariximiz bilan qurollantirishimiz lozim. Chunki to'g'ri tarix to'g'ri tarbiyani yo'lga solib turadi. To'g'ri tarixiy dalil ishonchli hujjat sifatida nishonga kishining qalbiga va ongiga aniq yetib boradi. Xalqning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va mustahkamlaydi. Kelajagi bundanda buyuk davlat qurishga kirishgan xalqimiz uchun o'z tarixini bilishi shuning uchun ham juda zarur.

Olis o'tmishimiz va yaqin kechmishimizda yuz bergan voqea-xodisalarni chuqur bilib, ulardan tegishli xulosa va saboqlar olishimiz bugunimiz uchun asqotadi, kelgusida esa o'tmishda yo'l qo'yilgan xato va nuqsonlarni takrorlamaslikning oldini oladi. Tarixiy saboq himoyalani, to'g'ri yo'lni belgilab olish ahamiyatiga ham egadir. Buyuk davlatimiz ildizlari chuqur tomir otgan qadimiy zaminda qurilmoqda, buni bilmoq har qaysi insonga ruh bag'ishlaydi. Xalqimizning, davlatchiligimizning o'tmishi shonli va shukuhli ekan, demakki, kelajagi ham yanada porloq bo'lishi aniq. Bunda avlodning ajdodga vorisligi asosiy omildir. Bugungi O'zbekiston respublikasi qadim Turon va Turkiston mamlakatining, shu zaminda vujudga kelgan barcha davlatlarning bevosita vorisidir. Shunday ekan bugungi yoshlar mustaqillikni asrab avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizning keyingi avlodlariga yanada

¹Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. Toshkent: O'zbekiston, 1998. 371-b.

qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda yetkazishi ularning sharaflari burchidir.

Tarixning quroli- ma'rifat va ma'niviyatdir. Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omil hisoblanadi. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Ma'naviyat-o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi."². Insonda tarixiy xotira o'z Vatani tarixini, o'z xalqi ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Tarix fani olam yagona va yaxlit, O'zbekiston uning ajralmas bir qismi, olamda sodir bo'ladigan voqea xodisalar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda ekanligi xususida to'g'ri tasavvur tushunchalarini shakllantiradi.

O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoev "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga intilishga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi", deb ta'kidlaydi. Yosh avlodning ta'limi, tarbiyasi haqida gapirganda alloma Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlari: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq", degan purma'no gaplari naqadar haqiqatdir. Bugungi murakkab globallashuv davrida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama chuqur, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston tarixi" fanining vazifasi:

– Vatanimiz hududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolisona hamda haqqoniy manbalarga tayangan holda tahlil qilish, o'rgatish, ularning sabablari va mohiyatlarini talaba yoshlarga ochib berish, tarixiy saboq chiqarishini kuchaytirish;

²Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. 137-bet.

– tarixning turli davrlarida mamlakat iqtisodiy va madaniy ravnaqi uchun fidoyilik qilgan davlat arboblari, ulug’ sarkardalar, ilm-fan hamda madaniyat namoyandalari, milliy qahramonlar faoliyatini o’rganish, fahr va o’rnak olish asosida yoshlarimizni millatparvarlik ruhida tarbiyalash;

– tarixiy xotira asosida yoshlarimizni “Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo’lmaymiz”, “Biz faqat o’z bilimimiz, iqtidorimiz, iste’dodimiz, kuchimiz, mehnatimizga ishonamiz”, “Vatanimiz-faxrimiz, gullab-yashnashi, taraqqiyoti uchun har birimiz mas’ulmiz”, “Kelajak yoshlar qo’lida”, “Biz-Vatanga tayanchmiz” kabi bunyodkor g’oyalar ruhida tarbiyalash;

– hozirgi kunda mamlakatimizda o’tkazilayotgan islohotlar va juda ko’plab bo’layotgan zamonaviy o’zgarishlar mohiyatini, huquqiy-demokratik jamiyat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish yo’lidagi yangiliklarni, 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha “Harakatlar strategiyasi”ning bajarilishi, O’zbekistonning yanada taraqqiy etishi, jahon hamjamiyati bilan kuchli integratsiyalashuvi jarayonlarini yoshlarga yetkazish va bevosita o’zlarining ham shu harakat a’zolari ekanligini ta’kidlab bor kuch va imkoniyatlarini Vatanining rivojlanishi uchun hissasini qo’shish kerakligini qalbiga joylash. Ularning faolligini oshirish, yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur ilmga ega bo’lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

“O’zbekiston tarixi” fanini o’qitishda talabalarda fan bo’yicha zarur ko’nikma xosil bo’lishida va kelgusi yetuk mutaxassis bo’lib yetishida quyidagi ustivor yo’nalishlar samara beradi deb o’ylayman:

1. O’zbekiston tarixi nihoyatda boy va rang-barangdir. O’lkamiz hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon tsivilizatsiyasi o’choqlaridan biri hisoblanib, bu yerda dunyo tsivilizatsiyasidagi mahalliy xalqlarga xos tarixiy-madaniy jarayonlar bo’lib o’tgan. O’lkamiz hududlaridan dunyo tsivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida o’chmas iz qoldirgan olimu fuzalolar, davlat arbobi, sarkardalar yetishib chiqqanlar. Bular haqida talabalarga ko’proq ma’lumotlar berishda turli mavzularga oid taqdimotlardan keng foydalanish samarali natija beradi.

2. “O’zbekiston tarixi” fanini o’qitish jarayonida mamlakatimizda faoliyat ko’rsatayotgan tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini, jumladan xalqaro, respublika jurnallarida chop etilgan materiallaridan ham dars jarayonida muntazam samarali foydalanishni, yangiliklar bilan yashashni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

3. Ma’lumki, pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonga o’ziga xos bo’lgan innovatsion yondashuvdir. O’qitishning va’zxonlik, og’zaki bayon

qilish usullarini me'yorlashtirib, kompyuterlar yordamida ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish o'quvchi bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi yakuniy natijaga erishishi, ustoz yordamida talabalarning ko'proq mustaqil ishlarini tashkil etish, talabalarning, yoshlarning mustaqil, erkin fikrlashini kuchaytirish zarurdir. Chunki jahonning yetakchi davlatlari andozalari talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash hozirgi davrning talabidir.

4. "O'zbekiston tarixi"ni o'qitish jarayonida so'nggi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan, ovoqli tarixiy o'quv qo'llanmalar, videoroliklardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

5. Fanni o'qitishda joylardagi o'lkashunoslik, tarixiy va uy muzeylarga, yodgorliklar, qadimiy me'moriy obidalar, ziyoratgohlarga talabalarni olib borish, ekskurtsiya tashkil qilish va o'z yashab turgan joyining tarixi bilan birgalikda "O'zbekiston tarixi"ni o'qitish ham samarali natijalarni beradi.

6. O'qitishda interfaol va yangi pedagogik texnologiya usullaridan kengroq va samarali foydalanish. Jumladan, ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), "Klaster (Axborotni yoyish)", "Sinkveyn (Axborotni yig'ish)", "Tanqidiy fikrlash", "Intelektuallar musobaqasi" "Menyu", "Aqliy hujum", "Blits so'rov", "Zanjir" va boshqa metodlardan samarali foydalanish.

7. Talabani jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirish, "o'z-o'zini o'qitish" asosida talabani o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish, talabani o'zlashtirish darajalarini nazorat qilishni tashkil etish.

8. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda modulli tizimga yondashilib, talabalar bilan birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini tashkil etish.

9. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

10. "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishni tashkil etishda quyidagi shakllardan, dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh kabilarni qo'llash.

11. O'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati kabilarni samarali natijalarni beradi.

Aniq ta'kidlaganda, Vatan tarixi, talabalarda xalqning o'tmishi, hozirgi zamon va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tuvshunchani shakllantiradi. Bu esa yoshlarni olg'a intilishga, taraqqiyotga ko'maklashishiga undaydi. Yoshlarning ilmiy dunyoqarashini, siyosiy madaniyatini tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri belgilashga ko'maklashadi. Kelajak sari intilayotgan yoshlar uchun bu ma'naviy boy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatli mehnat, har qanday to'siqlarni yengish, ilmga va ziyoga intilish kabi hislatlar yotadi. Bunday xislatlar O'zbekiston tarixini o'qitish orqali yoshlarga singdiriladi.

2-Modul: Markaziy Osiyo jahon tsivilizatsiyasining ajralmas qismi.

- 1. O'zbekiston qadimgi tsivilizatsiya va madaniyat beshigi.**
- 2. Insoniyatni paydo bo'lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar**
- 3. Ibtidoiy jamiyat, uni davrlashtirish va bu boradagi yangicha yondashuvlar.**
- 4. Markaziy Osiyodagi poleolit, mezolit, eneolit va bronza davri yodgorliklari**
- 5. Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.**
- 6. "Avesto" insonning ma'naviy hayotini shakllantirishdagi o'rni**

1. O'zbekiston qadimgi tsivilizatsiya va madaniyat beshigi.

Insoniyat qadim-qadimdan o'z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma'naviy madaniyatga, ya'ni ma'lum darajadagi tsivilizatsiyaga ega bo'lgan. Davrlar o'tishi natijasida, insoniyat tsivilizatsiyasi darajasi o'sib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli, qanchalik darajada moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratib va ko'paytirib borishi bilan bog'liq kechgan. U yoki bu tsivilizatsiya haqida so'z borganda insoniyatning yashash uchun kurashi, tinimsiz mehnati, ma'naviyat va ma'rifatga intilishi tufayli o'zi uchun yaratgan va madaniy qulayliklari-ov va mehnat qurollari, kiyim-bosh, uy-joy va oilaviy munosabatlari, ishlabchiqarish usullari, maishiy xizmat vositalari, ijtimoiy ongi va ma'naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-huquqiy, munosabatlari darajasi asosida tavsiflanadigan ma'lum bir tarixiy davr tushuniladi. Masalan, qadimgi SHarq tsivilizatsiyasi, Antik Yevropa tsivilizatsiyasi, Islom tsivilizatsiyasi, Xristian, hozirgi zamon tsivilizatsiyasi kaabi tushunchalarda insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, axloqi, bilim saviyasi, mehnat qurollari va boshqa jihatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Ilk tsivilizatsiyaga doir eng muhim belgilardan, davlatning paydo bo'lishi, yozuvning vujudga kelishi, dehqonchilikning hunarmandchilikdan ajralib chiqishi, jamiyatning sinflarga bo'linishi, shaharlarning paydo bo'lishi kabi belgilarda ko'rinadi.

Hozirgi tsivilizatsiyaga xos muhim belgilardan, huquqiy davlatning mavjudligi, butun jahon miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanganligi, kommunikatsiya tizimining mavjudligi, planetar ong, planetar axloqning shakllangani kabilarda ko'rish mumkin. Har bir mintaqada tsivilizatsiya davriy nuqtai nazardan erta yoki kechroq, o'ziga xos tarzda shakllanib, rivojlanib borgan. Tarixiy ilmiy tadqiqotlar bizning vatanimiz - O'zbekiston insoniyat tsivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda.

2. Insoniyatni paydo bo'lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar.

Ilmiy manbalardan O'zbekiston odamzod ilk paydo bo'lgan o'lka ekanliginin anglash, ajdodlarimizning qadimgi hayoti, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqidazarur bilimga ega bo'lish mumkin. Jamiyatshunos va tabiatshunos olimlar yer sharida hayotning paydo bo'lishi, odamlarning vujudga kelishi muammolari ustida uzoq yillardan beri tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Bu haqda diniy va dunyoviy ta'limotlar, rivoyatlar mavjud. Islom dini odamlarning Alloh tomonidan tuproqdan yaratilib, unga jon kiritilgani, dastlabki odamlar Odam Ato va Momo Havodan bo'lganligi haqida to'xtalib, ularning qachon yaratilganligini Allohdan o'zga hech kim bilmaydi, bu yolg'iz uningagina ayonligi g'oyasini ilgari suradi.

Yunon olimi Arastu odamning paydo bo'lishini yer hayotining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni bilan bog'liq tushuntiradi. "Odamzod oddiydan murakkabga, hayvonot olamidani odamzot dunyosiga o'sib chiqdi", -deb ta'kidlaydi.

Ingliz olimi Charlz Darvin yevropalik arxeologlarning Gibraltar g'oyasi, Germaniyaning Neandertal vodiysi va Avstriyadagi tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilib, odamlarning ajdodlari daraxtda yuruvchi eng oliy turdagi maymunsimon odamlar driopiteklar bo'lganligi haqidagi evolyutsion nazariyani ilgari suradi. U har qanday maymundan odam paydo bo'lmasligini, odamlarning ajdodlari bo'lmish driopiteklar allaqachon o'lib ketganligini ta'kidlaydi. Biroq bunday nazariyalar mutlaqo ilmiy haqiqatga ziddir. Xullas odamzotning paydo bo'lishi haqida olimlarning turlicha fikr, qarashlari mavjud, hozircha fanda odamzot tabiatning bir qismi, u sayyoramizda taraqqiyotning ma'lum bosqichida vujudga keldi, kishilik jamiyati mehnat tufayli takomillashib bordi, dastlab odamlar ibtidoiy to'da shaklida, keyinroq urug'-jamoaga bo'lib yashaganlar degan hulosalar ham mavjuddir.

3-4. Ibtidoiy jamiyat, uni davrlashtirish va bu boradagi yangicha yondashuvlar. Markaziy Osiyodagi poleolit, mezolit, eneolit va bronza davri yodgorliklari.

Ibtidoiy jamiyat-ibtidoiy odamlarning paydo bo'lishidan to davlat yuzaga kelgunga qadar bo'lgan davrdir. Ibtidoiy jamiyat poleolit, mezolit, neolit, eneolit

va bronza davrlariga bo'lib o'rganiladi. Mazkur davrlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

Poleolit davri –bu davr «Qadimgi tosh davri» deb ham yuritiladi. Poleolit davri uch bosqichdan iborat: Ilk poleolit, o'rta poleolit va yuqori poleolit.

Avvalo shuni takidlash o'rinliki, bu davrda ibtidoiy odamlar hali metall ishlatishni bilmaganlar, ular asosan oddiy toshlardan, yirik xayvonlarning suyaklaridan, shohlaridan va daraxtlarning qattiq shoxlaridan mehnat quroli yasaganlar va undan foydalanganlar.

Ilk poleolit davrining diqqatga sazovorligi shundaki, bu davrda odamlar va ularning dastlabki mehnat qurollari paydo bo'lgan. Bu davrning tosh qurollari arxeolog olimlar tomonidan yetarli darajada va yaxshi o'rganilgan. Insonga tegishli dastlabki mehnat quroli Frantsiya xududidagi Ashel' degan joydan topilgan. Olimlarning ilmiy xulosalariga ko'ra Ashel' davri bundan bir million yil burun boshlangan va miloddan avvalgi 200-100 minginchi yillargacha davom etgan.

O'tgan asrning 80-yillarida arxeolog O'.Islomov boshliq, tadqiqotchilar Farg'ona vodiysidagi Selo'ngur (So'x tumanida) g'oridan qadimiy odam manzilgoxini topdilar. So'ngi tadqiqotlar natijasiga ko'ra Selo'ngur ilk poleolit davriga oid bo'lib, bu yerdan olingan topilmalarning yoshi bir million yildan ziyodroq ekan. Ushbu topilmalar orasida eng ahamiyatlisi qadimgi odamning jag' suyaklari va tishlari, yelka suyaklaridir. Hozir fanda «Farg'ona odami»- «Fergantrop» deb nomlangan bu qazilma O'rta Osiyo xususan O'zbekiston insoniyat paydo bo'lib rivojlangan o'choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi.

Ilk poleolit manzilgohlari yanada SHimoliy-sharqiy O'zbekistonning, Toshkent viloyatining Qorabuloq makonidan ham topilgan. SHuningdek Ohongoron yaqinidagi Qizilolmasoy va Toshsoy manzilgohlaridan ham bu davrga oid manbalar topilgan.

O'rta poleolit-qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davrga oid dastlabki yodgorliklar teshiktosh (Surhondaryo) g'or makoni 1938 yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan. Surxon vohasidagi (Boysuntog') Teshiktosh g'or-makoni topilmalari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. O'rta poleolit davriga mansub bu g'ordan 3 000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Eng muhimi shundaki, Teshiktosh makonining yuqori qatlamlarida 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu davrga oid arxeologik materiallar yana Toshkent viloyatidagi Obirahmat makonidan Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on xududda Qo'tirbuloq makonidan ham topilgan. O'rta poleolit davrida odamlar hayotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda odamlar O'rta Osiyoning keng xududlariga tarqala boshladilar.

Sovuq iqlim tufayli o'rta poleolit odamlari olovni kashf etdilar va sun'iy olov chiqarish hamda uni saqlashni o'zlashtirganlar.

So'nggi (yoki yuqori) poleolit-bu davr uzoq davom etgan qadimgi tosh asrining ohirgi bosqichi bo'lib, mil. avv. 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda bu davrga oid O'rta Osiyoda 30 dan ziyod makonlar ochilgan. Masalan, Samarqand shahrining o'zida, Farg'onada Xo'jag'or, Pomir etaklaridagi Shug'nov, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq, Tojikistondagi Qorakamar yodgorliklari shular jumlasidandir. So'nggi poleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmushida turli o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Xususan odamlar g'ordan chiqib yengil turar-joylar, chayla va yarim yerto'lalarda yashay boshladilar. Ular endi faqat tog'li xududlarda yashab qolmay vohalar bo'ylab tarqaldilar. So'nggi poleolit davrining yutuqlaridan biri-nayzaning ixtiro qilinishi bo'ldi. Nayza tufayli ovchilik rivojlandi.

Mezolit(o'rta tosh asri)-tosh asrining keyingi rivojlanish davri xisoblanadi. O'rta Osiyoda mezolit davri nisbiy tarzda mil. avv. 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Mezolit- odamlarning yer yuzi bo'ylab keng tarqalishi bo'lib, ularga oid materiallar ko'plab joylardan topilgan. O'rta Osiyoning mezolit davri makonlari Surxondaryoning Machay, Farg'onaning Obishir, Markaziy Farg'onadan ToshkentningBo'zsuv, qo'shilish, Tojikistonning Oshhona, CHilchorchashna kabi joylaridan topilgan. Mezolit davriga kelib yer yuzidagi o'lkan muzliklarning yana shimolga tomon silzishi natijasida iqlim barqarorlashib hozirgi davrdagiga ancha o'xshab qolgan edi. Buning natijasida O'rta Osiyo xayvonot olami va o'simlik dunyosida ancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollarni tayyorlashni o'zlashtira boshlaganlar. Bu davr uchun asosiy ahamiyatli narsa shuki, bu davrda o'q-yoy kashf etildi. Bu davrning eng katta yutuqlaridan yana biri bu yovvoyi hayvonlarni, it-qo'y, echkilarni qo'lga o'rgatilishi bo'ldi.

Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir rivojlanish bosqichida chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi va birinchi mehnat taqsimoti yuz berdi. Mezolit davrida (mil.avv 12-7 ming yilliklarda) insoniyat taraqqiyotida, uning xo'jalik faoliyatida muhim xodisa sodir bo'lgan. Bu davrda yovvoyi hayvonlardan it, qo'y, echki kabilar qo'lga o'rgatildi ya'ni xonakilashtirildi. SHuni aytish kerakki bu davrda ovchilikdan chorvachilikka o'tish muhim hodisa bo'ldi. Odamlar turmush tarzida temirdan foydalanilishi xususan, mehnat va ov qurollarini temirdan yasalishi kishilik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb qildi.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi Machay makonidir.

O'rta Osiyo tarixida **Neolit davrining**(yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil. avv. VI-quyi chegarasi IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqib baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik, chorvachilik, ayni vaqtda qisman xunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Neolit (yangi tosh) davrida mehnat qurollari ancha takomillashdi. Odamlarda o'troq hayot kechirishga o'ta boshladi. Bu davrga kelib odamlar

doimiy yerto'lalar, kulbalar qurish, loydan, guvalalardan oddiy uylar solish ko'chaydi. Qishloqlar paydo bo'la boshladi. Endi doimiy o'troqlik xo'jaligi paydo bo'ldi bu hol dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli xududlarda, azm daryo va ko'l bo'ylarida esa o'troq ovchilik xo'jaligini qaror topishiga sabab bo'ldi.

O'rta Osiyo xududidan bu davrga ko'plab makonlar topilgan. Fanda Joytun madaniyati (Janubiy Turkistondagi), Kaltaminor madaniyati(Xorazm xududidagi), Xisor madaniyati (Xisor-Pomir tog'laridagi) nomi bilan ataluvchi makonlar ushbu davrning eng yirik madaniy qatlamlari mavjud topilmalardir. Bu davr uchun eng xususiyatli jihatlar shundaki, Neolit davrida tosh boltalar ancha takomillashtirildi, dehqonchilik va chorvachilik kashf etildi.

Eneolit(mis-tosh) davri tosh va bronza davri o'rtasidagi davr bo'lib, bu davr qurollar sof misdan yasalganligi ma'lum. O'rat Osiyoda eneolit (mis-tosh) davri nisbiy tarzda mil.avv. IV ming yillikning ohiri-III ming yillikning boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davrning eng asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'lgan:

1. Haydab dehqonchilik qilish ancha rivojlangan edi.
2. Mis qurollar paydo bo'ldi.
3. Katta-katta jamoalarning paxsa xom g'ishtdan tiklangankatta-katta uylar paydo bo'ldi.
4. Kulolchilikda xumdonlardan foydalana boshlandi.
5. Rangdor sopol idishlar paydo bo'ldi va haqozo.

Bu davrga oid O'rta Osiyodagi muhim yodgorliklar quyidagilar: Janubiy Turkistondagi Anov va Nomozgohtepa makoni va boshqalar.

*Bronza davri.*O'rta Osiyodagi muhim yodgorliklar quyidagilar: Janubiy Turkistondagi Anov va Nomozgohtepa makoni va boshqalar.

*Bronza davri.*O'rta Osiyoda bronza davri mil. avv. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston xududida bu davrga xos arxeologik materiallar ancha ko'p topilgan masalan fanda toza bog'iyob madaniyati, Amurobod madaniyati, Zomonbobo madaniyati, Sopolli madaniyat va boshqalar shu davrga xos makonlardir. Bu davr uchun xos xususiyat shuki, mehnat va ov qurollari tayyorlashda bronzadan keng foydalanishga o'tilgan. Bu davrda Vatanimiz xududida ibtidoiy tasviriy san'at ancha rivojlandi. O'rta Osiyo xududidagi tog'li xududlardan shu ko'nga qadar ko'plab qoyatosh sur'atlari topib o'rganilganki, bu bronza davrida yashagan ajdodlarimiz tomonidan ishlangan. Bunday ibtidoiy, eng qadimgi rasmlar Surxondaryoning Zarautsoy degan tog' yon bag'irligidan topilgan va u mil. avv. VIII-IV ming yilliklar ishlanganligi tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan.

Tadqiqotchilarning fikricha Markaziy Osiyoda ilk *temir davri* mil. avv. I-ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib ibtidoiy jamoa tuzumi o'zining ohirgi bosqichini o'tayotgan edi.

Temir dehqonchilik va xunarmandchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Temir ibtidoiy jamoa tuzumi-ni buzib yubordi va xo'jalik tabaqalanishining tezlashiga olib keldi. Temir tufayli chorvachilik dehqonchilikdan uzil-kesil ajraldi, ko'plab hayvonlarning egalari bo'lgan aslzodalar paydo bo'ldi. Temir tufayli dehqonchilikdan hunarmandchilik alohida xo'jalik turi sifatida ajralib chiqdi. SHuni takidlab o'tish o'rinliki, ilk hunarmandchilik bir muncha avval paydo bo'lgan edi. Biroq u hali dehqonchilik va chorvachilikdan alohida xo'jalik turi sifatida ajralib chiqmagan edi.

5. Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

Ajdodlarimiz miloddan avvalgi 3 minginchi yillardayoq misga qalay aralastirib bronza ya'ni qattiq metall qotishmasini olishni undan pishiq va qattiq mehnat qurollari, qilich, hanjar, uy-ro'zg'or, zeb-ziynat buyumlari yasashni o'zlashtirib oladilar. Bronzaning kashf etilishi metallurg hunarmandlarni, metallurgiya ustaxonalari va zargarlik korxonalarini vujudga keltirdi. Hunarmandchilikning bu tariqa ixtisoslashuvi turli hududlar o'rtasida mahsulot ayirboshlashga, ularni iqtisodiy jihatdan bog'lashga olib keldi. Bronza davrida yashagan ajdodlar xo'kiz, ot, eshak, tuyadan transport vositasi sifatida foydalanganlar. Hayvonlar qo'shilgan g'ildirak aravalar vujudga keldi. O'zbekiston hududidan bronza davri odamlarining makoni va qabristonlari topib o'rganilgan. Buxoro viloyati Qorako'l tumani markazidan 15 km. SHimoliy-sharqdagi Zamonbobo ko'li atrofida 1950 yillarda Ya.G'ulomov 1960 yillarda A.Asqarov tadqiqot ishlari olib borib, bronza davri odamlarining makonlarini topib o'rganadilar. Bu Zamonbobo madaniyati deb atalib, maydoni 170 kv.metr yerto'la tipidagi uy, ikki chayla, kulolchilik xumdoni va boshqa ashyolar topildi. Qazuv ishlari vaqtida uning atrofidan o'choq o'rni, ustunlar o'rnatilgan chuqurchalar, qoramol, echki, yovvoyi xayvonlarning suyaklari, qorayib ketgan bug'doy va arpa donlari, chaqmoqtoshdan yasalgan o'roq parchalari, toshdan yasalgan munchoqlar topilgan. Topilmalardan zamonboboliklar dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganliklaridan darak beradi.Zamonbobo ko'lining shimoliy sohilidan topilgan qadimgi qabristonda 45 ta mozor ochilib o'rganilgan. Mozor hozirgidek lahad shaklida bo'lib, marhumlar o'ng va chap yoni bilan ko'milgan. Erkaklar qabridan o'q-yoy paykonlari, pichoqsimon qurollar, ayollar qabridan tosh munchoqlar, oltin marjon, surma, toshoyna va boshqa buyumlar topilgan. Qazilmalardan topilgan Badaxshon la'lidan ishlangan munchoqlar, sopol idishlar zamonboboliklarning boshqa hududlaridagi urug' jamoalari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarda bo'lganligini ko'rsatadi. Milloddan avv. III-II ming yilliklarga kelib O'rta Osiyo jamiyatida sodir bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari bu xududlarda ilk shaharning paydo bo'lishiga imkon yaratdi.

O'lkamiz xududida dastlabki shahar madaniyatning shakllanishi ham jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzliksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi uzoq va

bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. O'zbekistonning turli xududlarida tadqiqotchilar qadimgi shahar harobalarini topib tekshirdilar. Arxeologik topilmalarning dalolat berishicha bu ko'hna shaharlarning ba'zilarini yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqandda,) Qiziltepa (Surxon vohasida) Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo vohasida) va boshqalar kiradi. Tadqiqotchilarning keyingi xulosalariga ko'ra O'rta Osiyo xududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati mil. avv. II ming yillikdayoq ya'ni bronza davridayoq shakllana boshlagan. Bu shaharlar asosan aholisi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan vohalarda, qadimgi savdo yo'llari bo'ylarida, hukmdorlar qarorgohlari atrofida paydo bo'lgan. Qadimgi shaharlarni qishloqdan ajralib turgan bir qator belgilari bo'lgan. Bular; shahar mudofa devoriga ega bo'lishi, shahar markazidaark, bozor va diniy e'tiqod uchun sig'inish joyini mavjudligidir.

6. “Avesto” insonning ma'naviy hayotini shakllantirishdagi o'rni

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti turli davrlarda, turli makon va zamonda yuzaga kelgan katta siljishlar, g'oyaviy-ma'rifiy sakrashlar, kuchli ruhiy ta'sirlar orqali takomillashish jarayonini boshdan kechirgan. Qadimiy Turonda esa ana shunday holatlar va tub burilish hodisalari boshqa xalqlarga nisbatan birmuncha oldinroq, shaklan va mohiyatan birmuncha xilma-xilroq tarzda yuzaga keladiki, bu nafaqat ana shu hudud, balki butun dunyo xalqlari madaniy taraqqiyotida alohida voqea sifatida tan olindi va insoniyat taraqqiyoti silsilasida muayyan ijtimoiy-tarixiy rol o'ynadi.

Bundan uch ming yil ilgari qadimiy Xorazmda dunyoga kelgan “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida katta ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy voqealikka aylandi. Balki butun insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi, tasavvur va tafakkur olamining yangi sarchashmasi, inson, ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya, yashash zavqi va mohiyati bilan bevosita bog'liq yuksak insonparvar g'oya sifatida yuzaga keldi³.

“Avesto”ga binoan qadimda ham Movarounnahr va Xuroson xalqlari yashagan hududlarida ta'lim va tarbiya birmuncha rivojlanganligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo'lgan bilimlar o'qitilgan, hunarlar o'rgatilgan. Ana shu malakalari hosil bo'lgach, qizlar 15 yoshdan, o'g'il bolalar 17 yoshida “lagomzadan” va “zinzadan” imtihonidan o'tgan. Natijada ular balog'ot yoshiga yetgan, ro'zg'or yuritishni o'rganib, “kadbonu”, “kadxudo” bo'lish huquqini qo'lga kiritgan ekan.

Ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor berilib, otashkadalar huzurida maxsus maktablar ochilgan. Ta'lim jarayoniga endi matematika, astronomiya, tib bilimi, tarix, huquqshunoslik, gigiena fanlari ko'proq o'qitilib, yoshlarning ma'naviy kamolotiga ham alohida e'tibor berilgan. Ahuramazda tomonidan joriy etilgan farzlar hamda Zardusht o'gitlaridagi sunnatlarni to'la bajaradigan, har jihatdan

³ Avesto. –Тошкент: Фафур Фулом, 2015. - 4 бет

pok, yuksak ahloqli, ustoz fotahasini olgan dindor oq matodan chakmon, ko'ylak kiyib, ustidan yupqa xarir kamar bog'lab yurishi kerak bo'lgan. Bu odat yaqin XIII asrgacha saqlanib kelingan.

“Avesto”da ustozlar haqida alohida ta'kidlar berilgan. Yaxshi ustozlar “sog'lom aql xushli farzandlarni, jasur, dono va turli tillarni biladigan o'g'il-qizlarni, elni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarni, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlod”ni tarbiyalaydi. U yoshlar qalbida o'z dini, xalqi, yurtiga mehr uyg'otadi. Ularni halol mehnat evaziga rizq-ro'z topib yashashga o'rgatadi”, “Yaxshi ustozlar tangriga yaqin odamlardir”, deb yaxshi ustozlarni ulug'laydi.

“Avesto”da qiz bolalar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. “O'g'il bolalarga nisbatan qizlar ilmi donish o'rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Zeroki, ular ota-ona xonadonida bo'lgan vaqtlarida ota ro'zg'orini tartibga solib, ziynat berib borsalar, jufti xaloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi, ta'lim bilan, kelajak nasl tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi”.

SHu bilan birga yomon ustozlar haqida ham gapiriladi. “Yomon ustoz o'z loqaydligi bilan, farosatsizligi, uquvsizligi, hunarini, bilimini, malakasini takomillashtirish yo'lida zahmat chekmasligi bilan yosh avlodning, umuman, odamlarning zehnini zanglatadi. Iymon e'tiqodini zaiflashtirib, ma'naviy jihatdan qashshoqlashtirib qo'yadi. Johiliyat sari yetaklaydi. Odamlarning ijodiy mehnatini ko'ra olmaydi. Xalqning eng qutlug' an'analaridan mahrum etadi. Jahon xalqlari hayotini yolg'on gaplar bilan parishon qiladilar”⁴. Bunday faktlardan ko'rinadiki, qadimda ham ajdodlarimiz farzandlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berganlar. Kelajagimiz ko'zgusi bo'lgan farzanlarimizni ma'naviyatli-ma'rifatli qilib tarbiyalaganlar. Uy-ro'zg'or ishlarini to'liq o'rgatgandan keyin oila tayyorligini bilish uchun maxsus imtixonlardan o'tgan. Undan so'ng turmush qurishga tayyorligi ta'kidlangan. SHunday qiziqarli dalillarni hisobga olgan holda “Avesto” farzandlarimiz tarbiyasida ta'limning ahamiyati, ustozning yosh avlod tarbiyasida jamiyat oldidagi burchi, ma'suliyati haqidagi mulohazalari hozirgi turmushimizda ham o'z qiymatini yo'qotgan emas.

Hozirda ham farzandlarimizni jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega qilib tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni sportga keng jalb etish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, iste'dodli bolalar, o'smirlar va yoshlarni to'g'ri tanlash va izlab topishni tashkiliy jihatdan uyushtira bilish lozim⁵. Ularning iste'dod va qobiliyatini o'rganish, yuzaga

⁴ Hamidjon Homidiy “Avesto”dan “SHohnoma”gacha. –Toshkent: SHarq, 2007. - 67-73 betlar

⁵ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid

chiqarish, buyuk maqsadlar sari yo'naltirish alohida ijtimoiy ahamiyatga ega. Farzanlarimiz uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar berilgan. Foydalanishni bilgan yoshlarimiz juda katta yutuqlarga erishmoqda. O'zi, oilasi, davlati, jamiyati uchun kerakli munosib insonlarga aylanmoqda.

Yaqin yillarda farzandlarimizning ta'lim-tarbiya olishida asosiy bo'g'in xisoblangan ta'lim tizimida, sezilarli zalvorli katta islohotlar amalga oshirildi. E'tiborga molik islohotlardan maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi bo'ldi. Bu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, harakatlar dasturida yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog'chalar qurilishi, ta'lim-tarbiya sifatini yuqori bosqichga ko'tarish nazarda tutilgan. Buyuk mutafakkirimiz Yusuf Xos Xojib, "O'quv qayda bo'lsa ulug'lik bo'lar, bilim qayda bo'lsa buyuklik bo'lar", "Bolani bilimli qilmoqchi bo'linsa, unga yoshligidanoq bilim o'rgatib borish kerak", deb purma'no fikrlarini meros qilib qoldirgan⁶. Ta'lim-tarbiya davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi. Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida 11 yillik ta'lim olish qayta tiklandi. Chunki insonning eng asosiy jamiyatdagi o'rni yurakdan qilgan mehnati, ilmuma'rifati, hunari, chiroyli go'zal axloqi bilan belgilanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy hayotimizning qaysi jabhasini olmaylik, amalga oshirilayotgan xalqchil islohotlar amaliy tasdig'ini topmog'i uchun biz, siz- hammamiz uyg'oq qalb, uyg'oq ruh va uyg'oq dunyoqarash, ezgulik, yaxshilik bilan o'zgarishlarga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

3-Modul: O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

- 1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari.**
- 2. O'rta Osiyoda dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Baktriya, Xorazm, qadimgi So'g'd.**
- 3. Axmoniylarning O'rta Osiyoni bosib olishi va mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik kurash. Yunon-makedon koshinlarining Aleksandr Makedonskiy boshchiligida Urta Osiyoga yurishi. Spitamen boshchiligidagi xarakatlar.**
- 4. Yunon-Baktriya, Parfiya, Sug'diyona, Qang' va Davon davlatlari. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.**
- 5. Kushonlar saltanati va uning Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan alohida o'rni.**
- 6. O'zbek xalqining etnogenezi. "O'zbek" atamasi.**

Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. / - Toshkent: Ma'naviyat, 2017. 203-204 betlar.

⁶ 111 vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2012. 97 bet.

7. O'zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik holati va bu sohadagi o'zgarishlar.

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari.

O'rta Osiyoda davlatchilik eramizdan oldingi IX-VIII asrlarda vujudga keladi. Davlatning vujudga kelishiga sabab, dehqonchilik bilan chorvachilikning rivojlanishi bo'ldi.

Qadimgi, ya'ni ilk davlatlar mayda xududiy birlik, "madaniy xo'jalik tumanlari" sifatida bo'lib, ularning maydonlari 5-10 km² bo'lib, ular asosan dehqonchilik qilinadigan oazislarni o'z ichiga olgan odatda bu davlatlar tarkibiga aholi yashaydigan joylar, sug'oriladigan yerlar, sug'orish sistemalari hamda yaylovlar kirgan.

Davlatlarning asosiy vazifasi etib irrigatsiya ob'ektlarini qurish va ulardan foydalanishni ta'minlash, mamlakat ichida iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, qo'shni davlatlar va xalqlar bilan aloqalarni doimiy mustaxkamlab aholidan o'lponlar va soliqlar yig'ish qo'shinlarni talash maqsadida urushlar olib borgan, o'z chegeralarini tashqi dushmanlardan himoya qilish belgilangan edi. Xullas, yurtimizda tashkil bo'lgan qadimgi davlatlar vazifasini quyidagicha edi:

1. Jamoatchilik (boshqarish) faoliyati
2. Sotsial- iqtisodiy (xo'jalik) faoliyati
3. Harbiy (mudofaa) faoliyati
4. G'oyaviy (diniy) faoliyati

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Ma'lumki, mil. avv. II ming yillikka kelib qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida o'troq qabilalar rivojlanib, aholining joylashuv tizimi shakllanadi. Aholining alohida joylashuv manzilgohlarida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar-o'troq dehqonchilikning rivojlanshi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etish, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimining murakkablashib borishi, o'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharlarining paydo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Jamiyat hayotida sodir bo'lan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil avv. III ming yillikning ohiri – II ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham huddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqo'ton, Sopolli, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltintepa, Ulug'tepa kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining

shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi olimlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- Aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;

- Xunurmandchilikning rivojlanishi vaayrim sohalariga ixtisoslashishi;

- Qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;

- Tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Shahar madaniyati dastavval O'zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so'ngra esa shimolga So'g'd (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, SHosh va Farg'ona hududlariga tarqaldi. Bu-aynan yurtlar va xalqlar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyaga zid emas.

Ko'p sonli arxelogogik topilmalarning dalolat berishicha, O'zbekistondagi ayrim ko'hna shaharlarning yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo) kabilar kiradi. Qadimgi shaharlar-tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asos xisoblanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza (mil. avv. III- II yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk temir (III-IV asrlar) davrida shakllanib rivojlandi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o'rta) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar-Misir (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Hozirgi kunga kelib, O'rta Osiyoning juda ko'plab bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopolli, Jarqo'ton, Anov, Qiziltepa, Qo'zaliqir, Afrosiyob, CHust, Dalvarzin, Daratepa va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollar topib o'rganilgan. Metall qurollarining mehnat qurollari sifatida jamiyat keng yoyilish mehnat unumdorligining yanada yuksalishi uchun o'lgan imkoniyatlar yaratib, bu jarayon davlatchilik paydo bo'lishini yanada tezlashtirdi.

So'nggi bronza davriga kelib kulolchilik charxining ishlatila boshlanishi natijasida Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo'rg'on kabilarda kulolchilik mahallalari paydo bo'ladi. SHuningdek, xunurmandchilikning toshga, metallga, yog'ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. Hunurmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib davlatchilik paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turki bo'ldi.

O'rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o'zaro munosabatlarini rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib, shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayriboshlash va madaniy aloqalar yanadajadallashdi. Bu o'rinda o'sha davrda shakllanib keyinchalik yanada rivojlangan qadimgi yo'llarning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Bu yo'llar orqali O'rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo'shni davlatlar Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, Afg'oniston kabilar bilan turli aloqalar rivojlantirilgan.

2.O'rta Osiyoda dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, Qadimgi So'g'd.

Bronza davriga kelib aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga–dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi o'z navbatida mahsulot hajmining o'sib, qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Demak, qadimgi xo'jalikning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikka turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etish natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi. O'rta Osiyoning janubida joylashgan o'nlab yangi tipdagi vohadavlatlar so'nggi bronza va ilk temir davrida (ITD 1) ba'zan yirik siyosiy birlashmalar-podsholikkarga birlashar edilar. O'rta Osiyo janubida bular Baqtriya, Marg'iyona va "Katta Xorazm" edi.

"Avesto"da O'rta Osiyodagi, shu jumladan, O'zbekistondagi ko'plab jug'rofiy nomlar va xalqlarning nomlari tilga olinadi. Unda shunday deydilar: "eng yaxshi yerlar va mamlakatlarning birinchi qilib, men Axura, Mazda, Ar'yanem Vaychaxni yaratdim... Yaxshilarning ikkinchisi so'g'dlar yashaydigan Gava... yaxshilarning uchinchisi.. Mauru (Mavr)... yaxshilarning to'rtinchisi.. Bahdi (Baqtriya)... Beshinchisi mamlakat-Nisoya (Niso)... " va hokazo. Hammasi bo'lib "Avesto"da 16 ta mamlakat sanab o'tiladi, ular orasida Ar'yaem Vaychax, Sug'd (Gova), Baqtriya va Marg'iyondaaniq lokalizatsiyaga egadir.

"Ar'nem Vaychax" - "ariy kengliklari" degan ma'noni anglatadi. Ko'p tadqiqotchilar uni Xorazm deb tushunadilar. Lekin tadqiqotchilar uni Xorazm deb tushunadilar. Lekin boshqacha nuqtai nazar ham bor. Masalan, I.M.D'yakonovning fikricha "oriylar kengliklari" bu o'rinda bir mamlakat yoki viloyat tushunchasidan ko'ra kengroq ma'noda qo'llagan va butun O'rta Osiyoda dastlabki yirik davlat birlashmalaridan biri Qadimgi Baqtriya podsholigi edi. "Avesto"da Baqtriya "Go'zal, tug'lari yuksak ko'tarilgan" deb tasvirlanadi. "Avesto"da olingan mamlakatlardan yoki markazlardan biri Bahdi deb ataladi, o'sha yerda "araxtra" atamasi ham uchraydi, ehtimol, bu "baxtar"

atamasiga mos kelsa kerak. Baqtriya haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar ahamoniylar bitiklarida, xususan, dunyoga mashhur Naqshi Rustamdagi Behistun qoyasida uchraydi.

Perespolda Baqtriyaliklar 15 joyda idish ko'targan holda va ikki o'rkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlangan. Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Ahamoniylar imperiyasining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. U haqidagi eng hilma-hil ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilari - Geradot, Ktisey, Strabon, Diodot, Pliniy, Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Skilat va boshqalarning asarlari mavjud bo'lib ular mazkur mamlakatning qadimiyligi va madaniyatining yuksak saviyasini ta'kidlaydilar. Masalan, Ktisey Ossuriya podshosi Ninaning Baqtriyaga qilgan yurishi Baqtriya podshosi Oksiart va uning xazinasi haqida xabar beradi. Ktisey tomonidan tasvirlangan xalqlar orasida baqtriyaliklar birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Baqtriyalik o'zini esa Sharqqa joylashtiradi.: G'arb tomonidan Baqtriya "tekisligiga" boradigan yo'lni "tog'lar" to'sib turadilar, ularni faqat "dovonlar" orqali o'tib boriladi. Baqtriya Tnaisdan Xind daryosigacha cho'zilgan, Tanis uni Yevropadan ajratib turadi, Hind daryosi esa - Hindistondan. Gerodot "Tarix" asarida Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan 20 satraplik va 70 xalqlarning ro'yxatini keltiradi. Ular orasida Amudaryo qirg'oqlarida joylashgan mamlakat – Baqtriya va baktriyaliklar bor.

"Baqtriya" nomi Esxillning eramizgacha bo'lgan 472 yilda sahnaga qo'yilgan "Forslar" tragediyasida hamda Gekatey, Skilak asarlarida uchraydi. Strabon Baqtriyani Ariananing javohiri sifatida ta'riflaydi. Baqtriyaliklarga esa ko'plab mualliflar "ko'p sonli", "jangovor", va "botir" xalq sifatida bir xil tavsif beradilar. Mamlakatda mustahkamligi sababli "zabt etib bulmaydigan" ko'plab joylar, shu jumladan, poytaxt Baqtra (Balx) bor edi.

Geradot ahamoniylar podshosi Kir Midiyaning bo'syundirgandan so'ng uning yo'li ustida Vavilon, Baqtriya xalqi, saklar-massagetlar konfederatsiyasi Misr yoki Bobil singari eng yirik davlatlar bilan bir qatorda turgan. Aftidan, Baqtriya tarkibiga, bir muncha vaqt Marg'iyona Sug'd va hatto Areya ham kirgan va bu arxeologik topilmalar tomonidan tasdiqlangan.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoning janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Qadimgi Baqtriya hududidan o'ttizdan ziyod Ahamoniylar davriga oid manzilgohlar ochilgan. Ularning har birida o'zlashtirilgan maydonlar va sug'orish tartibidan tashqari turar joylar va xo'jalik xonalari, mehnat va harbiy qurollar, kulolchilik buyumlarining qoldiqlari mavjud edi.

Qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon, manzilgohidan ko'plab mehnat qurollari-o'roqlar, yorug'choq va dehqonchilik dalolat berib, dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslanganligini ko'rsatadi.

Baqtriyaning poytaxti qadimgi Baqtra (hozirgi Balx) shahrida qazish ishlari olib borilib, u yerdan topilgan kulolchilik buyumlari ko'xna shahar eng

qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi 1 ming yillikning o'rtalariga oid ekanligidan dalolat beradi.

Juda ko'p o'troq manzilgohlari va ulardagi topilmalar viloyatdaaholi kulolchilik, temirchilik, bronza quyish, to'qimachilik, shuningdek sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi.

Xuddi shu davrda O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan davlat qadimgi Xorazm davlatidir. Bu davlatning hududi haqida 2 ta nazariya mavjud:

Kichik Xorazm. Uning hududi S.P.Tolstov fikricha Amudaryoning o'rta oqimida to Orol dengizgacha bo'lgan yerlardan iborat (ya'ni hozirgi Xorazm viloyati yerlari).

Katta Xorazm – Amudaryoning quyi oqimi bo'yidagi hamda Murg'ob daryosi bo'yidagi yerlar, shuningdek, Parfiya podsholigi (hozirgi Turkmaniston) yerlari. Katta Xorazm davlati uning hududlari haqida Geradot ma'lumot beradi: "Osiyodahamma tomoni tog'lar bilan o'ralgan tekislik bor. Bir vaqtlari bu tekislik Xorazmiylarga qaragan" SHuning bilan birga Geradot sharqiy Eron qabilalarini birlashtirgan katta davlat uyushmasi- "Katta Xorazm haqida taxmin qiladi". "Katta Xorazm" davlati Xorazmning o'zini xududigina o'z ichiga olmasdan uning markazi Marv va Hirotgacha cho'zilgan bo'lgan. Hali Geradotgacha ham "Katta Xorazm" to'g'risida ma'lumot bergan yana bir grek muarrix, bu Gretsiyaning Mulet shahridan bo'lgan Gekateydir (eramizdan oldingi 500 yillarga yaqin). U ham bir qismi Parfiyaliklardan Sharqiy tomondagi tekisliklardir, ikkinchi qismi tog'li yerlardan yashagan Xorazmiylar to'g'risida eslatib o'tadi.

Xorazmliklar o'zlarining zargarlik, kulolchilik, qurolsizlik, qiruvchilik hunarlari bilan mashhur bo'lganlar. SHuningdek, ular ustasi farang dexqonlar bo'lishgan. Xorazm shaharlarida savdo-sotiq rivojlangan bo'ldi.

"Xorazm" so'zi va xorazmliklar to'g'risida ilk yozma manbalar, qadimgi yunon tarixchilari miletlik gekatiy (eradan oldingi VII asrning ohiri-VI asrning boshlarida yashab o'tgan) va "tarixning otasi" deb nom qozongan Gerodot (eradan oldingi V asrlarda) asarlarida ilk bor uchraydi. Bu tarixchilarning guvohi berishicha, o'rta va quyi Amudaryo mintaqasida beshta yirik qabilalardan iborat qabilalar ittifoqi mavjud bo'lgan, bu qabilalar derbiklar, saqoravaglar, xorasmiya, xaumvaraga, saki va sian qabilalari deb atalib, ittifoqning markazida o'rtoqlashgan madaniyatga ega bo'lgan xorasmiya qabilasi turgan.

Atoqli olim S.P.Tolstov "Xorazm-Xvari-zamin-Xvarri qabilasining yeri, degan ma'noni bildiradi deydi. B.Grekov "Xorazm" so'zi ikki qismga bo'ladi: "hur-zamin, xur-hurshid-oftob-quyosh, zamin-er, ya'ni "Xorazm" quyosh o'lkasi degan ma'noni beriladi, deydi. Olim shu mulohazasini tasdiqlash uchun "Xuroson" so'zini ham ikkigaajratib, xur-oson kun chiqadigan tomon, ya'ni sharq degan ma'noni bildiradi, deydi.

Xorazm so'zining asl ma'nosini tushuntirishga, uning qadimiy madaniyatini yoritishga mashhur arab sayyohi Yoqut Hamaviy va buyuk sharqshunos olim V.V. Bartol'd ham harakat qilganlar.

Yoqut Hamaviy o'zining o'lmas asari "Ma'jam al-buldon" ("Mamlakatlar lug'ati") asariga Xorazm va uning shahar, qishloqlari haqida o'z davrganisbatan to'liq va qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, "Xorazm" so'zi haqida bunday deydi: "Xorazm bu muayyan bir shaharning nomi emas, balki o'lka nomidir. Uning katta shahari al-Jurjoniya deb ataladi"

Yoqut Hamaviyning bu fikridan "Xorazm" so'zi ma'lum hudud nomi bilan bog'liq, degan fikriga kelish mumkin. Shuningdek "Xorazm" so'zining kelib chiqishi tarixi va mazmuni haqida gap ketganda shuni qayd etish zarurki, bu masalada Eron tillarining ham ta'sirii bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas. Akademik V.V. Bartol'd o'z ijodida O'rta Osiyo xalqlarining tarixini, jumladan, Xorazm tarixini o'rganishga salmoqli o'rin bergan. U Xorazm so'zining etimologiyasi haqida fikr yuritib, shunday deydi: "Beruniy keltirgan kalendar terminlar, bayram nomlari va boshqalar bir vaqtlar Xorazmda Eron dialektida gaplashilgani haqida ba'zi bir tasavvurlar beradi. Masalan, "Gau xovara" so'zi Gau-sigir, Xovara-em, yemish ma'nosida keladi". Bu fikrlardan qaysi biri haqiqiy ekanini aytish keyin albatta qadimgi Xorazm tarixini yoritishga yirik o'zbek arxeolog olimlardan akademik Yahyo G'ulomovich G'ulomov samarali hissa qo'shgan. U o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi choragida Xorazmda katta suv inshootlari qurilib, shaharlar hayoti barq urgani va mustaqil Xorazm davlati gullab-yashnagani haqida yozadi. O'tmishdagi ko'pgina tarixchilar Xorazmda istehkomlari bor shaharlar mavjud bo'lganligi to'g'risida ma'lumot beradilar. Xususan tarixiy manbalarda Xorazmning qadimiy poytaxti Kot (hozirgi Beruniy shahri), Gurganj (Ko'hna Urganch), Xiva, Hazorasp va boshqa shaharlar haqida ma'lumotlar bor. Arxeologik qazishmalar jarayonida Xorazm hududida topilgan va o'z hajmi, ishlanish san'ati bilan kishini hayratga soluvchi qal'alar, saroylar va boshqa inshootlarning juda ko'p xarobalari bu ma'lumotlarni yana bir qarra tasdiqlaydi.

Xorazm hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar va tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, bu qadimiy tuproqda kishilar ancha ilgari o'troq hayotga o'rganib, davlat barpo qilganlar.

Yuqorida eslatilgan viloyatlardan tashqari Sug'diyona (Qashqadaryo va Zarafshon vohalari), Marg'iyona (Murg'ob daryosi vohasi) kabi yirik davlat uyushmalari ham bor edi. Bu viloyatlarning aholisi o'troq hayot kechirib dehqonchilik, uy chorvachiligi va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Markaziy Osiyoda eng qadimgi davlat uyushmalarining paydo bo'lishi juda muhim masaladir. Davlat tuzimi vujudga kelishini yoritib beradigan asosiy yozma manba "Avesto" va qadimgi dunyo mualliflari qoldirgan ma'lumotlardir.

Miloddan avvalgi VI—IV asarlarda eronchilik So'g'uda deb atalgan davlat haqida fors podsholari yozuvlari, yunon-rim tarixchilarning asarlari ma'lumotlar

beradi. Ahmoniyalar davrida So'g'diyonada (Zarafshon va Qashqadaryo vohalari) ko'plab shahar va qishloqlar bo'lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to'lab turardilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan miloddan avvalgi VI—IV asrlarga oid Uzunqir, Yerqo'rg'on, Daratepa, Sangirtepa, Lolazor, Xo'jabo'ston, Afrosiyob, Qorovultepa, Qo'rg'oncha kabi 50 dan ziyod ko'hna shahar shahar va manzilgohlar ochib o'rganilgan.

So'g'diyonaning poytaxti bo'lgan Afrosiyob (Samarqand) ko'hna shahri XX asrning 40-yillarridayoq ochilgan edi. Afrosiyobda miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida aholi yashaganligining izlari juda ko'p. Ko'hna shahar aholisi asosan xunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Afrosiyob atrofidagi aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, dushman hujum qilgan paytlarda ular chorva mollarini va mol-mulklarni qal'a ichida saqlaganlar.

Afrosiyob shahar hayotning rivojlanishi Sug'diyona va butun Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi va inqirozi bilan muvofiq tarzda kechgan, chunki Samarqand o'sha davr mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning muhim markazi edi. Samarqand jahon savdo va madaniy markazlaridan biri sifatida o'z mavqeini to'la darajada, lekin uzilishlar bilan o'rtaasrlarda ham saqlab qoldi.

Sug'diyonaning "ikkinchi poytaxti" bo'lgan Yerqo'rg'on (Qashqadaryo) tadqiqotlari dastlab M.E.Masson tomonidan boshlanib, keyinchalik uning shogirdlari tomonidan davom ettiriladi. Miloddan avvalgi VI—IV asrlarda umumiy maydoni 40 gektarga yaqin bo'lgan ma'muriy markaz Yerqo'rg'onni ko'pchilik tadqiqotchilar Yunon-rim tarixchilari tomonidan eslatilgan Ksenippa viloyatining markaziy shahri deb xisoblaydilar. Yerqo'rg'on ko'hna shahridan topilgan moddiy madaniyat buyumlari aholining dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

So'g'diyona hayotida dehqonchilik kattaahamiyat ega edi. SHunisi muhimki, dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib bu haqda yozma manbalardan ma'lumotlar olishimiz mumkin. Strabonning yozishicha, Politimen (Zarafshon) daryosi vohadagi eng katta suv manbai bo'lib, sug'oriladigan yerlarga kanallar orqali suv chiqarilgan.

Qishloqlarning rivojlanishi natijasida shahar ko'rinishidagi manzilgohlar va shaharlar paydo bo'la boradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Xo'ja-Bo'ston, Uzunqir So'g'diyonadagi asosiy markazlar bo'lib, bu ko'hna shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq ayniqsa rivojlanib borgan.

3. Axmoniyalarning O'rta Osiyoni bosib olishi va mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi. Yunon-makedon koshinlarining Aleksandr Makedonskiy boshchiligida Urta Osiyoga yurishi. Spitamen boshchiligidagi xarakatlar.

Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Axmaniylar davlatiga (mil avv.558-330 yy) qadimgi fors qabilalari ittifoqi boshlig'i Kir11 asos solgan. Xind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini shuningdek Misr, Midiya, Bolqon yarim orolining bir qismini bosib oladi. Kir O'rta Osiyo yerlariga yurish qilishga maxsus tayyorgarlik ko'radi. Kirning O'rta Osiyoga birinchi xarbiy yurishlari mil. Av. 545-539 yillarni o'z ichiga oladi. Uning O'rta Osiyoga ikkinchi yurishi 539-530 yillarni o'z ichiga oladi. Turonning tabiatdan erksevar, yurtparvar xalqlari o'z ona yurtlarini mardonovor ximoya qiladi. Bu esa Kir11 ning qayta-qayta bu hududga katta qo'gshin bilan bostirib kelishga majbur etgan. Axamaniylarning yurishiga doir ma'lumotlar Yunon va Rim mualliflaridan Geradot Yustin, Strabonlarning yozuvlarida ko'p uchraydi. Eron shoxi bilan massagetlar malikasi mard va jasur ayol To'maris o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro urushi yakunlariga oid Gerodot ma'lumotlari alohida e'tiborga molik. Uning ta'kidlashicha, "Mening bilishimcha bu jang barcha janglardan ham dahshatliroq edi. Avval ikkala qo'shin bir-birlariga uzoq masofadan turib kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ikki dushman kuchlar nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat massagetlar g'alaba qozondidilar. Fors qo'shinarining katta qismi, jumladan, Kir ham jang maydonida xalok bo'ldi". Ma'lumotlarning so'ngida Gerodot "Kirning o'limi haqida ko'p hikoyalari orasida, menimcha, bu eng ishonchlisidir", deya xulosa chiqaradi. 200 minglik katta jangovar qo'shin tuzib To'maris yurtiga kelgan Kir 2 harbiy maxoratda tengsiz bo'lgan massaget qabilalarini ochiq jangda yengish qiyinligini his etib, turli nayranglar ishlatishga urinib ko'radi. Shu maqsadda To'maris huzuriga elchilar yuborib, unga uylanmoqchi ekanligini bildiradi, lekin bu nayrangi natijasiz chiqadi. Kir 2 shundan so'ng yana xiyla ishlatib, To'marisning jasur o'g'li Spargalisni asirga oladi va oqibatda u o'zini halok etadi. Yagona farzandidan ayrilgan ona nafrati, buning ustiga el yurt ozodligini har narsadan a'lo bilgan To'maris Kir qo'shiniga qarshi jangga tayyorgarlik ko'radi. Butun vujudi bila massagetlar g'arnimlarga qarshi jang boshlaydi va massagetlarning g'alabasi bilan yakunlanadi. Kir ham jangda haloq bo'ladi bu miloddan avv. 530 yilga to'g'ri keladi.

Axomoniylar shoxi Dorol (522-486) davrida Turon hududlari bosib olinadi. Tarixiy ma'lumotlar bo'yicha Dorol 519-518 yillardagi xarbiy yurishlar davomida sak qabilalarini qiyinchilik bilan yengib, itoatga keltirgan. Eron axomoniylariga qarshi O'rta Osiyoning Parfiya, Marg'iyona hududlarida Saklar o'lkasida ko'plab xalq qo'zg'olonlari bo'lgan. Eron hududidan topilgan Bexiston yozuvlarida mil. avv. 522 yilda Marg'iyonada ko'tarilgan kuchli xalq qo'zg'olonlariga Frada degan shaxs yetakchilik qilishgan. Dorol 1 qo'shini qo'zg'olonchilardan o'ch olishadi, 55 ming qo'zg'olonchi qatl etiladi, 7 mingga yaqin kishi asir olinadi. Frada ham qo'lga olinib qiynoq bilan o'ldiriladi. Qadimgi davr muallifi Polien, jasur Shiroq obrazi bilan saklarning ahmoniytlarga qarshi qahramonona kurashini hikoya qiladi. Bularning barchasi

mahalliy xalqlarning ajnabiy bosqinchilar zulmiga bo'yin egmay o'z erkinligi uchun tinimsiz kurash olib borganligini ko'rsatadi. Mil. avv. 4 asrga kelib Eron Axamoniylari hokimiyati kuchsizlanib, zaiflashib qoladi. Bunday sharoitda Xorazm birinchi bo'lib o'z mustaqilligini tiklaydi. Usta diplomat moxir siyosatchi Farasman mil. avv. 4 asrda Xorazm mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlay boshladi. O'lkaning boshqa hududlarida ham ozodlikka chiqish kuchayib, qattiy kurash harakatlari keng avj oldi.

Ko'pgina manbalarning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyoning katta qismi Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bular, Midiya, Elam, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, Saka Xamuvarka, Saka Tigraxauda yerlari kirgan. Gerodotning aytishicha, Doro 1 ahmoniylar davlatini 20 ta o'lkaga bo'lgan.

Ahmoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlarining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. M. Avv. 6-4 asrlarda Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona va Farg'ona vohalarida ko'plab shahar va qishloqlar bo'lgan. Yirik shaharlar Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Ko'zaliqir qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, ular viloyatlar va dehqonchilik tumanlarining ma'muriy va iqtisodiy markazlari vazifasini bajarganlar. SHaharlarda kulolchilik, temirchilik, bronza quyish, to'qimachilik va savdo sotiq rivojlangan. Bu davrda O'rta Osiyoda Oromiy yozuvi tarqaladi. Oromiy yozuvidan 4 ta mahalliy yozuv ajralib chiqdi. Bu parfiya, so'g'd, baqtriya va Xorazm yozuvlari bo'lib, O'rta Osiyo hududida arablar kelgunga qadar saqlanib qoldi. m. avv. 6-4 asrlardahunarmanchilik va savdo sotiq munosabatlarining rivojlanishi natijasida O'rta Osiyo xalqlari ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar va muomala qildilar. O'rta Osiyo hududidan ahmoniylar pul tartibiga oid tangalar topilgan.

Aleksandr Makedonskiy (miloddan avvalgi 356-323-yy) ning O'rta Osiyoga yurishi miloddan avvalgi 329-yilning baxor faslida boshlandi u tez fursat ichida Eronni, sung Baqtriya bilan Sogdionani buysundirdi. Miloddan avvalgi 329 yili Aleksandr Makedonskiy kushonlari Oks-Amudaryodan o'ta boshladi. Kushonlar olti kun deganda ular kechuvdan o'tib bo'ldilar, yunon bosqinchilari O'rta Osiyoni juda osonlikcha qo'lga kiritishni mo'ljallagan bo'lsalarda ular xisob kitob va rejada yanglishgan edilar. Aleksandr kushonlariga birinchi zarba Ariana(xozirgi Xisor viloyati)da berildi. Shimoli – sharqiy viloyatlar-Girkaniya Ariya, Parfiya, Baqtriya va Sugdionani bo'ysundirish uchun uch yil vaqt kerak bo'ldi. Ayniqsa Baqtriya va Sugdionani qo'lga kiritish Aleksandr uchun juda qiyin kechdi. O'rta Osiyo xalqlari erk va ozodlik uchun kurashga otladilar. Ahamoniylarning qo'shinlarini uch marta mag'lub etgan Aleksandr O'rta Osiyoda mislsiz katta qiyinchiliklarga duch keldi.

Bosqinchilarga qarshi umumxalq urishi e'lon qilgan baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar va saklar uch yil davomida dushman bilan mardonovor jang qildilar. Ayniqsa Samarqandni egallash oson kechmagan, buning uchun ikki yil kerak bo'lgan. Dastlab makedonlar bu shaxarni sulx yo'li bilan egallaganlar

so'ng Aleksandr bu yerda kichik bir lashkar guruxini qoldirib o'zi Sirdaryo tomon yo'l olgan.

U O'rta Osiyoda birinchi bor Ustrushonada-Samarqand bilan Xo'jand oralig'ida tog'liklarning qattiq qarshiligiga duch qeldi. Tog'liklar bilan bo'lgan jangda Aleksandr mislsiz darajada shavqatsizlik qilgan. Arian bergan ma'lumotlarga qaraganda u 30 ming mahalliy aholidan 22 mingini qirib tashlagan. Bunday daxshatli voqealar Spitamenga saboq bo'ldi va u Aleksandrga qarshi kurashga otladi. Aleksandr jang bilan tog'liklarni qirib Sirdaryo bo'ylariga chiqib oladi. Bu yerda Aleksandrni do'stlarcha sovg'a-salomlar bilan To'maris kutardi. Aleksander sak elchilarini garovda qoldirib, o'z odamlaridan bir kishini To'maris ortidagi saklar yurtiga ayg'oqchilik maqsadlarida yuboradi. Huddi shu paytda Aleksandrga Samarqanddan chopar kelib Spitamen boshchiligida shaharda unga qarshi qo'zg'olon ko'tarilganligi haqida xabar beradi.

Millodan avvalgi 328 yilda Aleksandr Spitamen boshchiligida Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olanni shavqatsizlik bilan bostirdi.

4.Yunon-Baqtriya, Parfiya, Sug'diyona, Qang' va Davon davlatlari. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.

Mahalliy xalqlarning mustaqillik uchun to'xtovsiz kurashlari sabab milodan avvalgi III asrning o'rtalarida boshlab Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib mustaqil bo'ldilar.

Shunday qilib O'rta Osiyoni grek-makedonlar tomonidan bosib olishini bu yerda ellinistik davlat deb tarixda nom olgan davlatni tuzilishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham Iskandarning yurishi vasalavkiylar hukmronligi davri milliy davlatchiligimizni rivojlanishid antik (qadimgi) yoki ellinistik davr deb ataladi.

Milodan avvalgi 250 yillar arafasida Baqtriya hukmdori Diodot o'zini salavkiylar davlatidan mustaqil qila boshladi. Biroq u salavkiylar davlati bilan aloqani darhol uzmani va o'zining faoliyatida salavkiylarga qarashligini yuzaki bo'lsada ko'rsatib siyosat yurgizdi. Biroq uning o'g'li Diodot II o'zini salavkiylardan mustaqil podsho deb e'lon qildi. Shu tariqa Baqtriya yeparhiyasi (satrapligi) o'rnida Yunon-Baqtriya podsholigi vujudga keldi. Bu podsholik 100 yildan ortiqroq hukm surdi. (milodan avvalgi 250-140 yoki 130 yillar). Uning hududiga Sug'd, Baqtriya, Mirg'iyona yerlari hamda Parkana va Chochni bir qism yerlari kirgan.

Yunon-Baqtriya davlatida Diodot II dan keyin Yevtidem Demetriy (milodan avvalgi 199-167 yillar) Yevkratitlar hukmronlik qiladi. Bular davrida o'zaro urushlar ko'chaydi.

M.Evratit davrida So'g'd, Yunon-Baqtriya davlati tarkibidan chiqib ketadi.(milodan avvalgi 160 yillarga yaqin) va keyinchalik Xorazm tarkibiga kiradi. Huddi shu vaqtda Parfiya podshosi Mitridat I Baqtriyaga qarshi urush boshlaydi. Yevkraditni o'zi esa Xindistonni shimoliy qismini buysundirib kelayotganda o'z o'g'li Galiak tomonidan o'ldiriladi.

Shunday keyin asta-sekin Yunon-Baqtriya podsholigining inqirozi boshlandi (miloddan avvalgi II asr o'rtalarida)

Kuchsizlanib qolgan Yunon-Baqtriya davlatiga O'rta Osiyoda yashovchi ko'chmanchi qabilalar-yuechjeylar miloddan avvalgi 140 va 130 yillar o'rtasida, hujum qilib, uni ag'dardi. Umuman olganda yuechjeylar O'rta Osiyoda yunon-makedonlar hukmdorligini tag-tomiri bilan ag'darib tashladilar. Miloddan avvalgi II asrning ohirgi choragida Amudaryoning shimolidagi hududlarining barchasi yunon hukmdoridan ozod etildi. Miloddan avvalgi. I asrning o'rtalarida eng ohirgi Yunon-Baqtriya davlati yerlari yuechjeylar tomonidan bosib olingan va yo'q qilingan edi.

Parkana davlati (Davan). Mil. avv. II-I asrlar Xitoy manbalarida keng, boy va ko'p aholili deb eslatilgan Davan davlatini tadqiqotchilar qadimgi Farg'ona deb hisoblaydilar. Mil. avv. III asrlarda bu davlat "Davan", keyinroq esa "Boxan" va "Polona" nomlari bilan eslatiladi. "Polona" bu, shubhasiz "Farg'ona"ning xitoychada talaffuz etilishidir. Xitoy ma'lumotlariga ko'ra mil. avv. II asrda Farg'onada 300 ming aholi yashagan. Vohada shaharlar ko'p bo'lib, poytaxti Ershi shahri (hozirgi Marhamat) edi. Qadimgi farg'onaliklar haqida: "odamlari chuqur ko'zli va sersoqol; savdo-sotiqda mohir, xotinlarni hurmat qiladi. Xotinning aytganini eri albatta bajaradi", -deb ma'lumot beradi.

Davan qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan mamlakat edi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi arpa, sholi, beda kabi turli ekinlar ekanlar. Shuningdek, ular uzumchilik ham qilganlar. Vinoni katta sopol xumlarda uzoq yillar saqlashni ham bilganlar. Xitoy sayyohi Chjan Tszyan (mil. avv. II asr) ma'lumotlarga ko'ra "Davan mamlakatida hamma joyda uzumdan vino qiladilar. Badavlat oilalar vinoni juda ko'p miqdorda zahira qiladilar va bu vino o'nlab yillar davomida buzilmay saqlanadi". Farg'ona vodiysida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Chjan Tszyan Davandan olgan taassurotlari haqida gapirar ekan, ularning madaniy saviyasi, urf-odatlarini jihatdan bir-birlariga teng ekanliklarini ko'rsatadi. Demak, xitoy sayyohi Farg'onada ham o'troq aholini uchratgan va bu aholining dehqonchilik sohasida erishgan yutuqlari uni hayron qoldirgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi bilan bir qatorda, Farg'onaning cho'l va dasht hududlarida ko'chmanchi chorvador aholi ham yashagan. Manbalar bu ko'chmanchilarning ot ustida turib kamon otishga juda mohir ekanliklari haqida eslatib o'tadi.

O'sha davrda Davan davlati o'zining "afsonaviy" va "samoviy" otlari bilan shuhrat qozongan. Davan arg'umoqlari mamlakatdan tashqarida ham, ayniqsa Xitoyda juda ham qadrlangan. Xitoyliklar Farg'ona otlarini ilohiylashtirish darajasiga borib yetganlar.

Mil. avv. II asrning oxirlari Xitoy imperatorlari Davanni bosib olishga harakat qiladilar. Davan xalqi bosqinchilarga qarshi uzoq muddatli og'ir urushlar olib bordi. Mil. avv. 104-101 yillarda Xitoy imperatorining 60 ming kishilik qo'shini Davanga bostirib kiradi. Manbalarga qaraganda "Bir necha o'n

ming kishilik xitoylik yosh jangchilar” bu qo’shinga yordamchi kuch sifatida qo’shiladilar. Dastlabki hujum Xitoy imperatori qo’shinlarining mag’lubiyati bilan yakunlanadi. Xitoy qo’shinlari o’tib bo’lmas istehkomga aylantirilgan Davan qal’alari qarashligini sindirishga ojizlik qiladilar.

Miloddan avvalgi 101 yilda ko’p ming kishilik imperator qo’shinlari Davanga ikkinchi marta yurish qiladilar va Ershi shahrini qamal qiladilar. Ularning bu safargi urinishlari ham muvaffaqiyatsiz kechadi. Ershi aholisi bo’ysunishni xohlamagach, xitoyliklar shaharga keladigan suv yo’llarini berkitib qo’yadilar. SHahar aholisi esa o’zlari qazigan quduqlardan suv olib, himoyani mardonavor davom ettiradilar. Shunday sharoitda Davanning o’sha paytdagi hukmdori Mug’va qo’shni davlat hukmdorlardan yordam so’raydi.

Qattiq qarshilikka uchragan xitoyliklar Davandan chekinishga majbur bo’ladilar. Lekin Davanga “samoviy” arg’umoqlar berish majburiyatlarini qo’yadilar. Bu majburiyatni bajarish borasida davanliklar orasida nizo chiqadi va natijada Mug’va o’ldiriladi (aftidan u xitoyliklarga soliq to’lashga qarshi bo’lgan bo’lsa kerak). Xitoyliklar bir necha o’n “samoviy” arg’umoq va 3 mingta boshqa otlarni olib Davanni tashlab chiqadilar.

SHunday qilib, qo’shni davlatlar tomonidan qo’llab-quvvatlangan Davanliklar mil. avv. II asrda Xitoyliklar ta’siriga tushmasdan o’z mustaqilliklarini saqlab qoldilar. Davan davlatining keyingi taqdiri haqida ma’lumot deyarli yo’q. Ayrim rivoyatlarga ko’ra milodimizning II asrida bu davlatni ko’chmanchilar egallagan.

5. Kushonlar saltanati va uning Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan alohida o’rni.

Kushon davlatining paydo bo’lishi uzoq vaqt olimlar orasida katta ilmiy munozaralarga sabab bo’lib kelganlar. Bu afsonaviy tuyulgan podsholik tarixini o’rganish o’tgan asrdayoq boshlangan edi.

O’tgan asrda London va Parij, Vena va Peterburg tangashunoslari qo’liga badjahl va sersoqol SHarq podsholari vaantik davr xudolaritasvirlagan tangalar tusha boshladi. Ularda yunon alifbosida, noma’lum tilda yozuvlar yozilgan edi. SHuningdek, ingliz ofitserlari, vrachlar va sayohatchilar Hindistonning Shimoli-g’arbiy rayonlaridan antik davrga oid sharqiy uslubda ishlagan haykalchalar va turli buyumlar topib ola boshlaydilar.

Mil. Avv I asrga kelib Katta Yuechji uyushmasidagi beshta hokimlikda Guyshuan (Kushon) hokimligi anchako’chayib va huddi kengayib bordi. “So’ngi Xan sulosasi tarixi” (Xitoy) ma’lumotlarga ko’ra, “Guyshuan hokimi Kiotszyukyu qolgan to’rtta hokimlikni birlashtirib o’zini Guyshuan hokimi deb e’lon qilindi”.

Kiotszyukyu (Kudzula Kadfiz) hamma mulklarni birlashtirib, Qobuliston va Qandaxorni zabt etadi. Milodiy I asr boshlariga kelib Qushon davlati o’z ahamiyatiga ko’raantik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va

zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi “Guyshuan hokimi Kiotszyukyu”, ilk kushon davriga oid topilma tangalardaaks ettirilgan “Kushon podshosi Kudzula Kadfiz” gaaynan mos tushadi.

Kudzula Kadfiz yoki Kadfiz I o'z podsholik siyosatini hokimiyat yerlarini kengaytirish bilan boshlaydi. Uning davrida Kushon davlati yerlari anchagina kengaydi. Kadfiz I hukumronlik qilgan davr Kushon podsholigi haqida tangashunoslik tadqiqotlar orqali birmuncha ma'lumotlar olish mumkin. Ba'zi bir guruh tangalar borki, ularning bir tomonida eng so'nggi Yunon-Baqtriya podshosi Germey tasviri tushirilib, uning nomi yozilgan, ikkinchi tomonida esa, Gerakl siymosi va “o'z ishonchiga qat'iy kushonlar yobg'usi Kujula Kadfiz” degan so'zlar bor.

Tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, keyinroq Kadfiz I o'z nomini “yobg'u” dan “shohlar shohi” faxri unvoniga ko'tarib tangalar zarb etadi. Yana bir guruh Markaziy Osiyodan (ko'proq Tojikistondan) topilgan tangalarda “shohlar shohi, buyuk xaloskor” degan yozuv uchraydi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, bu tangalarni Kadfiz I zarb qilgan.

Kudzula Kadfizdan so'ng taxtga uning o'g'li Vima Kadfiz (Kadfiz II) o'tiradi. U mamlakatda pul islohoti o'tkazib oltin tangalar zarb qila boshlaydi. SHuningdek Kadfiz II Hindistonning bir qismini Kushon davlatga qo'shib oladi va Rim saltanati bilan aloqalar o'rnatadi.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hokimlik davrida Kushonlar saltanati yanada gullab-yashnadi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olingan. Mamlakatning poytaxti esa Peshovar (Afg'oniston) atrofida edi.

Mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, markaziy Osiyodagi ko'pgina viloyatlar, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Syuan' Tszyaning yozishicha, “Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomondan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, o'nga o'z garovga qo'yilgan odamlaridan yuborilgan edilar”.

Kanishka davrida zarb etilgan tangalarda Budda xudosi, zardushtiyalar xudolari Vurutragna, Anaxiti, Mitra va boshqalarni uchratish mumkin. Aynan shu davrda zarb etilgan tangalarda yunon alifbosidagi Baqtriya tilida yozilgan tangalar (Evropa tadqiqotchilarini hayratga solgan tangalar) zarb etilaboshlandi. Kanishka davrida Kushonlar davlatida buddiylik diniga katta e'tibor berildi (Kanishkaning o'zi ham shu dinda edi). Baqtriya tilining ahamiyati yanada oshdi. Hunarmandchilik va savdo yuqori darajaga ko'tarildi. Kushon davlati o'zining eng rivojlangan cho'qqisiga ko'tarilgan. Hind manbalarining ma'lumotlariga qaraganda, Kushon davlatiga Kanishkadan so'ng Vasishka podsholik qiladi. U va Vasudeva podsholigi davrida qudratli kushonlar saltanati inqirozga uchray boshlaydi.

Kushon podsholigi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga nazar tashlasak, bu davrdagi yirik shaharlardan biri Termiz shahri edi. Termiz asosan Kushonlar davridagi yuksak rivojlandi. Bu davrda shahar Hindiston bilan g'arb, shimol, sharq mamlakatlarni bog'laydigan savdo yo'llaridagi yirik shaharga aylangan. Shaharning maydoni anchagana katta bo'lib, uning hududidan Qoratepa, Fayoztepa kabi Budda ibodatxonalari qazib ochilgan. Ular ibodat qilish joyi bo'lishi bilan birgalikda, ajnabiy savdogarlar savdo-sotiq qiladigan manzil ham hisoblangan. Ibodatxonalar qoshida turli hunarmandchilik ustaxonalari bo'lib, ular faqat qohinlar ehtiyojini qondiribgina qolmay, bozor uchun ham xizmat qilgan. Ibodatxonalarda kulolchilik ustaxonalarini topilish shunday dalolat beradi.

So'g'diyona, Farg'ona va Chochning Kushon davriga oid ko'hna shahar va qishloqlari yaxshi o'rganilmagan bo'lsa-da, bu yerlarda ham katta-katta o'zgarishlar va shaharlar rivojini kuzatish mumkin. Yirik shaharlardan biri Samarqand edi. So'g'diyonada undan tashqari mayda manzilgohlar ham ko'p edi. Manzilgohlar mustahkam himoya devorlari bilan o'ralgan edi. Farg'ona vodiysida ham moddiy madaniyatining rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Xorazmda ko'pgina shaharlar va manzilgohlar mavjud edi. Shulardan biri Tuproqqal'a ko'hna shahridir. Shahar tuzilishiga ko'ra to'g'ri burchakli bo'lib, qalin devorlar bilan o'ralgan. Shahar o'rtasida tor ko'cha o'tgan. Shahardan Kushon davriga oid ko'plab narsalar topilgan. Bu yerga podsho saroyi ochilgan bo'lib, shahar devorlarida ajoyib tasvirlarni uchratish mumkin. Shuningdek, Tuproqqal'adan Xorazm podsholarining arxividan namunalari ham topilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Kushon davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha viloyatlari qishloq xo'jaligini yaxshi o'zlashtirib olgan edilar. Tekisliklarda sug'orma dehqonchilik bilan birgalikda chorvachilik ham rivojlanadi. Bu davr Xorazmda, Zarafshonda ko'plab sug'orish inshootlari qurildi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zlashtirish sodir bo'ldi. Masalan Kushon davriga oid Talibarzu yodgorliklaridan (Samarqand) yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Tog' etaklari va tog' oldi vohalarida bu davrda chorvachilik rivojlanib boradi. Ayniqsa, Farg'ona chorvachilik bilan shug'ullanuvchi yarim ko'chmanchi aholi ko'p edi. Ularning zotdor otlari qo'shin davlatlarda ham mashhur edi.

Hunarmandchilik faqat yirik shaharlarda emas kichikroq manzilgohlarda ham rivojlandi. Ayniqsa, qurol-aslaha ustaxonalarida harbiy qurollar yasash rivojlandi. Kushonlar davrida paydo bo'lgan va murakkab tuzilishga ega bo'lgan Markaziy Osiyo kamoni keyinchalik Eronda keng tarqaldi. Nayzalar yog'ochdan yasalardi. O'qlar va nayza uchlari temirdan yasalib bir necha ko'rinishga ega edi. Uchi uchburchakli o'qlar kengroq yoyilgan edi. Harbiylar xanjar va qilichlar bilan qurollanar edilar. Milodning boshlarida Markaziy Osiyoda dudama qilichlar rasm edi. Qurol-aslahalardan qalqon, jang boltasi ham taqib yurilardi.

Qushonlar davrida savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo ayniqsa rivojlandi. Savdo munosabatlarining rivojlanishida “Buyuk ipak yo’li” ning ahamiyati katta bo’ldi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda “Buyuk ipak yo’li” miloddan avvalgi III asrning ohiri – II asrlarda shakllana boshlaydi. Ko’pchilik olimlar miloddan avvalgi II asrda Markaziy Osiyoga kelgan Xitoylik sayyoh va savdogar, imperator saroyi ofitseri Chjan Tszyanni Xitoydan bu yo’lni boshlab bergan dastlabki sayyoh deb hisoblaydilar. Miloddan avvalgi II asrning ohirlarida Xitoy qo’shinlari Davan (Farg’ona) yerlariga bostirib kirdilar. O’sha davrdan boshlab Markaziy Osiyo va Xitoy o’rtasida savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg’ona, So’g’d va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo’li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq ishlari ham rivojlanib bordi. Xitoy savdogarlari Markaziy Osiyoga asosan xom ipak va ipak matolari, Markaziy Osiyolik savdogarlar Xitoyga shisha buyumlar, qimmatbaho toshlar, zeb-ziynat buyumlari va boshqalar eltganlar.

Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg’or madaniyatli davlatlari asosan to’rtgacha: o’rta yer dengizidagi Rim, Yaqin Sharqdagi Parfiya, Xitoydagi Xan davlati va hozirgi Hindiston, Pokiston, Afg’oniston va Markaziy Osiyoni birlashtirgan qudratli Kushonlar saltanatiga bo’linar edi. G’arbda Britan orollarida sharqda Tinch okeani sohillarigacha cho’zilgan bu to’rtta zabardast saltanat insoniyat tarixida birinchi bo’lib “Buyuk Ipak yo’li” deb nomlanuvchi bir yo’l bilan bog’landilar. “Buyuk Ipak yo’li” Xitoydagi Xan imperiyasi poytaxtidan Kushon va Parfiya davlatlari hududi orqali O’rta Yer dengizining shimoliy qirg’oqlarigacha cho’zildi. Bu yo’l tufayli ko’p minglab (umumiy uzunligi 12 ming km.) kilometr masofadagi davlatlar o’zaro aloqa bog’lashga yerishdilar. Podsholarning o’zaro elchi yuborishlari, bir-birlariga har hil sovg’alar in’om etishlari an’anaga aylandi. Savdo-sotiq rivojlandi. SHarq bilan G’arb madaniyatining bir-biriga ta’siri ko’chaydi. O’sha davrdagi ko’plab madaniy o’xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

“Buyuk Ipak yo’li ” bo’ylab ko’plab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Bu yo’ldan borayotgan savdogarlar ko’pincha yo’lning ohirigacha bormas edilar. Markaziy Osiyo viloyatlari bu yo’lning o’rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm, Samarqand, Termiz va boshqa joylarda o’z mollarini sotib, mahalliy maxsulotlarni xarid qilar edilar. O’sha davr Markaziy Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko’plab maxsulotlar mavjud edi-ki, hozirgi kunda Ipak yo’li ustidagi ko’hna shaharlar va manzilgohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizni dalillaridir.

Rim manbalari, keyinroq esa arab geograflarining ma’lumotlariga qaraganda, Rim saltanatiga Kushon davlatidan asosan temir va temir buyumlar olib ketilgan. Xitoyliklarni esa asosan “uzoq va og’ir yo’llarni bosib o’tishga qodir bo’lgan” Farg’onaning otlari hayratga solgan. Shuningdek, Xitoyga jun va jun gazlamalar, qo’y terisi, qurollar va qimmatbaho toshlar sotilgan. O’z navbatida Xitoydan ipak turli Xitoy gazlamalari chinni buyumlar keltirilgan.

Kushon davlati undan tashqari katta va kichik viloyatlar, dasht va tog' oldi ko'chmanchilari bilan savdo-sotiq munosabatlari olib borgan. Yuqorida qayd etganimizdek bu munosabatlarda "Buyuk ipak yo'li" ning ahamiyati beqiyos bo'ldi.

Kushon davri yoki milodiy I- III asrlar ko'pgina G'arb va Sharq madaniy mamlakatlari bilan qizg'in iqtisodiy, madaniy va siyosiy munosabatlardabo'lgan qudratli va mustaqil davlatning har tomonlama gullab yashnagan davri bo'ldi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu saltanat quldorlik munosabatlari ancha taraqqiy etgan bir sharoitda hayot kechirgan turli halqlarning aralashmasidan iborat edi. Ayni paytda, kushon davrining ohiriga kelib Markaziy Osiyoda quldorlik tuzumining yemirilishiga sabab bo'lgan olimlar paydo bo'la boshlaydi.

Kushonlar hukmronligi davri Markaziy Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirdi va kattaahamiyatga ega bo'ldi. Sharq va G'arbgga qatnab turgan elchilar va karvonlar bilan birga madaniy an'analar ham kirib keldi. Bu an'analar mahalliy madaniy jarayonlar bilan aralashib o'ziga xos Kushon madaniyati va san'atining paydo bo'lishga olib keldi. Kushon madaniyati o'z navbatida qadimgi SHarq va G'arb madaniyatida chuqur iz qoldirdi.

Kushon davri madaniyati. Kushon davri Markaziy Osiyo halqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar bo'lganligi bilan izohlanadi. Buyuk Kushonlar saltanatining taqdiri, ma'naviyati nuqtai nazaridan ayanchli tugadi, ya'ni o'z davrida uning tarixi va madaniyati deyarli yozilmagan. U haqda qadimgi ma'lumotlar juda kam, yozuv (epigrafik) yodgorliklar ham unchalik ko'p emas.

Ma'lumki Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi IV-II asrlarda oromiy yozuv asosida Xorazm, Parfiya va so'g'd yozuvlari paydo bo'ladi. Kushon davriga kelib ular safiga yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi paydo bo'ladi. 22 harfdan iborat va ko'pgina tangalarda uchraydigan bu yozuv, olimlar fikricha, Kanishka davrida paydo bo'ladi. Tangalarda zarb qilingan miniatyura tasvirlarda badjahl va sersoqol podsholar siymolarini, yunon, hind, fors, Markaziy Osiyoning turli xudolari va ular ismlari, podsholarning nomlari va unvonlari yunon va hind alifbosida, mahalliy tilda bitilganini ko'rishimiz mumkin. Kushon tangalari madaniyatning o'ziga xos tomonari yozuv, til, diniy qarashlar haqida ma'lum xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ammo, tangalar Kushon madaniyati qay darajada bo'lganligi haqida to'la ma'lumot berolmaydi. Buning uchun san'at yodgorliklariga murojat etamiz: san'at yodgorliklari dastlab Hindistonning shimoli-g'arbida ko'plab ochildi va bu turkum san'at yodgorliklari "Qandahor haykalchilik maktabi" deb nomlandi. Bu hududdan juda ko'plab san'at asarlari topilgan bo'lib, bu asarlarda buddiylik xudolari, monarxlar tasvirlangan. Undan so'ng kushon davriga oid buddiylik manzilgohlari Xodda va SHotaraka (Afg'oniston), Butqara (Pokiston)dan yuzlab haykallar topilib, kushon madaniyati haqidagi tasavvurlar birmuncha

kengaydi. Ammo, Markaziy Osiyo Kushon davri madaniyati qay darajada bo'lgan edi?

Markaziy Osiyoning janubi va Shimoliy Afg'onistondagi arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya va Kushon-Baqtriya madaniyati gullab yashnaganidan dalolat beradi. Dastlabki yodgorliklar Ayritom va Ko'hna Termizda 30-yillarda ochilib, 60-yillarda davom ettirildi. Keyinchalik ko'hna Termiz yaqinidagi Qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Holchayon va Dalvarzin ko'hna o'aharlari ochilib nihoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Ayritom ko'hna shahridan topilgan uylarning peshtog'ig'a ishlangan tosh tasvirlar (sharafa) asrimizning 30-40 yillaridayoq ma'lum edi. Bu peshtoqlarda gullarga burkangan, musiqaasboblari chalib turgan qizlar va do'mbira chalib turgan bolalarning tasviri tushirilgan. Qazishmalar natijasida ibodatxona va inshootlarning me'moriy jihatdan nihoyatda mohirlik bilan barpo etilganini ko'ramiz. Surxandaryo viloyatining Devon nohiyasi paxta dalalarining birida qachonlardir yirik shahar bo'lgan Holchayon yodgorligining qoldiqlarini saqlanib qolgan. Shaharning paydo bo'lishi mil. av. I ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Rivojlanish jarayoni Kushon davriga to'g'ri kelib, bu davlat inqirozga yuz tutish bilan shahar ham yemirila boshlaydi. Qazib olinga bino ichida I asrda qurilgan, unchalik katta bo'lmagan saroy alohida qiziqish uyg'otadi. Saroyda devoriy rasmlar yaxshi saqlanib qolmagan. Insonning yuzi va yomon saqlangan qomati, gullar tasviri bor holos.

Lekin saroydagi badiiy madaniyat namunalari ko'plab topilgan. Haykalllar loydan ishlanib ustki qismi bo'yalgan. Haykallardan eng kattasi 2 metrga yaqin bo'lib, kichik haykallardan o'nlab topilgan. Bu san'at asarlarida podsho geray avlodlari tasvirlangan (haykallar tangalardagi tasvirlar bilan solishtirilgan). Markazda taxtlarda o'tirgan podsho va uning xotini, ularning o'ng va chap tomonlarida podsho oilasi a'zalari, xotinlar va erkaklar, shuningdek mahalliy zodagorlar va Gerakl hamda Afisha haykallari joylashgan.

Termiz-Dushanba katta yo'lining o'ng tomonidan katta maydon bo'lib u yerga tabiat va vaqt ta'sirida yemirilib ttepalikka aylangan qo'rg'on bor. SHaharning mustahkam devorlar, hokim saroyining xarobalari, imoratlar qoldiqlari-bular yirik Kushon shahri qoldiqlaridir. Bu Dalvarzin ko'hna shahari bo'lib, u Kushon davlatining dastlabki poytaxti bo'lgan degan fikrlar ham mavjud.

1972 yilgi qazishmalar paytida bu yerdan umumiy og'irligi 30 kg. dan ortiq tilla buyumlar xazinasini topilgan. Bu xazinada hammasi bo'lib 115 ta bilakuzuk, xalqalar, to'g'alar, bo'yin taqinchoqlari, oltin qo'yman bor edi.

Dalvarzin ko'hna shahidan uncha uzoq bo'lmagan joydan juda qiziq va o'ziga xos qabr topildi. Bu qabrdagi ko'mish an'analari buddiylardan farq qilgan holda, ba'zi hollarda Markaziy Osiyo an'alariga ham o'xshamaydi. Sag'analarda uch xildagi dafn mavjud bo'lib, ulardan ohirgisi mil. av. I- III asrlardagi zardushtiylarning dafn an'alariga to'g'ri keladi. Dalvarzin

sag'anasi qabrlari o'ziga xos go'zalligi bilan, dafn marosimi inshootining barcha me'morlik o'xshashliklari bilan zardushtiylik dafn marosimlariga mo'ljallangan bo'lib, "zardushtiylik dunyosi" maydonidagi eng qadimgi dafn etish joyidir. To'g'ri, Xorazmda ham bu davrga oid ehtimol bu davrdan ham ilgariroq davrlarga oid qabrlar topilgan, lekin ular dahmalar emas, ularda inson suyaklari sopol astodonlarda ko'milgan. Milodning I asrlariga oid astodon qo'yilgan sag'analar Mavr va Marg'iyonadan topilgan, Xuddi shu tarzda qabrlar Eron arxeologlari topilmalarida ham uchrab, ular ham mil. av I asrlarga oiddir. Dalvarzin dahmasi noyob me'morlik inshooti, o'ziga xos bo'lib, gumbaz shaklidagi hujra, nafis terilgan peshtoqli kirish joyi bilan kushon davri SHimoliy Baqtriya me'morlik san'atini aks ettiruvchi inshootdir.

6. O'zbek xalqining etnogenezi. "O'zbek" atamasi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qayta tiklangach halqimizning o'z kelib chiqishi va umuman etnik tarixiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Bu tabiiy hol. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek «Biz o'zimizni millat deb bilar ekanmiz o'zbekchiligimiz haqida aniq tushunchaga ega bo'lishimiz kerak». Bugungi ma'ruza o'zbek halqining etnik shakllanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu jarayon bosqichma-bosqich ko'rib chiqiladi.

Hozir jahonda soni jihatidan katta-kichik, turli tillarda so'zlashuvchi, turli dinga e'tiqod qiluvchi va har xil xo'jalik yurituvchi ikki mingdan ziyodroq nomlar bilan ataluvchi halqlar yashaydi. Ularning halq sifatida shakllanishi ham tarixning turli davrlariga to'g'ri keladi. Shyuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyoda hech bir halq o'zini sof (toza), aralashmagan deb davvo qila olmaydi. Chunki, har bir halq uzoq tarixiy davr davomida turli elatlar bilan aloqada bo'lib aralashib, qorishib borgan. Har bir xalq o'zining etnik tarixi, etgenezi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga intiladi. Har bir halq dastavval urug' jamoasiga birlashganlar. So'ngra urug'lar birlashib qabilani, qabilalar birlashib esa elatni tashkil qilganlar. Etnogenez (etnos yunon tilida xalq, genesis- kelib chiqish) deb ilgari mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnosning vujudga kelishiga aytiladi. O'zbek xalqi ildiz olgan, uning ilk tarixiy ajdodlari saklar, massagetlar, toxarlar, baxtarlar, xioniylar, usunlar qang'arlar, so'g'diylar xorazmiylar haqida ko'plab ma'lumotlar B.A.Ahmedov, M.Ermatov, M.G.Vahobov, A.A.Asqarov, G'.Abdurahmonov kabi tarixchi olimlar asarlarida o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi haqida masalalar turlicha o'rganiladi. Masalan, B.Ahmedovning bir qator ilmiy asarlarida o'zbek ajdodlari qadim zamonlardan O'zbekiston hududlarida yashaganliklarini, XVI asrning boshlarida bu hududga kelib hukmronligini o'rnatgan ko'chmanchi o'zbeklar o'zbek halqining tarixiy qismidan biri bo'lganligini ta'kidlaydi. Sharqshunos olim o'zbek xalqining to'la shakllangan vaqtini "Qoraxoniylar davrida (10-11) asrlar o'zbek xalqi to'la shakllanib, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi" deb ta'kidlaydi. Akademik A.Asqarov bu masala bo'yicha manbalarga asoslangan holda o'zbek xalqi etnogenezining birinchi

bosqichi eramiz boshlarida boshlangan. Milodiy 6 asrning ikkinchi yarmidan o'zbek etnogenezining ikkinchi davri boshlangan, XIV-XV asrlarda esa bu jarayonning yangi taraqqiy etgan davri deb ta'kidlaydi.

G'.Abdurahmonov, SH.Shukurovlarning birgalikda chop etilgan "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" asarlarida o'zbek xalqining shakllanish davri 11-15 asrlar deyilgan bo'lsa G'.Abdurahmonovning keyingi ishlarida o'zbek xalqining shakllanish nihoyasi 11-12 asrlarga to'g'ri keladi deb turlicha fikr-mulohazalarni beradi.

So'zsiz, xalqning chiqib kelish ildizi juda uzoq va etnogenezini katta tarixiy davr ajratib turadi. Bu davr ichida ma'lum hududda bir emas bir necha etnoslar tashkil topgan. Ilk elatlar doimiy emas, ular yemirilib, o'rnida boshqa elatlar vujudga keladi. Markaziy Osiyoda birin ketin- tashkil topgan elatlar ham oz bo'lmagan. O'zbek elati ham shu hududda shakllanadi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, o'zbek xalqining etnogenezi masalalari bo'yicha olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjud.

Avvalo shuni ta'kidlash o'rinliki, o'zbeklar O'rta Osiyoning qadimgi halqlaridan biri bo'lib, ko'hna va boy tarixga, yuksak madaniyatga ega halq hisoblanadi. Demakki, o'zbek halqi millat maqomini olgunga qadar uzoq etnik jarayonlarni bosib o'tgan. Bu halq ajdodlari urug', qabila, elat sifatida tarkib topib, so'ngra millat darajasiga ko'tarilgan. Har bir halq dastavval urug' jamoasiga birlashganlar. So'ngra urug'lar birlashib qabilani, qabilalar birlashib esa elatni tashkil qilganlar. Ko'plab halqlar tarixning turli bosqichlarida qabila yoki elat darajasiga ko'tarilgach tarqalib ketganlar. Bir qator halqlar esa asta-sekin millat darajasiga rivojlanib chiqqan.

Urug', qabila, elat va millat etnosning (halqning) tarixan tarkib topgan etnik birliklaridir. Shu yerda yuqoridagi har bir etnik birlik tushunchasiga ba'tafsil to'xtalib o'tamiz.

Urug'-kishilarning eng qadimgi etnik birligidir. U qarindoshchilik asosida tashkil topadi. Bir necha ota-onadan tarqalgan avlodlar o'zaro urug'lar hisoblanadi. Kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichi ya'ni quyi poleolitdan yuqori poleolitga o'tish davrida urug' jamoalari shakllangan. Urug'chilik qon-qarindoshchilikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va ijtimoiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi.

Qabila ham ibtidoiy bosqichga xos etnik birlikdir. Qabila urug'ga nisbatan yirik bo'lib, u bir necha urug'larning o'zaro birlashuvidan xosil bo'ladi. Qabila a'zolari o'rtasidan qon-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi, urug' va bo'g'inlarga birikishi, muayyan xududga egalik qilishi, qabiladoshlar orasidagi iqtisodiy birlik yagona qabilaviy tili va nomining mavjudligi qabilaning asosiy belgilaridir. Qabila qabila kengashi tomonidan boshqarilgan. Odatda qabila kengashi urug' oqsoqollaridan tashkil topgan va qabila boshlig'i tomonidan boshqarilgan. Kishilik jamiyatining tobora taraqqiy etib borishi va sinfiy jamiyatining paydo bo'lishi bilan ibtidoiy bosqichga xos etnik birlik-qabila tuzumi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ammo qabila atamasi va o'nga ta'luqli

bo'lgan ba'zi xususiyatlar qoldiq sifatida tarixning keyingi davrlarida ham saqlanib qolgan edi. Masalan, XIX asr-XX asr boshlarida o'zbek halqning tarkibida qabilalar mavjud bo'lib, ular urug'larga bo'linish tartibini va urug'-qabila nomlarini (etnonimlarini) saqlab qolganlar. So'zsiz, ular ibtidoiy bosqich qoldiqlari xisoblanadi.

Elat. Ibtidoiy bosqichning ohirlarida sinfiy jamiyatga o'tish arafasida, qabilalar orasidagi etnik, xo'jalik-madaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida bir qancha qabilalar birlashadilar. Qabilalarning birlashish jarayonida etnik birlikning yangi turi vujudga keladi. Bu etnik birlik ma'lum tarixiy sharoitida xududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida shakllandi. Fanda ushbu etnik birlikka nisbatan «elat» atamasi qo'llaniladi.

Xullas, elat, qabila bilan millat orasidagi etnik birlik bo'lib, sinfiy jamiyatga hos etnik uyushmadir.

Millat—etnik birlikning elatdan keyingi shakli bo'lib, uning shakllanishi elatning shakllanish jarayoni kabi uzoq davom etadigan ijtimoiy voqelikdir. Millat etnik tarixning, elatning eng yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichi. Bu bosqichga ko'tarilgan xalqning tarixan tarkib topgan davlati birinchidan millat nomi bilan yuritiladi; ikkinchidan uning aniq xududiy chegarasida muomalada bo'lgan umummillat tili davlat tili maqomi darajasiga ko'tarilgan; uchinchidan davlat xududining butunligi va chegarasining dahlsizligi tan olinadi; to'rtinchidan millat va o'nga xos mentalitet shakllangan bo'lib, fuqorolarning o'zligini anglash darajasi ularning xayot mazmuniga kundalik turmush tarziga aylanadi va nihoyat beshinchidan, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi. Millatni til, xudud va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi omillardan biri iqtisodiy negizdir. Bir so'z bilan aytganda, millat, shakllanayotgan xalqning kamolot bosqichidir.

O'zbek halqining eng qadimgi ajdodlari O'rta Osiyo xududida qadimdan istiqomat qilgan halqlardir. Tarixiy manbalarda O'rta Osiyoning eng qadimgi halqlari haqida bir qancha ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bunga ko'ra O'rta Osiyoning qadimgi aholisi sug'diylar, xorazmiylar, baktriyaliklar, parkanlar, chochliklar nomi bilan yuritilgan. O'rta Osiyoning bepayon cho'llarida hamda tog'li rayonlarida esa bu davrlarda shak, massaget, toxar va boshqa etnik nomlar bilan ataluvchi ko'chmanchi chorvador halqlar yashaganlar. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan halqlarning bir qismi ya'ni so'g'diylar, xorazmiylar, baktriyaliklar, parkanlar, chochliklar asosan o'troq holda yashab dehqonchilik va xunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Ular qishloq va shaharlar barpo etganlar.

Boshqa bir qismi esa ya'ni shaklar, massagetlar, toxarlar va shu kabi cho'l aholisining asosiy xo'jaligi chorvachilik bo'lgan.

Voxalarni o'rab olgan cho'l zonalarida istiqomat qilgan ushbu chorvador Aholi Axmoniy bitiklarida shaklar deb atalgan. Yunon manbalarida esa ular skiflar deb yuritiladi. Asosiy xo'jaligi chorvachilik bo'lgan bu aholi «Avesto»da turlar deb atalib, ularning yurti Turon deb yuritilgan.

O'rta Osiyoning qadimgi aholisining bir qismi eroniy, yana bir qismi esa turkiy tilda so'zlashganlar.

Yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan sug'diylar, xorazmiylar, baktriyaliklar, parkanlar, chochliklar, shaklar, massagetlar, toxar va boshqalar o'zbek xalqining etnik asosini tashkil qiladilar. Hozirgi tojiklar ham o'zlarining etnogenezining boshlanishi aynan shu xalqlardan oladilar.

Yuqoridagi xalqlarning ma'lum qismi turkman, qoraqalpoq, qozoq va boshqa xalqlarning ham ilk ajdodlari hisoblanadi. Uzoq tarixiy davr mobaynida yuqorida nomlari sanab o'tilgan halqlar o'zaro aloqada bo'lib kelganlar.

Ikki tilda so'zlashuvchi qabila va elatlar o'rtasidagi bunday aralashish va qorishuv natijasida miloddan oldingi II-I-milodiy I-II asrlar davomida Sirdaryoning o'rta oqimida yangi elat-qang'ar xalqi vujudga keladi. Qang'arlar O'rta Osiyoda tashkil topgan eng qadimgi tub yerli turkiy qatlarni tashkil qilganlar.

Keyingi asrlarda (milodiy II-IV asrlarda) ham O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, SHarqiy Turkistondan ayrim qabilalar kelib joylashganlar. Xionlar (Xioniylar), Kidariylar va Eftaliylar (abdallar) shular jumlasidandir. Milodiy V asrning birinchi yarmida Movarounnahrning siyosiy boshqaruvi Eftaliylar qo'lga o'tadi.

Ma'lumki, VI asrning o'rtalarida Oltoyda, Janubiy Sibirda, Yettisuvda, SHarqiy Turkistonda joylashgan bir necha qabilalar birlashish natijasida Turk xoqonligi tashkil topadi va qisqa vaqt ichida Turk xoqonligi ko'chayib Markaziy Osiyoning katta qismini, jumladan Movaraunnahrni egallaydi. Turk xoqonliklari davrida vatanimiz xududiga turkiy qabilalar ko'plab kelishgan. Bu holat aholini turkiylashishini yanada ko'chaytirdi. Turk xoqonligining xukmronligi O'rta Osiyoda deyarli yuz yil davom etdi. Bu davrda O'rta Osiyoning biror joyi qolmadiki, turkiy qabilalar kirib bormagan bo'lsa. Turkiylashish jarayoni keyingi davrlarda ham davom etdi.

IX-XII asrlar o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi ikkinchi bosqich deb qaraladi. Xo'sh, bu davr nimasi bilan xarakterlanadi? Ma'lumki, IX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yana bir davlat- Qarluqlar davlati barpo etildi. Qarluqlardan chiqqan Qoraxoniylar (ulug'xonlar) bu davlatni qariyb to'rt asr uzliksiz boshqarib keldilar. Qarluq davlati va Qarluqlar bo'yicha maxsus tadqiqot muallifi K.SHoniyozov o'zbek ajdodlarini alohida etnik jamoa (elat) bo'lib shakllanishi aynan shu davlat xududida IX-X asrlarda sodir bo'lganligini aniqladi. Uning fikricha bu xududda o'zbek halqining xududiy, iqtisodiy, madaniy va etnik belgilarida umumiylik hosil bo'lib o'zbek halqining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan.

Bu davrda O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa, mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Antropolog T.Xo'jayov tadqiqotlariga qaraganda IX asrga kelib aholining antropologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz berganligi kuzatildi. Bu o'zgarishlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi.

Fanda mo'g'ul istilosi O'rta Osiyo aholisini keskin mo'g'ullashtirib, o'zgartirib yubordi degan fikr keng tarqalgan. Lekin tadqiqotchilarimiz bu masalaga ham oydinlik kiritdilar. Mo'g'ul istilosi O'zbekiston aholisining tashqi qiyofasiga sezilarli izlarni qoldirmaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Sababi, CHingizxon XIII asr boshida tashkil etgan yirik mo'g'ul davlatida mo'g'ullar soni taxminan 0,7 million kishidan iborat bo'lgan. Agar har 6 kishidan bittasi askarlikka olingan bo'lsa, unda uning qo'shinlari soni 100-110 ming kishidan iborat bo'lgan. Lekin, o'sha davrda mo'g'ullar qo'shinlarining ko'p qismini yo'qotganlar. Ular O'rta Osiyoga bostirib kelganida qo'shinlarning ko'pchiligi turkiy halqlardan tashkil topganligi ma'lum. Bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million aholi yashagan. Mo'g'ul qo'shinlari ko'p sonli mahalliy aholi tarkibiga o'z asoratini o'tkaza olmagan. Shuning uchun ham mahalliy aholida mo'g'ul irqi alomatlari deyarli namoyon bo'lmaganligini ko'rish mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, IX-X asrlarda qarluqlar egallab turgan xududlarda 20 dan ortiq shahar, ko'plab qishloqlar bo'lgan. Qarluqlar ko'p sonli, nufuzli «halq» bo'lib, bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan. Qarluqlar yashagan xududlardaboshqa turkiy tilli etnoslar (masalan chig'illar, yag'molar, xalachlar) ham yashaganlar. Ular turkiy tilda so'zlashganlar.

Qoraxoniylar davlatida qarluq-chig'il turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Maxmud Qoshg'ariy «eng ochiq va ravon til» deb atagan. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo'lib, Ahmad Yugnakiyning (775-869) «Xibatul haqoyiq» (Haqiqatlar tuhfası) dostoni, Yusuf Xos Hojibning (XI asr), «Qutadg'u bilik» (Saodatga yo'lovchi bilim) asari, Ahmad Yassaviyning (1041-1167) «Hikmatlar»i hamda «O'g'iznoma», «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Xalqimizning ikkinchi qatlami Turon mamlakatining nisbatan shimoliy g'arbiy hududlarida vujudga kelgan va shakllana borishi XU asrning oxirlarida poyoniga yetgan. O'zbek xalqining shakllanishida qatnashgan qabilalar soni turli manbalarda turlicha ko'rsatiladi. Shoir turdi bu borada 92 raqamini keltiradi.

O'zbek halqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr ohiri va XVI hisoblanadi. Bu davrda Dashti-Qipchoq o'zbeklari O'rta Osiyoga kirib keladi va ular mahalliy aholiga o'z nomini beradi. Dashti-Qipchoq o'zbeklari kim? Qadimdan Dashti-Qipchoqning sharqiy qismida, hozirgi Qozog'iston, Tobol'sk, Turaatroflarida kechib yurgan turk-mo'g'ul qabilalari XIII asrning ohiri-XIV asrda yashab o'tgan SHarq tarixchilari tomonidan umumiy bir nom bilan, ya'ni «Dashti Qipchoq o'zbeklari» deb atalgan.

SHu joyda «o'zbek» atamasi kelib chiqishi haqida to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Ushbu etnonimni ya'ni «o'zbek» etnonimini kelib chiqishi haqida yagona bir fikr mavjud emas. Bir gurux olimlar «o'zbek» degan nomni 1312-1342 yillarda Oltin O'rdada xonlik qilgan O'zbekxonning (asl ismi Sulton Muhammad) nomi bilan bog'laydilar. Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi"da

O'zbekxonning xokimiyat tepasiga kelishini "O'zbek ulusi" unga berildi. deb yozadi. Uning fikricha, Oltin O'rda davlati sulton Muhammad – O'zbekxongacha ham "o'zbek ulusi" deb atalgan. O'zbek atamasi Oltin o'rda davlatida yashagan, islom dinini qabul qilgan Orlot, Bahrin, Do'rmon, Qorluq, Qipchoq, Qo'ng'iroq, Mang'it, Nayman, Ming kabi turkiy qabilalar uyushmasini, ya'ni o'zbek xalqi ma'nosini va xalqqa tegishli mamlakatni bildirgan. XI asrning ikkinchi yarmi, XIV asrda yashagan sharq tarixchilari tomonidan bu xalq umumiy nom bilan o'zbek deb atalgan. Ayrim tadqiqotchilar esa «o'zbek» atamasini «o'zbek», «erkin», «mustaqil» so'zidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar. Xullas, Dashti Qipchoq xududlarida yashagan turkiy aholi Movarounnahr (Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi) yerlarga kelib, bu yerda yashayotgan o'troq aholi bilan uyg'unlashib ketgan vaaholining nomi o'zbek deb atalgan.

Dashti Qipchoq o'zbeklarini Movarounnahr yerlariga ommaviy ko'chib kelishi XV asr ohiri- XVI asr boshlarida ko'chaydi. Bu davrda o'zbek halqining etnik tarkibi Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan turkiy qabilalar hisobiga yanada boyidi. Aniqroq ta'kidlaganda XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida xalqimizning birinchi qatlamiga va ikkinchi qatlamlarning muayyan qismi qo'shiladi. Buyuk Turonning Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida azaldan yashab kelayotgan yaxlit etning qatlami bir bo'lak bo'lib qo'shildi va uni to'ldirdi, nufusini oshirdi.

7. O'zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik holati va bu sohadagi o'zgarishlar.

O'zbekistonning milliy mustaqilligining qo'lga kiritilishi o'zbek xalqining tarixiy taqdiriga tub burilish yasash barobarida, uning tom ma'nodagi erkinligi, ozodligi va mustaqilligini ta'minlab, ijtimoiy taraqqiyotning keng istiqbolli yo'llariga olib chiqdi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lganligi bois ham milliy masalani oqilona hal etish uning demokratik rivojlanish yo'llaridan ilgarilab borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning dastlabki kunidan boshlab respublikada istiqomat qiluvchi barcha millat va elat kishilarining milliy tili, madaniyati, adabiyoti, san'ati, urf-odatlari, rasm-rusmlari an'analarini avaylab saqlash ularni jonlantirish va yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mazkur elat va xalqlarning hayotiy masalalarini amalda hal etish va bu ishlarni yuksak darajada tashkillashtirish uchun milliy madaniyat markazlari tuzilib, faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirda respublikada 100 dan ortiq shunday markazlar mavjud bo'lib, ular bu borada to'laqonli ish yuritmoqdalar. Hozirda respublikamizning ko'pgina maktablarida boshqa ta'lim tizimlarida o'qishlar rus, qozoq, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqa tillarda tashkil etilgan. SHuningdek ayni bu tillarda vaqtli matbuot nashlari ham chop etilmoqda. Turli tillarda radio, televideniya eshittirishlari muntazam namoyish etilmoqda.

Bizkim, o'zbeklar bir irqiy guruhga mansub turkiy qabilalar uyushuvi, qo'shilivi va singishuvidan shakllangan xalqmiz. Asosan turkiy qon jo'sh urib turgan tomirlarimizda asrlar davomida bordi-keldi quda-andachilik qilib kelayotgan qo'shni xalqlarning, shuningdek, uzoq-yaqindan turli ilinj va maqsadlar bilan yurtimizga kelib qolib ketgan, xalqimiz bag'riga singishib ketgan odamlarning ham qoni bor, albatta. Dunyoda qoniga boshqa qon qo'shilmagan, mutlaqo o'z qoniga ega birortayam xalq bo'lmasa kerak. Hammamiz ham eng avvalo shu rub'i maskan- Yer farzandimiz, keyin o'z yurtlarimizning fuqarolari bo'lamiz. Hozirgi kunda yer yuzida 30 dan ortiq turkiy xalq va elatlar bor. Bular: o'zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur, tatar, boshqird, qoraqalpoq, yoqut, chuvash, xakas, gagauz, karaim, oltoy, qo'miq, no'g'oy, qirim, bolqor va boshqalardir. Ularning ko'pchiligi musulmon dinidadirlar Turkiy xalqlarning turmush tarzlari ham an'anaviy kasbkorlari ham xilma-xildir, o'troqlashish jarayonlari turli davrlarda kechgan, hamon ko'chmanchi turmush tarzida davom etayotganlari ham bor. Masalan, yoqutlarning bug'uchilik bilan shug'ullanayotgan muayyan qismi hamon ko'chmanchi tarzda umr kechiradilar. Bu iqlim sharoiti bilan bog'liqdir.

Bugungi ma'lumotlarga qaraganda barcha turkiy xalqlarning umumiy soni 280 mln. Kishidan ortiq bo'lib, shundan yettidan bir qismini, taxminan 40 mln. dan oshig'ini o'zbeklar tashkil kiladi.

4-Modul: Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.

1. Xioniylar, kidariylar va eftaliylar.

2. Turk hoqonligi. Hoqonlik davrida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy rivoji.

3. Movarounnahr arablar tomonidan istilo etilishi va arablarga qarshi harakatlar. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi. Qur'oni- karim- muqaddas kitob.

4. Xadislar va ularning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Islom dini ta'limotini rivojlantirishda O'rta Osiyolik olimlarning hissasi. Ma'naviy kamolotga erishuv yo'lida muhaddislar merosining ahamiyati

1. Xioniylar va kidariylar va eftaliylar.

Uzoq o'tmishda xioniylar va ular tarkibidagi barcha qabilalar Shimoliy Xitoyda, Sibirda, milodiy 1-2 asrlarda esa Qozog'iston cho'llarida yashaganlar. Ularning ayrim guruhlari shu asrlarda Movarounnahr va xorazm hududlariga ham kelib joylashganlar. Xioniy qabilalari kirib kelgan paytda Movarounnahr va Xorazm hududida xorazmliklar so'g'diylar, kushonlar, qang'arlar va bir qancha boshqa xalqlar yashagan.

V asrning 20 yillarida O'rta Osiyoga Sharqdan Sirdaryo va orol bo'ylari orqali yana bir ko'chmanchi aholi kidariylar (yuejchji yoki toxarlarning avlodi) kirib keladi. Kidar ismli hukmdor ularga yo'l boshchilik qilgani uchun kidariylar

nomi bilan tilga olinadi. Kidariylar So'g'diyonani Amudaryo bo'ylaridagi yerlarni egallab o'z hukmronligini o'rnatadilar. Kidariylar Balx shahrini o'z davlatining poytaxtiga aylantiradilar Biroq kidariylar hukmronligi uzoq davom etmaydi. Kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyatlar kuchayib, ular o'rtasida bir necha marta qurolli to'qnashuvlar bo'ladi. 456 yilda bo'lgan navbatdagi jangda kidariylar sosoniylardan qaqshatkich zarbaga uchradilar. Ayni paytda shimoldan janubga siljib kelayotgan eftaliylar bosimiga uchrab, shimoliy Hindiston tomon chekinishga majbur bo'ldilar. Kidariylar u yerda 75 yilcha hukmronlik qildilar. Bu hududlarni turk hoqonligi egallaganda xorazmlilar va so'g'diylar qatorida kidariylar, xioniylar, eftaliylar va boshqa xalqlar ham bo'lgan. Xion (xioniy), Kidariylar etnoslarining kelib chiqishi haqida xaligacha aniq ma'lumotlar yo'q va tadqiqotchilar orasida ham turli baxsli fikrlar mavjud. Masalan, xioniylarni eftaliylarga yoki kidariylarga tenglashtirgan, ba'zan esa buning teskarisi eftaliylarni xioniylar deyilgan.

Xioniylar tarixiy manbalarda milodiy 4 asr o'rtalarida tilga olingan. Beyshida (6 asr) bir vaqtlar xunlar Sude (So'g'd) xokimini o'ldirib Sudeni egallagan edilar. Shu ma'lumotlarga ko'ra 350-356 yillarda xioniylar So'g'diyonani va uning markaziy shahri Samarqandni egallaganlar. 356 yilda xioniylar sarkardasi o'g'li bilan Sosoniylar podshosi Shopur 2ni Amida (Suriya) shahrini qamal qilishda ittifoqdosh sifatida unga yordam bergan. SHu yilda xioniylar Zarafshon vohasini egallagandan so'ng Amudaryo vohasiga chiqib Eron sosoniylari bilan chegaradolsh bo'lib qolgan. Dastlab xioniylar Sosoniylar bilan ittifoqchilikda yashagan bo'lsada, 4 asr oxiri 5 asr boshlarida ular bilan raqiblashib kelganlar. 460 yili xioniylarning katta qismi Hindistonning shimoliy-g'arbiy hududlariga ko'chadilar ularning ayrim guruhlarini Movarounnahrda qolib, eftalitlar bilan aralashadilar va keyinchalik o'troqlashib, tub yerli aholiga qo'shilib ketadilar.

Xitoy manbalaridan eftalitlarni "ida, yeda, idan, idyan" deb, suriya va lotin manbalaridan esa "eptalit, eftalit, adbal", arman yozuvlarida "idal, tetal, xeptal", arab va fors mualliflari "haytal, yaftal, hetal", hind manbalarida "xuna" va hokazo deb eslatib o'tiladi.

Xitoylik mualliflar eftalitlarni turklar (tukyue) bilan bog'liq ravishda ta'riflaydilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan Prokoliy (6 asr) fetalitlarni xunlardan deb ko'rsatar ekan, "ular (ya'ni eftalitlar) xunlardandir, tanalari esa oq" deb eslatadi.

Eftalitlar bilan sosoniylar o'rtasida birinchi to'qnashuvlar 5 asr 30 yillardayoq sodir bo'lgan edi. Arman tarixchisi Vardapetning ma'lumotiga ko'ra 5 asrning 50-yillariga kelib eftalitlar ittifoqi nihoyatdako'chayib ketadi. 456 yildayoq eftalitlar o'z elchilarini Xitoyga jo'natadilar. Eftalitlar tobora janubiga qarab siljiy boshlaydilar va o'z navbatiga janubdagi qo'shni Eron bilan munosabatlar keskinlasha boradi. Sosoniylar bilan hal qiluvchi qarashlar davri shoh Peruz (Feruz) davriga (459-484 yy.) to'g'ri keladi. Taxminan 457 yili vaxshunvor (axshunvor) Eftalon boshchiligidagi eftalitlar CHag'oniyon

(Surxondaryo viloyati Termiz shahrining shimolidagi yerlar), Tohariston, Badahshonda o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. 459 yili Eron taxtiga nomi tilga olingan Peruz chiqadi.

Manbalarda Peruzning hokimiyatga kelishi eftalitlar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi. Nafaqat Peruz, balki uning akasi Xo'rmo'zd (457-459) ham eftalitlar yordamida taxtni qo'lga qiritgani ma'lum. Bunday holat bekorga yuzaga kelmagan. Chunki Xo'rmo'zd va Peruz o'z vaqtida taxt vorisi sifatida sosoniylar davlatining sharqiy viloyatlarini (Seyistondan Marg'iyonagacha bo'lgan hudu) boshqarganlar. (Xo'rmo'zd 420-457 yillari, Peruz 457-459 yillari). SHu munosabat bilan qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralari bilan yaqindan muomalada bo'lganlar.

Peruz eftalitlarning ko'chayib borishini vaqtinchalik deb bilib, ular kuchidan Eron taxtiga kelish uchun foydalangan bo'lishi kerak. Ammo eftalitlar qudrati oshib tez orada ular sosoniylarga ham qarshi turishlarini anglagan Peruz eftalitlarga qarshi jangga kiradi. Bu to'g'risidagi ma'lumotlar "Baxmal-Yashta" da ham, arab tarixchisi at-Tabariyning asarlarida ham uchraydi. Peruz (459-484) 3 marotaba eftalitlarga qarshi yurish qiladi.

Birinchi kurashdayoq Peruz mag'lubiyatga uchraydi vaasirga tushadi. Vizantiya imperatori Zenon o'rtaga tushib, uni ozod qilib oladi. Peruz chegaradagi Talqon (Talikon) shaharlarini eftalitlarga topshiradi va Varxron Bahromgo'r belgigan chegaradan o'tmaslik majburiyatini oladi. Bu mag'lubiyatdan xulosa chiqarib olmay, u yana ikkinchi bor eftalitlar ustiga yurish boshlaydi. 3-chi urushda Prisk Paniyskiyning ma'lumoticha, Peruzning eftalitlarni aldashi xizmat qilgan. Peruz o'lpon to'lab bo'lgach, eftalitlar bilan munosabatni yangilashga harakat qiladi. U eftalitlarga sulh tuzishni va o'zining eftalitlarga tinch maqsadida hukmdorga o'z taklifining kafolati sifatida singlisini turmushga berishligini taklif etadi. 484 yili eftalitlar va sosoniylar o'rtasida ohirigi kurash boshlanib ketadi. Bu kurash Marv yaqinida sosoniylarning tugal mag'lubiyati bilan yakunlanadi.

Arab tarixchilar Denovariy va Tabariylarning yozishicha Peruz o'z qo'shinining bir qismi bilan pistirmadagi chuqur handaqa tushib ketgan va eftalitlar tomonidan toshlar bilan urib o'ldirilgan ekan. Uning butun lageri, xonadoni, mol-mulki eftalitlar qo'lga tushib musodara qilingan. Bu kurashdan so'ng Eron ustiga og'ir o'lpon solingan.

Sosoniylar qudratiga eftalitlar tomonidan shunday qilib chek qo'yildi. Eronning o'zida shu vaqtga kelib ichki siyosiy ahvol keskinlashib ketdi. Og'ir iqtisodiyahvol, qulchilikning yemirilishi, soliqlarning o'sishi, quyi tabaqalarning qashshoqlanishi, urushdan keyingi vayronliklar natijasida norozilik harakatlari boshlanib ketdi. Xalq g'alayonlari diniy tus olib, bu harakatlarga Mazdak boshchilik qildi.

Mazdak Hamdadon (470-529) zardushtiylikning asl g'oyalarini hayotga tadbiq qilmoqchi bo'lib, o'z harakat mafkurasini yaratdi. Uning ta'limotchi kishilar bu dunyoning ne'matlaridan teng foydalanishlari lozim, shuningdek, u

ijtimoiy hayotga jamoa huquqlarini tiklash, yer-suv, mol-mulkka barobar egalik qilish, hammaning o'zaro tengligiga erishishi lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Mazdak tarafdorlarining soni Eronda juda ko'plab odamlarni tashkil etdi. Beruniyning xabariga ko'ra, uning ortidan minglab kimsalar ergashdilar. Mazdakiylar yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabat-feodalizmning talablarini olg'a sura boshladi. Mazdakiylik harakati nihoyatdako'chayib ketdi. Qubodshohning (489-531) o'zi u bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Kubot Mazdak tarfiga o'tib uni Eronning bosh koxini yetib tayinlaydi. Mazdak hokimiyatini o'z qo'lga kiritib olgach, uning tarafdorlari ohir-oqibatda Kubotni 496 yil taxtdan ag'darib tashlab zindonga tashlaydilar. Uning o'rniga ukasi taxtga chiqadi Kubot zindondan qochib Eftalitlar dargohidan panoh topadi. U o'z vaqtida eftalitlar hukmdorining singlisiga uylangan edi. Suriyalik muarrix Iyshu Stilit eftalitlar huzuridagi Kubotning ahvolini shunday ta'riflaydi: "u ko'zida yoshi bilan har kuni (eftalitlar hukmdoridan) lashkar bilan qo'llab-quvvatlashni iltimos qilardiki, to yana davlat boshqaruvini qo'lga olsam" deb. Kubot eftalitlardan yetarlicha harbiy yordam olib 499 yil Eronga yurish qildi. Chegaraga yetgan paytdayoq ukasi buni eshitib taxtni tashlab qochib ketadi. Qubot shoh I yana taxtga o'tiradi. Avval mahfiy, keyinchalik oshkora Mazdakni qatl ettirib, uning tarafdorlariga qarshi ayovsiz kurash olib boradi.

Qubotning o'g'li Xusrav I Anushervon (531-579) davrida keng miqyosli islohotlar o'tkazilishi bilan birga mazdakiylar harakatiga butkul chek qo'yiladi. Eftalitlar esa o'z qo'llari ostida Tohariston, Badaxshon, So'g'd, SHarqiy Turkiston va Markaziy Osiyoning boshqa ba'zi yerlarini birlashtirdilar.

Qubodshoh eftalitlar bilan deyarli tinch-totuv yashadi. U 502-506 yillarda eftalitlar bilan ittifoqchilikda Vizantiyaga qarshi yurishlarda ham Eftalitlar Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan o'lkan davlatgaasos soladilar. Kushon podsholigi hududlarini ham yana o'z qo'llari ostida birlashtirdilar. Eftalitlar sasoniylarning O'rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo'yadi.

Eftalitlar davlati Markaziy Osiyo halqlari tarixida muhim o'rin tutib, keyinchalik o'z o'rnini 563-567 yillardagi kurashdan so'ng tarix maydonidagi yangi siyosiy kuch-Turk hoqonligiga bo'shatib berdi.

Ilk o'rta asrlardagi Xitoy manbalarida eftalitlarning ko'chmanchi qabilalar ekanligi, ularning yurtida shaharlar yo'qligi, o'zlari o'tloqlarda yashaganliklari ta'riflanadi. Keyingi davr tarixchilar xususan g'arb manbalarida boshqacha ma'lumotlar keltirildi.

Vizantiyalik muarrix Prokopiy Kesarkiy (VI asr) shunday deb yozadi: "eftalitlar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiliklariga egadirlar. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat me'yorini saqlashda vizantiyaliklar va forslardan hech qolishmaydilar". Demak, eftalitlar davrida ham kushonlar davridagi kabi saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan.

Hali kushonlar davridayoq yer va qo'rg'onlarga ega bo'lgan aslzodalar ajralib chiqqan boshlagan, dehqonlar mahalliy zodagonlarga ko'proq tobe bo'la boshlagan. Eftalitlar o'lgan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach obod dehqonchilik vohalariga, rivojlangan shaharlarga, savdo yo'llariga ega bo'ldilar. Vaqt o'ttishi bilan esa mahalliy aholi bilan aralashib keta boshladilar. Natijada ularning bevosita vorisigaaylanadi. SHu boisdan 568-569 yillarda Vizantiya imperatori Yustin huzurida bo'lgan turk elchisi imperatorining "Eftalitlar shaharlarda yashaydildimmi yoki qishloqlar-dami?" degan savolga "ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari deb javob bergan"

Eftalitlarning bir qismi ko'chmanchi chorvador bo'lsa, asosiy kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Toxariston va Sug'dda dehqonchilik va bog'dorchilik rivoj topgan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha 6% asrlarida hususan Sharqiy Turkiston va Turkiston yerlarida ko'plab g'o'za yekilar edi. Markaziy Osiyoning paxta tolasi Xitoyda ham mashxur bo'lgan. Tog' va tog' oldi yerlaridagi aholi yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor arg'umoqlar ko'paytirilar edi. Feodal munosabatlarning tarkib topa boshlashi bilan sug'oriladigan yer maydonlarini ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari-"dehqonlar" qo'lida to'plana boshlagan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin dehqonlari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram "kadivar" larga aylandi. Sug'orma yerlarning bir qismi ibodatxonalarni mulki hisoblangan. Bunday yerlar "Vag'nze" deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo'lida bo'lgan. Eftalitlar orasida mol-mulk tabaqalanishi ham kuchli bo'lgan. Ular orasida feodal munosabatlar shakllanishi bilan bir qatorda ibtidoiy jamoa tuzumi sarqitlari ham saqlanib qolgan edi.

Eng boy zodagonlar doimiy hamroh sifatida 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishgan. Zodagon qafot etganda, qoida bo'yicha do'stlari ham tirikligicha qabrga qo'yilgan. Beshi solnomasida yozilishicha, zodagonlar qazo qilgan vaqtda maxsus tayyorlangan tosh dahmalarga, oddiy eftalit murdasi esa tuproqqa qo'yilgan. Bu ikki xil ko'mish jamiyatining sinfiy tabaqalanishidan dalolat beradi.

Zodagonlar qimmatbaho kiyimlarda yurishgan. Bu haqda Son Yun o'z esdaliklaridan qayd qilib o'tadi. Jinoyatchilik qilgan shaxs kim bo'lishidan qat'iy nazar boshi kesilgan, o'g'irlangan mol-mulk miqdoridan qat'iy nazar o'n barobar qilib undirib olingan.

Eftalitlar kuchli qo'shinga ega bo'lishgan. Lashkarning asosiy qismini suvoriylar tashkil etgan. Suvoriylar asosan gurzi va qilin bilan qurollanganlar. Xitoyliklar ularni mohir kamonboz deb ham ta'riflashgan. Otliq qo'shin asosiy ahamiyat kasb etgan.

V-VI asrlarga dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o'troqlashuvi ko'chayadi, buning oqibatida sug'orma kanallari qazib chiqarilib, minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Sug'orish uslubi takomillashadi,

shohariqlar chuqurlashib, sersuv sug'orish tarmoqlariga aylangan. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zahariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan bo'lgan. Shuningdek tog' oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblari yerdan zodagon dehqonlarning qalin xom g'ishtdan urib chiqilgan va baland poydevori ustiga qurilgan o'lkan qo'rg'onlari, istehkomlar yuzaga kela boshlagan.

Istehkomlarning to'rt burchagi bilan burjlar bilan mustahkamlanib, devorlari bir necha qator kamondan o'q uzgich nishon tuynuklari bilan ta'minlangan. Qalin mudofaali feodal qo'rg'onlari ilk o'rta asrning o'ziga xos me'morchilik namunalari bo'lib, Naxshab vohasidagi Zahoki-Moron qal'asi, Buxorodagi SHahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal'asi shular qatoridandir.

Vohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirimlab qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvoza ega bo'lgan Devori qiyomat, Buxoro vohasidagi uzunligi 336 km. Li Kampirak, Toshkent vohasidagi Kampirdevor istehkom devorlari shular jumlasidandir.

SHu davr me'morchiligida qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbasimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. V asrdan boshlab saroy, qasrlar qurilishda paxsa va xom g'isht bilan bir qatorda kirpech (pishiq g'ishtlar) ham ishlatilina boshlagan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangdor tasvirlar bilan bezatilgan.

Bunday tasviriy san'at namunalari biri Bolaliktepa (Surxandaryo) qasri devorlarida qayd etilgan. Bu nodir tasviriy san'at asarlarida bashang kiyingan ayol va erkaklarning ziyofati tasviri berilgan. Rasmlar katta did mahorat bilan ishlanegan.

Shu davr moddiy madaniyat yodgorligi sifatida Xorazmda Tuproqqal'a xarobasini ham ko'rsatish mumkin. Bu qal'a qalin istehkom devoriga ega bo'lib, qal'a ichidagi to'g'ri yo'naltirilgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lib turgan. SHaharning shimoli-g'arbiy qismida ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Uning yonida ark binosi bo'lgan. Shuningdek, 100ga yaqin turar, qadimgi Xorazm yozuvlarida bitilgan 80 tadan ortiq hujjatlar topilgan.

Eftalitlar me'morchiligining ajoyib namunalari biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi bo'lgan. Bu qo'rg'on o'lkan to'rtburchak shakildagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib, suratlar bilan bezatilgan. Xonalar keng-keng bo'lib, qalin devorlar bilan bir-biridan ajralib turgan. Bu qasr buxorxudotlarning VI - VII asrlarda qarorgohi bo'lgan. Shuningdek, Toshkent vohasidagi Oqtepadan, Jo'n arig'i yaqinidan, Poykentdan va boshqa bir qator joylardan eftalitlar davri yodgorliklari topib tadqiq qilingan.

Eftalitlar davrilda hunarmandchilik ham rivoj topgan. Ayniqsa kulolchilik, shishasozlik, chilangarlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsizlik kasb-hunarleri ravnaq topgan. CHochda yasalgan o'q va yoy "kamoni chochiy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Katta-kichik o'aharlar soni ko'paygan. Birgina Zarafshon

vohasida Rivdad, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romiton, Varaxsha, Poykand kabi savdo-hunarmandchilik shaharlari mavjud edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra Poykand shahri eftalitlarning poytaxti bo'lgan.

Eftalitlar xalqaro savdo sohasida Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq munosabatlarini olib borishgan. Eftalitlar "Ipak yo'li" ni nazoratga tutishga harakat qilganlar "Ipak yo'li" savdosidagi va umuman savdogarlar ichida Sug'dlar yetakchi o'rinni egallagan edi. Bu paytda Markaziy Osiyoda oltin, kumush, badaxshon la'lisi, rangli shisha va shisha buyumlar turli hil mevalar, ip gazlama, qora ko'l, zottor tulporlar bilan savdo qilinardi.

Avval boshida Eftalitlar Sosoniylardan bo'lgan Varahran V va Perozning kumush tangalaridan o'zaro savdo-sotiqda foydalanar edilar. Keyinchalik Eftalitlar Eron shohi Varaxran V Baxromgo'r tangalariga taqlit qilgan holda kumush tangalar zarb qildilar. Bundan tashqari Buxoro, Poykant, Samarqand, Xorazmdagi mahalliy xokimlar tomonidan chiqarilgan tangalar ichki savdoda keng muomilada bo'lgan.

V-VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavurlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at sopol haykalchalarni yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Sopol haykalchalar joy turlariga ko'ra turlicha bo'lib kiyim-kechaklar, yuz siymolari taqinchoqlari jihatidan ham bir-biridan farq qilgan. O'lkan hududdagi Eftalitlar juda ko'p xalqlarni o'zida birlashtirganligi sababi diniy e'tiqodlari turlicha bo'lgan. Sug'dda zardushtiylik keng tarqalgan bo'lsa, Toxariston va Sharqiy Turkistonda buddiylikka e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Shaharlarda Nasroniylar va Yahudiy jamoalari ham mavjud edi. Molilik va Mazdak ta'limoti tarafdorlari ham paydo bo'layotgan edi. Navruz kuni Buxoro otashparaslari Siyovush qabri ustida xo'roz so'yib qurbonlik qilar edilar.

Janubda Buddiylilik ta'siri ko'proq edi. Chorvador aholi Turkiycha so'zlashganligi sababli Turkiy til tobora ko'proq yoyila boshlagan. O'troq aholining katta qismi sug'diy tilda so'zlashar edilar. So'g'd tili va yozuvi yetti suv, Farg'onadan o'tib Sharqiy Turkistonga qadar yetib boradi. Uning "Samarqand usuli" keng yoyilgan edi. Bundan tashqari Xorazm Kxaroshdi, Buxoro yozuvlari ham mavjud bo'lgan. Bunday yozuv yodgorliklari Zangtepa, qoratepa, Afrosiyob xarobalaridan Kofirqal'adan topilgan.

2. Turk hoqonligi. Hoqonlik davrida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy rivoji.

Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida Turk xoqonligi davlati muhim o'rin egallaydi. Turk xoqonligi hususidagi manbalar yetarli bo'lsada, lekin ularning ko'pchiligi bir-biriga qarama-qarshiligi ma'lumotlar olindi. Birinchi navbatda VII- VIII asrlarda to'plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bu yepikgrafik yodgorliklar O'rxun-Enesey runiy yozuvlari Xitoyning "tanxonadoni tarixi" VII-IX rasr tarixiy manbasi VI asr ohirida yashagan Vizantiyalik tarixchilar Menandir, Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyachilik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiyasarlaridir.

Shuningdek, bu to'g'ridagi ma'lumotlar arab tarixchilari at-Tabariy, Denovariy (IX-X asr) o'lkamiz fuzalolaridan Abu Rayxon Beruniy, Narshahiy (X asr) va boshqalar asrlarida ham uchraydi. Keyingi vaqtda bu masalaga yanada e'tibor ko'chaydi. Arxeolog olimlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, antropologlar bu xususida yangi tadqiqotlar olib bormoqdalar. Turklar, turkiy qabilalar tarixi masalasi Toshkentda o'tkazilgan III jahon Turkologiya anjumanida ham keng muhokama etildi.

“Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Manas”, “Dada qo'rquq” kabi umumturkiy xalq dostonlari, O'rtaasrlardagi Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to'g'risida turli ma'lumotlar keltiriladi.

XI asrda yashagan alloma Mahmud Qoshg'ariyning zamondoshi Yusuf Xos Hojib o'zining “Qutadg'u bilig” (Saodatga yo'llovchi bilim) asaridaafsonaviy turk sarkardasi Alp Er To'nga to'g'risida shunday deb yozadi: “u bilimdon, zakovatli, katta hunar egasi edi, bu fazilatlari uning shonshuhratini dunyoga taratgan. U turk beklarining sarasi, ovozasi olamni tutgan, hunari talay edi. Uning tengi topilmasdi. Forslar uni Afrosiyob deb atashgan”.

Tarixda turklarning kelib chiqishi hususida ko'plab afsona, rivoyatlar ham mavjuddir. Abu Ishoq Nishopuriy jam qilgan (VIII asr) “Qissai-al anbiyo” asarida turklarning kelib chiqishi Nuh payg'ambarga borib taqaladi.

Xitoy yozma manbalarida Turklar “xun” nomi ostida eramining 92 yilida Oltoyning etaklariga kelib o'rganishganligi va jujanlardan ruxsat olib ular uchun temir qazib chiqarishni boshlaganlari haqida ma'lumot berildi. Bu ulug' Ashin urug'i nomi bilan avval boshdaatalib kelgan. Xitoylar Ashin qabilasini “Tu-kyu”, deb ham yuritilgan. P. Pel'o bu so'zni “Turk-yut” (ya'ni turkiylar) deb izohlagan. “Turk” atamasi kuchli, baquvvat degan ma'noni anglatadi.

Avval bu ulug'ga berilgan turk atamasi keyinchalik ularga yaqin turgan barcha qabila-urug'larga ham umumiy nom sifatidaaytilib ketilgan.

Ashin urug'idan bo'lgan Asan (Asyan), va Tuu, (460-545) turkiy qabilalari ittifoqigaasos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin (bu turkcha nom, xitoycha Tumin) o'ziga Tele qabilasini buysundiriladi. Endilikdaancha mustahkamlangan bu qabilalar ittifoqi o'zlari qaram bo'lib turgan jujanlardan xalos bo'lish yo'lini qidirishadi. Bumin 551 yili Markaziy Osiyodagi eng kuchli bo'lgan jujanlar xonini mag'lub etadi.

O'sha yili Bumin yangi davlat –Turk hoqonligiga (551-744) asos soladi. Ili daryosi bo'yida hukmdor deb e'lon qilingacha “Ilixon” degan unvonni oladi. Turklar hukumdori o'zini hoqon (turkcha-qag'an) deb yurita boshlaydi. Oltoydagi O'tukan shahri yangi Turk hoqonligining poytaxti qilib belgilanadi. Bumin o'z ukasi Istemiga (Istemi-turkcha, Sedimi-xitoycha, Sinjibu-arabcha, Stembi-xagan yunoncha) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaodor darajasiga to'g'ri keluvchi “Yabg'u” (bahodir) unvonini berib u bilan birgalikda o'z davlatini kegaytirish payiga boshchilik qilib tez orada SHarqiy Turkistondagi nushibi, turkash, uzli qabilaarini o'ziga buysundiradi.

Muqanxon hukmronligi davri turk hoqonligini eng qudratli pallaga olib kirdi. 554 yil Muqan hoqon SHarqqa yurish qilib Uzoq SHarq o'lkalarini o'ziga buysundiradi va Tinch okeani qirg'oqlariga chiqadi. U O'rxun, Tug'la, Selenga daryolari bo'ylaridagi qabilalarni, Yenisey daryosi bo'ylaridagi qirg'izlarni, Baykal atroflaridagi uyg'urlarni o'ziga bo'ysundiradi. Muqan hoqon eftalitlar davlatini tugatish uchun 544 yil Eron shohi Xusrav I Anusheronga elchi jo'natadi.

588 yil turklar Ural va Volga bo'ylarini zabt etib SHimoliy Kavkazdagi ko'chmanchi ovarlar bilan to'qnashadi. Turklar eftalitlar va ovarlarga qarshi kurashishda Vizantiya va Eron bilan do'stonaalqani mustaxkamlashga harakat qila boshlaydilar. Vizantiyadan foydalangan Eron eftalitlardan Toharoston, CHag'aniyon, Qobul atrofdagi yerlarni tortib oladi.

563 yildan eftalitlarga qarshi shimoldan turklar Choch vodiysiga bostirib kiradilar. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. Eftalitlar Xuttalon, Termiz, Balx, Amul, Zamm shaharlaridan yordam olib Buxoro yaqinida katta jangga tayyorgarlik ko'rdilar. 8 kunlik shiddatli jangda eftalitlar turklardan yengiladilar.

Turklar tezlik bilan harakat qilib iloji boricha eftalitlarning yerlarini ko'proq o'z ko'llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohiligacha bo'lgan yerlar, Eron, uning shimoliy sohillaridan Kaspiygacha bo'lgan yerlar turklar qo'lga o'tadi. Birmuncha vaqt eftalitlarning qolgan-qutgani Zarafshon vohasida yashab turklarga soliq to'lab turadi. Janubdagi yarim mustaqil eftalitlar yerloari sosoniylar tomonidan bir oz vaqtdan keyin butkul bo'ysundirilib olinadi. Eftalitlar davlatining mag'lubiyatidan so'ng bevosita ittifoqchilar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydi.

Hoqonlikning bevosita g'arbiy qismini boshqarib turgan Istami va bosh hoqon Muqanxon ham savdo yo'li va uning ahamiyatini yaxshi tushunib bu masalani tinchlik bilan hal qilishga harakat qila boshlaydilar. Istami Yabg'u Sug'd ixshidiga bu masalani hal etish vazifasini topshiradi. Eronga mashhur Sug'd savdogari va diplomati Moniakh boshchiligida elchilar guruhi jo'natilgan. Xusravshoh o'z atrofidagi amaldorlarning maslahatiga kirib, sug'diylar olib kelgan ipakliklarni sotib olib, so'ng uni elchilar ko'z o'ngida yig'ib yoqib tashlaydi.

Istami bu voqeadan so'ng qattiq ranjisa-da, Xusravshoh huzuriga 2-marotaba o'z elchilarini yuboradi. Bu elchilar guruhi endilikda faqat turklardan iborat bo'lib, uning natijasidan yaqin oradagi siyosat namoyon bo'lishi kerak edi. Bu safar turk elchilari zaharlab o'ldiriladi. Ularning faqatgina bir nechasigina hoqon huzuriga yetib keladi. O'z ishlarini sosoniylar "Turklar issiq ob-havoni ko'tarisha olmadilar" deb berkitishadi. Istami Husrav I Anushervon qo'shinlarini tor-mor qilib Eronning shimoliga bostirib kiradi. Eftalitlar o'z yerlarining Eronga tushib qolgan qismini yana o'z qo'llariga qaytarib oladi. Eron tinchlik sulhiga kelishib 40000 Vizantiya tillasi to'lash majburiyatini

oladi. Undan so'ng Eron bilan Vizantiya o'rtasida ham urush boshlanib, ketib, sasoniylar davlati juda nochor ahvolga tushib qoldi.

576 yili Muqan hoqon va Istami yabg'ularning vafotidan so'ng Turk hoqonligining ta'siri ancha zaiflasha boshlaydi. Eron sarkardasi Bahrom Chubin Chur-Bag'a hoqon qo'mondonligidagi 30000 kishilik turk qo'shinini tor-mol qiladi. Chur Bag'a jangda haloq bo'ladi. Bahrom Chubin Buxoro yaqinidagi Poykend shahriga bostirib Hoqon hazinasini esa Eron shohi Xurmuzdga yuboradi.

Muqon hoqon vafotidan (576 yil) so'ng taxtga uning ukasi Arslon To'ba o'tirdi. Arslon To'la buddiylikka berilgan bo'lsa-da, mamlakatni mustahkamlash uchun TSi saltanati bilan shartnoma tuzadi. Bundan tashqari u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish choralarini ham ko'rdi. Ammo, 581 yilda Arslon To'ba vafot etgach Turk hoqonlari o'rtasida o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Bu kurashlar natijasida hoqonlik ikki qismga: sharqiy va G'arbiy qismga bo'linib ketdi. Sharqiy hoqonlik Xitoy va Mo'g'ulistoni bir qismini o'z ichiga olib uni Arslon To'baning kichik o'g'li Ishbara boshqara boshlaydi.

Ikkinchi hoqon g'arbiy yerlarini-Ettisuv, Markaziy Osiyoning asosiy qismi, Sharqiy Turkiston, hozirgi Qozog'iston tasarrufini olgan Istami yabg'uning o'g'li Qora Cho'rin boshqarar edi. Qora Cho'rin Istaming vafotidan (576 yil) so'ng bu lavozimiga o'tirgan bo'lib, boshqa hoqon va xonlar ichida eng qobiliyatli va tadbirkor edi. Keyingi xonlar-To'mon va Amroq edi. Ulardan tashqari yana kichik 4 ta xon bo'lgan. Bu hokimlar o'rtasida zimdan adovat kezar, ularning ko'pi bir-biriga dushmand bo'lib, qulay vaziyat kelishini kutib turar edilar. O'zaro kurashlar natijasida mamlakat ichida ham ahvol keskinlashib, iqtisodiy tanazzul boshlanib ketdi.

Shu vaqtda keskin vaziyat paytida turkiy shahzoda Obro'y boshchiligidagi xalq harakati (585-586 yillar) bo'lib o'tdi. Obro'y harakati to'g'risida uzuq-yuluq ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan Abdurhmon Muhammad Nishopuyriyning (XI asr) "Hazinat-al-ulum" asaridagi bu masalaga bag'ishlangan parcha Narshahiyning "Tarixi Buxoro" asariga kiritilgan. Uning yozishicha Obro'yning qarorgohi Poykandda bo'lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazort o'rnatgan. Bunga chiday olmagan zodagonlar Turkiston tomoniga yo'l olishgan. Obro'y atrofida esa qashshoq dehqonlar guruhlar yig'ila borgan.

O'zaro muttasil urushlar hamada taxt talashishlar mamlakatni parchalanib ketishi va ma'naviy iqtisodiy inqiroz holatiga olib keldi. Qora Cho'rin qarib qolgan vaqtida taxminan 600 yillarga kelib o'zini xoqon deb e'lon qiladi. Qora Cho'rin Bug'u xoqon (qahramon xoqon) degan nomni olgan edi. Xoqonlikdagi og'ir vaziyatdan foydalangan Xitoy imperatori ichki nazolar keltirib chiqarishga harakat qiladi. 582-603 yillardagi o'zaro urushlardan so'ng 603 yil xoqonlik to'la mustaqil 2 qismga: Sharqiy va G'arbiy qismlarga aylandi. G'arbiy xoqonlik ta'siri ostida Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Irtish, Ishim daryolari

bo'yidagi yerlar, Markaziy Osiyoning kichik yarim mustaqil davlatlari uning tarkibida bo'ldi.

Feodal munosabatlar rivojlanayotgan G'arb hoqonligining ijtimoiy tarkibi ham, siyosiy boshqaruvi ham ancha-muncha murakkab edi. Yarim asrlik hukmdorlik jarayonida turklarning bir qismi o'troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan aralashib ketadi. O'troq hayotning an'anaviy –ma'muriy udumlari ta'sirida boshqaruv tarkiblari asta-sekin o'zgarib, turklarning ijtimoiy va siyosiy mavqei mustahkamlanib boradi. Turklar siyosiy hayotda faol qatnashib, Markaziy Osiyo siyosatining hamma jabhalarida teng qatnasha boshladilar. Hoqon SHeguy vafotidan keyin (618 yil) hokimiyati kelgan To'n yabg'u (To'n bahodir) davrida G'arbiy hoqonlik yanakuchayadi.

3.Movarounnahr arablar tomonidan istilo etilishi va arablarga qarshi harakatlar. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi. Qur'oni- karim-muqaddas kitob.

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablarning ko'p asrlik hukmronligi bilan bog'liq. O'rta Osiyoga arab yurishlari 643-644 yillarda boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. VII asrning o'rtalarida Arabiston yarim orolida yashovchi tarqoq arab qabilalari Islom ta'limoti asosida markazlashgan kuchli Arab halifaligini tashkil qildilar. Bu harakatni rahbari Payg'ambarimiz Muhammad Ibn Abdulloh edi. Arablar tez fursat ichida qo'shni davlatlar Eron va Vizantiyani bosib oladilar. Misr, Suriya, Falastin davlatlari bo'ysundiriladi. Islom dini jahon dinlaridan biriga aylanadi. Arablar Movarounnahrda 705 yilda Qutayba Ibn Muslim boshchiligida yurishni boshlab Balx shahrini egallaydilar. 707 yilda Qutayba katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib Buxoro vohasiga bostirib kiradi. Poykand shahrini qamal qilib, qattiq qirg'indan so'ng uni egallaydi. 708-709 yillarda Buxoroni bosib oladi. Shunday qilib 10 yil davomida muttasil olib borilgan qonli janglar natijasida Movarounnahr Arab halifaligiga bo'ysundiriladi. Movarounnaxr bosib olingach istilochilar barcha shahar va qishloqlarga o'z harbiy qismlarini joylashtiradilar, siyosiy xokimiyatni mustahkamlash va uni barqarorligini ta'minlash uchun Islom dinining targ'iboti va uni yerli aholi o'rtasida tarqatish ishlari bilan shug'ullanadilar. Ular harbiy kuchga tayanib, aholidan turli soliqlar undirib, ularni turli jamoa ishlariga safarbar etadilar. Movarounnahrning iqtisodiy hayotini o'z qo'llarida jilovlash uchun istilochilar bu yerda ham sosoniylarning soliq tartibini joriy etadilar. Tartib buyicha ekin yerlaridan 0,20-0,25 hissa miqdorida xiroj, chorva hunarmandchilik va savdo sotiqdan qirqdan bir hissada zakot hamda islom dinini qabul qilmagan ma'jusiylardan esa juzya solig'i olingan.

VIII asrning 70-80 yillarida Movarounnahrda Arablarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni deb atalib o'nga Marvlik hunarmand Xoshim ibn Haqim rahbarlik qildi. U "Muqanna" ya'ni niqobdor laqabini olgan, u savodli va bilimdon shaxs bo'lgan. Qo'zg'olon Marvda boshlanib tez orada So'g'd, Qashqadaryo vodiysiga yoyiladi. Kesh shahri yaqinidagi som qal'asi qo'zg'olon markazi bo'lgan. Oq kiyimliklar harakati kengayib xalq harakatiga aylanadi. Bu qo'zg'olonni bostirish uchun xalifa katta kuch to'playdi, ammo ko'zg'olonchilardan katta talofat olib, Samarqandga chekinadi. Qo'zg'olon 776 yilda Buxoroga yoyildi. Narshah qal'asi qo'zg'olonning markaziga aylanadi. Son jihatidan ustun arablar Narshox qal'sini egallab, qo'zg'olon raxbarini o'ldiradilar. Arablar endi qo'zg'olon markazi bo'lmish Samarqand va Kesh viloyatlariga katta kuch bilan yurish boshlaydilar. Oq kiyimliklar arablarga qarshi ikki yil jang qiladilar. Nixoyat qo'zg'olonchilar yengilib Samarqand shahri bosib olinadi. Kurashning ohirgi bosqichi Kesh vodiysida tog'lar orasida bo'ladi. Som qal'asi uzoq muddat kamaldan so'ng taslim bo'ladi. Muqanna o'zini yonib turgan olovga tashlab xalok qiladi. Sunday qilib 10 yil davom etgan Arab xalifaligini larzaga keltirgan qo'zg'olon bostiriladi. Qo'zg'olonni yengilishiga sabab qo'zg'olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qilmadilar. Mahalliy zadogon dehqonlar arablar tomoniga o'tib sotqinlik qildilar. Qo'zg'olonning uzoq davom etishi qo'zg'olonchilarni tinka (madori) ni quritdi. Arablar qo'zg'olonchilarni kuchlarini bilib har bir viloyatda alohida-alohida ravishda bostirdilar.

Arab istilochilari Movarounnahrni bosib olgach, o'z hukmronligini mustahkamlash uchun Islom dinini majburan qabul qildirishga asosiy e'tiborni qaratdilar. Movarounnahrning taqvodor aholisini uzil kesil bo'ysundirishda yagona dinga-islom diniga birlashtirish xal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ular yaxshi tushunar edilar. Shu boisdan ular yerli aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan otashparastlik, Moniy, Budda kabi dinlarni xurofot sohta dinlar deb e'lon qildilar. Ayniqsa Movarounnahr aholisining asosiy dini xisoblangan otashparastlikka qarshi qattiq kurash olib bordilar. Ibadatxonalarini vayron qilib o'rniga jome masjidlarini bino qildilar. Diniy kitoblar yoqib yuborildi, din arboblari-koxinlar quvg'in qilindi.

Islom dinini qabul qilib musulmon bo'lgan aholiga dastlabki yillarda xiroj va juz'ya soliqlaridan ozod etilib, imtiyozlar berildi. Namoz o'qish uchun masjidga borganlarga ikki dirhamdan pul berildi. Islomni qabul qilishdan bosh tortgan aholidan jon boshi solig'i-juz'ya undirib olindi. Og'ir soliqlardan qutilish uchun birinchi navbatda aholining eng kambag'al katlami islomni qabul qildilar. Biroq ular nomigagina musulmon bo'lib uzoq vaqtgacha o'z dinlariga sodiqligicha qolganlar.

Shunday qilib arab istilochilari tomonidan Movarounnahrni bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqni urf-odati, dini va e'tiqodi, qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyati poymol etildi. Istilochilar Movarounnahrning hamma joylarida mahalliy din namoyondalarini, madaniyat, adabiyot va ilm ahillarini

quvg'in qildilar va qatl etdilar. So'g'd yozuvida bitilgan diniy va shariy kitoblarni, ilmiy asarlarni, qimmatli hujjatlarni yo'q qildilar. Islom dini arab tili va yozuvi, xalifalik qonun va qoidalari zurlik bilan joriy etildi. Natijada Movarounnahr xalqi uzoq davr mobaynida besavod bo'lib qoldi. Arablar keltirgan va yerli aholi uchun mutloqo yot bo'lgan imloni o'zlashtirib savodxon bo'lish uchun yanaasrlarga teng avlodlar umri sarf bo'ldi.

Amir Kutayba 715 yili hozirgi Andijon viloyati, Jalaquduq tumanida unga qarshi isyon ko'targan o'z askarlari tomonidan o'ldirilgan. Amir Kutayba askarlariga qattiq qarshilik ko'rsatgan Xorazm, Termiz, Buxoro, Samarqand, Farg'ona kabi Turkiston hududlari keyinchalik Islom dinining eng yirik markazlari bo'lib qoldi. Musulmon dunyosiga buyuk Xorazmiylar, Buxoriylar, Termiziylar, Farg'oniy, Samarqandiylarni yetishtirib berdi.

4. Xadislar va ularning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Islom dini ta'limotini rivojlantirishda O'rta Osiyolik olimlarning hissasi. Ma'naviy kamolotga erishuv yo'lida muhaddislar merosining ahamiyati

Islom dini diyorimizda qaror topgandan keyingi davrdagi ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti alohida bir bosqichni tashkil qilib, u bevosita islomiy ilmlar rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Bu o'rinda yana shuni ta'kidlash kerakki, yuksak madaniy mentalitet va ilmiy salohiyatga ega xalqimiz yangi kirib kelgan islom diniga ham yuksak madaniyat sohiblari sifatida ijodiy yondashdi. Binobarin, diyorimiz ahli bu dinning tom ma'noda insonparvar farahbaxsh, bunyodkorlik g'oyalari faqat yaxshilikka, ezgulikka, taraqqiyotga, insonning ma'naviy kamolotiga karatilganligini tez idrok etib, uning hayotiy asl mazmun-mohiyatini teran angladilar. SHu boisdan ham bu muborak dinga nafaqat ibodat qilish, bir qator islomiy urf-odatlar, marosimlarni bekami-ko'st ado etish bilan birga unga ilmu-irfon, mukammal nazariya, hayotiy falsafa va ta'limot sifatida yondashdilar. Boshqacha qilib aytganda bizning zaminimizda islom diniga munosabat ilk davrlaridan e'tiboran chuqur, fundamental ilmiy asosga tayanib, amalga oshirildi. Bu munosabat o'z navbatida islom dinining asosiy manbalari Qur'oni karim va janob Paygambarimiz Muhammad alayhissalomning hadisi shariflarida keltirilgan ulug' g'oyalar bilan to'la ham ohangdir. SHu boisdan ham bu jarayon har bir mo'min-musulmonning ilmli, ziyoli, ma'rifatli bo'lishi, ilmning xosiyatlari va fazilatleri haqidagi Qur'oni karimdagi ko'pdan-ko'p oyatlar va ayniqsa, ilmu ziyoning inson uchun o'ta zarurligi xaqidagi Rasulullohning ko'rsatmalari, xususan, Sarvari olamning «eng yaxshi ibodat ilm olmoqlikdir», degan muborak hadisleri bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirildi. Ilmli, ma'rifatli bo'lishlik zudlik bilan muayyan qoidalar va dasturlarni ishlab chiqish, oxir-oqibatda o'z davrining dorilfununlari hisoblangan madrasalarni ochilishi bilan bu jarayon faoliyati o'z samarasini bera boshladi. E'tiborli tomoni shundaki,

musulmon olamidagi dastlabki madrasalar VIII asrning oxirlarida o'sha davrdagi yirik shaxarlar - ilmiy-madaniy markazlar hisoblangan Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Xiva, SHosh (Toshkent), Farg'ona, Marg'ilon kabi qadimiy shaharlarda faoliyat ko'rsata boshladi. Bu fikrimizga dalil sifatida taniqli tarixchi Mirza Muhammad Boqir al-Xavansoriy al-Isfahoniy o'zining «Ravzot al-jannat fi ahvol al-ulamo vas-sodat» («Olimlar va sayyidlarning ahvollari haqida jannat bo'stonlari») nomli asarida «musulmon olamida dastlabki madrasalar Buxoroda ochilgan edi», deb ta'kidlaganini ko'rsatish mumkin. Diniy ilmlar majmuasi, islomiy madaniyat va ma'rifat mukammal tarzda o'rgatilgan ushbu o'quv dargohlarida dunyoviy ilmlar xam chuqur o'rganilardi. Bu ilm maskanlarida nafaqat mahalliy yoshlar balki, sharqning turli mamlakatlaridan kelgan ko'pdan-ko'p talabalar ham diniy va dunyoviy ilmlardan tahsil olardilar. Islom olamidagi madrasalar tarixi bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borgan iroqlik yirik olim Nojiy Ma'rufning yozishicha, «VIII asrning oxirlaridayoq Buxorodagi imom Abu Hafs al-Kabiyr al-Buxoriy (767-832) madrasasida (bu o'quv dargohlari «Madrasat hafsiyya» nomi bilan atalgan) musulmon olamining ko'plab mamlakatlaridan kelgan tolibi ilmlar saboq olganlar». Ushbu madrasa qoshida boy kutubxona, maxsus qiroatxona mavjud bo'lib, talabalar oylik maosh (stipendiya), ko'p hollarda esa oziq-ovqat bilan ham ta'minlanganlar. Keyinchalik esa egallagan ilmini yanada takomillashtirish, uni kamoliga yetkazish maqsadida boshqa o'lkalarga, xususan, SHarq mamlakatlaridagi dovrug'i dunyoga tarqalgan ilmiy markazlarga safarlar qilish odat tusiga kira boshlagan. Bu amalga oshirilgan katta ilmiy-ma'rifiy ishlar, albatta, o'z samarasini ko'rsatmay qolmadi. Tez orada diyorumizdan turli ilmlar bo'yicha olamshumul yutuqlarga erishgan buyuk allomalar yetishib chiqdilar. Ulardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabilarning aniq va tabiiy fanlar bo'yicha yaratgan bebaho ixtirolari va kashfiyotlari yurtimizning dovrug'ini butun dunyo bo'ylab taratdi.

Ma'lumki, islomiy ilmlar (tafsir, hadis, fiqh, kalom va hokazo) bo'yicha Movarounnahr va Xurosondan chiqqan olimlarning yaratgan asarlari va ta'limotlari islom dini taraqqiyotida alohida ahamiyatga egadir. Bu o'rinda zaminimizdan chiqqan ko'plab buyuk mufasssirlar va Qur'bon hofizlari bilan har qancha faxrlansak arziydi. Islomiy ilmlar Allohning kalomi - Qur'oni karimga asoslangan va u bilan bevosita bog'liq ilmlardir. SHulardan eng muhimi tafsir ilmi hisoblanadi. Yaxshi ma'lumki, Qur'oni karimni o'qib, uni mazmun-mohiyatini to'la darajada tushunish har qanday kishiga bir muncha og'irlik va murakkablik tug'diradi. Buning sababi shuki, muqaddas Kitob suralari va oyatlari zamiridagi ilohiy mazmuni anglash katta bilim talab qilish bilan bir

qatorida, bu Kitob uslub va til nuqtai nazaridan ham g'oyatda murakkab manba hisoblanadi. SHuning uchun ham odamlar Kalomullohni chuqur idrok etish uchun va mazmun mohiyatiga imkon qadar to'liqroq yetishish uchun unga tafsirlar yozilgan. Qur'onni tafsir etuvchilarni mufassirlar deyiladi. Bu iborani arabchadan o'zbek tiliga tarjima qilsak, tafsir etuvchi, sharhlovchi, izohlovchi degan ma'nolarni anglatadi. SHu nuqtai nazardan mufassirlar Qur'onni ilmiy asosda sharhlab, kishilarga tushunarli tarzda yetkazib berganlar. Agar mufassirlar tarixiga nazar solsak, bizning yurtimizdan ham tafsir ilmi bilan shug'ullangan bir qator mufassirlarni ko'rish mumkin. X asrda faoliyat ko'rsatgan samarqandlik taniqli olim Abul Lays as-Samarqandiy (913-985) fiqh, usul, aqida, tasavvuf bo'yicha ko'plab asarlar yaratgan. Lekin bu olimning eng mashhur asari Qur'oni karimga yozilgan tafsiri «Bahr ul-ulum» («Ilmlar dengizi») nomli asari bo'lib, u «Tafsir Abul Lays» nomi bilan ham mashhur. Tafsir ilmida muhim hisoblangan bu asarning qo'lyozma nusxalari Qohirada va Toshkentda saqlanib, uning Misr olimlari tomonidan 3 jilddagi nashri tayyorlanib, u 1993 yili Bayrutda chop etilgan.

Xorazmlik buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144) hadis, fiqh, arab tili (nahv-sarf), odob-axloq, geografiya, aruz kabi ilmlarga oid oltmishga yaqin asarlar yozgan bo'lib, ularning orasida allomaning Qur'oni karimga bag'ishlangan «al-Kashshof» nomli tafsiri alohida o'rin egallaydi. U bu tafsirida arab tilining balog'ati va fasohati hamda lug'aviy imkoniyatlaridan g'oyatda katta mahorat bilan foydalangani barcha olimu ulamolalar tomonidan yuqori baholanib keladi.

Yurtimizdan chiqqan taniqli mufassirlardan yana biri Abul Barakat an-Nasafiy (1232-1310) bo'lib, uning qalamiga mansub «Madorik at-Tanziyl an haqiq at-ta'vil» nomli qimmatli tafsirni aytish mumkin. Bu tafsirning qo'lyozma nusxalari arab mamlakatlarida, shuningdek, Londondagi «Britaniya kutubxonasida» ushbu tafsirning o'n ikkita qo'lyozma nusxasi saqlanishi ham uning ilmiy-amaliy qimmati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

«Ash-Shayx ar-ra'is» degan o'ta yuksak ilmiy maqomga sazovor bo'lgan, tabobat, falsafa va mantiq ilmlarining allomasi hisoblangan Abu Ali ibn Sino (980-1037) hazratlari o'z samarali ilmiy ijodiy faoliyati davrida Qur'oni Karimning bir qancha suralariga tafsir yozganlari ham ilm ahllariga yaxshi ma'lum. Toshkentda, Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutida Qur'onning uchta oxirgi («al-Ixlos», «al-Falaq», «an-Nos») suralariga Abu Ali ibn Sino tomonidan yozilgan tafsirning qo'lyozma nusxalari saqlanadi. Londondagi «Britaniya kutubxonasi»da esa buyuk vatandoshimizning o'n bitta muborak suralarga yozgan tafsirlarining qo'lyozmalari mavjud ekan.

Hadisshunoslik. Qur'oni karimni o'rganadigan fanlar, ilmlardan tashqari, payg'ambarimiz hadislarini har tomonlama chuqur o'rganish munosabati bilan hadis ilmi paydo bo'lgan. Rasululloh alayhissalom ummatlarim islom dinini tushunishga qiynalmasin, ularning maishiy turmushi, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga osonlik bilan kirib borsin degan maqsadda sodda tilda hadislar aytganlar. Qur'oni karimni ko'pchilik o'qigan, biladi, iboralari juda murakkab, juda qiyin. Mufassal yozilgan tafsirlar yordamida qayta-qayta o'qishni talab etadi. Hadislar esa juda oddiy, sodda va lo'nda qilib aytilgan. «Vatanni sevmoq iymondandir», «Eng yaxshi ibodat ilm egallashdir», «Beshikdan qabrgacha ilm izla» kabi hadislarini misol tariqasida keltirish mumkin. Bir safar sahobai kiromlar Payg'ambarimizdan so'rabdilar:

- Eng yaxshi inson kim?

SHunda Payg'ambarimiz alayhissalom aytibdilar:

- Odamlarning eng yaxshisi, boshqalarga nafi tegadiganidir.

SHunday purma'no, hikmatli gaplar naqadar aniq, sodda va tushunarli holda aytilganligi uni to'liq tushunib, idrok qilishda katta ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, hadislarining rivoyat qilish uslubi haqida ham gapirish mumkin. Bu ilmi rivoyat deb aytiladi. Rivoyat qilishning ham o'z qonun-qoidasi bor. Bu ilm roviylar aytgan hadislarining qay darajada sahih – ishonchli yoki ishonchsiz, noaniq, xato, chalkash, soxtaligini aniqlashga xizmat qilgan. Muhaddislar hadis sifatida talqin qilingan gaplarning bunisi haqqoniy, bunisi soxta deb ajratib berishgan. Ko'plab buyuk hadisshunoslarning yurtimizdan yetishib chiqqanligi har birimizda faxr-iftixor uyg'otadi.

Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan dastlabki muhaddislardan biri marvlik mashhur olim Abdulloh ibn al-Muborak al-Marvaziy (736-798) bo'lib, u o'z davrining ko'plab olimlaridan hadis va fiqh ilmlarini o'rgangan. Uning mashhur ustozlaridan Abu Hanifa va Molik ibn Anas kabi sunniy yo'nalishning ikki mazhabining (hanafiya va molikiya) asoschilarini ko'rsatish mumkin. Abdulloh ibn al-Muborak al-Marvaziy o'nga yaqin asarlar yozgan bo'lib, ularning aksar qismi hadis ilmiga bag'ishlangan. Yurtimizdan chiqqan yana yirik bir muhaddis imom ad-Dorimiy (798-869) Samarqand yaqinidagi Dorimda tavallud topgan. Bu olimning qalamiga mansub asarlar ichida uning hadis ilmining turli masalalariga bag'ishlangan asarlari asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda allomaning eng mashhur asari «Al-Musnad» bo'lib, bu asar «Sunan ad-Dorimiy» nomi bilan mashhur. Asarning ikki jilddan iborat nashri 1996 yilda Livan poytaxti Bayrutdagi «Dor al-kutub al-ilmiyya» matbaasida chop etilgan. Ushbu asar muqaddima va ko'plab kitoblardan iborat bo'lib, o'z navbatida har bir kitob ham ko'p sonli boblardan tashkil topgan. E'tiborli tomoni shundaki, Imom ad-Dorimiy o'z asari «Sunan»da keltirilgan hadislarini deyarli u yashagan davrda faoliyat ko'rsatgan buyuk

muhaddislar – al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud as-Sijistoniy, at-Termiziy, an-Nasoiy, Ibn Moja va boshqa ko'plab taniqli hadisshunoslar o'z asarlarida keltirganlar. «Hovlisida xurmo daraxti bor xonadon ahli hech qachon och qolmaydi» yoki «eng yaxshi nonxurush (priprava) sirkadir» kabi hadislarni yuqorida zikr qilgan ko'pchilik muhaddislar Imom ad-Dorimiydan rivoyat qilganlar.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning olti yuz mingga yaqin muborak hadislarini yodlarida saqlagan benazir alloma imom al-Buxoriy hazratlari haqida uning zamondoshlaridan biri taniqli olim Amr ibn Ali al-Qallosning «Imom al-Buxoriy bilmagan hadis-hadis emas», -degan yuksak va samimiy bahosiga bir e'tibor bering-a! Bundan ayon bo'ladiki, buyuk muhaddis imom al-Buxoriy hazratlari Payg'ambarimiz alayhissalomning muborak tillaridan sodir bo'lgan barcha hadislardan xabardor bo'lgan ekanlar-da! Arab olimining bu yuksak e'tirofini barcha muhaddislarning imomi (imomu-l-muhaddisiyn), hadis ilmining sultoni (amiru-l-mu'miniyn fi-l-hadiys), butun dunyoning imomi (imomu-d-dunyo) degan o'ta sharafli rutbaga sazovor bo'lgan imom al-Buxoriy hazratlarining aql bovar qilmaydigan darajadagi noyob ilmiy salohiyatiga xolisona baho, umumbashariy ta'zim va ehtirom deb izohlash mumkin.

Payg'ambarimiz alayhissalom hadislarining asliyatini ilmiy asosda aniqlash va jamlash masalasida imom al-Buxoriyning xizmatlari beqiyosdir. Bu yo'nalishda buyuk muhaddis birinchilardan bo'lib ishlab chiqqan talab va qonun-qoidalar hadis ilmida «Imom al-Buxoriy shartlari» («SHurut al-imom al-Buxoriy») yoki «Sahih al-Buxoriy shartlari» («SHurut «Sahih al-Buxoriy»») deb atalib, undan keyingi barcha muhaddislar tayanib asarlar yaratadigan asosiy dasturulamal vazifasini o'tagan.

Buyuk muhaddisning qalamiga mansub yigirma beshdan ortiq asarlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati hadis ilmi va uning turli masalalariga bag'ishlangan. Mana shu asarlar ichida uning «al-Jome' as-Sahih» asari islom dini ta'limotida Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turadigan ikkinchi muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Bashariyat tarixidagi eng buyuk siymolardan biri hisoblangan imom al-Buxoriy ming afsuski sobiq tuzum davrida o'z maqomlariga munosib hurmat-e'tibor ko'rmadilar. Faqat mustaqillik sharofati bilan buyuk muhaddisga hurmat bajo keltirildi. CHunonchi, O'zbekiston hukumatining qarori bilan 1998 yilning kuzida buyuk alloma tavalludining 1225 yilligi (hijriy hisobda) keng ko'lamda nishonlanib, uning hayoti va benazir ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishda e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning bevosita rahnamoligida Imom al-Buxoriyning Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida joylashgan maqbarasi zamonaviy, betakror sharqona uslubda

batamom qayta qurilib, musulmon olamining eng tabarruk ziyoratgohlaridan biriga aylandi.

Yurtimizdan chiqqan buyuk muhaddislardan yana biri Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892)dir. Imom at-Termiziy asarlarining ichida eng mashhuri shubhasiz «Al-Jome'» bo'lib, u oltita ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-Jome' as-sahih», «Jome' at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» nomi bilan ham atalib, Payg'ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan hisoblanadi.

Imom at-Termiziyning mashhur asarlaridan yana biri «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarning shakl- shamoyillari») bo'lib, ba'zi manbalarda «Ash-shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vasallam» nomi bilan ham keltiriladi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu asar Payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatlari, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, Payg'ambar alayhissalomning fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarini to'plash bilan juda ko'p muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan. Lekin at-Termiziy asarining afzalligi shundaki, u hadislarini muntazam ravishda to'plab, muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob holiga keltirgan. Muhammad alayhissalomning hayotiga doir muhim manba sifatida «Ash-shamoil an-nabaviya» azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Ushbu asarning tili ravon, uslubi g'oyatda oddiyligini ham qayd qilib o'tish o'rinlidir. Asarning fors va turk tillariga tarjima qilinishi ham unga bo'lgan qiziqishning kattaligidan dalolat beradi.

«Ash-shamoil an-nabaviya»ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar Payg'ambarimiz alayhissalomning suvrat (tashqi qiyofa)lariga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyolari-yu axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag'ishlangan.

«Ash-shamoil an-nabaviya»ning XVI asrga oid bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. 1980 yilda Toshkentdagi musulmonlar diniy idorasi buyurtmasi bilan «Ash-shamoil an-nabaviya»ning ushbu qo'lyozmasi ofset tariqasida nashr etilgan bo'lib, unga qisqacha so'zboshi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi hay'atining sobiq raisi, marhum muftiy Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari tomonidan yozilgan.

«Ash-shamoil an-nabaviya» so'nggi yillarda ham Toshkentda bir necha bor nashr etildi. Bundan tashqari allomaning 1200 yillik yubileyi (1990) munosabati bilan gazeta va jurnallarda asar va uning muallifi haqida ko'plab maqolalar chop etildi, Surxondaryo viloyati SHerobod

tumanida joylashgan maqbaralari mustaqillik yillarida batamom qaytadan ta'mirlanib, qutlug' ziyoratgohga aylantirildi.

Fiqhshunoslik. Diniy ilmlarning asosiylaridan biri fiqh ilmini alohida aytishimiz lozim. Fiqh ilmini talqin qilganimizda, uni islom, shariat qonunshunosligi, yurisprudentsiyasi deb, atash mumkin. Bizning yurtimizdan chiqqan buyuk ajdodlarimiz bu ilm sohasida ham peshqadamlardan bo'lishgan. Mana shunday buyuk faqihlardan biri Burhoniddin al-Marg'iloniy (1123-1197) hisoblanadi. Uning «al-Hidoya» nomli fiqhiy asari yaratilgan davrdan to hozirgacha sharq va g'arbning dorilfununlari va madrasayu o'quv yurtlarida shariat ahkomlarini chuqur o'rganishda ahli sunna va jamoa, ya'ni sunniy mazhabi uchun dasturul amal asarlardan biri sifatida foydalaniladi. 2000 yilda O'zbekiston hukumatining qaroriga ko'ra Burhoniddin al-Marg'iloniy tavalludining 910 yilligi keng ko'lamda nishonlanib, allomaga chuqur hurmat-ehtirom bajo keltirildi.

Yurtimizdan chiqqan mashhur faqihlardan biri, o'z davrining yetuk faqihi Alouddin as-Samarqandiy (vafoti 1144) bo'lib, afsuski, uning hayoti haqida bizgacha juda oz ma'lumot yetib kelgan. Uning tafsir, aqid, kalom va fiqh ilmlariga oid asarlar yaratgani ma'lum. Mana shu asarlari jumlasidan fiqh ilmiga oid «Tuhfat al-fuqaho» («Faqihlarga tuhfa») nomli asarini ko'rsatish mumkin. U bu asarida fiqhiy muammolarni va mavzularni chuqur o'rganib tartibga solish, shar'iy dalillar bilan isbotlash uslubining asoschilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. SHu nuqtai nazardan Alouddin as-Samarqandiyni Movarounnahr fiqh maktabida o'zining munosib o'rniga ega olim bo'lgan deyish mumkin.

Kalom ilmi. Islomiy ilmlar haqida gapirilganda, kalom ilmini aytmaslik mumkin emas. Kalom ilmi o'zi nima? Umumiy qilib aytganda, kalom ilmi deb, diniy aqidalar va ularning usullarini aqliy va naqliy dalillar asosida talqin qilib, ular ichidagi har qanday shubhali, bir tomonlama qarashlarga barham beradigan ilmga aytiladi. Kalom ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar mutakallimlar deyiladi. Kalom arabcha - nutq, jumla, gap-so'z degan ma'nolarni anglatadi. Boshqacha aytganda, bu ilm islom falsafasi, aqidaviy masalalarni o'rganadi. Islom dinimizda aqida masalasi juda ahamiyatli hisoblangan. Aytish mumkinki, bugun aqidaviy kelishmovchiliklar, ixtiloflar kuchaygan bir paytda kalom ilmi eng muqobil ma'rifiy, ta'sirchan kuch vazifasini o'tashi shubhasiz. Munozaralar, ortiqcha ehtiroslarga berilish, ba'zan janjallarga aylanib ketadigan ko'p omillar aqidaviy masalaga kelib taqaladi. Aqidaviylikdan mutaassiblik paydo bo'lishi hech gap emas. Mutaassiblar ko'pincha noto'g'ri ta'limotlarga yopishib olishadi-da, bir tomonlama fikr yuritib, boshqalarning fikr-mulohazalarini tan

olmay inkor qilishadi. SHuning uchun kalom ilmi islom falsafasi ham deyilgan. E'tiborga molik tomoni shundaki, yurtimizdan buyuk mutakallimlar yetishib chiqqan bo'lib, o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan mashhur olim imom Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) kalom ilmida yuksak darajaga erishganlardan biridir. Imom al-Moturidiy, eng avvalo, kalom ilmi sohasida tom ma'noda tarixiy ishlar qilgan, o'ziga xos maktab yaratgan va bu maktab o'shandan buyon uning tabarruk nomi bilan Moturidiya maktabi (yo'nalishi) deb yuritiladi. U, shuningdek, fiqh ilmi rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan allomalardan biri.

O'rta asrlarda yashab o'tgan ko'p allomalardan farqli o'laroq, imom al-Moturidiy xorijiy yurtlarga safar qilmagan. Ehtimol, shu bois uning ta'limoti, xususan, kalom ilmi sohasidagi ta'limoti ham olim yashagan davrda boshqa o'lkalarga keng ko'lamda tarqalmadi. Muqoyasa uchun aytadigan bo'lsak, kalom ilmining benazir allomalardan yana biri – Ash'ariya maktabining asoschisi imom Abulhasan al-Ash'ariy Bag'dodda yashab faoliyat ko'rsatganligi tufayli uning nomi ham, ta'limoti ham olim yashagan davrdan e'tiboran musulmon SHarqida ancha ma'lum bo'lgan.

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning kalom va fiqh ilmlari sohasidagi qarashlari uning «Kitob at-tavhid» va «Kitob ta'vilot ahl as-sunna» asarlarida bayon etilgan. Bu boradagi ko'p qimmatli ma'lumotlar allomaning vafotidan keyin Moturidiya ta'limotiga bag'ishlab yaratilgan qator asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Bilish (ma'rifat) nazariyasi kalom ilmi bilan shug'ullangan olimlarning doim diqqat-e'tiborida bo'lgan. Bu masala bilan ilmiy asosda jiddiy shug'ullangan olimlardan biri ham - Abu Mansur al-Moturidiy. Uning qalamiga mansub ikkala yirik asar - «Kitob at-tavhid» va «Ta'vilot ahl as-sunna» dastlabki qismlaridanoq bilish nazariyasiga bag'ishlangan. Ayniqsa, «Kitob at-tavhid» asari kalom ilmidagi bilish nazariyasiga oid eng dastlabki manba bo'lib, unda ushbu masala g'oyatda nafis uslubda ifoda etiladi. Imom al-Moturidiy ta'limotiga ko'ra, bilishning uch asosiy manbai bor: hissiy (sezgi a'zolari vositasida) bilish, naql (rivoyatlar vositasida, ya'ni Qur'on oyatlari va hadislar asosida bilish) va aql (idrok) vositasida. Mavridi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, imom al-Moturidiyning bilish nazariyasida aql-idrokning alohida o'rne bor va unga ayricha ahamiyat beriladi.

Imom al-Moturidiyning boshqa yirik asari «Ta'vilot ahl as-sunna» yoki «Ta'vilot ul-Qur'on» deb ataladi. Mazkur asarning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta. U ahli sunna ulamolari tomonidan Qur'oni karimni sharhlash (ta'vil qilish) bo'yicha qilingan dastlabki jiddiy urinish bo'lib, bu sharh aql va naql nuqtai nazaridan

amalga oshirilganligi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, Qur'oni karim imom al-Moturidiyning kalom ilmiga oid ta'limoti nuqtai nazaridan turib tafsir qilingan.

Imom al-Moturidiyning fikricha, insonlarning yomon xulqlari – gunohlari Allohning irodasi bilan (chunki Alloh bu ishlarni taqdir qilgan), lekin uning roziligisiz amalga oshiriladi. Alloh taolo insonlarni erkini o'ziga bergan holda yaratgan, ya'ni shu harakatlarni azalda taqdir etib qo'ygan bo'lsa-da, insonning ba'zi ishlariga sohib ixtiyorligi ham bor. Buni imom al-Moturidiy «af'oli ixtiyoriy» deb atab, «insonda iroda erkinligi mavjud» deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, imom al-Moturidiyning «Kitob at-tavhid» va «Ta'vilot ahl as-sunna» asarlari buyuk alloma merosini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Ularda islom dini falsafasini tashkil etadigan kalom ilmining turli masalalarida talay haqqoniy fikrlar ilgari surilgan, aqidaviy haqiqatdan adashgan firqalar ilmiy nuqtai nazardan tanqid qilingan.

O'tgan yili 2700 yillik tarixini nishonlagan Qarshi (Nasaf)dan yetishib chiqqan yirik olim Abul Mu'yin an-Nasafiy (1027-1124) o'zining ma'naviy ustози imom al-Moturidiy ta'limotini yangi g'oyalar bilan boyitib moturidiya ta'limotining butun SHarq mamlakatlariga tarqalishida ulkan hissasini qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Tabsirat al-adilla», «Bahr al-kalom» va «Kitob at-tamhid li qavoid at-tavhid» nomli kalomiy asarlari aqidaviy masalalarni chuqur, ayni vaqtda sodda va ixcham tarzda sharhlaydigan muhim manbalardan hisoblanadi. O'rni kelganda aytish kerakki, Toshkent islom universitetining yosh tadqiqotchilari Abul Mu'yin an-Nasafiyning asarlari ustida talay ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lib, bu xayrli ishlar kelajakda yanada davom ettiriladi. Nasaflik yana bir taniqli olim Makhul an-Nasafiy (vafoti 930 yil) ham o'zining «Kitob ar-rad ala ahl al-bidat val ahva» (Bidat ahli va aynigan havoiylarga raddiya kitobi)nomli asarida o'sha davrda paydo bo'lib, xilma xil ixtiloflarni keltirib chiqargan ko'plab diniy oqimlar va firqalar haqida to'liq ma'lumotlarni olish mumkin. Muallif ushbu qimmatli asarida o'rta asrlarda islom olamida paydo bo'lgan ko'p sonli oqimlarni olti guruhga ajratib keltirgan: qadariya, jahmiya, rofiziya, haruriya, jabariya, murji'a. O'z navbatida, har bir guruh 12 toifaga ajratilgan bo'lib, asarda jami 72 guruh va firqalar, ularning tasniflari haqida bayon qiladi. Makhul an-Nasafiy bu guruhlardan har biri ilgari surgan botil g'oyalar va asossiz da'volarning bid'at va xurofot ekanligiga Qur'oni Karim oyatlari va Payg'ambarimiz Muhammad a.s.ning hadislaridan dalillar keltirgan holda o'z raddiyalarini bildiradi. Mazkur oqimlarga nisbatan hanafiya mazhabi nuqtai nazaridan turib yozilgan ushbu asar ayni vaqtda islom dinidagi turli-tuman oqimlar tarixi to'g'risidagi dastlabki asarlardan sanalib, ular haqida mukammal

ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. SHu bilan birga asarda zikr etilgan oqimlarning o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tadqiq etish uchun yetarli darajada bayon etilganligi asar ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bundan qariyb 10 asr muqaddam yashab o'tgan xorazmlik buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti va merosiga bir nazap solaylik. Jismoniy nogironligiga (og'ir kasalga chalingani tufayli yoshligida bir oyog'i kesilgan) qaramasdan bu zot ilmu irfon talabida o'z umrining aksar qismini uzoq mamlakatlarda safarda, musofirchilikda o'tkazadi. Makkai mukarramada olti yilga yaqin yashadi. SHu bois hech bir olimga nasib etmagan Jorulloh (Allohning qo'shnisi) degan yuksak maqomga sazovor bo'ldi. U butun umrini ilmga bag'ishladi va ilm-fanning turli sohalariga oid oltmishga yaqin asarlar yaratdi. Bundan bir necha yil muqaddam muhtaram Prezidentimiz Xorazm viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida bu benazir allomaning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasi haqida to'xtalib, bir arab mutafakkirining **«Dunyodagi barcha qishloqlar jam bo'lib, Xorazmning birgina ZAMAXSHAR qishlog'iga fido bo'lsa arziydi, chunki aynan shu qishloq ming yillarda bir marta kelishi mumkin bo'lgan az-Zamaxshariydek buyuk allomani yaratgan»**, degan bahosini alohida ta'kidlagan edilar. Mavridi kelganda aytish joizki, buyuk vatandoshimizning, ayniqsa, arab tili, uning nahvi sarfi (grammatikasi) va lug'atshunosligi ravnaqiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. SHu boisdan ham arab olimlaridan biri «agar shu xorazmlik cho'loq va ko'sa az-Zamaxshariy bo'lmaganda arablar o'z tilini bilmas edilar», deb e'tirof etganligini.

Mustaqilligimiz sharofati bilan ko'plab allomalarimizning hayoti va meroslari chuqur o'rganilib, ularning tavallud sanalari — yubileylari o'tkazilayotir va tabarruk nomlari tiklanayotir. Yurtboshimizning **«Biz bu mutafakkirlarimizning qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz. Boshqacha aytganda, biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom al-Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, at-Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz»**, degan fikrlari hozirgi davrda bu yo'nalishda qilinadigan ishlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Biz yuqorida jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizdan ayrimlari haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirdik. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, bu zoti shariflarning har qaysinisi ham mislsiz ta'limotlariyu noyob kashfiyotlari bilan bashariyat tarixidagi eng

buyuk siymolar safida turadi. Mana shu ulug' maqomga sazovor bo'lgan ko'plab allomalarning O'zbekiston deb atalmish tabarruk zamindan yetishib chiqishini tasodifiy hol deb bo'lmaydi. Garchand mana shu holning o'zi ham bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan bu betakror yurtda ilm-fan va madaniyatning ildizi benihoya chuqurligidan, bu barakatli zaminda azal-azaldan an'anaviy yuksak madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lganligidan, eng muhimi, bu yurt ahli insoniyat va jamiyat manfaatlarini yo'lida har qanday ilmni ham tez va teran ilg'ab, yuksak pog'onalarga ko'tarish salohiyatiga qodir ekanligidan dalolat beradi. Ikkinchi tomondan bunday ulkan muvaffaqiyatlarga buyuk aljodlarimiz uzoq yillap davomidagi mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanishlar va sa'y-harakatlar, o'z ona yurti dovrug'i va nufuzini dunyo miqyosida tarqatish maqsadida erishganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Buyuk ajdodlarimizning asrlar qa'rida qolib ketgan tabarruk nomlari bugun, Mustaqillik tufayli, davlatimiz rahbarining sobit qadamlik bilan olib borayotgan xalqchil va dono siyosati tufayli, dunyo buylab mag'rur va o'ktam kezib yuribdi va kurrai zaminda O'zbekiston degan buyuk hamda qudratli o'lka borligini fidoyi farzand sifatida katta mamnuniyat bilan tarqatmoqda.

5-Modul: IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi

- 1. IX asr boshlarida Movarounnahr. Toxiriylar, somoniylar va qoraxoniylar davlati. Davlatni boshqarish, soliq siyosati, yer-suv munosabatlari.**
- 2. G'aznaviylar va Saljuqiylar davlati.**
- 3. Xorazmshohlar davlati. Davlatni boshqarish tizimi, soliq siyosati. Yerga egalik shakllari.**
- 4. Uyg'onish davri. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda madaniy yuksalish.**
- 5. Tabiiy va ijtimoiy fanlar rivoji.**
- 6. Badiiy adabiyotning rivojlanishi.**
- 7. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik.**

1. IX asr boshlarida Movarounnahr. Toxiriylar, somoniylar va qoraxoniylar davlati. Davlatni boshqarish, soliq siyosati, yer-suv munosabatlari.

Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyoda (IX-XII) feodal munosabatlar yanada mustahkam negizda qaror topa bordi.

Xuroson va Movarounnahrni idora qilgan arab hokimlari butun xalifalik saltanatiga kuchli ta'sir o'tkazdilar. Buni 809 yilda Bog'dodda musulmon

dunyosi tarixida salmoqli iz qoldirgan. Mashxur xalifa Xorun-ar-Rashid vafotidan so'ng xalifalikda yuz bergan muhim siyosiy o'zgarishlar ham yaqqol isbot qildi. Movorounnaxr va Xurosonning yirik feodal namoyondalari bo'lmish Tohir ibn Xusayn, Samon Xudod singari yetakchi kuchlar madati bilan xalifalik taxtiga o'tirgan Xorun-ar Rashidning kenja o'g'li, Xuroson noibi Ma'mun yagi xalifa sifatida mahalliy feodallar, amiru-beklarga iltifotlar kursatib, ularning ichki mustaqqilligini yanada mustahkamlashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida Tohir ibn Xusayn, Samonxudot va ularning avlodlari Xuroson va Movorounnahr hududlarining amalda hukmdorlari bo'lib oldilar. Tohiriylar rasman xalifalikka tobe' xisoblansalarda, amalda o'z ichki mustaqil siyosatini o'tkazib va uni amalga oshirib bordilar. Sulola asoschisi Tohir ibn Husayn Xurosonning eng yirik yer egalaridan bo'lib u Horun ar-Rashidning o'g'li Ma'munni taxtga o'tirishiga yordam bergan. Ma'mun (813 - 833 y.) xalifa bo'lib olgach, Tohir ibn Husayn tez orada xalifalikning eng nufuzli kishilaridan biriga aylandi. U bir necha vaqt xalifa qo'shinining bosh sarkardasi lavozimida ishladi. 821 yili esa xalifa uni Xuroson noibi qilib tayinladi. Tohir Xuroson noibligini poytaxti qilib Nishopur shaxrini tanladi. Xurosonga qaytgach u o'ziga qarashli noiblikni mustaqil davlatga aylantirish rejalarini tuza boshladi. Bir yil o'tmasdanoq Tohir ibn Husayn xalifa ismini juma namozidagi xutbada qayd qilishni man qildi. Bu xalifaga nisbatan ochiq isyon edi. Lekin uning rejalari amalga oshmadi. U to'satdan vafot etdi. Taxmin qilinishicha, uning o'limida xalifaning odamlarini qo'li bo'lgan.

Xalifa Ma'mun Tohir ibn Husayn o'rniga Xuroson noibi qilib uning o'g'li Talxni tayinlaydi (822 - 828 yillar). Tohirning ikkinchi o'g'li Abdullo noiblik qilgan yillarida (830 - 844 yillar) Xuroson xalifagavassal hisoblansa-da, aslida mustaqil davlatga aylandi. Xalifa Mutasim. (833 - 842 yillar), bir necha bor Abdulloni bo'ysundirishgaharakat qildi. Ammo bunda u muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Tohiriylar kuchli xokimiyat tuzishga, qishlok xo'jaligini tashkil etishga astoydil harakat qildilar. Yangi sug'orish inshootlarini barpo etdilar. Mahalliy amaldorlarni o'z lavozimlarini suiste'mol qilmasliklarini nazorat qildilar. Albatta bunda ular dehqonlar manfaatini emas, balki aholidan olinadigan soliqni xazinaga izchil kelib tushishini nazarda tutganlar. Ular na dexqondan olinadigan soliq miqdorini, na ular utaydigan majburiyatlarni kamaytirmaganlar. Soliqlar miqdori juda katta bo'lgan. Soliqlarning ko'pchiligi dehqonlarni qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan. Tohiriylar bu qo'zg'olonlarni shavqatsiz bostirib turganlar.

Tohiriylar islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruxoniylarini o'z rejalarini amalga oshirishda tayanch deb bilganlar. Talh ibn Tohir noibligi (842 - 864) davrida zardushtiylik dini saqlanib kelgan. Davlatni idora etishda tohiriylar malakali, bilimli amaldorlarga muhtoj edilar. Shuning uchun ular bilimdon odamlarga xomiylik qilganlar. Ma'lum toifadagi odamlarga bilim olish uchun keng sharoitlar tug'dirib berganlar. Manbalarda

qayd qilinishicha Tohiriylar juda bilimdon bo'lganlar. Xususan, Tohir ibn Husayn va Abdullo ancha tanilgan shoir bo'lgan. Abdullo vafotidan keyin Tohiriylar davlati asta-sekin inqirozga yuz tutdi va ko'p vaqt o'tmay ularning hokimiyati butunlay tugatildi. Tohiriylar sulolasining so'nggi vakili Muhammad ibn Tohir (862- 873y) Yoqub Ibn Lays bilan bo'lgan jangda mag'lub bo'ldi.

Somoniylar sulolasiga asos solgan Somonhudod yirik yer egasi bo'lgan. Manbalarning birida u Balx yaqinidan, ikkinchisida esa Samarqand atrofidan yoki Termizdan bo'lganligi qayd etilgan. Somon Ma'mun Xuroson noibligi paytida o'nga xizmatga o'tgan va tez orada uning e'tiborini qozongan, Ma'mun ta'siri ostida xalq zardushtiylik dinidan voz kechib, islom diniga kirgan. Xuddi shu vaqtda Somoniyning o'g'li Asad ham xalifa Ma'mun e'tiboriga tushgan. Asadning to'rtta o'g'li bo'lgan va ular Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. Ma'munning buyrug'iga binoan Xuroson noibi Asadning o'g'illarini 820 yilda Movarounnaxr o'lkalariga noib qilib tayinlaydi. Xususan, Asadning katta o'g'li Nuhni Samarqand, Ahmadni Farg'ona, Yahyoni SHosh va Ustrushonani, Ilyosni Xirotnoibi qilib tayinlaydi. Tohir ibn Husayn Asadning o'g'illarini yaxshi bilgan va ularga kerakli vaqtda yordam qo'lini cho'zgan.

Ahmad Somoniy asta-sekin Movarounnaxrni o'z oilasi boshchiligida birlashtirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu faoliyatiga qarshilik ko'rsata olmadilar. 864 yilda Ahmad vafot etdi. Somoniylar sulolasining boshlig'i sifatida 865 yilda Ahmadning o'g'li Nasr tan olindi. Lekin hamma Somoniylar ham sulola boshlig'i sifatida Nasrni birdan tan olmadilar: xususan Shosh hokimi Yokub Nasrni tan olmay o'z nomidan tangalar zarb qila boshladi. Ayniqsa, Nasrning ukasi Ismoil bilan aloqasi keskin edi. Ma'lumki, 873 yili Buxoro viloyatini Tohiriylarning so'nggi vakili Muhammad ibn Tohir bosib oldi va o'nga solihlar soldi. Bundan g'azablangan xalq Muhammadga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Shahar amaldorlari Nasr ibn Ahmadga murojaat qilib, somoniylardan Buxoroga noib yuborishni iltimos qildilar. Buxoroni somoniylar davlatiga qo'shib olishni rejalab yurgan Nasr bu taklifni xursand bo'lib qabul qildi va Buxoroga noib qilib ukasi Ismoilni jo'natdi. Ismoil Buxoroga kelib ko'zg'olonni bostirdi.

Nasr Ismoilni o'z noibi deb xisoblar edi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi. Shundan so'ng aka-uka o'rtasida nizo paydo bo'ldi: 886 yili Nasr va Ismoil qo'shinlari to'qnashdilar. Bu jangda Ismoil mag'lub bo'ldi va u vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. Lekin ikki yil o'tgach aka-uka qo'shinlari o'rtasida yana to'qnashuv bo'ldi. Bu jangda Ismoilning qo'li baland keldi. Nasr qo'shini tor-mor qilindi. Movarounnahr hukmronligi Ismoil qo'lga o'tdi. Lekin Ismoil Nasrdan taxtni tortib olmadi va Nasr o'z vafotigacha (892 yili) somoniylarning boshlig'i sifatida Samarqandda qoldi.

Nasr vafotidan so'ng Ismoil davlat boshlig'i bo'ldi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. O'zaro janjal va isyonlarni bartaraf etgach Ismoil 893 yili ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortdi va Tarozni egalladi. U bu yerda xonni va

uning 10 ming qo'shinini asir olib, bu jangda katta harbiy o'ljani qo'lga kiritdi. Xalifa al-Mutadis (892-902y) Ismoilni qudrati ko'chayib ketayotganligini ko'rib, Movarounnahrda maxrum bo'lib qolishidan sarosimaga tushdi hamda xiyla yo'llarini izlay boshladi. U Movarounnahrda uzining barcha odamlarini saroyga taklif etdi va ularga Ismoilni Movarounnahr hokimligidan tushirilgailigini va Amr ibn Laysni u yerga hokim qilib tayinlanganligini e'lon qildi. Bu bilan xalifa o'zining ikki dushmanidan bir yo'la qutulmoqchi edi. Movarounnahr noibligi to'g'risida yorliqni olgan Amr ibn Lays Ismoilga qarshi qo'shin tortdi. 900 yili Buxoro ostonasida Amr ibn Lays qo'shini tor-mor etiladi. Narshahiy va boshqa mualliflarning qayd qilishicha, Ismoil Amir bilan bo'ladigan jangga qo'shından tashqari Buxoro hunarmandlarini va hamda oddiy xalqning qo'liga qurol berib, o'z ozodligini saqlab qolishga chaqirgan. Keng xalq ommasining bu jangda ishtirok etishi Ismoilga zafar keltirdi. Ismoil arab bosqinidan keyin birinchi bo'lib o'zaro janjallar, bosqinchilar tomonidan talangan o'lkani qudratli bir davlatga aylantirishga muvaffaq bo'ldi.

Endi Ismoil oldida asosiy masala turar edi. U ham bo'lsa arab xalifaligidan o'z mustaqilligini saqlab qolish uchun markazlashgan mustahkam davlat ma'muriyatini tuzish kerak edi. Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil birinchi navbatda mahalliy feodal zodagonlar vasavdogarlarning maanfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xo'jaligini, hunarmardchilikni va savdoni rivojlanishi uchun keng shart-sharoitlar tug'dirib berish lozim edi. Shu maqsadda Ismoil katta va yaxshi qurollangan, saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk g'ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e'tibor berdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi.

Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil mahalliy feodal zodagonlar va savdogarlarga suyanib davlatni idora qilgan. Lekin Ismoil ham, boshqa Somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo'qota olmagan. Dexqonlarning yer egalari tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinishi natijasida feodallarga qarshi qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Bundan tashqari ayrim chekao'lkalarning xokimlari markazlashtirish siyosatiga iloji-boricha qarshilik ko'rsatganlar. Xususan, Xorazm, Afg'oniston xududlarida joylashgan hokimlar somoniylarga vassal bo'lsada, ular o'z yerlarida mustaqil siyosat yurgizganlar. Ular somoniylar saroyiga to'lanadigan soliqning ma'lum qismini emas, balki sovg'a-salomlar yuborish bilan kifoyalanganlar.

907 yilda Ismoil vafot etgach taxtni o'g'li Ahmad ibn Ismoil egalladi (907-914 y). Ahmad hukmronligi davrida bir qancha qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Xususan, amakisi Issoq ibn Ahmad Samarqandda, Ray va Seyiston xokimlari isyon ko'tardilar. Bu isyonlar shavqatsizlik bilan bostirildi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi. Davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi ko'pgina mahalliy zodagon va Turk g'ulomlarining noroziligini uyg'otdi. 914 yilda u Turk g'ulomlari tomonidan o'ldirildi. Taxtga

Ahmadning 8 yoshli o'g'li Nasr ibn Ahmad (914-943y) o'tirdi. Saroyning ruxsati bilan davlat ishlarini vazir Abdullo Jayhoni boshqardi.

914 yilning ohirida Samarqandda yana qo'zg'olon kutarildi. Davlatning janubiy xududlarida bo'lgan Husayn ibn Ali Marvoziy rahbarligidagi qo'zg'olon ayniqsa keskin tus oldi. Qo'zg'olon karmatlarga oyasi bayrog'i ostida bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon 918 yilda bostirildi. Marvoziy asir olindi. Ko'p o'tmay Marvoziy raxbarligidagi qo'zg'olon bostirilgach Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. 922 yilda esa Ilyos ibn Issoq qo'zg'olon ko'tardi. Tinmay davom etgan qo'zg'olon va isyonlar Somoniylar davlatining qudratiga katta ta'sir ko'rsatdi va u asta-sekin tanazzulga yuz tutdi.

Nasr hukmronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida karmatlar harakati ancha keskin tus oldi. Karmatlar islomni yoyilishga, feodal munosabatlarni ko'chayishiga qarshi chiqdilar va oldingi an'analarni, qishloq jamoalarini qayta tiklashni yoqlab chiqdilar. Shuning uchun bu harakatga keng xalq ommasi qo'shildi. Karmatlar g'oyasini amaldorlarning bir qiemi vahatto Nasrning o'zi ham qabul qildi. Nasrning bu qadami reaksiyon musulmon ruxoniylarning va turk g'ulomlarining noroziligini qo'zg'atdi. Natijada Nasr taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Taxtga Nasrning o'g'li Nuh o'tirdi (943-954 yillar). Nuh karmatlarga qarshi shavqatsiz kurash olib bordi. Ularning mol-mulkari musodara qilindi. Nuh hatto o'z otasi Nasrni zanjir-band qilib, qal'aga qamab qo'yishga buyruq berdi.

Nuh hukmronligi davrida Somoniylar davlatini inqirozi ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko'paytirdi. Bu xalq noroziligini yanada oshirdi. Xalq noroziligidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali Charoniy yordamida vaqtincha Buxoro taxtini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Abu Ali Charoniy Xurosonga qaytgach Nuh yana Buxoro taxtiga qaytdi va isyonkor qarindoshlarini qattiq jazoladi. Lekin Somoniylarning Abu Ali Charoniy bilan kurashi Abdumalik hukmronligi davrida (954-961 y) ham davom etdi. Abdumalik zamonida turk lashkar boshilarini davlat ishlariga aralashishi ancha ko'chaydi. Xususan turk lashkar boshisi Alp Tegin «buyuk Xojib» lavozimiga ko'tarilgan. Abdumalik vafotidan keyin Somoniylar taxti uchun kurash yanada keskin tus oldi. Alp Teginning qat'iy harakati bilan taxtga o'tirgan Abdumalikning o'g'li bor yo'g'i 6 kun hukmdorlik qilgan. Taxtga Mansur ibn Nuh (961 - 976 yillar) o'tirgan.

Soliqlarning yil sayin ko'payib borishi, feodallarning o'zaro janjallari, noiblarning markazga bo'ysunmay qo'yishi va saroydagi bo'layotgan taxt uchun kurashlar somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi; Bu kurashlar ayniqsa, Amir Mansur ibn Nuh II (976 - 997 yillar) hukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv va Qashg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrda qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi siyosiy beqarorlikdan foydalangan Qoraxoniy Horun Bug'roxon 990 yili Fa'b tomon qo'shin tortdi va

ikki yil davomida somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi.

Talas, Iloq va Shoshdaaytarli hech qanday qarshiliksiz o'z hukmronligini o'rnatgan Xorun Bug'roxon 992 yili Somoniylar poytaxti Buxoro tomon qo'shin tortdi. Bu jangda Nuh II qo'shinlari tor mor etildi. Somoniylar amiri Nuh II Buxoroni tashlab, Amudaryodan kechib o'tdi va Amul shahrida yana Qoraxoniylarga qa'shi qo'shin to'play boshladi. Qoraxoniylar Bug'roxon Buxoroni hech qarshiliksiz egalladi. Lekin bu yerda u mevalarni ko'p iste'mol qilish oqibatida kasal bo'ldi va orqaga qaytishga jazm qildi. Xorun Bug'roxonni orqaga qaytishiga yana bir sabab, aholini unga qarshi bo'lganligidadir. Shuning uchun u Movarounnahrni bu vaqtda o'z qo'li ostida ushlab qolishga ko'zi yetmagan.

Xorun Bug'roxon Nuhning o'g'li Abdulazizni o'z qoshiga chaqirib, taxtni o'nga topshirgan. Vaholanki, agar u Movarounnahrni o'z qo'li ostida saqlab qolishga ko'zi yetganda, Buxoroga o'z noibini tayinlar edi. Ibn al-Asirning yozishicha, Xorun Bug'roxon Buxoroni tashlab chiqib ketganidan so'ng uning qo'shini yo'l yo'lakay, aholiga hujum qilib katta ziyon yetkazgan. Orqaga qaytgan Qoraxoniylar qo'shiniga o'g'uz-turkman qabilalari ham hujum qilib, ularning ko'p mol-mulklarini tortib olganlar va o'ldirganlar. Xorun Bug'roxon Buxoroni tashlab chiqib ketganidan xabar topgan amir Nuh II 992 yilni 12 avgustida poytaxtga qaytgan va chekinayotgan Qoraxoniylar qo'shiniga zarba berish yo'llarini izlagan. Samarqand aholisi ham Qoraxoniylar qo'shiniga hujum qilib turganlar. Sog'lig'iyomonlashgan Xorun Bug'roxon Samarqanddan vataniga yo'l oldi va Quchqorboshi degan joyda vafot etdi (992 y.).

997 yili Nuh II vafot etdi. Taxtga o'tirgan Mansur ibn Nuh o'z amaldorlari bilan kelishishgaharakat qildi. Ammo bu harakat yaxshi natija bermadi. Somoniylar saroyidagi eng nufuzli amaldorlardan hisoblangan Abu Ali Muhammad Isfijobiy amirga qarshi isyon ko'tardi. Isfijobiyni iltimosiga binoan Qoraxoniylar hukmdori Eloq Nasr somoniylarga qarshi qo'shin tortdi. Lekin Eloq Nasr Isfijobiyni o'zini amir qilib O'zganga jo'natdi. Bu paytga kelib somoniylar saroyida o'zaro kelishmovchiliklar yanadako'chaydi. 999 yili Mansur taxtdan tushirildi, va ko'zi ko'r qilindi. Taxtga Mansurning ukasi Abdumalik ibn Nuhni o'tqazishdi.

Mahmud G'aznaviy 999 yilning may oyida Mansur uchun o'ch olish shiori ostida Movarounnahrqa qarshi qo'shin tortdi. U Somoniylar qo'shinini tor-mor qilib katta o'ljalari bilan G'aznaga qaytdi. Yuzaga kelgan bu vaziyatdan Elik Nasr ham foydalanishgaharakat qildi. Negaki, bu jang oqibatida Xuroson Mahmud G'aznaviy qo'lga o'tgan edi. Shu yilning dekabr oyida Eloq Nasr somoniylar sulolasini tugatish maqsadida Buxoroga qo'shin tortdi. Somoniylar Buxoro aholisi yordamida Qoraxoniylarni shaharga kimgizmaslikka harakat qildilar. Lekin aholining ko'p qismi Somoniylarni: qo'llab-quvvatlamadi va Eloq Nasr Buxoroni 999 yilning 23 oktyabrda aytarli

qarshiliksiz bosib oldi. Eloq Nasr Buxoroga Jafar Teginni tayinlab o'zi Urganchga qaytdi.

Yuqoridagi voqealardan so'ng Nuh II ning o'g'li Abu Ibrohim Ismoil (Muntasir laqabi bilan) bir qancha muddat samoniylar davlatini tiklash uchun Qoraxoniylarga qarshi goho yutuqli goho muvaffaqiyatsiz urushlar olib bordi. Bu kurashlarda o'nga goho Saljuqiylar, goho G'aznaviylar xukmdorlari ham yordam berib turdilar. Lekin Qoraxoniylar qo'shini bilan to'rtinchi marta yirik to'qnashuvdan so'ng u jangda yengiladi va 1005 yil boshlarida o'ldiriladi. SHu tariqa Samoniylar xukmronligi Mavaraunnahr va Xurosonda tugatilib, ularga qarashli o'lkalarni Qoraxoniylar va G'aznaviylar bo'lib olishdi.

Samoniylar davrida ijtimoiy – iqtisodiy tuzum. Somoniy xukmdoridan Ismoil Samoniy Mavaraunnahr va Xurosonni birlashtirishga va yangi markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan. Islohotlar o'tkazgan 10 ta devon tashkil qilgan. Davlat amir unvoni bilan ibora qilingan. Davlat majmuini mustahkamlashda, Nasr II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayxoniy va Abulfazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari katta bo'lgan. Umuman, Somoniylar hukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlanganlar.

Devonlar orasida vazir yoki “xo'ja buzurg” devoni alohida o'rin tutgan. Bu devonga boshqa hamma devonlar bo'ysongan. U hamma – ma'muriy, siyosiy va xo'jalik mahkamalarini nazorat qilgan.

Davlatni idora etishda “mustaufi devon” ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu devon davlatning butun moliya ishlarini boshqargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilgan.

“Devon amir-al-mulk” yoki “al-rasail” davlat ahamiyatiga molik bo'lgan rasmiy hujjatlarni tuzish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari bu devon chet davlatlar bilan bo'ladigan munosabatlarni ham boshqargan.

“Muxtasiba” devoni bozorlarni, sotuvchilarni, qadoqboshlarning og'irligini, bozordagi mollarning narxini, sifatini nazorat qilgan.

Davlat xazinasining daromadlarini va xarajatlarini “mushrif” devoni nazorat qilgan. Bundan tashqari “qozi azziya” va “vaqf” devonlari bo'lgan. “Qozi azziya” devoni davlat yerlarini, “vaqf” devoni hadya etilgan yerlarni va musulmon ruhoniylarining boshqa mol-mulklarini nazorat qilishgan.

Devoniylarning aytarli hammasini viloyatlarda boshqarmalari bo'lgan. Somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarning ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan. Ular markaziy xokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Davlat amaldorlari asosiy boy dehqon va ruhoniylardan tanlangan. Bunda yuqori tabaqaga mansub bo'lishdan tashqari, ma'lum bilimlarga ega bo'lish talab etilgan. Amaldorlar arab va fors tillarini, qur'on va shariatni yaxshi bilishi va turli fanlar to'g'risida ma'lum darajada tasavvurga ega bo'lgan.

Har bir o'lkalar va viloyatlar hokimi ko'ngillilardan iborat qo'shin saqlagan.

Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror topdi. Bu holat mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dehqonchilik, xunarmadchilik va savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Movarounnahr va Xuroson bu vaqtda Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalaridan hisoblangan.

Xuroson va ayniqsa, Movarounnahr dehqonchilik o'lkalari qatoriga kirgan. Bu yerlarda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslangan. Ko'plab soy va daryolardan chiqarilgan katta-kichik kanallar mavjud bo'lgan.

Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan tashqari lalmikor dehqonchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Kanal qurilishi uchun xalifa davlat xazinasidan 20 million dirham ajratgan.

Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham keng sur'atlar bilan taraqqiy qildi, ayniqsa, to'qimachilik yaxshi taraqqiy qildi. Bu yerda ipak va jundan tayyorlangan turli-tuman gazlamalar o'zining sifatligi, bejirim va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Buxoroning Zandana, Samarqanddagi Vedar va Surxondaryodagi Darzang to'qimachilarining mahsulotlari faqatgina Movarounnahr va Xurosondagina emas, balki Iroq, Eron va Hindistonlarda ham ma'lum bo'lgan.

Kulolchilik ham somoniylar davrida o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlariga ko'tarilgan. Manbalarda qayd qilinishicha ayniqsa, Samarqand, Binken va Marv kulollari tayyorlagan idishlar o'zining bejirim shakli, yuqori sifati, ajoyib va nafis naqshlari bilan ajralib turgan.

Bu davrda shishasozlik ham keng rivojlangan. Shishasozlarning ustaxonalari Niso, Marvda, Termizda, Poykand kabi shaharlarda ochib o'rganilgan. Markaziy Osiyo shishasozlarning mahsulotiga boshqa o'lkalardan ehtiyoj katta bo'lgan.

Somoniylar davrida metallurgiya sohasida ham katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bu davrda Badaxshonda kumush, oltin, billur, lojuvard kabi qimmatbaho metall va toshlar qazib olish davom etgan.

Markaziy Osiyoda somoniylar davrida qog'oz ishlab chiqarish ham yaxshi rivojlangan. Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz Samarqand bo'lib unda qog'ozlarning mahsuloti faqat Markaziy Osiyo yoki Sharqda emas, balki Yevropada ham mashhur bo'lgan.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda bo'lgan. Ayniqsa karvon yo'llari bo'yicha joylashgan shaharlarda bir nechtadan bozorlar bo'lgan. Buxoro, Xo'jand, Kesh, Termiz, Xiro, Marv, Nishopr shaharlaridagi bozorlar katta va juda gavjum bo'lgan. Savdo rastalari karvonsaroyning o'zida ham bo'lgan. Karvonsaroylar yo'llarda ham qurilgan.

Bozorlarda sotiladigan mollar avvalo mahalliy aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Hunarmandlar o'z mollarini sotib oziq-ovqat mollarini xarid qilishgan, o'z navbatida dehqonlar hunarmandchilik mollarini xarid

qilishgan. IX-X asrlarda Markaziy Osiyoning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq kattaahamiyatga ega edi. bu borada ko'chmachilar bilan chegaradosh bo'lgan shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Ko'chmachilar shaharlarga kelib dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilganlar, teri sotganlar.

Markaziy Osiyolik savdogarlar o'z mollarini arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulg'oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotganlar. Markaziy osiyodan Xitoy bilan O'rta Yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-SHarqiy Yevropaga olib boruvchi karvon yo'llari o'tgan. Xazar, Bulg'or va Rus yerlariga markaziy Osiyodan quruq mevalar turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O'z navbatida Janubiy-SHarqiy Yevropadan Markaziy Osiyoga mo'yna, mis, teri, qoramol, qullar keltirilgan.

Samoniylar davridagi madaniy hayot. IX-X asrlarda me'morchilik san'ati va qurilish uslubi o'z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqoriga ko'tarildi. Bu davr qurilishidaavvalgi asrlardagi kabi xom g'isht va paxsaasosiy qurilish materiali hisoblangan. Qurilishda yog'ochdan keng foydalanilgan. Uylarning ustunlari va to'sinlari yog'ochdan qilingan, tomlar yassi bo'lgan.

Somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson me'morchilik san'atining yuqori taraqqiyotidan yorqin dalolat beruvchi yodgorlik bu Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Bu maqbaraasrlar osha bizning ko'ngacha yetib kelib, o'zining me'moriy barkamolligi va shu bilan birga oddiyliigi bilan insonni hayratga soladi.

Somoniylar me'morligining yana bir noyob durdonasi Kattaqurg'ondan 60 km, janubdagi Tim qishlog'ida joylashgan Arab ota maqbarasidir. Arab ota maqbarasi hashamatli me'morchilikning ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Maqbarada bitilgan yozuvlarga qaraganda bu inshoot 977-978 yillarda qurilgan bo'lib, bu yerda samoniylardan biri ko'milgan. Arab ota maqbarasi ismoil Somoniy maqbarasi bilan o'xshashlik topadi.

Somoniylar davri me'morchiligining nodir namunalarini Karki (Turkmaniston) yaqinidagi Alambardor, Uzun (Surxondaryo) yaqinidagi Xo'ja Naxshron, Karmanadagi Mirsaid Baxrom maqbaralarida ham uchratish mumkin. Bu yodgorliklar ham IX-X asr memorligi yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

IX-X asr me'morligining rivojlanish yo'llarining saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar Markaziy Osiyo diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkonini beradi.

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag' sarflagan. Bu saroy g'oyatda go'zal bo'lgan.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilayotgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir.

Bu davrda Buxoro, Marv, Samarqand, Nishonur, Balx, Binkent, Kesh, Xo'jand, Urgench yirik madaniyat va fan markaziga aylandilar.

Yirik ma'rifatparvar ijodkorlardan biri Abu Abdullo Rudakiy bo'lib, fors-tojik adabiyotining otasi xisoblanadi. Shoir, sozanda, bastakor, xofiz Rudakiy ma'lum muddan Samoniylar saroyida ham ishlagan.

Mashhur shoir Abu Mansur Daqiqiy "Shohnoma"ga asos solgan.

Abdulqosim Firdavsiy esa Buxoroga kelib ijod qilgan va Daqiqiy "Shoxnoma"si davom ettirgan. Firdavsiy "Shohnoma"si jahon adabiyoti hazinasiga qo'shilgan o'lmas xissa bo'ldi.

Somoniylar davrida Muhammad Muso al-Xorazmiy bir necha fanlar sohasida yirik ixtiro, kashfiyotlari bilan bir qatorda Bag'doddagi Ma'mun akademiyasigaal Farg'oniy bilan birgalikda rahbarlik qildilar.

Bu davr madaniyati, fanining eng yirik vakillaridan biri Abu Nasr al Farobiydir. Falsafada, tilshinoslik, mantiq, musiqa, matematika kabi qator fanlarda yangiliklar ijod etib, jahon fanini boyitdi.

Samoniylar davri tabobatining eng mashhurilbn Sino bo'lib, uning tabobatga oid xizmatlari hozirgi kungacha xalqaro tabobatni eng azizi hisoblanadi.

Axmad al-Farg'oniy esa astronomiya ilmida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Damashq, Bag'dodda uning loyixasi bilan rasadxonalar qurildi. Nil daryosining suvini o'lchaydigan asbob "Miqyos ul jadid" (nilometr) asbobini kashf etdi. Xullas Samoniylar davlati davrida Movarounnahr va Xuroson arab xalifaligi ta'siridan butunlay qutuldi.

X asrning II yarmida Qoraxoniylar davlati tarkib topdi. Yangidan tashkil topgan davlatning birinchi boshlig'i «bug'raxon» (ya'ni podshox) deb ataluvchi davlat unvoniga ega bo'lgan. Uni arabcha Xorun ibn Muso ibn Satul deb atashgan, lekin hujjatlarda faqat Bug'raxon deb keltirilgan.

Biroq Yettisuv Movarounnahr tomonidan anchagina madaniy ta'sirotda uchradi.

Bo'g'raxon boshchiligida Yettisuv turkiylarning O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlari - Shosh, Farg'ona, Sug'diyona va boshqa yerlarga bosqinchilik yurishlari boshlandi.

Boshqa har qanday bosqinchilik harakati singari o'rtaasrlarda bu yurishlar ham talon-torojlik va zo'ravonlik bilan bog'liq edi.

Soliq zulmidan azob chekkan dehqonlar Samoniylar qo'shinlari harakati tufayli Somoniylar hokimiyatidan norozi bo'lishdi. Ana shu va boshqa sabablar oqibatida qudratli, boy va madaniyatli Somoniylar davlati ag'darilib, Qoraxoniylar davlati qaror topdi.

X asrning ikkinchi yarmi Somoniylarning turli isyonlarga qarshi keskin kurash olib borishi bilan ifodalanadi. Bo'g'raxon Jun Mo'miyona saroyiga joylashdi. Biroq kasallik, buning ustiga kun jaziramasini uni Somoniylar poytaxtini tark etishga majbur qildi va u Samarqandga yo'l oldi. Bo'g'raxon kasalligining ko'chayishi sababli Samarqanddan ketishga majbur bo'ldi. U Qashqar tomon yo'l oldi va yo'lda vafot etdi.

Biroq bu holat ham Nuhga yanada mustahkamlanib olish imkonini berdi, Xuroson Abu Ali va Faiq qo'lida, G'azna hamda Hirot Sabuq Tegin qo'lida edi. 996 yili turkiylar Nasr boshchiligida Movarounnahrda hujumni tikladilar. 999 yilda Qoraxoniylar Buxoroni qo'lga kiritdilar va Movarounnahrda hokimiyat haqidagi masala hal etildi.

To'g'ri, Somoniylar yana 1005 yilga qadar qarshilik ko'rsatdilar. Biroq qo'lga kiritilgan yutuqlar voqealarning borishiga ta'sir etmadi. 1005 yildan keyin Qoraxoniylar qarshilik ko'rsatish to'xtadi.

1001 yili Mahmud Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari o'rtasidagi chegarani belgilashda Nasr bilan shartnoma tuzdi. Amudaryo asosiy chegaraga aylandi. Buning natijasida esa Samoniylar saltanati o'rnida Qashqardan Amudaryoga qadar cho'zilib, Sharqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'diyona hududini o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati bilan Shimoliy Xindistondan qariyib Kaspiy dengizining janubiga qadar cho'zilib, hozirgi Afg'oniston va Shimoliy-Sharqiy Eronni o'zi ichiga olgan G'aznaviylar davlati paydo bo'ldi.

Movarounnahrda Somoniylar davlatining qulashi va hokimiyat tepasiga Qoraxoniylarning kelishini tojik sulolasining turkiy sulola bilan almashinuvi deb bilish kerakmas. O'rta Osiyoda ro'y bergan o'zgarishlar nihoyatda chuqur bo'lib, siyosiy va ijtimoiy hayotning hamma tomonini qamrab olgan edi, avvalambor, markazlashgan davlat tuzumi butkul quladi. Qoraxoniylar mamlakatni viloyatlarga bo'lib boshqarish usulini ta'asis etdi. Ularni sulola vakillari-ilikxonlar boshqarishgan, uning hukmdori-buyuk xon ko'pincha Qashg'arda, ahyon-ahyonda Bolasog'unda bo'lardi. U Erondagi "shohanshox" singari "xonlar xoni" yoki "sultonlar sulтони" degan unvonga ega edi. qoraxoniylar sulolasi manbalarida u "tamg'achxon" yoki "tabg'achxon" deb atalgan. Turkiylar Xitoy imperatorini ham shu unvon bilan atashgan.

Ilikxonlar huzurida vazir, saxib-barid mustavfi, shaharlarda hokim, rais, muxtasib va boshqalar saqlanib qolgan edi. Diniy mansablar to'liq saqlanib qolgan, chunki Qoraxoniylar din ahli bilan do'stona munosabatda edi.

Ular turkiylar qo'shini bilan ittifoqda bo'lish an'anasini davom ettirishdi.

Qoraxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi yirik zamindorlikning eski ko'rinishlari yemirilishini tezlashtirdi, bu yemirilish X asrning ikkinchi yarmidayoq boshlangan edi.

V.V.Bartold o'z asarlarida ta'kidlab o'tishicha, mo'g'il istilosi arafasida, ya'ni XIII asr boshlariga kelib, yirik zamindorlar sifatida dehqonlar tilga olinishi deyarli uchramaydi. Biroq dehqon degan so'zning o'zi atama sifatida

yo'qolib ketmadi, balki mazmunini o'zgartirdi. Endi dehqon deyilganda mayda yer egasi tushunila boshlandi.

Sharqda "iqto" atamasi bilan ma'lum bo'lgan shartli yer egaligi XI asrda keng tarqala boshlangan. Iqto – yerni birovga sovg'a qilishning muntazam ravishda muayyan daromad olib turish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos bir ko'rinishidir. Saljuqiylar sultoni vaziri Nizom ul-Mulkning "Siyosatnoma" asarida iqto'-daromadning muayyan qismini olish maqsadida sovg'a qilingan yer deb ta'riflanadi.

Davlat hokimiyati, shuningdek, tegirmon, hammom, bozordagi do'kon va boshqa narsalardan tushadigan soliq yoki daromadni ham iqto' qilib bera olgan.

Qoraxoniylar iqto'ni turkiy sarkardalardan tashqari amaldor tojiklarga va boshqalarga ham bergan.

XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar bilan birgalikda ma'lum miqdorda ko'chmanchilar ham kelishdi, ularning podalari ekinzorlarni payxon qilib tashladi. Dehqonlarning asosiy qismi qishloq jamoasi sharoitida yashashda davom etar, jamoada esa chorakor mavqei baland edi.

Qoraxoniylar zamonida hunarmandlar ham boreni. Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy turkiy tilda bitilgan «Qutadg'u bilig» asarida yozishicha, Qoraxoniylar hunarmandlarga, xususan, temirchi, tikuvchi, etikduz, suv tashuvchi, egarchi, toshkesar, o'qchi, yey yasovchi vaboshqa xil kasb egalari yaxshi munosabatda bo'lishgan.

Savdogarlar ham qadrlanardi. Biroq chorvador ko'chmanchilarga munosabat boshqacha bo'lgan, chunki ular johil va yaramas odamlardir, deb yozadi muallif.

Qoraxoniylar dexqonchilikni, ayniqsa shahar hayotining madaniy ahamiyatini yaxshi tushunishardi. Ular Qashg'ar, Bolasog'un, Taroz, Uzgan, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarni poytaxt qilishgan. Bu yerlardaular saroylar qurishar va goxo qishlab ham qolishardi.

Ayni vaqtda Qoraxoniylar o'zlari duch kelgan va manfaatlariga moslashtira olishgan tartiblarni tan olmasliklari mumkin emas edi.

Ilikxonlar bilan xonlar xoni o'rtasidagi aloqamustahkam emas edi. Viloyat xokimlari doimo o'zaro adovatda bo'lib, mustaqillikka intilishar, shu bois Qashg'ardagi xukmdor bilan oralari yomon edi.

Qoraxoniylarning poytaxti Bolasog'un bo'lsa hamxonlar ko'pincha, Qashg'arda yashashardi. 1072 yili O'zgan poytaxt bo'ldi, XI asr ohirida O'zgan Qoraxoniylar saltanatining Farg'ona viloyati markazi bo'lib

Samarqandni markaz qilib olgan Movarounnahr Ilikxoni hammadan ko'proq nufuzga ega edi.

1046/47 - 1068 yillari Movarounnahrda xonlar xoni Ibrohimhukmronlik qildi, u biron-bir muhim ishni bajargani yuq, ammo din axli bilan yaqin edi. Uning davrida ikkita yangi sulola- Saljuqiylar bilan qoraxoniylar o'rtasida nihoyatda do'stona munosabatlar vujudga keldi. Faqatgina ikkita shahar -

Amudaryoning ikki sohilidagi Termiz va Balx atrof xududi bilan birgalikda nizo manbai edi, xolos.

1063 yili Saljuqiylar davlatining asoschisi To'g'rubek vafot etdi, uning o'rnini jiyani, CHoribek Dovudning o'g'li Alp Arslon (1063-1072 y) egallab, Marv (hozirgi Mari) shahrini poytaxt qildi.

1068 yili xonlar xoni Ibrohim taxtni o'g'li Shams ul-Mulk Nasrga topshirdi, u esahokimiyat uchun ukasi Shuays (yoki Safays) bilan kurash boshlab g'olib chiqdi. Nasrning hukmronlik davrida Saljuqiylar sultoni, Alp Arslon bilan ziddiyat ko'chaydi. 1072 yili Alp Arslon Qoraxoniylarga qarshi buyuk yurish boshladi. Qariyb 200 ming kishilik qo'shinni Amudaryodan o'tkazish uchun u kemalardan maxsus ko'prik qurdirdi. Biroq yurish boshlanishidayoq Alp Arslon o'z chodirida mahalliy qal'alardan birining boshlig'i Yusuf al-Xorazmiy tomonidan o'ldirildi. Yurishni kechiktirishga to'g'ri keldi.

1072-1092 yillari Saljuqiylar taxtiga Malikshoh chiqdi, ana shuning davrida Nizom ul-Mulk vazir bo'lib, «Siyosatnoma» asarini yozdi.

1080 yili SHams ul-Mulk Nasr olamdan o'tdi, uning o'rnini ukasi, keyinchalik shoirlarning piri hisoblangan Xizr egalladi. U qachon o'lgani noma'lum, o'rniga o'g'li Ahmad chiqdi.

1089 yili Saljuqiylar sultoni Malikshox Ahmadxonga qarshi yurish boshladi. O'sha yiliyoq u Buxoro bilan Samarqandni egalladi, Ahmadni asirga olib Isfahonga jo'natdi. So'ng Malikshoh Axmadni Samarqandga qaytardi, mutaassib ruhoniylar va turkiy sarkardalari 1095 yili Kosonga (Farg'onadagi) yurish paytida Ahmadni yoy ipi bilan bo'g'ib o'ldirishdi. Uning o'rnini Mas'udxon egalladi.

1092 yili Malikshoh ham o'ldirildi va 1118 yili hokimiyat tepasiga buyuk Saljuqiylarning so'nggi vakili sulton Sanjar (1118 - 1157 yillar) keldi. Uning hukmronlik davrida Saljuqiylar Movarounnahrda eng yuksak mavqega erishdilar.

Movarounnahrning so'nggi hukmdori Arslonxon sholbo'lgan holatda fitnachi ruhoniylarga qarshi sulton Sanjarni yordamga chaqirdi, u esa butun Movarounnahrni egallab oldi. Bu voqea 1130, yili ro'y bergan edi. Shundan keyingi Qoraxoniylar mustaqillikni boy berib qo'yishdi va Saljuqiy Sanjarga qaram bo'lib qoldilar.

2.G'aznaviylar va Saljuqiylar davlati.

G'azna shahri Xurosonning siyosiy markaziga aylanishi X asrning II yarmiga to'g'ri keldi. G'aznaviylar davlatining asoschisi Sabuqtegin edi. bu davlat Shimoliy Xindistonda qariyb Kaspiy dengizining janubiygacha, hozirgi Afg'oniston va shimoliy – sharqiy Eronni o'z ichiga oladi.

Vujudga kelgandastlabki kunlaridanoq G'aznaviylar davlati Eron va O'rta Osiyo tarixida katta ahamiyat kasb eta boshladi. Mahmud G'aznaviy bosqinchilik yurishlarini tashqi siyosatining asosi bo'lib oldi. Shu maqsadda u

yaxshi qurollangan qo'shin tuzib, Shimoliy Hindistonning Panjob, Kashmir va boshqa viloyatlariga 17 marta yurish qildi.

U shaharlarni talab, haykal va idish ko'rinishidaoltinu kumushni, shuningdek, mato, qurol, fil, chorvava boshqa narsalarni olib ketardi. Shunday yurishlarining birida Mahmud Kanavja shahridan 20 million dirham, 57 ming qul va 350 filni o'ljaga oldi.

Talangan boylik o'nga qo'shinni muntazam ko'paytirib borishga, saroy, masjid, madrasa kabi inshootlar qurishga imkon berdi. Biroq bu mablag' qishloq xo'jaligi va xunarmandchilikni rivojlantirish uchun sarflanmas edi. Bosqinchilik yurishlari Mahmudning qudratini oshirdi. Qo'shni hukmdorlar, Qashg'arda o'tirgan Qoraxoniylar xoni ham u bilan hisoblasha boshlashdi. O'z navbatida Mahmud ham Qoraxoniylar tarafidan xotirjam bo'lish maqsadida ularning hukmdori bilan kelishardi. Bir safar Qoraxoniylar Xurosonning Balx, Tus va Nishopur viloyatlarini bosib olishdi, ammo Mahmud Hindistondan qaytgach ularni quvib yubordi.

Qoraxoniylarning 1007-1008 yillardagi ikkinchi yurishi ham turkiy qo'shinning mag'lubiyati bilan tugadi. Bu davrda Qoraxoniylar davlati viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularni Qoraxoniylar sulolasi vakillari - ilikxonlar idora etishardi. Ilikxonlar o'rtasidaadovat kuchli edi. Ayniksa Samarqand va Buxoro ilikxoni Alptagin bilan Qashg'arda o'tirgan buyuk xon Qodir o'rtasidagi dushmanlik kuchli bo'lgan.

Bu esa Mahmud G'aznaviyga juda qo'l kelardi. Bir safar Mahmud siyosiy suhbat uchun Qodirxon bilan uchrashdi. XI asrda yashab o'tgan fors muarrix Gardiziy «Zayn ul-axbor» nomli asarida Samarqand janubida o'tgan bu uchrashuvni juda go'zal tasvirlaydi. Avvaliga ikkala hukmdor o'zaro mulozamatdan so'ng bir birlariga yirik javohir hadya etishgan. Mahmud Faznaviy Qodirxonning siyosiy savodsizligi, soddaroq vaqovushmagan odamligini ko'rgach, uni o'zining hashamati, boyligi va mehmondo'stligi bilan xayratga solishga qaror qiladi. U Qodirxon uchun tilla aralashgan parchadan to'qilgan katta chodir qurib, uni ichkarisi va tashqarisidan bezatishni, to'kin dasturxon yozib, qimmatbaxo sovg'alar berishni buyuradi. Bular xilma-xil javohirlar, oltinu kumush qadahlar, tilla yuganli ajoyib otlar, urg'ochi fillar, guldor chodirlar, bebaxo gilamlar va xokazolardan iborat edi. Buni ko'rgan Qodirxon undan kam kelmaslik uchun qo'lidagi jamiki yaxshi narsalarni to'plashni buyuradi. Tilla egar-jabduqli duldul otlar, oltin belbog'li turk rulomlari, suvsar, oqsuvsar va qora tulki mo'ynasi vaboshqalarni yig'ib, Mahmud G'aznaviyga yuboradi.

Bu uchrashuv muhim siyosat muammolarini hal qildi. Movarounnahrni Alptegindan Qodirxonning o'g'liga olib berishga kelishib olishdi. Biroq Mahmud G'aznaviy Alpteginni yo'qotishni istamasdi, uning ittifoqchilari bo'lgan Saljuqiylar qo'shinini yengib, xokimiyatini zaiflashtirdi, holos. G'aznaviy Movarounnahrdagi qoraxoniylar siyosatiga va ayniqsa Xorazmga katta ta'sir ko'rsatardi. O'z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiq qo'l

hukmdori bo'lgan, Sulton Mahmud G'aznaviy 1030 yilda vafot etadi. Shundan so'ng taxtni uning o'g'li Ma'sud (1030-1041) egallaydi. Lekin Ma'sud otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi.

Mahmud G'aznaviyga rasman tobe bo'lgan, lekin amalda mustaqil boshqariladigan Xorazm shohi Xorun ibn Oltintosh 1034 yilda Xorazmni butunlay mustaqil deb e'lon qildi va katta qo'shin bilan Xurosonga yurish qildi. Lekin Sulton Ma'sud tomonidan sotib olingan kishilar Xorazm shohi Xorunni o'ldiradilar. Uni qo'llab quvvatlagan qoraxoniylar qo'shini yana Samarqandga qaytib ketadi. Shundan so'ng Sulton Ma'sud qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi va shu yo'l bilan g'aznaviylar hokimiyatiga bo'lgan xavfni bir oz kamaytiradi.

G'aznaviylar sultoni Ma'sud Xurosonga yurish qilgan turk-saljuqiylari bilan ko'p bor jang olib borishga majbur bo'ldi. Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan shimoliy Xurosonga joylashib olgan saljuhiylar bu davrga kelib g'aznaviylar uchun katta xavf tyg'dira boshladi. 1035 yilda saljuhiylarning Xurosonga yangi hujumi boshlanadi. Nishopurdan Niso shahriga yetib kelgan g'aznaviylar qo'shini saljuhiylarga zarba bergan bo'lsada, Saljuhiyning nevarasi Tog'rul va Changri boshchiligidagi turkmanlar kechasi G'aznaviylar qarorgohiga hujum qiladi va g'alaba qozonadi. 1037 yil aprel oyida turkmanlar Mari viloyatini uzil-kesil egallashga erishdilar va Bag'dodda, xalifaga xokimiyat uchun yorliq berishni so'rab elchi junatadilar. Shu tariqa Xurosondagi yangi davlatga - *saljuqiylar davlatiga* asos solindi.

Keyingi yillarda turkmanlar Tog'rul boshchiligida bir qancha zarbalar berib Xurosonning katta qismini bosib oldilar. Shundan so'ng Ma'sud katta qo'shin bilan saljuqiylar ustiga yurish qildi. 1040 yilda Mari yaqinidagi Dandanakon degan joyda hal qiluvchi jang bo'lib, bunda Ma'sud armiyasi qattiq mag'lubiyatga uchradi. Jangdan zo'rg'a qochib qutilgan Ma'sud tez orada (1040 yil)da vafot etdi. Uning vorislari G'aznaviylar davlatining avvalgi qudratini tiklashga muvaffaq bo'la olmadilar. Asta-sekin o'z Qudratini yo'qotib boshlagan g'aznaviylar davlati XII asrning ohirida Afg'oniston hududida tashkil bo'lgan yangi davlat Fyriylar tomonidan butunlay tugatildi. G'aznaviylarga tegishli Xuroson asta-sekin saljuqiylar qo'ligao'tdi.

Saljuqiylar davlati. Saljuqiylar davlatining bosh sultoni bo'lib Tog'rulbek(1038-1063y) saylandi. U katta istilochilik yurishlari olib borib, Balxni, Iroqning shimoli, Ozarbayjonni, Ko'rdistonni va Qo'histonni ham bosib olishga erishdi. 1055 yildau kattaqo'shin bilan Bag'dodga kirib keldi va xalifadan o'z nomiga xutba o'qitishni talab etdi. Shundan so'ng xalifa diniy hokimiyatni o'z qo'lidasaqlab qolib, dunyoviy hokimiyatni sulton unvoni bilan Tog'rulbekka topshirdi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Tog'rulbek Ray shahrini tanladi. Uning xukmronligi davrida saljuqiylar Kavkazda Vizantiya qo'shinlarigaham katta zarba berdilar. U

Movarounnaxrda hukmronlik qilayotgan qoraxoniylar bilan do'stona munosabatlar o'rnatdi. Lekin, uning vorisi Alp Arslon (1063-1072) Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlarga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi, Vizantiya imperatori Roman IV Diogen qo'shinlarini mag'lub etdi. Undan keyin taxtgao'tirgan Malikshox (1072-1092) 1089 yilda qoraxoniylar o'rtasidagi ichki nizolardan foydalanib Buxoro va Samarqandni egalladi va kattao'lja bilan orqagaqaytdi. Lekin qoraxoniylar saljuhiylarning yarim vassaliga aylandilar. Malikshohnng o'limidan keyin saljuqiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar qizib ketadi va 1118 yilda hokimiyat buyuk saljuqiylar sulolasining so'nggi yirik vakili Sulton Sanjar (1118-1147) qo'liga utadi. Uning davrida Saljuqiylar davlatining poytaxti Marv shahriga ko'chiriladi. U Movarounnaxrdagi qoraxoniylarning ichki ishlariga, siyosatiga katta ta'sir o'tkaza olishga erishgan saljuqiylardan edi. Lekin, 1141 yilda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar va uning vassali, ittifoqdoshiga qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari o'rtasida, Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'lib o'tgan jangda qoraxitoylarning g'alaba qilishi Saljuqiylar davlatini ancha zaiflashtirdi. Saljuqiylarning mag'lubiyatidan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141 yilning qishida Saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi. 1142 yilda esa Nishopurga yurish qildi. Lekin Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosondan quvib chiqaradi va Xorazmshoh Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishadi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramasdan Saljuqiylar davlati o'zining avvalgi qudratini yo'qota bordi. Saljuqiylarga xal qiluvchi zarbani Balx va Xo'jjalan viloyatlarida yashovchi ko'chmanchi g'uz qabilalari berdi. 1153 yilda ulra Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor qilib, o'zini asir oldilar. G'o'zlar himoyasiga qolgan Marv, Nishopur shaharlarini talab, o't qo'yidilar. Sulton Sanjar 1156 yildaasrlikdan qochgan bo'lsa ham, lekin Saljuqiylar davlatini qayta tiklay olmadi va bir yildan keyin vafot etdi.

3. Xorazmshohlar davlati. Davlatni boshqarish tizimi, soliq siyosati. Yerga egalik shakllari.

Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe edi. X asr oxiri va XI asrning boshlariga kelib Xorazm hokimi Ma'mun I va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun Somoniylar davlati tugaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Lekin Movarounnaxrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Ma'sudga qaram edi. G'aznaviylar davlatining inqirozi va Xurosonda Saljuqiylarniig hukmronligi o'rnatilgandan keyin Xorazm dastlabki yillarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilgan bo'lsada tez orada Saljuqiylarga qaram davlatga aylandi.

Xorazmni mustaqil davlat sifatida shakllanishida ko'p xizmat qilgan hukmdor Qutbiddin Muhammad Otsiz (1127-1156) edi. Saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Xorazmni hukmdori bo'lgan Anushteginning nevarasi Otsiz o'zi tobe bo'lgan Saljuqiy sultonlarining har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Ayyor, diplomat va mohir sarkarda bo'lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib bordi. U Xorazm yerlarini ancha kengaytirib, Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlarni, Mang'ishloqni bosib oladi. Shundan so'ng u bir necha bor (1138, 1141-1142, 1147-1148 y.y) Sulton Sanjarga qarshi isyon qildi va mag'lubiyatga uchrab Saljuqiylarga butunlay tobe bo'lib qoldi. Lekin shunga qaramasdan u Xorazmni mustaqilligi uchun mustahkam asos yarata oldi. Sulton Sanjarning o'limidan so'ng (1157 y) Saljuqiylar davlati deyarli yuq bo'ldi va Xorazmni mustaqil davlat sifatida siyosat olib borish uchun keng yul ochildi. Muhammad Otsizning o'limidan so'ng o'g'li Elarlon taxtga o'tirdi. U otasiga Qaraganda ancha qulay vaziyatda davlatni boshqardi. Xurosondagi voqealardan foydalanib u Kaspiy bo'yidagi Dehistonni bosib olishga erishdi. Elarlon otasi davrida Xorazmga bo'ysundirilgan kuchmanchi turkman va qipchoq kabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshladi. 1158 yilda u katta qo'shin bilan Movarounnahrda bostirib kirdi. Bu vaqtda qoraxitoylarga vassal bo'lgan Qoraxoniylar ko'chmanchi qarluqqabilalari bilan jang olib borishayotgan edi. Elarlon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borgan janglarda yordam berdi. Lekin qoraxitoylar qo'shinlari yordamga yetib kelishi bilan Elarlon Xorazmga qaytishga majbur bo'ldi. U bir necha marta Xurosonga yurish qilgan bo'lsada, muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1171-1172yillarda qoraxitoylarning katta qo'shini Xorazmshoh-ning o'lponini o'z vaqtida to'lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qildi. Elarlonning buyrug'i bilan Sirdaryodagi katta tug'on buzib tashlanadi va katta maydon suvga bostiriladi. Bu qoraxoniylar qo'shini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch)ni talon-taroj qilishdan saqlab qolindi. Lekin qoraxoniylarning bu bosqini davrida Elarlon vafot etdi. Undan keyin Xorazm taxtini uning kichik o'g'li Sultonshoh egallaydi. Elarlonning kattao'g'li Alouddin Takash Qoraxitoylar yordami bilan ukasi Sultonshohdan taxtni tortib olishga erishdi. Sultonshoh Xurosongaqochishga majbur bo'ldi. SHundan so'ng Alouddin Takash (1172-1200 y) Xorazmda maxkam o'rnashib, qoraxitoylarga va'da bergan o'lponni to'lashdan bosh tortadi. Bunga javoban qoraxitoylar Xorazmga yana yurish qiladilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Sultonshoh esa qo'shin bilan Marv shahrini, Saraxs va Tusni egalladi.

Qoraxitoylarning muvaffaqiyatsiz yurishlaridan keyin, Takash o'z davlatini yanada mustahkamladi, Movarounnahrda, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. U Movarounnahrni egallay olmaganbo'lsada, lekin Xurosonni bir necha tumanlarini bosib oldi. Lekin Xorazmshoh Takashning Xurosonda kuchli va xavfli raqibi bor edi. Bu tobora ko'chayib

borayotgan G'uriylar davlati edi. Fy' viloyati hozirgi Afg'onistondagi Xerirud daryosi bo'yida, Xirotdan Balxgacha, Qobuldan G'aznagacha cho'zilgan viloyat bo'lib, bu yerda asosan forsiy qabilalar yashatan.

1150-1151 yillarda g'uriylar hokimi Alouddin G'aznaviylar sulolasi sultoni Baxromshoh ustidan g'alaba qozonib, G'azna shahrini vayron qilgan edi. G'aznaviylarga so'nggi zarbani 1186-87 yillarda G'uriylar hokimi G'iyosiddin Muhammad berdi. Shundan so'ng g'uriylar hozirgi Afg'onistonni hamda Tojikiston va O'zbekistonning janubiy rayonlarini ham ma'lum vaqt egallab turdilar. Xurosonda Saljuqiylarning kuchsizlanganidan foydalanib G'uriylar Sultoni G'iyosiddin Muhammad 1175 yilda Hirotni egalladi va Xurosonning markaziy rayonlariga hujumlar uyushtirib turdi. Qoraxitoylarning vassali hisoblangan Xorazmshoh Takash esa Xorazmni qoraxitoylar qo'lidan qutqarish uchun katta kuch sarflashga majbur bo'ldi. Faqat XII asrning 80 yillarida u Xurosonda ba'zi bir yutuqlarni qo'lga kiritdi. 1187 yilda u Nishopo'rni, 1192 yilda Ray shahrini, 1193 yilda Marv shaxrini egalladi. Bag'dod xalifasi Nasr (1180 - 1225) va Fa'biy Saljuqiylar Sultoni Tog'rul II o'rtasidagi nizodan foydalanib, Takash qo'shinlari 1194 yilning mart oyida Togrul II ga qarshi urush ochdi va uni yengib Hamadon shaxrini egalladi. Torrul II esa jangda o'ldirildi.

Xorazmshohning tobora ko'chayib borayotganidan xavfsiragan Xalifa Nasr qo'shinlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 yilning iyun oyida xorazmliklar xalifa qo'shinlarini yengdilar. Shu tariqa Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'liga o'tdi va Xorazm davlati xududi birdaniga ikki baravariga kengaydi. Xorazm davlati endi Bag'dod xalifasiga tegishli joylar va G'uriylar bilan chegaradosh bo'lib qoldi. 1200 yilda Takash vafot etdi va shundan keyin Iroqda xalq qo'zg'OLONI ko'tarildi, bu yerdagi Xorazm qo'shinlarining katta qismi qirib tashlandi, qolganlari Xurosonga chekinishga majbur bo'ldi. Xorazmshohlar ichida Takash eng talantli lashkarboshi va hukmdor edi. U juda og'ir vaziyatda Old Osiyo va Markaziy Osiyoning katta qismini birlashtirib qudratli davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Lekin Takashning katta xatosi shunda ediki, u o'zining xotini Turkon Xotun mansub bo'lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi, ularni doimo qo'llab-quvvatladi. Turkon Xotunning davlat ishlariga aralashuvi Xorazmdagi ichki nizolarning ko'chayishiga olib keldi. Takashning o'limidan keyin Xorazm taxtiga uning o'g'li Alouddin Muhammad o'tirdi (1200-1220yy) 1203yilda Muhammad qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni butunlay bosib oldi. Hirotni va yaqin atroflarini egalladi, 1207 yilda u o'z poytaxtiga qaytib Movarounnahrni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi. Shu yilning o'zidayoq Muhammad Movarounnahrda katta kuch bilan harbiy yurish boshladi. Buning sababi Buxoroda ko'tarilgan xalqqo'zg'oloni edi. Bu qo'zg'olon 1206 yilda Buxoro sadri (hokimi) Muhammad ibn Abdulazizga qarshiqaratilgan edi. Buxoro sadrlariga xos barcha yomon xislatlar bu odamda mujassam edi. U xalqdan katta soliqlar

olib, ularni shafqatsizlarcha ezar edi. U diniy rahbar bo'lishiga qaramasdan aysh-ishratga, ovga mukkasidan ketgan edi.

Buxoroda uning zulmiga qarshi xalqharakatining asosiy kuchlari shahar hunarmandlari edi, qishloqaholisi- dehqonlar bu harakatni qo'llab quvvatladi. Bu qo'zg'olonning boshlari qalqon yasovchi ustaning o'g'li Malik Sanjar ismli shaxs edi. Qo'zg'olonchilar sadr Muhammadni oilasi bilan quvib chiqardilar. U qoraxitoylardan yordam so'radi. Lekin Xorazmshoh Muhammad qoraxitoylardan oldinroqharakat qilib Buxoroni bosib oldi va shu tarifa Movarounnahrni Xorazm tarkibiga qo'shib olish boshlandi. qo'zg'olonchilarning boshlari Malik Sanjar Urganchga olib ketildi.

Movarounnahr xalqi Xorazmshohni qoraxitoylar zulmidan qutqaruvchi kuch sifatida qarshi oldi. Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylarning vassali bo'lgan Samarqand hokimi (qoraxoniylar sulolasidan) Usmon bilan do'stona munosabat o'rnatdi. Bu esa qoraxitoylarning Samarqandga yurish qilishiga olib keldi vaular shaharni bosib oldilar. Bu vaqtda mo'g'ul qabilalaridan biri bo'lgan naymanlar qoraxitoylarning Yettisuvdagiyerlariga bostirib kirdilar. Shuning uchun qoraxitoylar shoshilinch ravishda orqaga qaytishgamajbur bo'ldilar. Qoraxitoylarning qiyin ahvolgatushib qolganidan foydalangan Xorazmshoh. Samarqandni egallab (Usmon uning vassaligaaylandi) qoraxitoylar ustiga yurish qildi va Talas vodiysida1210 yilda qoraxitoylar qo'shini ustidan g'alaba qozondi. Bu g'alaba tufayli Muhammad Xorazmshohning ahvoli ancha mustahkamlandi. Samarqand hokimi Usmon Xorazmshohning to'liq vassaligaaylandi va uning kuyovi bo'ldi.

Soliqlarning haddan tashqari oshib ketganligidan norozi bo'lgan Samarqand xalqi 1212 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Katta qo'shin bilan Xorazmshohning o'zi Samarqandga kirib borib qo'zg'olonchilardan shavqatsizlarcha uch oldi va o'z kuyovi Usmonni ham o'ldirdi. Shundan so'ng u Movarounnahrdagi vaziyatni o'z foydasiga xal etish uchun Farg'onani Usmonning ukasi Qodirdan tortib oldi. O'zgan shahrini ham egalladi va shu tariqa qoraxoniylar sulolasi butunlay tugatildi. Qoraxitoylar sulolasini esa ko'chmanchi naymanlar Quchluq rahbarligida tugatdilar. Xorazmshoh Markaziy Osiyoni butunlay egallagandan so'ng G'arbga yurish qildi vatez orada Eron va Afg'onistonni bosib oldi. Bag'dod xalifasini ag'darishgao'rinib ko'rdi.

4.Uyg'onish davri. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda madaniy yuksalish.

Odanzod umumiy rivojlanish bilan birga qanchadan-qancha tusiqlarni, tanazzul va tushkunliklarni boshidan kechirgan va ularni bartaraf etib, o'z moddiy va madaniy darajasini qayta tiklagan va yangi taraqqiyot sari astoydil intilgan. Fanda bunday yirik, salmoqli yuksalishni tiklanish, «uyg'onish», «renessans» ham deb ataydilar. Xususan G'arbiy Yevropada bunday renessans XV-XVIII asrlarda deyarli 700 yillik xurofat zulmatdan so'ng yuz bergan. Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri IX-XII asrlarga to'g'ri keldi va o'zgacha

shart-sharoitlarda kechdi. Uning ko'lamini, oqibatlarini, jahon tsivilizatsiyasiga ta'siri ham bo'lakcha bo'lgan.

O'lkamiz hududida miloddan avvalgi davrlarda erishilgan moddiy va ma'naviy madaniyat yangi asrlarda Kushon podsholigi, eftalitlar davlati va Turk xokonligi davrlarida o'sib bordi. Me'morlikda yangi kurilish g'oyalari vujudga keldi va ular murakkab muxandislik yechimi asosida amalga oshdi (Masalan Usturishona, Varaxsha va boshqalar). Xunarmandchilik rivojlandi, ularning yangi turlari vujudga keldi. Savdo-sotiq, qo'shni yurt-elatlar bilan munosabatlar rivoj topdi, sug'orma dexqonchilik maydonlari kengaydi, yangi suv inshootlari barpo etildi. Aholi o'rtasida savodxonlikka intilish ko'chaydi. Mavjud din va aqidalar o'zaro murosada yashadi. Madaniy xayot, sa'natni turli janrlari boyidi. Tabiiy fanlarga, atrof muhitni anglashga, kengroq bilishga intilish ko'chaydi. Lekin, VIII asr boshlarida Markaziy Osiyo aholisi arablar bosqini natijasida og'ir kiyinchiliklarga duchor bo'ldi va istiloga qarshi ko'p yillik kurash olib bordi. Abu Rayxon Beruniy asosli ravishda arablar istilosi oqibatida So'g'd va Xorazmning boy madaniyati barbod bo'ldi, deb afsuslangan edi. SHu bilan birga arab xalifaligida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Ummaviylar sulolasidan xokimiyat Abbosiylarga o'tganligi muhim voqea bo'ldi. Yangi sulola benixoya katta saltanatni idora qilishda, uning taraqqiyotining ta'minlash dailmu-fanning ahamiyatini chuqurroq angladi. Xulosa Xorun-ar-Rashid (786-809), so'ngra uning o'g'li Ma'mun o'z tasarufidagi o'lkadan olimlarni xalifalik poytaxti Bog'dodga taklif etdilar, ularni samarali ishlari uchun sharoit yaratdilar.

O'lkamizda islom dinining tarqalishi, uning mahalliy odat-udumlari bilan tez orada uyg'unlashuvi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Madaniy sohada xususan islomning ahlokiy tariqatlari, shuningdek IX-X asrlardagi dunyoviy ilimlarni rivoji arab dunyosidagi ijtimoiy-ma'naviy vaziyatni anchao'zgartirdi. SHuning bilan birga arab (islom) tsivilizatsiyasining shakllanishda Xindiston, Eron, Yunoniston, Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlarining madaniyatining ta'siri katta bo'lgan Mintakamizda kadimdan tsivilizatsiya asoslari, moddiy va ma'naviy madaniyatning chuqur ildizlari mavjud edi. VIII asr oxirlari IX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy va siyosiy vaziyat yangi barqarorlashdi. Bunday sharoit mintaqada ilm-fan, umuman madaniyatning keng ko'lamda rivojlanishi uchun asos yaratdi. Xususan, Buxaro, Samarqand, Xiva, Termiz, Farg'ona, Xo'jand, Qo'qon kabi shaharlar madaniyat o'choqlariga aylandi. Xorazmda esa Ma'mun akademiyasi tashkil topdi.

O'lkadagi mazkur madaniy yuksalish feodal munosabatlarning xususan, feodal boshqaruvining markazlariga aylangan shaharlarning u yerdagi xunarmandchilik, savdo-sotiq aloqalarining tezlik bilan rivojlanishi asosida vujudga keldi. Bu rivojlanish esa O'rta Osiyoning arab xalifaligiga qo'shilishi, keng savdo-sotiq aloqalariga kirishuvi islomning tarqalishi natijasida yanada avj oldi. Avvaldan mavjud bo'lgan va O'rta Osiyoning G'arbidan-Sharqigacha kesib o'tgan hamda qator shaxarlarning ham o'z ichiga olgan mashhur Ipak

yuli mavqeining yanada ko'chayishi ham madaniy rivojlanishda muhim rol o'ynadi.

5. Tabiiy va ijtimoiy fanlar rivoji.

O'rta asr madaniyati shu darajada yuksaklikka ko'tarilganki, dunyoviy ilmlar, turli aniq fanlarning yutuqlari, natijalari ularning mazmuni belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Turli sohalarda ijod etilib katta yutuklar qulga kiritilgan. O'rta Osiyoda dinshunoslikning o'ta rivoj topgan asri IX asr bo'lsa, XII asr ilm-fan taraqqiyotining cho'kkisi bo'ldi. IX - XII asrlar davomida O'rta Osiyo xalqlari dunyo madaniyatiga ilm fanning turli sohalari buyicha, xususan, arab yeki an'anaviy ilmlar, ya'ni asosan gumanitar ilmlar sohasida ham juda o'lgan xissa qo'shdilar. Bu davrda yashab ijod etgan O'rta Osiyolik buyuk olimlarning ijodi, faoliyati, asarlari o'rtaasr ilm-fani rivojida nihoyatda muhim o'rin tutadi. O'rta Osiyodan chiqqan Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy singari olimlarning nomi butun Sharq va Yevropa O'rta asrida nihoyatda xurmat bilan tilga olinadi. Markaziy Osiyo olimlari O'sha paytda ma'lum bo'lgan barcha ilm sohalari bilan qiziqdilar, dunyoviy va diniy fanlar rivojlanishga o'zlarining salmoqli xissalarini qo'shdilar. Bu haqida M.Hamidullaevning "O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati" (Fan-1994 yil) F.Sulaymonovning "Sharq va G'arb" (O'zbekiston-1997 yil) asarlarida shuningdek "Buyuk siymolar, allomalar" (Me'ros 1995-1996 yil) to'plamlarida sermazmun va boy ma'lumotlar keltirilgan. Bu nashrlarda nafakat Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy va Ibn-Sinoning ko'p kirrali faoliyati xususida, balki ularning yuzlab izdoshlari va shog'irdlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ular lotin, arab va boshqa qator tillarni bilganlar, jaxon tsivilizatsiyasi yaratgan aniq va gumanitar fanlar bo'yichao'z mustaqil mulohazalariga ega bo'lganlar.

Markaziy Osiyo madaniyatining rivojlanishida M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Rudakiy, Narshaxiy kabi arboblarning hissasi ham kattadir. Imom-al Buxoriy, At-Termiziy kabi buyuk muxaddislarni butun islom olami bugun ham ehtirom bilan tilga olmoqda.

O'lkamizda yuz bergan ilm-fan, madaniyat va sa'nat sohalaridagi uzgarishlar, yangiliklarni asosiy xislatlaridan biri insonparvarlik G'oyalari doimo ustin turganligidir. Markaziy Osiyodagi uyg'onishning muhim belgisi bu dunyoviy bilimlarga intilish hamda din va diniy bilimlarni jamiyat, inson manfaatlaridan kelib chiqib talkin etish bo'lgan. Odamzot ma'naviyatini boyitish esaasosiy mezon bo'lgan.G'arb olimlari e'tirofichaantik tsivilizatsiya bilan Yevropa to uyg'onish davriga kadar, ya'ni XVI asrgachaarab tilida bitilgan asarlar orqali tanishgan. G.Gegeľ uzining tarix falsafasida "Fan va bilimlar ayniksa falsafa G'arbgaarablardan utgan" deb kursatadi. Yurtimiz allomalarining ko'pchiligi zamon taqozosiga ko'ra uz asarlarini asosiy qismini O'sha paytda xalqoro tilgaaylangan arab tilida yozganlar. SHu boisdan aksariyat G'arb olimlari ko'pchilik Sharq olimlarini arab deb faraz qilganlar.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy.(783-850yy) Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiy Xivada tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqdi. Arab, fors, hind, yunon tillarini mukammal o'rgandi. O'qigan, o'rganganlari asosida, tabiatning bergan buyuk iqtidori bilan bir necha fanlarga doir yirik, qimmatli asarlar yaratdi. Uning arifmetika vaalgebraga doir «Kitob al-jabr val muqobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. Al-Xorazmiyning ikkinchi matematikaga oid asari «Hind arifmetikasi haqida kitob» bo'lib, bu asar tufayli avval SHarq xalqlari, so'ngra esa Yevropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nlik hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o'girilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-ard» (yerning surati) asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Kuyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Yevropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat SHarqda emas, balki G'arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.1983 yilda xalqimiz buyuk allomaning 1200 yillik to'yini katta tantana bilan nishonladi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Al-Farg'oniy. Al-Farg'oniyning tarjimai holiga doir ma'lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861 yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Farg'ona zaminida to'g'ilib o'z ilmiy-madaniy zakovati bilan Bag'doddagi birinchi Ma'mun akademiyasigacha borgan (ikkinchi Ma'mun akademiyasi Xorazmshox Ma'mun akademiyasi edi). (Al-Farg'oniy, Muhammad Muso Al-Xorazmiy bilan birga bu akademiyadagi olimlarga rahbarlik qilishgan. Farg'oniy arab ilmiy atamashunosligini vujudga kelishiga va rivojiga katta hissa qo'shdi. Bag'dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u yerda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi.

Al-Farg'oniy astronomiyaga oid «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o'zining yangi natijalari bilan boyitdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq mamlakatlarni yetti iqlimga bo'lib urgandi. Kuyosh soatlarini bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg'oniyning bu asari N.Kopernik davriga qadar Yevropada astronomiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.

Al-Farg'oniy 25 yoshidan Ma'mun akademiyasiga borib, u yerda salkam 50 yil halol mehnat qildi. Ma'mun davrida Bag'dodda tashkil etilgan kutubxonada 400 ming jild kitob mavjud edi. Bag'dod akademiyasida Al-Farg'oniy bilan birgalikda xorazmlik Muso ibn SHokirning o'g'illari Ahmad,

Muhammad va Xasan ibn Muso aka ukalar nomlarini va ularning ilmiy natijalarini ham keyinchalik Beruniy o'z asrlarida hurmat bilan tilga oladi.

Faribdan Bag'dod akademiyasiga borib astronomiya va matematika fanlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Al-Javhariy ham alohida o'ringa egadir. Ahmad Farg'oniya arab ilmiy dunyosida «Xosib» laqabi berilgan ya'ni, uni matematika sohasida tengi yo'qligi tan olingan. Yevropada Farg'oniyni Alfraganus deb ataganlar. SHuni ta'kidlash kerakki, 828 yilda Bag'dodda 1-chi rasadxona ishga tushirilganda, uni marvlik falakshunos olim Yaxyo ibn Abu Mansur boshqargan. 3 yil o'tgach Damashqda ana shunday ikkinchi rasadxona barpo qilindi va o'nga Markaziy Osiyolik alloma Holid ibn Abdumalik Marvarudiy rahbarlik qildi. Qizig'i shundaki har ikkala-rasadxonani ham Al-Ma'mun iltimosiga ko'ra loyihasini va barcha andozalarini qog'ozga tushirish Ahmad Farg'oniya yuklatilgan bo'lib, ushbu rasadxonalarning vazifalari, ishlari, rejalari hamda ilmiy natijalarini tekshirib fanga kiritish ham ilmiy rahbar Ahmad Farg'oniyning zimmasiga tushdi.

Xalifa Mutavakkil (847-861) tomonidan 861 yili Al-Farg'oniya Qohira yaqinidagi Fustat shahriga Nil daryosi suvi satxini o'lchash uchun yuboriladi. Farg'oniyning bu sohada yasagan nilometr asbobi hozirgacha saqlanmoqda. Farg'oniyning boy Me'rosi, asarlari hozir Kohira, London, Parij, Berlin kutubxonalarida saqlanmoqda. SHuni ta'kidlash lozimki, Farg'oniya asarlarining bilgan ko'p qismi hali to'liq o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. 1998 yil kuzida mutafakkir qomusiy olim, yurtdoshimiz, xalqaro miqyosdagi yetuk olim Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik o'lkan to'yi mamlakatimizda, xususan, u to'g'ilib o'sgan Farg'ona vodiysi diyorida keng nishonlandi, ajoyib ziyoratgoh tashkil etildi va olimga muhtasham haykal yodgorlik o'rnatildi.

6. Badiiy adabiyotning rivojlanishi

Bu davrda ma'naviy madaniyatning rang barang sohalaridan biri adabiyot bo'lib, u o'z davrining ijtimoiy ongining muhim tomonlarini uzida ifodalaydi. Badiiy adabiyot bu davrda uch tilda rivojlandi: fors, tojik va arab. Badiiy ijodda ustun janrni poeziya tashkil etdi.

1. Arab tilidagi adabiyot haqidagi manbalardan O'rta Osiyo olimi Abu Mansur ibn Abdumalikning "Yatimat-ad-daxr fimaxosin axl al-asr" kabi antologiya xrestomatiyalaridir.

Abu Axmad al-Kotib, Muhammad al-Murodiy vaboshqa shoiru, yozuvchilar ijod qilganlar.

2. Fors tojik tildagi adabiyot.

Bu davrda fors tojik tilida ijod etgan shoirlardan Shoxi Balxiy, Ravnakiy, Buxoriy, Shokir Buxoriylarni kursatish mumkun. Lekin bu til she'riyatni, badiiy adabiyotni Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayom kabilar dunyoga mashxur qildilar.

3. XI-XII asrlarga kelib ijtimoiy madaniy xayotda turkiy tilning keng tarkalib borishi davlat ishlarida keng foydalanilishiga boshlandi: arab, fors tildagi badiiy asrlar bilan birga turkiy tildaham yirik dostonlar, she'rlar yaratildi. Yusuf Xos Xojibning "Kutadg'u bilig" va Axmad Yugnakiyning "Xibatul Haqoyiq" asarlari shular jumlasidandir. Yana Sulaymon Boqirg'oni ham shu tilda ijod qilgan. O'sha davrlarda badiiy adabiyot asosan doston, sheriyat va kichik qissalardan iborat edi.

Bu davrdaqadimgi so'g'd, urxun yozuvlari o'rniga arab yozuvinig tarqalishi asosida bu yangi yozuvda turli asarlar yozish ham avj oldi. Ular qo'lda yozilib ko'chirilgan. Qo'lyozmalarni chiroyli yozuvlar bilan ko'chirish turli bezaklar berish usullari ham keng qo'llanildi.

Qo'lyozmalar arab yozuvida bitilgan. Boshlang'ich islom diniy kitoblar kufiy yozuvda bitilgan. So'ngra kufiy yozuvi asosida yetti shakldagi yozuv Sharqda, jumladan O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'sha davrdagi qo'lyozmalar mana shu yetti shakldan birida bitilgan. Bulardan ayniqsa rayxoniy usuli nihoyatda chiroyli bo'lib sahifalarini bezashda, duo kitoblarida ko'proq ishlatilgan.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950yy.) O'trorda to'g'ilgan, boshlang'ich ma'lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan so'ng Bag'dodda uzoq yashab, o'z zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan. Yunon ilmini, xususan Aristotel me'rosini chuqur bilgani va ularni Sharqda rivojlantirgani uchun Aristoteldan so'ng uni «Ikkinchi muallim» deb atashgan. Uning risolalari riyoziyot, falakiyot, tibbiyot, axloqshunoslik, musiqashunoslik, davlatni boshqarish, ayniqsa falsafa va mantiq ilmi masalalariga bag'ishlangan. Aristotelning barcha falsafiy asarlariga sharx yozgan. Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan «Musiqa haqida katta kitob» nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag'ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. U serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy). Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug'rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning xikoyalar, she'rlar bitganligi ham ma'lum. Beruniy O'rtaasrda birinchi bo'lib globus yaratdi. U arab, fors, hind turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Saydana», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Qonuni Ma'sudiy», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G'aznaviy saroyda ham xizmatda bo'lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilib o'sgan Abu Ali jahon madaniyati, ilm-fani xazinasiga bebaho hissa qo'shgan buyuk siymolardan biridir. U falsafa, mantiq ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi

shu qadar keng bo'lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag'ishlangan asarlar yaratgani ma'lum. («Истиографиуа общественных наук в Узбекистане». «Библиографическое очерки» Т. «Fan» 1974 g. str. 30)

7.IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik.

IX-XII asrda dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XIII asr ohirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo bo'ldi va tarqaldi Imom Ismoil al-Buxoriy (810-869 yy.) Buyuk hadisshunos olim Buxoroda tavallud topgan bo'lib, yoshligidan bilimga intilib, arab tili va hadis kitoblarini o'qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishgan. Keyinchalik Buxorolik muxaddislar Muhammad al-Poykandiy, Abdullox al-Masnadiylardan xadis ilmini chuqur o'rganib ko'p hadislarni yod olgan. 16 yoshlarida onasi vaakasi bilan safarga o'tlanib Balx, Basra, Kufa, Bog'dod, Damashq, Misr, Makka, Madina shaharlarida bo'lishib mashhur hadis olimlaridan ilm olgan. Ma'lumki, «hadis» muqaddas «Kur'on» kitobidan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Imom Buxoriy hayoti davomida 600 ming hadis to'plab, ulardan 7275 hadisni o'zining 4 jildlik «Ishonarli to'plam»iga kiritdi. To'plam Misr va boshqa ko'p mamlakatlarda chop etilgan. Nihoyat bu to'plam 1991-1992 yillarda o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim qilindi. Al-Buxoriy hadislari islom dunyosidagi yuzlab hadischi olimlarnikidan alohida farq qiladi va shuning uchun ham «Ishonarli» to'plam deyiladi. Al-Buxoriyning islom dinshunosligiga oid 20ga yaqin katta hajmdagi asarlar yozgani ma'lum. Uning hadislari vaasarlarining diqqat markazida dinning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, tozaligi, donoligi, yaxshi va yomonni bir-biridan ajrata bilishi kabi hislatlari turadi. Islom dunyosining yirik olimi, hadisshunoslikda eng yuqori pog'onaga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriyning 1205 yilligi 1998 yil xalqaromiyosda tantanali nishonlandi va u vafot etgan Samarqand atrofidagi Chelak shahrida nihoyatda xashamatli ziyoratgoh qurildi. Bu yerga jahonning turli joylaridan minglab odamlar ziyoratga kelmoqdalar.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-894yy) Islom dunyosida mashhur bo'lgan hadischi olim Imom at-Termiziy Termiz yaqinidagi Bug qishlog'ida to'g'ilgan. 26 yoshidan boshlab Samarqand, Buxoro, Xijoz, Iroq, Nishopur shaharlarida mashhur muxaddis olimlar bilan uchrasha boshladi. Uning buyuk hadischi olim bo'lib, yetishishida Imom Ismoil al-Buxoriy ustozligi katta o'rin tutadi. Umrini hadislar to'plashga bag'ishlagan At-Termiziydan katta ilmiy Me'ros, jumladan: «Kitobi al-Jom'e as-saxiyx», «Kitob ul ilm», «Kitobi at-

Tamoyili an-Nabaviy», «Kitobi az-zuxl», «Kitobul ismi val xuna» kabi asarlar qolgan.

1990 yil sentyabr oyida Toshkentdaat-Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Ismoil al-Buxoriy hadislari kabi At-Termiziy to'plagan hadislarda ham tarbiya, ahloq odob, ota-ona, va farzand haq-huquqlar, halollik, poklik, kabi umuminsoniyqadriyatlar vaahloq mezonlari asosiy o'rin tutadi.

Abu Abdurahmon an-Nasoiy (830-915 yy) Movarounnahrlik hadischildan an-Nasoiy ham Islom dunyosida mashhurbo'lib Niso (Hozirgi Turkmaniston) shahrida to'g'ilgan. Uzoq vaqtlar Misrda yashagan. Hadislar to'plagan. U «At-sunan al-Kubro», «Al-Mujtaba», «Al-Sunan» nomli hadis kitoblarini yozib qoldirgan. Bu kitoblar islom dinshunoslar orasida o'ziga xos obruga egadir.

Burxoniddin Marg'iloniy (1197 yilda vafot qilgan) to'liq ismi Burxoniddin Marg'iloniy Ibn Abu Bakr al-Farg'oni al-Rishtoni. Burxoniddin fiqh ilmiga (din, shariat haqidagi fan) oid bir nechta risolalarni «Bidoyatul muftadiy» (ilmga-kirishuvchi dastlabki asos) «Al mazid» (ziyoda qilish) «Kitobul faroiz» (farzlar haqida kitob) va boshqaasarlarni yozib qoldirgan. Burxoniddin Marg'inoniyning «Xidoya fi furu' al-fukx» (Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma) asari 56 kitobdan iborat bo'lib, bu asar shariat kodeksi deb ataladi, Marg'iloniyning islom dunyosida obro'si o'ziga xosdir. Asarda Qipchoq, ugo'z, yamak, boshkird, bismil, yaboku, kay, tatar, qirg'iz, chig'il, tuxsi, yag'mo, igroq, jaru, jamil, uyg'ur, tangut, tabgoch singari turli turk qavmlari haqida ko'plab ashyoviy dalillar keltiriladi. Uning bu yetuk asari xalqaro ahamiyatga ham egadir.

6-Modul: Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi-mard va jasur ajdodimiz.

1. Chingizxon (Temuchin) davlati. Mo'g'ullarni O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.

2.Movarounnahr xalqlarining mo'g'ullarga qarshi ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi.

3.Chig'atoy ulusining tashkil topishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.

4. Chig'atoy ulusining parokandalikka uchrashi. Madaniy hayot.

1. Chingizxon (Temuchin) davlati. Mo'g'ullarni O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.

XII asr oxirlarida Mo'g'ulistonda yashovchi turli qabila va urug'lar o'rtasida siyosiy kurashlar avj olgan edi. Ulardaayniqsa urug'-aymoqchilik

munosabatlari kuchli bo'lib, asosan ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik va mol ayirboshlash bilan kun kechirar edilar. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi ham ancha past edi.

1155 yilda bir nechta qabilalar boshlig'i bo'lmish Yasug'oy bahodir va Ulun xotun oilasida Temuchin tug'ildi. Ulug'bekning yozishicha Yasug'oy bahodir o'z atrofidagi ulug' a'yonlar bilan kengashib, o'g'lining ismini Temuchin deb qo'ydi. Bo'nga sabab o'sha vaqtlarda tatar qabilalarining qudratli podshohining ismi ham Temuchin edi. Go'dak ulg'ayganda Temuchindeg qudratli shoh bo'lsin, deb niyat qilindi. Temuchin otadan 13 yoshida yetim qolgan paytda otasiga tobe bo'lgan ko'pgina qabilalar ularni tashlab ketdi va shu bois u keyinchalik ko'pincha murakkab hamda xavfli sharoitlarni boshidan kechirdi. O'zaro qabilaviy janglarda faol qatnashgan Temuchin keyinchalik o'z atrofiga 13 ming kishilik lashkar ham to'play oldi. So'ngra ularning soni ortib bordi. Tez orada Temuchin Nayman, Totor, Ung'ut, O'yg'ur, Keroyit qabilalarini o'ziga buysundirishga erishadi va 1205 yillarga kelib u Mo'g'uliston hududidagi eng qudratli hukmdorga aylandi.

1206 yilda Onon daryosi buyida maxsus chaqirtirilgan qurultoyda Temuchin butun Mug'ulistonning Hoqoni deb e'lon qilindi. Shu joyda unga Chingizxon (kuchli baquvvat degani) laqabi berildi. Chingizxon shu tariqa Manchjuriyadan to Irtishgacha Baykaldan Tang'utgacha hududlarda ko'chib yuruvchi ko'p sonli qabilalarning yagona hukmdoriga aylandi. Davlatning diniy, siyosiy ijtimoiy faoliyatining barcha qirralari 1206 yildagi o'sha yirik yig'inda "Yaso" qonunlari to'plamida yanada asoslanib, mustahkamlandi. Qoraqurum qal'asi poytaxt qilib tanlandi.

1207-1208 yillarda Enasoy (Enisey) havzasi, Yettisuv viloyatining shimoliy qismi bosib olinib, u yerdagi uyg'urlar ham to'liq buysundirildi. 1209 yilda Chingizxon Xitoyning shimoli-sharqiydagi Tong'ut mamlakatiga hujum qilib, katta o'lja va ko'plab odamlarni qul qilib, Mo'g'ulistonga olib ketdi. 1211-1215 yillar davomida esaavval Xitoyga hujum qilib, qudratli Tszin armiyasiga qattiq zarbalar berdi, so'ngra esa Pekin shahrini ishg'ol qildi. Tszin sulolasi ag'darilib, Shimoliy Xitoy Mo'g'ullar davlatiga qo'shib olindi. Mo'g'ulistonda qudratli davlatni tashkil qilgan Chingizxon o'z e'tiborini endi Markaziy Osiyo tomonga qarata boshladi.

Xorazmshohlar davlatida 1189 yildan 1200 yilgacha hukmronlik qilgan Oloviddin Takash faoliyatining asosiy yakuni davlat kuch-qudratining yanadako'chayganligidir. Takash, hukmdorlik bilan bog'liq hayotining deyarli barchasini harbiy yurishlarda o'tkazdi. Ulkan g'alabalarga erishdi, Xorazm davlatining uzoq o'lka va hududlarga tanitdi. 1200 yilning yozida Bag'dod xalifaligi tomon harbiy yurish uyushtirgan Oloviddin Takash yo'lda betob bo'lib, vafot etadi. 3 iyul kuni jasadi Gurganjga olib kelinib, o'zi qurdirgan madrasa oldida dafn etildi. Uning hukmronligi davrida qudratli davlat tuzilib, Xorazmning Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan aloqalari mustahkamlandi. Takash davrida bu davlat tarkibida aholi soni o'sib, ko'paydi. Hunarmandchilik,

madaniyat, arxitektura yuksaldi. Poytaxt Gurganj dunyodagi go'zal shaharlardan biriga aylandi. Takash olib borgan tashqi va ichki siyosatning kuchli tomonlari bilan birgalikda zaif tomonlari ham mavjud ediki, bu holat kelgusida bu davlatning ichidan yemirilishida o'ziga xos sabablaridan biri bo'ldi. U ham bo'lsa, Takashning qipchoq urug'idan bo'lgan xotini-Turkon xotuning o'z himoyasidagi qipchoq harbiy aslzodalariga hadeb homiylik qilishi edi. Bu ayol davlat ishlarini o'z qo'liga olishgao'rin ar, qipchoqlarni davlatning ichki ishlariga aralashishiga imkoniyat yaratib berardi. Qipchoqlarning saroyda yirik imtiyozlilik asl xorazmlik turkiy a'yonlarga yoqmasdi. Bu holatlar esa ichki kurashlar, ziddiyatlarni yanadako'chayib borishiga ham sabab bo'lar edi.

Xorazmshoh Takashning katta o'g'li Malikshoh Takash xayotligi davrida, 1171 yilda vafot etgan edi. Shuning uchun ham taxtga chiqish ikkinchi o'g'li Qutbiddin Muhammadga nasib etdi. 1200 yil 3 avgust kuni Gurganj aholisi va Xorazm davlatining a'yonlari, amirlari ishtirokida taxtga Takashning Turkon xotundan tug'ilgan o'g'li Qutbiddin Muhammad o'tiradi. U o'ziga otasining laqabi Oloviddin nomini qo'shib oladi va tarixga Oloviddin Muhammad Xorazmshoh nomi bilan kirdi.

Oloviddin Muhammad podsholik qilgan davrida (1200-1220) Samarqand va O'troni qoraxoniylardan tortib oladi, uzoq G'aznagacha (Afg'oniston janubi) o'z chegarasini kengaytirib, G'arbiy Eron va Ozarbayjonni bo'ysundiradi. Dashti Qipchoqning ichkari hududlariga kirib boradi. Ma'lumotlarga ko'ra, 25 dan ortiq mamlakat o'nga qaram bo'lgan. Shu tufayli bo'lsa kerak, Oloviddin Muhammad erishilgan o'lkan yutuqlardan ortiqcha kibrlanib, o'zini "Iskandari Soniy", ya'ni ikkinchi Iskandar deb e'lon qiladi. Keyinchalik bu nom ham kamlik qilib, uzoq yillar hukmdorlik qilgan saljuqiy shoh Sulton Sanjar nomini ham oladi va o'zini "Sulton Sanjari soniy" deb atay boshlaydi. Tarixiy manbalarga qaraganda, shu paytlarga kelganda Xorazmshohlar davlatiga qarashli 400 dan ortiq shaharlar bo'lgan.

Mo'g'ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatida asli ikki hokimlik o'rnatilgan edi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakat shohi Oloviddin Muhammad hisoblansada, ichki va tashqi siyosatni olib borishda ikkinchi hokim shohning onasi Turkon xotun hisoblangan. Oloviddin Takash vafotidan so'ng Turkon xotun endi davlat va boshqaruv ishlariga har tomonlama, to'liq aralasha boshlagandi. Oloviddin Muhammad esa dastlabki paytlardan uni inkor qilishga jur'at etolmasdi. Turkon xotun hattoki, ayrim masalalarni hal etishda birinchi bo'lgan, sultonning ba'zi buyruq va farmonlarini inkor etgan va o'z nomidan farmonlar chiqarib, istagan masalalarini ham hal qilish qudratiga ega bo'lgan. SHoh esa hech vaqt o'nga e'tiroz bildira olmagan, chunki, bir tomondan ona hurmati bo'lsa, ikkinchi tomondan esa Turkon xotuning tarafdorlari, uning urug'idan chiqqan turk amirlari ko'pchilikni tashkil qilardi. Zamondoshlarining ta'rificha bu ayol "Xudovandi jahon", ya'ni "Jahon

hokimasi” deb nom qozongan. U o’zining tug’rosiga (muhriga) ham ega bo’lgan.

Turkon xotun hatto, moliya masalalariga ham faol aralashib, buyruqlar bera olgan. Shuningdek, taxt Me’rosxo’rini ham o’zi belgilagan. Turkon xotunning talabi va maslahati bilan hukmdor taxt vorisi qilib o’ta qobiliyatli, o’tyurak, mohir sarkarda, Oloviddin Muhammadning turkman xotini Oychechakdan tug’ilgan katta o’g’il Jaloliddinni emas, balki qipchoq xotinidan tug’ilgan, Jaloliddindan ancha past O’zlaqshoh tayinlandi. Bunday holatlar shubhasiz, davlatni ichdan bo’shashtirishga, ichki ziddiyatlarni ko’chayishiga, inqirozni tezlashishiga ham sabab bo’lgan edi.

Mo’g’ullar istilosi arafasida mamlakatning tushkunlikka va tang ahvolga kelishiga yana bir sababi shu ediki, oddiy xalqning iqtisodiy ahvoli nihoyatda og’ir edi. Xalq doimiy soliqlardan tashqari, uch martadan ortiqcha, maxsus soliqlar to’lashga majbur edilar. 1206 yilda Samarqandda, 1212 yilda Samarqand va Buxoroda oddiy xalqning ko’targan qo’zg’olonlari Xorazmshoh tomonidan shavqatsizlarcha bostirildi. Bu esa shohga nisbatan xalq noroziligini yanada oshiradi.

Katta saltanat hukmdori bo’lgan Oloviddin 1217 yilning kuzlarida juda katta qo’shin bilan (turli manbalarda turli ma’lumot birida 600 ming, birida 400 ming askar) o’zining azaliy dushmani bo’lgan Bag’dod xalifaligiga qarshi otlandi. Xuddi shu yili kuz erta tushganligi tufayli qish qattiq kelib, qalin qor yog’adi. Uch kun davom etgan qor bo’roni qo’shinning ko’p qismini qirilishiga sabab bo’ladi va Xorazmshoh o’z maqsadidan voz kechib, orqaga qaytishga majbur bo’ladi. Qaytishda esa Parcham ko’chmanchi qabilalari va Hakkar qabilasidagi kurdlar ularga hujum uyushtirib, qo’shinning asosiy ilg’or qismini tor-mor qiladi. Bu yo’qotishlar ham shohning obro’siga putur yetkazadi. Shuningdek, Xorazmshohning 1216 yilda diniy arbob shayx Majiddin al-Bag’dodiyini qatl qildirilishi, Bag’dod xalifasi ustiga yurishi diniy ulamolarning ham Oloviddindan butunlay ixlosini qoldirgan edi. Shunday qilib, mug’ullar istilosi arafasida Xorazmshoh Oloviddin Muhammadning davlat tizimida ham, aholi tabaqalari orasida ham hech bir astoydil suyanadigan tayanchi qolmagan edi. Xiva xoni, tarixchi Abulg’oziy o’zining “Shajarai turk” kitobida Xorazmshoh davlatidagi bu noxush holatlarni ta’riflab, “Sulton Muhammad davlatining qaytishi” deb baholagan edi.

Chingizxon va Oloviddin davlatlarining elchilari savdo karvonlari saflarida bir birlariga borib, ayni vaqtda turli, kerakli ma’lumotlar to’plab, ayg’oqchilik vazifalarini ham bajarardilar. Elchilik munosabatlari 1215 yildan boshlanib, Oloviddin Muhammad dastlab Bahovuddin Roziy boshchiligidagi o’z elchilarini Chingizxon huzuriga yuboradi. Pekinda elchilarni qabul qilgan Chingizxon ularni iliq kutib va ularga o’zaro totuvlik, do’stlikni hamda ikki mamlakatga tegishli hududlarda savdogarlarning erkin qatnovi tarafdori ekanligini bildirdi. 1218 yil bahorida Chingizxon ham qimmatbaho mollar va shohga sovg’alar orilgan karvonni o’zining eng sodiq odamlaridan biri,

xorazmlik savdogar Mahmud Yalavoch boshchiligida Xorazmshoh huzuriga yuboradi. Elchilar Xorazmshohga Chingizxon yuborgan sovg'alarni va nomani topshiradilar. Nomada Chingizxon qudratli Xorazmshoh bilan yaxshi qo'shnichilik, do'stlik, tinchlik haqida shartnoma tuzish niyatida ekanligini va uni eng yaxshi farzandlaridan biri sifatida hurmat qilishini bildirgan edi. Chingizxon nomasidagi keyingi jumla, Xorazmshohning izzat-nafsiga tegishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan bo'lishi mumkin.

Kibru-havosi baland Xorazmshohga bu gap, ya'ni uni o'z farzandidek ko'rishi, degani umuman yoqmagani. Shoh tunda Mahmud Yalavoch bilan alohida suhbatlashib, Chingizxon, uning davlati, harbiy qudrati haqida talayginasavollar beradi. Uning vajohatidan qo'rqqan Mahmud o'nga bir qancha soxta ma'lumotlar beradi. Xorazmshoh o'nga Chingizxon saroyida o'zining josusi bo'lishni ham taklif etadi. Yalavoch qo'rqqanidan o'nga ham rozi bo'ladi. Xorazmshoh Chingizxon bilan shartnoma tuzishga roziligini bildirib, ularga javob berib yuboradi. Mahmud Yalavoch barcha voqealar qatori shoh bilan alohida suhbatni ham, uning savol va takliflarini ham batafsil Chingizxonga yetkazadi. Xullas, mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatining istilosi arafalarida ikki yirik tarixiy shaxs, hukmdorlar o'rtasida bir-birini har tomonlama o'rganishga mo'ljallangan ana shunday munosabatlar bo'lib turgan edi.

Xorazmshoh bilan shartnoma tuzilganidan ko'ngli to'q bo'lgan Chingizxon Pekindan xorazmshohlar davlatiga Umar hoji al-O'troriy, al-Jamol al-Marg'oniy, Faxriddin al-Buxoriy boshchiligida 450 ta musulmon savdogarlardan iborat, har qabilasidan 2-3 tadan vakil bo'lib, ular Xorazm mamlakatidagi noyob mollarni Mo'g'iliston uchun tanlash, xarid qilish ishlari bilan shug'ullanishlari lozim edi. Ayni vaqtda, Xorazmshoh davlatiga kelgusida harbiy yurishlar uchun ma'lumot to'plash maqsadida yuborilgan kishilar ham bo'lishi mumkinligi ehtimoldan holi emasdi. Tarixchi Nasaviyning yozishicha, karvon O'tror shahriga yetib kelganida shahar hokimi, Turkon xotunning amakivachchasi Inolchiqxon (asl ismi G'oyirxon) undagi qimmatbaho mollarni ko'rib, ochko'zligi avj olib, niyati buzilib, Xorazmshohga karvondagilar o'zlarini josusdek tutayaptilar deb shoshilinch xabar yuboradi. Xorazmshoh hokimga karvonni mamlakat ichkarisiga kiritmay, to'xtatib turish haqida buyruq yuboradi. Lekin Turkon xotun himoyasiga ishongan Inolchiq katta fojeaga qo'l uradi, ya'ni, uning buyrug'i bilan karvon qo'lga olinadi, barcha savdogarlar va boshqa kishilar qatl etiladi. Karvondagi mollarning bari musodara qilinadi. Tasodif tufayli tirik qolgan bir tuyakash Chingizxon huzuriga yetib borib, fojea haqida o'nga xabar berishga muvaffaq bo'ladi.

Arab tarixchisi Ibn al-Asirning yozishicha esa Inolchiqxon katta karvonni O'troga yetib kelganligi haqida Xorazmshohga xabar bergandi. Xorazmshoh karvondagi barcha savdogar va xizmatchilarni o'ldirishni va boyliklarni saroyga yuborishni buyuradi. (V.V.Bartold, Asarlar 1 t. 465-b)

Nima bo'lganda ham, bu voqea tuzatib va to'xtatib bo'lmaydigan o'lkan xato bo'lib, uning oqibatlarini dahshatli voqealarga sabab bo'ldi.

Chingizxon bu noxush voqea xabarini o'ziga xos sovuqqonlik bilan tinglaydi. Uning o'g'illari Xorazmshoh ustiga darhol qo'shin tortishni talab qilsalarda, u masalani tinchlik yo'li bilan hal qilishga qaror qiladi. Xorazmshoh huzuriga o'z elchisi ibn Kirroj Bug'roni ikki kishi hamrohligida jo'natadi va fojea aybdorlarini jazolashni, hamda Inolchiqni uning ixtiyoriga berishni qat'iy talab qiladi.

Xorazmshoh albatta bu talablarni bajara olmasligi aniq edi. Chunki bir tomondan, Inolchiq Turkon xotunni amakivachchasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qipchoq sarkardalari bilan qarindosh edi. Tabiiyki, ular bu ishga, ya'ni, Inolchiqni hibsga olinib, Chingizxonga yuborilishiga yo'l qo'ymasdilar. Oloviddin Muhammad Chingizxon elchisini o'ldirilishi va uning ikki hamrohini masxaralab, soqollarini qirdirib, jo'natib yuborishni buyuradi. Bu ishlar ham Chingizxon bilan jiddiy munosabatlarni yanada keskinlashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, Xorazmshohning o'g'li Jaloliddin Manguberdi otasiga elchilarga nisbatan xushmuomala bo'lishni, O'tror fojeasining asosiy aybdori Inolchiqni Chingizxon huzuriga jo'natishni maslahat bergan edi. U Sirdaryo buylaridan to Suriyagacha cho'zilgan katta davlatdagi musulmonlarning qoni to'qilgandan ko'ra bitta odamni qoni to'qilishini afzal bilgan edi. Biroq, shoh Jaloliddinning dono maslahatini ham inobatga olmaydi. Jaloliddin bo'lajak dahshatli urushni, qirg'inni avvaldan ko'ra bilgan edi.

Elchining o'ldirilishi Chingizxonning sabr kosasini to'ldirdi va uning uchun Xorazmshohlar davlati ustida harbiy yurish qilishga undagan ohirgi bohona bo'ldi. Chingizxon o'z chopari orqali Xorazmshohga podshohlar o'rtasida bir-biriga yozilgan xatlar tarixida eng qisqa so'zlardan (6 ta so'z) iborat bo'lgan xatini jo'natadi. Unda shunday deyilgandi: "Sen urushni xoxlaganding, sen uni olasan".

Har ikkala tomon endi bo'lg'o'si urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1219 yil sentyabrida mo'g'ullar o'zlarining birinchi zarbasini Xorazm davlatining chegara shahri bo'lgan O'troga qaratdi. Shahar hokimi Inolchiqxon bo'lib, Chingizxonning u bilan alohida hisob-kitobi bor edi. Shaharni Inolchiq boshliq 50 ming kishilik garnizon va Hoji Qoraja boshliq 10 ming kishilik qo'shin himoya qilishi lozim edi. Shaharning yaxshi mustahkamlanganligi va uzoq mudofaaga tayyorlanganligini sezgan Chingizxon qo'shinning bir qismini o'z o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tror qamaliga qoldirdi. Qolgan qo'shinni uch qismga bo'lib, bir qismini katta o'g'li Jo'ji boshchiligida O'trordan Shimolda joylashgan Jand va Barchinlikend qal'alarini egallashga, ikkinchi qismini Uloq No'yon boshchiligida Binokat va Xo'jand shaharlarini egallashga jo'natdi. O'g'li To'lixon va mashhur sarkardalari Jebe No'yon va Subutoy Bahodir boshchiligidagi qo'shinlar bilan o'zi Movarounnahr va Buxoro tomon yo'l oldi.

Chingizxonning Turonzaminga, xususan Xorazmshohlar davlatiga qarshi harbiy harakatlar qat'iy tus olgan edi. Bu hujum arafasida Oloviddin ko'zga ko'ringan davlat arboblari, boobro' amirlar, yirik sarkardalar ishtirokida harbiy kengash o'tkazdi. Kun tartibiga bitta masala, ya'ni, yaqinlashib kelayotgan xavfli, nihoyatda makkor dushmanga qarshi qanday chora ko'rish masalasi qo'yildi. Turli fikr-mulohazalar tinglandi. Shuni aytish kerakki, ushbu kengashda qabul qilingan qaror va choralar Xorazmshohlar imperiyasi taqdirini hal etdi.

Harbiy kengashda yagona to'g'ri taklifni (ko'pchilik nomidan) Shahobiddin al-Xivaqiy kiritdi. U 400 ming kishilik Xorazm qo'shinini Sirdaryoning narigi tomoniga to'plash, uzoq yo'ldan charchab kelgan mo'g'ul qo'shiniga dam olgani qo'ymay, hujum qilib tor-mor etishni taklif qildi. Kengash ishtirokchisi shahzoda Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul qo'shinini Movarounnahrqa kirib kelishiga yo'l qo'yish, keyinchalik mahalliy sharoitni yaxshi bilganlikdan foydalanib, o'nga to'rt tomondan hujum qilib tor-mor etish taklifini o'rta tashladi.

Ba'zilar esa ko'p sonli Xorazm qo'shinini qal'alarga bo'lib tashlash va har bir qal'aning mudofaasini tashkil etishni o'sha qal'a himoyachilariga topshirish taklifini kiritdilar. Bu taklif Xorazm davlati uchun kuchli makkor dushman bilan yakkama yakkama kurashishda haloqatli taklif edi. Ming afsuski, Xorazmshoh Oloviddin Muhammadga ushbu taklif ma'qul keladi. Tarixchi Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh o'zining ko'p sonli qudratli qo'shinini qal'alarga bo'lib yuborib, tuzatib bo'lmaydigan katta xatoga yo'l qo'ydi. Hatto Ovrupolik olimlar tarixchilar ham o'z asarlarida Xorazmshoh Muhammadni Chingizxonga qarshi kurashda noto'g'ri taktika qo'llab o'z mamlakatini halokatga olib borganlikda ayblaydilar. Muhammadning qabul qilgan qat'iy qarori bilan amalga oshirilgan himoya natijasida mug'ullar bo'linib-bo'linib ketgan harbiy qismlarni osongina birin ketin tor-mor qilib qisqa fursatlarda Movarounnahrni egallashlariga qulay imkoniyat tug'ilgan edi.

Ma'ruzachi Chingizxon boshliq mo'g'ul istilochilarining Xorazmshoh davlatiga harbiy yurish boshlashida O'tror voqealari va fojeasining alohida va deyarli asosiy o'rni bor ekanligini yana bir bor talabalarga eslatib, yana O'tror voqealariga qaytish va bu borada quyidagi ma'lumot va jarayonlarni har galgidek sodda va tushunarli tilda bayon etishi mumkin.

Mug'ul istilochilari juda katta kuch va shijoat bilan O'trojni egallashga oshiqdilar. Lekin shahar mudofaachilari mug'ullarning quturib qilgan hujumlariga qaramay, dushman hujumini qattiq turib qaytarmoqda edilar. Manbalarga ko'ra, O'tror qamali 5 oydan ortiqroq davom etgan va uning himoyasiga 80 mingdan ortiqroq askarlar ishtirok etgan. Qamal paytida mug'ullarga ham katta talafot yetkazilgan. Mudofaa borgan sari og'irlashib borgan. Ustiga, ustak qamaldagilarga tashqaridan hech qanday yordam ham yo'q edi.

Inolchiq sarkardalaridan Hoja Qoraja qarshilik ko'rsatish befoyda deb mo'g'ullarga taslim bo'lishni taklif qildi. Inolchiqdan rad javobini olgach u o'z qo'shini bilan shahardan chiqib mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Nihoyat boshqa himoyachilar ham dushmanga taslim bo'ladilar va mo'g'ullar shaharga bostirib kirib juda qattiq vahshiyliklar qiladilar. Himoyachilar qirib tashlanadi. Hokim Inolchiq esa tezda qo'lga olinib uning og'zi, ko'zi, bo'rni va qulog'iga qo'rg'oshin qo'yadilar. Mo'g'ullar sotqin Hoja Qorajani ham o'z hukmdoriga sodiq bo'lmagan bizga ham sodiq bo'lmaydi deb qatl etdilar. Shunday qilib, O'tror shahrining mudofaasi Xorazmshohning subutsizligi va loqaydligi tufayli fojeali tugaydi. Bu vaqtda Jo'ji boshliq mo'g'ul otryadi Sirdaryoning quyi qismida joylashgan Sig'noq shahrini 7 kunlik qamaldan so'ng ishg'ol qildilar. Shahar himoyachilaridan qattiq o'ch oldilar. 1219 yil 21 aprel kuni Jam shahri mo'g'ullar tomonidan jangsiz egallandi ular shahar aholisini shahardan tashqariga haydab chiqarib, 9 kun ushlab turdilar va shaharni ship-shiydon qilib taladilar. Bu yo'qotish va bosqinlarning asosiy sababchisi Oloviddin Muhammadning yo'l qo'ygan taktik xatosi ekanligini yana bir bor eslatib qo'yish joiz deb bildik. Bu jiddiy xatolar natijasida tez orada Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan Binokat shahri ham 3 kunlik mudofaadan so'ng mo'g'ullarga taslim bo'ldi.

Xo'jand shahriga yaqindagina hokim etib tayinlangan jasur sarkarda Temur Malik taqdiriga esa 70 ming kishilik dushman askariga qarshi kurashish yozilgan edi. Jon-jahdi bilan Xo'jandni himoya qilgan Temur Malik kuchlar nisbatidagi katta farqni yaxshi tushunib 70 ta qayiq tayyorlatdi. Qayiqdari hamda odamlari bilan ko'p qurbonlar berib daryo oqimi buylab suzib, ming mashaqqat bilan Urganchga yetib keldi. Xo'jand ham dushman tomonidan egallandi.

Xorazmda Temur Malik urushga qurbi yetadigan kattagina qo'shin to'plab, mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. Hatto Sirdaryoning quyi oqimlaridagi Yangikent shahrini mo'g'ullardan tortib olishga erishadi. Lekin Temur Malik bilan Xorazmshohning boshqa lashkarboshlari o'rtasida birlik yo'q edi. SHu sababli Temur Malik mo'g'ullardan yengilib, dastlab Xurosonga, keyin esa Suriyaga o'tib ketadi. Manbalarga ko'ra, umrining ohirida Xo'jandga darvish sifatida kelib shu yerda vafot etadi. 1220 yil fevralda Chingizxon katta kuch bilan kelib qadim shahar Buxoroni qamal qildi. Yirik ilm-fan markazi bo'lgan Buxoro himoyachilarining qattiq qarshiliklari ham foyda bermadi va qisqa muddatlarda bu tarixiy shahar ham mo'g'ullar qo'lga o'tdi.

Chingizxon mart oyida Sharqning sayqal shahri, Markaziy Osiyoning qadimiy va yirik marakazlaridan biri Samarqandga yurish boshladi. Qattiq va shiddatli hujumlar natijasida shahar qozisi va shayxulislomi mudofaani to'xtatib, taslim bo'lishga qaror qildilar va Chingizxonga o'z vakillarini yubordilar. Shunga qaramay, shahar egallangandan so'ng mug'ullar ommaviy qirg'in o'tkazdilar. Samarqand ham taslim bo'layotganini eshitgan Oloviddin Muhammad Amudaryodan o'tib, Eron hududlariga– Tabaristonga qochadi va

Kaspiy dengizining Janubidagi yuqumli va bedavo kasallikka uchragan odamlar jon saqlaydigan kimsasiz bir orolda (Ashurada oroli) jon saqlashga majbur bo'ldi..

Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi"da, "Xoru-zorlikda o'lgan Xorazmshohni dafn etishda atrofdagilar qancha urinmasin, kafan topa olmaydilar. Uni o'zining kiyib yurgan kiyimida dafn qildilar",-deb yoziladi. Bu ayanchli voqea o'sha orolda 1221 yil fevralda sodir bo'lgan edi. Manbalarga ko'ra, Xorazmshoh o'limi oldidan saltanatni faqat Jaloliddingina saqlab qolishi mumkinligiga nihoyat ko'zi yetgach, uning beliga qilich taqadi, Jaloliddinni taxt vorisi va valiahd deb e'lon qilingani hamda qolgan farzandlarining uning izmidan chiqmasligi haqidagi barcha vasiyatlarini yozma ravishda Jaloliddinga beradi. Afsuski, bu holat ancha ilgariroq bo'lishi kerak edi.

1221 yil boshida Xorazmshohning o'g'illari Uzloqshoh, Oqshoh va Jaloliddin Xorazmga qaytib kelib shohning vafoti va Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlangani haqidagi xabarni yetkazadilar. Lekin saroydagi ko'pgina lashkarboshilar bo'nga norozilik bildiradilar va ular Uzloqshoh bilan birgalikda Jaloliddinga qarshi turli ig'vo va bo'htonlar qila boshlaydilar. Nihoyat Jaloliddinga qarshi uyushtirilgan fitna ham fosh etiladi. Bunday sharoitda taxtni boshqara olmasligiga ko'zi yetgan Jaloliddin ukasi Uzloqshoh foydasiga taxtdan voz kechadi va Temur Malikning kichik bir guruhiga qo'shilib, yashirincha Xurosonga o'tib ketadi.

1220 yil kuzida mo'g'ullar qattiq hujumlar bilan Termiz shahrini egallab, uni talon-taroj qildilar. Endi Chingizxon Xorazmshohlarning markazi, tayanchi bo'lgan Urganch shahrini egallashga bel bog'ladi. Shahar aholisi mudofaaga yaxshi tayyorgarlik ko'rib, mo'g'ullarga qarshilik ko'tsatdilar. Urganchga mo'g'ullar bostirib kelayotganini eshitgan Xorazmshoh Oloviddinning o'g'illari Uzloqshoh va Oqshohlar shaharni tashlab qochgan edilar. Lekin uzoqqa bora olmadilar va Niso (hozirgi Ashxobod) yaqinida mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldilar. Shaharni himoya qilish esa o'lgo'day qo'rroq, amalparast, o'zini sulton deb e'lon qilgan Xumortegin degan kimsaga tekkan edi. 50 ming kishilik mo'g'ul qo'shinlari shaharni qamal qiladi. Shahar mudofaasini o'z zimmasiga olgan Xumortegin kutilmaganda shahar darvozasini mo'g'ullarga ochib berib, askarlari bilan dushmanga taslim bo'ladi. Urganch shahri dushman tomonidan egallandi. Islom dunyosida o'z tariqatiga ega bo'lgan ulug' alloma, shayx Najmiddin Kubro ham Chingizxon tomonidan qilingan iltifotni rad etib, hamyurtlari bilan jangda shahid bo'ldi.

2.Movarounnahr xalqlarining mo'g'ullarga qarshi ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi.

Fitna uyasigaaylangan poytaxtdagi saroydan ketgan Jaloliddin Niso ostonasida 300 otliq qo'shini bilan uning yo'lini to'sib turgan 700 otliq mo'g'ul qo'shishini yengadi. G'aznaga kelib, yangi kuch to'play boshlaydi. Mo'g'ullar ustidan bir necha bor zafar quchdi. Jaloliddin Qandahor shahrini qamal

qilayotgan mo'g'ullarni shiddatli janglardan so'ng tor-mor qiladi, G'aznada Jaloliddin qo'shiniga har tomondan harbiy kuchlar kelib qo'shila boshladi.

Xalaj qabilasi harbiy boshlig'i Sayfiddin Ig'roq, Balx hokimi A'zam Malik, Afg'on lashkarining sardori Muzaffar Malik va qarluqlar yo'l boshchisi Al-Hasan qo'shinlari Jaloliddinga kelib qo'shildilar. Jaloliddin Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlarini ham yakson qildi.

Bu g'alaba xabarlarini Chingizxonga yetib borib turadi va bundan ancha bezovtalangan Chingizxon o'zining eng sinalgan sarkardasi Shiki Xutuqu No'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shinini Jaloliddinga qarshi yuboradi.

Ikki yirik qo'shin Afg'onistonning Parvon shahri yaqinidagi past tekistlikda uchrashadi. Ushbu jangda Sulton Jaloliddin o'zining harbiy dahosini yana bir bor namoyon etdi. Jang shavqatsiz, beomon bo'ldi. Jangda Jaloliddin o'ziga xos noyob usullar qo'lladi. Mazkur jangda Jaloliddin qo'shinlari kuchli va makkor mug'ul qo'shinlarini tor-mor qiladi. Parvon yonidagi jangda mug'ullarning yengilishi ularning Xorazmshohlar davlatiga hujumlari davomidagi birinchi katta mag'lubiyati edi. Shunday qilib, Chingizxon ro'parasidagi raqibi uning o'ziga munosib ekanligini his etadi va u endi qat'iy, hal qiluvchi jangga hozirlik ko'rishning vaqti kelganligini sezadi hamda janga katta tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Jaloliddinning Parvon yonidagi o'lgan g'alabasining eng e'tiborli tomonlaridan biri shu ediki, bir qancha shaharlar aholisi bu g'alabadan xabar topib, undan ruhlaniib, mo'g'ullarga qarshi isyon ko'tardilar, ularning noiblarini o'ldirdilar. Ayni vaqtda Parvon g'alabasini natijasida, Jaloliddinga katta tashvishlar keltirishini u xayoliga ham keltirmagandi. Bu jangda qo'lga tushgan o'ljalarni bo'lib olish chog'ida Jaloliddin lashkarboshilar o'rtasida o'ljaga olingan zotdor bir arabiy otni talashib qattiq nizo chiqadi. Jaloliddin ularni murosaga keltira olmadi. Nizo tufayli lashkarboshilar Sayfiddin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar har biri 25 mingdan ortiq lashkarlari bilan arazlab ketib qoldilar (Afsuski, keyinchalik mo'g'ullar ularning barchasini alohida-alohida yengib, qirib tashladilar). Bu mudhish holatdan Jaloliddinning harbiy kuchi keskin zaiflashdi. Oz qo'shin bilan kuchli dushman oldida nochor qolgan Jaloliddin Hindistonga o'tib ketish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi. Lekin Sind (Hind) daryosi bo'yida kemalar tayyorlanayotgan paytda o'ng qo'shin shaxsan o'zi astoydil otlangan Chingizxon, o'z qo'shinlari bilan yetib keldi. Kuchlar nisbati Chingizxon foydasiga keskin farq qilardi. Mag'lub bo'lishiga aqli yetgan Jaloliddin dushman qo'lga asir olinib, haqoratlanmasligi uchun onasi, xotinlari va qizlarini ularning o'zlarining hohish-irodasi bilan daryoga cho'ktirishga farmon beradi. Lekin mug'ullar Jaloliddinning 8-9 yoshli o'g'lini asir olib, Chingizxon huzuriga olib kelganlarida, hoqon uning yuragini sug'urib olib, itga tashlashni buyuradi. Buyruq ijro etiladi.

Niso viloyatidagi qal'alardan birining sohibi bo'lgan mashhur tarixchi Shahobiddin an-Nasaviy 1224 yildan 1231 yilgacha, ya'ni Jaloliddinning

vafotigacha uning eng ishonchli mulozimlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. U doimo Jaloliddinning yonida bo'lgan va ko'rgan bilganlarini yozib borgan. Uning yozishicha, bu ikki yirik sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi hayot-mamot uchun bo'lgan tarixiy jang 1221 yil 24 noyabr kuni ro'y beradi. Tarixchi Juvayniy esa bu voqeani shunday ta'riflaydi: "Shu kuni tongda Sulton Jaloliddin suv va olov o'rtasida qoldi. Bir tarafda pishqirib oqayotgan Sind daryosi, orqada esa otashdek kuydiruvchi mo'g'ul lashkari. Shunday murakkab sharoitda Sulton o'zini yo'qotmadi va dushman bilan olishuv yo'lini tanladi". Bu tengsiz jangda Jaloliddin bor shijoat, mahorat va quvvatini ko'rsatib jang qilib, hatto mo'g'ul lashkarlarini ham lol qoldirdi. Lekin Chingizxon qo'shini soat sayin ko'payib borardi. Ohirgi marta kattao'rin ish bilan qo'shinni bir oz chekinishga majbur qilib, jilovni orqaga burdi va sovutini yechib tashlab, otga qamchi urdi. Qirg'oqdan turib 10 gaz yoki undan ortiqroq balandlik masofadan daryoga sakradi. Dovyurak arslon misoli daryoni kechib o'tdi va narigi sohilga chiqib oldi. Chingizxon bu holatni ko'rib otini daryo qirg'og'iga yeldirib keldi. Sulton bir shamshir, nayza va qalqon bilan daryodan o'tgan edi. Chingizxon bu holni ko'rib o'g'illariga yuzlanib aytdi: "Mard otaning o'g'li shunday bo'lmog'i lozim! Suv va olovning ikki girdobidan qutulib, najot sohiliga yetdimi, undan beadam ishlar va behisob tahlikalar to'g'ilajak".

Sind daryosi bo'yidagi jangning aks-sadosi o'tmish qa'ridan bizning kunlargaacha turli vositalar yordamida yetib kelgan. Ingliz sharqshunosi G.Raverti hamda rus olimi va sayyohi G.E.Grumm-Grjimayloning yozishlaricha, Sind daryosining Jaloliddin kechib o'tgan joyi va shu yaqindagi cho'l uning nomi bilan "Cho'li (Jo'li) Jaloliy" deb atala boshlanib, bu nom hozirgacha saqlanib qolgan.

XX asr boshlarida Mug'ulistonga sayohat qilgan ayrim olimlarning guvohlik berishicha, ichki Mo'g'ilistonning (XXR hududida) Ejen Xo'ru degan joyida Chingizxonning maqbarasi bor. Bu yerda Chingizxonning ruhiga atab ba'zan marosimlar va amallar o'tkazib turiladi. Jumladan, ruhoniylar har kuni ertalab Chingizxonning harbiy yurishlari davomida erishgan 150 ta katta kichik g'alabalarini sanab o'tadilar va ular birinchi navbatda Chingizxonning Jaloliddin ustidan erishgan g'alabasini alohida zikr qilib, bildirishar ekan (Nuryog'di Toshev "Jaloliddin Manguberdi" nomli risola. T. Kamolot. 1999. 20-21 betlar). Bu ma'lumot albatta Chingizxonning harbiy yurishlari davomida u Jaloliddindek o'ziga bas kela oladigan boshqa raqibga uchramaganligidan dalolatdir.

Sind daryosidan kechib o'tgandan so'ng Jaloliddin qolgan-qutgan jangchilarni to'plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlatlar hukmdorlari bilan munosabat o'rnatishga harakat qilishni diliga tugib qo'yadi.

Lekin juda holdan toygan, kam sonli qo'shin Jaloliddin boshchiligida hali o'ziga kelishga ulgurmay, Shatra viloyatining podshosi qo'shinining og'ir ahvolidan foydalanib, ularga ming otliq va 5 ming piyoda askarlari bilan hujum qiladi. Jaloliddin tanriga tavakkal qilib qilib qo'shinini jon-jahdi bilan urushga

otlantiradi va benihoya jasorat tufayligina Xorazm jangchilari Hind qo'shinini tor-mor qiladilar. Natijada, Shatra podshosining jangchilari taslim bo'lib, Jaloliddin tomonga o'tadilar. Jaloliddin o'z qo'shinini ahvolini ancha yaxshilab oladi, asta-sekin qo'shini soni, qudrati oshib boradi. Hatto o'z nomidan tanga zarb qildiradi, barcha viloyatlarda namozda uning nomini xutbaga qo'shib o'qiladigan bo'ladi.

Jaloliddin Hindistonda turli xil janglar va fitnalarni boshdan kechirib, uch yilu 7 oy hukmronlik qildi. Bu yerda u katta davlat barpo qildi. O'nga tevarakdan yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Jaloliddin o'z davlati chegaralarini kengaytirib, katta kuch to'plab, so'ng mo'g'ullar bilan hisob-kitob qilishni qalbining eng to'riga tugib qo'ygandi. Shu maqsadda o'zining harbiy yurishlarining dastlabkisini Iroqqa lashkar tortishdan boshladi. Iroq va Eronning obro'li amaldorlari Jaloliddin tomonga o'tdilar. Misr va Suriya hukmdorlari ham Jaloliddinga tobe'liklarini bildirib, elchi yubordilar. 1226 yilgacha Jaloliddin Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egalladi. 1227 yil 5 sentyabrda Jaloliddin Isfahon yaqinida Eronni mo'g'ullardan himoya qilib, ular ustidan katta g'alabani qo'lga kiritadi.

Shu yili Chingizxon vafot etishi munosabati bilan chingiziylar bir oz muddat o'z ichki ishlari bilan ovora bo'ladilar. Ularning ayrim rahbarlari hatto bundan buyon Jaloliddin bilan yaxshi munosabatda bo'lishga ham harakat qiladilar.

1230 yilda Jaloliddin Hilot shahrini qamal qilayotgan paytda singlisi Holsultondan (uni mo'g'ullar asir qilib olgan va Chingizxonning katta o'g'li Jo'ji unga uylangan va undan bir farzandi ham bor edi) bir noma oladi. Singlisi nomada Jaloliddinga, uning qudratidan, mulkidan, imkoniyatlaridan hoqonning xabari borligini, hoqon Jaloliddin bilan chegara masalalarida kelishib olib, tinch-totuv yashashga ahd qilganligini bildiradi. Shuningdek, agar mug'ullarga qarshi turishga kuchi yetsa, ularga qarshi kurashib, o'ch olishi, yoki ular sulhni istab turganda, ular bilan yarashishni maslahat beradi. Lekin Jaloliddin singlisining bu xatini javobsiz qoldiradi va Xorazmshohlar davlatini qayta tiklash mumkin bo'lgan ushbu imkoniyatga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Xuddi shu vaqtda Kichik Osiyodagi Ani viloyatining Ko'n'yo sultoni Oloviddin Qayqubod o'z ixtiyori bilan Jaloliddinga kelib qo'shilgan bo'lsada, Jaloliddinning ba'zi xatolari tufayli ular o'rtasida sovuqchilik tushadi va u Jaloliddinga qarshi fitna tayyorlaydi. Qayqubod fitnaga shuningdek, Shom, Shimoliy Mesopotamiya kabi davlatlar va boshqa bir qator shaharlar hukmdorlarini ham jalb etishga erishadi. Lekin Jaloliddin bu harakatga ham unchalik e'tibor qilmaydi. Aynan shu davrlarga kelganda Jaloliddin xarakterida qandaydir tushunib bo'lmaydigan loqaydlik, mo'g'ul qo'shinlariga qarshi harakatda sustlik holatlari ro'y berayotgan edi. Fitnachilarning juda katta birlashgan qo'shinlari bilan Jaloliddin qo'shinlari o'rtasida 1230 yilning avgustida tarixiy to'qnashuv bo'lib o'tadi. Jaloliddin qo'shinlari katta talafot ko'rib, Ozarbayjon hududlariga chekinadi. Uning kuchsizlangani haqida

Ozarbayjondagi Ismoililar hukmdori Oloviddin Muhammad III mo'g'ullarga yashirin maktub yo'llaydi. Maqsad - Jaloliddinni mo'g'ullar qo'li bilan yo'q qilish edi. Mo'g'ullar bu imkoniyatdan foydalanib, Jaloliddinga qarshi maxsus katta qo'shin jo'natadilar. Shu vaqtdan boshlab, Jaloliddindan omad yuz o'girib, uni o'z a'yonlari va yaqinlari ham e'tibori ancha pasaya boshlaydi.

Hatto, uning eng ishonchli bosh vaziri Sharof al Mulkning ham o'nga munosabati o'zgarib, Jaloliddinga qarshi fitna uyushtirilishiga jur'at etadi. Jaloliddin bundan xabar topib, vazirini qatl etadi. Omad undan yuz o'girgan. Tushkunlikka tushgan Jaloliddinning so'ngi paytlarda ichkilikka va maishatga berilgan holatlari ko'p bo'ladi. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi chiqishi uchun ularga bas kela oladigan qo'shini, ming afsuski, endi yo'q edi. Shuning uchun ham yordam so'rab barcha qo'shni musulmon hukmdorlarga murojaat qiladi. Baxtga qarshi bunday og'ir paytlarda qo'shni mamlakatlar hukmdorlari yordam qo'lini cho'zmadilar va ular Jaloliddinni yolg'iz qoldirdilar.

Shundan so'ng Jaloliddin o'zining bor odamlari bilan kichik Osiyodan o'tib, Isfahonga keldi. Uni ta'qib qilib yurgan mo'g'ullar uning qarorgohiga, navbatdagi ziyofatdan so'ng qattiq uyquda yotganda hujum qiladilar. Jaloliddinning eng yaqin amiri Urxonning yordamida mo'jiza tufayligina qochib jon saqlaydi. So'ng Jaloliddin mo'g'ullar ta'qibidan qochib, Mayofarikin yaqinidagi Ayndar nomli qishloqqa yetib kelganda kurd qaroqchilari qo'lga tushadi. Kurdlar uning bor narsasini olib qo'yadilar. Ularning boshlig'i Jaloliddinni bir uyga qamab, soqchi tayinlab ketadi. Shu paytda bir kurd bu voqeadan xabar topib, Jaloliddin turgan uyga keladi. Bu kishining birodari Hilot qamalida xorazmiylar tomonidan o'ldirilgan bo'lib, u o'ch olish payida yurgandi. Soqchining qarshiligiga qaramay, kurd hech qanday quolsiz Jaloliddinga nayza sanchib o'ldiradi. SHuncha yillar suronli, tengsiz janglarda, beqiyos jasorat ko'rsatib, ulardan omon chiqqan tengi yo'q bohodir Jaloliddinning hayot yo'li shu tariqa shuhratsiz tugaydi. Bu voqea 1231 yili 17-20 avgust o'rtalarida sodir bo'lgan edi.

Shunday qilib, Chingizxon boshliq mo'g'ul istilochilarining 1219 yilning ohirlarida Oloviddin Muhammad Xorazmshohning nihoyatda katta va kuchli imperiyasi hududlarini egallash uchun boshlagan yurishlari shaxsan shohning o'zi yo'l qo'ygan va tuzatib bo'lmaydigan xatolari tufayli hudud xalqlari boshiga, fojeali qora kunlarni soldi. Yuzlab shahar-qishloqlar, turli inshootlar vayron qilinib, yer bilan yakson bo'ldi. Xorazmshohlar dushman kuch-qudratini hisobga olmaganligi, o'ziga tobe hududlar xalqlarini himoyasiga uyushtirmaganligi bir necha yuz minglab aholining yostig'i qurishiga, o'z saltanatining butunlay qulashiga, o'zining esa kimsasiz bir orolda shon-shuhratsiz o'lim topishiga sabab bo'ldi.

Qo'shtemur qo'shini yengilganini eshitgan xalifa Bag'dodda mudofaa ishlarini shoshilinch boshlab yuboradi va bu ishga 1 million dinor mablag' ajratiladi. Xorazmshoh o'z qo'shini bilan Bog'dod yaqiniga kelib, 12 kun turib, yana orqaga Ozarbayjon tomonga qaytib ketadi. Sultonning bu hatti-

harakatining sababi hanuzgacha noma'lum. Biz bundan shunday bir mantiqiy xulosa qilishimiz mumkinki, Jaloliddin barcha musulmon hukmdorlari qatori islom dini va uning aqidalarini hurmat qilganligi tufayli musulmonlarning g'oyaviy markazi-Bog'dodga hujum qilib, bu muqaddas shaharni vayron qilishni istamagan bo'lishi mumkin. Lekin bu yurish orqasida qanchalik ulkan ovoragarchiliklar bo'lganligini tasavvur qilish qiyin emas.

Lekin, mo'g'ullar esa, 1258 yili Bog'dodni bosib olib, uni vayron qildilar, taladilar, Xorazmshohlar davlatiga dushmanlik qilgan xalifalar taqdiri ana shunday tugadi.

3.Chig'atoy ulusining tashkil topishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.

Kepakxon (1309, 1318-1326) davrigacha Chig'atoy ulusida siyosiy barqarorlik bo'lmadi. 1251 yilgi Qoraraqurum qurultoydan keyin Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketdi: Sharqiy Turkiston, G'ulja o'lkasi, Yettisuv Farg'onaning Shimoliy Sharqiy qismi xoqon ixtiyorida qoldi: Movarounnahr Farg'onaning G'arbiy qismi Oltin O'rda qo'l ostiga o'tdi.

Oltin Ibn Goydar ibn Chig'atoy (1261-1266) Chig'atoy ulusini Oltin O'rda ta'siridan qutqarish choralari ko'rdi. Oltin O'rdaning Buxoroda turgan 5 ming nafarlik qo'riqchi qo'shinni qirib tashladi, ularning mol-sulki, oilalari musodara qilindi.

Baroq ibn Yisunqor ibn Komkor ibn Chig'atoy zamonida (1266-1271) Chig'atoy ulusi ancha kuchaydi. Baroqxon Oltin O'rda xoni Mangu Temur (1267-1280) va Kaydu qo'shinlarini Sirdaryo buyidagi jangda mag'lub etsa-da, lekin ohiri yengildi. Uning Elxon Abohoqonga(1265-1289) qarshi yurishlari ham natija bermadi. Chig'atoy ulusining ko'p qismi O'g'atoyning nabirasi Qaydu va Oltin O'rda xoni Mangu Temur ta'siriga tushib qoldi. Nekpoy (1271-1272) va Buko Temur (1272-1291) hukmronligi davrida e'tiborga loyiq o'zgarish bo'lmadi. Kaydu ulus taxtiga Baroqxonning o'g'li Duvani(1291-1306) o'tqazdi. Andijonning tiklanishi, Uzganning Farg'ona o'lkasi poytaxtiga aylantirilishi uning nomi bilan bog'liq. Duvaxon Qaydu bilan hamkorlik qilib, katta e'tibor qozondi. Duvaxon vafotidan keyin o'g'li Kunjakxon va Tolg'u ibn Qudag'ay ibn Bo'ri Mutugan ibn Chig'atoylar xonligi uzoqqa cho'zilmadi.

Kepakxon ibn Duvaxon o'z urug'doshlarining nizolariga barham berdi. Chig'atoy davlatining rivoji, shaharlar qurilishiga omil bo'lgan pul va ma'muriy islohotlar Kepakxon nomi bilan bog'liq.

XIV asrning 40 yillarida CHig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va arbiy ulus-Movarounnahr ga bo'linib ketdi va siyosiy jihatdan parchalandi. Mo'g'ullar asos solgan davlat yarim kuchmanchi tipidagi, asosan harbiy tartiblarga muvofiq kelgan davlat boshqaruviga ega siyosiy tashkilot edi. Chingizxon va uning avlodlari xon unvoni sohiblari edilar. Ularning qo'li ostidagi boshqaruv tizimida turli unvon, martaba va mansab egalari bo'lgan.

Bunday amallarning aksariyati harbiy tartiblarga mos tushardi. Yirik harbiy bo'linma boshida no'yonlar, bahodirlar va merganlar turgan. O'n ming askardan iborat tumanga xonning farzandlari ham boshchilik qilishgan. Xonning shaxsiy soqchilik bo'linmasi-keshik ham bo'lgan. Favqulodda holatlarda mazkur bo'linmaning harakati qo'l kelgan.

Chig'atoy ulusi davrida Movarounnaxrni boshqarish ishlari mahalliy hukmdorlarga topshirilgan edi. Movarounnaxrning boshqaruvchisi yirik savdogar va sudxo'r Maxmud Yalavoch edi. U Xo'janddan turib o'z qo'li ostidagi mug'ul harbiy bo'linmalari yordamida davlatni boshqargan, soliqlarni yiqqan. Buxoroda esa mahalliy zodagonlar varuxoniy rahbarlar mamlakatdaboshqaruvni o'z qo'llariga olgan edilar. Bular mahalliy amirlar va sadrlar hisoblangan.

Mahalliy boy-zodagonlar qatlamiga tayangan holda mug'ul xonlari O'rta Osiyodagi viloyat va hududlarni idora qiladilar. Ishonchli kishilarga maxsus hujjat-payzalar berganlar. Alohida yorliqdarga mahalliy aholi amaldorlar, savdogarlar, ruxoniylar, xon xonadoni vakillariga o'sha yerlardan o'tib qolsa, turar joy berganlar hamda ularni oziq-ovqat vaot-ulov bilan ta'minlaganlar.

Chig'atoy ulusida iqtisodiy munosabatlar. Chig'atoy ulusi xonlari o'z uluslariga inju tarzida egalik qilganlar, ya'ni xonu xonzodalar o'zlariga berilgan yurtning daromadidan foydalanish huquqiga ega bo'lganlar, holos. Yer soligi mol (xiroj) umumiy hosilning o'n foizini tashkil etgan. Ko'chmanchilar to'laydigan ko'pchur yuz bosh moldan bir bosh hisobida bo'lgan. Savdodan targ'u jarimasi olingan. Munka hoqon nomida pul zarb etilgach, 1270 yildan soliq va jarimalar pul bilan olina boshlagan. Pul ulusning ko'plab yirik shaharlarida, masalan, Olmaliq Buxoro, O'tror, Taroz, Qoshg'ar, Toshkent, O'sh, Marg'ilon, Oqtepa, Uzgand, Xo'jandda zarb qilingan.

Mas'udbek tashabbusi bilan 1271 yilda pul islohoti o'tkazildi. Chig'atoy ulusining barcha shahar va tumanlaridabir xil vazndagi kumush tangalar zarb etish va muomalaga kiritish bu islohotning asosiy mohiyatini tashkil etar edi. Bu hol ichki savdo va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solardi: endi kumush tangalar zarb etish erkinligi vujudga keldi; xohlagan kishi o'z ixtiyoridagi kumush buyumlarini zarbxonaga olib kelib kumush tangagaaylantirishi mumkin edi.

Aholining kumush tangalarga ishonchi mustahkmlandi, tanga nufuzi ortib bordi. Natijada XIII asrning 80-90 yillarida ulusning 16 ta shahrida zarbxonalar ochilib, ulardadoimiy ravishda kumush tangalar zarb etildi.

Chig'atoy ulusida yer solig'i undan bir xajmda belgilangan. Oliy mansabdorlar soliq to'lamaganlar. Gap shundaki, yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo'g'ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarni qo'lga kiritgan, har xil yorliqlar olgan edilar. Soliq turlaridan yana biri ko'pchur edi. U chorvador xo'jaliklardan olingan.

Chorvadorlardan yana shulsi solig'i olganlar: har suruvdan bir qo'y va qimiz uchun har ming bosh otdan bir biya undirilgan.

Yana bir soliq targ'u deb atalgan va hunarmand, savdogarlardan olingan. Targ'u ishlab chiqarilgan va sotilgan molning o'ttizdan bir ulushi xajmida bo'lgan. Yana mahalliy xalq tuz solig'i, jon yoki kumush solig'i to'lagan.

Ma'lumki, mo'g'ul xonlari noiblarga barot (ijara yorligi), payza berganlar, noiblar soliq yig'ish paytida rasmiy belgilangan xajmdan ziyodroq undirib olgan.

4. Chig'atoy ulusining parokandalikka uchrashi. Madaniy hayot.

XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr birinchi, yarmida ho'jalik, iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa, Chig'atoy mo'g'ullarining tobora o'troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zadogonlar, gohida mo'g'ul zodogonlarining ba'zilar qurilish ishlariga xomiylik qila boshlashdi. Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik, g'isht o'ymakorlik, koshimpazlik, me'moriy xattotlik qayta tiklandi. Movarounnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonaqo, maqbara, masjid, madrasa, saroy minoralar qad ko'tara boshladi.

Buxorodagi Sayfiddin boxarziy maqbarasi birinchilardan barpo etilgan me'moriy bino sifatida ko'rish mumkin. Shuningdek, shu davrlarda barpo etilgan Buxorodagi Qusam ibn Abbos maqbarasi ziyoratxonasi, Ho'ja Ahmad maqbarasi, Urganchdagi Najmiddin Kubro To'rabekxonim maqbarasi, masjid va ikkita baland minoralar, Ho'janddagi Duvaxon maqbarasini tilga olib o'tishimiz mumkin.

Ko'rilayotgan davr binokorligi va me'morchiligida pishiq g'isht, koshin, parchin va me'moriy o'ymakor hamda ganch va ohak, pista ko'mir, qumlardan tayyorlangan maxsus qorishmalar kabi qurilish maxsulotlaridan binolarni qurishda va bezashda keng foydalaniladi. Monumental binolarning aksariyati esa bir yoki ikki gumbazli, toqu rovoqli va peshtoqli bo'lgan. Shuningdek, naqshlarning turli-tuman, guldor bo'lishi o'ymakor amaliy san'at qayta tiklanganidan darak beradi. Qulolchilik, misgarlik, zargarlikda ham naqsh bilan ishlov berish holati avj oladi.

XIII-XIV asrning ikkinchi yarmida fors-tojik adabiyotida Jaloliddin Rumiy,(1207-1272), Muslixiddin Sa'diy Sheroziy,(1219-1293), Amir Xisrav Dexlaviylarning(1253-1225), o'rin va mavqei ko'tarilib jahon olamiga taniladilar. Asli Balx shahridan bo'lgan Rumiy 14 yoshida o'z oilasi bilan kichik Osiyoning Ko'niya sultonligiga borib qoladi. U Ko'niya, Xalab, Damashqda tahsil olib, buyuk tasarruf ilmi shoiri va faylasufi bo'lib taniladi. 36 ming baytdan iborat "Masnaviyi-ma'naviy" degan dostonni yaratadi. Sa'diy esa islom olamida o'zining "Guliston" va "Bo'ston" asarlari, g'azallari ahloqiy fikrlari bilan keng shuhrat qozonadi. Dehlaviy esa "Hamsa" dostonini Xindistondagi hozirgacha mashhur "Hisrxon va Duvalra" ni, Muftah Al-futuh

“Nuh sipehr” kabi asarlarini yozadi. Bu davrda tarixnavislik ham rivoj topadi. Abu Umar Mirxojiddin Jurjoniyning 1260 yilda yozilgan “Tabakadi Nosiriy”, Olovuddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahongo’shai”, Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning “Jomey At-Tavorih” shu kabi tarixiy asarlar sirasiga kiradi. Turkiy tilda ijod qilgan yana bir shaxs bu Nosiriddin Burxoniy Rabg’uziydir. Uning bizgacha “Qissaiy Rabg’uziy” asari yetib kelgan.

Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda tasavvuf, din ilmlari ham rivojlandi. Tasavvuf ilmining mashhur namoyondasi Burhoniddin Naqshband (1318-1389) avvalo o’z mehnati bilan halol kun ko’rish g’oyasini yoqladi.

7-Modul: Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.

1.XIV asr o’rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

2.Sohibqiron Amir Temur hokimiyatining o’rnatilishi. Markaziy davlat boshqaruvining takomillashuvi.

3.Amir Temurning vafotidan keyin temuriy shaxzodalari o’rtasida toju-taxt uchun kurashlar.

4.Mavorounnaxrda Mirzo Ulug’bek hukmronligi

5. Temuriylar davrda ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

1. XIV asr o’rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Amir Temurning siyosat maydoniga chiqishi va uning markazlashgan davlatni vujudga keltirish uchun kurashi to’g’risida so’zlashdan avval, XIV asrning 40-60 yillarida Movarounnahrda tarixiy vaziyat qanday edi, degan savolga javob berishi, ana shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolgaqisqacha to’xtalib O’tishi uchun quyidagilarga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir. Bu xususda akademik I.Mo’minov: *"Bu davrda Movarounnahrda chet el qaramligidan, mo’g’ul xonligidan ajralib mustaqil, kuchli hokimiyat tuzishdan manfaatdor bo’lgan aslzodalar orasidan ayrim guruxlar yetishib chiqa boshladi"*, -deb yozgan edi. Chig’atoy ulusi hokimi Kebekxonning 1318-1326 yillardagi ma’muriy va pul islohoti o’tkazishdan va boshqa ishlardan ham maqsadi shunday bo’lsa kerak.

Chingiziylardan chiqqan xon Qozonxon ham huddi shunday Kepeksongao’xshab boshqacha siyosat yurgizishgaharakat qildi.

Bular masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi, eng muhim tomoni shundaki, keng xalq ommasi ko’p mashaqqatlar bilan uzoq vaqt ichida irrigatsiya tarmoqlarini ariq, zovur, suv omborlari, to’g’onlarni tikladi, dehqonchilik, hunarmandchilikni yo’lgaqo’ydi, ayni vaqtda o’zaro urushlarga, mayda feodal hokimlarniig o’zboshimchaligiga, mo’g’ul xon va Oltin O’rdaning turli noiblari bosqinchiligiga qarshi kurash olib bordi", - deb yozgan edilar.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida xalq ommasini yanada ko'proq azob chekdi, xo'rlandi, talandi. Chig'atoy xonlari bilan mahalliy aholi, zodagonlar o'rtasida ziddiyat tobora keskinlashib bordi. Anashu kurashlar natijasida XIV asrning 40 yillarida Chig'atoy ulusi ikki qismga - Sharqiy Turkiston va Yettisuvni o'z ichiga olgan Mo'g'uliston va Movarounnahr ga bo'linib ketdi. Bo'lingan davlatlar o'rtasida o'zaro kurash avjiga chiqib, Mo'g'uliston xonlari Movarounnahr ga tez-tez hujum qilib turdilar.

Mamlakatning iqtisodiy ahvoli ham tobora murakkablashib borayotgan edi. Bundan tashqari Movarounnahr bir necha feodal davlatlarga bo'linib, Kesh-SHahrisabz, Buxoro, Termez, Badaxshon, Xo'jand, Shosh-Toshkent va boshqa viloyatlar hokimlari o'rtasida tinimsiz urush-janjallar bo'lib turardi. Bu holatlarning barchasi mamlakatda bitga qattiqqo'l hokimiyat-ning bo'lmaganligi oqibati edi.

Mana shu vaziyatda, ya'ni 1360 yili mo'g'ul xoni Tug'luq Temur Movarounnahr gao'z qo'shinlari bilan osonlikcha bostirib kirdi. Movarounnahr tarqoq holdagi feodal davlatlardan iborat bo'lganligi uchun ham Tug'luq Temur qo'shinlariga qarshi hamjihatlik bilan kurash olib boradigan kuch yo'q edi. Uning ko'shinlari hatto, hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo tomon harakat qila boshladi. Qashqadaryo hokimi Xoji Barlos mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashishni tashkil etish o'rniga, undan qo'rqib o'z qo'shinlarini olib, Amudaryo tomon chekindi. Xalq boshliqsiz va najotsiz qoldi. Mana shuning o'zi ham mahalliy xalq orasidan kuchli shaxslar chiqishini taqozo etar edi. Ana shunday bir vaziyatda tarix sahnasiga butun jahonga dovrug' solgan, o'zining salmoqli izini qoldirgan, har tomonlama olloh ato etgan talantga, qobiliyatga ega bo'lgan Amir Temur chiqdi. Akademik I. Mo'minov o'rinli ta'kidlaganidek, "Chig'atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarning vaxshiyona ezishi, mo'g'ul xonlari, Oltin O'rda beklarining Movarounnahr dagi to'xtovsiz bosqinchilik yurishlaridan azoblangan, xonavayron bo'lgan, 150 yil mobaynida chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshchiligida ravshan ko'rinadi".

O'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab, talabalarga bu ilovadagi ma'lumotlarni o'qib olishni yoki seminar mashg'ulot muhokamasiga tavsiya etishi ham mumkin. Amir Temur tarqoq feodal davlatlar o'rtasidagi urush janjallardan o'z xalqining azob chekayotganiga, mo'g'ul bosqinchilarining ko'rsatayotgan kulfatlariga befarq qaray olmadi. Shuning uchun ham mug'ul xoni Tug'luq Temur qo'shinlari Qashqadaryoni zabt etish uchun yo'lga tushganini ko'rib, O'z vatanini, xalqini azob uqubatga tashlab, hech najotsiz qoldirib ketayotgan Xoji Barlos bilan ketayotgan Temur yuz bergan vaziyatni hisobga olib, o'z vatanini mo'g'ul bosqinchilaridan qutqarib qolish lozimligini angladi. Qochib ketayotgan tog'asi Xoji Barlosga "Sizning Xurosonga qarab yo'l olishingiz mening esa viloyatni vayronlikdan qutqarib qolish uchun Shaxrisabzga qaytishim ma'quldir va davlatni idora qilishni saqlab qolmoqlik maqsadida

mo'g'ul xoni xizmatiga kirganim ma'qul, foydalidir", - deydi. Shu o'rinda Sharafiddin Ali Yazdiy Temurning harbiy yurishlarga bag'ishlangan, 1437 yilda yozib tugallangan "Zafarnomasida Amir Temurning quyidagi so'zlarini keltiradi: "Boshliqsiz mamlakat joni sug'urib olingan tanagao'xshaydi. Jonsiz tana uning haloqati bilan barovardir". SHunday qilib, Amir Temur mo'g'ul xoni To'g'liq Temurga ochiqcha chiqish, kurash olib borish foydasiz ekanligiga to'la ishonch hosil qilib, uning xizmatiga kiradi vao'zining to'g'ri maslahatlari bilan uning ishonchini qozonadi. To'g'liq Temur 25 yoshli Amir Temurga ishonch bildirib, Xoji Barlos o'rniga Shaxrisabz hokimi qilib tayinlaydi. U o'zi hukmron bo'lib olgan hokimlikning mavqeini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rishga kirishadi. 1361 yildan boshlab Qozog'onning nabirasi, Balx va uning atrofi yerlari hukmdori Amir Husayn bilan yaxshi munosabat o'rnatadi. Bu munosabatni yanada mustahkamlash maqsadida Temur 1362 yili uning singlisi Uljos Turkonga uylanadi.

Tug'luq Temur vafot etgandan so'ng, uning o'g'li Ilyosxo'ja 1365 yilda katta qo'shin to'plab, Movarounnahrda yurish boshlaydi. Buni payqagan Xusayin va Temur o'zlariga qarshi juda shiddat bilan kelayotgan Ilyosxo'jaga qarshi qo'shin to'playdi. Chinoz bilan Toshkent o'rtasida to'qnashib katta jang qilishadi. Bu shiddatli jang ketayotgan davrda kuchli jala yoqqanligi uchun ham bu jang tarixga "SHilta jangi" yoki "Jangi loy" nomi bilan kirdi. Urushda Ilyosxo'ja qo'shinlarining qo'li baland kelib, ayniqsa Amir Xusayin juda katta zarar ko'radi. U Temur bilan o'z qo'shinlarining qolganini olib chekinishga majbur bo'ladi. Avval ular Samarqandga, so'ng Amudaryo sohillariga chekinadilar. Ilyosxo'ja esa Samarqand tomon yurishini davom ettiradi.

Samarqand shahri aholisi Ilyosxo'janing bosqinchilik harakatini bartaraf etishga kirishadi. Ularga shahardagi bir guruh sarbadorlar rahnamolik qilishib, shahar aholisini mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga chaqiradilar. Xalq ommasining mug'ul talonchilariga, mahalliy yer egalari haddan ortiq jabr-zulmlariga qarshi kuchli noroziligi bu yerda "sarbadorlar" deb nom olgai qudratli ozodlik harakatining boshlanishiga olib keldi. Asli bu harakat 1330 yilda Xurosonda boshlanib, ular mo'g'ullarga bo'ysinib yashagandan ko'ra dorda osilib o'lishni afzal ko'rgan edilar. Samarqanddagi "sarbadorlar" ning rahbarlari madrasada tahsil ko'ruvchi Mavlonozoda, sobiq paxta savalovchi Abu Bakr Qalaviylar edilar. Mavlonozoda Jome' masjidida to'plangan o'n mingga yaqin aholiga murojaat qilib, shaharni mo'g'ullardan himoya qilishga da'vat etdi. Ularni madrasalar talabalari, yoshlar, hunarmandlar, shahardan tashqaridagi dehqonlar va o'rta yer egalari qo'llab-quvvatladilar. Ular Samarqand mudofaasini muvaffaqiyatli tashkil qilib, - mo'g'ullarning bosqinchilik harakatini bartaraf etishga muvaffaq bo'ldilar. Ilyosxo'ja ikki ming jangchilaridan ajralib, avval Samarqandni, so'ng Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi. Mo'g'ul bosqinchilari ustidan erishilgan g'alabaagar xalqqa jasur, qobiliyatli, ishonchli, o'z so'zi ustidan chiqish uchun

astoydil harakat qiladigan rahbar bo'lsa, juda ko'p ishlar qilish mumkinligini ko'rsatdi.

Qishni Temur Keshda-Shaxrisabzda, Husayn esa Amudaryo sohillarida o'tkazayotganlarida sarbadorlarning mug'ul talonchilari ustidan erishilgan g'alabalarini eshitib, Samarqandga qaytadilar. Bundan keyingi voqealar jarayonida ikki amir o'rtasidagi ixtiloflar tobora ko'chayib bordi.

60-yillarning ohirida Xusayin o'ziga qarashli Balx shahrini mustahkamlab, istehkomlar qurishga kirishdi. Shahar devorini tiklab, qurol-yarog'ni ko'paytira boshladi. Temur bu harakatning o'ziga qarshi qaratilganini yaxshi angelayotgan edi. U Husaynni yo'ldan qaytarishga qanchaharakat qilsada, foydasi bo'lmadi. SHu sababli Temur oldinroq harakat qilib, uning xatti-harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi.

Biroq Husayn o'z makkorligini davom ettirgach, Amir Temur 1370 yilda uni Xatlon hokimi Kayxusrov qo'li bilan bartaraf etdi.

U Chingizxon avlodidan bo'lgan Amir Husaynning beva xotini Saroy-mulkxonim (Bibixonim)ga uylanib, «Ko'ragon» (xon kuyovi) nomini oldi. Bundan tashqari Amir Temurga Sohibqiron degan ulug' nom ham qo'shib ishlatiladi. Mana shu paytdan boshlab Amir Temurning Movarounnahrning yakka hukmdori sifatidagi faoliyati boshlandi. Shuningdek, qo'shin sarkardalarining qurultoyi ham Amir Temurni Movarounnahrning yagona hukmdori deb e'lon qiladi. Asosiy vazifa Movarounnahrni birlashtirishdan iborat, deb tushungan Temur yaqin kishilaridan biri amir Dovudni devonbegi qilib tayinladi. Yana uch vazirni tayin qilib, ulargaasosan hal qiluvchi muhim ishlar topshirildi. Mamlakatdagi qabila va guruhlarining manfaatlari to'laligicha inobatga olindi. Bu xususda Ibn Arabshoh shunday yozadi: "Ular (tayinlangan vazirlar) mamlakatning ko'zga ko'ringan a'yonlari hisoblanib, boshqa har bir kimsa ular fikrlariga iqtido etardi. Arablarda qancha bo'lsa, turklarda ham qariyb shuncha qabila va guruhlar bordir. O'sha vaqtlardan har qaysisi bir qabilaga mansub bo'lib o'z fikr chirog'i bilan u qabila uylarini yorituvchi pilik misoli edi. Ulardan birining qabilasi orlot, ikkinchisi jaloyir, uchunchisiniki qovunchi, to'rtinchisiniki barlos deb atalardi. Temur to'rtinchi qabila o'g'loni edi".

Bundan shu narsa yaqqol ko'rinib turibdiki, A.Temur o'z hukmronligining dastlabki kunlaridanq, har bir qabila manfaatini chetda qoldirmadi. Bu udumlarga u boshqa mansablarni tayinlashda ham amal qildi.

Movarounnahrning mashhur shaharlaridan va mo''tabar joylaridan biri hisoblangan Samarqand poytaxt qilib tanlandi. Poytaxtni mustahkam devorlar bilan o'rab, shahriston va saroylar qurdira boshladi.

Amir Temur uchun Amudaryo va Sirdaryo oralig'i yerlarini, Farg'ona va Shosh-Toshkent viloyatlarini o'ziga qaratish va birlashtirish uncha qiyinchiliklarni talab qilmadi. Bu yerlarda Temurga qarshi turadigan hokimiyat kuchlarining deyarli o'zi yo'q edi. Amir Temur Xorazm yerlarini o'z mamlakatining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Qadimiy Xorazmni birlashtirish

ko'pgina sabablarga binoan murakkabroq bo'ldi. Buning boisi Xorazm ikkiga bo'lingan bo'lib, Shimoliy Xorazm Oltin O'rda tarkibiga kirar, Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusi qaramog'ida edi, 1359 yilda Berdibekxonning vafotidan so'ng Oltin O'rdada boshlangan g'alayonlardan foydalanib, Xorazm mustaqil bo'lib oldi va uni Qo'ng'iroq qabilasidan so'filar sulolasi boshqara boshladi. Xusayn So'fi Xorazmning har ikki tomonini birlashtirishga harakat qilib, qot qal'asi va Xivani kuch bilan qo'lga kiritdi. Amir Temur Husayn So'fidan Janubiy Xorazm viloyati va uning shaharlarini qaytarishni talab qildi. Bunga rad javobini olgandan so'ng 1372 yil harbiy yurish qilib, hududni qaytarib oldi. Shu yili Husayn So'fi qotni yana bosib oldi. 1373-1374 yillari Temur Xorazmga yana yurish qildi. Ana shu ikki yurish natijasida Janubiy Xorazm Temur davlatining tarkibiga kirdi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, Oltin O'rda xoni To'xtamishning Xorazmga da'vosi tufayli Temur yana Xorazmga uch bor yurish qildi va 1388 yilda Xorazmni to'liq eg'alladi.

2.Movarounnahrda Amir Temur hokimiyatning o'rnatilishi. Markaziy davlat boshqaruvining takomillashuvi.

Buyuk sohibqiron Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish va uni mustahkamlash borasidagi faoliyatiga Oltin O'rda va Oq O'rda davlatlari katta xavf tug'dirib turgan edi. Sharq va Farb o'rtasidagi savdo karvon yo'llari ham ularning tasarrufida edi.

XIV asr 70-yillari O'rtalaridagi Oq O'rdadagi voqealar, Oq O'rda xoni O'rusxon va uning O'g'li Temurmaliq, To'xtamish bilan bo'lgan janglar, Oltin O'rdaning tor-mor etilishi Amir Temur davlatining markazlashgan holda mustahkamlanishiga imkon yaratdi.

Buyuk Amir Temur mohir sarkarda sifatida qattiq intizomga bo'ysungan qo'shin tuzdi. Ular o'nlik, yuzlik, minglik, tumanlik asosida boshqarildi. Harbiy yurishlar vaqtida «oddiy askarlardan har 18 kishi o'zi bilan birga bir chodir, xar biri ikki ot, bir kamon, bir sadoq o'q, bir qilich, arra, bigiz, bir qop, bolta, o'nta igna va bir charm xalta olishlari shart»¹ qilib qo'yilgan.

Sohibqiron uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblangan. U o'z qo'shiniga katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblagan. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojuy kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayru-ehson ko'rsatish, boshiga og'ir tashvish tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar.

Amir Temur armiyasida Amir Xo'ja Sayfiddin, Amir Sulaymon Xash, Amir Oqbug'a, Amir Soribug'a, Amir Birandiq, SHayx Ali Bahodir, Temur Tosh, Baratxo'ja, Amir Dovud Barlos, Amir Muayyad, Arlot kabi

¹ Temur tuzuklari. 83-bet

qo'mondonlar xizmat qilganlar. Ayrim yurishlarda Amir Temurning O'g'illari va nabiralari ham qo'shinga qo'mondonlik qilganlar.

1380-1382 yillarda Amir Temur Xuroson yerlarini bo'ysundirib, Hirot, Astrobod, Domg'on, Semnon va Mozandaronlarni qo'lga kiritgan edi.

Amir Temur birinchi yirik yurishlarini Eron, Armaniston, Gurjiston va Iroqqa qaratdi. Eronning janubi-Isfaxonda hukmronlik qilib turgan muzaffariylar sulolasi, Iroq va Ozarbayjonda hukmronlik qilib turgan Elxoniyalar Amir Temurga taslim bo'ldilar. Armaniston va Gurjiston ham egallandi.

1398 yili mayda Afg'oniston va Hindistonga yurish boshlandi. Avgust oyida Qobul, 15 dekabrda esa Dehli egallandi.

Amir Temur Misr va Suriya sultoni Barsuqning vafoti to'g'risidagi xabarni eshitgach, 1399 yil oktyabrda Misr sari yo'l oldi. Barsuq o'rnida taxtga o'tirgan yosh sulton Faraj Sohibqiron qo'shinlariga bas kelolmadi. 1400 yilda Suriya va Misr ham egallandi.

Bu paytda Turkiya sultoni Boyazid butun Yevropaga xavf solayotgan edi. Uning qo'shini chaqmoqdek harakat qilib, o'lgan g'alabalarni qo'lga kiritib boshlagan edi. Shu bois ham Boyazidga «yildirim» (chaqmoq) laqabi berilgan edi. U 1396 yilda Yevropaning 100 ming kishilik armiyasi ustidan g'alabaga erishadi. Jangda Yevropa ritsarlarining eng saralari halok bo'ladi. Shu tufayli ham Yevropa davlatlari turklarga bas keladigan qudratli kuch deb, faqat Amir Temurni tanlagan edilar. Shu bois bu davlatlar Amir Temur davlati bilan harbiy, siyosiy va savdo munosabatlarini o'rnatishga intilib, muntazam ravishda o'z elchilarini yuborib turdilar. 1401 yilda Qorabog'da turgan Amir Temur huzuriga Kastiliya qiroli Genrix IIIning elchilari Payode Satamayor va Don Ernon Sancheslar tashrif buyurdilar. Konstantinopol regenti Ionning elchilari Frensis va Aleksandrlar Boyazidga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan keladilar. Gretsiya imperatori Manuel III ham shu taklif bilan murojaat qiladi. Venetsiya hukmdori esa Amir Temurga bu ishda flot bilan yordam berishga va'da qiladi.

Amir Temur bu qistovlar va va'dalarga e'tibor bermagan holda Boyazidga do'stona maktub yo'llab, o'zining raqibi Qora Yusufni qaytarib yuborishni so'raydi. Ammo Boyaziddan haqoratomuz javob oladi. Aynan mana shu haqorat ikki o'rtada urush bo'lishiga sabab bo'ladi. 1402 yilning iyulida Anqara yaqinidagi jangda Amir Temur 200 ming kishilik qo'shin bilan Boyazid va uning qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Boyazid esa asirga olinadi. Amir Temurning beg'araz jahongir ekanligini yana shu joyda ko'rish mumkin-ki, u to'liq g'alabaga erishgan bo'lsa ham, Turkiyani o'z davlatiga qo'shib olmasdan, Boyazid o'rniga uning o'g'lini sulton qilib qo'yadi.

Amir Temur Anqara yonidagi g'alaba tufayli «Yevropa xoloskori» nomini oldi. U Yevropani vayronlik va zulmdan saqlab qoldi.

Bu g'alaba Amir Temur qo'shinlarining juda katta va buyuk g'alabalaridan biri bo'lib, u Temur harbiy nazariyasi, taktikalarining beqiyos tantanasi bo'ldi.

Samarqand va Yevropa mamlakatlari o'rtasida diplomatik va savdo aloqalarining o'rnatilishi va kengayishi ham ana shu davrdan boshlandi.

Amir Temur o'sha davrda muhim mavqega ega bo'lgan Xitoy Turkiston yerlarini bosib olganedi, Amir temur shu yerlarni qaytarib olish maqsadida Xitoyga yurishga puxta tayyorgarlik ko'ra boshladi. Bir necha yilgi puxta tayyorgarlikdan so'ng 1404 yilda o'z maqsadini amalga oshirish uchun 200 ming jangavor qo'shin bilan Xitoy tomon yurish boshladi.

Ana shu tariqa Amir Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni, Hindiston, Suriya va Misr yerlarini egallaydi.

Ammo u 1405 yilning 15 fevralida jangavor yurish chog'ida O'tror shahrida kasallanib vafot etdi. Shu tariqa Sohibqironning buyuk Xitoyni qo'lga kiritish rejasi amalga oshmay qoldi.

Jahongir Amir Temur o'z faoliyati davomida ko'p janglar qildi va bu janglar natijasida Qora, Egay va O'rta Yer dengizlaridan to Hindistonning sharqi, Mo'g'uliston, Xitoygacha, Urol tog'lari, Moskva ostonalari va Dnepr bo'ylarigacha bo'lgan hududni zabt etdi.

Amir Temur O'z harbiy yurishlari natijasida 27 mamlakatni o'ziga bo'ysundirdi. Fosih Havofiyning «Mujmali-osixiy» kitobida yozilganidek: «1370 yildan to 1404 yilga qadar qariyb 30 marta qo'shin tortgan Amir Temurning hamma vaqt qo'li baland keldi».¹

Shu tariqa Amir Temur buyuk saltanatga asos solib, feodal tarqoqliklarga, tinimsiz davom etayotgan urush, janjallarga barham berdi va nihoyat shu saltanatda osoyishtalik o'rnatdi.

Amir Temurning mustaqil markazlashgan davlat harbiy doktorinasining ishlab chiqqanligi uning buyuk sarkardaligidan dalolatdir. Buyuk sarkardaning harbiy san'ati sirlarini, uning harbiy saboqlarini mustaqil O'zbekistonimizda va hatto boshqa yirik mamlakatlarda o'rganilishi fikrimizning isbotidir.

Temuriylar davrida O'rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot. Amir Temur mamlakatda qatiqqo'l hokimiyat o'rnatish zarurligini yaxshi tushunardi. Negaki, ko'chmanchi mug'ul-turk qabilalaridan jaloir, barlos, sulduz va boshqalarning o'zboshimcha boshliqlarini itoatda saqlab turish oson emas edi. Shu maqsadda mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etishga kirishadi. U o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus harbiy qism tashkil etib, ularga katta imtiyozlar beradi.

Amir Temur o'z davlati hokimiyatini mustahkamlashda islom diniga tayandi. Islom namoyandalari uni qo'llab-quvvatladi. Mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etgan dehqonlar va shahar aholisi – tijoratchilar, hunarmandlar sohibqironning davlatni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarini ma'qulladilar.

¹ Salohiddin Toshkandiy. «Temurnoma», Toshkent, «Cho'lpon», 1990, 17-bet

A.Temur o'z davlati asoslarini adolat bilan mustahkamladi va «Kuch adolatdadir» (Rosti-rusti) shioriga amal qildi. Mamlakat aholisini 12 tabaqaga bo'lib, ularning har biriga nisbatan o'ziga xos siyosat yurg'izib, O'zining ulkan tashkilotchiligi qobiliyatini namoyon etdi. Amir Temur davlat hududining tumanlarga bo'linishi va o'z o'g'illariga ulus sifatida taqsimlab berilishini amalga oshirgan bo'lsa ham, Movarounnahrni parchalamay o'z qo'lida mahkam saqladi. Davlatga maxsus xizmat qilganlarga «Suyurg'ol»lar sifatida yer-suv va mol-mulk berdi, hamda alohida xizmatlar uchun «Tarxon» yorliqlarini joriy etdi. Tarxon yorlig'ini olganlar turli soliqlardan ozod etildi. Amir Temur o'zi tuzgan davlatda oliy hukmron bo'lsa ham, o'zini hech qachon podshoh yoki sulton deb atamay, umrbod amir unvonini saqlab qoldi. U an'anaga rioya qilgan holda yonida soxta xonlarni saqladi.

Amir Temur davlat ishlarini yurgizishda 4 narsaga doim amal qildi. Bular: 1. Kengash. 2. Mashvaratu maslaxat. 3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik. 4. Ehtiyotkorlik.

Amir Temur hukmdor uchun quyidagi o'n ikki xislat zarurligini va bu xislatlarning birortasiga amal qilinmasa saltanat ishlariga putur yetishi mumkinligini tarixiy misollar bilan isbot qilib bergan edi. A.Temur hukmdor birinchidan o'z so'ziga ega bo'lishi, ikkinchidan adolatpesha bo'lishi, uchinchidan har ishda faqat o'zi hukm chiqarishi, to'rtinchidan qarorida qat'iy bo'lishi, beshinchidan hukmi joriy etilishi, oltinchidan podsholik ishlarini har kimga topshirib qo'ymasligi, yettinchidan ko'pchilikning fikrini eshitishi, sakkizinchidan shoshmasdan mulohaza bilan ish yuritishi, to'qqizinchidan sipohu, raiyatni umid va qo'rquv orasida saqlashi, o'ninchidan barcha ishni o'z erkicha qilishi, o'n birinchidan o'z ishlariga birovni sherik qilmasligi va o'n ikkinchidan davlat ishlarini maxfiy saqlab, boshqalardan ogoh va hushyor bo'lishligi lozimligini alohida uqtirgan edi.

A.Temur davlat amaldorlarning sofligiga, xazinaga ko'z olaytirmas-ligiga alohida e'tibor qilib, o'z tuzuklarida: «Mamlakat xazinachilari bo'lmish moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib, boylikning bir qismini o'zlashtirib olgan bo'lsalar tekshirib ko'rilsin», -deb yozib qoldirgan edi.

Amir Temur davlatni boshqarishda 7 vazirga suyanib ish ko'rdi va ulardan 4 vazirning xar kuni devonxonada hozir bo'lishlarini talab etdi. Bular: 1. Mamlakat va raiyat vaziri. 2. Sipox vaziri. 3. Egasiz qolgan mulk vaziri. 4. Saltanat ishlarini yurituvchi vazir. Bundan tashqari yana 3 vazirdan iborat sarxadlar vazirlari hay'atini tuzdi.

Vazirlardan birinchisi yer soliqlari, boj, o'lpon – soliq undirish, hamda mirshablik yumushlarini boshqargan, mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni yechish, raiyat ahvolini o'rganish, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o'lponlarni taqsimlash ishlarini bajargan. Ikkinchi vazir sipoh vaziri hisoblanib, sipohiylarning maoshlari va tanho (bu yerda toju-taxt uchun qilgan xizmatlari evaziga berilgan in'om ma'nosida)larni boshqargan. Uchinchi vazir esa egasiz qolgan, o'lib kegan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib

ketayotgan savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvasini boshqarish, ularning barchasidan to'plangan daromadlarni omonat tarzida saqlash ishlari bilan shug'ullangan.

Saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlangan.

Sohibqiron davlatida Devoni buzurg (bosh vazir)dan tashqari xar bir viloyatda «Devon» deb ataluvchi boshqarma bo'lgan. U davlatning butkul ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar, - bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilib turgan. U xalqning xulqu-ahloqini kuzatib turgan. Uning xodimlari vaqti-vaqti bilan so'roq, tekshirish-taftish, tergov ishlarini ham olib borishgan.

Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy etgan. Arzbegi shikoyat va arizalarni ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususida kengashga xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'iy nazar qattiq jazolangan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib – qoida o'rnatilgan. Rus sharqshunos olimi D.N.Logofet bu xususda «...biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning (Temurning) hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi», deb yozgan edi.

Amir Temur vazirlarini tanlash ishiga g'oyat jiddiy qarar va ularni 4 ta sifatga ega bo'lishlariga ahamiyat berar edi. Bular: 1. aql-farosatlilik; 2.toza nasllik; 3.sipoxu-raiyat ahvolidan xabardorlik; 4. sabr chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur o'z imperiyasiga qo'shib olgan mamlakatlarni idora etish uchun tayinlanadigan kishilarga qo'yiladigan talablar tizimini ham ishlab chiqdi. Bunday rahbarlar A. Temur talabiga ko'ra quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim bo'lgan: 1) Oliy janob tabiatli va ruhiy holatining ko'tarinkiligi; 2) Nozik aql va ziyraklik; 3) Yuksak malaka hamda xalq va qo'shinga murojaat qila bilish; 4) Sabr-toqat va odamlar bilan murosaga kelishmoq.

Mana shu yuqoridagi qoida va talablar Amir Temur hokimiyatini idora etishda va uni mustahkamlashda muhim o'rinni egalladi. Sohibqiron tuzgan imperiyaning ma'muriy-xududiy bo'linishi asosan tumanlardan iborat bo'lganligi uchun yangi amirlik tizimini shakllantirish va mustahkamlash zarur edi. SHu bois Amir Temur 313 kishiga amirlik mansabini berishga farmon berib, shulardan bir kishini amir-ul-umaro, 4 kishini beklarbegi, 100 kishini O'nboshi, 100 kishini yuzboshi va 100 kishini mingboshi etib tayinladi. Bulardan tashqari 8 ta amirlar amir-ul-umaro yordamchilari etib tayinlanganlar.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar bilan qurollangan buyuk davlat arbobi edi. Mojar olimi Xerman Vamberi ta'kidlaganidek, O'rta Osiyoda asl turklik davri Temurdan boshlangan. U turklarning mug'ul-xitoy dunyosining ustidan g'alabasini mujassam etib, milliy davlatga asos solgan, mamlakatning rasmiy tili turk (o'zbek) tili bo'lgan.

Buyuk Amir Temo'ning siyosiy faoliyati nafaqat davlatchilik tarixini boyitishda, shu bilan birga hozirgi sharoitda milliy davlatchiligimizni mustahkamlashda ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk Amir Temur tomonidan yozilgan muhim asar bu «Temur tuzuklari», ya'ni «Tuzukoti Temuriy»dir. «Qomus ul a'lom» deb nomlangan va Istanbulda nashr etilgan komus kitobida: «Amir Temur «Tuzukoti» deb yuritiladigan komuslar majmuasini yozdi. Undao'zining hayot yo'lini bayon etgan.

3. Amir Temurning vafotidan keyin temuriy shaxzodalari o'rtasida toju-taxt uchun kurashlar.

Amur Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini kengaytirib, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsada, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazzulga uchrab turdi. Buning asosiy sababi avvalo shundaki, Amir Temur tasarrufiga kirgan ellar va yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib uzoq vaqt boshqarish murakkab edi. Buning ustiga ulardagi turli tuman muxolifatchi kuchlar ertami kechmi o'z hududlarining mustaqilligi uchun kurashishlari aniq edi.

Sohibqiron saltanatini zaiflashtirish va parchalanishga olib kelgan muhim omillardan yana biri ko'p sonli temuriy shahzodalar o'rtasida toj taxt uchun boshlanib ketgan va bir necha yillarga cho'zilgan o'zaro besamar urush va nizolardir. Chunki, Amir Temur vafotidan keyin saltanat vorislari uning dono vasiyatlariga, o'g'itlariga amal qilmadi. Markaziy hokimiyatni egallash maqsadida jangu jadallarga kirishdi.

Amur Temur Xitoy yurishiga otlangan bir paytda 1405 yil 18 fevralda kasallanib vafot etgan bir paytda uning 4 o'g'lidan 2 tasi Mironshoh va Shohruxmirzo, 19 ta nevara, 15 chevara, shuningdek qizlari Og'abegim, Sulton baxt begim va Og'abegimning o'g'li Sulton Husayn Mirzolar qolgan edi.

Amir Temur vasiyatiga ko'ra uning o'rnini Qobul, Qandahor va Shimoliy Hind yerlarini boshqarib turgan nabirasi Pirmuhammad egallashi kerak edi. Biroq shahzoda Xalil Sultonning o'zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o'zini hukmdor deb e'lon qilishi, tabiiyki, boshqa shahzodalarning ham qo'zg'alishiga, saltanatning darz ketishiga olib keldi. Bu orada saltanatning g'arbiy hududlari mustaqil bo'lib ajralib ketdi. Ozarbayjon tomonda turkmanlarning Oqquyunli va Qoraquyunli sulolalarining Temur saltanatiga bo'ysunmaslik va unga nisbatan qarshilik harakati kuchaydi. Amir Hudaydod va Shayx Nuriddinlar esa Movarounnahrning turli hududlarida bosh ko'tardilar. Faqat, qat'iyatli, shijoatli SHoxrux mirzo bu qonli nizolar, urushlarga barham berib, Xuroson va Movarounnahrda xokimiyatni qo'lga oladi va Movarounnahrda vaziyatni 1409 yil o'z foydasiga hal etib, uni katta o'g'li Ulug'bekka topshiradi. O'zi esa 1407-1447 yillar Xuroson hukmdori bo'lib qoladi.

4.Mavorounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi.

Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u 1394 yilda Sultoniya davlatida tavallud topgan. Bobosi Amur Temur unga katta mehr bilan qarab yoshligidan o'z tarbiyasiga olgan. Ulkan tug'ma iste'dod, aql zakovat sohibi bo'lgan Ulug'bek davlat boshqaruvini puxta egallashdan tashqari djiniy va dunyoviy bilimlarni ham yetuk darajada o'zlashtirgan. U Movarounnahr taxtini egallaganda endi 15 yoshga to'lgan edi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi (1409-1449) temuriylar davrining an'anaviy rivoji va muhim ijtimoiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab borishida alohida alohida davrni tashkil etadi. O'sha davr tarixchilarining yakdil fikricha Ulug'bek bobosi davridagi boshqaruv tizimini, barcha tartib qoidalarni to'la saqlashga harakat qilgan. Soliq va moliya siyosatida ham bunga amal qilgan. To'g'ri, Ulug'bek Amur Temur singari jangu jadallarga qiziqmadi. Bu sohaga uning ortiqcha rag'bati ham bo'lmagan. Faqat zaruriyat taqoza qilgandagina u harbiy yurishlarga otlangan. Masalan, 1414 yilda Farg'ona hukmdori shahzoda Ahmad itoatdan bosh tortgan paytda u katta qo'shin tortgan va bu yurishi bilan nafaqat Ahmadni itoatga keltirgan, ayni chog'da Turkiston yerlarini ham o'z davlati tarkibiga qo'shib olishga muvaffaq bo'lgan. 1425 yilga kelib Ulug'bek mirzo Issiqko'l tarafga yurish qilib, u yerdagi isyon ko'targan mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakatning sharqiy chegaralarini ancha mustahkamlashga erishdi. Biroq hukmdorning 1427 yilda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig'noq va uning atrofida hududiy davolar bilan bosh ko'targan Dashti Qipchoq aslzodalaridan sanalgan Baroqxonga qarshi yurishi uning uchun kutilmaganda muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Bu mag'lubiyat Ulug'bekni hokimiyatdan mahrum bo'lishiga ham olib kelayozdi. Otasi Shohruxning katta qo'shin bilan yetib kelishi uni o'z hukmronligining qayta tiklashiga imkon berdi. Shundan so'ng Mirzo Ulug'bek urush harakatlaridan ko'ra ko'proq mamlakat ishlari, uning ichki siyosati masalalari bilan shug'ullanishga e'tibor qaratdi. Shu boisdan ham endilikda uning faoliyatida mamlakat obodonchiligi, yurt tinchligi, farovonligi, ilm-fan ravnaqiga oid masalalar asosiy o'rin egallaydi. Mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik, va ziroatchilik avvalgidek rivojlanishda davom etdi. Ko'plab sun'iy sug'orish inshootlari barpo etildi. Buyuk ipak yo'li orqali xalqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Shosh va boshqa shaharlarda ko'plab hashamatli madrasalar, masjidi maqbaralar, karvonsaroylar qad rostlaydi. Uning bevosita rahbarligida qurilgan tengi yo'q me'moriy inshoot rasadxona o'sha davr ilmu-fani va texnikasining eng so'ngi yutuqlarini o'zida mujassam etgan edi.

Ulug'bekning 1428 yilda o'tkazgan pul islohoti ham mamlakatda savdo-sotiq va pul muomalasini, moliya siyosatini yo'lga qo'yishda muhim voqea bo'lgan. Ulug'bek muomalaga chiqargan yangi vazndagi tanga pullar o'z qadri, qimmatini bilan iqtisodiy hayotni jonlantirish, savdo-sotiqni rivojlantirish alohida rol o'ynaydi. Uning davrida ham yuqori tabaqa vakillariga, harbiy sarkardalar,

oliy ruhoniylarga avvalgidek alohida imtiyozlar berish tartibi hukm surdi. Bundan tashqari davlatning katta ma'naviy tayanchi hisoblangan diniy muassasalar ixtiyorida ham ulkan miqyosdagi vaqf yerlari to'plangan edi.

Ulug'bek davlat siyosatida qanchalik oqil va izchil siyosat yuritmasin, ilm fan ahliga, din peshvolariga homiylik qilish, savdo, tijorat va hunarmand ahliga rag'bat qilmasin, unga qarshi muxolifat kuchlar ham anchagina bor edi. Ulug'bek katta yer egalarining oddiy fuqarolarga nisbatan suiiste'molchiliklarini cheklash tadbirlarini ko'rganda, ular Ulug'bekga qarshi chiqdilar. Ruhoniylar orasidagi jaxolatparastlar Ulug'bekni islom diniga zarar keltiruvchi "betavfiq hukmdor" deb tashviqot qildilar. Shu tariqa jaholatparastlar ilmga, o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun ko'ruvchilar taraqqiyotga qarshi chiqdilar. Ulug'bek mamlakatdagi turli ijtimoiy-siyosiy guruxlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni, muttaasib, reaksion kuchlar muxolifatini oxirigacha barataraf eta olmadi. Bu esa 15 asrning 40 yillari oxirlariga kelib Movarounnahr davlatini beqarorlik va chuqur ijtimoiy larzalarga duchor etdi. 1447 yilda Shohrux mirzo vafoti munosabati bilan Ulug'bekning ota taxtiga da'vogarlik qilib Xurosonga yurishi, jiyani Alouddavla va boshqa merosxo'rlar bilan hokimiyat talashishi, uning yo'qligida Abulhayrxon boshliq Dashti qipchoqliklarning Movarounnahr yerlariga hujum qilishi, qora kuchlar ig'vosi tufayli o'z o'g'li Abdulatif bilan boshlangan nizoning katta jangga aylanib ketishi, unda Ulug'bekning mag'lub bo'lishi uning fojeali o'limi bilan yakun topdi va temuriylar sulolasi inqirozini yanada chuqurlashishiga olib keldi. Ulug'bek akademiyasi tarqalib ketdi. Kutubxonadagi ko'plab kitoblar yondirildi, olimlar boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Ulug'bekning o'limidan keyin o'g'li Abdulatifning o'ldirilishi, undan keyin Samarqand hokimiyati tepasiga Abu Said Mirzo keldi.

5. Temuriylar davrda ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

Amir Temur faoliyatini o'rganishda asosiy manbalardan bo'lgan, "Zafar yo'li" deb atalgan kitobda ulug' bobomiz o'z tarjimai xoli xususida bunday deydi: "Bir kuni otam Amir Tarag'ay menga dedi: Bilgilki sen, Temur-Tarag'ayning o'g'li; Tarag'ay-Amir Bargulning o'g'li; Bargul-Amir Ilingizning o'g'li; Ilingiz-Bahodirning o'g'li; Bahodir-Ankal No'yonning o'g'li, Ankal No'yon-Suyunchining o'g'li, Suyunchi-Erdamchi barlosning o'g'li, Erdamchi Baxodir-Qochuli Bahodirning o'g'li; Qochuli Bahodir-Tumanaxonning o'g'li, Tumanaxon-Yofas o'g'lonning avlodi, Yofas esa Nuh payg'ambarning o'g'li"—Amir temur ajdodlari Tumanaxonga borib tutashishini va barloslar aslan turkiylar bo'lib, Abulg'oziyning "SHajarai turk" asarida shunday jumlar bitilgan: "Tumanaxon yaxshi ulug' podshox edi. Uning 9 o'g'li bo'lib, uchinchi Qochuli, aning o'g'lining oti Erdamchi Barlos. Barcha barlos eli shuning nasli tururlar Temur ushbu urug'dan erdi Barlosning ma'nosi sipoxsolor temak bo'lur (sipoxsolor-lashkarboshi) Turkiysi cherik boshlab

yuritadigan kishi” Barloslar o’zbek millatining shakllanishida faol qatnashganlar va Turon, Turkistonga shon sharaf keltirgan ajdodlarimizdirlar.

Turkiycha bitilgan «Temur tuzuklari»ning bir qo’lyozma nusxasi Yaman hokimi Ja’far podshoh tomonidan milliy kutubxonada saqlangan. Bu asarning fors tiliga tarjimasini Mir Abu Tolib Hasaniy at-Turbotiy Makkaga haj qilib qaytib kelganidan so’ng amalga oshirgan. Ana shu nusxaasosida «Temur tuzuklari» bizgacha yetib kelgan va XIX asrning ohirlaridarus tiliga tarjima etilib, nashr qilingan. Asar butun dunyoga mashhur bo’lib, asrlar oshao’z ahamiyatini saqlab qolib, juda ko’p tillarga tarjima qilingan. Arab tili professori, ingliz mayori Uayt asarning forsiy matnini nashrga tayyorlagan va u 1783 yili Oqsfordda chop etilgan. 1785 va 1890 yillarda ushbu nashrning forsha matni hech o’zgarishsiz Hindistonning Kalkutta va Bombay shaharlarida, 1963 yilda Eronda nashr etilgan. U 1787 yili taniqli frantsuz sharqshunosi L.Lyangle tomonidan ushbu asar frantsuz tilida ham nashr etilgan.

«Temur tuzuklari» ikki bo’lim va 56 banddan iborat bo’lib, kitobda bu bo’limlar maqola deb atalgan. Birinchi maqola Temurning davlatni barpo etish va mustaxkamlash, qo’shinlarni tashkil etish yuzasidan tuzuklaridan iborat. Ikkinchi maqolada esa, Amir Temur tomonidan o’tkazilgan 13 kengash tafsilotlari va ularda buyuk sohibqironning amalga oshirgan tadbirlari bayon etilgan.

Shuningdek, «Tuzuklar»ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo’lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, Eron va Afg’onistonni o’z tasarrufiga olishi, Oltin O’rda xoni To’xtamish ustidan qozonilgan g’alaba va nihoyat buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Kitobning II qismi Sohibqiron nomidan aytilgan va uning toju-taxt vorislariga atalgan o’ziga xos vasiyat va pandu-nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo’shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko’rsatgan alohida hizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida so’z yuritiladi.

Ikkinchi bo’limda, ya’ni maqolada Amir Temur shunday deb yozadi: «Mamlakatlarni fatx etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etuvchi qudratli nabiralaringma ma’lum bo’lsinkim, tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko’plab farzandlarim, avlodim uchun saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka bog’ladim, va saltanatni boshqarish haqida qo’llanma yozib qoldirdim»¹.

¹ Temur tuzuklari, Toshkent, 1991 yil, 55-bet.

Ulug' Amir Temur yana davom etib: «Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va ahloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim»², - deb yozgan edi.

Oliyjanob ahloqiy fazilatlarini Amir Temur xazratlari ulug'labgina qolmaganlar, balki bu fazilatlarini bajarilishini davlat xududida yashayotgan fuqarolardan, hatto o'z oila a'zolari tomonidan ham so'zsiz bajarilishini talab qilganlar. «Yana tajribamdan ko'rib bildimki», - deb yozadi Amir Temur – «davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to'ra tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuxi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalong'och odamga O'xshaydi, uni ko'rgan kimsa nazarini olib qochadi. Yohud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyg'a o'xshaydi.

Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim»¹.

Amir Temur o'z tuzuklari keyingi avdlodi uchun bir qo'llanma bo'lib qolishni ko'zlab: «Farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri o'nga muvofiq ish yuritsin Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga o'tadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lg'ay»², - deb yozib qoldirgan edi.

Darhaqiqat bu asardan faqat Temuriy shahzodalargina emas, ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlarida foydalanganlar va o'nga yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842), Buxoro amiri Abdullahaxon (1885-1910)lar «Tuzukot»dan parchalar ko'chirtirib, ulardagi qoidalarga amal qilganlar.

Temur tuzuklarida Amir Temur o'zi tuzgan qo'shinning tuzilishi, qurollanishi hamda buyuk sohibqironning harbiy san'ati haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Zero Amir Temur tuzgan qo'shin o'zining strategik va taktik maxorati bilan O'sha davrning eng mukammal va kuchli armiyalaridan hisoblangan. Amir Temur esa jahonda mahoratli buyuk sarkarda sifatida shuhrat qozongan. Hozir ham ko'pgina xorijiy mamlakatlar harbiy o'quv yurtlarida «Temur taktikasi» mahsus kurs sifatida O'tiladi. Yurtimiz va xalqimiz mustaqil bo'lgach, mustaqil davlatchiligimiz asoslarini yaratishda buyuk Amir Temur va uning «tuzuklari»ga murojaat qilmoqdamiz. Uning «Kuch adolatda» tamoyili esa huquqiy davlat barpo etishimizda yo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek A.Temurga bag'ishlab yaratilgan asarlar soni Ovropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqinni tashkil etadi.

Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning tuzilishi, feodal tarqoqlikning tugatilishi, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning o'rnatilishi O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti yo'lida ijobiy rol o'ynadi. Mug'ullar davrida vayron bo'lgan iqtisodiyot tiklandi,

² Temur tuzuklari, Toshkent, 1991 yil, 55-bet.

¹ Temur tuzuklari, Toshkent, 1991 yil, 57-bet.

² Temur tuzuklari, Toshkent, 1991 yil, 53-bet.

hunarmandchilik va tijorat ishlari rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topdi, shaharlar obod bo'ldi. Eng muhimi, xalq tinch va osoyishta hayot tarziga kirdi.

8-Modul: O'zbekiston hududining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.

1. Shayboniylar sulolasining Movarounnahrda hukmronligining o'rnatilishi va uning boshqaruv tizimi.

2. Buxoro xonligining tashkil topishi. Buxoroda Ashtarxoniyalar sulolasi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

3. Xiva xonligining tashkil topishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol.

4. XVIII asrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. Qo'qon xonligining tashkil topishi. Qo'qon xonligida madaniy hayot.

1. Shayboniylar sulolasining Movarounnahrda hukmronligining o'rnatilishi va uning boshqaruv tizimi.

Markaziy Osiyo ayniqsa, o'zbek xalqi tarixida –xonliklar davri alohida o'rin tutadi. Ko'p ming yillik o'zbek xalqi tarixida bu davr o'zining muddati bilangina emas, balki, shu davrda xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan juda katta voqealar bilan ham ajralib turadi.

Temuriylar davrida buyuk Temur davlatining bunday parchalanib ketishi G'arbda Qora dengiz qirg'oqlaridan boshlanib, Sharqda Irtysh daryosi va Balxash ko'liga qadar, janubda esa Sirdaryoning quyi oqimlarigacha cho'zilgan. Qipchoq dashtlarida yashovchi O'zbeklar deb atalmish turkiy tilda so'zlashuvchi ko'chmanchilarni Movarounnahr yerlariga kirib kelishlari uchun qulay sharoit yaratib berdi.

O'z vaqtida mug'ullar istilosi ostida qolgan hududi zabt etilib, Jo'ji ulusiga kiritilgan Dashti Qipchoq aholisi Jo'ji o'limidan keyin uning o'g'illaridan biri Shaybonquli ostida o'zining mustaqil ulusini tashkil etish uchun kurash olib boradi. Natijada Yoyiq daryosining Sharqidan Sirdaryo buylarigacha bo'lgan yerlarda bunday ulus bapro etiladi. XV asrda ana shu Shaybon boshchiligidagi ulusda yashagan ko'chmanchilar o'zbek nomi bilan atalganlar.

XVI asr Xiva tarixchisi Abdulg'oziyning yozishicha (1603-1664) asosan chorvachilik va ko'chmanchilik bilan shug'ullanuvchi o'zbeklarning ko'pchiligi yozni Yoyiq daryosining yuqori oqimida, qishni esa Sirdaryoning quyi oqimida o'tkazadilar. Bu yerda o'zbeklardan tashqari qipchoqlar qo'ng'irotlar uyshun, nayman va boshqa qabilalar ham yashagan bo'lib, ular o'sha o'zbeklar tarkibiga kirar edi.

XV asrning 20 yillariga kelib Dashti Qipchoq urug'lari ichida Shayboniylar urug'i (o'zbeklar) oldinga chiqdi. Bu urug'ning eng ko'zga ko'ringan vakili, ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abdulkayrxon

bo'lib, u o'zidan oldin bu yerda hukmronlik qilgan Baroqxondan farqli o'laroq, taxtni o'zgaralar yordamida emas, balki bir qator o'zbek qabilalari, chunonchi Nayman, Qo'ng'iroq, Qiyot, Durman, Uyg'ur, Uyshun va boshqa qabilalarning yordamida egalladi. U juda qisqa vaqt ichida yirik davlatni vujudga keltirdi va bu davlatni uning o'zi 1428 yildan 1468 yilgacha boshqardi.

1451 yilda tavallud topgan Shayboniyxon Movarounnahrda begona emasdi. U temuriylarga qondoshligi bor, Shimoliy Turkistonda 1430 yilda o'zbek davlatlaridan birini tuzgan Abulxayrxon uning ota tomonidan bobosi edi. Abulxayrxon uzoqni ko'zlovchi davlat arboblardan bo'lib, yon qo'shnilari bo'lgan temuriylar bilan qarindoshlik aloqalarini bog'laydi, o'g'il, nevaralarini Samarqand va Buxoro madrasalarida o'qitadi, o'zi esa Mirzo Ulug'bekning Robiya Sultonbegim ismli qiziga uylangan. Muhammad Shaybonihon Abulxayrxonning nevarasi, Mirzo Ulug'bekning avarasi edi.

XV asrning ikkinchi yarmida Movaraunnahrdagi o'zaro kurashlar bilan band bo'lgan temuriylarning asosiy raqibi shimoldagi mo'g'ullar edi. Ularning Movaraunnahr yerlariga to'xtovsiz talonchilik hujumlaridan bezor bo'lgan temuriy shahzodalar mo'g'ullarga qarshi kurashda Shayboniyxondan foydalanish maqsadida u bilan ittifoq tuzdilar. Shayboniyxon bobosi Abdulxayrxon Dashti Qipchoqda tashkil etgan davlatni bir tomonlamako'chaytirib, o'z oldiga hali o'sha bobosi rejalashtirgan Movaraunnahr yerlarini bosib olish ishini hal etishni maqsad qilib qo'ydi va uni amalga oshirishga kirishdi. Bu ishga kirishar ekan, Shayboniyxon eng avvalo 1480 yilda Qozoq xoni Burunduqxonga katta zarba berdi. Shundan so'ng Shayboniyxon 1488-1500 yillar ichida O'tror, Yassi, Sig'noq, Shaxrisabz, Turkiston shaharlarini egallaydi. Shundan so'ng Temuriylar poytaxti Samarqandni egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Shayboniyxon 1499 yilda dastlab Samarqandni qamal qilganda bu yerda Sulton Ahmad Mirzoning o'g'illaridan biri, Sulton Ali Mirzo hukmronlik qilardi. Uning qobiliyatsiz, har tomonlama o'jizligidan xabar topgan Shayboniyxon Samarqand shahriga kirmay Shaxrisabz va Qarshi shaharlarini talab Qipchoq dashtiga qaytib ketadi. Ozroq vaqt o'tgach Shayboniyxon Toshkent hokimi Mahmudxonidan ozroq yordam olib, Samarqandga yangidan hujum boshlaydi. Xuddi shu payt Buxoro hokimi Muhammad-Boqi tarxon qo'shinlari Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzoga yordamga kelayotganligini haqida Shayboniyxon xabar topadi. Shundan so'ng u Samarqand qamalini to'xtatib, asosiy kuchlarini Buxoro qo'shinlariga qarshi qaratadi natijada Dabusiya qal'asida (hozirgi Ziyovuddin stantsiyasi yaqinida) bo'lgan jangda (1500) Shayboniyxon qo'shinlari g'alaba qozonadilar. Shundan so'ng Shayboniyxon Buxoroga tomon shiddat bilan harakat qiladi va shaharni uch kun qamaldan so'ng qo'lga kiritadi. Shayboniyxon tomonidan Buxoroni qo'lga kiritilgani haqidagi xabar Samarqandning hukmron doiralari orasida sarosima keltirib chiqaradi Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzodan norozi bo'lgan amirlarning bir guruhi Andijonda hukmronlik qilayotgan temuriy

Bobur ixtiyoriga, ikkinchi guruhi, Sulton Ali Mirzoning Toshkentda hukmronlik qilayotgan akasi Uveys Mirzo yoniga ravona bo'ldilar.

Voqealar rivojini sinchiklab kuzatib turgan Samarqand hokimi Sulton Ali Mirzo bu vaziyatda Shayboniyxon bilan muzokaralar olib borishni lozim topib, bir guruh o'ziga yaqin kishilar bilan uning huzuriga tashrif buyuradi. Shu tariqa Shayboniyxon 1500 yilda jangsiz Samarqandni birinchi marta egallaydi. Shayboniyxon barcha Samarqandliklarni poytaxt yaqinidagi Konigul yalangligida to'plab, katta izdixom o'tkazib, xaloyiqqa qarata: "Bizlar garchi o'zbeklar deb atalsakda aslida kelib chiqishimiz bo'yicha xuddi sizlar kabi turklarmiz, qonimiz, tilimiz, dinimiz, mazhabimiz bir!"

Biroq, Samarqand ruhoniylarining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri xo'ja Abdulmakarim yordamida Bobur tez orada Samarqandni egallab, shayboniyxlarning shaharda qoldirilgan qo'shinlarini va ularni tarafdorlarini qirib tashlaydi. Shundan so'ng Bobur Shayboniyxon qo'shinlarini ta'qib etishga kirishadi. Lekin 1501 yil aprelida Zarafshon daryosi bo'yida Sariko'l degan dashtdagi jangda talofat ko'rib Samarqandga chekinadi. Bu yerda 4 oy qamalda bo'lib, ohiri 1501 yilning ikkinchi yarmida Samarqandni tashlab chiqadi va Toshkent hokimi Mahmudxon huzuriga ketadi. Shayboniyxon ikkinchi marta Samarqandni qo'lga kiritadi.

Shayboniyxon Samarqandni qo'lga kiritgach, 1503 yilda Sirdaryoning yuqori qismiga qarab yurish qildi. Bu yerda (Toshkent hokimi) Mahmudxon, Bobir boshliq birlashgan kuchlarga duch keldi. Arxiyon yonidagi shiddatli jangda ular ustidan g'alabaga erishib. Toshkent, Shoxruhiya, Farg'ona shaharlarini qo'lga kiritdi(1504).

Shayboniyxon 1505 yilda Xorazmni, Movaraunnahrning asosiy shaharlarini egallagach, Xurosonni vao'nga qarashli yerlarni bosib olishni maqsad qildi.

Xuroson sultoni Husayn Boyqaro (Sulton Husayn) (1489-1506) o'zining to'ng'ich o'g'li Balx hokimi Badiuzzamon bilan birga Shayboniyxonga qarshi kurashmoqchi bo'ladi. Lekin bu ko'zlangan natijani bermaydi. Muhammad Shayboniyxon Hirotga qarshi yurish arafasida Husayn Boyqaroning ikki o'g'li Badiuzzamon bilan Muzaffar Mirzo o'rtasida taxt kurashi boshlanadi. Natijada Hirot taxtiga ular bir vaqtda podsho bo'lib ko'tariladilar. Bu Shayboniyxonga qo'l keladi. Shayboniyxon qo'shinlari 1504 yilda Xisravshoh hukmronlik qilgan Qunduz shahrini egalladi. 1507 yilda esa Shayboniyxon Xuroson poytaxti Hirotni egalladi, so'ngra Astrabodni egalladi. Taxt talashgan aka-uka temuriylar esa biri G'arbga, biri Sharqqa qochdi. Qisqa vaqt ichida Shayboniyxon Temuriylar yerlari bo'lgan Buxoro, Samarqand, Balh Mahshad, Nishopur, Kaba shaharlarini egalladi. U Sirdaryodan Afg'onistongacha bo'lgan yerlarning hukmdori bo'lib oldi. Faqatgina Sirdaryo bo'yidagi yerlar Toshkent hukmronligida bo'lsada, bular ham Shayboniyxonga yarim qaram edi. 1500-1507 yillar ichida Shayboniyxon Shohruh mirzo o'g'li Mirzo Ulug'bek bilan birga hukmronlik qilgan butun Turkiston hududlari miqyosida markazlashgan

qudratli davlat tuza bildi. Shayboniyxon hujumi arafasida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yomonligi, mehnatkash xalq ommasining qashshoq hayoti ko'chmanchi o'zbeklar-g'alabasining asosiy omillarida biri bo'lganligini ko'rsatib o'tish zarurdir. Ahvol sho'nga borib yetgan ediki, Farg'onadek yeri serunum, dehqoni mirishkor yurtda o'zbeklar hujumi kunlarida 3-4 ming askarni boqish uchun mablag' yo'q edi.

Temuriylar o'sha davrdagi og'ir iqtisodiy ahvolini ular saroyida xizmat qilgan o'z davrining zabardast shoirlaridan biri Binoiy shunday hikoya bilan ifodalaydi: "Na yegulik g'allam bor va ne kiyimga g'amlangan baxmalim bor. Yeyadigani, kiyadigani bo'lmagan kishi ilm va hunarga qanday o'rin a olsin."

Tinib-tinchimagan Shayboniyxon 1508-1509 yillarda qozoq yerlari ustiga yurish qildi va yerlarni egalladi. Natijada Shayboniyxon davlatining janubiy chegaralari Hirotu Hindiqush tog'larigacha, g'arbi safaviylar davlatiyu Kaspiy dengiz bo'ylarigacha, kunchiqar tomoni Sharqiy Turkistongacha borar edi.

Bu bilan ham kifoyalanmagan Shayboniyxon 1510 yildan boshlab qolgan Xuroson yerlarini bosib olishga kirishdi. Xuddi shu vaqtda XV asrning ohirlarida Erondagi o'zaro feodal urushlar natijasida xokimiyat tepasiga safaviylar sulolasining ko'zga ko'ringan vakili Ismoil Safaviy kelgan edi. Ismoil Safaviy Xurosonni Shayboniyxondan tortib olmoqchi bo'ldi. Shayboniyxon bo'nga ko'nmedi. Natijada Ismoil Safaviy Shayboniyxonga qarshi qo'shin tortdi va 1510 yil dekabrda Marv yonidagi jangda Shayboniyxonning 17 minglik armiyasi qirib tashlandi. Sayboniy asirga olinib kallasini kesildi va uni kallasidan shox Ismoil sharob ichadigan idish yasatdi. Shayboniyxonning boshsiz jasadini qarindoshlari Samarqandga keltirib dafn qiladilar, qabr ustiga sag'ana o'rnatadilar. Bu sag'ana hozirgi Registon maydonining shimoli sharq tarafidadir.

Ismoil Safaviy butun Xurosonga ega bo'lib chegaralari Ozarbayjondan Bog'dodgacha cho'zilgan Eron davlati hududlarini yanada kengaytirdi.

Shayboniyxon o'ldirilgach, Xorazm ham Eron shoxi Ismoil qo'li ostiga o'tadi va Xorazmda Eronlik "qizilboshlar" xukmronligi boshlandi. Lekin bu uzoq davom etmaydi Shayboniyxon jiyanlari tomonidan g'animglar quvib chiqariladi. Shayboniyxon davlati ayniqsa bu sulola vakillari Ubaydullaxon (1533-1539), Abdullaxon11 (1557-1598) hukmronlik qilgan davrlarda musulmon sharqida yirik va qudratli davlatlardan biriga aylangan edi.

2. Buxoro xonligining tashkil topishi. Buxoroda Ashtarxoniylar sulolasi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Buxoro iqtisodiy va madaniy markaz sifatida Shayboniyxon davridan boshlab ko'chaya boshlagan edi. Shayboniyxon sulolasining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri bo'lgan Ubaydullo Sulton 1533 yilda Shayboniyxon sulolasining oliy hukmdori etib ko'tarildi. 1512 yildan boshlab Buxoroning noibi bo'lib turgan Ubaydulla Samarqandni boshqarib turgan Ko'chkinchixon avlodlari bilan orasi yomonligi tufayli hokimiyatni Buxorodan turib boshqardi.

Buxoro mamlakatning siyosiy-ma'muriy markaziga aylandi. Buxoro rasman xonlik sifatida Shayboniylardan bo'lgan Abdullaxon II davrida 1557 yilda vujudga keldi. Abdullaxon 1557-1598 yilda hukmronlik qildi. Abdullaxon II o'z oldiga ilgari, ya'ni Muhammad Shayboniy davridagi Shayboniylar davlatining kuchli mavqeini tiklash niyatida Toshkent hokimlari, Xisor amirlari, Samarqand sultonlari bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Bu qonli urushlar sababli o'lkada bo'lib o'tgan dahshatli voqealar Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida bayon etilgan. Abdullaxon II o'z hukmronligi davrida olib borgan tinimsiz urushlar natijasida 1573 yilda Farg'ona, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor 1578 yilda Samarqandni o'ziga qaratgach, 1582 yili Dashti Qipchoq hukmdori Baroqxonning o'g'li Boboxonni ustiga ham yurish qildi va uning ustidan g'alaba qozonib, Shohruxiya, Sayram, Ohangaron shaharlarini egalladi. Shundan so'ng sal vaqt o'tmay 1583 yilda Balx shahrini 1584 yilda esa Badaxshonni egalladi. Nihoyat 1595 yilda Xorazm ham. Abdullaxon II tomonidan bosib olindi. Shunday qilib, Abdullaxon II XVI asrning 90 yillarining boshlarigacha butun Markaziy Osiyo yerlarini o'z qo'liga kiritishga muvassar bo'ldi. Abdullaxon II Buxoroni o'z davlatining poytaxti sifatida ma'muriy, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan har tomonlama rivojlantirdi. Uning davlati o'zining iqtisodiy, harbiy va madaniy qudrati jihatidan o'z davrining eng kuchli davlatiga aylandi. Shu bois bir qator dunyo mamlakatlarining. Abdullaxon II davlatiga bo'lgan e'tibori va qiziqishi ortib bordi. Bu o'z navbatida Abdullaxon II ning boshqa mamlakatlar bilan turli sohalardagi aloqalar o'rnatilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi. Xususan, 1558 yilda Moskva knyazi Ivan Grozniy Antoniy Jenkinson boshchiligidagi o'z elchilarini Buxoroga jo'natadi. O'z navbatida, Abdullaxon II ham o'z elchilarini Moskva knyazlari Ivan Grozniy va uning o'g'li Fedorlar huzuriga yuborgan. Bundan tashqari, Abdullaxon II 1572, 1576 yillarda o'z elchilarini Hindiston podshosi Akbarshoh huzuriga yuborib, bu bilan Akbarshohni Eron shohi shoh Abbosga qarshi birgalikda kurashga tortishga harakat qiladi. O'z navbatida Hindiston podshosi Akbar ham sovg'a-salomlar bilan Abdullaxon II ga o'z sovg'a-salomlarini yuborib turgan. Biroq, Abdullaxon II hukmronligining so'ng yillarida Buxoro uchun og'ir kunlar boshlandi. Qozoq xoni Tavakkalxon Moskva podshosi Fedor Ivanovich vasalligiga o'tib, uning yordamida Abdullaxon II ga qarshi kurash boshladi va tez orada Toshkent, Turkiston, Samarqand va Andijon shaharlarini egalladi.

1598 yilda o'z o'g'li Abdumo'min tomonidan, Abdullaxon II ni o'ldirilishi Shayboniylar davlati inqirozini yanada tezlashtirdi. Ammo, Abdullaxon II o'lgach, xonlik taxtiga 1601 yilga kelib, uni 1753 yilgacha ya'ni 150 yildan ortiq boshqargan Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi vakillari Boqimuhammadxondan (1601-1605) tortib to Abulfayzxongacha (1711-1747) davrida Buxoro xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol yomonlashib, mamlakat yanada zaiflashdi. Natijada Eron shohi Nodirshoh 1740 yilda Buxoroni katta qismini bosib oldi va Buxoro taxtiga o'z tarafdori Muhammad Hakim Otaliqni

o'tkazdi. Lekin, 1747 yilda Nodirshoh o'lgach, otasining o'rniga otaliq etib ko'tarilgan Muhammad Rahim Ashtarxoniylar sulolasining ohirgi vakili Abulfayzxonni qatl ettirib, Buxoro taxtini egallaydi va 1753 yilda o'zini amir deb e'lon qiladi. Xonlik esa shu vaqtdan boshlab amirlik deb atala boshlaydi.

Buxoro xonligida iqtisodiy hayot o'ta og'ir bo'lgan. Bunga to'xtovsiz urushlar va taxtda o'tirgan xonu amirlarning ko'pchiligining tuturuqsiz siyosati sabab bo'lgan. XVII-XVIII asrlarda moliya tizimini asosini Buxoroda arablar istilosidan beri saqlanib kelayotgan xiroj(hosilni 5/1 dan 3/1 qismigacha bo'lgan miqdorda yer solig'i va ushr (daromadning o'ndan biri) tashkil etgan. Buxoro xonligida ham Xiva xonliklaridagi singari yerlarning ko'pchilik qismi davlat qo'lida bo'lgan. Buxoroda davlat yerlari "Amloki podshohi" yoki "Amloki sultoni" deyilgan. Bunday yerlar tarixda "Mulki devoni" nomi bilan atalib Buxoro va Xorazm xonliklarida to oktyabr to'ntarishigacha saqlanib keldi. Xonlikda yerning ikkinchi turi "Mulk yerlari" va uchinchi "Vaqf" yerlari bo'lgan. Barcha xonliklardagidek Buxoro xonligida ham sud hukmron sinflar-boy feodal sinflari qo'lida zulm va ekspluatatsiya quroli edi. Hamma qozilar tepasida oliy qozi (qozi kalon) turgan. U amir tomonidan tayinlanib, davlatdagi hamma qozilar ishi ustidan nazorat qilgan.

Sud jarayoni islom shariati asosida olib borilgan. Sudning chiqargan hukmi o'zgaras bo'lgan. Chunki uning hukmini boshqadan ko'rib chiqadigan tashkilot bo'lmagan. Qizig'i shundaki, sud jarayonida ikkita ayolning sudga bergan ko'rsatmasi bir erkakning ko'rsatmasiga teng bo'lgan. Jazolar turlicha bo'lgan faqat chiqarilgan o'lim jazosi ijrochi uchun qozilar amirdan ruxsat olishlari zarur bo'lgan.

Xonlikda davlat daromadining ko'p qismi savdodan olinadigan to'lovlar hisobiga yaratilar edi. Buxoro xonligida qo'shinlar muntazam bo'lmay, lozim bo'lganda xonning maxsus farmoniga asosan to'planadigan o'z shaxsiy gvardiyasiga ega bo'lgan. Ular ko'proq o'zga davlat qullaridan (ruslar va qolmiqlardan) tashkil topgan. Buxoro amirligida qo'shinlar soni XIX asrning 60 yillariga 10-11 ming kishi bo'lgan.

XIX asr boshlarida Buxoro xonligida 36000 ming navkari bo'lgan. Ularning bir qismi Buxoroda, qolganlar xonlikning boshqa yerlarida yashab amirdan "tanho" sifatida olgan yer va dehqonlariga ega bo'lganlar.

Buxoroda artilleriya deyarli yo'q bo'lsa, 13 ta stanoksiz mis to'pi bo'lgan. Shulardan bittasidan bayramlarda otilgan.

Buxoro xonligida bu davrdagi madaniyat haqida gapirilganda shuni aytish kerakki, o'zaro urushlar madaniyatni ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. Xonlikda aqidaparastlik avj oldi. Bu yerda 300 masjid 50 dan ortiq madrasalar bo'lsa, ular maorifni rivojlantirishga yetarlicha hissa qo'sholmadi.

Xonlikdaana shu davrda matematika, astronomik sohalarida yirik olim Mullo Tursun Faroziy, musiqachi Kavkabiy, yirik falsafashunos olim mullo Yusuf Qorabog'iy (1644-1648) va boshqalar yashab ijod etgan.

Tarix sohasida hali qator ishlar qilingan. Ashtarxoniylar inqirozi haqida ularning so'ngi vakillaridan bir nechalarini ayanchli o'limi haqida kuylovchi "Muqimxon tarixi", "Ubaydulloxon tarixi" kabi tarixiy asarlar yozilgan. Xonlikdaayniqsa, Subhonqulixon davrida (1680-1700) maxsus madrasa-shifoxona tashkil etilgan, uning o'zi Nishoniy taxallusi bilan she'rlar yozgan, ko'p olim fuzololarni, shoirlarni to'plagan haqida ma'lumot bor.

Subhonqulixon davrida Turdi va Maxmur kabi shoirlar ijod etgan. 1682 yilda Muhammad Vali Samarqandiy degan shoir "Muzakkirul ashob" majmuasini tuzib unda shu davrda yashab ijod etgan 200 dan ortiq adabiyot arboblarning tarjimai holini bergan.

Muhammad Balxiy "Subhonqulixon" asarini, Mirmuhammad Amin "Ubaydulloxon" asarini yozdi. Shu davrda XVII asr shoirlaridan Sayido Nasafiy G'ofir Samarqandiy (attor), Masiho (temirchi), Manzur Samarqandiy (etikdo'z), Mulla Sarafroz, Fitrat kabi demokratik shoirlar yashab o'tgan.

Bu davrda So'fi Olloyor va Mashrab yashab sufiylik g'oyalarini ilgari suradi. Sufiyalar tasavvufning 4 qoidasi: Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatgaamal qilishni ilgari suradilar. Ular tangriga bo'lgan muhabbatlarini, she'rlarda izhor etadilar. Shuningdek, ular inson, mahbub, moddiy dunyo noz ne'matlaridan bahramand bo'lish haqida kuylaydilar.

Me'morchilik ohasida ham ancha ish qilinadi. Samarqanddagi Registon atalmish bosh maydon shu davrda shakllanadi. Shu davrning eng boy kishilaridan bo'lgan Yalangto'shbiy, Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdirdi. Xo'jaAhror qabri oldida madrasa va nomozgoh qurildi. Abdulazizxon davrida(1645-1680) bir qancha madrasalar qurildi. Hali XVI asrdayoq Buxoro o'zining ajoyib rassomlari, husnihatchilari bilan shuhrat qozongan edi. Qulyozmalarni husniyat qilib ko'chirish, miniatyuralar yozish, avjiga chiqqan edi. Bu davrda Buxoroda yashab ijod etgan rassom Shayxzoda Mahmud, Abdullolar o'z davrining atoqli husnihatchilari edi.

Muhammad Rahimdan keyin Buxoro taxtida mang'itlar sulolasidan Shohmurod, Haydar, Nasrullo, Muzaffar, Abdulahad, Olimxonlar o'tirishdi. Ularning har biri hukmronlik qilgan yillar o'ziga xos murakkab ziddiyatli xususiyatlarga ega. Buxoro xonligi 1920 yil 2 sentyabrda bolsheviklar tomonidan ag'darildi.

3. Xiva xonligining tashkil topishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol.

Xorazmda 1511 yilda Eronlik "qizilboshlarga" qarshi fitna uyushtirildi. O'z vaqtidaAbdulxayrxonga qarshi chiqqan Xorazmdagi o'zbek urug'lari o'sha Qipchoq Dashtida Shayboniylar bilan yonma-yon yashagan va ular bilan nodo'stona munosabatda bo'lgan Berka sultonning ikki o'g'li Elbarsxon bilan Bilbarsxonni Xiva taxtiga yashirincha taklif qiladilar. Aka-ukalar bu takliflarga ko'ra Xivaga keladilar. Xiva xalqi "qizilboshlarni" ag'darib Elbarsxonni xon etib ko'tardilar. Bu voqea 1511 yilda sodir bo'ladi. Xonlik tasarrufiga Xorazm-

Amudaryo etaklaridagi qadimiy dehqonchilik vohasi, Mang'itqishloqning Abulxon tog'lari Mashhadi Mirsiyon va O'zboy atrofidagi hududlar kirgan. Elbarsxon tez orada Xorazm yerlarini shimoliy Xurosonning kattagina yerlari, Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar va Turkistonning janubiy yerlarigacha bo'lgan yerlar hisobiga kengaytirildi. Va ana shu hududda Xiva xonligiga asos soldi. Xonlikning poytaxti dastlab vazir shahri, keyin Ko'hna Urganch va Xiva bo'lgan.

Biroq, 1511 yilda Elbarsni Xiva xonligiga asos solgan bo'lsada, uning o'zining davridayoq xonlik bir necha feodal egaliklarga bo'lingan bo'lib, ularni boshqarayotgan shahzodalar o'rtasida uzluksiz feodal urushlar bo'lib turdi. Ayniqsa, bu urushlar 1538 yilda Elbarsxon o'lgach (Elbarsxon 1511-1538 yilda hukmronlik qilgan) uning vorislari davridako'chayib ketadi. Buning ustiga Xiva xonligiga qarshi Shayboniylardan Ubaydullaxon (1538) yurish qildi va Xiva xoni Avanesni o'ldirib, o'rniga o'z o'g'li Abdulazizni o'tkazadi. Uning davrida yana feodal urushlar ko'payadi. Buni ayniqsa Xiva taxtida Arab Muhammad (1602-1643) o'tirgan davrda yaqqol ko'rish mumkin edi. Qisqasi XVI asr 40-yillaridan boshlab Xiva xonligida o'zaro kurashlar, ayniqsa xonlikdagi o'zbeklar bilan turkman urug'lari o'rtasidagi ziddiyatlar, qolaversa atrofidagi qozoq va qalmiqlarni hujumlari xonlikni zaiflashtirdi. Xonlikdagi bunday og'ir ahvoldan foydalangan Buxoro xonlari Subhonqulixon (1680-1702) va Eron shohi Nodirshohlar (1740) Xiva taxtini o'z qo'llariga kiritadilar. Biroq Xiva xonligida bundan keyin ham tinchlik bo'lmadi. Bu yerda Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar ko'tarilib turdi. Bundan foydalangan o'zbek qabilalaridan biri-Qo'ng'iro't urug'ining boshlig'i Muhammad Amin Inoq xonlik taxtini egallab, xonlikda yangi-qo'ng'iro't sulolasiga asos soldi.

Xiva xonligida (XVI asr) boshqaruv tizimi juda murakkab bo'lib, urug'chilikka asoslangan byurokratik tizim mavjud edi. Xivada boshqa xonliklardan farqli o'laroq inoq degan lavozim bo'lib, bu lavozimni egallagan odam xondan keyingi odam hisoblanib, amir-ul-umaro, ya'ni hukmdorlar hukmdori deb atalardi. Xonlikda devonbegi ham bo'lib, u xonning o'zidan keyingi amaldor hisoblanardi. Yana qo'shbegi degan lavozim bo'lib, o'nga xonlikning janubiy qismidagi o'troq aholi buysunardi. Bu yerda xon, vazir va qushbegidan tashqari yana 5 kishidan iborat xon maslahatchilari (ular urug' boshliqlaridan tuzilardi) bo'lgan har urug' boshliqlaridan (inoqlar va otaliqlar) 2 kishi davlat boshqaruviga kirgan.

Xiva xonlik boshqaruvida yasovullar shtati bo'lgan. Yana yuzboshi, mingboshi kabi amaldorlar bo'lgan. Yana joylardagi amaldorlar o'zlarining quyi boshqaruv tizimlariga ega bo'lib, o'z yerlarini mustaqil boshqarishgan. Xonlik o'z navbatida okruglarga bo'lingan bo'lib, ularni hokimlar va qozilar boshqargan. Xonlikda yashovchi turkman, qozoq va qoraqalpoqlar hokimlarga buyso'nmay, faqat o'zlarining urug' boshliqlariga itoat qilganlar. Turkmanlarda ular bek hamda vakillar deyilsa, qoraqalpoq va qozoqlarda biy deb atalganlar. Xonlikda din ahllari: so'filar, shayxlar katta hurmat e'tiborga ega bo'lganlar.

Xonlikda XIX asr 1 yarmida ham feodal munosabatlarning rivojlanib borishiga qaramay, o'tmish patriarxal hayot qoldiqlari saqlanib qolayotgan edi. Yer hamda suv xon, yirik feodallar qo'lida edi. Ayrim feodallar qo'li ostidagi yerlar 15 ming tanobni tashkil qilganda, oddiy jamoaa'zosi bo'lgan dehqonning yeri 1-2 tanobdan oshmas edi.

Rus elchisi (Moskva) Ivan Xoxlov ma'lumotiga ko'ra XVII asrda xon qo'shinlari soni 15 mingdan 30 mingga bo'lgan.

Xiva xonligi iqtisodini bu davrda og'ir soliqlardan tushgan pullar tashkil qilgan. Iqtisodiy hayot xonlikda juda og'ir bo'lgan. Xiva xonligida yerning bir qismi hukmronlik qildayotgan sulola a'zolariga (to'ralarga), shuningdek harbiy boshliqlarga (sarkardalarga) hamda vaqf yerlari sifatida masjid-madrasalarga berilgan. Bu yerlarda ishlovchi ijarachilar "bevanlar", "yarimchilar" deb atalganlar. Oddiy mehnatkash xonga "salgut" deb atalgan og'ir yer solig'ini to'lagan. Yana "begar" deb atalgan majburiyat bo'lib, bo'ngaasosan har bir xonadondan bir kishi 12 kun davomida xonga ishlab bergan. Aholining dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qismi suvni yetishmasligidan azob chekkan. Boylarning yerlarida qullar ishlagan. Shahardagi hayot bu davrda og'ir bo'lgan. Shahar aholisi hunarmandchilik, ayrimlari dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bug'doy, arpa ekkan, qurt boqishgan. Savdo kam rivojlangan. Chunki qarochilar hujum qilib turgan. Savdoni og'ir ahvolga tushishi shahar aholisi hayotini yomon ahvolga tushirib qo'yganini 1558 yilda xivani kuzatgan Jenkinson yozadi. 1573-1575 yilda Amudaryo o'z izini o'zgartiradi natijada eski izi atrofidagi joylashgan qishloq va shaharlarda hayot to'xtaydi. Odamlar eski Urganchdan, yangi Urganch janubroqqa o'tib yashaydigan bo'ladi. Amudaryo eski o'zanini qurishi xonlik markazini Xivaga ko'chishiga sabab bo'ladi.

Amudaryo o'zanini o'zgarishi mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta'sir qildi. Xonlik xazinasini bo'shab, hatto amaldorlarga ham yillab oylik to'lanmay qoldi. Qishloq xo'jaligida asosan qo'l mehnatidan foydalanilgan. Mehnat qurollari qoloq bo'lgan. Bu o'z navbatida xonlikda iqtisodiy ahvolni yomonligiga sabab bo'lgan Har uch xonlikda, jumladan Xiva xonligida ham o'z puli bo'lgan. Bu pullar oltin, kumush tangalar va mis puldan iborat bo'lgan.

XVIII asr boshlariga kelganda iqtisodiy tushkunlik vujudga keldi. Bo'nga sabab shu davrda o'zbeklar bilan turkmanlar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar, Buxoro xonlarining Xiva xonlari ichki ishlariga aralashuvi, Qozoq qolmiqlarini to'xtovsiz hujumlari, Eron shohi Nodirshohni Xorazmni 1740 yilda bosib olishi (Elbarsxon davrida) bo'ldi.

Bundan foydalangan Petr 1 1714-1717 Xorazmga Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini yubordi. Bu vaqtda Xiva taxtida Sherg'ozini xon o'tirgan edi. (1715-1718 yillar)

Xiva xonligida aholi XIX asr I yarmida 350000-500000 ni tashkil qilgan. Asosiy qismi o'troq aholi edi. Bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida to'xtaladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash zarurki, davlat tuzumi 1804 yilda Qo'ng'iro't inoqlari yirik vakillaridan biri Muhammad Rahimxon Xiva taxtini egallab, 1806-1825 yillar davomida xonlik qiladi. Uning davrida xonlik har taraflamako'chayadi va markaziy hukumat mustahkamlanadi. Lekin uning vorislari Muhammad Eminxon, Qutlimurod, Olaqullilar davrida Xiva xonligidagi ahvol yana murakkablashdi. Xiva xonligi 1920 yil fevralida bol'shevoylar tomonidan ag'darildi.

4. XVIII asrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. Qo'qon xonligining tashkil topishi. Qo'qon xonligida madaniy hayot.

O'rta Osiyoda eng keyin vujudga kelgan xonlik bu Qo'qon xonligi edi. Xonlikka 1710 yilda ming qabilasidan chiqqan Shohruhbiy asos soldi. Bu yerda shuni alohida qayd etish zarurki, Shayboniylardan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida shu sulola vakillarining taxt uchun o'zaro kurashlar tufayli Buxoro xonligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha nochor ahvolga tushib qolgan edi. Bundan foydalangan Farg'ona XVIII asr boshlaridayoq Buxorodan mustaqil bo'lib ajralib chiqdi. Bu yerda dastlab hokimiyatni Chodak qishlog'i xo'jalari qo'lga kiritdi. 1710 yilda esa xo'jalardan hokimiyatni o'zini Chingizxon avlodidan deb hisoblagan, o'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Shohruhbiy oladi. Qo'qonning birinchi xoni Shohruhbiy 1710-1721 hukmronlik qiladi.

Minglar tez orada o'z qo'llariga Sirdaryo bo'yidagi yerlarni hamda Yettisuvning bir qismini kiritadilar vaana shu hududda Buxorodan mustaqil yangi davlatga ya'ni xonlikka asos soladilar. Shohruhbiy o'z davlatining poytaxti etib, Qo'qon shahrini tanlaydi. Bu shahar arab sayyohlarning xabariga ko'ra juda go'zal va bahavo shahar bo'lib, Huqand yoki Havoqand qishlog'i o'rnida qurilgan.

Qator tarixiy ma'lumotlar jumldan tarixchi Abdulkarim Buxoriyning qoldirgan ma'lumotlariga ko'ra "Farg'ona" deb atalgan bu mulk ayniqsa Shohruhbiyning o'g'illari Muhammad Rahimbiy (1721-1740) va Abdulkarimbiy (1740-1760) hukmronligi davrida iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ancha rivojlanadi. Bu davrda uning hududlari kengayib, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon kabi shaharlarda savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlanadi.

Norbutabiy (1769-1800), Olimbek (1800-1809) Umarxon (1809-1822) hukmronligi davrida esa xonlikka atrofdagi yerlarni qo'shib olish shuningdek, markaziy hokimiyatni ko'chaytirish maqsadida joylardagi feodallar va beklarning o'zboshimchalik hatti-harakatlarini bostirishga qaratilgan ishlar olib borildi.

Masalan, Norbo'tabiy o'z hukmronligining dastlabki yillaridayoq Chust va Namangan hokimlarining markaziy davlatga buysunmay o'zboshimchalik bilan siyosat olib borishlariga qarshi shiddatli kurash boshladi va uni g'alaba bilan yakunladi. SHundan so'ng yana bir o'zboshimcha hukmron-Xo'jand hokimi ustiga yurish uyushtirilib, uning ustidan ham g'alaba ta'min etilib, ancha yillar

davomida Buxoro amirligiga buysunib kelgan bu shahar Qo'qon xonligiga uzil-kesil qo'shib olindi.

O'zining to'xtovsiz urushlari va qattiqqo'llik bilan olib borgan siyosati tufayli Qo'qon xonligining ham hududiy ham siyosiy jihatdan qudratini yuksaltirgan Olimxon 1809 yilda fitna yo'li bilan o'ldirilgach, shu fitnada faol qatnashgan uning ukasi Umarxon xonlik taxtiga o'tiradi. Umarxon o'zining xonlik yillarida Buxoro amirligiga qarashli Turkiston yerlarini bosib olish uchun urush olib bordi. U bu bilan chegaralanib qolmay, Sirdaryoning yuqori qismida yashovchi qozoqlar ustiga ham yurish qilib, ularni ham o'z hududiga qo'shib oladi. Toshkent, Buxoro, Xiva yo'llari kesishgan joyda Oqmachit qal'asini qurdirdi. Uning davrida xonlik har taraflama yanadako'chaydi. Buni sezgan Umarxon o'ziga "Amir al-Muslimin" unvonini berilishini talab qildi va bo'nga erishdi. Natijada u o'z nomini juma nomozda xutbaga qo'shib o'qitish hukmiga ega bo'ldi. Bundan tashqari uning nomi bilan tanga pul ham zabt etildi.

Umarxon o'lgach xonlik taxtini uning 12 yashar o'g'li Muhammad Ali (1822-1842) egalladi. Uning davrida xonlikda bir qator mavhum voqealar sodir bo'ldiki, bular xonlikni uning aholisini keyingi hayotiga har taraflama salbiy ta'sir qilmay qolmadi. Gap shundaki, Muhammad Alixon 1829 yillar davomida SHarqiy Turkiston va Qoshg'arga, hamda Qorategin tojiklari ustiga muvaffaqiyatli har-xil yurishlarni amalga oshirdi va o'ziga "G'oziy" ya'ni din yo'lida kurashuvchi degan nomni oldi. Biroq, sho'nga qaramasdan mamlakatdagi din peshvolari ichida uning dushmanlari ham ko'p edi. O'sha din peshvolari Muhammad Alini shakkok, xudodan qaytgan deb e'lon qilishdi va uning ustidan Buxoro amiri Nasrulloagarz qilishdi. Buxoro amiri tomonidan 1840 yilda Qo'qonga yuborilgan elchi Muhammad Alixonni o'gay onasiga uylangan va kofir deb e'lon qilingan degan ig'vo gapni olib keldi. Shundan keyin xonligi va Buxoro amirligi o'rtasida urush kelib chiqadi. Urushda Qo'qon xoni yengilib, Xo'jand shahrini Buxoroga topshirishga majbur bo'ladi.

1842 yilda Qo'qonda Muhammad Alixon uning zulmiga qarshi xalq qo'g'oloni boshlanadi. Buxoro amiri Nasrullo bundan foydalanib, Qo'qonga lashkar tortib boradi, Qo'qonni qo'lga kiritib, 3 kun talon taroj qiladi va Qo'qon xoni Muhammad Alixonni, uning onasi o'z zamonasining ajoyib shoirasi Nodirabegimni yosh o'g'li Muhammad Aminni bir qancha saroy xizmatchilari bilan birgalikda xalq ko'zi oldida qatl ettiradi, Qo'qon Buxoroga qo'shib olinadi. Biroq 3 oy o'tgach 1842 yilning yozida Qo'qonda Nasrulloaga qarshi qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, uning hokimiyati ag'darilib tashlanadi. Shundan keyin, Qo'qon taxtiga sobiq Qo'qon xoni Olimxonni Talasda yashayotgan jiyani Sherali taklif etildi va u 1842-1845 yillar davomida xonlik qildi.

Biroq, 1845 yilda Sheralixon bilan uni taxtga ko'tarilishiga sababchi bo'lgan qipchoqlar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyat tufayli Sheralixon o'ldiriladi. Taxtga uning 13 yashar o'g'li Xudoyorxon qo'yiladi. Xudoyorxon 1868 yili Chor Rossiyasi bilan sulh tuzib, amalda uning vassaliga aylandi.

Xudoyorxonni Chor Rossiyasi bilan yaqinlashishiga qaratilgan sotqinlik siyosati va uning xonlikdagi zulmi xalqning g'azabini uyg'otadi. Natijada o'nga qarshi xalq qo'zg'olonlari boshlanadi. Ana shunday qo'zg'olonlardan eng kattasi 1872 yildan to 1878 yilgacha davom etgan Po'latxon va Abdurahmonxon Oftobachi boshchiligidagi qo'zg'olon boshladi. Bu qo'zg'olonlardan qochib Xudoyorxon Toshkentga chor generallari oldiga yordam so'rab keladi. Chor generallari oq podshoning farmoni bilan 1876 yil 19 fevralda ja'mi taxtida 16 ta xon hukmronlik qilgan Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona general-gubernatorligiga qo'shib yubordilar.

Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va madaniy hayot ham o'ziga xos bo'lgan. Xonlik hududidagi bir tomondan Sirdaryo bilan Qorategin o'rtasida joylashgan Farg'ona viloyatidan torib to Turkistongacha, ikkinchi tomondan Qoshg'ardan to Balxash ko'llarigacha bo'lgan katta yerlar kirgan. Xonlik aholisi o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, yahudiylar, afg'onlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlardan tashkil topgan. Xonlik tashkil etilgan vaqtda unda yashovchi aholining umumiy soni 1,5-2 mln kishini tashkil etadi. Qoraqalpoqlar gilam to'qish bilan tanilgan. O'zbeklar, tojiklar asosan dehqonchilik, shuningdek kosibchilik bilan shug'ullansalar, qirg'iz va qozoqlar chorvachilik, qoraqalpoqlar gilam to'qish bilan band edilar. Yahudiylar, hindi, afg'on va boshqa xalqning vakillari esa savdo bilan shug'ullanganlar. Yahudiylar yana musallas tayyorlash bilan mashg'ul bo'lganlar. Qo'qon xonligida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi suvdan foydalanishni mukammal egallaganliklari bilan ajralib turar edilar. Bu yerda sun'iy sug'orish ishlari keng ko'lamda olib borilgan.

Dehqonchilikda bug'doy, arpa, tariq, jo'xori, sholi, mosh, loviya, paxta va boshqa ekinlar ekilib, ulardan yaxshi hosil olingan. Yer egaligining asosan 4 turi mavjud bo'lgan: Birinchisi, xiroj yerlari (zamini xirojii) asosiy yer egalarning yerlari. Ikkinchisi, davlat yoki amlok yerlari (zamini davlat, zamini amlok) bu xon ixtiyoridagi yerlar bo'lgan. Uchinchisi xususiy yerlar bo'lgan, yerlar ichida o'rtachasi hisoblangan ya'ni, xon yerlaridan keyingi o'rinda turgan, (mening fikrimcha), bu yerlar xonning maxsus farmoyishi bilan berilar edi. To'rtinchi, vaqf yerlari, bu yerlar diniy muassasalarga qarashli edi, unda asosan ruhoniylar foydalanar edilar.

Xiroj yerlari yer egalari, xususiy yerlar bo'lib, undan olingan soliq xiroj deb atalar va hosilning 1/5 qismidan to 1/8 qismigacha tashkil qilar edi. Xorijning bir qismi hamma xonliklardagi kabi bu yerda ish bilan olingan.

Amlok yerlaridan xon xon ba'zan ayrim kishilarga taqdim etar, bunday yerlar tanho deb yuritilar edi. Bu yerlardan soliq yig'ish huquqi tanhodorlarga berilar edi. Tanhodorlar o'z yerlarini boshqalarga ijaraga berishga yoki o'zlari bevosita soliq yig'ish huquqiga ega edilar.

Xususiy yerlar xon tomonidan ayrim kishilarga u yoki bu xizmati uchun maxsus yorliq bilan berilar va bunday yerga ega bo'lgan shaxslar hamda jamoalarning bari soliqdan ozod qilinar edi. Bunday yerlarni "mulki hur" deb

atalar edi. Undan tashqari, “zamini ushri” deb yuritiladigan yerlar ham bo’lgan. Ulardan hosilning 1/10 qismi barobarida soliq olinar edi. Rasmiy soliqlardan tashqari yana turli xil favqulodda soliqlar bo’lgan, bo’nga misol qilib kumush solig’ini olishimiz mumkin.

Rasmiy soliqlardan tashqari yana boshqacha qilib aytganda, markaziy soliqlardan tashqari dehqonlar yana rayon boshlig’i uchun kafson dorug’a, amir uchun, qishloq oqsoqoli uchun, mushtak degan soliqlar to’lar edilar. Amlokdorlar kelguncha dehqonlar hosilni yig’ishtirib, o’rib olishga haqlari yo’q bo’lgan, hamda soliq yig’uvchilar kelib hosilni taxminiy hisoblab chiqar edilar va sho’nga qarab olinadigan soliq miqdorini belgilab chiqar edilar. Ular dehqonlarni hohlagancha talash huquqiga ega bo’lganlar.

Bunday soliqlardan tashqari, yana urush vaqtlarida xon sayohatga chiqqanda, xonga sovg’a berish vaqtlarida aholidan juda ko’plab soliqlar olinar edi. SHahar aholisi uchun soliq uylar, ishxonalar va do’konlar miqdoriga qarab belgilangan.

Hunarmandlar ikki tabaqadan iborat bo’lib, yuqori tabaqani ustalar, quyi tabaqani shogirdlar, hammollar, kunbay ishlovchi ustalar tashkil qililar edilar.

Asosiy hunar xillari ip va ipak matolar tayyorlash, temirchilik, egar-jabduq yasash, buyoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, arava va omoch yasash, mum ishlash, pista ko’mir tayyorlash, qamish tomlar yasashdan iborat bo’lgan. Qo’qonda xonga qarashli porox ishlash va qog’oz tayyorlash korxonalari bo’lgan.

Qo’qon xonligi hududida yer osti boyliklari ham ko’p bo’lgan va shular jumlasidan, Namanganda oltin, Andijonda kumush va qo’rg’oshin, Tyan’-shanning shimoliy tarafida, Qoratog’da biroz mis va temir rudalari olingan. Selitra Chakkiso’z, O’ratepa, Xo’jandda, oltingugurt La’likon, O’ratepada uchrar edi. O’sh va Namanganda toshko’mir olinar edi. XIX asrda Qo’qon shahrida ip gazlama to’qish markazlashdi, jun ishlash Toshkentda, temir asboblarni Namanganda markazlasha bordi. Soliq, asosan naturada bo’ldi va shu bilan birga pul bilan ham soliq to’lanadigan bo’lib qoldi.

Rossiya bilan savdo aloqalari rivojlandi. Rossiya O’rta Osiyo o’z navbatida, paxta, jun, chorvachilik, bog’dorchilik mahsulotlari yetkazib bergan.

Qo’qon xonligi o’zining atrofdagi boshqa xonliklar bilan o’zaro savdo munosabatlari olib borardilar. Qo’qon xonligi Buxoroga meva, ipak chiqarar edi. (Xitoy mollari ham shu jumladan), Buxoro esa o’z navbatida paxta, jun, yupqa matolar, rus chiti kabi mollarni berardi.

Qo’qon xonligida davlatni boshqarishda ham boshqa xonliklarga qaraganda ayrim o’ziga xos xususiyatlar bo’lgan.

Xonlikda xondan keyingi asosiy amaldor mingboshi bo’lganki, u huquq va vazifasi jihatdan Buxoro xonligidagi Qushbegiga teng bo’lgan. Qo’qon xonligining ma’muriy-siyosiy sohasida bevosita xon tomonidan Toshkentni idora etish uchun saylanadigan beklar begini ahamiyati katta bo’lgan.

Qo'qon xonligida muhtasib lavozimi ham bo'lib, u Xiva va Buxoro xonliklaridagi rais vazifasini bajargan. Qo'qon xonligida muhtasib zimmasiga yanaaholining xulq-atvori, yurish turishi hamda shariat, savdo-sotiq, talablarini bajarish ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

Xonlikda mirshablar, ya'ni, qo'rboshilar bo'lib, ular kechqurun bozorlar va osoyishtalikni saqlash bilan band bo'lganlar.

Qo'qon xonligi viloyatlarga bo'linar. Viloyatlar beklklarga bo'linar, beklklar esa o'z navbatidaaminlik va oqsoqollikka bo'linar edi. Viloyatlar ustidan hokimliklar, beklklar ustidan beklar, oqsoqolliklar ustidan oqsoqollar, aminliklar ustidan aminlar hukmronlik qilar edi. Xon mamlakat ustidan asosiy boshliq hisoblanar, biroq mamlakatning davlat ishlarini olib borish uchun davlat kengashi tashkil qilinadi. Xon kengashiga har turli unvonga ega amaldorlar kirar (shu jumladan ruhoniylar ham). Xon kengashining ba'zi a'zolari ba'zi bir viloyatlarning hokimi hisoblanar edi. Biroq, ular o'z viloyatlarida bo'lmasdilar. Boshqa hokimlar viloyatlarda, ya'ni o'z yerlarida yashardilar. Xon oldiga faqat sovg'alar topshirish vaayrim xizmat ishlari uchun kelardilar. Qishloqlardagi aminlar va oqsoqollar viloyat hokimlari tomonidan tayinlanar, aholini ba'zi sudga doir ishlarini qarash huquqiga ega edilar.

Asosiy sud organi qozi hisoblanib, ularni xonning o'zi tayinlar edi. Qozilar ham diniy, ham fuqarolik ishlarini ko'rar edilar. Qozilar hatto o'lim hukmini chiqarishga ham huquqli edilar.

Xonlikda mingboshidan keyin qushbegi, dodhoh, ponsodboshi va parvonachi deb atalgan amaldorlar turganlar. Ular viloyatlar ustidan hukmronlik qilganlar, urush vaqtlarida qo'shinlarga qo'mondonlik qilganlar, tinchlik vaqtlarida xon kengashida qatnashib, davlat ishlarini hal qilganlar. Xonlikdaarmiya asosan otliqlardan iborat bo'lib, ular faqat urush holatlaridagina chaqirilgan. Ularda na qattiq harbiy intizom, na bir xil harbiy kiyim bo'lgan.

Harbiy qismlar asosan viloyat hokimlarining qo'lidagi qo'shinnardan tashkil topgan. Harbiy qismlar asosan viloyat hokimlarining qo'lidagi qo'shinnardan tashkil topgan. Harbiy qismlar 3 ga bo'linar edi: Sipoh (kavaleriya), Sarboz (piyodaaskarlar), To'pchi (artilleriya). Sipohlar otliq askar bo'lib, xon gvardiyasi yoki viloyat hokimlar qoshidagi harbiy qismlar sostaviga kirar edi. 1830 yilda Qo'qon xonligining eng yirik harbiy qismi Toshkent otryadida 15 ming sarboz bo'lgan. Qo'qon xonligi qo'shinlarining qurollanish darajasi Buxoro xonligiga qaraganda yomonroq bo'lgan. XIX asrning 50-yillarida xonlik qo'shinlarining 1/7 qismigina pilikli mitliqlar bilan qurollangan bo'lib, butun xonlikda 100 ga yaqin misdan quyilgan zambaraklar bo'lgan holos. Boshqa xonliklardagi kabi yerlar asosan boylar, amaldorlar, o'ziga to'q mehnatkashlar, diniy xodimlarning qo'lida edi. Yerga ega bo'lmagan dehqonlar boylar va katta yer egalarining qo'lida og'ir sharoitlarda ishlar edilar. Ana shunday dehqonlarni chorakorlar der edilar. Chorakorlar hosilni yiqqanlaridan keyin 1/5 qismini xirojga va yollangan ishchi kuchiga to'lagandan so'ng 1/4

qismini o'zigaolib qolar edi. Agar paxta yoki juxori ishlab chiqarilgan bo'lsa, haligi to'lovlardan so'ng, $\frac{1}{3}$ qismi o'nga qolar edi. Qo'qon xonligida yashovchi Nalivkin va Nalivkinalar u yerdagi aholini hayoti haqida gapira turib shunday deyishgan. "Ular ochlikka (har doim och yashashga) o'rganib ketganlari uchun, yilning ma'lum fasllaridagi ochlik ular uchun qishdagi sovuq va yozdagi issiq kabi tabiiydir". Kambag'al aholining uylari guvaladan yasalgan, kapa, yerto'la ko'rinishidagi uylar bo'lganligini aytib o'tish kerak. Bunday uylarga yerto'la bo'lsa, eshik bilan mo'ri yagona nur tushib turadigan joy bo'lgan. Havo qattiq sovuq bo'lganida eshik mahkam yopilar, mo'ri kigiz bilan to'silar edi, sassiq qora chiroq yoqib o'tirilar edi.

Maorif tizimi asosan islom dini asosida tuzilgan edi, ya'ni 2 bosqichga bo'lingan bo'lib, 1 – bosqichda bilan o'quvchilarga (kaltaklash usuli bilan) Qur'on va ba'zi boshqa kitoblarni yodlattirar edi. Bu bosqichning muddati 2-5 yil edi. 2-bosqichda oliy darajada ma'lumot olinar edi. Muddati 20 yilgacha edi.

Yuqorida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar Qo'qon xonligida san'atga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir natijasida bu yerda ham adabiyotning 2-qismi ya'ni demokratik va feodal-klerikal oqimidir. Demokratik adabiyot namoyondalari sifatida G'oziy, Hoziq, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy kabi zamonasining ajoyib shoiru-shoiralarini ko'rsatish mumkin. Biroq, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, taqdir taqozosi bilan mamlakatimiz hududida vujudga kelgan sulola vakillarining aybi bilan boylik, yer, yurt va taxt talashib doimiy ravishda bir-birlari bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Bu o'z navbatida mamlakat xalq boshiga son-sanoqsiz kulfatlar keltirdi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda tarix taqozosi bilan vujudga kelgan uch xonlikdagi ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayot haqida gapirar ekanmiz, shu narsaga e'tiborni qaratishimiz kerakki, eng avvalo har uchchala xonlik ham o'sha davrdagi hukmron sinflar manfaatini himoya qilishga to'la bo'ysundirilgan ediki, bu navbatida o'lkada iqtisodiy, madaniy va harbiy sohada nochorlikni keltirib chiqardi. Bundan foydalangan Chor Rossiyasi o'lkani bosib olib, o'z mustamlakasiga aylantirdi.

9-Modul: O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tamonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik.

1.XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va o'zaro munosabatlari.

2.Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligi hududlariga xujumi.

3. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi.

4. Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi va vassaliga aylantirilishi.

5. Rossiya imperiyasining o'lkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Turkistonda iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda hukmronlikni o'rnatish tadbirlari.

6. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari.

7. Birinchi jahon urushining o'lka hayotiga ta'siri.

1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va o'zaro munosabatlari.

O'zbek xonliklari xayoti ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy koloklik, turgunlik sezilarli darajada edi. Bu bir qator omillar bilan bog'liq edi. Asrlar davomida bir butun bo'lib qolgan mamlakatning yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan aholining uchga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasidagi urushlar, xar bir xonlik ichidagi feodal tarqoqlik va uzaro xokimiyat uchun tinimsiz davom etgan ichki nizo, janjallar butun mamlakatni vayron qildi. O'zaro urushlar kabilalar ko'chishlarini keltirib chiqardi. Bu jarayon etnik mojarolarni keltirib chiqarar edi.

Aholi bek va xonlarning amaldoru-mansabdorlarning zuravonligidan azob chekar edi. Turmush darajasi past bo'lib, aholi uzi uchun eng zarur bo'lgan narsalarni ham xarid kila olmas edi. Asosiy boylik bo'lgan yerga mulkchilikning eski usuli xali ham uzgarmasdan kelar edi. Xonliklarda xukmdor yerning birdan-bir egasi bo'lib yerda ishlovchi dexqonlarga yer ijara tarzida biriktirilgan edi. Dexqon yer egasi emas yetishtirilgan xosilning egasi edi. SHu sababli ham u yerni asrab-avaylashga intilmas edi, Dexqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o'sha bir juft xo'kiz, omoch tarzida kolib ketgan edi. Irrigatsiya ishlariga ahamiyat pasayib sug'oriladigan yerlar qisqarib borar edi.

Xonliklarda sanoat ishlari, tovar-pul munosabatlari rivojlanmadi. Savdo munosabatlari hamon ayirboshlash tarzida edi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgan, ustiga ustak ichki bozor ham tashkil topmagan edi. O'zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy barkarorlik, iqtisodiy va harbiy nochorlik qo'shni mamlakatlarni uni o'z tassarufiga kiritish uchun qo'l keldi (ayniqsa Rossiya uchun). Va bu narsa ohir oqibatda bu o'lkalarni Rossiya tomonidan bosib olinishi bilan yakunlandi.

2. Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligi hududlariga xujumi.

XIX asrning O'rtalarida mustamlakachi ikki yirik imperiya, ya'ni Angliya va Rossiya davlatlarining manfaatlari Turkistonda tuknashdi. Rossiya siyosatchilari Turkiston xalqlari o'z holiga tashlab quyilsa, tez orada Britaniya xokimiyatining Markaziy Osiyoning va keyinrok Kaspiy dengizining SHarqiy tomonlarini egallab olishidan xavfsirar edi.

XIX asrda Buyuk Britaniya o'z tasarrufidagi Xindiston va Afg'oniston orqali xonliklar bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar olib borar edi. Ayni

paytda Turkistonni rus chorizmi bosib olishidan xavfsiramoqda edi. SHarq siyosatida inglizlar Rossiyaning chegaralari Afg'onistongacha yetib kelmasligini istar edilar. Xech bo'lmaganda xonliklar ikki davlat o'rtasidagi betaraf maydon bo'lib qolishi lozim edi.

Angliyaning asosiy maqsadi xonliklarni bosib olishga chog'lanayotgan Rossiyaning rejalarini barbod qilib, uchala xonlikni o'nga qarshi bir kuch bo'lib birlashtirishdan iborat edi. Bu maqsadi amalga oshgach, uning Markaziy Osiyo bozorlarini egallash rejasi ham yo'q emas edi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Angliya xukumati 1841-1842 yillarda Stoddart va Konolini xonliklarga maxsus missiyani bajarish uchun junatib yubordi. Qo'qon va Xiva xonlari ularning taklifiga kundi, harbiy kuchlarni birlashtirishga rozi bo'ldi.

Ammo Buxoro amiri Nasrulloxon ingliz elchilarini katl qildi. Bu ishi bilan u chor Rossiyasi mustamlakachilik sirtmog'ining tashlashiga imkoniyat yaratib berdi. Rossiya bu imkoniyatdan foydalanishga kirishib, 1853 yilda Oqmachitni egallab oldi.

Shunda ham inglizlar xonliklarga yerdam berish yullarini kidirdilar. Zamonaviy tup kuyuvchi muxandislardan biriga Mustafo ismini berib Qo'qonga junatdi. Xindistonlik turkiy sipoxlarga ko'ngilli bo'lib, Qo'qonga kelishlariga ruxsat beradi. 1858 yil mart oyida Angliya parlamenti Xindistonda mustamlakalashtirish va Turkistonda savdo aloqalarini kengaytirish maqsadida maxsus kumita ta'sis etdi. Buning oqibatida ingliz savdogarlari turli maxsulotlar bilan xonliklarga kelib turdi. Ular tobora Rossiya savdogarlariga xafvli rakobatchi bula bordilar. Bu tadbirlar Rossiya xukumatini tashvishlantirdi. Hukmron va harbiy doiralar podsho xukumatini bosib olishga unday boshladilar. SHuningdek, ingliz josuslarining xonliklarda paydo bulayotganligi oshkor bulgach, xonliklar xududlarini birin-ketin bosib olishga izn berildi. Dastlabki harbiy harakatlar Qo'qon xonligiga karatildi.

60-yillardan boshlab Rossiya chorizmi Markaziy Osiyodagi milliy mustaqil davlat Qo'qon xonligiga qarshi bosqinchilik harakatini faol olib bordi. Bu harakatlar borgan sari keng miqyosli urushga aylandi. Qo'qon xonligi daxshatli yov bilan yakkama-yakka kurash olib bordi. Bosqinchi yov zamonaviy qurol-aslaxaga ega bo'lib, ularga Yevropaning katta urushlarida tajriba orttirgan generallar raxbarlik qildilar. Ular bosqinchilikda katta maxoratga ega edilar. Dastlab general Perovskiyning qo'shini 1853 yili shiddat bilan Qo'qon xonligi qal'asi bo'lgan Oqmachitni egallash uchun yurish boshladi. Qal'a ximoyasi 20 kun davom etdi. Bosqinchilar kudratli 17 tup va jangovor ikki yarim mingga yaqin kishilik otryadlari bilan tinimsiz xujum kilib turdilar.

Bosqinchilar qal'aga zarbani artilleriya bilan berdi va uni vayron kilib tashladi. Zamonaviy qurol-yarogi tufayli ular kam talofot ko'rdi.

Chorizmning eng yovuz harakatlaridan biri shu bo'ldiki, u Markaziy Osiyo xududida kon-karindosh bo'lib yashab kelaetgan kozoklar, qirgizlar, turkmanlar, o'zbeklar va tojiklar orasida nizo urug'ini sochdi.

1859 yili podsho Aleksandr II ning o'zi shaxsan ishtirok etgan saroy kengashida harbiy vazir Dolgorukov, graf Perovskiy va Gosfordlar ham katnashdilar. Kengashda Turkiston yerlarini bosib olishni ko'chaytirish, Qo'qon xonligini bir yog'lik qilish masalasi kurilgan edi.

Bosib olishiga qarshilik kursatgan kal'a va shaharlarga omonlik bermay, yanchib tashlash, ayovsiz qirgin qilish g'oyalari ham harakatdagi armiya qo'monlaridan chiqdi.

1860 yil 29 avgustda polkovnik Tsimmerman ko'mondonligidagi otryad Pishpekka xujum qildi. Qal'a ximoyachilari 4 sentyabrgacha o'zlarini mardonavor ximoya qildilar. Qal'a tamomila yondirilib, yer bilan yakson etildi.

1861 yil 21 iyunda podsho ishtirokidagi kengash Qo'qon xonligini bir yoqlik qilish haqida yana bir bor qaror qildi. Bu ko'rsatma asosida xonlik ichkarisiga yana kirib borish, birin-ketin shahar, viloyatlar va qal'alarni tuxtovsiz zabt etishga kirishildi. 1862 yil mayida rus qo'shini Oksuv, Pishtepa va CHoldevor qal'alarini bosib oldi.

1864 yil 1 mayda Verniydan yulga chiqqan general Chernyaev otryadi Qo'qonliklarning chekinishga majbur qildi. 4 iyulda Avliyootani jang bilan oldi. So'ngra Chernyaev otryadi Chimkentga yul oldi. 1864 yilda Perovskiy portidan yulgachiqqan polkovnik Verevkin otryadi Turkiston shahri tomon yurish qildi.

Polkovnik Verevkin general Chernyaevdan yordam olib, Turkiston shahrini 12 iyunda bosib oldi. So'ngra chorizm armiyasi Chimkentga yul oldi. O'nga general Chernyaev qo'mondonlik qildi. Olimqul boshchiligidagi sarbozlar chor qo'shinlarining dastlabki xujumini tuxtatdigina emas, balki qarshi zarbaham berdilar. Chernyaev safdoshi polkovnik Veryovkindan yordam suradi. U Chernyaevga kapitan Meyer boshchiligidagi otryadni junatdi.

General Chernyaev Olimkul zarbasidan alamzada bo'lib, kuzgacha o'z qo'shinlarini tuplab, katta xujumga tayyorgarlik boshlab yubordi.

1864 yil sentyabr oyining boshlarida eng daxshatli janglardan biri Chimkent ostonasida boshlanib ketdi. Turkiston tomonidan kilingan xujumga general Chernyaev o'zi, Avliyoota tomonidan qilingan xujumga esa podpolkovnik Lerxe boshchilik kiladi. Shahar uzoq vaqt ayovsiz to'pga tutildi. Chimkent vayronaga aylantirilgach, piyodalar xujumga o'tdi. Ayovsiz qirg'inlar bilan Chimkent shahriga 22 sentyabrda yorib kirildi.

Chimkent qo'ldan ketgach, Qo'qon xonligining eng yirik shahri Toshkentga yul ochildi. Toshkentga yurish harakatlari 1864 yil 27 sentyabrda boshlandi. U 4 oktyabrda shaharga yetib keldi va xujumni darhol boshlab yubordi. Toshkentliklar oyoqqa turib dushmanni shaharga kiritmaslik chorasini ko'rdilar. General Chernyaev shahar mudofaachilarini qarshiligiga uchrab, xujumni tuxtatishga majbur bo'ldi va Chimkentga qaytib ketdi.

1865 yilda Sirdaryo va yangi Qo'qon yo'nalishlari tufayli Toshkent busag'alarigacha egallangan xududlarda Toshkent viloyati tashkil qilinib, u

yerlar Orenburg general gubernatorligiga buysundirildi. General Chernyaev gubernator qilib tayinlandi.

Chernyaev 1865 yil 3 fevralda Rossiya harbiy vaziridan xat oldi. "Qushimcha harbiy kuchlar yordamga yetib borgunga kadar xech qanday harbiy harakat tadbirini ko'rmasdan, Qo'qon xonligidan norozi Toshkent axli bilan aloqa bog'lab turishingiz haqida imperator janobi oliylari buyruq berishni lozim topdilar".

Mansab va unvonga xaddan tashqari uchgan general Chernyaev yuqoridan kelgan buyruqlarga amal qilmay, mustaqil harakatlar qila boshladi. Mulla Olimquldan norozi bo'lgan Toshkentlik katta mansabdor Abduraxmonbek xoinlik qildi va general Chernyaevni Niyozbek qal'asini olishga undadi. Toshkentni suv bilan ta'minlab turgan bosh manba shu yerdan o'tar edi. Chernyaev Niyozbek qal'asini egallab oldi. Toshkent axli darhol Qo'qondan yordam yuborishlarini suraydi. Bundan darg'azab bo'lgan general Chernyaev butun qo'shini bilan Toshkent shahri ostonasida paydo bo'ldi. Toshkentliklarga yordam berish uchun sarkarda Olimqul Toshkentga yetib keldi va mudofaani tashkil qilishga kirishdi.

General Chernyaev asosiy xujumni janubdan, ya'ni Kamolon darvozasi tomonidan boshlaydi. Chunki u Buxoro amiri qo'shinlari ham Toshkentga kirishi mumkinligidan xavfsiradi. Xujum boshlanguniga qadar Olimqul o'z qo'shinlarini shahardan tashqariga olib chiqdi. Sarbozlarini bir necha otryadlarga bo'lib, 36 iborat artelleriyasini muhim yo'nalishlarga joylashtirdi.

Nihoyat, 1865 yil 9 may kuni ikki tomon kuchlari to'qnashdi. Rus qo'shinlari bosar-tusarini bilmay keng va chuqur Salor arig'idan o'tib, to'plarning qattiq ximoyasida shaharga yaqinlashib kelaverdilar. Olimqul boshchiligidagi qo'shin qarshi chiqib, ularning yo'lini to'sib qo'ydi.

Shunda daxshatli jang qizib ketdiki, yeru-kuk larzaga keldi. Butun osmon chang bilan qoplendi. Odamlar qaerda-yu, qurollar qaerda ekanligini ajratish mumkin bo'lmay qoldi. Nixoyat, Toshkentliklar tob berolmay yengilib qocha boshladilar. Hamma sarosimaga tushib turgan paytda Olimqulga o'q tegib yiqildi. U safdan chiqqach, Xudoyorxonning qarindoshi Sulton Mirsaid amir lashkarboshi vazifasini o'z zimmasiga oldi. Olimqulning o'limidan so'ng Toshkentliklar Buxoro amiriga murojaat qilib yordam suraydi. Ammo amir rad javobini beradi.

Bu paytda Chernyaev Buxoroga boradigan yo'llarni ham to'sib qo'ydi. So'ngra Toshkentga so'nggi xujumni boshladi. Shahar aholisi qattiq qarshilik ko'rsatishni davom etdi. Xar mahalla, uy jang maydoniga aylana bordi. Ayniqsa, Qiyot maxallasining jangchilari qaxramona kurashdilar. Abduraxmon yasovul boshchiligidagi ko'ngillilar guruxi kun buyi dushman xujumini daf etib turdi. Nihoyat Toshkentliklar bu urush katta vayronagarchilik va qurbonliklar berishga aylanib ketayotganligi hamda vaziyatni o'nglab bo'lmaslikni nazarda tutib, mo'zokara boshlashga majbur bo'ldilar. 1865 yil 17 iyunda muzokaralar boshlandi. Chernyaev shaharning Haqimxo'ja Qozi Kalon,

Abulqosim Eshon, Domla Solihbek Oxun kabi kishilar bilan suxbat o'tkazdi. Ikki tomon axdnomaga imzo chekdi. Chernyaev o'z harakatlarini hokimiyat oldida oqlash uchun oqsoqollardan go'yo Toshkent ixtiyoriy ravishda rus qo'shiniga bo'ysunganligi haqida xat uyushtirib berishni talab qildi. Chernyaev soxta axdnomani to'ldirishni Abdusattor Qorabosh o'g'liga topshiradi. So'ngra shahar kattalarining barchasiga majburiy ravishda qo'l qo'ydirilib muxr bostiriladi.

Toshkentni zabt etgan chor zobit va soldatlari uchun katta unvonlar taqdim qilinadi. Chernyaevga katta maosh bilan nafaqa tayinlanib, oltin qilich sovg'a qilinadi. Soxta ahdnomani Vatan xoinlari Chernyaev buyrugi bilan Sankt-Peterburgga olib ketishdi. Shu tariqa Toshkent rus chorizmi qo'liga o'tdi. Toshkentning taqdiri Rossiya foydasiga hal etilgach, Orenburg general gubernatori Krijanovskiy 1865 yil kuzda Toshkentga yetib keldi. U Toshkentni Qo'qon va Buxoro ta'siridan mutloqo xalos qilish choralarini ko'rib, uni mustaqil o'lka deb e'lon qildi. Bu paytda Qo'qon va Buxoro urush holatida edi. Buxoro amiri qo'shinlari Xujanddan Qo'qon xonligining ichkarisiga kirib borardi. Amir yo'l-yulakay Toshkent muammosini xal qilishi va uni o'ziga qo'shib olish uchun rus qo'mondonlariga shaharni topshirishni talab qildi. Lekin general Chernyaev o'rniga tayinlangan yangi qo'mondon Romanovskiy Buxoro amiri talabini bajarmadi. Talablari bajarilmagan amir Toshkent tomon yo'lga otlandi. Ammo Xo'jand yaqinidagi Irjar qishloqi oldida rus qo'shinlari tomonidan tor-mor etildi. 1868 yil 24 mayda bosqinchilar Xujandni bosib oldilar.

General Romanovskiy harbiy vazirga yuborgan "Markaziy Osiyo chegarasidagi ishlarning ahvoli to'grisida"gi maktubida amirning urush harakatlarini davom ettirishga tayyorlanayotganligi haqida xabar qildi.

1866 yilning boshlarida Jizzaxga hujum qilindi. Ammo Jizzaxliklar shaharni qattiq ximoya qildilar. Dushman orqaga qaytishga majbur bo'ldi. 1868 yil oktyabr oyida bosqinchilar yana Jizzax shahriga hujum qildilar. Bu jang daxshatli bo'ldi. Dushman harbiy qurollarining ustunligi tufayli Jizzaxliklar 18 oktyabrda taslim bo'ldilar. Harbiy harakatlar yana davom qildirilib, Uratapa, Yangi Qo'rgon istexkomlari ham ishgol etildi. Rus qo'shinlari Buxoro amirligining bir qismini egallab, uni Qo'qon xonligi chegaralaridan ajratib tashladi.

3. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi.

1867 yil 17 iyunda Rossiya imperatori Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etish hamda Markaziy Osiyodan bosib olinib, Rossiya tarkibiga kiritilgan hududlardan iborat Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilish tugrisida farmon berdi. Okrug qo'mondoni va general gubernatori qilib general-ad'yutant fon-Kaufman tayinlandi. Fon Kaufman o'ziga berilgan katta vakolatlar asosida Buxoroga qarshi urush harakatlari keng ko'lamda boshlab yubordi.

1868 yil 1 mayda 8300 kishilik rus qo'shini (16 tup bilan) Samarqand shahri ostonasidagi Cho'ponota tepaligida amir qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi va 2-mayda Samarqandga kirib keldi. Soxibqiron poytaxti sifatida dunyoga nom chiqargan, musulmon olamining yirik madaniyat markazlaridan birining g'ayridin yog'iylar tomonidan bosib olinishi katta yo'qotish bo'ldi. Undan butun islom olami larzaga keldi. Amir Muzaffarning obro'si musulmon olamida tushib ketdi. Chunki, Samarqand shahri amirlikning yirik iqtisodiy, siyosiy va harbiy tayanch shaharlaridan edi. Amir qo'shinlari xristian dunyosiga mansub yovlarning salib yurishini to'xtata olmadilar. Natijada chor qo'shinlari amirlik hududidagi yanada chuqurroq yorib kirishda davom qildilar.

To'g'ri, katta mag'lubiyatlarni to'xtatish va qasos olish amir Muzaffar o'zining asosiy kuchlarini Zirabuloqda to'plab zarba berishni rejalashtirdi. Bu yerda amir 15 ming otliq, 6 ming piyoda 14 ta to'plarini yig'di. U jang oldidan qo'shiniga zafar tilab, Ona yurt uchun kofir bosqinchilarga qarshi jangga kirishga murojat qildi. Jangni G'alaba bilan tugallagan sarbozlariga muxorabadan so'ng 125 ming tilla pulni bo'lib berishini va'da qildi. Ammo og'ir jangda amir qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Amir Qizilqum ichkarisiga qochdi. Bu vaximali xabardan amirlik aholisi larzaga keldi, norozilik ko'chaydi. Nihoyat, u Qo'zg'alonga aylanib ketdi. Endi amirlikning turli tomonidan xalq oqimi Samarqand tomonga oqa boshladi. Qarshi, Shaxrisabz va Kitob beklaridan kuchlar kelib Samarqandga urnashib olgan rus garnizoniga qarshi jang boshladi. 1868 yil 8 iyunda Fon-Kaufman bu xabarni eshitib zudlik bilan Samarqand shaxriga qaytadi. Uning qo'shini Samarqandni qamal qilayotgan xalq harakati otryadlarini to'zg'itib yubordi. Shaxar ayovsiz jazolandi, xech kimga omonlik berilmadi. Ammo bosqinchilar ham katta talofot ko'radi. Ulardan 275 kishi uldi va yarador bo'ldi. General-gubernator fon Kaufman Samarqanddagi bu talofotni "katta yo'qotish" deb tan olishga majbur bo'lgan edi. G'alabadan butunlay umidini o'zgan amir Muzaffar taslim bo'lib, xajga ketishini rejalashtira boshlaydi. Biroq amaldorlar uni sulx tuzishga undaydilar. Nixoyat, u bu taklifga ko'nadi. 1868 yil 23 iyunda amirning elchilari Samarqandda turgan fon-Kaufman xuzuriga keladilar. Fon-Kaufman Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismini Rossiyaga berishni va 500 ming so'm miqdorida tovon tulashni shart qilib qo'ydi. Sulxiga ko'ra, Buxoro amiri chet davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib borish xuquqidan maxrum qilindi, rus savdogarlari uchun monesiz savdo-sotiq qilish majburiyati yuklatildi. Amir rossiyaga siyosiy tobeligini to'la tan oldi.

Amir taslim bo'lgach, xalq harakati yana avj olib ketdi. Vatanparvar kuchlar undan qattiq norozi bo'ldilar. Xatto amirning katta o'g'li Abdumalik ham otasining taslimchilik siyosatini maqullamadi. Uning atrofiga nufu'zli beklar birlashib, rus mustamlakachilari va Muzaffarxonga qarshi kurash boshlab yubordilar. Ular amirning taxtdan maxrum etilganligini va o'rniga Abdumalikni xon qilib kutarganliklarini e'lon qilishdi. Natijada amir

Muzaffarning ahvoli og'irlashdi. Ota va o'g'il qo'shinlari o'rtasida Samarqandning Jom qishlog'ida jang bo'ldi. Jangda amir yengildi.

So'ngra kutarilgan Qo'zg'alonlarni yenga olmasligiga ishonch xosil qilgan amir 1869 yilning kuzida yordam surab fon Kaufmanga murojaat qildi. Bu vaqtga kelib Abdumalik ancha katta kuchlarni tuplab ulgurgan edi. Kitob begi Jo'rabek, Shaxrisabz xokimi Bobobek va mashxur Sulton Sodiqlar shaxzodaning eng ishonchli sarkardalaridan edilar. Ayniqsa, ruslar uchun Sulton Sodiq xavfli raqibga aylangan bo'lib, u ongli xayotining asosiy davrini rus bosqinchilariga qarshi kurashga bag'ishlagan mard lashkarboshi edi. Xatto, Zirabuloq janggida amir qo'shini kocha boshlaganda ham u ulim bilan olishib, maydonni ohirgi ukini otmaguncha tark etmadi. So'ngra amir taslim bo'lgach, u Jo'rabek va Bobobeklarning safiga kelib qo'shildi. Ularni tor-mor keltirish uchun Kaufman general Abramovni tish-tirnogigacha qurollangan armiya bilan ta'minlab, vatanparvar sarkardalar ustiga tashladi. Zamonaviy kuchlar bilan qurollangan Abramov Qo'zg'alonchilarning kuchlarini to'zgitib yubordi. Mag'lubiyatga uchragan Qo'zg'alonchilar yengilib, turli tomonlarga bosh olib ketdilar. Sulton Sodiq o'z otryadi bilan chekinib, Qizilqum orqali Xiva xonligi hududiga o'tib ketdi. Shu tariqa Buxoro Rossiyaning yarim mustamlakasiga aylandi.

4. Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi va vassaliga aylantirilishi.

Chor Rossiyasining xonliklarni alohida tor-mor etish yo'lidan unumli foydalandi. Xonliklarning o'zaro kelisha olmaganligi bosqinchilarga qo'l kelgan edi. 1839 yilda graf Perovski katta qo'shin bilan Xivaga qarshi otladi. Biroq Xiva sarbozlarining tinimsiz xujumlari va kish sharoitidagi murakkab vaziyat tufayli u ustyurt orqali chekinishga majbur bo'ldi. Bu qo'shin taqdiriga ham daxshatli fojea solnomasi bitildi.

Bu voqealar Xiva xonligi haqida Rossiya hukmdorlari orasida turli shov-shuvlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Natijada Rossiya siyosiy-harbiy doiralari Xivani "bo'ysunmagan O'rta Osiyo jazoiri" deb atay boshladilar. (Ma'lumki, Jazoir xalqi Frantsuz bosqinchi mustamlakachilariga qarshi uzoq vaqt mobaynida milliy ozodlik urushi olib borgan edi). Shularni nazarda tutib Chor Rossiyasi Xivani egallash uchun juda katta harbiy va iqtisodiy zaxira kuchlar ajratdi. Chor Rossiyasi armiyalarining yuqorida qayd etilgan ulkan mag'lubiyatlari sabablari jiddiy o'rganildi. Harbiy rejalar juda pishiq va puxta ishlab chiqildi.

Buning ustiga Rossiya Qo'qon va Buxoroni o'ziga tobe qilgandan so'ng Xiva xonligi uning uchta harbiy okrugi-g'arbda Kavkaz, shimolda Orenburg va Sharqda Turkiston harbiy okruglari qurshovida qoldi. Bundan tashqari "Orol" harbiy flotiliyasi ko'chaytirilib, urush boshlanishi bilan harbiy kemalar Amudaryo yuqori oqimi tomon suzib, Xiva xonligiga desant tushirishi lozim

edi. Bu jangovar kemalarning kapitanlari katta dengiz janrlarida chiniqqan zobitlar edilar.

Xivaga xujum qilishdan avval katta josuslik ishlari olib borildi. Xujum yo'nalishlari aniq belgilandi. Zarur bo'lgan hududlar xarbiy-topografik jihatdan xaritalashtirildi. Xiva xonligini bosib olish uchun jami 12000 dan ortiq soldat va zobitlar, 56 ta tup-zambaraklar ajratildi.

Xiva yo'nalishidagi barcha harbiy kuchlarning bosh qo'mondoni qilib fon-Kaufman tayinlandi. 1873 yilning bahorida uning buyrug'i bilan barcha qo'shinlar Xiva chegaralarini bosib o'tib, oldindan kelishilgan rejaga muvofiq bosqinchilik urushini boshlab yubordilar. Bu harakatlarda nomlarini xalqlarimiz nafrat va daxshat bilan tilga oladigan sarkarda-generallardan Golovachyov, Skobelev, Veryovkin, Stoletevlar ham jazo otryadlari boshliklari sifatida ishtirok etdilar.

Xiva xonligiga urush e'lon qilinishining asosiy sabablaridan biri Muhammad Raximxon II ning fon-Kaufman qo'ygan talablarni bajarmaganligida edi. Bu talablar turkman va qozoqlar tomonidan ko'lga tushirilgan rus fuqarolarining qul kilib sotilganlarini ozod qilib yuborish to'grisida edi. Garchi bu talablar bajarilgan taqdirda ham Xiva xonligining taqdiri Peterburg saroyida xal qilib Quyilgandi. Demak, general-gubernator fon Kaufman talabining bajarilmaganligi bu bir baxona edi, holos.

Xiva sarxadlaridagi soqchilar rus bosqinchilari katta ko'shin bilan Xivaga yurish boshlaganligi xabarini Muhammad Raximxonga yetkazdilar. Xon katta kengash chaqirib, unda dushman xujumini qaytarish choralarini kurib chiqdi. U Chorjuy tarafdin kelib, Amudaryo o'ng sohilidagi kechuv joyini mo'ljallab harakat qilayotgan fon Kaufman yulini to'sish uchun Muhammadmurod devonbegini daryo tomonga yubordi. Ko'ng'iroq tarafga kelayotgan general Veryovkin otryadini tuxtatish uchun esa Elto'zar inokni jo'natdi. O'nga Yovmut va Xorazm yigitlaridan tashkil qilingan 6000 sarbozlardan iborat qismni ham kushib berdi.

Devonbegrining sarbozlari bilan fon Kaufmanga qarashli general Ivanovning otryadi o'rtasida Uch Uchoqda birinchi bor to'qnashuv bo'ldi. Ikkala tomondan ham katta talofotlar ko'rildi. Odamqirilgan degan joyda Xorazm lashkarlari fon Kaufmanning soldatlaridan anchasini qirib tashladi. Bu to'qnashuvda ko'hna Urganchlik usta Pirniyoz degan baxodir yigit mardlik ko'rsatib jangda xalok bo'ldi. Kaufman Xorazm lashkarlarining xujumini artileriya yordamida qaytardi va ularni chekinishga majbur qildi. Xorazm lashkari daryoning chap sohiliga kechib o'tishga majbur bo'ldi.

Fon Kaufman oziq-ovqat zahirasi tamom bulayotganligi sababli ovul, qishloq, qal'alar aholisiga o'z maxsulotlarini arzon-garovga sotish haqida buyruq berdi. Bunga kim qarshi tursa uni qirgin qilish, talon-taroj etishga ruxsat berildi. Fon Kaufmanni o'z davrining yirik tarixchisi, Xiva xonligining zabt etilishini o'z ko'zi bilan ko'rgan Muhammad Yusuf Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida bunday deb ta'riflaydi: "Kaufman xavfga tushib 300

soldat, 250 kozok otlisiga Chorkufskinni bosh etib el oralariga yuborib qozoq otlini tarojga ma'mur etib dedi: Arobaga ma'lumot yuklab, askar tarafiga kelaturgoni bulsa, matosining baxosini berib olinglar, va garna, toroj etinglar. Talon-taroj etib oziq-ovqat to'plash oddiy hodisaga aylandi".

1873 yil 18 may kuni fon Kaufman otryadlari Amudaryodan kechib o'tib, 23 may kuni Xazorasp II qal'asini bosib oldi. Bu vaqtda general Verevkinning harbiy qismi Ko'ng'irost ostonalariga yaqinlashib keldi. Bundan xabar topgan shahar biylari va oqsoqol xokimi (Xabni'zbiy, Sayidbiy, Tojimurodbiy, Konirgali, Mansurbiylar) uning xuzuriga vakil yuborib: "Xonimizdan ruxsat va qurol-yarog' kelguncha to'qnashmay turishni iltimos qilishdi". Ammo Verevkin bundan xursand bo'lib shaharni to'pga tuttirib, unga bostirib kirdi. Shahar talandi. So'ngra Xo'jayli shahri ham ko'lga kiritildi. Keyin rus askarlari Mang'it qal'asi tarafga otlandilar. Mang'it va uning atrofidagi ovullar daxshatli tarzda qirgin qilindi. Muhammad Yusuf bayoniyning asarida bu voqea shunday bayon qilingan: "Chun (rus qo'shini-mualliflar) Mangit Yovukida bir ulug' ov baliqqa (Katta Ovul-mualliflar) keldilar Verevkin buyurdi. Rossiya askari ul ovbaga xujum etib, Aholini erkagu-xotin va yoshu kariga karamay katliom etib ondin so'ng uylab ul ovbani yer bilan yakson ettilar. Ondjin so'ng muning bila ham kanoat etmay, Mantiq qal'asiga haqim burunroq aholisi kelib, qal'ani rusiyaga taslim etib, hamon totib qaytib erdilar, xujum etib kirib erkagu-xotun va kariyu -yigit va ayolu atfoldan beshikdagi o'glonlargacha qirib, qatl etelib, itu- eshak va xar turluk jondor yo'liksa ham otar edilar. Chun jondor kuymay kirib tamom etdilar, shaharni utlab chiqib ketdilar".

Bu bosqinchilar tomonidan sodir etilgan, ayovsizligi jihatdan fashizmdan aslo qolishmaydigan daxshatli vaxshiylik edi. Bunday vaxshiylikni Afrikadagi yevropalik mustamlakachilar ham qilishmagan edi.

Muhammad Raximxon Xivani ixtiyoridagi mavjud kuch bilan mudofa qilib bo'lmasligiga ko'zi yetib, Izmikshur tarafdagi turkman ovuliga borib yashirindi. Bundan foydalangan Otajonto'ra xon nomidan fon Kaufmandan Xiva shaxrini vayron etmasligini suraydi. Ammo u xukmdor bulmaganligi uchun Kaufman kochib ketgan Muhammad Raximxonni topishni talab qildi va muzokaralarni faqat u bilan olib borishi mumkinligini bildirdi.

U Muhammad Raximxon xuzuriga kelguncha xon saroyidagi barcha noyob boyliklar, Nodir kitoblarni, xon xazinasi, taxti va tojini Peterburgga yuborish choralarini ko'rdi.

Xiva zabt etilgach, fon Kaufman uning xonlik xazinasi va asriy yigilgan moddiy ma'naviy boyliklarni tortib oldi. U Xiva shahrini tark etib, o'ziga qarorgoh sifatida Gandimiyon qishloqini tanladi va xonning kelishini shu yerda kutib nihoyat Muhammad Raximxon ancha vaqt yashirin holatda yurib so'ngra Turkman sardorlari maslaxati bilan Izmixshur ovulini tark etib, fon Kaufman huzuriga yo'l oldi.

1873 yilning 12 avgustidan Turkiston hukmdori fon Kaufmon bilan Xiva xoni uchrashdilar. Xonning qo'liga noteng va adolatsiz shartnoma matni zarda

bilan tutqazildi. G'olib va bosqinchi Kaufman o'z shartlarini qat'iy qo'ydi. Maglub hukmdor esa uning aytganlarini qabul qildi. Shartnomaga ko'ra Xiva xoni siyosiy xuquqlardan, mustaqil tashki siyosat yuritishdan maxrum etildi. Xon o'zini rus podshosini itoatli xizmatkori deb tan oldi. Xon huzurida saroy amaldorlari rus qo'mondonlaridan iborat Devon (kengash) tuzildi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilidagi xonlikka qarashli barcha yerlar Rossiyaga berildi. Rus savdogarlari va sanaotchilari Xiva xonligida boj to'lash va majburiyatlarni bajarishdan ozod etildi. Ular erkin savdo qilish va korxonalar qurish huquqini oldilar. Rus fuqarolarini Xiva hududida qozilar tomonidan sud qilish taqiqlandi. Xonlikka ikki milion ikki yuz ming dollar miqdorida kontrebutsiya solindi. Shu tariqa Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylandi.

Podsho Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach, bepayon hududlarga ega bo'ldi. U dunyoning eng mustamlakachi mamlakatiga aylandi shuning uchun ham o'sha vaqtda Rossiya to'grisida "ulkan miqdordagi mulk o'g'risi" degan haq gaplar aytilgan edi.

Rossiyaning ikki boshli burgut tasviri tushirilgan mudxish mustamlakachilik bayrog'i Boltiq bo'ylaridan Kavkaz cho'qqilarigacha Ukraina dashtlaridan O'rta Osiyo kengliklari va uzoq sharq tizmalari qadar xilpirab turdi. chor Rossiyasi Polsha, Finlyandiya, Kavkaz orti, Boshqirdiston, Sibir va Qalmoqlar yurtini mustamlaka asoratiga solgan salobatli va shafqatsiz imperiya edi.

Sank-Peterburg hukmron doiralari Buyuk Britaniyaning Xindistondagi va Frantsiyaning Tunis hamda Jazoirdagi mustamlaka tartiblari tajribalarini o'rgangan holda o'zlarining ulardan tubdan farqli, tipik Ruscha mustamlakachilik tizimlarini yaratdilar. Uni Turkistonda zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirdilar. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi tartiblari Polsha, Finlyandiya, va Kavkazdagidan ham tafovutli xususiyatga ega edi. Bu xususiyat mahalliy xalqlarga mutloqo ishonmaslik, ularga bepisandlarcha qarash kabi shovinistik ruh va kayfiyatlardan iborat edi.

Turkistonda mustamlakachilik tizimini va sirtmog'ini mahkam ushlagan generallardan o'nlab bosqinchi sarkardalar milliy davlatchiligimizni xalqimiz xotirasidan o'chirish yo'lini tutdilar. Ularning Turkistondagi faoliyatini yovuzlik sahifasi bilan boshlanib, yovuzlik sahifasi bilan yopiladi.

1868 yil 22 yanvarda Kaufman o'z ma'ruzasida ruslarning hukmronlik baquvvat zaminga egaligini alohida ta'kidlab bu xukmronlik abadiy bo'lishini ta'kidladi.

F.Girs Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida tuzgan qonun loyixasida aslzoda rus zodaganlari, xarbiylari va mustamlaka ma'muriyatida ishlab, boy tajriba orttirgan amaldorlardan iborat Dasht komissiyasi 1865-1867 Turkiston o'lkasida qanday mustamlaka to'zimini o'rnatish haqida imperatorga o'z muloxazalari bitilgan loyihani yubordi. Rus imperatori AleksandrII bu loyihani "O'rta Osiyodagi mulklarni o'zlashtirish bo'yicha Maxsus Qo'mita" diqqatiga xavola etdi.

Rossiya imperiyasi harbiy vaziri graf D.Milyutin 1867 yilda Vazirlar Kumitasiga Turkiston o'lkasi boshqaruviga doir qonun loyihasini taqdim etdi. Loyiha Rossiya tomonidan istilo etilgan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida Turkiston general-gubernatorligini tashkil etish va uni harbiy vazirlik ixtiyoriga berishni nazarda tutgan edi. Vazirlar qo'mitasi farmoyishi bilan bu loyiha "tasdiqlangach" qonun tariqasida kuchga kirishini e'lon qildi. Barcha tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish shaxsan general-gubernator ixtiyoriga topshirildi. Shu tariqa 1867 yildan 1881 yilga qadar Turkiston xalqlari taqdirini xalq etish general-gubernator Kaufman ixtiyorida bo'ldi.

Viloyatlarda harbiy gubernatorlar tayinlandi. Ular shaxsan rus imperatori tomonidan tasdiqlanar edi. Uezd boshliqlari rus armiyasi polkovniklari, uchastka prestallari esa kapitan unvonidagi zobitlardan tayinlangan. Volost boshqaruvchilari, yuzboshi-oqsaqollar, ellikboshilar va o'nboshilar esa saylov asosida mahalliy aholi vakillaridan saylangan. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgan 1867 yili Turkiston harbiy okrugi ham yuzaga keldi.

Rossiya imperiyasining hukmron doiralari ichki ishlar vazirining "Turkiston o'lkasining oliy, o'rta va quyi boshqaruvida kuchli hokimiyat zarurki, ular o'z faoliyatlarida to'la erkin bo'lsinlar, mahalliy aholi vakillarining roziligiga muxtoj bo'lmasinlar" degan fikrga to'la qo'shilganlar shuning uchun ham general-gubernatorlik markaziy o'lka boshqaruvi Turkistonda mutloq xokim bo'lgan.

Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernatorlik hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori o'z ko'lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o'zida u podsho noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror vazifalarini ham utagan. General-gubernatorning Rossiya imperatoriga to'be Buxoro amiri va Xiva hamda Afg'oniston va Qashqar bilan munosabatini mahkamaning diplomatiya qismi 1899 yilga qadar boshqargan. 1899 yildan boshlab bu vazifani bajarish uchun general-gubernator huzurida diplomatik ishlar buyicha amaldorlik lavozimi joriy qilindi. Mahkama ixtiyoriga Turkiston ommaviy kutubxonasi, Toshkent muzeyi, Markaziy arxiv, "Turkestanskie vedemosti" gazetasi va bosmaxonasi ham berilgan edi.

General-gubernator o'lka hayoti bilan asosan mahkama xujjatlari orqali tanishgan, shuning uchun ham bu idora Turkiston boshqaruvida g'oyat muhim rol uynagan. Bunday xujjatlarni gubernatorga turli soha mutaxassislari tayyorlab berishgan.

Turkiston general-gubernatorligi 90-yillarga kelib besh viloyatga bo'lindi. Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiy orti viloyatlarini rus armiyasini generallaridan shaxsan imperatorning o'zi tayinlagani harbiy gubernatorlar boshqardi. Ular o'zlarida harbiy va fuqaro hokimiyatini mujassamlashtirgan.

Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo'lib, ular gubernator boshqarmasi huquqlariga ega bo'lishgan. Viloyat hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko'rib chiqilgan.

Viloyatlar uezd va volost'larga bo'linib idora qilingan. Uezdlar bir necha uchastkalariga bulingan.

5. Rossiya imperiyasining o'lkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Turkistonda iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda hukmronlikni o'rnatish tadbirlari.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi yuqorida ta'kidlaganimizdek, xonliklar hzlarining mustaqilliklarini butunlay yo'qotdi. Shuning uchun ham xonliklarning hech qanday aralashuvisiz 1881 yilda Rossiya-Eron chegara konventsiyasi, 1885-1887 yillardagi muzokaralar bilan rus va britan hukumatlari tomonidan Afg'oniston bilan bo'lgan chegara, 1895 yilgi muzokaralar bilan Pomir chegaralari hozirgi O'rta Osiyoning o'zil-kesil chegarasi belgilandi. Shu bilan amalda Rossiya O'rta Osiyo ustidan iqtisodiy-siyosiy jihatdan tasarruf qilish huquqini qo'lga kiritgan edi. Chunki, chegara konventsiyasining imzolanishi Rossiyaning O'rta Osiyo yerlarini bosib olinishini amalda xalqaro miqyosda tan olinishi edi.

Avvalo, shuni ham aytish o'rinliki, bu istilo oqibatida o'lkada iqtisodiy turmush tartibga solindi, savdo yo'llari xavfsizligi ta'minlandi, muayyan tartib qaror topdi, bu esa butun territoriyani yagona xo'jalik bozori, yagona ishlab chiqarish sistemasiga birlashtirish imkonini berdi. Shuningdek, ichki nizolar va mahalliy hokimlarning muttasil janjallariga, tartibsizliklariga barham berildi.

Chor Rossiyasi ma'murlari O'rta Osiyoning xom-ashyo boyliklarini tashib ketish, o'lkaga rus kapitalining kirib kelishi, bozorlarini rus mollari bilan to'ldirish hamda iqtisodiy jihatdan imperiyani bog'lashda asosiy vosita temir yo'l deb bilardi. Temir yo'l o'z davrining zamonaviy aloqa vositasi ham edi. Rus ma'murlari qurgan temir yo'llar O'rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan eng muhim rayonlarini kesib o'tishi va birlashtirishi lozim edi. 1880 yil noyabrida Zakaspiy temir yo'l qurilishi boshlandi. Bu temir yo'l Qizil Arvot orqali Ashxobod va Samarqandga yetkazildi. 1888 yil 15 mayda bu yerga birinchi poezd keldi. Yo'lning boshlang'ich nuqtasi O'zun-Adadan Krasnovodskiyga olindi, bu 126 verstni tashkil etdi. 1898 yili bir uchi Marvdan janubga Kushkaga yetkazildi. Temir yo'lning davomi Toshkent va Andijonga 1895 yili boshlanib, 1899 yili nihoyasiga yetkazildi, 1915 yilda Jalolobodga yetkazildi. Shu tariqa O'rta Osiyo temir yo'lining umumiy o'zunligi 1748 verstga yetkazildi.

Rus mustamlakachilik siyosatining ikkinchi bir jihati O'rta Osiyo yerlariga rus qishloqlaridan deqonlarni ko'chirish bo'ldi. 1868 yildan 1882 yillar davomida Yettisuvda 25 ming aholisi bo'lgan 29 qishloq, Sirdaryo viloyatida 1300 kishilik 19 qishloq tashkil etildi. 1891 yilda Rossiyaning Yevropaqismidagi kattagina yerlarni qamrab olgan qurg'oqchilik ruslarni O'rta Osiyoga ommaviy tarzda ko'chib kelishga sabab bo'ldi. Xonavayron bo'lgan,

yarim och yurgan kechagi rus dehqonlari XX asr boshlariga kelib, sotib olgan yerlarida dehqonchilik bilan shug'ullanmay yerlarni mahalliy aholiga ijaraga bera boshladi.

1910 yilda Turkiston general-gubernatorligining hozirgi O'zbekiston hududidagi Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida 124 ta rus qishlog'i bo'lib, bularda 70 mingga yaqin aholi yashagan. Rus aholisi shahar aholisi bilan birga 200 mingdan ko'proq kishini tashkil etgan.

Rossiya to'qimachiligi ishlab chiqarishining o'sib borayotgan talablarini Amerika paxtasi qondira olmayotgandi, shuningdek olisdan xom-ashyo olib kelish judaqimmatga tushmoqda edi. Istilochilik harakatlarining birdan-bir maqsadi arzon qishloq xo'jalik xom-ashyosini yetishtiradigan yerlarni qo'lga kiritish edi. O'rta Osiyo yerlarini o'hlga kiritishlari bilanoo' rus mustamlakachilarining asosiy vazifasi o'lkada paxtachilikni rivojlantirish bo'ldi. Rus mustamlakachilari ipaksimon va ingichka tolali amerika paxtasini ektira boshladilar. Toshkent yaqinida urug'chilik - tajriba bazasi tashkil etilib, unda 1884 yilda mahalliy va amerika paxta navlari chatishtirilib, shunday bir nav yaratildiki, 'ar ikkala navdan ham yaxshiroq nav vujudga keldi. Yangi nav paxta chigiti 1884 yili 300 botmon (1 botmon taxminan 1 gektar yerga to'g'ri keladigan o'lchov birligi) yerga, 1886 yili 12 ming, 1890 yili 59 ming, 1909 yili 191 ming 1910 yilda esa 350 ming botmon yerga eqildi. Turkiston Rossiyaning paxta mustaqilligini ta'minlab berdi. 1907 yilning o'zida 5 million pud (1 pud 16 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi) paxta tolasi rus to'qimachilik sanoati uchun olib ketildi.

Masalaning ikkinchi tomoni arzon paxta xom-ashyosi jazavasi savdogarlar, mansabdorlar, harbiy boshliqlar, hokimiyatga dahldor ma'murlarni, kimniki puli ko'p bo'lsa, o'shani paxta ekishga, yerlarni sotib olib paxta ektirishga undadi.

Toshkent yaqinida rus ishbilarmon va savdo firmalarining dastlabki paxta plantatsiyalari paydo bhldi. Belyakovning 620 desyatina (1 desyatina bir gektarga yaqin yer o'lchov birligi), Yaroslavl katta manufakturasi - 400, Tarsin - 200, aka-uka Nikiforovlarning 300 desyatina yerda paxta plantatsiyalari bor edi. Samarqand oblastida eng yirik shirkatchi Meyerkortning 200 desyatina yaqin, Farg'ona oblastida Tomich, O'udrin firmasi, Yaroslavl katta manufakturasi uchun paxta yetishtirardi. Turkistonda umumiy hajmi 4800 desyatina bo'lgan maydondagi yirik plantatsiyada paxta yetishtirib katta daromad olishayotgan edi.

Paxta rus kapitalini ham O'rta Osiyoga jalb etdi. Paxtani yetishtirish va xarid qilish bilan kamida 30 ta savdo shahobchalari shug'ullanardi. Rossiyadagi eng yirik banklar - Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki va Davlat banki asosiy qarz beruvchi banklar edi. Bundan tashqari Poltava, Nijegorod - Samarskiy yer banklari ham Turkistonda o'z bo'limlarini ochdilar.

Mustamlakachilik iqtisodiy siyosatining muhim jihatlaridan yana biri rus kapitalining kirib kelishidir. Turkistonga kapital paxta yetishtirish va sotish bo'yicha yirik savdo-ishlab chiqarish kompaniyalari orqali ham kirib keldi.

1913 yilda “Beshbosh” degan juda katta paxta-yog’ shirkati tuzilib, u Turkistonda yetishtiriladigan paxtaning 30 foizidan ko’prog’ini xarid qilar va sotar, 80 ming tonna paxta tolasini tashib ketar hamda 160 tonna chigit tayyorlardi. Uning 29 ta paxta zavodi bor edi. Bu shirkat bilan 30 ta paxta zavodi b’lib, Farg’ona vodiysining hzidagina 7-8 million pud paxta xarid o’lib turgan Vod’yaevlar savdo uyigina bellasha olardi holos. Vod’yaevlar 1916 yilda Ivanovo-Voznesensk manufakturasini o’hlga kiritib, to’qimachilik buyumlari ishlab chiqaradigan g’oyat katta kombinatni yaratib, Farg’ona paxta dalalari, temir yo’llari, paxta tozalash zavodlari va Ivanovo tho’imachilik zavodlari uning tarkibiy qismi bo’lib qoldi. Bu xususida avvalo shuni ta’kidlash o’rinliki, Turkistonga savdo-sanoatni kirib kelishi yaxshi, achinarli tomoni xalqning milliy boyligi Turkistonda qolmasdan Rossiyaga oqib ketmoqda edi. O’rta Osiyo xalqining fojiasi edi. Bunday holatni “progressiv”likka yoygan har bir kishi mutlaqo adashadi. Agarda o’lkaning milliy boyligi o’zida qolib, moddiy farovonligiga, turmush sharoitini yaxshilash manfaatlariga xizmat qilsa, unda bu masalaga boshqacharoq yondoshish mumkin.

Ruslarning O’rta Osiyoni bosib olishi, ularning iqtisodiy-siyosati avvalo mahalliy boylarda mavjud bo’lgan insof va diyonatni batamom ko’tarib yubordi. Ekspluatatsiyani, yul’ichlikni eng jirkanch shakllarini ruslar mahalliy boylarga ham o’rgatdilar. Natija nima bo’ldi? Rusning mustamlakachilik tartibi O’rta Osiyo xalqlariga nima berdi? Birinchidan, ruslarning O’rta Osiyoni bosib olgan dastlabki davriga nisbatan XIX asrning 80-90-yillariga kelib, dehqonlar ommasining aksariyat qismi qashshoqlashdi. Ikkinchidan, aniqroq aytadigan bo’lsak, rus va mahalliy boylar, savdo-sanoatchilari 1889-1890 yillarda Samarqand uezdidagi kambag’allarning 15 ming desyatina, Jizzax uezdida 5 ming desyatina yerini turli yo’llar bilan tortib olgan. Bu jarayon Farg’ona viloyatida bundan ham fojialiroq kechgan. A.F.Middendorfning ta’kidlashicha, Farg’onada yersiz qolgan dehqonlarning soni 60 foizga yetgan. Uchinchidan, asrlar davomida ota-bobolaridan qolgan yerlarni shu darajada ko’p sotish faqat chorizmning iqtisodiy mustamlakachilik siyosati oqibatida yuzaga keldi. To’rtinchidan, yersiz, nonsiz, sarson-sargardon mahalliy halq oqimi mustamlakachilik zulmining ma’suli. Beshinchidan, hech qachon xalq bu darajada o’z hukmdorlariga nafrat bilan qaramagan. Bunday dalillarni ko’plab keltirishga rusning bosqinchilik siyosati va uning oqibatlari sababchidir.

XIX asrning ohirlarida Turkistonda juda ko’p eski maktablar ishlab turdi. Bular asosan boshlang’ich va O’rta hamda oliy diniy ta’lim beruvchi madaniy o’choqlar edi. Eski maktablarda ta’lim ning sifati maktabdor qo’ygan talab va uning o’zining hamda qo’l ostidagilarning tayyorligiga ko’proq bog’liq edi. Ilg’or domlalar diniy ta’lim bilan chegaralanib qolmasdan dunyoviy ta’lim ham berardi. O’quvchilar xat-savodini chiqarishar, xisobdan ham bir qadar dars olardi. Maktablarda adabiyot, tarix, geografik ilmlarga ham ancha o’rin ajratilgan. Eski maktabda kambag’allarning bolalari birinchi bosqichdagi ta’lim tarbiyadan so’ng o’qishni tamomlagan hisoblanardi. O’ziga to’q

oilalarning farzandlari maktabdorlar qo'lida yana sakkiz yil shog'ird bo'lib, o'qishni davom ettirar edilar.

Eski maktab odatda kichik bo'lib, unda 10-15 nafar o'quvchi taxsil olgan. Lekin madrasalar o'z xashamatligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turgan.

O'lkaning yirik shaharlarida madrasalar qurilishi davom etdi. Ular odatda ulug'vorligi bilan ajralib turar edi. Yirik madrasalar oliy ta'lim vazifasini bajarib, ularda bir necha muddarislar dars berganlar.

Shaharlarda ba'zi bir muallimlarning rafiqalari yoki savodxon ayollar otinoyilik qilganlar. Ular qizlarning savodini chiqarganlar.

1897 yilda Andijon atrofida paxta zavodi qoshida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Shundan keyin bunday katta shaharlarda ham maktablar ochila boshlandi. Yangi usul maktablari o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

1. Yosh avlodga hozirgi zamon xayotida kerak bo'ladigan bilimlar berish;
2. Eski usul ta'lim mazmuniga yopishib qolmasdan, zamonaviy ta'lim usularini qo'llash, tarbiyalash, so'ngra ruslar bilan mahalliy xalqlarni aralashtirib yuborib, shu yerda Yevropacha turmush tarzining g'alabasini tula ta'minlashga intildi. 1880 yilda imperiya Davlat kegashida Turkistondagi mahalliy Aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'tarilib, unga harbiy vazir general-ad'yunand graf Mulyutin, maorif vaziri graf Tolstoylar rozilik berishdi. Bu masalaga ya'ni rus tuzem maktablarini shu jabhadan turib xal qilishni Rozinbax gayrat bilan kirishib, u boshlangich maktablar "rus tuzem" maktablari tarmog'ini yaratish loyixasini ishlab chiqdi.

1884 yilda Toshkentda birinchi rus tuzem maktabi ochildi. 1998-1999 yillarda shaxsan general-gubernatorning tashabbusi va faol ishtiroki bilan dastlab katta yeshdagi turkistonliklar keyin esa keyin esa ukuvchilar Rosssiyaga sayexatga yuborildi. Bundan ko'zatilgan maqsad haqida Turkiston o'lka bilim yurtlari bosh inspektori F.Kerenskiy shunday fikr bildirgan-Sartlar va kirgizlarning bolalari Rossiyaning ulugvorligi, qudrati va boyligini kurib, aholisining mashg'ulotlari, mehnat unumi, sanoati va savdo sotig'i bilan tanishib, bu haqda o'zoq vaqt eslab, boshqalarga gapirib yurishadi.

Birinchi sayoxatchilar 1899 yilda harbiy vazirning shaxsan o'zi qabul qilib, ularni "aziz mexmonlar" deb atadi. Vazir ularga sovg'a tariqasida 300 so'm berdi. Sayoxatchilarni Tsarskoeseloga tamoshaga yuborib, ularga yo'l boshlovchi qilib general shtab polkovnigini tayinladi. Ziyoratchilar TSarskoeseloda kurikni ko'zatishtayotganda ularning oldiga general, shtab boshligi, so'ngra imperotorning amakisi buyuk knyaz kelib ko'rinish berdi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon kabi shaharlardan kelgan 14-18 yoshlardagi 15 ta O'zbek, 2 ta qozoq, 1 ta tojik o'quvchi "davlatpanox imperator"-oq podshoning iltifotiga sazovor bo'ldilar. Turkiston yoshlari ikki oy davomida Sankpeterburg, Moskva va boshqa yirik shaharlarni ko'rdilar. Keyingi ikki ekskursiya ham shunday dabdabali ravishda uyushtirildi.

Chorizmning Turkiston o'lkasi aholisini ruslashtirish siyosatining riyokorligi shunda ediki, rus amaldorlari o'zbek, qozoq, qirgiz, turkman, tojik

xalqari orasidan yetishib chiqqan va ruschani mukammal o'rgangan odamlarni xushlamay ulardan cho'chib turgan va o'rni kelganda ta'qib qilgan. Chunki bunday ma'rifatparvarlar o'z xalqlarining ko'zini ochishlari, haq-huquqlarini tanishlari va milliy onglarini o'stirishlariga bevosita ta'sir ko'rsatishlari mumkin edi. Rus amaldorlariga esa ruschani yaxshi bilgan va xalqning ko'zini ochib g'aflat uyqusidan uyg'otadigan ziyolilar kerak emas edi. Mustamlaka ma'muriyati Turkiston ziyolilari katta mavqe va mansabga erishsa, o'z xalqlari uchun sadoqat bilan xizmat qilishlari, mustamlaka tartiblariga qarshi chiqishlari va bu harakatga bosh bo'lishlari mumkunligidan xavfsirashgan. Shuning uchun ham ularni ma'lum chegarada saqlab, eng muhim masalalar hal etiladigan idoralardan chetlatishgan. K.Pobedonostsev rus ma'muriyati xizmatiga qanday odamlar olinishi lozimligi haqida bunday degan edi-"Bizga ruschani gapirganda tutilib-tutilib qizaradigan, ruscha xatni chala savodlarcha yozadigan, faqat gubernatordangina emas, balki har qanday amaldordan hayiqib, qo'l qovushtirib turadigan nomzodlar ma'qul".

Mana shu ko'rilgan yo'l-yo'riqlarning o'lkada amalga oshirilishi o'lka farzandlarining rus-tuzem maktablarida haqiqiy ilm olishlariga emas, balki imperiya uchun yot millatlardan sodiq mutelar tayyorlashdek siyosiy maqsadlarga yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

6.Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari.

XIX asr ohiri-XX asr boshlarida Turkistonliklar tilida "jadid", "usuli jadid" degan so'z va ibora aytilib qoldi. Dastlab ziyolilar orasida qo'llanilib yurilgan bu so'z va ibora borgan sari oddiyroq odamlarning ham tiliga ko'cha boshladi. Keyinroq esa bu xodisa butun jamiyat xayotida o'zgarishlar yasay boshlagach, "Jadid", "usuli jadid", "taraqqiy" kabi so'zlar ommalashib ketdi. Xatto bu so'zni "Kofir" ma'nosiga nisbat berdilar. Ayrim namoyondalarni to'g'ridan-to'g'ri "taraqqiy" yo "jadid" deb atay boshladilar.

Qrimning Bog'chasaroyida "Tarjimon" nomli gazeta chiqarib butun Rossiya Chor ma'murlarini tashvishga solib qo'ygan Ismoilbek Gaspirali "Usuli jadid" tushunchasi va u bilan bog'liq butun bir jarayonning vallomati edi.

Bu tushunchani Ismoilbekning o'zi shunday ta'riflaydi: "Ota-bobo kunlardan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o'quv, boshqa bir maktab demak dalildir".

Amaliy jihatdan favqulodda ijobiy natijalar bergan bu usul asr boshida Turkistonning barcha shahar va qishloqlariga kirib borayotgan edi. Bu usul targ'ibotchilari ana shu munosabat bilan "Jadidlar" nomini oldi, ularning maktablar isloxotlari bilan boshlanib, asta-sekin jamiyatning madaniy-ma'naviy xayotini, kengroq ijtimoiy-siyosiy sohalarini qamrab olgan harakati uchun esa "jadidchilik harakati" deb atash rasmiy tus oldi.*

Shu bilan birga bu davrni tarixiy va ilmiy adabiyotlarda "milliy uyg'onish davri" deb atash ham 20-yillarda taomilga kirgan edi.

Shunday qilib, XIX asr ohirlari va XX boshlarida Turkistonda "jadidchilik" yoki "Milliy uygʻonish davri" boshlandi. Professor Begali Qosimov bu davr xususiyatlarini oʻrganib, shunday xulosaga kelgan edi:

Xoʻsh, jadidchilik Turkistonda qanday yuzaga keldi?

1865 yili Turkiyada "Gench Osmanilar"-(Yosh usmoniylar) jamiyati yuzaga kelib, u zulm va jaholatga faol saltanatga qarshi kurash olib boradi. Bu harakat Rossiya musulmon ziyolilariga, ayniqsa, tatar ziyolilariga kuchli taʼsir qiladi.

Rossiya musulmonlari dunyosidagi ijtimoiy-maʼnaviy harakatda Ismoilbek Gaspirali (1852-1914)ning xizmati katta boʻldi. U turkiy tildagi matbuotda "tarjimon" gazetasi tashkil etib, keng musulmonlar orasida tarqatadi.

Uning sahifalarida dastavval Buxoroda soʻngra musulmon Russiyasining markazida "usuli jadid" gʻoyasi targʻib etildi.

"Usuli jadid" deb nom olgan maktabni birinchi boʻlib Ismoilbek Gaspirinskiy 1884-yili Bogʻcha saroyda ochib, musulmon bolalarini butunlay yangi usulda oʻqitishga kirishdi.

Tez orada bu xabar Turkistonga ham yetib keldi. Ismoilbek Gaspirinskiyning maktabi turkiy xalqlar orasida namuna boʻldi. Turkistondagi birinchi "usuli jadid" maktabi 1893 yili Ismoilbekning bevosita yordami va madadi bilan Samarqandda ochildi. Ikkinchi jadid maktabi esa Andijonda Sultonmurod boyning paxta tozalash zavodi binosida 1897 yili ukuvchilarni kabul qildi. 1898 yili Qoʻqonda Saloxiddin domla, Toshkentda Mannonqori va andijonlik Shamsutdin domlalar jadid maktablarini ochdilar. Bu maʼlumotlar albatta kamaytirib koʻrsatilgan, chunki chor maʼmurlari xususiy holda ochilgan bunday maktablarni toʻla hisobga olish imkoniyatiga ega emas edilar.

Turkistonda jadid maktablari soni usib borishida iqtisodiy omil ham asosiy oʻrin tutardi. Turkistonda sanoat va savdoni, ayniqsa paxtachilikni rivojlanishi natijasida yuz minglab, goxo, xatto million soʻmlab pulni muomalaga kiritadigan, foydali aksiyalarga, kimmatli qogʻozlarga, yirik xosildor yerlarga ega boʻlgan sarmoyadorlar, badavlat tadbirkorlar mahalliy aholi orasidan yetishib chiqishi tezlashdi.

Kapitalistik munosabatlar oʻziga koʻproq katʼiyat bilan yoʻl ocha boshladi. Oʻzbek boylari kapitalistik sanoat korxonalarini, paxta tozalash zavodlari sovun, yogʻ-moy kombinatlari oʻz kapitallarini xisobiga qura boshlagan edilar. Mahalliy kapitalistlar, savodli xodimlar-xisobchilar, tarjimonlar, ish yurituvchilar va xokazolarga muxtoj edi. Eski maktablar esa bunday xodimlarni yetishtirib berish imkoniyatiga ega emas edi.

Shu sababli jadid maktablarining ochilishiga milliy burjuaziya vakillari xayrixolik bildirib moddiy jihatdan kullab kuvvat ladilar. Bu maktablarning koʻplari paxta zavodlari xududida ochilar edi. Bu fikrning isboti uchun Andijon shaxridagi jadid maktablarni misol keltirish mumkin. "Andijondagi birinchi jadid maktablari Sultonmurodboyning paxta tozalash zavodi binosida, Abdugʻaffor Aminning oʻz mablagʻidan koʻrdirgan pishiq gʻishtli

maktabxonasida, Zulunbek Domlaning uyida, Orzuqulbek boyning paxta tozalash zavodi kontorasida ochilgan. Paxtachi boy M.U.Safonov ham Narimanov ko'chasi o'g'il bolalar va kizlar ukiydigan yagona jadid maktabini mablag' bilan ta'minlab turgan".

"Andijon atrofidagi qishloqlarda 15 ta jadid maktabi bo'lib, ulardan 12 tasi badavlat odamlarni uyida, 2 tasi masjid binosida va 1 tasi maxsus binoda ochilgan. Maktab uchun binoni Xotamboi ko'rdigan bo'lib, domlaga oyiga 200 so'm maosh to'lab turgan."

1900 yilga kelib jadid maktablari yanada ko'paydi. Toshkentdagi Shayxontoxur daxasidagi "Gospital" bozori yonida Munavvarqori Abdurashidxonov maktab ochib bolalarni jadid usulida o'qita boshladi.

Buxoro amirligida ham birinchi jadid maktabi katta shuxrat qozondi. Shu yili Pustindo'z qishloqida ham bunday maktab ochildi. Samarqandda esa Abduqodir Shakuriyning jadid maktabi katta shuxrat qozondi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1903 yili Turkistondagi jadid maktablari soni 104 taga yetdi.

Shu tariqa Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati keng quloq yoza boshladi. Albatta bunda professor X.Voxidov ta'kidlaganidek: "Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishiga Rusiya musulmonlarining milliy-ozodlik harakati mafkurachilarining ta'siri katta bo'ldi".

Jadidchilik harakatining diqqat masalalaridan biri o'lkada keng miqyosda madaniy-okartuv ishlarni amalga oshirish edi. Jadidlar Turkiston o'lkasining yangidan va ko'tarilib kelayotgan madaniyatida fakat G'arb emas, balki Sharq madaniyatining ham usul vaalomatlarini o'zida mujassamlashtirgan edilar.

Bu xodisa, ayniqsa adabiyot, san'at, me'morchilik, maorif sohaslarida ko'proq seziladi va ko'zga tashlanadi. Ular Sharq maorif tafakkuri va ahloq ta'limotlaridan ham samarali foydalanganlar.

XX asr boshlarida madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jadidlarining amaliy dasturiga ko'ra madaniyat isloh etila boshlagan edi.

Jadidlar yaratayotgan madaniyat Turkistonliklarning kiyim-kechagida, poyafzalida, tashqi ko'rinishida, to ongi va madaniy tafakkurigacha barcha narsani o'zgarishga maxkum qilgan edi va shunday bo'ldi. "Turkistonliklar soch qo'ydi, soqol-mo'ylovini kirdi, Yevropacha yoqali ko'ylak, kostyum, paltolar, poshnali oyoq kiyimlar va yangi bichimdagi bosh kiyimlarni asta sekin kiyish keng tarqala bordi". Madaniyatdagi yangiliklar va o'zgarishlar yengil kechmadi. Bu qiyin, mashaqqatli va xavf-xatarga to'la ko'p yillik jarayon edi.

XIX asr ohiri va XX asr boshlarida Toshkentda telegraf o'rnatilgani ma'lum. Bu telegraf Chor hukumati tomonidan joriy qilingan deb o'ylaydilar. Aslida esa, Toshkent telegrafi Said Azimboy tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Telegraf uchun qulay bo'lgan imoratni ham Said Azimboy in'om qilgan ekan".

Bundan tashqari jadidlar kutubxonalar, hunar o'rgatuvchi ixtisoslashgan maktablarni ham o'z mablag'lariga ochdilar. Ayni paytda, xalq dorilfununi

tashkil etish uchun mablag' yig'dilar, ammo chor hukumati bunga yo'l qo'ymay, yig'ilgan mablag'larni birinchi jahon urushi harakatlari uchun topshirishga majbur etdi.

Shunga qaramay ular butun Turkiston bo'ylab tuzilgan "Jamiyati xayriya"lar orqali to'plangan pullar evaziga millatning iste'dodli yoshlarini Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy-Novgorod, Qozon, Boku kabi shaharlarga, shuningdek chet ellarga Olmoniya, Frantsiya, Angliya, Shvetsariya, Turkiya, Misr, hatto Amerika va Yaponiyaga o'kishga yuborishga intildilar. Ularning rejasiga ko'ra, bu yoshlar chet ellarda shifokorlik, muxandislik, iqtisodiyot, huquqshunoslik kabi yana boshqa ko'plab zamonaviy bilimlarni egallab qaytishlari va millat ravnaki uchun kurashuvlari lozim edi. Bulardan tashqari, jadidlar Turkistonning yirik shaxarlarida matbaaishlarini tashkil qildilar. Ular gazeta va junallar chiqardilar. Bular: Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turon", "Turk eli", "Najot", "Kengash Shuroi Islom", "Ulug' Turkiston", Samarqandda "Oyna", "Xurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi Sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z", "Kengash", "Yurt", "Xurriyat", Farg'onada "Farg'ona nidosi" kabi boshqa ko'plab chop etilgan gazeta va jurnallar ana shular jumlasidandir".

Jadidlar maktab uchun yaratgan darsliklarida tarix, millat, Vatanga ta'rif beradi. Vatanni, xalqni, ona yerni ximoya qilish xar bir fuqaroning burchi ekanligini uqtiradi.

Jadid maktablari uchun darsliklar tayyorlash davom etadi. Maxmudxuja Bexbudiy "Muntaxabi jug'rofiyan umumiy", "Mad-xali jo'g'rofiyai umumiy", "Madxali jugrofiyai imroniy", "Muxtasar gegrafiyai Rusiy", Abdullo Avloniy "Birinchi muallim", "Maktab Gulistoni", "Turkiy Guliston yoxud ahloq", "Sadridin Ayniy", "Taxsibus sibyon", Fitrat "O'qish", "O'quv maktablarining so'nggi sinflari uchun", Hamza "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi", "Engil adabiyot" darsliklarini yozdilar. Zikr qilingan darsliklarda Sharq allomalari asarlaridan tashqari rus, qadimgi grek, arab, fors, Yevropa yozuvchi va pedogolarining bolalar uchun maxsus bitgan xikoyalari salmoqli o'rin egallaydi.

Jadidlar nashr shirkatlari to'zdilar, bosmaxona ochdilar. Teatr ishlarini yo'lga soldilar. Yillar o'tib, jadidlar harakati va ular ochgan maktablar hamda xunar o'quv muassasalari, gazeta va jurnallar, kutubxonalar va nashriyotlar, teatr va xayriya jamiyatlari, shirkat va xokazolar asta-sekin katta ijtimoiy kuchga aylandi.

Jadidlar davri-bu milliy uyg'onish, Turkiston fuqarolari qadr qimmatini tiklash davri bo'ldi. Shunday qilib, vaqti-soati bilan jadidchilik harakati Turkistonning eng baquvvat va yagona ijtimoiy-siyosiy, milliy-mafkuraviy kuchiga aylandi. Bu kuch bilan na chor xukumati, na muvaffakiyat va na sovet xukumatlari xisoblashmasligi mumkin emas edi. Shuning uchun jadidlar sovetlar davrida quvg'inga uchratildi.

"Maxmudxuja Bexbudiy tarjimai holiga Xoji Mu'in yozgan" "Bosh so'zi" da quyidagi fikrlarni bildirgan: Biz Turkiston turklari, bugungi muxtasham madaniyatimiz so'ngidan keyin, so'nggi asrlarda xar bir jihatdan juda chetda qoldik. Lekin so'ng bo'lsa ham gunox va xatolarimizdan xabardor bo'la boshladik. Biroz uyg'onib ketdik. Bizda intixob davri 1901 yildan boshlandi".

Jadid harakati yuzaga kelganda Turkistonda xayot nihoyatdaqiyin va og'ir kechar edi. O'lka o'z o'tmishi, tarixi, fan va madaniyatidan bexabar ahvolga tushib qolgan edi.

Jadidlar Turkistonni g'aflat uyqusidan uyg'otishga va olamni ko'z ochib ko'rishga, o'zligini tanishga da'vat etdi. Bu savobli ishda jadid adabiyoti, jadid teatri, jadid matbuoti, azaliy vaadabiy bo'lgan inson ruhiyatini teran badiiy kayfiyatini yuksakka ko'tarib yubordi. Ular ovrupacha teatr vaadabiyotning yangi-yangi janrlarini Turkiston madaniy va ma'naviy xayotiga joriy etar ekanlar, xalq og'zaki dramasiining muayyan shakllaridan baxramand bo'ldilar.

Jadid ziyolilarining teatrchilik harakatlari yuzaga kelishdao'sha zotlarning g'ayrat vaqiyinchilik bilan yozilib, matbuot sahifalariga ko'chgan ko'zatishlari, muloxazalari ham ma'lum darajadaahamiyat kasb etdi, milliy tafakkurni sho'nga tayyorladi, yo'naltirdi.

Darhaqiqat, teatr-dunyo, dunyo esa tomoshaxona. Sahna aylangani kabi dunyo ham hamisha aylana harakatda. Kelajakni ko'zlagan odam o'tmishini, kechmishni o'ylashi, bugunini rostlashi zarur.

Jadidlarning o'z maqsadlarini ruyobga chiqishida madaniy oqartuv ishlaridagi faoliyati ham taxsinga sazovordir. Zero, mustaqil davlat poydevorini tiklar ekanmiz, o'tmishidan, xususan yaqin tarix jadidlar saboqlaridan ibrat olmasligimiz mumkin emas. Ular ibrati qilgan ishlarida vaaytgan so'zlaridaqoldi. Ularning millati nomidaaytgan so'zlari, dardi-iztiroblari esa she'r bo'lib va yana "teatr risolalari" deb atalmish sahnaasarlarida koldi.

XIX asrning 80-yillarida xalqqa ma'rifat va ziyo tarqatish uni dunyoviy bilimlar asosida savodli qilish va madaniyatni ko'tarish g'oyasi sifatida vujudga kelgan jadidchilik harakati asrimiz boshlariga kelib siyosiy kuch sifatida tashkiliy sifatga ega bo'ldi. Turkistonni Rusiyaning mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo'lishi mustaqillikka erishish va uni ma'rifatli, farovon hamda obod Vatangaaylantirish maqsadida jadidlar madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy kurashda faol qatnashdilar.

Birinchi rus inqilobi jadidchilikni ko'chayishiga, ko'lami va mazmun yo'nalishining kengayishiga yul ochdi, xalq orasida keskin uyg'onish boshlandi. Jadidlar tashabbuskorligida bir qancha matbuot organlari tashkil etildi. O'zbek xalqi tarixida birinchi bo'lib mustaqil nashr etilgan gazeta "Tarakkiy" gazetasi bo'lib, uning birinchi soni 1906 yil 14 (26) iyun kuni chiqdi. Gazetaning birinchi sonida e'lon etilgan bosh maqolada "Biz musulmonlarni xurriyatda xalqlari bormi?"

Yo'q!!! Qarindoshlar, yuz marta yo'q!" degan sarlavxa berilgan. Bu maqoladan Chor xukumatining 1905 yil 17 okyabrda e'lon qilingan hamda

xalqqa qator erkinliklar va'da qilgan manifesti xususida bo'lib, unda bu xujjat Turkiston xalqlariga hech qanday erkinlik bermaganligi, aksincha hamon milliy va siyosiy zulm-istibdod xukm surib kelayotganligi haqida dadillik bilan barallaaytiladi: "Hozirda ijtimoya, kalom, matbuot uchun berilgan xurriyatlar: og'ziga suv tomizib turgan og'ir xastadek ekanini tilsiz va ko'p tabiblar ham tasdiq eturlar.

Jadidlarning yetakchi namoyondalaridan biri M.Bexbudiy "Xurshid" gazetasining 1908 yilgi sonlaridan birida e'lon qilingan maqolasida mustamlakachilik siyosati tufayli Turkiston o'lkasi xom-ashyo yetkazib beruvchi zamin bo'lib qolganidan xalqimiz qashshoq bo'lib yashayapti, deb qayg'uradi. Bexbudiy sanoati rivojlangan yevropaliklar xom-ashyoni o'zimizdan arzonga olib, yana o'zimizga qimmatga sotish bilan millioner bo'lib ketmoqda, bizning xalqimiz esa kambag'alligicha qolmoqda, deb ta'kidlaydi.

Bexbudiy bu haqda quydagilarni yozadi: 6 million Turkistonlilarda 3 millioner borligi ma'lum. Dexqonlar esa, garchi bir vaqt qo'li bir oz aqcha ko'rar, yana ovrupa (boylariga) bir, ikki-besh xom mold berib pishiqni zo'rg'a olur».

Jadidlarning barcha gazeta va jurnallarida Turkistonda zulm va istibdodga qarshi erk va va ma'rifat, madaniyat, milliy ozodlik va adolat uchun kurashish zarurligi haqidagi ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

Matbaachilik yo'lga qo'yildi. Turkistonning ko'pgina shaxarlarida bosmaxonalar ishga tushdi. "Musulmoncha" kitob va jurnallar chop etila boshlandi. Bu haqda Abdulla Avloniy shunday yozadi:". 1905 yildagi Rossiyada boshlangan inqilob to'liqini bizga ham zo'r ta'sir qildi. Bizning tashkilotimiz siyosiy maslakhlariga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga kirishdi. Bo'nga erishmoq uchun gazit chiqarmoqni munosib ko'rib, uyushmaning harakati bilan o'zbek tilida gazetalar chiqarildi. 1906 yilda "Taraqqiy", "Xurshid" gazetalar chiqib, eski xukumat tomonidan to'xtatilgandan so'ng 1907 yilda o'z muxarrirlikim bilan hamda temir yul ishchilarining sotsial-demokratik firqasining aloqa va yordami bilan "Shuxrat" ismindagi gazetni Sapyorni ko'chada chiqardim".

Jadidlarning asosiy g'oyaviy yul-yuriqlari ana shu tashkil etilgan matbuoti sahifalarida o'z yorokin ifodasini topdi. Publistika shiddat bilan rivojlandi. Birgina Bexbudiyning matbuotda bosilgan maqolalarini mutaxassislar 300 dan ortiq chamalaydilar. Abdurauf Fitratning "Xind sayyoxi", ("Bayonoti sayyoxi xindiy"), Turkiyada chiqqan "Munozara" asari, "Sayxa" she'rlar to'plami e'lon qilinishida Bexbudiy va boshqa jadidlarni yordami katta bo'ldi. Mirmuxsin Mirmuhamedov, Cho'l pon, Qodiriy, Munavvar Qori, Hamza, Tavallo, Azjiy va boshqalar o'z asarlarida taraqqiyparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topdi. Dramaturgiyaga asos solindi. Bexbudiy birinchi bo'lib 1911 yilda "Padarkush" dramasini yozib tsenzuradan o'tkazdi, hamda 1919 yili nashr etdi. O'sha yili p'esa sahnalashtirilib, Samarqanddagi "Xalq uyida" o'ynaldi. "Padarkush" tez

orada shuxrat topib, Toshkent, Qo'qon, Andijonda tashkil topgan teatr trup palari tomonidan sahnaga olib chiqildi. Agarda Bexbudiy chorizmning mustamlakachilik siyosati oqibatida kirib kelgan ichkilikbozlik va ma'naviy ahlokiy buzukliklarni fosh etadi. Shuningdek, Turkistondagi hamma balolar yoshlar o'rtasida ma'rifatga ahamiyat bermaslikdan, odamlar tabiatini unga ilm berish bilan tuzatish mumkin. Turkiston yoshlari jaholat qanday falokatlarga olib borishlarini bilib qo'yishlari kerak, degan mazmundagi fikrlarni olga surish kerak.

"Padarqush" pesasi o'zidan keyingi pesalarning sahnalashtirilishi uchun bir tajriba namunasi bo'lib xizmat qildi. Jadidlar asarning dramatik shaklining afzalliklarini tez tushunib yetdilar. Ularning ko'pchiligi siyosiy jihatdan savodsiz bo'lgan vatandoshlarning keng ommasiga o'z maslak va g'oyalarini ta'sirli hamda tushunarli holda yetkazish uchun sahnaviy harakat va ko'rin ishlardan foydalanishga o'rindilar. Keyinchalik "Kuxna Turkiya", "Qotil kim?", "Baxtsiz kuyov" kabi pesalar sahnaga qo'yildi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijondan tashqari Buxoro va Qarshi shaharlarida jadidlar tomonidan xavaskorlar guruxi, teatri tashkil qilindi.

Turkiston jadidlarining qardosh xalqlar, birinchi navbatda, usmonli turklar, ozor, tatar, boshqird va boshqa turkiyzabon jadidlar bilan hamkorligi ko'chaydi. Bir so'z bilan aytganda adabiy madaniy, ijtimoiy-siyosiy turmushning hamma katlamlarida jadidchilik harakatidagi kutarilish yaqqol ko'zga tashlandi.

Mustamlakachi Chor hukumati jadidlarning harakatlari bilan Turkistondagi milliy va diniy uyg'onish sodir bulayotganidan, istilochilarning siyosiy nayranglariga faxm farosati yetadigan va sal qo'yib bersa "qora xalq"ni ozodlik kurashiga ko'tarishga va bu kurashni mohirlik bilan boshqarishga kurbi yetadigan ma'rifatli va millatparvar butun bir avlod shakllanayotganidan taxlikaga to'shadi. Turkiston general-gubernatorligi mahkamasida 1908 yilda "Turkiston o'lkasida va undan chetda josuslik qilish masalasi" buyicha ishlaydigan komissiya to'zildi. Komissiya asosan jadidchilik harakatini yo'q qilishdan bordi. U Turkistondagi maktab va madrasalarni barchasini jadidlar ta'siriga berilmasligi uchun jon-jaxdi bilan kurash olib bordilar. Birinchi jahon urushi boshlanib ketib, istilochi chor xukumati chekka o'lkalardagi millatparvarlar bilan jiddiy shug'ullanishga imkon topolmay qoldilar. Shunda ham maxfiy idoralari, mustamlaka siyosatining bu o'lkaga yuborilgan mafkurachilari ularni hamisha ko'z ostida saqlab turar, ham ma'nan, ham jismonan ezib tashlashi qulay mavridini poylash edi.

Ma'lumki, Rossiya podshosi Nikolay II ning 1916 yil 25 iyunda "Front orqasidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkaz gayritabiylaridan 19 dan 31 yoshgacha er kishilardan mardikorlik ka olish haqida" gi 1526 rakamli farmoni e'lon kilindi. Bu noqonuniy farmon o'lkadagi chor ma'murlari tomonidan boshboshdoqlik bilan amalga oshirildi. Oqibatda Turkistonning ko'pgina shahar va tumanlarida aholi o'rtasida norozilik tug'ilib isyonga aylandi. Isyonlar shavqatsiz bostirildi. Ana shu pallada jadidlar sukut saqlamay,

aholiga yordam berish payiga tushdilar. Ular chor hukumati olib borayotgan bu siyosatning noto'g'riligini xalqqa tushuntirib, bu masalada tashkil etishlarida faollik kursatdilar.

Shu tariqa 1916 yilgi milliy-ozodlik harakatini qo'llab quvvatladilar. Jizzax, Yettisuv, Toshkentda qirg'inlarining shoxidi bo'lgan jadidlar faqat xurriyatgina Turkiston xalqlariga ozodlik berishi mumkinligini chuqur idrok etdilar. Natijada o'lkada turli siyosiy to'garaklar, jamiyatlar paydo bo'ldi. Andijon va Qo'qonda "G'ayrat", Toshkentda "Ulamo", "Sho'roi Islomiya", Samarqandda "Ittifoq" jamiyatlari, Buxoroda "Yosh Buxoroliklar", Xivada "Yosh xivaliklar" partiyalari tuzildi.

Turkiston jadidlarining Rusiyadagi turli siyosiy partiya va uyushmalariga munosabati xar-xil edi. Ularga ko'prok rus burjua monarxiya partiyasi kadetlarining maslak va qarashlari ma'qul tushgan edi.

"Xozir Rusiyada, -deb yozadi Bexbediy "Xurshid" jurnalining 1906 yil 11 oktyabr 6-sonidagi 22 "Xayrul-umuri afsosuxr" (Xar ishda me'yor durust") nomli maqolasida, bu kadetlar firqasiga mansub xalq xar din va millat axlidan nihoyatda ko'pdir. Sobik millat majlisi a'zolarini aksari bu firqadan edilar. Bu firqa haqiqatda O'rta firqadir. Mo'tadil al-mijoz xalqlar bu firqani xoxlagandurlar. Rusiya mamlakatiga bexrok xizb yo'qdir". Bexbudiy kadetlar partiyasini shu tariqa ta'riflab, Turkiston musulmonlari mazkur partiya kushilishga qaror qilganliklarini bildirdi."... Biz, Turkiston musulmonlari 23 avgustda Nijniy shaxrida bo'lgan Rusiya musulmonlari xizbiga bay'at qilib, siyosatan kadetlarga qo'shilub, didan va ilman mazkur s'ezd ittifoki xukmiga va munkod bo'lsa kerak. Yaqinda mazkur navdai islomiya qarornomasi bosilib olam matbuoti ila nashr kilindur. Turkistonni muxtaram muallif va muharrirlari g'araz, nafsoniy xasad, baxs va munozarali shaxsiyalarini SHarq etib, shumaslak va shu jamiyatga shobe' va xodim bulmoklari xizmatidin va davlat, obruyi Vatan va Millatdur".

Turkiston jadidlari sardori Bexbudiy sotsial-demokratik partiya RSDRPga o'z munosabatini bildirib Quyidagilarni yozadi; "Bularning (sotsial demokratlarni) boshlovchi murodi xozirgi barcha zokun, mulkiyat koidalarini butun bo'zub, mol va yerlarni hamma xaloyiq o'rtasida masaviy etmokchidir. Boylik va kambag'allikni yo'q kilib, dunyo molini roxatidan hammani barobar foydalantirib mas'ud va roxat umr o'tkazilmogiga va xar kim o'z istiqbolidan amin bulmokiga zokun va koda joriy kilmokchidurlar. Bularni prugramini joriy bulmogiga xozirgi asrimiz mustaid emas... Xar holda, bu partiyani murodi mumkin loyiq yoyinki xayoliydek kurunub, bu toifaga kushulmok biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlikdir. Prugrammalarini moliya moddalarini bir oz tagiyir bormaguncha shariatga muvofik ulmagoni kabi oz tagiyir bormaguncha shariatga muvofik ulmagoni kabi joriy va oila bobidagi fikrlari ham aslo, tugri kelmaydur".

Boshqa jadid gazetalari ham sotsial-demokratik mafkuraga qarshi chiqdilar. "Bunday partiyalarning-deb yozdi. "Taraqqiy" gazetasi, bizga

foydasidan kura ko'prok zarari tegadi". "Musulmonlar uchun juda to'g'ri keladigan partiya konstitutsion demokratik (kadetlar) partiyasidir". "Tujjor" gazetasi ham huddi shunday fikrni aytadi: "Biz kadetlarning qonun loyihalariga qo'shilishimiz kerak, chunki bu dastur juda ma'qul va biz uchun g'oyat foydalidir".

Umuman olganda Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy jamiyatida avvalo yangi usul maktablarini ochishga katta e'tibor berildi. SHuningdek, ular millatni savodli qilish va shu orqali millatga davrni talab va muammolarini tushuntirish, xalqni ko'p asrli g'aflatdan uyg'otish yulida juda katta ishlarni amalga oshirdilar. Ular Turkiston kelajagini, ravnaqini ta'minlaydigan fuqarolarni yetkazishni maqsad kilib qo'yadilar va bu maqsadni amalga oshirish uchun o'zlari ochgan yangi ishidagi maktablarda millat farzandlarini o'qita boshlaydilar.

7. Birinchi jahon urushining o'lka hayotiga ta'siri.

Birinchi jahon urushi butun Rossiya imperiyasi, shuningdek Turkiston o'lkasi aholisining ham ahvolini yanada og'irlashtirdi. 1914 yil 26 iyulda Turkiston o'lkasi "Favqulodda muhofaza holatida" deb e'lon qilinib, mirshablik nazorati kuchaytirildi. Har qanday targ'ibot va tashviqot ta'qiqlanib, Maxsus qo'mita tomonidan 500 rublgacha jarima solish, 10 oy muddat qamash huquqi belgilandi. Mavjud tuzumdan norozilik o'zbek ishchi, hunarmandlari o'rtasida kuchaydi. Hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan 425 sanoat korxonasidan 220 ta paxta tozalash, 76 tasi qo'n-teri ishlash, 32 tasi pillp quritish zavodlari bo'lib, bularda 18 ming ishchi kuniga 12-14 soatdan og'ir sharoitda mehnat qilgan. Temir yo'l ishchilari safida tub millatli ishchilar safi 4,5-5 mingni tashkil qilgan. Turkiston hunarmandlarining ahvoli ham og'ir bo'lgan. Rus sanoati mollarining raqobati ularni xonavayron qilib, ko'pchiligi oxiri og'ir mehnat qiluvchi ishchilar safiga borib qo'shilgan edi. Urush o'lkaning qoloq qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyotiga ham katta zarar yetkazdi. Natijada o'lka aholisining 90 foizini tashkil etgan dehqon va chorvadorlarning ahvoli ham mushkullashdi. 1916 yilda o'lkaning asosiy ekini bo'lgan paxtaning ekin maydoni ham hosildorligi kamayib ketdi. Paxtaga ixtisoslashgan rus fabrikantlari, o'z navbatida paxta narxini barqarorlashtirishga intilib, oxiri hukumat yordamida tayyorlangan paxtaning qat'iy narxda bo'lishiga erishdilar. Bundan paxtakorlarning noroziligi kuchayib paxta topshirishdan ommaviy bosh tortish boshlanib ketdi.

Dehqonlardan olinadigan rasmiy soliqlarning hajmi ham kun sayin ortib bordi. Turkiston yer solig'i 1914 yilda 6859021 rubl bo'lgan bo'lsa, 1916 yilga kelib, bu raqam 14311771 rublni, ya'ni ikki baraobarni tashkil qildi. 1915 yilda maxsus soliq solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qildi. Non narxi urush paytida 6 barobar oshdi⁷. Oziq-ovqat

⁷O'Z Res. Markaziy Davlat Arxivi, 461-jild, 1-ro'yhat, 1676-ish, 2-varaq.

ta'minotining qiyinlashuvi sababli Turkistonda mehnatkashlarning noroziligi kuchaydi. Narx-navoning oshishi yirik yer egalari, kapitalistlar, chayqovchilarga qo'l keldi. Natijada ular katta foyda ko'ra boshladilar.

Rus mustamlakachilari urush paytida Turkistondan 59 mln. pud paxta, 8,5 mln pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketishdi. Frontga aholidan 70 ming ot, 12 ming tuya, 38 ming kv. metr gilam-namatlar, 2400 ming rubl naqd pul yig'ib oldilar. Huddi shu davrda guruch, go'sht, qand, kiyim-bosh narxi bir necha marta ko'tarilib, aholi ro'zg'orini og'ir ahvolga solib qo'yan edi. Aynan shu sharoitda podshoning bu oilalarni boquvchisiz qoldiradigan mardikorlikka safarbarlik haqidagi farmoni xalq sabr-kosasini to'ldirgan so'ngi tomchi bo'ldi.

Imperator Nikolay 11 imzo chekkan 1916 yil 25 iyun kuni e'lon qilingan "Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofqasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida" farmoniga ko'ra Turkiston, Sibir, Kavkaz xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni safarbar qilishni mo'ljallagan edi. Lekin bu farmonni bu tarzda Turkiston o'lkasiga mutlaqo tatbiq etib bo'lmasligini tajribali podsho amaldori sobiq harbiy vazir A.N.Kropatkin ham tushungan edi.

Biroq shunday bo'lsada podsho farmoni tezlik amalga oshirilishi buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Farg'onaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Bunday safarbarlik farmonining e'lon qilinishi va viloyatlarga yuklatilishi aholi o'rtasida qonli voqealarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. 1916 yil 10 iyulga kelib, Eski Marg'ilon, Qo'qon, Namangan, Andijon, Chust va boshqa viloyatlarda katta g'alayonlar sodir bo'ldi. 11 iyuldan 15 iyulgacha Farg'ona viloyatirning turli joylarida safarbarlikka qarshi oshkora talablar bilan chiqishlar bo'lib o'tdi. Bu esa Turkiston o'lkasida milliy ozodlik qo'zg'oloniga aylanib ketdi, mahalliy aholining yashash sharoiti, moddiy ahvoli yanada og'irlashdi.

10-Modul: Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati (1917-1989 yy.)

1.Rossiyada 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi, uning Turkistonga ta'siri.Turkistonda sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi.

2.Turkiston (Qo'qon) muxtoriyatining tashkil topishi. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar.

3.Xiva xonligi va Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

4. O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishini ning o'tkazilishi va uning salbiy oqibatlari.

5. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati. Jamoalashtirish siyosati. O'zbekistonda 20-30 yillarda madaniy hayot.

6. Ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi. Siyosiy qatag'onlar.

7. Ikkinchi jahon urishi. Xo'jalik va ijtimoiy hayotning xarbiy izga solinishi.

8. Urush yillarida O'zbekiston sanoati. Fan va madaniyat. O'zbekistonliklarning urush jangohlarida ko'rsatgan jasoratlari.

9. 1950-70 O'zbekistondagi iqtisodiy hayot. Paxta yakkahokimligi.

10. 1980 yillarning o'rtalarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi inqiroz. "Qayta qurish" va uning cheklanganligi. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi". Ommaviy qatag'onlar. Farg'ona fojeasi

1. Rossiyada 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi, uning Turkistonga ta'siri. Turkistonda sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi.

1917 yil 27 fevralda Rossiyadagi fevral burjua-demokratik inqilobi g'alabasi tufayli podsho Nikolay II taxtdan ag'darilib, hokimiyat tepasiga rus burjuaziyasi chiqdi va ular muvaqqat (vaqtli) hukumat tuzdilar.

Petrograd bo'lib o'tgan hodisalarlar ta'siri ostida Turkistonda yangi hokimiyat to'zilmalarini barpo qilish yuzasidan kuchli jarayon boshlandi. Bolsheviklar ta'sirida hamma shahar va ishchilar mavzellarida ishchi va soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshladi. Ular inqilobiy demokratiya orzusini yuzaga chiqarishga vakil etilgan va muvaqqat hukumat mahalliy muassasalarining xatti-harakatlari ustidan nazorat olib borish huquqini da'vo qiladigan qurollangan xalq organlari tariqasida tashkil topib bordi. Bu sovetlar xay'atiga asosan ovruvalik aholi vakillari kirdi.

O'lkaning musulmon aholisi ham faol siyosiy kurash jabg'asiga tortildi. 1917 yilning mart-aprel oylari o'lkaning siyosiy uyg'onishida burilish davri bo'ldi. Paydo bo'lib kelayotgan milliy demokratik kuchlarning yetakchisi jadidlar bo'lib qoldi, ular o'zlarining avvalgi butun faoliyatlari bilan shu vazifaga tayyorlangan edilar. Ular demokratik inqilobga va u e'lon qilgan tamoyillarga katta umid bog'lab, uning g'oyalari va shiorlarini amalga oshirishga faollik bilan kirishdilar. Shu oylarda ular xalq ongi shuurida jipslashish, milliy birlikni mustahkamlash extiyojini uyg'otish bobida muhim qadamlar qo'yishga erishdilar.

Fevral voqealaridan keyin siyosiy tashkilotlar faoliyatida ham o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. "Sho'roi Islomiya", "Ulamu" va "Alash O'rda" singari yangi firqalar tashkil topdi.

Xalq o'z baxti-saodati uchun kurash bayrog'i ostida turli tashkilotlarni vujudga keltira boshladi. Samarqandda "Musulmonlar klubi", "Mirvajul-Islom", Qo'qonda "Musulmon mehnatkashlari ittifoqi", Kattaqo'rg'onda "Ravnaq-ul islom", Xo'jandda "Muayin at-tolibin" kabi tashkilotlar tuzildi.

Taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan tashkil qilingan "Turon" jamiyati tashabbusi bilan 1917 yil mart oyida vujudga kelgan yirik milliy tashkilotlardan biri-"Sho'roi Islomiya" edi. Tashkilot nega bunday nom oldi? 1917 yilda Sovetlar (sho'rolar) tashkil qilish-g'oyasi keng tarkalgan edi. Joylarda "Hamma hokimiyat Sovetlarga" degan shior ostida namoyishlar o'tkazila boshlandi. Odamlar "Endi xalq Sovetlar orqali o'z taqdiri va kelajagini hal eta oladi", debuylay boshladi. Tashkilotning 1917 yil 14 martdagi yig'ilishda shunday taklif kiritildi: "Nega rus ishchi va askarlarida o'z sho'rolari Sovet ma'nosida bor, biz musulmonlarda esa xech qanday sho'ro yo'q. Keling biz ham bugo'ngi majlisda tashkilotimiz nomini "Musulmonlar sho'rosi" yoki chiroyli qilib aytganda "Sho'roi Islomiya" deb aytaylik. Shunday qilib, Toshkent shahrining mahalliy aholisi o'zi saylangan va o'nga ishonch bildirgan milliy tashkilotga ega bo'ldi.

15 martda Munavvar qori hovlisida I idora majlisi bo'lib o'tdi, unda doimiy rais, kotib, sarkotib, xazinador va ularga muovin saylandi. Raislikka Abulvoxid qori Abdurauf qori o'g'li, muovinlikka Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, sarkotiblikka Katta xo'ja Boboxo'ja o'g'li, xazinadorlikka mulla Rizo Oxun Yo'ldosh xo'ja o'g'li, muovinlikka Abdusamin qori Xidayotboy o'g'li saylandi. "Sho'roi Islomiya" tashkiloti o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalarni muvaqqat qonunning quyidagi bandlarida bildirgan:

1. Turkiston musulmonlari orasida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan zamonaga muvofiq islohot fikri tarqatmoq.

2. Butun Turkiston musulmonlarini bir fikr va bir maslakka kelturmoqqa tadbir va harakatlarqilmoq.

3. Mamlakatlarning usul idoralari haqida ma'lumot yig'ib, Ta'sis majlisiga hozirlanmoq.

4. Turkistonning har bir shahar, qishloq va ovullarida mitinglar yasab, siyosiy, ilmiy va ijtimoiy xutbalar o'qitmoq.

5. Eski ma'murlarni o'rindan qoldirib, o'rniga yangi ma'murlar qo'yimoq yo'llarini xalqqa ko'rsatmoq.

6. Turkistondagi turli millatlar orasida bo'lgan va bo'ladurg'on ixtilof va shubhalarni bitirib, bir-birlariga yaqinlashtirib, birlashtirmoq uchun tadbir va harakatda bo'lmoq.

7. Turli millat va firqalarning komitetlari ila aloqada bo'lib, o'z vakillari vositasi ila musulmon extiyojlarini ul komitetlarga bildirmoq va lozim topganda ulardan yordam so'ramoq.

Aprel oyining boshlarida o'lkaning boshqa shaharlarida ham «SHuroi Islomiya» tashkilotlari barpo etildi. Ularning asosiy vazifasi-kelajakda Turkiston avtonom (mustaqil) jumhuriyatini barpo etish edi.

«Sho'roi Islomiya» tashkiloti "Najot", «Sho'roi Islom», "Kengash", "Xurriyat", "El bayrog'i" va "Ravnaqul islom" singari nashrlarida o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari hamda qarorlarini keng omma orasida tashviq etdi.

Bu tashkilot Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida juda katta rol o'ynadi. Uning vakillari Moskva va Qozonda bo'lib o'tgan Umumrusiya musulmonlari qurultoyida qatnashdi. Turkiston shaharlari Dumasiga a'zo bo'lib kirdi, Ta'sis majlisida tasdiqdan o'tkazish uchun o'lkani idora etish usuli qonun loyihasini tayyorlashda faol qatnashdi, har xil xayriya ishlarida faol bo'ldi. Maktab va madrasani isloh qilish yo'llarini belgilab berdi.

Demak, "Sho'roi Islomiya" a'zolari bo'lmish turkistonlik milliy demokratik ruxdagi taraqqiyparvar ziyolilarimiz Rossiyada 1917 yil fevral inqilobidan so'ng avj olgan umumdemokratik harakatda mustaqil Turkiston uchun kurashdi. Taraqqiyparvar islohotchilar matbuot va mitinglarda Turkistondagi ijtimoiy tengsizlik, mehnatkash ommaning og'ir ahvoli haqida quyinchalik bilan so'zlab, uning ijtimoiy sabablari, ildizlarini anglashga va xalqqa tushuntirishga harakat qilishdi.

Fevral voqealaridan keyin Turkistonda ruhoniylar orasida ham uyg'onish sodir bo'ldi. Ular ham umummusulmon birligi g'oyasiga tayanib, 1917 yilning aprel oyi boshlarida "Sho'roi Islomiya"ga qo'shilib, tashkilot tarafidan uyushtirilgan tadbirlarda qatnashdilar. Biroq shu yilning yozida jadidlar (yangi islohotlar tarafdorlari) va qadimlar (eskilik tarafdorlari) orasidagi munosabat keskinlashdi, natijada qadimlar "Ulamo" jamiyatini to'zib, Turkistonda feodal to'zumni tiklash va uni shariat asosida boshqarish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ydilar.

Kadetlikdan yuz o'girgan Qozoq Bukeyxon o'g'li rahbarligida "Alash O'rda" nomli milliy partiya ham vujudga keldi. Eserlar g'oyasiga ergashib yurgan ko'pchilik namoyandalar eserlarda ko'chayib borayotgan shovinizmni ko'rib, ulardan yuz o'giradilar va "milliy sotsialist firqasi"ni to'zishga bel bog'laydilar. Lekin ko'pchilik sinfiy emas, MILLIY-G'OYA atrofida birlashish talabi bilan chiqayotgan edi. Turkistonda xuddi shunday g'oya Munavvar qori¹, Avloniy, Tavallo, Nizomiddin Xujaev² kabilar—nomi bilan bog'liq "Turon" jamiyatida o'z ifodasini topgan edi. Biroq mart-aprelda N.Xo'jaev uni biroz demokratlashtirdi. Birozdan so'ng "Turon" "Turk federalist" firqasiga aylandi va uning dasturi e'lon qilindi.

1917 yilning 7-15 aprel kunlari ishchi va soldat deputatlari sovetlarining I Turkiston o'lka s'ezdi bo'lib o'tdi. Undagi jami 263 delegatning deyarlik barchasi ovrupaliklar vakillari edi. O'lka hokimiyati to'g'risidagi masala

¹ Munavvar Qori Abdurashidxonov Toshkentdagi jadidlarning yetakchisi. Yangi maktablar ochib, ular uchun darsliklar yozgan. O'rta Osiyo dorulfununing tashkilotchilaridan biri. Turkistonda bolshevizmga qarshi, milliy mustaqillik uchun kurashib «Milliy ittixod» partiyasini tuzgan. 1926 yilda o'z partiyasini tugatib, sovetxokimiyatiga xizmat qildi, ma'rifatparvarlikni davom ettirdi. 1929 yilda «Milliy ittixod» partiyasi ustidan bqlgan sud yakunida otib tashlangan.

² Nizomiddin Xo'jaev 1885 yilda Toshkentda ishchi oilasida tug'ildi. 1914 yili u inqilobiy harakatdagi ishtiroki uchun bosmaxonadan ishdan bo'shatildi. 1918 yilda komunistik partiya safiga qabul qilindi. U eski shahar Soveti ijroiya qqmitasi lavozimida ham ishlagan. 1919 yil sentyabrida I-Farg'ona oblast revolyutsion qqmitasi raisi ham qilib tayinlandi. 1931 yili O'rta Osiyo Davlat universitetini tugatib, O'zbekiston Davlat plani Prezidiumining a'zosi bo'lib ishladi.

muhokamasida bir qancha delegatlar musulmonlarning yagona hokimiyat barpo etish to'g'risidagi istaklarini hisobga olishni talab etdi. S'ezd demokratik respublika to'zishni yoqlab chiqdi-yu, lekin Turkiston xalqlari uchun o'lkaga muxtoriyat berish, milliy tengsizlikni tugatish singari masalalarga o'z munosabatini bildirmadi. Bu masalalar 9-16 aprelda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ijroiya qo'mitalari s'ezdida ham ko'rildi. Uning 171 delegatidan 99 tasi ovrupalik edi. Unda delegatlar markazlashtirilgan respublikaga qarshi chiqqan bo'lsalar ham, lekin muxtoriyat faqat madaniy va siyosiy yetuk xalqlarga berilishi mumkin deb hisobladi. Ayrim delegatlar esa muxtoriyat milliy bo'lmay, balki hududiy bo'lishi kerak deb hisoblar edilar. S'ezd rezolyutsiyasida ham hududiy muxtoriyat yoqlab chiqildi.

Mana shu ikki s'ezdda ham o'lka xalqlarini mensimay, ularga ishonchsizlik bildirdilar.

Ana shunday bir vaziyatda 1917 yil 16 aprel kuni Toshkentda butun Turkiston musulmonlarining I qurultoyi bo'lib o'tdi. S'ezdga o'lkaning barcha tub xalqlaridan vakil bo'lib kelgan 150 nafar delegat hozir bo'ldi. S'ezd muvaqqat hukumat va uning dasto'rin i tan oldi va Rossiyada Federativ demokratik respublika ta'sis etib, barcha xalqlarga, jumladan Turkiston xalqlariga ham milliy muxtoriyat berish g'oyasini yakdillik bilan qo'llab-quvvatladi. S'ezd markaziy rahbar organ-Turkiston o'lkasi musulmonlari Sovetini to'zdi: Uning birinchi majlisida rais, riyosat a'zolari M. Cho'qaev (rais), Ahmad Zaki Validiy, Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Bexbudiy, Ubaydulla Xo'jaev va boshqalar saylandi. SHu tariqa Turkiston xalqlarini jipslashtirish borasida yana bir muhim qadam qo'yildi.

O'lkada musulmon mehnatkashlari sho'rolari to'zila boshlandi. 1917 yil 14 mayda Toshkentda mahalliy ishchilarning majlisida musulmon mehnatkashlari, ishchilari deputatlari Sovetining nizomi loyihasi tasdiqlandi. 15 iyuldagi yig'ilishda 32 kishidan iborat Toshkent shahar musulmon ishchi vakillari sho'rosi saylandi.

Andijon, Qo'qon, Samarqandda ham bunday sho'rolar to'zildi, ular xay'atiga asosan mahalliy xalqlar vakillari saylandi.

1917 yil yozida Toshkentning eski shaharida 12 ta kasaba sho'rosi to'zildi. O'nga Sulton xo'ja Qosimxo'jaev rais bo'ldi. 1917 yil avgust boshlarida Andijon shahrida musulmon hunar ahlining "Sanoiy ul-Islom" sho'rosi to'zildi. O'nga 1500 kishi a'zo bo'lib kirdi. ("hurriyat", 1917, 28-son, 7 avgust).

Toshkentda "Xurshid", "Sadoiy Turkiston", "Turon", "Turk eli", "Najot", "Kengash", "SHuroi Islom", Samarqanda "Oyna", "Xurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi sharif", Qo'qonda "Sadoiy Farg'ona", "Tirik so'z" ro'znomalari, "Xurriyat" jurnali, Farg'onada "Farg'ona nidosi" ro'znomasi chiqqa boshladi. Ularda xalqni siyosiy faol bo'lishga chorlandi.

Sentyabr oylariga kelib o'lkada vaziyat o'zgara boshladi. Bolsheviklar ko'targan "Butun hokimiyat sovetlarga" degan shiorga munosabat ham bir xil

emas edi. O'lka musulmon aholisining vakolatli organlari bu shiorga qat'iy salbiy nuqtai nazarda turib oldi. "Shuroi Islom" tashabbusi bilan sentyabrda chaqirilgan o'lka musulmonlari II s'ezdi hokimiyatni soldat, ishchi va dehqonlar sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Biroq se'zdning bu qarori xech kimning qulog'iga kirmadi. Bolsheviklar ta'siri bilan o'lka Sovetlari butun hokimiyatni Sovetlarga berish haqida qaror qabul qildi.

O'lkadagi milliy harakat o'z rivojining yangi davriga kirdi. "Sho'roi Islomiya" tashabbusi bilan 17-20 sentyabrda Toshkentda Turkistonlik va Qozog musulmonlarining s'ezdi o'tkazildi. Unda "Sho'roi Islom", "Turon", « Sho'roi Ulamo» va boshqalarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston va Qozog'iston uchun umumiy bo'lgan " Ittifoqi muslimin" degan siyosiy partiya to'zishga qaror qilindi. S'ezd ishida Turkiston o'lkasining bo'lajak siyosiy to'zumi to'g'risidagi masala asosiy masala bo'ldi. Qabul qilingan qarorda demokratik Rossiya respublikasi tarkibida hududiy muxtor federatsiya tuzish g'oyasiilgari surildi. S'ezd muxtoriyatga "Turkiston Federativ Respublikasi" degan nomni qo'yib, 11parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lg'usi davlat tuzumining bosh tamoyillari va me'yorlarini belgilab berdi.

Turkiston musulmonlarining birinchi siyosiy partiyasi-Turkiston federalchilar partiyasi, ya'ni "Turk odami markaziy federalist firqa"si ham mana shu siyosiy masalalarga o'z munosabatini belgilab oldi. Uning dasturida ham Turkistonda milliy-hududiy muxtoriyat tamoyillari negizida demokratik respublika tuzimi g'oyasi chuqur asoslangan edi.

Fevral voqealari o'lkadagi jadidlar oqimi faoliyatini ham jadallashtirdi. Masalan, Buxoro jadidlari o'rtasida keskin ajralish yuz berdi, «Yosh buxoroliklar» partiyasi shakllandi (bu oqim 1908 yilda Buxoro jadidizmni harakati sifatida paydo bo'lgan). Ular amirning cheklanmagan hukmronligiga qarshi oshqora chiqa boshladilar.

Fevral inqilobidan keyin to'zilgan muvaqqat hukumat Buxoro amirligiga nisbatan ikkiyoqlama siyosat olib bordi: bir tomondan, amirni qo'llab-quvvatladi, ikkinchi tomondan, islohot o'tkazish zarurligiga sha'ma qildi, bo'nga amir rozilik berdi. 1917 yil 7 aprelida Buxoroda islohot o'tkazish to'g'risidagi bayonnoma ham e'lon qilindi. SHu munosabat bilan «Yosh buxoroliklar» 1917 yilning 9 aprelida namoyish uyushtirdilar. Ular "Yashasin islohot", "Yashasin hurriyat, konstitutsiya, matbuot erkinligi va mustaqil maktab" degan shiorlar bilan amir saroyiga yo'l oldilar. Biroq, reaksion kuchlar qatnashchilarni yo'q qilishga kirishdilar. Ta'qiblar natijasida «Yosh buxoroliklar» yangi Buxoroga ko'chdilar va shu yerda ularning safida ajralish ro'y berdi. O'ng va so'l qanotlar paydo bo'ldi. O'nglar M.Mansurov boshchiligida(ularning ko'pi savdogar doiralarning vakillari edi) amir bilan mo'zokaralar olib borish yo'li bilan kelishishni yoqlab chiqdilar. Ammo muvaffaqiyatsizlikdan so'ng ularning ko'pi «Yosh buxoroliklar» tashkilotidan chiqdilar.

So'llar esa (Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Muso Saidjonov va boshqalar) "viloyatlarda partizanlarning chiqishlarini tashkil etish" yo'li bilan qurolli qo'zg'olon tayyorlash imkoniyati bor deb hisoblashdi. Bunda ular dehqonlar ishtirokida, Muvaqqat hukumat, Turkiston o'lka organlari va ishchi hamda soldat deputatlari Sovetlari vakillarining yordamiga umid qilishardi. Biroq, Muvaqqat hukumat, ishchi va soldat deputatlari Sovetlari vakillarining amir hukumati bilan kelishuvi, dehqonlar ommasining passivligi ularni faol kurashga o'tishga imkon bermadi.

Amir ta'qibining ko'chayishiga qaramay, yosh buxoroliklar o'z faoliyatini davom ettirdilar. Ular butun kuch g'ayratini ikki vazifani hal etishga: amaliy dasto'rni ishlab chiqishga, tashkilotga ishchilar, hunarmandlar, soldatlar va ayniqsa dehqonlarni iloji boricha ko'proq jalb etish maqsadida aholi o'rtasida olib boradigan ish usullarini aniqlab olishga qaratdilar.

Xorazmda «Yosh Xivaliklar» harakati ham faollashdi (bu harakat 1905 yilda Xiva jadidizmi bazasida ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida shakllangan). Ular siyosiy partiyaga aylanib, xon hokimiyatiga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tdilar va inqilobiy kayfiyatdagi soldatlar bilan aloqa o'rnatdilar. Ular 1917 yil aprelida soldatlar yordamida Xivada namoyish o'tkazdilar. Yashasin ozodlik, adolat va tenglik yashasin qahramon jangchilar, "Yo'qolsin Musatabidlik" shiorlari bilan xon saroyi tomon chiqdilar.

Ularning talabi bilan xonning "Bayonnoma"si e'lon qilindi. Unda mamlakatda parlament boshqaruvi joriy etilishi, parlament Oliy davlat hokimiyati sifatida umumhalq ovoz berish yo'li bilan shakllantirilishi e'lon qilindi. "Bayonnoma" e'lon qilingan kunning ertasiga «Yosh Xivaliklar» markaziy qo'mitasining majlisi bo'ldi, uning raisi qilib Boboovun Salimov saylandi unda majlis deputatlari saylovini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Oliy rayonlarga shu xususdagi maktublar yuborildi, yirik shaharlarda esa aholi o'rtasida inqilobiy g'oyalarni targ'ib qilish va saylov o'tkazish uchun tashviqotchilar yuborildi. Saylov kompaniyasi yakunlangach majlis barpo etildi, o'nga joylarda saylangan 30 deputat «Yosh Xivaliklar» tashkilotining hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan 5 vakil, partiya markaziy qo'mitasining qolgan a'zolariga majlis yig'ilishlarida maslahat ovozi bilan qatnashishi huquqi berildi va Turkmanlardan 7 deputat kirdi.

«Yosh Xivaliklar»ning bo'linib ketgan o'ng qanoti ularga Islom xo'ja boshchilik qilgan savdo sanoat vakillarini endigina tug'ulib kelayotgan kapitalist va boylarni birlashtirib, xonga qarshi suiqasd tashkil qilish bilan shug'ullandi. Fitnadan xabar topgan xon muvaqqat hukumat Turkiston komiteti vakillarining faol madadi bilan 1917 iyunda majlisni tarqatib yubordi va uning rahbarlarini qamoqqa oldi.

Xon zulmining ko'chayishi sharoitida «Yosh xivaliklar» partiyasi ochiq faoliyat ko'rsata olmay qoldi. Shu sababli uning so'l qanoati (o'nga Boboovun Salimov yetakchi, hunarmandlar, dehqonlar, o'rta va mayda savdogorlar va aholi boshqa qatlamlari vakillari kirar edi) yashirin ishlash yo'liga o'tdi. Ular

Gurlan, Mang'it, Qipchoq va boshqa beklklarda partiya bo'limlari va yacheykalarini tashkil etishdi.

Petrogradda 1917 yil 25 oktyabrda 7 noyabr bolsheviklar tashkil etgan qurolli qo'zg'olon g'alaba qildi. Shu kuni kechki payt ochilgan Sovetlarning II S'ezdida "Ishchi, askar va dehqonlarga" degan xitobnoma qabul qilindi. Unda ko'plab ishchilar, askarlar va dehqonlarning madadiga, Petrogradda amalga oshirilgan qo'zg'olon madadiga tayangan holda Sovetlar hokimiyatni o'z qo'liga olganligi bayon etildi. Samarqandlik S'ezd delegatlari D.Dehqonov va A.Frolovlar Petrograddan hamshaharlariga bergan telegrammalarida hokimiyat Sovetlarga, yer dehqonlarga o'tgani, butun jahon xalqlariga sulh tavsiya etilganligini xabar qildilar. Xabarlar Turkistondagi ahvolga muhim turtki bo'ldi.

Toshkentda ham 28 oktyabrda qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olon markazlari temir yo'l ustaxonalarida joylashgan bo'lib, bolshevik V.S.Lyapin rahbarligida inqilobiy qo'mita to'zilgan edi. Qo'zg'olonchilarga general Korovichenkoning 2000 kishilik yaxshi qurollangan qo'shinlari qarshi turardi. Bu qo'shinlar dastlabki vaqtdayoq Toshkent Soveti majlis qilayotgan ozodlik uyini, temir yo'l ustaxonalarini o'rab oldi. 30 oktyabrga kelib qamaldagilarga Krasnovordsk, Samarqand, Qizil O'rdada va boshqa shaharlarda Toshkent soveti chaqirig'iga ko'ra qo'shimcha kuchlar yordamgakeldi. Turli sabablar bilan Turkistonga kelib qolgan vengerlar, chexlar, serblar ham ularga ko'maklashdilar.

31 oktyabr kuni qo'zg'olonchilar shahar markazini, bosh pochtaxonani, bankni egalladilar. 1 noyabrdagi shidatli janglar natijasida harbiy qal'a ishg'ol qilindi. Korovichenko esa xibsga olindi. To'rt kunlik qurolli qo'zg'olon Toshkentda Sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan yakunlandi.

Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarida ham hokimiyat birin-ketin bolsheviklashgan Sovetlar qo'liga o'ta boshladi. 1917 yilning 2 noyabrida Toshkentda butun o'lka demokratik kuchlarining qo'shma majlisi bo'lib, unda hokimiyat masalasi muxokama qilindi. Biroq, o'nga o'lka sho'rosi, Toshkent sho'rosi ijrokumi, musulmon vakillari o'lka sho'rosi, qirg'iz vakillari o'lka sho'rosi faqat maslahat ovozi bilan katnashishga ruxsat oldi,holos.

Bundan norozi bo'lgan mahalliy xalqlar sho'rolari 5 noyabrda o'z S'ezdlariga yig'ildilar va chaqirilmoqchi bo'lgan ishchi, askar va dehqon sho'rolarning III S'ezdigahal qiluvchi ovoz bilan qatnashmoqchi ekanliklarini bildirdilar.

Turkiston ishchi, askar va dehqon sho'rolarining 15-22 noyabrda bo'lib o'tgan III o'lka S'ezdi mahalliy xalqlar sho'rolarining qonuniy talablarini inobatga olmadi. S'ezda birinchi «Sovet xukumati xalq komisarlar soveti» to'zildi. U 15 kishidan iborat bo'lib F.I.Kolesov rais, A.Kazakov oziq-ovqat xalq noziri, V.N. Zavejiskiy, adliya noziri P.G.Poltaratsskiy mehnat noziri N.Ya.Uspenskiy maxsus topshiriqlar bo'yicha nozirlar etib saylangan edi. Xukumat tarkibiga mahalliy xalqlar vakillaridan hech kim kiritilmadi. Uch

kishi: Kolesov, Poltaratskiy, Kazakovlar bolshevik, qolganlari esa eser va mensheviklar, rus pomeshchiklari vakillari edi.

Shu tariqa o'lkada tuzilgan yangi xukumat mahalliy sharoitni va mahalliy xalqlar talabini inobatga olmadi.

Yozuvchi A.Gor'kiy oktyabr to'ntarishiga o'zining salbiy munosabatini bildirgan edi. Uning «Новая жизнь» gazetasida qilingan «Demokratiyaga» deb ataluvchi murojatida oktyabr to'ntarishi Rossiya sharoitida noqonuniy ekan, O'rta Osiyo, Turkiston sharoitida esa o'n karra, yuz karra ortiqroq noqonuniy bo'lgan va zo'rlik yo'li bilan bevaqt amalga oshirilganligi ta'kidlangan edi. Bu to'ntarish tufayli minglab, millionlab ajdodlarimiz gunoxsiz qirilib ketdilar va o'z qadrdon va jonajon ona yurtini tashlab, xorijiy mamlakatlarga boshpana izlab, iztirob bilan ketishga majbur bo'ldilar. Bunday to'ntarish bilan boshqacha jamiyat qurishga Rossiyaning o'zi ham tayyor emas edi. Tezda Rossiyada boshlangan fuqarolar urushi buning isbotidir. Bolsheviklar to'ntarishi va ularning yolg'on va'dalarini amalga oshirilishi Turkiston uchun yanada murakkab edi.

Turkiston ijtimoiy iqtisodiy holatdan nihoyatda qoloq, kam taraqqiy etgan bir o'lka edi. Bu yerda feodal ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari hukmron mavqega ega edi. Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari endiginashakllanayotgan edi. Turkiston o'lkasida endigina ba'zi bir kichik-kichik sanoat korxonalari, paxta tozalash korxonalari temirchilik ustaxonalari kabi vujudga kelayotgan edi holos. Shu boisdan, bu o'lkada bolsheviklar inqilobni amalga oshirishda asosiy kuch bo'lgan yo'qsillar-proletariat sinfining o'zi hali sinf sifatida shakllanib ulgurmagani edi. 1913 yilda Turkistondagi jami 6 million aholining faqat bir foizidan kamrog'ini ishchilar tashkil etar edi, holos. Turkistonga Sovettuzumi zo'rlik yo'li bilan kiritildi. Bu tuzumni mahalliy millat vakillari qo'llab quvvatladilar.

Xullas, Sovet to'zumi Turkiston o'lkasining obektiv taraqqiyot qonunlariga zid holda, o'lkaga chetdan Rossiyadan kelgan bir guruh shaxslar tomonidan zo'rlik bilan amalga oshirildi, ya'ni zo'rlik yo'li bilan eksport qilindi. Mahalliy xalq uni qabul qilmadi.

Hokimiyatning yangi organiga tub aholi vakillari kiritilmadi. Yangi hukumat ishchi, soldat va dehqonlar hokimiyatiga tub aholining munosabati butunlay noma'lum bo'lgani uchun ham, tub aholi orasida proletar sinfiy tashkilotlar bo'lmagani uchun ham o'lkaning oliy inqilobiy hokimiyatiga hozirgi vaqt musulmonlarini jalb qilish ma'qul emas, deb da'vo qildi. Turkiston o'lka xalq komissarlari Sovetining birinchi hayati tuzishda aynan ana shu printsip amalga oshirildi. Turkiston bolsheviklari rahbarlarining proletar inqilobining mohiyati va vazifalarini tor sinfiy nuqtai nazaridan turib tushinishi, inqilobiy yangi hokimiyat rahbariyatida aholining proletar qatlamlarigina bosh o'rinda turishi kerak deb e'tirof etishi mahalliy, asosan proletar bo'lmagan musulmon oqimining o'lkani boshqarishida ishtirok etishdan amalda chetda qolib ketishga olib keldi. O'lkadagi yangi hokimiyat o'z mohiyatiga ko'ra

bolsheviklar va'da qilgandek «mehnatkashlar hokimiyati» bo'lmay balki «mehnatkashlar uchun hokimiyat» bo'lib qoldi.

2. Turkiston (Qo'qon) muxtoriyatining tashkil topishi. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar.

Bolsheviklar boshchiligidagi sho'rolarning bunday shovinistik siyosati o'lka xalqining ular yetakchilarining noroziligiga sabab bo'ldi. Shu sababli muxtoriyat uchun kurash oktyabr to'ntarishidan so'ng musulmon sho'rolari va firqalarning bosh vazifasiga aylandi. Ularning bu kurashiga bolsheviklar rahbarining barcha musulmon aholisiga tenglik, ozodlik, o'z taqdirini o'zi belgilash, ajralib chiqish huquqlari berilganligi haqidagi murojaati ham turtki bo'ldi. 1917 yil 27 noyabrda Qo'qon shahrida "Sho'roi Islomiya", "Ulamo", va "Alash O'rda" partiyalari xalq ommasining istaklarini ifoda etib, IV o'lka musulmonlari favqulotda S'ezdiga to'plandilar. S'ezdda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro va Kaspiy orti viloyatlaridan ikki yuzdan ortiq delegatlar qatnashdi. Shuningdek, yaxudiy tashkilotlardan vakillar ham bor edi. S'ezdda Mahmud xo'ja Bexbudiy S'ezd xay'atiga nomusulmon vakillarini ham kiritishni taklif etdi. S'ezd delegatlaridan biri bu masalaga to'xtalib: "Xay'atga saylov viloyatlar vaalohida diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas, balki bilimdon zukko va ishbilarmonligiga ko'ra o'tkazilishi kerak", -degan edi.

S'ezdda Turkiston avtonom hukumati "Turkiston muxtoriyati" to'zilib, Alash O'rda rahbari Muhammadjon Tinishboev o'nga boshliq qilib saylandi. Biroq ko'p o'tmay hukumat raisligiga "Sho'roi Islomiya" rahbari partiyasining Mustafo Cho'qaev tayinlandi. Hukumat tarkibiga 54 kishi kiritilib, Islom Shoahmad o'g'li moliya noziri, Mahmud o'g'li adliya noziri, Potyalyaxov oziq-ovqat noziri, Mustafo Cho'qaev ayni bir vaqtda tashqi ishlar noziri, Ubaydulla xo'ja harbiy vazir etib saylandi. Polkovnik M.Chanishev bosh qo'mondon, Saidnosir Mirjalil esa xazinachi lavozimini eg'alladi.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, Turkiston muxtoriyati boshqaruv kengashida 54 o'rindan 18, ya'ni uchdan bir o'rin o'lkadagi ovrupalik millatlar tashkilotlarga ajratildi. Shu tarzda muxtoriyat a'zolari demokratik va umummanfaat asosida saylangan edi. "Turkiston muxtoriyati"ning to'zilishi va uning atrofiga bolsheviklarning zo'ravonligidan norozi bo'lgan rus oq gvardiyachilarining, rus kapitalistlarining va boshqa oppozitsiya kuchlarining birlashishi bejiz bo'lmagan, albatta. Turkiston muxtoriyati qo'l ostida harbiy kuch va mablag' bo'lmasligi orqasida har jihatdan yaxshi uyushtirilgan va qurollangan Qizil Armiyaga bas kelishining hech iloji yo'q edi. Shu boisdan muxtoriyat rahbariyati rus oq gvardiyachilari va kapitalistlari hamda xorijiy mamlakatlar ko'magida maqsadga erishish mumkinligini yaxshi anglagan edi. Ular o'zlarining qiyin ahvolini hisobga olgan holda bo'lajak barpo etiladigan Rossiya davlatining tarkibida Turkiston muxtoriyatini tashkil etishni rejalashtirganlar. Bu o'sha vaqtdagi sharoitda juda to'g'ri qilingan ish edi.

Muxtoriyat hukumati sirdan qaraganda muxtoriyat shaklida yagona Turkiston davlatini tuzishni mo'ljallagan edi. Lekin amalda mustaqillikni

ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Bu haqda Muxtoriyat hukumati xalq ommasiga yo'llangan murojaati guvohlik beradi. Bu Turkistonning barcha fuqarolari musulmon, rus, yaxudiy, ishchi, askar, dehqonlarga qaratilgan chaqiriqda bunday deyilgan edi: "O'lkada yashovchi barcha qabila va xalqlar, shahar va zemstva kengashlari, siyosiy, jamoat, kasaba tashkilotlari va uyushmalar, barcha davlat, jamoat xususiy masalalarini Turkiston xalq hokimiyati atroflicha jipslashishga va o'nga yuklangan og'ir vazifalarni xayotga tadbiq qilmoq uchun yetarli yordamberishga chaqirdi. Shunday vaqt keldiki, endi kishanlardan qutilgan Turkiston o'z yerining egasi bo'ladi va o'z tarixini o'zi yaratadi. Oldimizda turgan vazifalarning jiddiyligi va ulug'vorligini anglab, ishimizning haqligiga chuqur ishongan holda biz bu mehnatlarimizga ollohning rahmati yoyilishini tilaymiz va ishga kirishamiz. Ko'rinib turibdiki, Muxtoriyat hukumati millat va diniy etiqodidan qat'iy nazar o'lkadagi barcha mazlum xalqlarni demokratik asosda mustaqillikka erishishiga da'vat etgan. Turkiston muxoriatini o'lka ahli to'la yoqladi. Bu haqda 1917 yil dekabrda Toshkentda ikki marotaba o'tkazilgan umumhalq yig'inda Munavvar Qori, Mulla Odil Mufti, Sayd G'anixon, Sherali Lapin, Pirmuhammad A'lam nutq so'zladilar. Shuningdek, o'zbek ishchilari, kasb hunarmandlaridan 15 kishi so'zga chiqdi. Bu yerda 13 dekabrda Xayit kunida katta namoyish o'tkazishga kelishdi. Shu kuni qizil askarlar xalq namoyishini o'qqa tutdilar. Bir necha kishi kamoqqa olindi. O'sha yilning 26 dekabrda Qo'qonda musulmon ishchi va askar vakillarining I favqulotda s'ezdida "Qo'qon (Turkiston) muxtoriyati"ni yoqlovchi qaror qabul qilindi.

Xullas, Turkiston muxtoriyatining tarafdorlari kundan-kunga ko'chayib bordi. O'lkaning Sovet organlari esa muxtor Turkiston muvaqqat hukumatini tan olmasliklarini birinchi kunlaridayoq ma'lum qildi. Ular bu hukumatni "Turkistonning bir to'da boylari va ruhoniylari" manfaatlarini ifoda qiluvchi aksi inqilobiy, burjua inqilobi deb baholadilar. Muxtor hukumat tarafida bo'lganlar jazolana boshlandi. Toshkent shahar dumasi tarqatildi. "Turkistanskiy vestnik" gazetasi yopildi. Samarqand "Sho'roi Islom" tashkilotining faoliyati taqiqlandi.

Halqning aksariyat qismining muxtoriyatni qo'llab-quvvatlashi, sho'ro hukumatining muxtor hukumatga qarshi targ'ibotlari, ayniqsa 1918 yil yanvarida bo'lib o'tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlari IV o'lka se'zdi qarorlari ikki hukumat muholifligini yanada keskinlashtirdi.

Buning ustiga muxtor hukumat ichida ham ziddiyatlar vujudga kela boshladi. "Sho'roi Islomiya" bilan "Ulamo" o'rtasidagi avvalgi qarama-qarshiliklar yana qalqib sirtga chiqdi. Ular muxtoriyatning asl mohiyatini va uni qo'lga kiritishning usul amallarini har-xil tushunar edilar.

13 dekabrda Toshkentda sho'rolar hukumati tomonidan begunoh odamlarning qonini to'qilishidan norozi bo'lgan "Ulamo"chilar 1918 yil 5 yanvardagi mitingda muxtor hukumatga norozilik bildirdilar. Bu norozilik muxtor hukumat rahbariyati almashuviga ham sabab bo'ldi. M. Tinishpoev

o'rniga M. CHuqaev bosh vazir etib tayinlandi. Moddiy ta'minot, harajatlar sarfi oshib boraverdi. 1918 yil yanvariga kelib, Qo'qonning o'zida ham vaziyat keskinlashdi. Qo'qon Soveti qo'lida bo'lgan yangi shahar bilan Muxtor hukumat qo'lidagi eski shahar o'rtasidagi qarama-qarshilik ham yanada avj ola boshladi. Mana shunday ikki tomonning bir-biriga dushmanligi oshib turgan bir vaziyatda 1918 yil 30 yanvar kuni noma'lum kishilar telefon stantsiyasi va Qo'qon Soveti binosiga hujum uyushtirdilar. Aynan shu harakat keyingi fojiali voqealarga sabab bo'ldi. Favqulodda holat joriy etildi. Qo'qon Soveti muxtor hukumatga aybdorlarni tutib berish, qo'lga olinganlarni 3 soat ichida ozod qilish haqida ultimatum topshirdi. Yalpi safarbarlik e'lon qilinib, Toshkent va boshqa shaharlardan madad so'raldi. 31 yanvarga o'tar kechasi Skobelevdan K. Osipov otryadining kelishi bilan zo'rayib qolgan Qo'qon Soveti qurolli kuchlari ertalabdan eski shaharni pulemyotdan o'qqa tuta boshladi. O'z navbatida qarshi tomondan ham o't ochish boshlandi. Revkom K. Osipovga muvaqqat hukumatni kamoqqa olish va ularni artileriyadan o'qqa tutishga ruxsat berdi. Shaharning Muxtor hukumat joylashgan qismida yong'in boshlandi, o'g'irliklar avj oldi. G'azablangan xalq ham qo'lga nima tushsa, qurollanib hukumat harbiy qismlari bilan ko'cha janrlariga kirib ketdilar. Biroq bu o'rin ishlar bexuda ketdi. Omon qolib nochor qolgan aholi sarosima ichida shahardan qochib yaqin atrofdagi qishloqlarga yashirindi.

Muvaqqat hukumat militsiyasi boshlig'i Ergash va uning tarafdorlari hokimiyat to'ntarishi yasadi. M. Cho'qaev mahamasi ag'arildi. Harbiy kengash raisi M. Chanishev va uning eng yaqin safdoshlari rus ofitserlari kamoqqa olindi. Cho'qaev hukumatining demokratik qnotini tashkil etuvchi boshqa a'zolar Ergashdan yashirinib Qo'qonni tashlab chiqib ketdilar. Faqat ichki milliy kuchlarga tayanuvchi Turkiston mustaqilligi uchun ohirigacha kurashga jazm qilganlargina qoldi, holos.

1918 yil 5 fevraldan 6 fevralga o'tar kechasi Turkiston xalq komissarlar Soveti tomonidan o'lka harbiy komissari Ye.O. Perfilev boshchiligida ikkinchi etalon harbiy qismlar Qo'qonga kelib, 6 fevralda ular eski shaharga bostirib kirdilar. Muxtoriyat qo'shinlari vahimaga tushib tinch aholi bilan shaharni tashlab chiqa boshladi. Bu harakat natijasida eski shaharning uchdan bir qismi yakson bo'ldi. Aholi o'rtasida ko'p qurbonlar bo'ldi. O'sha davrdagi "ulug' Turkiston" gazetasida yozilishicha "Qo'qon o'liklar shahri"ga aylantirildi. Mo'zokaralar boshlanib, 9 (22) fevral kuni "Tinchlik shartnoma"si imzolandi. O'qqa tutilgan, talangan, taxqir qilingan aholi Sovet hokimiyatini tan olishga majbur etildi.

Muxtoriyatchilarning Sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi tarixda "Qo'qon fojiasi" deb nom oldi. "Turkiston muxtoriyati"ning o'zi esa o'lka xalqlari ozodlik harakatining qudratli, haqiqat ramziga, erkinlik va mustaqillik uchun kurash ramziga aylandi.

O'lkamizda oktyabr to'ntarishidan keyin yuz bergan mahalliy xalqlarning milliy ozodlik va erk uchun olib borgan kurashlarning sho'rolar davri

adabiyotlarida 1918-1920 yillarda mamlakatda bo'lib o'tgan fuqarolar urushining bir qismi deb baholandi va u "Bosmachilik harakati" deb nomlandi.

Aslida bu harakat qatnashchilari talonchilar, kallakesarlar bo'lmay, o'z xalqining milliy davlati Turkiston muxtor hukumatini himoya qilgan, mustaqillik va ozodlik uchun o'lkadagi shovinistik siyosatga qarshi sho'rolar hukumati va istibdodiga qarshi kurashgan milliy qahramonlar edilar.

"Qo'qon muxtoriyati" tor-mor etilgandan so'ng Turkistonda ijtimoiy siyosiy vaziyat nihoyat darajada keskinlashdi. Iqtisodiy tanglik, oziq-ovqat tanqisligi siyosiy tanglik kuchaydi. 1918 yilning bahorida Farg'onavodiysining qishloqlarida Turkistonliklar otryadlarining qizil armiya qo'shinlari bilan qurolli to'qnashuvlari boshlandi. Bu istiqloqlar harakatining boshlanishi edi. Bu harakatning boshlanishi quyidagi sabablar tufayli edi:

1. "Qo'qon muxtoriyati"ning tor-mor etilishi va mahalliy aholiga qarshi shafqatsiz ja'zo choralari avj oldirilishi.

2. Xalq o'rtasida zo'rlik bilan "Sotsialistik" siyosatni amalga oshirish natijasida masjid va madrasalarning yopib qo'yilishi.

3. Oziq-ovqat taqsimotini zo'rlik bilan joriy etib, erkin savdoni taqiqlab qo'yilishi.

4. Marg'ilonda Sovet hokimiyati tomonidan muqaddas Qur'onning yoqilishi.

Istiqloq yo'lida jangga kirganlar "Turkiston-Turkistonlik xalqlarning vatanidir". "Turkistonning ozodligi uchun". "Turkistonni faqat Turkistonliklarning o'zi bosqinchilardan xalos qiladi. "Din uchun, Qur'on uchun shaxid bo'laylik yoki zafar qozonaylik" kabi shiorlarni ko'tardilar. Tadqiqotchi Yassaviy tomonidan to'zilgan solnomada istiqloqlar rahbarlaridan 114 kurboshi nomi keltiriladi. Bu harakat rivoji davomida Kichik Ergash va Katta Ergash, Muhammad Aminbek (Madaminbek), Shermuhammadbek (Ko'rshermat), Ibroximbek laqay, Omon polvon, Xurrambek, Ismat kabi kurboshilar o'zlarining qahramonliklari, jasratlari bilan nom chiqardilar.

Gox g'oliblik gox mag'lublik bilan 30 yillarning o'rtalarigacha davom etgan bu harakat o'zining bir necha bosqichlari bilan belgilanadi.

Milliy ozodlik harakati tarixida unitilmas davr-uning eng ommaviy tusolgan 1918-1920 yillardagi boshlangich davridir. Istiqloqlar kurashining birinchi bayrog'ini Qo'qon muxtoriyati bostirilgandan keyin milliy qo'shin qo'mondoni Kichik Ergash boshchiligidagi yigitlar ko'taradi. Kichik Ergash qisqa muddat ichida qurolli otryad tuzib Bachqir qishlog'i, Qo'qon yaqinida Kizil Armiya qo'shinlari bilan jang qildi. Jangovar operatsiyalarning birida Ergash halok bo'ladi. Ko'rboshilik lavozimini shu qishloqlik Katta Ergash o'z zimmasiga oladi. Bachqir qishlog'i Qo'qonlik istiqloqlarning istehkomi bo'lib qoladi. 1918 yil bahorida istiqloqlar safiga kurboshi Madaminbek qo'shiladi. U avvaldan rusiya mustamlakasiga qarshi o'z harakatlari bilan

nom kozongan bo'lib, 1914 yil oq podsho surgunida bo'lgan edi. Ferval inqilobidan so'ng Turkistonga Madaminbekni Sovet hukumati Marg'ilon militsiyasi boshlig'i qilib tayinlaydi. Lekin Sovet tizimining xalqqa o'tkazgan zo'rvonlik siyosatini ko'rgach Madaminbek o'z qo'li ostidagi militsionerlari bilan istiqolchilar tomoniga o'tib ketadi. Marg'ilon shahri ham istiqolchilarning yana bir mustahkam tayanchigaaylanadi. O'sh tomonida Holxo'ja qurboshi, Namanganda SHermuhammadbek qo'rboshilar faoliyat olib boradilar. Butun O'zbekiston hududlarida janglar olib borayotgan istiqolchilarning umumiy soni 60 mingdan ham ortiq edi.

Bu harakatning kengayishi Farg'ona viloyatini jangovar harakatlarni maydonigaaylantirdi. Sho'ro hukumati vaziyatning bunday avj olishidan cho'chib boshladi. 1919 yilning 10 fevralida Turkiston Respublikasi inqilobiy harbiy kengashi "Farg'onaga qo'shinlar yuborishga qaror qabul qildi". Farg'onadagi aksil inqilobiy harakatga qarshi kurash yuzasidan favqulotda komissiya to'zildi va ularga cheklanmagan vakolatlar berildi.

Lekin mustaqillik uchun boshlangan kurashni endi harbiy kuch bilan to'xtatib qo'yish mumkin emas edi. 1919 yilning bahorida deyarli butun Farg'ona vodiysi istiqolchilar nazorati ostiga o'tgan edi. Sho'ro hukumati ayyorlik yo'liga o'tib, 1919 yil 7 may kuni ozodlik uchun kurash qatnashchilariga umumiy avf e'lon qildi.

Ammo bu yo'l ham unchalik natija bermadi. Mustaqillik harakati Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga ham yoyilib ketdi.

1919 yil 1 sentyabrda Jalolobodda Madaminbek bilan Dehqonlar armiyasi qo'mondoni K. Monstrovlarining kuchlarini birlashtirish va Sovet hukumatiga qarshi birgalashib harakat qilish haqidagi shartnomasi imzolandi. Birlashgan kuchlar 1919 yil 7 sentyabrda O'sh shahrini jang bilan oldilar. Ular 10 sentyabrda Andijonni kamal qildilar. Biroq qizil armiyaga madad yetib keldi, istiqolchilar katta talofatlar bilan Xitoy chegarasiga chekindilar. 1919 yil 22 oktyabr kuni chegaradagi Irkishtomda kurboshilar qurultoyi ochildi. Qurultoy "Farg'ona muvaqqat hukumati"ni tuzdi. Hukumat boshligi va bosh qo'mondoni Madaminbek va uning o'rinbosari Monstrov saylandi. 1919 yil oktyabr ohirida vodiydagi 150 ga yaqin otryadlarni Madaminbek, Holxo'ja, Ergash va Shermuhammadbek boshchiligidagi 4 ta yirik birlashmaga birlashtirishga qaror qilindi. Biroq 1919 yil sentyabrda markazdan «Turk-komissiya»ning kelishi, ularning Farg'ona vodiysi ahli o'rtasida olib borgan tashviqotlari, 1920 yil mart oyida Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetining «Erlarni mehnatkash dehqonlarga qaytarish to'g'risida»gi dekretlari istiqolchilar harakatining borishiga ta'sir eta boshladi. Buning ustiga o'lkaga yana Qizil Armiya qismlari keltirila boshlandi.

1920 yil yanvar-fervalida Ergash qo'shinlari, Monstrovning dehqonlar armiyasi tor-mor etildi. Harakat qatnashchilari orasida Sovetlar tomoniga o'tish jarayoni avj oldi. Madaminbek ham jangda yengilib, Oloy vodiysiga chiqib ketishga urindi, lekin bu urinish barbod bo'ldi. U qolgan kuchlarni saqlab qolish

uchun Turkiston diviziyasi qo'mondonligi bilan 1920 yil 6 martda bitim imzolashga majbur bo'ldi.

Birozdan so'ng u Toshkentga jo'natildi. Omon qolgan harakat qatnashchilari Oloy vodiysida to'planib Shermuhammadbek boshchiligida harakat qila boshladilar. Oloy tizmasi tog'oldilarida bo'lib o'tgan qurultoyda Shermuhammad butun islom kuchlari qo'mondoni etib tayinlandi. Shermuhammadbek va Holxo'jalar o'zlarining niyatlarini amalga oshirib, aldov yo'li bilan Madaminbekni o'ldirdilar. 1920 yil mayida Shermuhammadbek rahbarligida Muvaqqat Turkiston hukumati tuzildi. Oziq-ovqat to'plash va otlar yig'ish uchun maxsus guruh tuzildi. Bu guruh faoliyati esa mahalliy xalq noroziligiga sabab bo'ldi. 1920 yil mayida Farg'onaga Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze keldi, istiqloqlarga qarshi kurash taktikasi keskin o'zgardi. Turkiston fronti inqilobiy harbiy kengashi ozodlik harakati qonundan tashqari deb e'lon qildi. Istiqloqlar otryadlari birin ketin tor-mor etila boshlandi. Biroq tugatilgan otryadlar o'rniga yangilari paydo bo'ldi. Muxiddin, Omon polvon, Raxmonqul, Islomqul, Eshmat boyvachcha, Isroil, Soli Maxso'm, Otaqo'zi, Yormat Maxso'm, Boyaston, Aliyor, Ahmad polvon kabi ko'pgina kurboshilar otryadi kurashga qo'shildilar. Sho'ro hukumatiga mustaqillik uchun boshlangan bu harakatni bostirish uchun yana ko'p yillar kerak bo'ldi.

Turkistonda mustabid sho'ro to'zumi o'rnatilgach, bolsheviklar rahbarligidagi Sovet hokimiyati Turkistonda milliy emas, hududiy muxtor hukumati tuzishga kirishgan edi. Shu maqsadda ular 1918 yilning aprelda bo'lib o'tgan Sovetlarning V s'ezdida Turkiston Muxtor Respublikasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildilar. Aynan shu paytda O'rta Osiyoda sobiq podsho Rossiyasining ikki vassali-Xiva xonligi va Buxoro amirligi ham mustaqil davlatlar sifatida faoliyat ko'rsatayotgan edi.

3.Xiva xonligi va Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

Oktyabr to'ntarishi va Turkistonda Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin O'rta Osiyo xonliklarining ichki va tashqi siyosiy ahvoli keskin o'zgarib bolsheviklarga nisbatan adovati, ularning Turkistondagi hukumatni tan olishdan bosh tortishi ko'chaydi. Ikkala xonlik jadallik bilan o'z qurolli kuchlarining jangavor saloxiyatini oshira boshladi. Zo'rayib borayotgan ochlik, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning xaddan tashqari ko'tarilishi, harbiy zulm xonliklarning ichki siyosiy hayotida beqarorlikni yuzaga keltirdi. Turkiston bolsheviklari va sho'ro hukumati xonliklarning ichki ishlariga qo'pol suratda aralasha boshladi. Kolesov 2 mart kuni qizil gvardiyachi otryadlar va Yangi Buxoro ishchi drujinalariga Eski Buxoroga bostirib kirish to'g'risida buyruq berdi va amirni sulh to'zishga rozi bo'lishiga majbur etdi. 1918 yil 25 mart kuni Qiziltepada sulh bitimi imzolandi. Bu ishlardan maqsad Buxoro amirini o'g'irlantirish va uning sovetlarga qarshi istehkomga aylanib ketishiga yo'l

qo'ymaslik edi. 1919 i 9 aprel kuni Xivaga yaqin Taxtada RSFSR bilan Xeva o'rtasida yarash to'g'risida shartnoma imzolandi. 1919 yilning yozidan boshlab Sovet Turkistoni bilan Buxoro va Xiva o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashdi. Amir Said Olimxon bilan Junaidxon Sovetlarga qarshi harbiy-siyosiy ittifoq to'zdilar. Junaidxonga raqiblik qilayotgan eng yirik turkman qabilalari boshliqlarining vakillari-Qo'shmamadxon bilan G'ulommalixonlar To'rtko'lda to'zilgan Xiva inqilobiy markazga kommunistlar va yosh buxoroliklar bilan birgalikda kirdilar. Bu markaz xonni ag'darib, hokimiyatni qo'lga olishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan edi. Bunday vaziyatlardan foydalangan sho'ro hukumati Xiva xonligini bo'ysundirish uchun harakatlarni boshlab yubordi. Qo'shinlar kirib kelishi natijasida Junaid otryadlari G'azobod va Taxta tomon chekindilar. 1920 yil 20 yanvar kuni Junaidxonning bosh kororgohi - Taxta Kizil Armiya qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi.

1 Fevralda esa qo'shinlar Xeva xonligi poytaxti-Xevaga kirdilar. SHunday qilib, yosh xevliklar va turkman urug' boshliqlarining bir qismi sovet qurolli kuchlarining yordamida monarxiya tartibotini ag'darishga muvaffaq bo'lib, hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar.

1920 yil 2 fevralda Said Abdulla taxtdan voz kechdi, butun hokimiyat muvaqqat inqilobiy hukumatga topshirildi. 1920 y. 26 aprelda Butunxorazm 1 qurultoyi Xorazm xalq Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Hukumat xalq nozirlari soveti tuzildi. Uning raisi qilib Polvonniyoz Yusupov saylandi.

Buxorodagi voqealar ham xuddi sho'nga o'xshash rivojlanib bordi. Buxoro amirini M.V.Frunze «Sovet tanasidagi jarohat» deb atagan edi. 1920 i 10 avgust kuni RKP(b) Markaziy komitetining Siyosiy Byurosi Turkiston frontining Inqilobiy harbiy Kengashi uchun Buxoro masalasi yuzasidan maxsus direktivalar qabul qilindi. Tayyorgarlik RKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan ishlab chiqilgan reja bo'yicha olib borildi. Buxoro amirini ag'darish uchun buxoroliklarning yordam so'ragan murojati kerak edi. Buxoro kommunistik partiyasining Chorjo'yda ish olib borayotgan IV s'ezdi 1920 yil 16 avgustdayoq Buxoro xonligida inqilobiy vaziyat yetilganligini e'tirof etib, asriy feodal zulm hamda istibdoddan xalos etish uchun yordam so'rab Turkkomissiyasiga murojaat etdi. 1920 yil 29 avgust kuni eski Chorjuyda Buxoro kommunistlari ko'ngilli otryadining chiqishi tashkil etildi. Turk fronti qo'shinlari bu vaqtga kelib safarbarlikka tayer holatda turgan edi. 1920 yil 25 avgust kuni Frunze Turkfront qo'shinlariga «qo'zg'olon ko'targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko'rsatish to'g'risida» buyruq berdi. Ular Buxoro ostonasida Buxoro qo'shinlarining shiddatli qarshiligiga duch keldi. Avgust oyining ohirlarida Frunze qo'shimcha madad to'g'risida front shtabiga murojat qilishga majbur bo'ldi. Buxoro shafqatsiz ravishda o'qqa tutildi. Amir, o'zi yozganidek, «vayronagarchilik yanada zo'rayib, odamlarning yana halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik» uchun o'z qo'shinlari bilan Buxorodan chiqib ketdi. 1920 yil 2 sentyabrda Turkfront qo'shinlari va Buxoroliklarning ko'ngilli qismlari Buxoroga kirib borishdi. Amirlik ag'darildi. 1920y. 14 sentyabrda Abduqodir

Muxiddinov raisligida UmumBuxoro inqilobiy komiteti to'zildi. Hukumat-xalq nozirlari Soveti to'zilib, ularga rais F.Xo'jaev tayinlandi.

1920 yil 6-8 oktyabr kunlari bo'lib o'tgan xalq vakillarining I UmumBuxoro qurultoyi Buxoroni hokimiyati ishchi va dehqonlar qo'lida bo'lgan Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi.

Mana shu tariqa bolsheviklar rahbarligidagi sho'rolar o'z orzu-istaklarini amalga oshira borib, O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat ko'rsatayotgan ikki xonlikda ham istibdod tuzumini o'rnatdi. Bu tuzum va uning istibdodi natijasida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, ma'naviy qaramligi kuchaydi.

4. O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishini ning o'tkazilishi va uning salbiy oqibatlari.

O'rta Osiyo milliy davlat chegaralanishini o'tkazish tashabbusi eng avval mazkur mintaqaning xalqlari va partiya davlat organlaridan chiqqani yo'q. Vaziyat shunday bo'ldiki, hatto V.I. Lenin xayotligidayoq Turkistonning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy rivojlanish xususiyatlariga asosan iqtisodiy va madaniy jihatdan, u ham bo'lsa Rossiya sharqiy chekkalarining kapitalizmi chetlab sotsializmga o'tishdagi o'ziga xos belgilari xisobga olingan holda qaralardi.

1924 yilga kelib, O'rta Osiyo yoxud Turkistonda mavjud bo'lgan uchta davlat birlashmasi: Turkiston (TASSR), Buxoro xalq respublikasi (BXR) va Xorazm xalq respublikasi (XXR)ni qayta tuzish, ya'ni qaytadan milliy davlat chegaralanishi o'tkazishga tayyorgarlik avj olib ketdi.

Amalda Turkiston xalqlarining chorizm mustamlakachilik siyosati yillarida orziqib qutgan ozodlik, tenglik, birodarlik, mustaqilliq to'g'risida orzu-umidlari puch bo'lib chiqdi.

Turkiston sho'ro hokimiyatining xom ashyo manbai bo'lib qolaverdi. Demak, «Zo'raki inqilob» xalq talabini, amalda qondirmadi. Chorizmning reaksion milliy siyosati yangicha ko'rinishda bolshevikcha niqob, markschalenincha kommunistik mafkura ostida davom ettirildi. Eng asosiysi, Turkiston xalqlari xokimiyat boshqaruviga yaqinlashtirmadi. 1920 yilda Turkistondan Rusiyaga 6730 vagon paxta, 1000 vagon jun, 111 ming juft poyafzal, 100 ming ko'rpa-to'shak, 202 ming bosh kiyim, 324 ming ko'ylak, 11,5 ming kalta po'stin, 6,4 ming egar, ko'plab miqdorda meva-sabzovot, vino, baliq va boshqa mahsulotlar olib ketildi. Shu- yilning faqat fevral-avgust oylarida Turkiston temir yo'llarida 10000 vagonga yaqin turli harbiy va xalq ho'jaligi ahamiyatiga molik yuklar tashib ketildi. Sho'ro hukumatining birinchi kunlaridanoq mahalliy xalq, ilg'or ziyolilar Turkiston boyliklari o'ziga xizmat qilish, o'lkamizning mustaqil bo'lishi uchun kurashdi.

Murakkab sharoitda mahalliy milliy kuchlarning Turkistondagi xokimiyat idoralarida asosan yerli aholi bo'lishi uchun kurashishdan boshqa chorasi qolmadi. Bu albatta Turor Risqulov rahbarligidagi milliy ziyolilar boshchilik qildilar.

Jumladan, milliy kuchlar 1920 yil 17 yanvarda bo'lib o'tgan Turkiston komfirqasi O'lka Qo'mitasi, Musulmonlar byurosi va Turkkomissiyaning (u 1919 yilda to'zilib, Eliava raisligida Turkistonga yuborilgan edi) qo'shma majlisida o'lkamiz xududida mustaqil «Turk Respublikasi» va «Turkiston Kompartiyasi»ni to'zishni talab qilib chiqdilar. Shuningdek ular Turkiston muxtor jumhuriyati. Konstitutsiyani qayta ko'rib chiqishni, mahalliy aholidan maxsus musulmon armiyasi to'zishni, rus qo'shinlarini o'lkadan olib chiqib ketishni ham taklif qildilar.

Bu masala Turkiston Kompartiyasining V o'lka konferentsiyasida hamda musulmon kommunistlarining III o'lka konferentsiyasida ham muhokama qilindi. O'z navbatida hali mustaqil yashab turgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham Turkistondagi sho'ro muxtor hokimiyatini tan olmadi.

Bunday vaziyatda Turkistonda sho'ro hokimiyatini mustahkamlash uchun yuborilgan Turkkomissiya a'zolari orasida ham ikkilanish paydo bo'ldi. Masalan, Eliava va Kuybishev Turkiston milliy kuchlari taklifini zarur chora deb tushundi. F.Goloshchekin esa ikkillandi. Faqat Ya.E.Rudzutak, keyinchalik esa M.V.Frunze milliy kuchlar taklifiga qat'iy qarshi chiqdilar.

Ko'p o'tmay, 1920 yil 24 fevralda bo'lib o'tgan Turkkomissiya yig'ilishi M. V. Frunzening faol aralashuvi bilan mahalliy xalqlarning Turk Respublikasi va Turkiston kompartiyasi tuzish to'g'risidagi takliflarini rad etdi. Komissiya Turkistonni idora qilishning sho'ro to'zumiga moslashtirilgan loyixasini ishlab chiqdi.

8 martda RKP(b) Markazqo'mi Turkkomissiyaning Turkistonni boshqarish to'g'risida ishlab chiqqan loyixasini ma'qulladi. Natijada Turkiston kompartiyasi viloyat partiya tashkiloti huquqi bilan Rossiya komfirqasi tarkibiga kiradigan bo'ldi. Turkiston muxtor sho'ro Respublikasi esa shu nomda RSFSR tarkibida qoladigan bo'ldi.

Turkkomissiyaning bunday siyosatidan norozi bo'lgan mahalliy xalq va milliy-vatanparvar kuchlar 1920 yil may oyida Turor Risqulov, Nizomiddin Xo'jaev va Bek-Ivanovlardan iborat «Turk delegatsiyasi»ni Moskva, bolsheviklar rahbariyati xuzuriga yuborildi. Ko'rinib turibdiki, Turkiston xalqlari bu rahbarga katta umid bog'lagan edi. Bunga sabab Lenin boshliq sho'ro hukumati sobiq chor Rusiyasi tarkibidagi Pol'sha va Finlandiya mustaqilligini tan olgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini e'lon qilgan ruslarning ukrainlar, gurjilar va boshqa xalqlar bilan tengligini bir necha bor ta'kidlagan edi.

Biroq, Lenin va firqa Markazqo'mi Turkiston xalqlarining yuqoridagi takliflarini, boshqacha qilib aytganda Turkiston mustaqilligini to'la rad etdi. Ular afsonaviy boy o'lka bo'lgan Turkistondan ajralib qolishdan ko'rqib, uni bir necha bo'lakka bo'lib yurishga qaror qildilar. Shaxsan Lenin 1920 yil 13 iyunda firqa Markazqo'mi va Sho'ro hukumatining Turkistondagi vakolati organi hisoblangan Turkkomissiyaga quyidagi ko'rsatmani beradi:

1. Turkistonning O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmanistonga bo'lingan xaritasi to'zib chiqilsin;

2. Bu uch qismni qo'shib yuborish yoki ajratish shartlari batafsilroq aniqlab chiqilsin.

Uning bu ko'rsatmasi firqa Markazqo'mi Siyosiy byurosi, shuningdek Turkkomissiya faoliyati uchun asos bo'ldi. 29 iyunda firqa Markazqo'mi Siyosiy byurosi «RKP(6) ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida» maxsus qaror qabul qilib, bu yerdagi mavjud tashkiliy-xududiy va ma'muriy to'zilmalar o'zgartirilmasdan saqlab qolinishini ma'lum qildi.

Markazning bunday xatti-harakatidan norozi bo'lgan milliy-demokratik, vatanparvar kuchlar bu qarorga qo'shilmasliklari hamda Turkiston Kompartiyasi O'lka Qo'mitasi va Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tarkibidai chiqishlarini bildirdilar.

Shuni ham aytish kerakki, bu vaqtga kelib Turkistonda vaziyat o'zgargan, Buxoro amiri Sayid Olimxon, Xiva xoni Said Abdullaxon va Junayidxonlar taxtdan ag'darilgan, yangi Xorazm va Buxoro xalq Sho'ro Jumhuriyatlari tashkil topgan edi.⁸ O'z-o'zidan ravshanki, Polvonniyoz Yusupov boshchiligidagi Xorazm, F.Xo'jaev rahbarligidagi Buxoro xalq hukumatlari ham erkin, ozod, mustaqil yo'ldan borishga intiladilar. Ammo, RSFSR bilan to'zilgan shartnomalar, Turkiston ASSR bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar ularning ham oyoq-qo'lini bog'lab qo'ygan edi.

Bunday vaziyatdan foydalangan Turkkomissiya Turkiston Kompartiyasi O'lka Qo'mitasini tarqatib yubordi va Turkiston Kompartiyasining sho'ro to'zumi tarafdorlari bo'lgan To'raqulov, Otaboev, Qosimxo'jaev, Ibrohimov, O'staboev, Hakimov va boshqalardan iborat Muvaqqat Markazqo'mini to'zdi.

Ko'rinib turibdiki, Markaziy Sho'ro xukumati Turkiston, Buxoro va Xorazmni sira qo'ldan chiqargisi yo'q edi. Chunki u bu yerlardan katta boylik, ko'p vaarzon mahsulot olardi. Masalan, markaz birgina Buxorodan 1923 yilda 400 ming, 1925 yilda 885 ming pud paxta yoki 1921 yilda 100 ming, 1922 yilda esa 1 mln. dona qorako'l teri oldi. Mana shuning uchun Rossiya komfirqasi RKP (b) Makazqo'mi Siyosiy Byurosi «Buxoro masalasiga doir» degan maxsus qaror qabul qilib (1923 y.), bu yerda Sho'ro hokimiyatini mustahkamlash uchun kurashni qizitib yubordi. Xivada ham ahvol aynan shunday edi.

Natijada maqsadlarining amalga oshuviga ko'zi yetmagan Buxoro va Xorazm hukumatlarining vatanparvar rahbarlari hukumatlar tarkibidan chiqdilar. Xususan Buxoroda harbiy nozir Abdulxay Oripov, Turkistondan surgun qilingan vatanparvarlar Qushbegaev, Munavvarqori Abdurashid-xonov, Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Usmonxo'jaev va boshqalar mas'ul lavozimlaridan voz kechib ozodlik uchun kurashayotgan milliy vatanparvar kuchlar tomoniga o'tdilar. Ana shunday sharoitda Markaziy hukumat

⁸Xivada 1920 y. 2 fevralda Buxoroda esa 1920 y. 2 sentyabrda sho'ro tuzumi o'rnatilgan.

vaziyatdan chiqishning birdan-bir yo'li Turkistonni bo'lib yuborish, deb hisobladi va buni amalga oshirishga kirishdi.

Bu davrda Turkiston, Buxoro va Xorazmda garchi tili, dini, qadriyatleri, xatto urf-odatleri o'xshash bo'lgan turkiy xalqlar asosiy ko'pchilikni tashkil etsa-da, ular har uchchala jumhuriyatda ham aholi tarkibiga ko'ra ko'p millatli edi.

Masalan, Markaziy Osiyodagi jami o'zbeklarning 66,5 foizi Turkistonda, 22,2% Buxoroda, 11,3% Xorazmda yashar edi. Yoki o'zbeklar Turkiston MSHSR aholisining 51,4% ni BXRda 50,1, XXRda 61,1 foizni tashkil etardi. Bu millatlar bir-biri bilan inoq bo'lib, qadim-qadimdan birga yashab kelar, ya'ni qon-qardosh bo'lib ketgan edilar.

Sho'ro hukumati va RKP(b) Markazqo'mi Siyosiy Byurosi Turkiston xalqlarining mana shunday mustahkam birligiga atayin rahna solishga o'rindi va o'z manfaati yo'lida zo'r berib mahalliy millatlarga milliy respublikalar to'zish g'oyasini singirdi. Bu quruq bir maqsad bo'lmasdan o'zoqni ko'zlab, amalga oshirilayotgan aniq reja edi. Bu masala yuqorida, ya'ni Markazda Turkiston xalqlari aralashuviz obdon puxta o'rganildi va 1924 yilga kelib, bevosita kun tartibiga qo'yildi. Markaziy hukumat va RKP(b) Markazqo'mining doimiy tashviqoti va ta'siri ostida Turkiston, Buxoro va Xorazmning sho'ro organleri va partiya tashkilotleri O'rta Osiyoda yangi milliy SHO'ro respublikalarini «tashkil etish taklifi» bilan chiqdilar.

Darhol RKP(b) Markazqo'mining Tashkilot byurosi to'zildi va masalani muhokama qilib, o'rganib chiqish Ya.E.Rudzudakka topshirildi. O'z navbatida RKP(b) Markazqo'mi O'rta Osiyo byurosi maxsus komissiya to'zdi. Ya.E.Rudzudak rahbarligida ishlagan bu komissiya 1924 yil 11 mayda o'lkamiz hududida SSSR tarkibiga kiruvchi yangi «mustaqil» O'zbekiston va Turkmaniston XSRni, O'zbekiston tarkibida Tojikiston, RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz muxtor viloyatlerini tuzishni va Turkistonning qozoqlar tumanlerini Qozog'iston SSR tarkibiga berishni zarur deb topdi. Komissiya xulosasi bilan tanishib chiqqan, RKP(b) Markazqo'mi O'rta Osiyo byurosi o'zining 2 iyuldagi yig'ilishida bu takliflarni asosan ma'qulladi va uni RKP(b) Markazqo'mi muhakamasiga havola qildi.

Ayni shu paytda Xorazm XSR⁹ rahbarlaridan Odinaev ichki ishlar noziri - Abdusalomov, Xorazm XSRning Toshkentdagi elchisi Yoqubov, Xorazm Davlat Reja Qo'mitasi raisi - SHulimov milliy chegaralanishga qarshi chiqdilar va RKP(b) Markazqo'mi nomiga norozilik maktubini yo'lladilar. Ular Xorazm Jumhuriyatini o'z xohishicha qoldirishni, Turkistonning Amudaryo viloyatini Xorazm XSR tarkibiga berishni so'radilar. Ammo bu talablar ham oldingilaridek rad etildi.

⁹1923 yilda Buxoro va Xorazm xalq Jumhuriyatlari Sho'ro Sotsialistik Jumhuriyatlariga aylantirilgan edi.

1924 yil 12 iyunda RKP(b) Markazqo'mining Siyosiy Byurosi Turkiston, Buxoro va Xorazm hududida milliy chegaralanish o'tkazish masalasini ko'rib chiqdi va ma'qulladi. Unda quyidagilar ko'zda tutildi:

1. Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydigan qismlaridan «mustaqil» Turkmaniston XSRni tuzish.

2. Turkiston va Buxoroning o'zbeklar yashaydigan qismidan «mustaqil» O'zbekiston SSRni to'zish.

3. Turkmanlar yashaydigan hududlarni ajratib olib, Xorazm Jumhuriyatini mavjud holatida qoldirish.

4. O'zbekiston Jumhuriyati tarkibida Tojikiston muxtor viloyatini to'zish.

5. Rossiya Federatsiyasi tarkibida Qirg'izistoi muxtor viloyatini to'zish.

6. Turkistonning qozoqlar yashaydigan tumanlarini Qozog'iston SSR bilan birlashtirish.

Mazkur qarorda Xorazmda tashviqot ishlarini ko'chaytirish ham ko'rsatildi. Natijada 1924 yil 26 iyulda Xorazm Kompartiyasi o'z qaroridan qaytib, milliy chegaralanish o'tkazishni ma'qulladi.

Shundan so'ng, Markaziy hududiy komissiya tuzildi va u yangi bo'lajak respublikalar va viloyatlar chegaralarini aniqlashga kirishdi.

Markaziy hududiy komissiya o'z xulosalarida ilgari rejalashtirilgan Tojikiston muxtor viloyati o'rniga O'zbekiston tarkibida Tojikiston muxtor jumhuriyatini, shuningdek Qoraqalpog'iston muxtor viloyatlarini tuzish zarur, degan fikrni bildirdi¹⁰. Nihoyat, bu ishlar 1924 yilning sentyabriga kelib o'z nihoyasiga yetdi. Turkiston MSJ MIQning favqulodda sessiyasi, Butun Buxoro va Butun Xorazm SHo'rolarining IV qurultoylari O'rta Osiyoda milliy chegaralanish o'tkazishni maqulladilar.

1924 yil 9 va 11 oktyabrda bo'lib o'tgan RKP(b) Markazqo'mi Siyosiy Byurosi yig'ilishida bu masala uzil-kesil hal qilindi.

27 oktyabrda esa SSSR sovetlarining 11 sessiyasi O'rta Osiyoda milliy chegaralanish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi.

SHunday qilib, o'lkamiz hududini parchalab yuborish nihoyasiga yetkazildi. Sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm jumhuriyatlari o'rnida O'zbekiston va Turkmaniston sho'ro sotsialistik jumhuriyatlari, Tojikiston muxtor sho'ro sotsialistik jumhuriyati, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston muxtor viloyatlari tashkil etildi. Turkistonning qozoqlar yashaydigan qismi Qozog'iston muxtor sotsialistik jumhuriyati tarkibiga kiritildi,

2. Nihoyat markazning xohish-irodasi amalga oshdi. Yagona Turkiston xalqlari milliy xonadonlarga bo'lib yuborildi. Ular milliy davlatlarga birlashdilar. Jumladan, O'zbekiston sho'ro sotsialistik respublikasi tashkil etildi. Bu voqeaga katta siyosiy tus berildi. O'zbekiston SSRni tashkil etish tantanalarida sho'ro davlati arbobi M.I.Kalinin ishtirok etdi. Albatga u ko'zlagan maqsadlarning amalga oshganidan xursand edi. Buni uning

¹⁰ Qoraqalpog' muxtor viloyati 1924-1932 yillarda Qozog'iston MSHSR tarkibida, so'ng 1936 yilgacha muxtor jumhuriyat maqomida RSFSR tarkibida bo'ldi.

Moskvaga qaytib borgach, o'zini kutib oluvchilar oldidaaytgan quyidagi so'zlaridan bilish mumkin. «O'rtoqlar! Bog'u-bo'stonga o'ralgan, noz-ne'matga to'lgan O'zbekistondan, partiyamiz sizlar uchun, butun rus xalqi uchun oliy joylar tayyorlandi. Birinchi sizlarni shu bilan tabriklayman¹¹».

Milliy chegaralanishdan so'ng, O'zbekiston hududiga quyidagi yerlar kiritildi:

a) sobiq Turkiston Jumhuriyatidan Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uezdlarining 41 volosti, Sirdaryo viloyati, Toshkent va Mirzacho'l uezdlarining 24 volosti, Farg'ona viloyati Andijon, Qo'qon, Namangan va Farg'ona uezdlarining 70 volosti va 7 qishloq okrugi;

b) sobiq Buxoro jumhuriyatidan Boysun, Buxoro, G'o'zor, Qarshi, Karmana, Kurota, Shaxrisabz, Sherobod va qisman Sariosiyo viloyatlari;

v) sobiq Xorazm jumhuriyatidan 23 sho'ro (tuman)si kiritildi.

Bulardan tashqari, sobiq Turkiston MSHSR Samarqand viloyati Samarqand va Xo'jand uezdlari 12 volosti, Farg'ona viloyati Pomir tumani, Buxoro jumhuriyatining sharqiy Buxoro, deb atalgan Garm, Hisor, Kulob, Qo'rg'ontepa. Dushanbe va qisman Sariosiyo viloyatlarini o'z ichiga olgan Tojikiston Muxtor Jumhuriyati ham O'zbekiston XSR tarkibiga kiritildi.¹²

O'zbekiston SSR tashkil topgan paytda, uning hududi 312 ming 394 kv.km. bo'lib, aholisi 4 mln. 447 ming 55 kishini tashkil etardi.

Jumhuriyatimiz aholisi o'z milliy tarkibiga ko'ra, (Tojikistondan tashqari) quyidagicha edi: o'zbeklar - 74,2, tojiklar (1926 yil ma'lumoti bo'yicha) - 7,4, ruslar - 5,5, qozoqlar - 2,4, qirg'izlar - 2,04 foiz va hokazo.

Samarqand shahri O'zbekiston Respublikasining poytaxti deb e'lon qilindi. 1930 yilga kelib, poytaxt Toshkent shahriga ko'chirildi, Respublika hukumat idoralarini tashkil etish jarayonida hokimiyat Fayzulla Xo'jaev boshliq Inqilobiy Qo'mita va V.I.Ivanov hamda Akmal Ikromovlar rahbarligida O'zbekiston Komfirqasi Tashkiliy Byurosi qo'liga berildi.

1925 yil 8 fevralda Buxoroda O'zbekiston Komfirqasining 1 qurultoyi ochilib, O'zbekiston Kompartiyasi tuzilganligi rasman e'lon qilindi.

Qurultoyda V.I.Ivanov va A.Ikromov Markazqumning ma'sul kotiblari qilib saylandilar.

Oradan ko'p o'tmay, 13-17 fevral kunlari O'zbekiston SHo'rolarining ham 1 - ta'sis qurultoyi bo'lib, unda «O'zbekiston sho'ro sotsialistik respublikasi tashkil etish to'g'risida Bayonot» qabul qilindi. Bayonotda O'zbekistonning Ittifoq tarkibiga kirganligi e'lon qilindi.

O'zbekiston sho'rolarining birinchi qurultoyi jumhuriyatda davlat hokimiyatining rahbar organi – O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasini saylandi. Yo'ldosh Oxunboboev uning raisi, Sultonxo'ja Qosimxo'jaev,

¹¹O'zbekim. - Toshkent, 1992 y., 221-bet.

¹² Tojikiston MSHSR 1929 yilda mustaqil ShSRga aylantirilib, bevosita SSSR tarkibiga kirgunga qadar O'zbekiston ShSR tarkibida bo'ldi.

Narsulla Maxso'm Lutfullaev va Jahon Obidovalar uning o'rinbosarlari qilib saylandilar.

Shuningdek, Sho'rolar quriltoyi inqilobiy Qo'mita faoliyatini ma'qullab, Fayzulla Xo'jaev raisligidagi jumhuriyat hukumati -O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashini ham tasdiqladi.

O'zbekiston SSR tashkil etilishi munosabati bilan uning hududi qaytadan tuman va viloyatlarga bo'lindi, Jumhuriyat xududida Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Zarafshon, Surxandaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyat va okruglari, ko'plab tumanlar, qishloq, Ovul Kengashlari tashkil qilindi.

Yuqorida aytganimizdek, Tojikiston MSHSR 1929 yilga kelib, O'zbekiston SHSR tarkibidan chiqdi va mustaqil ittifoqdosh respublikabo'ldi. 1936 yilda Qoraqolpog'iston muxtor viloyati muxtor jumhuriyatga aylandi va O'zbekiston tarkibiga kiritildi. Yangi viloyatlar tashkil qilindi.

O'zbekistonning 30-yillardagi butun kuch imkoniyatlari hukmron partiyaning «sotsialistik qurilish», deb atalgan bosh jarayonini amalga oshirishga qaratilgan edi. Respublika komfirmasi butun ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy va madaniy hayot sohalariga rahbarlik qilar edi. 1929 yildagi firqani tozalash jarayonida a'zolarining 15,6% uning saflaridan chiqarildi. Yuqoridan berilgan ko'rsatmaasosida sho'rolarning ahamiyati qisqartirilib, jamoat tashkilotlari qayta to'zildi. Ularning a'zolari soni majburiy tarzda soni ko'paytirildi. 1940 yilda 600 mingdan ko'p kasaba uyushmasi, 400 ming nafarga yaqin komsomol a'zolari bor edi. Bu davrda faoliyat ko'rsatgan ommaviy ko'ngilli jamiyatlar: MOPR (ishchilarga yordam beruvchi xaqaro jamiyati), qizil yarim oy jamiyatlari ham qayta to'zildi.

Hukmron firqa rahbarligida hamma narsa besh yillik rejalarni bajarish ishiga safarbar etildi. (1928G'29-1932G'33 xo'jalik yillari - 1 besh yillik, 1933-1937yy - 2 besh yillik, 1938-1941yy - 3 besh yillik). Bu besh yilliklar hukmron firqaning buyruqbozlik usuli va zo'raki tashabbuskorlik yo'li bilan amalga oshirila boshladi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimi va firqaning yakka hokimligi ta'siri ostida sodir bo'lgan o'zgarishlarga qonuniylik tusini berish, sotsialistik qurilish amaliyotini, uning muvaffaqiyatini maqtab, ko'klarga ko'tarish uchun stalincha rahbariyat shu o'zgarishlarni mamlakatning asosiy qonunida mustahkamlab qo'yadigan konstitutsiya qabul qilishni zarur deb topdi va 1936 yilning noyabrida sobiq Ittifoq sho'rolarining VIII s'ezdida yangi konstitutsiya qabul qilindi. Uning asosida 1937 yil fevralida respublika sho'rolarining favqulodda VI qurultoyida O'zbekiston konstitutsiyasi ham qabul qilinadi. Bu konstitutsiyada ham O'zbekiston barcha respublikalar qatori teng huquqli deb rasman e'lon qilingan bo'lsa-da, biroq u hamma narsaga qodir markazga tobeligicha, qaramligicha qolaverdi.

Mazkur konstitutsiyaga muvofiq, 1938 yil 25 iyunda respublika Oliy Kengashiga saylovlar o'tkazildi. Uning 1 sessiyasi O'zSSR Oliy Kengashi rayosatini sayladi va respublika xalq komissarlari kengashini to'zdi.

1939 yil 29 dekabrda esa, O'zSSR mahalliy sho'rolariga saylovlar o'gkazildi.

Respublikadama'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish jarayoni takomillashib bordi. 1941 yilning 6 martida Andijon, Namangan va Sirdaryo viloyatlari to'zildi.

1940 yilning sentyabrida O'zSSR Xalq Komissarlari kengashi qoshida «Iqtisodiy kengash» tashkil etildi, O'zbekiston Davlat nazorati xalq komissarligi to'zildi. U davlat mablag'lari va moddiy boyliklarini hisobga olish, sarf-xarajatlar ustidan qattiq nazorat o'rnatish, hukumat qarorlarining ijrosini tekshirish uchun tashkil etilgan edi.

5.O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati. Jamoalashtirish siyosati. "Madaniy inqilob".

1920-yillar ohiri 30-yillarning boshlarida industrlashtirishning salbiy holatlari O'zbekistonda ham ko'rina boshladi. Rahbariyatdagi o'ta jadal industrlashtirish tarafdorlari qishloq xo'jaligi hisobidan industrlashni talab qildilar. Ularning muholiflari esa industrlashtirish asosida sanoatni o'stirish bilan faravonlikni yuksaltirish va qishloq xo'jaligini ixtiyoriy suratda kooperatsiyalashni oqilona birga qo'shib olib borish tarafdori bo'ldilar. «Xalqlar otasi» Stalin esa, birinchi nuqtai nazarni qo'llab quvvatladi. Shu tariqa industrlashtirishning oqilona yo'li-yu, 5 yillik rejalari tuzildi.

O'zbekistonda ahvol butunlay o'zgacha eda. Chunki u agrar respublika edi. Bu yerda qishloq xo'jaligi maqsulotlari salmog'i 60% dan ko'proqni, sanoat esa 40% dan kamroqni tashkil etardi. Bundan tashqari, sanoat ishlab chiqarishining 90% ga yaqini qishloq xo'jalik ashyolarini ishlashga asoslangan edi. Og'ir industriya endigina rivojlanayotgan respublikamiz mamlakatning asosiy paxta bozasigaaylanib qolgan edi.

Birinchi besh yillikda (1928/29-1932/33 yy.) 192 ta yangi sanoat korxonasi, (o'sha davr rasmiy ma'lumotlari bo'yicha) shu jumladan. Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozlik zavodi, Quvasoy tsement va ohak zavodlari ishga tushirildi. Chirchiqstroy, Olmaliqstroy, Toshkent to'qimachilik kombinati qurilishi davom ettirildi. 1932 yilga kelib, og'ir sanoat salmog'i 8,8%ni, mashinasozlik salmog'i 1,3%ni, yengil sanoat salmog'i 69,3 %ni tashkil etdi. SHu yili O'zbekistonda paxta tolasining 90%, tsementning 50%, o'simlik moyining 56%dan ortig'i, xom ipakning 42% ishlab chiqarildi.

Ikkinchi besh yillikda (1933-1937 yy.) ham O'zbekistonni asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashtirish ko'zda tutilgan edi. Bu besh yillikda respublikada 189 ta sanoat korxonalari va elektr stantsiyalari ishga tushirildi. Shu besh yillik davomida respublikada xunarmandchilik kooperatsiyasining yalpi mahsuloti deyarlik 3 barovar ko'paydi.

Uchinchi besh yillikning (1938-1941 yy.) dastlabki yillarida ham ko'plab korxonalar, jumladan eng yirik Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilib ishga tushirildi.

Biroq O'zbekiston Respublikasi mamlakatni industrlashtirish va uning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlasiga katta hissa qo'shgan bo'lsa ham, u xom ashyo olib chiqib ketiladigan o'lka bo'lib qolaverdi.

Jadal industrlashtirish mablag'lari mehnatkashlar zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushadi. Industrlashtirish ishchilar sonining ko'payishiga olib keladi. Birgina birinchi besh yillik davomida yirik sanoatdagi ishchilar soni 3,5 barobar ko'paydi. Ularning yarmidan ko'prog'ini mahalliy kadrlar tashkil eta boshladi. Kadrlarni ishlab chiqarishdagi o'quv kurslar va hunar-texnika bilim yurtlari tayyorlab bera boshladi. Mahalliy kadrlar Moskva, Sank-Peterburg, Ivanovo-Voznesenskda ham o'qitildi. 1940 yilda sanoatdagi ishchilar soni 142 ming nafarga yetadi.

Ammo shu narsa haqiqatki, malakali ishchilar va muhandis-texnik xodimlarning aksariyatini ovro'polik millatlar vakillari tashkil etardi.

Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun O'rta Osiyo industriya iistituti, temir yo'l transporti, to'qimachilik institutlari ish boshladi.

Sifat darajaga e'tibor berilmasa ham jadallashtirish uchun «sotsialistik musobaqalar» boshlandi. Novatorlar mehnat qaxramonlari sifatida qo'llab-quvvatlandi. Musobaqalashuv 1935 yilda eng yuqori darajaga yetib, «Staxanovchilik harakati» nomini oldi.

Ayni vaqtda nihoyat darajada zo'r berib qilingan mehnat ana shu iqtisodiy imkoniyatni yaratuvchilarning moddiy farovonligiga amalda hech bir ta'sir etmas edi.

20-yillar ohirlariga kelib qishloqlarda bozor munosabatlari muhiti tobora ko'proq barham topa boshlagan edi. Sho'ro davlati 1929 yilning ko'zidan boshlab kooperatsiyani rivojlantirish siyosatini har tomonlama jamoalashtirish siyosati bilan almashtirdi. Ayni paytda mahalliy sharoitda mutlaqo hisobga olinmadi. Buning ustiga mahalliy matbuot ham «kollektivlashtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud», degan xato fikrlarni yoritib bordi.

1930 yilning yanvarida sobiq xukmron firqa markazqo'mining jamoalashtirish uchun quloqlarni sinf sifatida tugatish to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Unga asosan O'zbekiston komfirqa markazqo'mining ham "jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida" gi qarori qabul qilindi (1930 yil 17 fevral) Qaroriga asosan respublikada yalpi jamoalashtiriladigan 17 ta rayon belgilab berildi. Lekin bu joylarda jamoalashtirish uchun sharoit yo'q edi. Ayrim rayonlarda buyruqbozlik, qo'rqitish usuli bilan bir necha haftaamalgacha oshirildi. Jamoa xo'jaliklariga kirmaganlarga suv berish taqiqlandi, ularga qo'shimcha soliqlar solindi, surgun qilindi.

Jamoalashtirish quloq xo'jaliklarini tugatishga qaratilgan edi. Ammo shu bahonada ko'pgina o'rta hol va kambag'al dehqonlarning xo'jaliklari ham tugatildi. 1930 yilda O'zbekistonda tugatilgan 2648 xo'jaliklarining aksariyati o'rta hol va kambag'al dehqonlar xo'jaliklari edi.

Jamolashtirishdagi bunday qo'pol xatolar dehqonlarning ommaviy noroziligiga sabab bo'ldi. 1930 yil 25 fevralida Farg'ona, Andijon, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Samarqand o'lkalarining ko'pgina joylarida ommaviy noroziliklar boshlandi. Ayrim joylarda ular sho'ro hukumatiga qarshi siyosiy chiqishlarga aylandi. Aksariyat dehqonlar esa jamoa xo'jaliklaridan chiqib ketadilar. 1930 yilning martida jamolashtirish foizi 47% tashkil etgan bo'lsa, 1930 yilning mayida bu ko'rsatkich 29 % tushib qoldi.

1930 yilning ko'zidan boshlab yana jamolashtirish tazyiqi boshlandi. 1931 yilning yoziga kelib 56,7% dehqon xo'jaliklari birlashtirildi. 1930-1933 yillar maboynida dehqon xo'jaliklarining soni 5.5 mingtaga yetdi. Ularning ko'pchiligi sobiq Ittifoqning boshqa rayonlariga, Ukraina Sibirga ko'chirib yuborildi. Respublikaning o'zida esa 17 ta "quloq" qishloqlari tashkil qilindi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamolashtirish rasman 1932 yilda payonga yetkazildi. Jamoa xo'jaliklariga kirmay qolganlar uchun tazyiq yanaavj oldirildi. Ular uchun soliq miqdori jamoa xo'jaligi a'zolariga nisbatan 50 % oshirildi. Natijada birinchi besh yillik ohirida joylashtirish foizi 91.5% ga yetdi. 1939 yilda esa bu ko'rsatkich 99.5% ga yetdi. Yakka xo'jaliklar faoliyati barham topdi. Yirik jamoat ishlari chiqarish qishloq xo'jaligini tashkil etishning amaldagi birdan bir shakli bo'lib qoldi.

Jamoa xo'jaliklari dehqonlarning ishlab chiqarish vositalarini birlashtirish asosida to'zildi. Bu vositalar yagona bo'linmas fondga qo'shib, jamoa xo'jaliklari a'zolari jamoa xo'jaliklaridan chiqib ketadigan bo'lsalar, ularga qaytarib berish mumkin emas edi. Aynan mana shu qoida dehqonlarning mulkdan ajralib qolishiga sabab bo'lgan edi.

Kolxozlar iqtisodiy jihatdan butunlay davlatga qaram bo'lib qoldi. Ularning mustaqilligi va tashabbusi keskin cheklandi. Yirik ishlab chiqarish vositalari esa MTS(mashina traktor stantsiya)lar orqali davlat qo'lida to'planib bordi. MTSlar jamoa xo'jaliklar dalalarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdorlari esa yuqoridan belgilab berilar edi. 1933 yilning boshlarida O'zbekistonda 73 MTSlar faoliyat ko'rsatdi.

Sovxozlar tuzilishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Birinchi besh yillik ohirida O'zbekistonda to'zilgan savxozlar soni 60 taga yetdi.

Stalincha rahbariyat jamoa xo'jalik a'zolari jamoa xo'jaliklaridan ketib qolishning oldini olish maqsadida ularga pasport berilishini taqiqladi. Chunki ular biron joyga borib, muhim yashash imkoniyatiga ega bo'lolmas edi. Mamlakatni xom ashyo bilan hamda paxta mustaqilligini ta'minlash uchun O'zbekiston hududida paxta yakka hokimligi joriy etildi. 1929-1932 yillarda paxta ekiladigan yer maydonlari 550 ming dan 928 ming gacha yetdi. Yalpi paxta hosili esa 625 ming tonnadan 752 ming tonnaga yetkazildi. 1932 yilga kelib, respublika ittifoq paxtasining 60%ni bera boshladi. Irrigatsiya va qurilish ishlariga e'tibor qaratilib, 1937-1940 yillar maboynida respublikada sug'oriladigan yerlar maydoni 260 ming gektarga kengaydi. Bu xil tadbirlarni o'tkazishda ko'zatiladigan birdan bir maqsad respublikada paxta yakka

hokimligini yanada qaror toptirish edi. 1939 yilda yalpi paxta hosili deyarlik 1 mln. 583 ming t. ga yetdi, hosildorlik esa gektaridan 17.8 ts. ni tashkil etdi. Urushdan oldingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligining hamma sohalari asosan markaz sanoatini rivojlantirishga moslashtirildi. Bu davrda ba'zi iqtisodiy muvaffaqiyatlarga qaramay, jamoalashtirish natijasida dehqonlarga xos bo'lgan turmush tartibi bo'zildi, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlar zavol topdi. "Yuqoridan qilingan inqilob"dan Me'ros bo'lib qolgan eng og'ir narsa- yer egaligining yo'q bo'lib ketishi, mehnatkash inson bilan yer, jamiyat bilan tabiat aloqalarining bo'zilib, yemirilib borishi edi. Qishloq uchun an'ana bo'lib kelgan ko'pgina xalq odatlari va rasm-rusumlarini qoralash, dinga qarshi tashviqot va targ'ibot ham qishloq yoshlariga salbiy ta'sirini o'tkaza boshladi.

XX asrning 20-30 yillarida madaniy soha ham o'ziga xos murakkab, qiyinchilik bilan kechdi. 20 yillar boshlariga kelib, O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari boshlab yuborildi. Sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini joriy etar ekan, xalq savodxonligiga erishish, ilm-ma'rifatdan baxramand etish orqali yurt farzandlari ongi shuurida kommunistik g'oyalarni chuqur singdirishga va o'zlari uchun sodiqlik bilan xizmat qiladigan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish asosiy maqsadlari edi. Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abdulqodir SHakuriy, Ismatulla Rahmatullaev, Ishoqxon Ibrat, O.Dadaxo'jaev, Abdulla Mustaqov, Hodi Fayziev, Ashurali Zohiriy, Sobirjon Rahimov, SHokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Savd Rizo Alizoda, To'xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1920 yidda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga yetdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarida asosan 1—2 boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solihaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulso'm Kopaeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar dars-tarbiya ishlarini olib borganlar.

20-yillar boshida Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875— 1943) mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Farg'ona shahrida Husanxon Niyoziy boshchiligida ochilgan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar namunali darajada edi. Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1920 yildan Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi.

Fitrat 1917 yilda «O'quv» kitobini, 1919 yilda Sh.Rahimiy va Q.Ramazon bilan birga «Ona tili» darsligini, so'ngra «Imlo masalalari» kitobini yozib chiqardi. 1917 yildayoq Said Rizo Alizoda birinchi sinflar uchun «Birinchi yil» o'qitish dasto'rin i ishlab chiqdi. Shokirjon Rahimiy 1919 yilda birinchi alifbo «Sovg'a», 1922 yilda «O'zbek alifbosi» darsliklarini, boshqa o'quv

qo'llanmalarini chiqardi. 1918 yildan u Toshkentda maktab mudiri bo'lgan.

Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta'lim-tarbiya maskanlari ochildi. Ammo xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida 20-yillar boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922 yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921 yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924 yil o'rtalariga kelib maktablar 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qiddi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston respublikasi tashkil bo'lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

Milliy ziyolilar, davlat arboblari gazeta, jurnallarning tarbiyaviy, ziyo tarqatuvchilik roliga jiddiy ahamiyat berdilar va sermazmun faoliyat ko'rsatdilar.

1923 yildan chiqa boshlagan «Mushtum» hajviy jurnali keng ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. SHuningdek, «Mashrab» nomli jurnal ham chiqqan. 1918—1920 yillarda Turkistonda o'zbek tilida 11 ta gazeta chiqardi. 20-yillarda ham bu jarayon davom etdi.

Yangi sharoitlarda o'zbek milliy matbuotchiligini rivojlantirishga ma'rifatchi darg'alar A. Avloniy, M. Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, A. Qodiriy, CHo'lpon, Ashurali Zohiriy, iste'dodli jurnalistlar G'ozi Yunusov, Elbek, Po'lat Soliev, Mannon Ramziy va qator boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Sovet tashkilotlari siyosiy aqidalarga tayanib matbuotga ta'qibni ko'chaytirdilar. Ayrim gazetalar 2—3 oy faoliyat ko'rsatib ulgurmasdan yopilib, man qilinar edi. Gazetalar nomlarini o'zgartirib chiqarardi. Sof vijdonli jurnalistlar ta'qib ostiga olindilar, keyinchalik qatag'on qilindilar. 1925 yil boshida O'zbekistonda o'zbek tilida 17 nomda gazeta va jurnallar chiqqan. Toshkentda 7 ta bosmaxona ishlab turgan. Kutubxonalar, mo'zeylar soni ko'payib bordi. Toshkentning Eski Jo'va dahasida «Turon» kutubxonasi samarali faoliyat ko'rsatdi. Buxoro respublikasi hukumati maxsus komissiya ta'sis etdi, u nodir qo'lyozmalar, kitoblarni to'plash bilan shug'ullandi. 1921 yil dekabrda Minorai kalon yonidagi binoda davlat kutubxonasi to'zildi, kitoblar, qo'lyozmalar to'plandi. Respublikaning viloyatlarida ham kutubxonalar tashkil etildi. 1921 yilda ularning soni 13 taga yetdi. O'zbekiston tashkil bo'lganida markaziy va mahalliy kutubxonalar 152 tani tashkil etar edi.

Muzeylar tashkil qilishga kirishildi. 20-yillar o'rtasiga kelib 5 ta mo'zey bor edi. Ularda xalqimizning boy tarixi aks etgan osori-atiqalar qo'yilgan.

Tashkil bo'layotgan maorif tizimi, boshqa sohalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralari ko'rildi. Toshkentning Yangi shaharida 1918 yilda Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi. 1920 yilda universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari yetkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakul'teti (rabfak)da

kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. Yerli xalqlar vakillari ularga kam qatnagan.

Toshkentning Eski shaharida, Qo'qon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920 yiddan 7 ta dorilmuallimin (inpros), bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1925 yilga kelib O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki 3—4 marta o'sgan.

1924 yilda Qo'qon bilim yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti Qori-Niyoziy dars berdi.

Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar, yoshlar-ning o'qib kelishlari XX asr boshlaridan kengayib bordi Buxoro respublikasi hukumati tashabbus ko'rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922 yilda Turkiston, Buxoro va Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishga jo'natildi.

Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib yetishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

O'zbekiston ko'p asrlik san'at turlariga boy. Keng xalq ommasi san'atni tusho'ngan vaardoqlagan. Samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov, toshkentlik To'ychi Hofiz Toshmuhamedov, xorazmlik Matyoqub Xarratov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (SHeroziy), buxorolik Domla Halim Ibodov, Farg'ona vodiysidan Madumar Hofiz, SHorahim SHoumarov, Mamatbuva Hofiz, Abduqodir Naychi (Ismoilov) va bosh-qalar o'zbek klassik qo'shiqchilik san'atini tarannum qildilar. San'at truppalari, milliy teatrlar tuzildi va faoliyat ko'rsatdi. Yangi san'at turlari doirasi kengaydi. M. Behbudiy, A. Qodiriy, AbdullaAvloniy, Hoji Muinlar asos solgan o'zbek dramaturgiyasini Fitrat, Xurshid (Shamsiddin Sharofiddinov, 1890—1960), G'ulom Zafariy va boshqalar davom etgirdilar.

Milliy sahna san'ati sohasida yetuk aktyor va rejissyor Mannon Uyg'ur (1897—1955), teatr tanqidchisi, g'arb pesalari tarjimoni Cho'lpon fidoyilik ko'rsatdilar.

Kino san'ati rivojlandi. 20-yillar o'rtalarida O'zbekistonda 14 teatr (ularning ko'pchiligi milliy teatr), 19 kinoteatr faoliyat ko'rsatgan.

1924 yilda 24 nafar yosh o'zbek san'atkori Rossiyaga o'qishga jo'nab ketdi.

1924-1925 o'quv yilida respublika byudjetining 24 % xalq maorifi uchun ajratildi. 1928-1929 o'quv yilga kelib umumta'lim maktablari soni 2 mingdan oshdi. 20-yillarning ohiriga kelib pedegog kadrlar soni respublikada 5.5 mingga yetib qoldi. Lekin shu yillarga kelib respublikadagi vaqf maktablari va eski usul maktablari butunlay tugatildi.

1930 yili umumiy boshlang'iich ta'limning joriy etilishi savodsizlik ko'lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Turli soha mutaxassislarini tayyorlash maqsadida yangi-yangi institutlar ochila boshladi. 1933 yilda SAMdu barpo etildi. 30 yillarning ohirlarida respublikada 44 mingta talaba o'qiydigan 30 ta

oliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. 20 yillar ohirlariga kelib respublikada 10 dan ortiq ilmiy tadqiqot institutlari ishlar ularda mingdan ortiq ilmiy xodimlar ish olib bordi.

1932 yili Fanlar komiteti to'zilib, u 1940 yil SSR FA ning O'zbekiston filialiga aylantirildi. Mahalliy millatdan o'sha yillari turli sohada olimlar, akademiklar yetishdi. H.Abdullaev, T.Qori Niyoziy, T.Zoxidov, U.Oripov, Ya. G'ulomov, va boshqalar.

20- yillarning ohiri va 30 yillarning boshlariga kelib mustabid tizimining qaror topib borishi, shaxsga sig'inishning ko'chayishiga qaramay respublikada ijodiy hayot o'ziga xos o'sib bordi. Adabiyot maydonida G'. G'ulom, Oybek, G'ayratiy, Hamid Olimjon, Oydin Sobirova, Uyg'un, Komil Yashin, Usmon Nosir, Amin Umariy, Zulfiya kabi yosh talantlar samarali ijod qila boshladilar. 1934 yilda Respublika yozuvchilar uyushmasi tashkil topdi. Jahon va rus adabiyotining yetuk asarlari tarjima qilindi. Shuningdek musiqa, teatr, kino sanatining yirik vakillari yetishib chiqdi. T.Jalilov, Yu.Rajabiy, M.Ashrafiy, T. Sodiqov, M.Burxonov, M.Uyg'ur, R.Hamroev, A.Hidoyatov, O.Xo'jaev, X.Nosirova, K.Zokirov, M.Qoryoqubov, B.Mirzaev, L.Sarimsoqova, R.Pirmuhammedov, Tamaraxonim, M.Turg'unboeva, va boshqalar o'zbek madaniyatini yuksaklarga ko'tara boshladilar. 1940 yilga kelib respublikada 50 ta jumladan 47 ta milliy teatr ishlab turdi. Tasviriy vaamaliy san'at o'sib bordi. 1932 yilda O'zbekiston rassomlari uyushmasi to'zildi. Lekin ma'muriy buyruqbozlik shaxsga sig'inish toboraavj olib borar va uning ta'siri madaniy hayotga ham sezilmay qolmasdi.

20-30 yillar ateistik harakatning kuchayishi bilan ta'riflanadi. 1928 yilda "Xavfsizlar uyushmasi" tuzilib, joylarda zo'r berib ateistik ishlar olib borildi. Musulmon dindorlar kamsitila boshlandi. Xotin qizlar masalasi respublikada qadimdan o'ziga xos murakkab nozik masala bo'lib kelgan, musulmonchilik qonun qoidalari, an'analari asrlar osha mavjud bo'lgan. Sovet hukumati ana shu masalaga ham nihoyatda keskin munosabatda bo'ldi va musulmon ayollari go'yo to'rt devor ichidagi qafasdan ozod qilish, erkaklar bilan teng huquqli, yonma-yon turib har sohada birga mehnat qilishlarini targ'ib qilib "hujum" nomli harakatini boshlab yubordilar. Vaholanki, bu ishlar juda nozik va ehtiyojkorlik bilan yondashishni, shoshma shosharlik bilan emas, to'g'ri, vazmin tushintirish orqali sekin-asta, vaqt o'tishi bilan amalga oshishini taqozo etardi. 1927 yilda to'zilgan bu kompaniya targ'ibi bilan Respublika mahalliy ayollarning faollaridan tashkil topgan maxsus komissiyalari to'zila boshladi. Paranja yopinib yuradigan ayollarga qarshi targ'ib ishlari yoppasiga boshlanib ketdi. Minglab ayollar ularni targ'ibiga uchib paranja tashlab, bu holatlar juda katta fojealarga olib bordi. 1927-1928 yillarda respublika bo'yicha 2.5 mingdan ortiq faol ayollar ana shu "hujum" kamchiligining qurboni bo'ldilar. Bu ishlar asta-sekinlikni, bosqichma-bosqich amalga oshirilishni talab qilardi.

Lekin ayni vaqtda Sovet hukumati o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayonida, ularni ishlab chiqarishga jalb qilish tadbirlarini ham

amalga oshirib bordi. Xotin-qizlar klublari, artellar, tikuv tsexlari tashkil qilina boshladi. 1930 yilda respublika hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq artellarida 5 ming nafardan ko'proq ayollar ishlardi.

1925-28 yillarda tashkil qilingan ayollar kolxozlarida 5.5 mingdan ko'proq ayollar mehnat qildi. Ayollarni savodini chiqarishga katta e'tibor berila boshlandi. 1936 yilga kelib 186 ming ayol savodini chiqargan edi. Ayollardan davlat arboblari, olimlar, shifokorlar, o'qituvchilar, san'atkorlar, yetishib chiqa boshladilar. Jahon Obidova, Tojixon Shodieva, Sora Eshonto'raeva, Tamaraxonim, Halima Nosirova, M.Turg'unboevalar shular jumlasidandir.

Xullas, 20-30 yillarda Respublika madaniy hayotida ham salbiy, ham ijobiy holatlar, o'zgarishlar, jarayonlar, yutuqlar, kamchiliklar, qurbonlar, kurashlar, ziddiyatlar, muvofaqiyatlar asosida o'ziga xos ko'rinishlar davom etdi.

6.Ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi. Siyosiy qatag'onlar.

Biz o'rganayotgan 20-30 yillarda Respublikamiz hayoti Markazning qattiq nazorati ostida o'tar edi. Partiyaning yo'l-yo'riqlaridan bir oz bo'lsada chetga chiqish siyosiy, aksil inqilobiy harakat deb baholanar edi. «Sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik ko'chayib boradi» degan stalincha soxta g'oya butun mamlakatda qatag'onlik siyosatini boshlanishiga sabab bo'ldi. VKP(b) markaziy qo'mitasi tomonidan o'ylab chiqarilgan «partiyadagi o'ng xatar» ning e'lon qilinishi bilan mamlakada «Troitskiychilar» niqobi ostida, xibsga olinishlar boshlandi.

Mamlakatda boshlangan katag'onlik siyosatining bosh maqsadi zo'raki o'rnatilgan to'zumga qarshi bo'lganlardan o'ch olish, Stalin siyosatidan norozi bo'lganlar va undan aql, bilim jihatdan ustun turganlarning yo'q qilish hamda yangicha ko'rinishda davom etayotgan mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashdan iborat edi.

O'zbekiston kompartiyasining IV s'ezdi (1929 y) ham Respublikamizda partiya tashkilotlaridagi guruhbozlikka qarshi kurash niqobi ostida tazyiq mexanizmini ishga tushirdi.

Dastlab joylarda milliy madaniyatni qayta tiklash, xalq turmishini yaxshilash muammolariga diqqatni jalb etishga o'ringan rahbar xodimlar va ijodiy ziyoliylar yo'q qilingan edi. Aynan shu munosabat bilan respublikamizning Turor Riskulov, Abdulla Raximboev, Nazir To'raqulov, Inog'omjon Xidiraliyev, Qayg'iz Ataboev, Sultonbek Xo'janov singari mashhur arboblari millatchilikda ayblandilar. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muqobil yo'llarini amalga oshirishga o'ringan kishilarga guruhbozlikka qarshi kurash shiori ostida ayblar qo'yildi. Keyinchalik «inogomovchilik», «18lar guruhi», «qosimovchilar» deb nom olgan ishlar xuddi o'sha paytlarida to'qilgan edi.

1929 yil ohirlarida atqoli ma'rifatchi Munavvar Qori Abdurashshidxonov boshchiligidagi «milliy istiqlob» tashkilotining a'zolari qamoqqa olindi. Kamalgan 85 nafar a'zolaridan 15 tasi otib tashlandi, qolganlari esa to'zatish-

mehnat lagerlariga jo'natildi. Yirik jamoat arboblari Mannon Abdullaev (Ramz), Nosir Saidov, Mahmud Xodiev (Botu), Xosil Vasilov, Sobir Qodirovlar o'lim jazosiga xukm etildilar, keyinchalik bu xukum o'zoq muddatli qamoq jazosi bilan almashtirildi.

1930 yili Davlat banki apparatida tozalash o'tkazilib, bir qancha rahbar xodimlar qamoqqa olindi. Respublika Oliy sudining sobiq raisi Sa'dulla Qosimovning ishi bilan bog'liq «qosimovchilik» degan, ishlar to'qib chiqarildi. Sud ishlarining hammasi asosan ilg'or siyosiy arboblarni yo'q qilishga qaratilgan edi. Bularning hammasida Stalinning xo'jalik muommalarini ma'muriy choralar bilan yechishga moyilligi va cheksizxokimlik qilishga intilish mudxish rolni o'ynadi. 20-yillar ohirlarida boshqa respublikalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham xususiy kapitalni va nepmanlar, boylar xo'jaliklarining qoldiqlarini juda qisqa muddat ichida tugatish yo'li qo'llab quvvatlandi. Mana shu nepmanlar, boylarning hammasi sotsialistik qurilishning eng ashaddiy dushmanlari deb e'lon qilindi.

1930 yil fevralidan boshlab O'zbekistonda quloq xo'jaliklarni tugatish kompaniyasi boshlandi. Bu kompaniya, xuddi boshqa respublikalardagidek, qonunlar va inson huquqlarini qo'pol ravishda bo'zish hollari bilan birgalikda davom etib bordi. Birgina Mirzachultumani (Toshkent okrugi)da 75 ta xo'jalik quloq qishloq sifatida tugatildi. Ko'pgina rayonlarda quloq xo'jaliklarigina emas, balki o'rta hol va hatto kambag'al xo'jaliklar ham musodara qilindi. Natijada O'zbekistonda birgina 1930 yili 2648 ta quloq va boylar xo'jaliklari deb atalgan xo'jaliklar tugatildi. 1930-1933 yillari tugatilgan xo'jaliklar soni 5,5 mingtaga yetdi, ularning ko'pchiligi ittifoqning boshqa rayonlariga, asosan Ukraina va Sibirga ko'chirilib yuborildi. Ko'chirilganlarning ko'pchiligi nobud bo'lib ketdi.

Sobiq ittifoqda qatag'onlikning keng miqyosida boshlanishi VKP(b) XVII se'zdi (1934y) va unda ko'rilgan tashkiliy masalalar bilan bog'liqdir. S'ezd yakunida partiya markaziy qo'mitasiga kotiblar saylovi o'tkazildi. Nomzodlar orasidan S.M.Kirov ko'p ovozni eg'alladi. Stalin ustalik bilan bosh kotib (sarkotib) saylovini o'tkazdirmadi. Chunki S.M.Kirov sarkotiblik lavozimini eg'allashi mumkin edi. Shu sababli Stalin to umrining ohirigacha hukumat raisi va partiya markaziy qo'mitasi kotibi (sarkotib deb atalmasa ham u partiyaning bosh rahbari sifatida faoliyatini davom ettirdi) lavozimlarida turdi.

Partiya XVII s'ezdidan keyin ko'p o'tmasdan S.M.Kirov o'ldirildi. Bu voqea partiya va mamlakatda keng qamrovli Qatag'onlikni boshlab berdi. Bu harakatlar nomiga-Kirov dushmanlariga qarshi kurash nikobida bo'lsada, aslida s'ezdda Kirovga ko'p ovoz berib, Stalinga uncha ishonmagan kommunistlardan o'ch olishdan iborat edi.

Partiya XVII s'ezdida qatnashgan 1956 delegatdan 1108 tasi, s'ezd saylagan 139 ta markazkum a'zolari va a'zolikga nomzodlardan 98 tasi, ya'ni 70 foizi qatag'on qilindi.

Stalin s'ezddagi saylovlardan saboq chiqarib, o'zidan har tomonlama kuchli, ongli faollarni yo'q qilishga kirishdi. Sobiq ittifoqdagi qatog'onlik 1937-1938-yillarda o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Partiya va davlat rahbarlaridan Zinovev, Kamenev, Buxorin, Rikov, Pyatakov, Tomskiy kabilar ustidan sun'iy ayblar to'qildi. Mamlakatda «Zinovevchi», «Kamenevchi», «Buharinchi», «Pyatakovchi», «Tomskiychi»lar qidirildi. Bir necha minglab kishilar ana shu yorliqlar bilan qatl ettirildi va lagerlarga jo'nattirildi.

O'zbekistonda yangi Qatag'onlik partiya va Davlat oldida katta -katta xizmatlar qilgan atoqli arboblarni qamoqqa olishdan boshlandi. Siyosiy boshqarma organlari (OGPU) F.Xo'jaev¹, A.Ikromov, D.Manjara, S. Segizboev, A.Karimova va boshqalar xususida sovetlarga qarshi qo'poruvchilik ishlarini to'qib chiqardilar. Bular nazariy baxs va munozaralarda o'z pozitsiyalarini mahkam turib himoya qiladigan hurmatli va e'tiborli xalq yetakchilari edi. Ular shaxsga sig'inishning yakka partiya zo'ravonligi ildiz otib ketishining xavfli ekanligini ochiq ravshan tushinar edilar. Ular joylarda katta xukm o'tkaza oladigan bo'lishlariga qaramay qatag'onlarning zo'rayib borishini to'xtatib qolmadilar. O'zbekistonda keng ko'lamlı agentura ko'zatuvi va ommaviy ravishda qamoqqa olish ishlari tashkil etildi. 1937 yilning avgust sentyabr oylarida bir necha ming kishilar respublika ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD)ning ichki qamoqxonalari tushib koldi. Ularning orasida O'z kompartiya markaziy komitasi kotiblari S.Boltaev, I.Xudayqulov, A.TSexev, markazko'm bo'lim boshliqlari M.Shermammedov, M.Usmanov, K.Berchin, O'ZLKSMarkazkumi kotiblari I.Ortiqov, T.Riskulov, F.Tarasov, Respublika xalq komissarlari A.Islamov, M.Tursunxo'jaev, viloyat partiya qo'mitasi kotiblari D.Rizaev, K.Boltaev, N.Isroilov, Yu.Irismetov va boshqalar bor edi. 1938 yil bahoriga kelib viloyatlar, shaxarlar, partiya qo'mitalari kotiblarining 60% dan ko'prog'i, shu yilning ikkinchi yarmida esa viloyatlar, shaharlar, rayonlar partiya qo'mitalarining 114 nafar kotiblar qatag'on qilindi.

1934 yildan 1938 yilgacha boshqa respublikalar kabi O'zbekistonda 40 mingdan ziyod kishi jaz og'a tortilgan edi. Shulardan 730 tasi xalq dushmani degan tuxmat bilan otib tashlandi.¹

O'zbekiston jamiyati hamma tabaqalarga keng yoyilgan xibsga olish to'lqini ostida qoldi. O'zbekiston NKVD sining ichki turmasi va boshqa joylardagi qamoqxonalarda maxbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga maxkum etilar edi. Eng kuchli va mardonavor kishilar ham ahvoli ilojisizligi ko'rib va o'z yaqinlarining taqdirlaridan xavotir olib qilmagan jinoyatlarini tan olishga majbur bo'lar edilar.

¹ F. Xo'jaev O'zbekiston Respublikasi xukumati raisi lavozimida ishlagan. U 1937 yilda xibsga olinib, otishga xukm etilgan. Uning onasi, xotini va qizini ham lagerga jo'natdilar. 1954 yilda «aybsiz aybdorlar» ozod etilgach, birgina qizi qaytib keldi. Oldin onasi, keyin xotini lagerda vafot etgan edi.

¹ «Jahon adabiyoti», 1998 y. yanvar, 39-bet.

Maxbuslarning ko'plari o'z-o'zini o'ldirishni birdan bir chora deb bilardilar. 30-yillarning ohirida O'zbekiston hammaning ko'ngliga tushgan daxshat, xoinlik, zo'rlik va bedodlik sharoitiga tushib qoldi.

(Xalqimizning guli bo'lgan ziyolilarimizning, yetakchilarimizning qatag'on qilinishida o'z yurtdoshlarimizning ayrim vakillarini qo'rquvdan xoinlik, sotqinlik qilganliklaridan, amal kursilariga o'tirish maqsadida bir birlarini sotganlaridan, o'sha davr qatag'onlik mafkurasi ta'sirida ko'zlari ko'r bo'lib qolgan ayrim millatdoshlarimizning qabih ishlaridan ham ko'z yummasligimiz kerak).

Shu tariqa insoniylik va demokratiya printsiplarini toptab, oyoq osti qiladigan, har qanday o'zgacha fikr yuritishni kuch bilan bo'g'adigan, ommaviy o'zboshimchalik va zo'rlik o'tkazib, Vatanga sodiq necha o'n minglab kishilarni qirib tashlagan totalitar targ'ibot qaror topib bordi.

"Sotsializm qurilishi" deb atalgan yillarda yangi jamiyat kishisining to'la qonli obrazini yaratish bobida xormay tolmay kurash olib borgan o'zbek ziyolilarining katta bir guruhi hech qanday asossiz sabablar, uydirma tuxmatlar va bo'xtonlar orqasida shubha ostiga olinib, umumiy ta'qib va quvg'inga giriftor bo'ldilar. Ajoyib fan zaxmatkashlari, qobiliyatli ijod soxiblari, madaniyat jon qo'yarlari stalincha qatag'onlikning aybsiz aybdorlari, begunox qurbonlari bo'ldilarki, buni xech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Bunday mislsiz ayanchli qismatga, jismoniy yo'q qilinishga maxkum etilgan siymolar orasida A. Qodiriy, A.Fitrat, A.CHo'lpon, K. Aliev, SH.Sulaymon, U.Nosir,² O.Xoshim, M.Sufizoda, A.Yokubov, Miyon Bo'zrik, Solihov singari o'zbek xalqining ma'naviy mulkiga bebaho hissa qo'shgan o'nlab uning ajoyib o'g'lonlari borligi bizni chuqur qayg'u va iztirobga soladi. O'z xalqining kuylagani, uning davri, tashvishi, xasrati va muammolarini o'ylagani uchun bu o'ta is'tedod soxiblarining yo'q qilinganligi, ularning yorqin ijodi so'ndirilgani-totalitar to'zum xunrezligi va beboshligining qonuniy natijasidir.

Totalitar tuzum, shaxsga sig'inish va stalincha qatag'onlik siyosati O'zbekiston xalq ta'limi rivojiga ham salbiy ta'sir etdi. Ta'lim tarbiya o'ta siyosatlashtirildi. Milliy madaniy me'rosni o'rganish, milliy tarbiya usullaridan foydalanish taqiqlandi. Maktabda "bolshevikcha tarbiyalarni" o'rnatish uchun olib borilgan kurash yosh avlod tarbiyasiga putur yetkazdi, natijada bolalarga kattalarning hohish irodasini va talablarini itoatgo'ylik bilan bajaruvchilar deb qaraladigan bo'ldi. Bo'layotgan ishlardan xalqni chalg'itish, xalqda "doxiy" ga muhabbatni yanada oshirish uchun g'alaba raportlari, ulkan yutuqlar, buyuk natijalar kerak edi. Bu g'alabalar "dohiy" obrazining yanada yaqinroq bo'lishi

² U.Nosir 1937 yilda o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi munosabati bilan Moskvaga borgan edi. Dekada ishtirokchilari Stalin bilan uchrashdilar. Ular Toshkentga qaytayotib, poezdga chiqadilar. U.Nosir o'z kupesidagi xamrohlariga Stalin bilan uchrashuv ta'surotlarini so'zlab, "Oddiy odam ekanku, meni bir og'aynim bor, uni kerosin sotadigan tog'asi ham bor. Stalin shu tog'asiga o'hshar ekan" degan so'zni aytadi. Mana shu so'zlar uni Toshkentga kelgach, qamoqqa olinib, qamoq lageriga jo'natilishiga va og'ir qiynoqlar tufayli betob bo'lib, vafot etishiga sabab bo'ladi.

uchun nima qilib bo'lsa ham qo'lga kiritilishi lozim edi. Biron natijaga erishilmasa, buning uchun javob berish kerak edi. Shu sababli Stalin mamlakatning istalgan joyida hohlagan kishini qatag'on qilish uchun nazariy asos bo'la oladigan fikrlarni bashorat qila olar edi. "Pravda vostoka" gazetasining 1940 yil 30 iyun sonida e'lon qilingan "xalq ma'orifining yuksak marralari sari" nomli maqolada: "Partiya va shaxsan o'rtoq Stalin kun sayin bolalarga, maktabga bo'lgan haqiqiy muhabbat va g'amxo'rlik namunalari ko'rsatmoqdalar. Stalinning qo'lida pioner qizcha bilan tushgan tasviri bizda partiyaning sovet bolalariga bo'lgan mehr muhabbati timsoli bo'lib qoldi"-deb yozilgan edi. Va holanki 1939-1940 yillarda "doxiy sevgan" bolalarning 4.7% maktablarga jalb etilmagan, 6.1% maktablardan ketib qolgan, jami 100 mingdan ziyod bolalar maktablarga qatnamay qo'ygan edilar.¹

30-yillarda ko'pgina halol o'qituvchilar ham "xalq dushmani" deb e'lon qilindi. Ularning farzandlari esa, bunday "yorliqni" olgan boshqa kishilar farzandlari singari komsomol a'zolidan o'chirilib, maktablardan xaydaldilar.

Qatag'on yillarida favqulodda qonunlar qabul qilindi. 12 yoshdan boshlab o'lim jazosini qo'llash mumkin bo'lib qoldi. O'smirlarning kattalar bilan birgalikda qatl etilgan hollari ham sodir bo'ldi.

Qatag'onliklar oqibatida o'qituvchi kadrlar soni kamayib ketdi. Xalq ta'limi to'zimi rahbarlari, pedagog olimlar hibsga olinib, "xalq dushmani" sifatida yo'q qilindi: (xalq ta'limida qatag'onlikni kengroq, tushuntirishni istagan o'qituvchilar uchun professor I.Tursunovning "Istiqlolga intilgan qalblar nidosi" (T., 1993 i) kitobini tavsiya etamiz.)

Mehnatkashlarni chalgitish uchun matbuotda "xalq dushmanlari" ni "fosh etadigan" maqolalar muntazam e'lon qilinib borildi. Shu maqolalardan ayrimlarini matnda keltirib o'tishni lozim topdik:

"Dushmanlar O'zbekiston Maorif xalq komissarligini bexudaga qo'ldan bermay kelgan emaslar. Turli davrlarda Maorif xalq komissarligiga boshchilik qilgan Usmonov, Karimov, Rizaev, Ramziy kabi sobiq xalq komissarlarining hammasi xalqning ashaddiy dushmani bo'lib chiqdilar. Ko'pgina shahar va rayon Maorif bulimlarining apparatlari hamda maktablar mana shunday tudalar bilan ifloslangan ekan xalq dushmanlari juda katta zarar keltirdilar. Ularning zarar ko'randachilik xatti harakatlari oqibatida maktab yoshiga yetgan bolalarni umumiy majburiy o'qishga jalb etish ishi xan o'z to'la amalga oshirilayapti. Xalq dushmanlari o'zbek bolalarining to'liqsiz o'rta va o'rta maktablarni tug'allashlariga tuskinlik qildilar. Mana shuning uchun 8-10-sinflarda o'qiyotganlarning 11% gina mahalliy millat vakillaridir O'zbekiston maktablariga o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishiga zarar ko'randalarcha munosabat oqibatida 2176 o'qituvchi yetishmayotir..."Pravda vostoka" gazetasi, 1938 g 6 yanvar)

¹Qaralsin: «Учитель Узбекистана» gazetasi, 1988 yil 31 avgust.

"Xalq komissari Sorokin qanoti ostidagi millatchilar o'zbek o'quvchilarini o'zbek tilini darsliklardan o'rganish imkoniyatidan mahrum qildilar. Xalq komissari esa kotibalardan tashkil topgan o'tib bo'lmas to'siq orqasiga, kabinetiga o'tirib olib, tashqarida nima bulayotganidan bexabar". Bu davrda matbuotda bunday ayblarning yozilishining o'zi insonni sud va tergovsiz otib tashlash uchun kifoya edi.

Yuqorida nomi zikr etilgan K.Sorokin 1936 yil iyul oyida respublika xalq ma'orifi komissari qilib tayinlangan edi. U 15 oygina xalq komissari bo'lib ishladi. 1937 yilning 29 sentyabrida uni xibsga olishdi. so'ngra uning rafiqasiga ham xibsga olish to'g'risidagi orderni ko'rsatishdi. Biroq uni (Gulso'm Abduraxmanova) o'sha vaqtda xomilador ekanligi qutqarib koldi. Uni qamoqdan chiqarib, yashab turgan uyini tezda bo'shatib qo'yishni talab qilishdi. U ikki yosh go'dagi bilan qaynonasining kichik bir uyiga ko'chib o'tdi. U Stalinga, Voroshilovga, Beriyaga maktublar yozdi. Lekin "Eringiz xat yozishish huquqlaridan mahrum etilgan holda 10 yilga xukm qilingan degan mazmundagi javoblar Beriya imzosi bilan kelardi. Keyinchalik qamoq muddati xatlar bo'yicha ikki baravar ko'paytirildi. Eri xibsga olingandan uch oy keyin otib tashlanganligidan bexabar Gulsim opa har oyda erining turmada kun kechirishi uchun NKVD kassasiga oltmish so'mdan pul to'lab turdi. U bu yillar hatto, "doxiy" tezda adolatni tiklaydi, deb kutdi. Xatto, o'zining 1938 yil yanvarda tug'ilgan qiziga Stalinning qizi sharafiga Svetlana deb nom ham qo'ygan edi. ("Pravda Vostoka" gazetasi, 1937 yil, 15 sentyabr.)

Stalincha mustabid hokimiyati dastidan milliy jumhuriyatlar mustaqilligi, suverenligi barbod etilibgina kolmay, shu bilan birgalikda ularning fuqarolari ichki e'tiqodi, asrlar osha davom etib kelgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusmlari, diniy e'tiqodlari ham toptaldi. Dinni, ruhoniylar va dindorlarni ta'kib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga nihoyat darajada zarar yetkazdi. Ma'muriy islohot tartiboti urnatilishi bilan dinga ilmiy, milliy nuqtai nazardan yondoshish inkor etila boshladi. "Sotsializmda dinga o'rin yo'q, o'nga din begona" degan qoida ustun bo'lib koldi. Na masjidlar, na cherkovlar, na dindorlar shu qadar ta'kiblarni hech kachon boshidan kechirmagan edilar.

Respublika ruhoniylarining asosiy qismi 30-yillarda kontsentratsion lagerlarga junatildi. Masjidlar bekitib qo'yildi. Ularning aksariyati otxonalar, omborxonalariga aylantirildi. Bu qilingan ishlar, shubhasiz, millionlab kishilarning shaxsiyatiga, milliy g'ururi, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Xatto shunday holatlarga ham duch kelindiki, jumhuriyatimizdagi ko'plab xonadonlarda vaqti- vaqti bilan o'tkazib turiladigan tintuv paytida arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmunini surishtirib ham o'tirmasdan, o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur shaxs degan la'nat tamg'asi bosilib, uni qamoq yoki surgun jazosiga maxkum etilardi.

Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi Beguvul qishlog'ida ilmiy, yaxshi fazilatlar bilan elda hurmat kozongan, aellarni o'qitib, savodli qilgan mu'tabar onaxon Bibijon Ismoilovani 80 yoshida diniy kitob o'qishda ayblab, qamoqqa

olishgan va momo qamoqda og'ir ahvolda vafot etgan. Holbuki, uyiga o'sha qo'zg'unlar bostirib kirgan kechada Bibijon momo o'zining hamisha o'qib yuradigan sevimli "**ahloqul-muxsinin**" (yaxshi hulqlar) kitobini o'qib o'tirar va bu asar go'zal insoniy fazilatlar ta'rifidan hikoya qilar ekan. U davrlarda nohaq ayblanib mushtipar momo singari fojeali qismatga duchor bo'lganlar ko'plab uchrardi. Bunday hollardan sarosimaga tushgan odamlar avvalgidek kitobxonlik nari tursin, hatto eski kitoblarni qo'lga olishdan uni uydaasrashdan ham xadiksiraydigan bo'lib qolgandilar. (Karalsin: M.Sodiqov. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz, t., "Kamalak", 1992, 38-bet).

Bu xildagi bedodliklar, battolliklar orqasida xalqimizning Qadim Qadimdan, avlodlar oshaavaylab, saqlanib, asralib kelingan ko'plab nodir ma'naviy qadriyatlarini, milliy udumlari, urf odatlari zavol topdi, yemirildi, odamlarning esa muteligi, ma'naviy, ruhiy majruxligi kuchayib bordi. Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, Stalincha mudxish yillarda ham o'z iymone'tiqodini sotmagan, o'z fikridan qaytmagan, o'z g'oyasiga sodiq bo'lgan yurtdoshlarimiz ko'p edi. Ularning tirik qolganlari mustaqilli-gimizga erishishimizga o'z hissalarini qo'shdilar va qo'shmoqdalar.

7. Ikkinchi jahon urishi. Xo'jalik va ijtimoiy hayotning xarbiy izga solinishi.

Insoniyat juda ko'plab urushlarni boshidan kechirgan bo'lib, bular ichida eng dahshatlisi, 50 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan, XX asr fojiasi bo'lmish ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939 yil sentyabr — 1945 yil sentyabr) davom etgan bu urush yer sharining 80% aholisi joylashgan xududni, 61ta mamlakatni o'z ichigaqamrab oldi.

Ikkinchi jahon urushini butunjahon kommunistik imperiyasini tuzishgaqaratilgan sovet davlati hamda Germaniya va Yaponiya kabi agressiv kuchlarning dunyogahukmron bo'lish uchun intilishlari keltirib chiqardi. Urushning asosiy aybdorlari jahonga hukmronlik qilish da'vosi bilan maydonga chiqqan Adolf Gitler va Iosif Stalin yurgizgan agressiv siyosat bo'ldi. Frantsiya vaAngliya siyosiy yetakchilarining javobgarligi shundan iborat bo'ldi. Bu esa, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1939 yil 23 avgustda Germaniya bilan 10 yil muddatga o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomasi ularning javobgarliklarini tashkil qiladi. Sovet-german bitimining maxfiy qo'shimcha bayonnomasiga ko'ra, Germaniya bilan SSSR ta'sir ko'rsatish doiralarini bo'lib olishgan edi. Eng so'nggi tarixiy tadqiqotlar «avgust bitimi» mamlakat havfsizligini mustahkamlab, sovet-german urushining emas, balki ikkinchi jahon urushini vaunga SSSRning tortilishini tezlashtirgan hujjat bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki, Germaniya davlatining ham, sovet davlatining ham strategik maqsadlarini aks ettirgan bu shartnomagamuvofiq Germaniya bilan SSSR Polshaga bir vaqtdaqo'shin kiritishlari lozim bo'lgan. Shunga ko'ra 1939 yil 1 sentyabrda fashistlar Germaniyasi Polshaga bostirib kirdi. 3

sentyabrda esa Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildilar va ikkinchi jahon urushi boshlandi. Gitler jahon jamoatchiligi ko'z o'ngida halokatli urush yong'inining asosiy aybdori bo'lib namoyon bo'ldi. Stalin esa aynan shuni kutgan edi. U sovet qo'shinlarini 17 sentyabrdagina Polsha hududlariga kirita boshladi va Sharqiy Yevropaning xaloskori sifatida g'arbiy Belorusiya yerlarini bosib olib, keyinroq rasmiy ravishda SSSRga qo'shib oldi. 1941 yil 22 iyun yakshanba kuni tongotarida avgust shartnomasini buzib, fashistlar Germaniyasi SSSR gahujumboshladi. Germaniya bilan uning ittifoqchilari Italiya, Finlandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariyaham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Urushning dastlabki kunlaridanoq butun mamlakatda bo'lganidek O'zbekistondaham partiya tashkilotlari tomonidan mitinglar va yig'ilishlar tashkil qilindi. 1941 yil 22 iyundayoq Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilari ana shu daqiqadan boshlab o'zlarini Vatan ximoyasiga safarbar qilingan, deb hisoblashlarini bildirdilar. 23-24 iyunda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Fa'g'ona, Nukus va boshqa shaharlardagi yig'ilishlarda Vatan himoyasi uchun har qanday vazifani bajarishgashay ekanliklarini bildirgan o'zbekistonliklar harbiy komissarliklarga frontga ko'ngilli sifatidajo'natishlarini so'rab arizalar bera boshladilar. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan. Bu o'zbekistonliklarning o'z vatanparvarlik burchlarini, har bir urush insoniyat boshigakelgan ofat ekanligini yuksak darajada anglab, urush olovini yoquvchilarga qattiq nafrat bilan qarashliklarini ko'rsatadi. Xalq Komissarlari Kengashi nomidan joylarga ko'rsatmalar jo'natib, unda urush ahvolni keskin o'zgartirib yuborganligi, Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat'iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilib, «Hamma narsa front uchun, hamma narsag'alaba uchun!» chaqirig'i talab darajasiga ko'tarilgan edi. Urushning dastlabki kunlaridanoq sovet xalqi-o'zbekistonliklar ham bosqinchilar ustidan g'alabaga erishishga butun kuchlarini baxshida etdilar. Mustabid tuzum zulmi ostida ezilayotgan xalqlar qandaydir g'oyalarni emas, balki ona-yurt, Vatanlarini himoya qildilar. O'zining vatanparvarlik burchini yuksak darajada xis qilgan o'zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRni emas, eng avvalo, O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saqlab qolishni maqsad qilibqo'ygan edi. Chunki, xalqimiz sotsializm niqobi ostida qilingan bosqinchilik, siyosiy qatag'onlar zahmini hali unutmagan bir davrda gitlerchi bosqinchilarning bosib olingan hududlarda qilgan ashaddiy jinoyatlari, ular o'rnatayotgan tartib to'g'risidagi xabarlarini eshitib, fashizmning mustabid tuzumdan ham dahshatliroq, insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini anglab yetgan edi, ya'ni xalq o'zini dushmani to'xtashishga va uloqtirib tashlashga qodir bo'lgan birdan bir kuch deb xis qildi. O'zbekistonliklarning jang maydonlaridagi jasorati, front orqasidagi

fidokorona mehnati mustabid davlat mashinasining tazyiqi, erksiz harakat tarzida emas, balki ongli, asl vatanparvarlikning manbai bo'lgan Vatanga muxabbat tuyg'usining yuksak darajadagi ko'rinishi bo'ldi. Urushning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiy harbiy safarbarlik e'lon qilindi. O'zbekiston xukumati milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941 yil 13 noyabrdan 1942 yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo'shilma, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi to'zilib frontga jo'natildi. Umuman, urushboshlarida 6,5 million kishidan iborat bo'lgan O'zbekiston aholisining 1.433.230 tasi urushgasafarbar etilgan. Ularning ko'pchiligi mardlik namunalari ko'rsatib, jangovar orden va medallar bilan takdirlandi. Chunki ota-onalar, O'zbekiston xalqi o'z o'g'lonlarini frontga jo'natar ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish, o'tmishda bosqinchilarga qarshi kurashlarda g'olib chiqqan qaxramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni, mard, botir askar bo'lib, dushmanlar ustidan g'alabaqozonishlarini tilab qolgandilar.

Harbiy vaziyat front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch chora-tadbirlar ko'rishni talab qildi. Xalq xujaligini qayta ko'rib, harbiy izgatushirish umumiy dasto'ning tarkibiy qismi bo'ldi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib, zudlik bilan front manfaatlariga bo'ysundirildi. Respublika sanoat korxonalarini urush boshlanishi bilanoq qaytaqurilib, mudofaaga zarur maxsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish xaftasida 11 soatgachao'zaytirildi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho'zilardi. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi-xizmatchilar sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari Hajmini taxminan 1.3ga oshirish imkonini berdi. Ishchi kuchining yetishmasligi natijasida idora xizmatchilari, uy bekalari, o'quvchilar ishlab chiqarishga jalb etildi. 1941 yil dekabrda harbiy korxonalarining barcha xodimlari safarbar, deb e'lon qilindi va mazkur korxonalariga biriktirib qo'yildi. Kadrlar, xom ashyo, ishlab chiqarish vositalari tanqisligiga qaramasdan 1941 yil dekabrdayoq respublikadagi 30ga yaqin korxonalar mudofaa uchun mahsulot bera boshladi. Korxonalarida front brigadalari nomini olgan brigadalar to'zila boshladi, dastlab oktyabrda «Tashselmash» zavodida tashkil etilgan bo'lsa, 1942 yil boshlarida ularning soni 1,5 mingga yetgan. 1942 yil o'rtalariga kelib xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga o'tkazish O'zbekistonda asosan ohiriga yetkazildi. Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining asosiy ma'naviy-ahloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo'ldi, ya'ni yurtboshimiz aytganlaridek «tarixning o'yiniham, omonsizjangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushiraolmadi».

8.Urush yillarida O'zbekiston sanoati. Fan va madaniyat. O'zbekistonliklarning urush jangohlarida ko'rsatgan jasoratlari.

Yashin tezligida urush olib borish rejasiga ega bo'lgan nemis-fashist qo'shinlari shiddat bilan Sharqqa qarab harakat qilar edi. Front yaqinidagi shahar va kishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga -Sharqqa ko'chirish boshlandi. O'rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi (Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, «qizil Oqsoy», «Rosselmash», Dnepropetrovsk karborond zavodlari, Moskvadagi «Elektrokabel» va «Pod'yomnik» zavodlari, Temir yo'llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, «Krasniy put» zavodi, Kievdagi «Transsignal» zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar) O'zbekistonga; ulardan 55 ta korxonalar Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14ta zavod va fabrika Samarqandga, 22 tasi Farg'ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Bu korxonalarni joylashtirish, montaj qilish va g'oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish vazifasini tashkiliy jihatdan ta'minlash ishi bilan maxsus komissiya shug'ullandi.

“Rosselmash” 25 kunda, «qizil Oqsoy» zavodi bu e'ra yetib kelganidan keyin oradan 29 kun o'tganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941 yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarining qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942 yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi. Elektr energiyasi va yoqilg'i ishlab chiqarish, ko'mir, qora va rangli metall bazalarini tashkil etish, kimyo sanoatini rivojlantirish, qurilish materiallari tushirildi. Chirchiq elektr kimyo kombinatining ikkinchi navbati, Qo'qon Tukqorish (aralash mineral o'g'itlar) zavodining superfosfat zaarini ishlab chiqarishni ko'paytirish urush yillaridagi O'zbekiston sanoatining asosiy yo'nalishlari edi. Harbiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish zarurati sanoat qurilishini ko'paytirishni talab qilar edi. Asosiy qurilish ishlari xashar usuli bilan olib borildi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 7ta yirik va 30ga yaqin kichik GESlar qurildi. Ayniqsa, O'zbekistonning eng yirik gidroelektrostantsiyasi bo'lib qolgan Farxod GESi qurilishi umumxalq qurilishiga aylantirilib, 10 oy ichida Sirdaryo to'silib, GES ishga tushirildi. Salar, quyi Bo'zsuv, Tovoqsoy, Oqqovoq, Oqtepa, Qibray GESlari ham muddatidan oldin qurilib ishga tushirildi. Bu respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirdi. Elektr energiyasi 1940 yilga qaraganda 1943 yilda 3,5 ba'o6a'ra oshdi, 1945 yilda esa 1187 million kilovatt soatga ko'paydi. 1945 yilga kelganda 1940 yildagiga nisbatan 30 marta ko'proq, ya'ni 103 million tonna ko'mir qazib olindi. Urush yillarida respublikada «Chuqurlangar», «Tolmozor», «Nayman», «Shaxrixon-Xo'jaobod», «Janubiy Olamushuk» va boshqa yangi neft konlari ishga tushirilishi bilan birga Farg'ona vodiysida ishlab turgan «Andijon», «Polvontosh», «CHangartosh», «CHimyon» neft konlarida mahsulot ishlab

chiqarishni ko'paytirish tadbirlari natijasida respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko'paydi. O'zSSR XKSning 1942 yil 17 iyunda Bekobodda metallurgiya zavodi qurish to'g'risidagi qarorini bajarishga 30 mingdan ko'proq kishi jalb etilib, 1944 yil 5 martda O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi ishga tushirildi. 1945 yil fevralda Bekobod metallurgiya zavodining ikkinchi navbati ham mahsulot bera boshladi.

Urush tufayli qiyin va og'ir sharoitda qolganiga qaramasdan ko'chirib keltirilganlarga, yarador va nogironlarga, frontga ketganlarning xotinlari va bolalariga ko'rsatgan g'amxo'rligi o'zbek xalqining birlik va qardoshlarcha do'stlikka insonparvarlik bilan intilishining yorqin timsoli, o'lkan ahloqiy kuch-qudrati va xaqiqiy samimiy olijanobligining chin ma'nodagi isboti bo'ldi.

O'zbekiston urush yillarida Rossiyaning bosib olingan rayonlaridan— Ukrainadan, Belorusiyadan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Aholi ularga turar joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun ohirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi, ularga poyabzal, kiyim-bosh to'pladi. Ularga 135 ming kv. metr turar joy maydoni ajratib berildi. Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'zida 1941-1942 yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rgonlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F. Qosimova 10 nafar, M. Jo'raeva va Ashurxo'jaevalar 8 bolani o'z oilalariga oldilar. 1943 yilning ohiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloklarda esa 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945 yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlarida va qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. Yuqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo'lgan mehr-muhabbatini, bag'rikenglik fazilatlarini aks ettiradi. Urush yillarida O'zbekistonga frontda yarador bo'lgan jangchilar ko'plab keltirildi. Urush boshlangandayoq respublika hukumati gospital bazasini tashkil qilishga kirishgan edi. 1941 yil 1 oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Faqat Moskva, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o'rin-karavotga ega bo'lgan 48 gospital respublikamizga ko'chirib keltirildi va ishga tushirildi. Evakuatsiya qilingan gospitallarga Toshkentdagi va O'zbekistonning boshqa yirik shaharlaridagi eng yaxshi binolar ajratib berildi. 1942 yilning ohirida O'zbekiston xududida 39140 o'ringa ega bo'lgan 113 ta evakuatsiya gospitallari joylashtirildi. Davolanayotgan jangchilarning to'laqonli ovqatlanishni tashkil qilish uchun

750 dan ortiq korxonalar, tashkilot, kolxoz va sovxozlar gospihallarni otaliqqa oldi za butun O'zbek xalqi yaradorlarga g'amxo'rlik qildi.

Urush yillarida qurilish materiallari, to'qimachilik va poyabzal, oziq-ovqat va mahalliy sanoat tarmoklari ham rivojlandi, kasbga ega bo'lmagan kishilarni ham ishga jalb qilib, ishlab chiqarish jarayonida kasb o'rgatila boshlandi. 1942 yilga kelib respublika sanoat korxonalarida ishlayotgan xotin-qizlar 63,5%ni tashkil qilgan. Natijada urushning ikki yili davomida O'zbekistonda 105673 nafar ommaviy kasbdagi sanoat ishchilari tayyorlangan bo'lib, shundan 73 ming nafari bevosita ishlab chiqarish jarayonida xunar egalladi. Ishchilar sinfining umumiy soni urush ohirlariga kelib 196,2 ming kishiga yetdiki, bu urush boshlangandagi sonidan 54,6 mingga ko'pdir. Ochlik, charchoq, toliqish, qiyin sharoitlarga qaramasdan ilg'or ishchilar kunlik normalarini 300-400, xatto 500 foizga qadar bajargan vaqtlari ham bo'lardi. 1943 yilga kelganda SSSR harbiy ishlab chiqarishda Germaniyaga yetib, xatto o'tib ketishida mamlakat ichkarisidagi ishchilarning xizmati juda katta bo'ldi. Urush yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan harbiy sanoat kompleksi tomonidan front uchun 2100 ta samolyot, 17342 taaviomotlar, 2318 ming donaaviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, dala radiostantsiyalari uchun 3 mln. radiolampa, qariyb 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoezd, 18 ta harbiy sanitariya va hammom-kir yuvish poezdi, 2200 dona ko'chma oshxona va 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdilar. Bu o'zbekistonliklarning fashist bosqinchilarini tor-mor etishga, g'alabaga qo'shgan katta hissasi bo'ldi.

Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonaning qurilib ishga tushirilishi natijasida 1945 yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki baravar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko'mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 baravar ko'paygan.

Urush yillarida front orqasida og'ir, qiyin sharoitda mehnat qilishlariga, ishchi kuchining yetishmasligiga qaramasdan ittifoqning mudofaa qurilishlari va sanoat korxonalariga 155 mingdan ortiq o'zbekistonlik jalb qilingan. Nemis-fashistlarni tor-mor keltirish uchun olib borilgan umumxalq kurashiga o'zbek dexqonlari ham munosib hissa qo'shdilar. Markaz ko'rsatmalari bilan asosan paxta ekishga moslashtirilgan, qishloq xo'jaligidagi yaxshi texnika vositalari, otlar front uchun olib ketilgan, tajribali dehqonlarning ko'pchiligi front va front orqasidagi ishlarga jalb qilingan bir paytda yuqoridagi vazifani bajarish yanada mushkullashar edi. qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish, suvdan foydalanishni yaxshilash va yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liqdir. 1942-1943 yillarda O'zbekistonda sug'orilib ekin ekiladigan yerlar maydoni 546 ming gektarga ko'paydi.

Urush yillarida O'zbekiston dehqonlari qandlavlagi, ko'ngaboqar kabi oziq-ovqat ekinlari, zig'ir va kanop kabi texnik ekinlarini yetishtirishni o'zlashtirdilar. makkajuxori, kunjut ekishni ko'paytirdilar. Urush yillarida O'zbekiston kishloq xo'jaligida ipakchilik, qorako'lchilik alohida ahamiyat kasb etgan bo'lsa, meva, uzum, sabzavot va poliz maxsulotlarini yetishtirish ham salmoqli o'ringa ega edi. 1942-1943 yillarga kelganda sabzavot maydonlari urush arafasiga qaraganda 12,5 ming, uzumzorlar maydoni 5,1 ming gektarga ko'paydi.

Paxta yetishtirishni ko'paytirish urush yillarida O'zbekiston dehqonlarining oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolaverdi. Ob'ektiv sabablarga ko'ra 1942-1943 yillardagi paxta topshirish rejalari bajarilmay qoldi. Lekin urush davri sharoitidagi texnika vositalari, ishchi kuchining yetishmovchiligi, mineral o'g'itlarning kamligi sababli ro'y bergan bu holatni Markaz tan olishni istamadi va o'sha paytdagi O'zbekiston raxbari Usmon Yusupov qattiq ogohlantirish oldi. 1944 yil yanvarida o'tkazilgan respublika paxtakorlarining birinchi qurultoyida paxtachilikni yuksaltirish vazifalari to'g'risidagi fikr almashuv va ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston yillik paxta tayyorlash rejasini 101,4 foizga bajardi.

Urush yillarida O'zbekiston kishloq mehnatkashlari 4 mln. 148 ming t. paxta, 82 mln. pud g'alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t. meva, 36 ming t. quruq meva, 159 ming 300 t. go'sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berish bilan dushman ustidan qilingan g'alabaga munosib hissa qo'shgan bo'lsa, nemis-fashist okko'pantlaridan ozod qilingan xududlarda qishloq xo'jaligini tiklash ishlari uchun texnika va ishchi kuchlari bilan yordam berib, o'zbek xalqi o'zining insonparvarlik, do'stlik, birodarlik tuyg'ularini namoyon etdi. 1943 yilda O'zbekistondan ozod kilingan tumanlarga 1152 ta traktor, 25 ta kombayn, 1138 ta plug, 379 ta seyalka kabi texnikalar, Ukraina va Stavropol o'lkasiga 1596 nafar kombaynchi, 41 nafar mexanik 30 nafar agronom, 11 nafar buxgalter yuborildi. RSFSR, Ukraina, Belorussiya, Boltiq bo'yi respublikalarining xalq xo'jaligini tiklashda minglab o'zbekistonliklar faol ishtirok etdilar.

O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. «Hamma narsa front uchun, hamma narsag'alaba uchun!» shioriga «labbay!» deb javob bergan ko'pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar.

Ular orasida O'zbekistonning mashhur olimlaridan U.A. Arifov, Yo.H Turaqulov, I.Ismoilov, X.Usmonov va boshqalar bor edi. T.N.Qori-Niyoziy, V.I.Romanovskiy, T.Z.Zoxidov, I.A.Raykova, O.S. Sodiqov kabi olimlar natijasixalq xo'jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni xal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.

O'zbek matematik, mexanik va astronomlari aviatsiya, o'q-dori, harbiy texnika sifatini oshirishgaaloqador bo'lgan bir qancha muhim ilmiy

muammolarni hal qildilar. Bunda T.A.Sarimsoqov, V.I.Romanovskiy, M.Kamolov, N.N.Nazarov va boshqa olimlar hissasi katta bo'ldi. Ularning ehtimollik nazariyasiva matematika statistikasi sohasidagi ijodiyizlanishlari artilleriya otishmalari va bombatashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yukko'tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlabchiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdir.

Geolog olimlar foydali qazilma boyliklarini qidirib topish, sanoatni zarur xom ashyo bilan ta'minlash vazifalarini bajarishga katta e'tibor berdilar. O'zbekiston tog'lari va cho'llarida 1943 yilning o'zidagina 35 ta geologiya ekspeditsiyalari ish olib bordi. O'zbekistonlik kimyogarlar paxta chiqindisidan xalq xo'jaligida foydalanish taklifini, etil spirtini, sirka kislotasini, qamishni quruq qayta ishlash natijasida ko'mir briketini olishning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Bunda akademik O.S.Sodiqov boshliq guruh ishlari alohidaahamiyat kasb etdi. O'zbekistonningijtimoiy-gumanitarfanlari olimlari-tarixchilar, sharqshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, iqtisodchilar va faylasuflar o'zlarining ijodiy mehnatlari bilan mamlakat ilmiy salohiyatini rivojlantirishga, ommaga insonparvarlik vatanparvarlik erksevarlik g'oyalarini singdirishga qimmatli hissa qo'shdilar.

1943-1945 yillarda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O'zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazgaaylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. O'zFAning faoliyatida ko'chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o'ziga xos hissasi bo'ldi.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to'xtab qolmadi. O'zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko'chirib keltirilgan 31 ta oliy o'quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu o'quv yurtlarida urush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi. O'zbek adabiyoti ham xalqimizning yovo'z dushmanga qarshi kurash yillarida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G'afur G'ulom, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she'rlari va maqolalari bilan xalqni g'alabaga ruxlantirdilar. Oybekning «Yovga o'lim!» she'ri, «Navoiy» romani, «Men yaxudiy», Hamid Olimjoniing «Yigitlarni frontga jo'natish», «Jangchi Tursun», «Roksananing ko'z yoshlari» va boshqaasarlurush yillaridagi o'zbek adabiyotining yorqin namunalari. M. Ismoiliy, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N. Safarov, Ibrohim Raxim, 3.Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, «Qizil armiya», «Front Haqiqati», «Qizil askar hakiqati», «Suvorovchi», «Vatan sharafi uchun» kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A.Umariy, G'afur G'ulom, Ra'no Uzoqova va boshqa shoir ham yozuvchilar xukumat delegatsiyalari tarkibida

frontning oldingi marralariga borib, o'z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar. Dramaturgiya sohasida N.Pogodin, Hamid Olimjon, Uygun va Sobir Abdullalar yozgan «O'zbekiston qilichi» va A. Umariyning «qasos», Yashin va Sobir Abdullaning «Davron ota» kabi asarlari bilan birga Uygun va Izzat Sulton «Alisher Navoiy», Hamid Olimjon «Muqanna», Maqsud Shayxzoda «Jaloliddin Manguberdi», Oybek «Maxmud Torobiy» kabi dramatik asarlarini yaratdilar, ularda o'zbek xalqining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalari aks ettirildi.

1941-1945 yillardagi urush davrida O'zbekistonda ta'sirchan vosita hisoblangan teatr va san'at ancha rivojlandi. Teatr va san'at arboblari frontning oldingi marralarida bo'ldilar. Bu davrda O'zbekistonda 35 tamahalliy va 16 ta ko'chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko'rgazib, butun urush davomida 203 ta yangi postanovka tayyorladilar va 6. 667. 303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va kontsertlar ko'rsatdilar, jangchilarni ruhlantirdilar, ularni fashizm ustidan g'alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, valima Nosirova, Mukarrama Turkunboeva, Sora Eshonturaeva, Abror Xidoyatov, SHukur Burxonov kabi san'atkorlar ishtirokidagi kontsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. qisqa metrajli filmlar va 10 ta ovozli badiiy filmlarini yaratish bilan Y.A'zamov, K.Yormatov, N.G'aniev, S.Muxamedov kabi o'zbek rejissyorlari urush yillarida kinematografiyani rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan «Nasriddin Buxoroda», «Tohir va Zuxra» kabi filmlar «O'zbekfilm»ning oltin fondiga aylandi.

Ikkinchi jahon urushi frontlarida o'zbekistonlik jangchilar o'zlarining botir, mard, qo'rqmaslik xislatlarini namoyon qilib, qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. Urushning dastlabki kunlarida shiddat bilan bostirib kirgan dushman qo'shinlari to'xtatib qolinmadi va ko'plab kishilarning qurbon bo'lishiga sabab bo'ldi. Buning uchun Stalin boshliq sovet xukumatini rahbarlari jadobgardilar.

CHegara qo'shinlarida xizmat qilayotgan sovet jangchilari orasida o'zbekistonliklar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi. Ular o'z zastavalarini himoya qilishda qahramonlik namunasini ko'rsatib, ohirgi o'qlari qolguncha dushmanga qarshi jang qildilar. Ular xalok bo'lganlardan keyingindushman zastavalarga kirish imkoniga ega bo'ldi. Grodno yaqinida leytenant Usov, siyosiy rahbar SHaripov, Brest qal'asi mudofaasida Ahmad Aliev, Doniyor Abdullaev, Bobokomil Kashanov, O'zoq O'taev, Nurum Siddikov, Madamin Xojiev, Ye.Ya.Liss, Raximboy Arslonboev, Saidaxmad Boytemirov, F.I.Laenkov kabi o'zbekistonliklarning ko'rsatgan jasoratlari Vatan himoyachilari qahramonona jasoratining ramzi bo'lib qoladi.

Ikkinchi jahon urushida Smolensk, Odessa, Leningrad, Moskva mudofaalari sovet jangchilarining haqiqiy qahramonlik mo'jizalari bo'ldi desak xato qilmaymiz. Bu janglar dushmanni to'xtatib qolish imkonini berdi. Gitlarning yashin tezligida urush olib borish rejasi barbod bo'ldi.

Moskva mudofaasiga yetib kelgan, Turkiston Harbiy okrugida to'zilgan, general-mayor I.V. Panfilov qo'mondonlik qilgan, tarkibida 180 dan ortiq harbiy va harbiy siyosiy bilim yurtlarini tamomlagan komandirlari bo'lgan 316-o'kchi diviziya Volokolams-Dubasekova, Novo-Petrovsk yonidagi janglarda qahramonona kurashdi. O'zbekistonlik Abdulla Tog'aev, Mamadali Madaminov, leytenant Pilyugin boshliq to'qqizta jangchi jasoratlarini alohida qayd qilish mumkin. Moskva uchun olib borilgan janglarda o'zbek xalqi qahramon qizlarining jasorati namunasini ko'rsatgan Zebo G'anieva qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi. Moskva ostonasida fashist qo'shinlarini tormorqilishda ko'rsatgan jasoratlari uchun 1753 o'zbekistonlik jangchi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandi.

S. Qosimxo'jaev Sovet Ittifoqi qaxramoni unvoniga sazovor bo'ldi. 1942 yildagi qishki Hujumlarda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatib, jasorat bilan jang qilgan qo'chqor Turdievga 1942 yil may oyida Sovet Ittifoqi qaxramoni unvoni berildi. Jangchilarimizning jasorati hali o'z harbiy kuchining asosiy qismini saqlab, dushman qo'shinlarini tamomila yo'q qilishga, sovet rahbarlarining xatolari o'rnini qoplashga kamlik qilar edi. Buning uchun dushmannikidan kuchli Harbiy-texnika, ya'og' va taktika kerak edi.

1942 yil may-iyun oylaridagi sovet qo'shinlarining xujumkor operatsiyalarini to'xtatgan dushman 25 iyunda Volga va SHimoliy Kavkaz yo'nalishida hujumgao'tdi. Mamlakatda yana qaltis vaziyat vujudgakeldi. Ana shunday bir paytda o'zbek xalqi o'zbek jangchilariga ochiq maktub bilan murojaat qilib, o'z farzandlarini vatanga sodiqlik va jangda qo'rqish nimaligini bilmaslikka chaqirdi. Bu chaqiriqqa o'z qahramonliklari bilan javob bergan jangchilarimizdan 1974 nafari «Kavkaz mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandi.

Volga bo'yidagi Stalingrad mudofaasini yorib, dushman ustidan katta g'alabaning qo'lga kiritilishi urushning borishida tub burilishgaasos bo'ldi. Bu janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun 2733ta o'zbekistonlik jangchi «Stalingrad mudofaasi uchun» medaliga sazovor bo'ldi. Kavkaz uchun olib borilgan janglarda Toshkentda to'zilgan Sobir Raximov qo'mondonligidagi diviziya jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, 8 mingdan ortiq dushman jangchilarini qirib tashladilar. Bu diviziya yurtdoshimiz qo'mondonligida SHarqiy Prussiyagacha jangovar yo'lni bosib o'tdi. Keyinchalik Pol'sha yerlarini ozod qilishda Sobir Umarovich Raximov rahbarligidagi 37-gvardiyachi Rechitsk o'kchi diviziyasi alohida ajralib turdi. Dantsig shahriga birinchilardan bo'lib kirishdi. Og'ir yarador bo'lgan S.U. Raximov 1945 yil 25 martda xalok bo'ldi. O'zbek xalqining mard o'gli S.U. Raximovgao'limidan so'ng Sovet Ittifoqi qahramoni unvoni berildi.

1943 yilda Oryol-Kursk yo'nalishi bo'yicha olib borilgan shiddatli janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun Ahmadjon Shukurov, V.Shalandin, M.Abdullin, A.Solixovlar Sovet Ittifoqi qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar. Dneprni kechib o'tishdagi qahramonliklari uchun 100ga yaqin

o'zbekistonliklar Sovet Ittifoqi qahramoni unvoni bilan taqdirlandilar. Ulardan J.Usmonov, V.Nabiev, X.Aminov jasoratlarini alohida qayd etish mumkin.

1944-1945 yillarda Belorussiya, Ukraina, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalari va Rossiya Federatsiyasining harbiy viloyatlarida faoliyat ko'rsatgan o'zbekistonlik jangchilar jasorati ikkinchi jahon urushi tarixi sahifalariga bitilgan bo'lib, ularning nomlariyoq dushman ko'ngliga qo'rquv solgan edi. Bular orasida Mamadali Lapiboldiev, J.Otaboev, I.Musaev, A.Haqimov, I.Qosimov va boshqalarning mardlik namunalarini ta'kidlash mumkin.

1944 yil ko'ziga borib SSSR chegaralari butunlay Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Chexoslovakiya, Avstriyani ozod qilib, Berlinni egallashda sovet qo'shinlari tarkibida o'zbekistonlik jangchilar ham o'zlarining baynalminallik tuyg'ularini namoyon qilib, Yevropa xalqlarining fashistlar asoratidan ozod bo'lishlariga o'z hissalarini qo'shdilar. U mamlakatlarni ozod qilishdagi jasoratlari uchun B.Boboev, P.Nurpeisov, T.Haza'rov, M.Fayozov va boshqalar Sovet Ittifoqi qaxramoni unvoni, 2430 nafar hamyurtimiz «Budapeshtni ozod kilish uchun» medali, 1706 kishi «Berlin olingani uchun», 109208 kishi «Germaniya ustidan g'alaba qozonganligi uchun» medali bilan taqdirlanganlar.

1945 yil 9 avgustga o'tar kechasi sovet xukumati Yaponiyaga qarshi urush boshladi. 2 sentyabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar o'zbekistonlik jangchilar ishtirok etib, Kvantun armiyasini mag'lubiyatga uchratishda, Yaponiyaning taslim bo'lishida o'z hissalarini qo'shdilar. N.Latipov, A.Karimov, U.Doniyorov kabi ko'plab hamyurtlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovar faolliklarini namoyish etdilar.

Ikkinchi jahon urushining g'olibona yakunlanishida o'zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlari kattahissa bo'lib xizmat qildi. 120 mingdan ortiq o'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo'ldilar. Sovet Ittifoqi qaxramoni unvoniga ega bo'lgan 300 dan ortiq jangchidan 75 tasi o'zbek o'g'lonlari edi. O'zbekistonlik 82 ta jangchi «Shuxrat» ordenining uchala darajasi bilan taqdirlandi. Italiya, Angliya, Frantsiya, Yugoslaviya, Pol'sha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi mamlakatlarning ordenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etadi.

O'zbekiston urushdan katta yo'qotish bilan chiqdi. 1939-1945 yillarda bo'lib o'tgan ikkinchi jahon urushi frontlariga safarbar qilingan 1433230 kishidan 263005 kishi xalok bo'ldi, 132670 kishi nogiron bo'lib qaytdi.

Katta qurbonlar evaziga bo'lsa ham o'zbekistonliklar insoniyatni fashizm balosidan qutqarishga munosib xissa qo'shdilar. Urushda halok bo'lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida «Xotira» kitoblari to'zildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni va Motamsaro ona yodgorlik majmuasi tiklandi. Bu ishlarga boshchilik qilgan yurtboshimiz farmoni bilan 9 may «Xotira va

qadrlash» kuni, deb e'lon qilindi. Xozirgi kunda hayot, mex;nat va urush faxriylarimizdan yosh avlod hamisha minnatdordir.

9. 1950-1970 yillarda O'zbekistondagi iqtisodiy hayot. "Paxta yakkahokimligi".

1950-70 yillar O'zbekiston tarixi o'ta murakkab davrlardan biri bo'lib, bir tarafdin, O'zbek xalqining fidokorona mehnati sabab respublika iqtisodiyoti anchagina rivojlandi, ikkinchi tarafdin, totalitar tuzum, ma'muriy buyruqbozlikning kuchayishi natijasida iqtisodiy ma'naviy xayotda bir qator muammolar, nohush holatlar to'planib borib, pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi.

O'zbekistonni sanoatlashtirish VKP (b) ning XVIII s'ezdi va O'zKP (b) MQning IX plenumidan keyin katta kuch bilan kengayib ketdi. Xalq xo'jaligining o'sib borayotgan ehtiyojlari, mamlakat iqtisodiyotida SSSRning asosiy xom ashyo bazasi bo'lgan O'zbekiston respublikasida og'ir sanoatni tez sur'atlar bilan rivojlantirishni, mamlakatning ulkan tabiiy boyliklaridan foydalanishni qattiq talab qildi¹³. 1946-1950 yillar maboynida respublikamizda 150 ta yirik sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari qora va rangli metallurgiya, stanoksozlik vujudga keldi. Ikkita yirik "Chirchiqselmash" va "O'zbekselmash" mashinasozlik zavodalari qurilib ishga tushirildi. 1950 yilda 1946 yilga nisbatan mashinasozlik 19 barobar o'sdi, tabiiy gaz olish 3 barobar o'sdi, elektroenergiya 480 mln.dan 2.665 mln.kvt soatga yetdi, yengil va to'qimalik sanoati 128.7 foizga ko'paydi. Besh yil ichida respublika jami sanoat mahsuloti 183 foizga ortdi. Qo'qon shahar zavodining Ukrainaga ko'chirilishi munosobati bilan shakar va spirt ishlab chiqarish bajarilmagan edi. Ximiya, uy-joy qurilishi sohalari bo'yicha ham kapitalni o'zlashtirish bo'yicha belgilangan rejalar bajarilmadi. Biroq bu besh yillikda ittifoq miqyosidagi korxonalarining mahsulti 4.8 barobar ko'paygan holda, respublika boshqaruvida bo'lgan mahalliy sanoat atigi 8 % ga o'sdi holos. 1951-1955 yillarga mo'ljallangan birinchi besh yillikda yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishini 54 foizga, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotini 50 % o'stirish, po'lat ishlab chiqarish 80 foizga, prokat ishlab chiqarish 70 foizga ko'paytirish mo'ljallandi. Xalq xo'jaligiga sarf qilingan mablag' oldingi besh yillikdagiga nisbatan ikki barobardan ko'proq bo'ldi. Samarqand superfasfat zavodi, Oltin topgan qo'rg'oshin-qalay kombinati, Toshkent chini zavodi, CHirchiq shisha zavodi, Quyibo'zsuv, 2 ta Namangan GESlari, Andijon GRESlari ishga tushirildi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish 1950 yildagi 2,682 mln.kvt.soatdan 1955 yilda 3,880 mln.kvt.s ga yetdi. Qo'mir qazib olish 70 foizga, mashinasozlik ikki barobar, mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish 81 foizga, to'qimachilik sanoati 15 foizga o'sdi. 50 yillarning ohirlarida 1300 dan ortiq fabrika va zavodlarni birlashtirgan sanoatning 70 tarmog'i mavjud edi.

¹³ Qizil O'zbekiston. 1949 yil, 25 fevral.

Biroq beshinchi besh yillik rejaning bajarilish yakunlarini tahlil qiladigan bo'lsa bu davrda sanoat mahsulotining yillik o'sish darajasi keskin kamayib bordi. Oldingi muammolarning birontasi ham hal qilinmadi.

1. Energetika sohasi boshqa tarmoqlarining rivojlanishidan orqada qolmoqda edi.

2. Yildan yilga kapital qurilishi bo'yicha rejalar bajarilmay qolaverdi.

3. Neft konlarini qidirib topish ishlarining qisqarishi tufayli neftni qazib olish pasaydi.

4. Engil sanoatning 25 foiz korxonalar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkichlarni bajarmadilar.

5. Mehnat unumdorligining o'sish darajasi pasayib bordi. Rejalar asosan xalq xo'jaligini jadal rivojlantirish hisobiga bajarildi. Besh yil ichida xalq xo'jaligiga kapital mablag' sarflash 2.3 barobar ko'payishiga qaramay, yalpi sanoat mahsuloti zo'rg'a 1.6 barobar mehnat unumdorligi esa 1.2 barobarga o'sdi. Bu dalillardan ko'rinib turibdiki kapital mablag'larni sarflash kutilgan samaradorlikni bermadi.

6. Respublikada ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish notekis edi. Masalan 1955 yilda yalpi sanoat mahsulot ishlab chiqarishda Toshkent viloyatining hissasi 39.8 foiz bo'lgani holda Surxandaryo viloyati hissasi esa 1.7 foizga to'g'ri keldi.

1958-1965 yillarda yana 142 sanoat korxonalari qurildi¹⁴. 1965 yilda O'zbekiston milliy daromadining 35,3% i sanoat ishlab chiqarish ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1970 yilda 40% dan oshdi. O'rtacha yillik o'sish sur'atlari elektr energetikada 11,4%, rangli metallurgiyada 14%, neftni qayta ishlash sanoatida 13,2%, gaz sanoatida 19,8%, ximiya sanoatida 1,5% bo'ldi¹⁵. 1985 yilga kelib respublika 1549 ta sanoat korxonalariga ega bo'ldi va ishlab chiqarishning yalpi daromadi 1960 yilga nisbatan 5 baravarga o'sdi¹⁶. Katta zahiraga ega bo'lgan ko'mir, neft, gaz kabi boyliklar ishga solindi va qudratli yoqilg'i sanoati barpo etildi. 1965 yilda gaz qazib olish 8 baravar ko'payib, 1970 yilda 32 mlrd kub. metrdan oshdi. O'zbekistonning gaz sanoati tarmoqlari O'rta Osiyodan tashqari Rossiya Federatsiyasining eng katta sanoat markazlarini doimiy ta'minlab turgan. Sovet boshqaruvi yillarida O'zbekiston konlaridan yiliga o'rtacha 20 mlrd. kubometrgacha tabiiy gazning olib ketilishi oqibatida gaz zahiralari ancha kamaydi¹⁷.

O'zbekistonda 60 yillarda oltin qazib olish sanoati bunyod etildi. Muruntov, Chodak, Konbuloq oltin konlari, Farg'ona vodiysi daryo o'zanlarida sochma oltin, Nurota, Qurama, Zarafshon, Hisor, Pomir tog'larida oltin tarkibli

¹⁴Sovet O'zbekistoni. 1965 yil, 20 oktyabr.

¹⁵Sovet O'zbekistoni ishchilar sinfi tarixi. – Toshkent: Fan, 1974. – B.308.

¹⁶Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 году. стат. ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1986. – С.13, 46.

¹⁷Donoqulov X. Mustabid tuzum davrida O'zbekistonda neft-gaz sanoati// Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2003. - №1. – B. 59.

kvarts tomirlari va rudalar mavjudligi aniqlandi. Respublika hududida 30 oltin koni aniqlandi. Oltin qazib oluvchi Muruntov tog' boyitish kombinati, Marjonbuloq kombinati qurildi."O'zbek oltin" birlashmasi tuzilgach uning tarkibida Chodak boyitish kombinati (1965), Angrenda Oltin saralash fabrikasi ishga tushirildi.

Sovet hokimiyati yillarida bunyod bo'lgan sanoat markazlari, xususan, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod, Navoiy, Zarafshon, Muborak kabi shaharlarda asosan boshqa millat vakillari, ya'ni mamlakatning turli mintaqalaridan ko'chirib va ko'chib kelgan ishchi kadrlar joylashdi. Shu tariqa respublikadagi sanoat shaharlar ham ko'p millatli bo'lib bordi. O'zbekistonning industrial davlatga aylantirilishi uning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda muhim hissa qo'shsa-da, avvalgidek xom ashyo yetkazib beradigan respublika bo'lib qolaverdi. Qayta ishlovchi va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari keng rivojlanishiga to'sqinlik qilinib, respublika sanoati bir tomonlama ixtisoslashti-rildi¹⁸. Umumiy ta'kidlaganda, sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 60%i xom ashyo va yarim fabrikatlarga to'g'ri keldi¹⁹. Mahalliy rahbariyat tarafidan kadrlarni milliy lashtirishga katta harakatlar qilinsada, markaz avvalgidek respublika sanoat ishchi guruhlarini ittifoq tuzumining ijtimoiy tayanchi sifatida ruslashtirishi, respublikalararo ko'p yillik sun'iy migratsiya natijasida sanoat ishlab chiqarishi ko'proq joylashgan yirik shaharlarda mahalliy aholini siqib chiqarish va bu joylardagi barcha yirik sanoat muassasalari ittifoqning tassarrufida bo'lgani uchun ko'chirib kelinganlar joylashtirildi. Barcha besh yilliklar davrida respublikada ko'p millatli kadrlarini yetishtirish, o'lkaning boy tabiiy resurslarini jadal o'zlashtirish jarayonlari bilan birgalikda bordi²⁰. O'zbekistonda ittifoq markazining manfaatlarini ko'zlab ko'p millatli shaharlarning, yangi zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarining barpo etilishi va rivojlanishi, markazdan kadrlarning yildan-yilga ko'plab jo'natilishi oqibatida bu yerda aholi o'rtasida mehnat taqsimoti jiddiy ravishda o'zgardi. Ayniqsa 1960-1980 yillarda O'zbekistonga ittifoqning markaziy mintaqalaridan odamlarni ko'chirib keltirish keng miqyosda davom etdi. Tub yerli millatga mansub ishchilar soni respublikadagi sanoat ishchilari umumiy miqdorining ko'payishidan ancha orqada qoldi. 1979 yilgi butun ittifoq aholi ro'yxatlariga ko'ra O'zbekiston xalq xo'jalik tarmoqlarida ishlovchilarning o'z millati umumiy soniga nisbatan to'g'ri keladigan salmog'i o'zbeklar orasida 37,2%, qozoqlar orasida 36,6%, qoraqalpoqlar orasida 51,1% da edi²¹. O'zbekiston tub millatlarining mehnat bilan shug'ullanish darajasi respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan ham pastroq bo'lgan. Bu hududda

¹⁸Bobojonova D. O'zbekistonda milliy ishchi kadrlar tayyorlash tajribasidan // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1997. - №3-4. – B.35.

¹⁹Sanoat ishchilari milliy kadrlarining shakllanishi // O'zbekiston kommunisti. – Toshkent, 1990. - №6. –B. 91.

²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivi, 58-fond, 23-ro'yxat, 112-ish, 6-varaq.

²¹ O'zbekistonning demografik rivojlanishi va ish bilan ta'minlanish problemalari //O'zbekiston kommunisti. – Toshkent, 1985. - №3. – B. 45 .

sanoat tarmoqlari uchun mahalliy rahbar, ishchi, muhandis va qishloq xo'jalik kadrlarini tayyorlash bilan birga ularning sonini muntazam ravishda ko'paytirib borishga alohida masala sifatida qaralishi zarur bo'lgan. Biroq mutaxassis kadrlarni tayyorlashda respublikaning o'ziga xos ijtimoiy-milliy va demografik hususiyatlari inobatga olinmadi. Bir va besh yillik rejalarda ham yuqori organlar faqat mehnat unumdorligining o'sishi, belgilangan reja qanday bo'lmasin bajarilishi, qo'l mehnatini mexanizmlar bilan almashtirish, ish haqi fondi va ishchi, mehnatkashlarning soni bo'yicha ko'rsatkichlar tasdiqlangan²². Ammo mehnat resurslarining sifati, ya'ni kadrlarning ma'lumot darajasi, malakasi, ijtimoiy holati, oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislarning ishchi va xizmatchilar umumiy soniga nisbatan salmog'i va boshqa ko'rsatkichlarga yetarli e'tibor berilmadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinni egallaydi. 1950-1980 yillarda yerning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish inshootlarini qurish ishlari avj oldirildi. Bu ishlar Respublika qishloq xo'jaligida paxta monokultura sifatida rivojlantirildi. Respublikada 30 tsentnerchilik harakatida minglab paxtakorlar qatnashdilar. Bu harakatda Zamira Mutalova, Mehriniso Ubaydullaeva kabilar mehnatda katta jasorat ko'rsatdilar. Paxtachilik 1947 yilda 1940 y darajasiga yetib, 1950 yilda davlatga 2.116 ming tonna paxta sotildi. Hosildorlik gektaridan 14.7 tsentnerdan (1940y) 21.1 tsentnerga (1950 y) yetdi. Shu bilan birga paxta yakka hokimligi, paxtachilik mexenizatsiyalashtirish va ximiyalashtirish harakati ko'chaydi. 1948 yilda paxta terish mashinalari ishlab chiqarilgach, g'o'za bargini to'kishda butifos va merkaptopos qo'llanila boshladi.

Chorvachilik sohasida bajarib bo'lmaydigan noaniq rejalar qabul qilingan ediki, natijada bu vazifalar bajarilmadi. Ipakchilik sohasida esa 1940 yildagi 685.4 tonna o'rniga 1950 yilda tonna pilla davlatga sotilib, katta yutuqqa erishildi.

1954 yilning fevralida sobiq hukmron firqa markazkomining va Sobiq ittifoq hukumati "O'zbekiston SSRda 1954-1958 yillarda paxtachilikni yanada rivojlantirish to'g'risida" qaror qabul qilinib, unda suv xo'jaligini yaxshilash, paxta yetishtirishni mexanizatsiyalashtirish, kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berildi. 1958 yilda MTSlar qayta qurilib, ko'plab mashina va traktorlar kolxozlarga sotildi. 1953-1955 yillarda 130 ming gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Traktorlarning soni qishloq xo'jaligida 33.5 mingdan (1951 yil) 46.8 mingtaga (1955 y) yetib, 40 foizga ko'paydi. MTSlardagi paxta terish mashinalarining soni 3.3 mingdan 15.1 mingga yetdi. 1950 yilda 1,1 mln gektar yerga g'o'za ekilgan bo'lsa, 1985 yilda qariyib 2 mln. gektar yerga g'o'za ekildi. Paxta xom ashyosi shu yillarda 2,3 mln tonnadan, 5,4 mln tonnaga yetdi. 1985 yilda respublika paxta maydonlari barcha ekin maydonlarining uchdan ikki qismini egallardi. 1963 yilga kelib, O'zbekistonda 1400 kolxoz va 182

²²Toshmurodov T. Kadrlarni tayyorlash va ulardan samarali foydalanish. – Toshkent: O'zbekiston, 1985. – B. 24.

savxoz faoliyat ko'rsatayotgan edi. Qarshi, Sherobod, Amu Buxoro magistral kanallari qurilib ishga tushirildi. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida ham ma'lum ishlar qilindi. 1964 yilda kolxoz va sovxozlarga 64 ming traktor 16.4 ming paxta terish mashinalari, 59.6 ming kultivatorlar sotildi. Yetti yillikda mexanizator kadrlarga e'tibor ko'rsatilib 96 ming traktorchi tayyorlandi. SHu yillarda Tursunoy Oxunova, Javod Qo'chiev, M.Umrzoqov kabi mexanizatorlarning nomi mashhur edi.

Rahbariyat tomonidan 1956 yilda qabul qilingan O'zbekistonda 300 ming gektar qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish to'g'risidagi qarori paxta yetishtirishni keskin ko'paytirishni nazarda tutdi. Natijada Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Surxon-Sherobod vohasi, Markaziy Farg'ona hamda Amudaryoning quyi havzasidagi cho'llarni o'zlashtirish ishlari avj oldirildi va to'qqizinchi besh yillikning o'zida 510 ming gektar yangi yerlar foydalanishga topshirildi²³. Mirzacho'lda qariyb 300 ming gektarga yaqin yer o'zlashtirilib, 60 mingga yaqin yangi aholi xo'jaliklari, sovxozlari bunyod etilgan. Jizzax cho'lida 50 ming gektarga yaqin yer o'zlashtirilib, yangi paxtachilik kolxoz va sovxozlari tashkil etildi²⁴. Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni yangi sovxozlar, ularning xo'jalik binoalari, aholi yashaydigan posyolkalar bunyod etish bilan birga olib borildi. 1956-1965 yillarda Mirzacho'lda 84 ming gektar o'zlashtirildi. 16 ta paxtachilikka ixtisoslashgan, 1 ta bog'dorchilik sovxozlari tashkil etildi. 1957 yil Yangier, 1961 yilda Guliston shaharlari vujudga keldi. 1953-1963 yillarda Markaziy Farg'ona cho'llarida 72,4 ming gektar yer o'zlashtirildi, 16 ta yangi kolxoz, 2 ta sovxoz vujudga keldi. Jizzax cho'lida 670 ming gektardan ko'proq yangi yerlar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda Mirzacho'l (1967), Do'stlik (1970), Zafarobod (1973), Arnasoy (1977) tumanlari tashkil etildi. SHunday qilib O'zbekiston hududida 1946-1965 yillar qariyb 600 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlar ishga tushirilgan bo'lsa, 1966-1985 yillarda 1,6 mln. Gektar yangi yerlar o'zlashtirilib foydalanishga topshirildi. Ammo o'zlashtirilgan yerlarga yangi ko'chirilgan asosiy aholi mahalliy millat vakillari bo'lib, aholi xo'jaliklarini joylashtirish, ularni uy-joy bilan ta'minlash ishlari qoniqarsiz ahvolda bo'ldi. Respublikaning yangi o'zlash-tirilgan bir qancha tumanlariga ko'chirib keltirilgan xo'jaliklarga nisbatan ijtimoiy yordam qog'ozlarda bitilgan chora-tadbirlarni qamrab ololmasdi. Oqibatda bir qator viloyatlar aholisining yashash sharoiti umuman zamon talabiga javob bermagan va iqtisodiy jihatdan orqada qolishiga sabab bo'lgan.

Respublika xalq ta'limida urushdan keyin bir qator jiddiy muammolarni yengib o'tishga to'g'ri keldi. 50 yillardan maktab qurilishi, 7 yillik umumiy majburiy ta'lim amalga oshirildi. Biroq ta'limning mazmuni orqada qolganligi, maktab o'quvchilarining bilim darajasi pastligi sabab jiddiy islohotlar o'tkazish zarur edi. 1959 yildan boshlab 10 yillik o'rta maktablar 11 yillikka aylantirildi.

²³Rashidov SH. Adabiy-tanqidiy maqolalar, xotiralar, kamolat. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1982. – B. 15.

²⁴O'zbekiston Respublikasi MDA, 314-fond, 1-ro'yxat, 26-ish, 421-varaq.

Maktablar uchun yangi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklar yaratildi. 1962 yildan umumiy majburiy 8 yillik ta'limga o'tildi. Barcha yetti yillik maktablar 8 yillik maktablarga aylantirildi. 1958-1965 yillarda 1000 yaqin shunday maktablar ochildi. Unda o'qiydigan yoshlar 1965 yilda 134,5 ming kishini tashkil etdi. O'rta umumta'lim maktablari 1970 yildan boshlab mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda alohida boshlang'ich (1-3 sinflar), 8 yillik (1-8 sinflar), o'rta (1-10) maktablarga aylantirildi. Shunga qaramay jiddiy muammolar, maktab sinf xonalar soni oshmasin, bolalar sonining tabiiy o'sishidan orqada qolaverdi. Maktab binolarining yetishmasligi, moddiy texnik jihatdan zaifligi surunkali davom etdi. Maktablarda ta'lim tarbiya kommunistik mafkuraga bo'ysundirilgan, KPSS reja va dasturlari doirasiga, qolipiga solib qo'yilgan, ta'lim-tarbiya milliy xususiyatlar, tarixiy ma'naviy qadriyatlarni inobatga olmasdi.

Respublikada oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlar vazifasi ham kommunistik mafkura tartibi asosida amalga oshirildi. 1959 yilda respublikada oliy mutaxassis kadrlar tayyorlab beradigan 31 ta oliy o'quv yurtlari bo'lsa, 1985 yilga kelib 42 oliy o'quv yurti, 240 texnikum, 590 professional-texnika o'quv yurtlarida xalq xo'jaligi uchun oliy va o'rtamaxsus kadrlar tayyorlanardi²⁵. Hunar-texnika bilim yurtlari sanoatga ishlash uchun kelgan ishchilarning 20%i, qishloq xo'jaligida ishlash uchun kelayotganlarning 40%ini tayyorlardi²⁶. Bilim yurtlariga qabul qilinganlarning 45%i (Toshkent shahrida) boshqa millat vakillari bo'lib, o'quvchilar umumiy sonida sanoat va qurilish ishchi mutaxassislari bo'yicha mahalliy millat vakillari 17%ni egalladi²⁷.

Markaziy Statistika boshqarmasining 1960 yil 1 yanvargacha bo'lgan axborotida O'zbekistonda aholining ma'lumot darajasi ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan: tugallangan oliy-105 ming, tugallanmagan oliy-66 ming, o'rta maxsus ma'lumot-180 ming, umumiy o'rta (to'liq o'rta) ma'lumot-377 ming, to'liqsiz o'rta ma'lumot-1273 ming bo'lib, oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega kishilar umumiy 351 ming, to'liq o'rta maktabni, ya'ni yetti yillikni tamomlab chiqqanlar 1630 ming kishi edi²⁸. 1980 yillarga kelib oliy va o'rta maxsus ma'lumotlilar xalq xo'jaligida 1080,9 ming kishiga yetdi²⁹. Shu yillar ichida O'zbekistonda barcha ishchi va xizmatchilar, qishloq xo'jaligida ishlovchilarning o'sish miqdorining o'zgarishi quyidagicha bo'lgan: 1940 yilda-2174,0 ming kishi bo'lsa, 1965 yilda-3055,0, 1970 yilda-3670,0, 1975 yilda-

²⁵Производительные силы Узбекистана и перспективы их дальнейшего развития. – Ташкент:Фан, 1986. – С.58.

²⁶Партия турмуши. – Тошкент, 1973. - №11. – Б. 7.

²⁷Таксанов А. Социальная политика и рабочий класс. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – С. 94.

²⁸Қизил Ўзбекистон. 1960 йил, 2 августь.

²⁹Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет, статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 228-229.

4397,7, 1980 yilda-5166,9 ming kishini tashkil etgan³⁰. Biroq bular miqdor ko'rsatkichlardagi ayrim siljishlar bo'lib, masalaning asosiy jihati o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarning sifati va saviyasi masalasida ko'plab muammolar mavjud edi. Sovet hukumati "Sotsializmning afzalligi"ni ko'rsatish maqsadida asosiy e'tibor oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning son jihatiga e'tibor berib, oqibatda tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon talablaridan jiddiy ortda qolishiga, xalq xo'jaligiga malakasiz kadrlar tayyorlanishiga, ulardan ishlab chiqarishda samarasiz foydalanilishiga olib keldi. Sovet tuzumi oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi orqali ommaviy kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashni "yalpi miqdor", mablag'larni taqsimlash vaqtida "qoldiq" qoida bo'yicha ishlashni davom ettirdi³¹. Bu kamchiliklar kadrlar siyosatiga salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymasdi. Mavjud mablag'lar hisobiga xalq xo'jaligi uchun ko'proq mutaxassis tayyorlab berish o'qishning kechki va sirtqi bo'limlarida ko'zda tutildi. Sirtqi ta'lim tizimi O'zbekistonda asosan urushdan keyingi yillarda rivojlana boshladi. 1965 yilda oliy o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlariga 18 ming kishi qabul qilindi. Biroq 1970-1971 o'quv yilida faqat 13 ming kishi o'qishni bitirib chiqdi, ya'ni o'qishga qabul qilinganlarning uchdan ikki qismi to'liq tamomladi³². Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarigatinglovchilarni qabul qilish birmuncha qisqardi, ammo 1980 yillarga kelib yana miqdori orta boshladi. "Bo'lajak jamiyatning idealini o'qitishni yosh avlodning unumli mehnati bilan qo'shib olib bormasdan tasavvur qilib bo'lmaydi"³³, - deb ta'riflangan sovet tuzumi g'oyasi yoshlarni o'qitish bilan bir vaqtda mamlakatning iqtisodiy bazasini yanada to'ldirish uchun ular doimiy ishga ham jalb etildi. Ta'limning bu ko'rinishi bir vaqtda ham o'qiyotgan, ham xalq xo'jalik tarmoqlarida ishlayotgan kishilarni muttasil o'qishga jalb etish imkonini bersa, ikkinchi tarafdin kechki va sirtqi bo'limlarni tamomlab chiqayotgan mutaxassislar nazariy tayyorgarligining yetarli darajada bo'lmasligi kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash ishiga salbiy ta'sir o'tkazardi. Kadrlar siyosatidagi bu kabi buzilishlar, xato va kamchiliklar yil sayin ortib borib, respublikaning taraqqiyotiga sezilarli darajada to'siq bo'ldi.

O'zbekistonda teatr va musiqa san'ati birmuncha o'sdi. Bu yillarda "Toxir va Zuxra", "Farxod va Spirin", "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Navoiy Astrobodda", "Muqimiy" kabi milliy tarixiy asarlar saxna yuzini ko'rdi, lekin ular partiyaviylik va sinfiylikka moslashtirildi. Spu bilan bir qatorda "Oltin devor", "Toshbolta oshiq", "Kelinlar qo'zg'oloni" va boshqa saxna asarlari xalq e'tiboriga sazovar bo'ldi. O'zbek teatrining rivojlanishiga rejissyorlardan

³⁰Мулладжанов И.Р. Демографическое развитие Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – С. 245.

³¹O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: SHarq, 2000. – B. 533.

³²Suyunov S.H. Fan-texnika taraqqiyoti va kadrlar tayyorlash. – Toshkent: O'zbekiston, 1987. – B. 39.

³³O'zbekiston Respublikasi MDA, 2454-fond, 6-ro'yaxat, 287-ish, 380-varaq.

M.Uyg'ur, Ye.Bobojon, A.Ginzburg, T.Xo'jaevlar, aktyorlardan, A.Xidoyatov, O.Xo'jaev, A.Bakirov, S.Eshonto'raeva, Sh.Burxonov, Z.Muhammadjanov, G'.A'zamov, Yo.Ahmedov, P.Saidqosimov va boshqa san'atkorlar salmoqli xissa qo'shdilar. Xalqimiz o'zbek san'atini baland ko'targan Yu.Rajabiy, H.Nosirova, M.Turg'unboeva, Tamaraxonim, G.Izmailova, S.Qobulova nomlarini hurmat bilan e'zozlab kelmoqda. 60-70 yillar o'zbek kino san'atiga yosh talantli rejissyorlar aktyorlar, Sh.Abbosov, A.Xamroev, R.Botirov, H.Axmarov kabilar kirib keldi. Sh.Abbosovning "Mahallada duv-duv gap" (1961), "Sen yetim emassan"(1963), "Toshkent-non shahri" (1970), "Abu Rayxon Beruniy" (1974) kabi filmlari mashhur bo'ldi. Shunday qilib, respublika madaniy-ma'naviy hayotida 1946-1990 yillarda muayan yutuqlarga erishildi. Xalq maorifi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tarmog'i ancha rivojlandi. Aholining umumiy savodxonlik darajasi o'sdi, mutaxassislar, ijodiy ziyolilar darajasi sezilarli kengaydi. Fan, adabiyot, san'at rivojlandi. Ilmiy, badiiy musiqa asarlari yaratildi biroq ularning barchasi mafkuraviy tuzum qolipidan chiqmagan holda amalga oshirildi. O'zbek xalqi nafaqat o'z milliy qadriyatlari, an'anlari va tilidan, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlardan tobora begonalashtirilib borildi.

10. 1980 yillarning o'rtalarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi inqiroz. "Qayta qurish" va uning cheklanganligi. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi". Ommaviy qatag'onlar. Farg'ona fojeasi

Sovet raxbariyatining 1980 yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish yuzasidan ilgari surgan vazifasini bajarish borasidagi dastlabki o'rin ishlari omad keltirmadi. Iqtisodiy tizimni qayta qurish, uning moddiy bazasini qayta ko'rib chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, yuqori darajadagi boshqaruv tizimi asosida iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish mo'ljallangan edi. Biroq "qayta qurish" siyosati ham sotsializmga sun'iy ravishda qiyofa berganligini O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning: "Inqiroz sabablari va omillarini to'liq tasavvur etmagan, o'zgartirishlarning aniq-ravshan dasturiga ega bo'lmagan butun iqtisodiy siyosat empirik xarakterda bo'lib, avantyradan iborat eksperimentlardan, har tomonga og'ishlardan boshqa narsa emasdi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tishning turlicha yondashuvlarga asoslangan dasturlari loyihalarining ko'pligi islohotlarning aniq maqsadi yo'qligidan, ularni ro'yobga chiqarish muddatlari- "besh yuz kun" deb belgilab qo'yilishi esa zarur o'zgartirishlarning tub mohiyati va nihoyatda murakkabligi to'laanglab yetilmagan-ligidan dalolat berar edi"³⁴, ta'rifi uning mohiyatini ochib beradi. Bu siyosatning amalga oshirilishi natijasida, respublika iqtisodiyotida tanglik holati chuqurlashib, sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi pasayib ketdi. Shuningdek, aholining turmush darajasi ham

³⁴Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 280-281.

sezilarli ravishda pasaya boshladi. Masalan, ishchi va xizmatchilarning ish haqi O'zbekistonda umumittifoq bo'yicha 1975 yildagi 93,7%dan, 1987 yilda 81,3%ga tushib qoldi, aholi jon boshiga iste'mol fondi hajmi 66%dan 58%ga kamaydi. 1988 yilda O'zbekistondagi 1267 ta yirik sanoat korxonasidan atigi 320 tasi (25,3%) to'liq xo'jalik hisobi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash sharoitida ishlardi³⁵. Masalan, O'zbekiston xalq xo'jaligini jadallashtirish umumdavlat dasturini ta'minlash rejasida 1990 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 24-27%ga oshirishga erishish, tarmoqda mehnat unumdorligini 19%ga, qurilishda 14%ga ko'tarish nazarda tutilgan edi. Biroq mehnat jamoalaridagi ayrim xodimlarning qo'lga kiritgan yuqori ishlab chiqarish natijalari ham oqsash jarayonlarining ortib borishini yashira olmadi. Puxta o'ylab ko'rilmagan qarorlar, ularni joriy qilishdagi jiddiy nuqsonlar, ma'muriy siquvning davom etishi, jadallashtirish kontseptsiyasidagi kamchiliklar xalq xo'jaligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi, qayta qurish oqsay boshladi.

80-yillarning ikkinchi yarmi mobaynida ro'y bergan «qayta qurish» islohotlari turkumi sub'ektiv tarzda, faqat ichki his-hayajonga asoslanib, ixtiyoriy ravishda shunchaki sinab ko'rishlar va xato usullar bilan tashqi tomondan ta'sirchan bo'lishini umid qilib, aniq ilmiy jihatdan emas. balki dastursiz amalga oshirildi. Iqtisodiy va ilmiy-madaniy salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston ham qayta qurish oqibatida puxta o'ylab ko'rilmagan volyuntaristik islohotlar oqimiga jalb qilindi. Qayta qurish «kontseptsiyasi» avvalboshdanoq noilmiy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. qayta qurish borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq «qayta qurish» mafkurasini anglab yetishda nihoyatda soddalashgan nuqtai nazar bilan yondashdi. Qayta qurish «kontseptsiyasi» «qardosh» ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini ilmiy taxlil qilishga, ularni bilishga asoslanmagan edi. O'sha davrda sovet sotsialistik tuzumi iqtisodiy, siyosiy jihatdan o'lkan imkoniyatlarga ega deb hisoblandi, tarixiy istiqbol sotsializm tomonida deb qaraldi. Sotsializmga sun'iy ravishda demokratik qiyofa berilib, mustabid tuzumning mavjud yaramas illatlarini «tasodifiy hol», ular uchun «sotsialistik jamiyatda asos yo'q», shuning uchun ularni, ayniqsa, boshqaruv tizimidan olib tashlash kifoya deyildi. Qayta qurish tajribasi faqat partiyaning ijtimoiy-siyosiy rahbarligini mustahkamlashni, jamiyatni sotsialistik asosda tashkil etishni yanada takomillashtirishni, uning faqat qismangina, shunchaki, «pardo berish» tarzida yangilanishini nazarda tutgan edi. Ziddiyatli «qayta qurish» siyosati oqibatida respublika iqtisodiyotida tanglik holati chuqurlashib, sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi pasayib ketdi. Mehnat unumdorligining ko'rsatkichlari ham keskin yomonlashdi, fondlar hisobidan keladigan foyda kamaydi.

³⁵// O'zbekiston kommunisti. – Toshkent, 1988. - №11. – B. 22

Masalan, ishchilar va xizmatchilarning ish haqi O'zbekistonda umumittifoq bo'yicha 1975 yildagi 93,7%dan 1987 yilda 81,3%ga tushib qoldi, aholi jon boshiga iste'mol fondi hajmi tegishli ravishda 66%dan 58%ga kamaydi. Natijada xalqning davlat tomonidan e'lon qilinayotgan o'zgarishlariga ishonchi yo'qola bordi, uning qayta qurishga bo'lgan munosabati o'zgara boshladi.

Ko'pgina mahsulot turlarini ishlab chiqarish hajmi pasaydi, moddiy va moliyaviy nomutanosiblik ko'chaydi, iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib ketdi, tovarlar tanqisligi tobora kengayib bordi. Masalan, 1989 yilda har ikki muhim mahsulotdan biri bo'yicha topshiriq bajarilmadi, har uch mahsulotdan biri bo'yicha ishlab chiqarish hajmi pasaydi. «A» guruhi tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejadagidan 3 baravar kam bo'ldi. Mashinasozlik, kimyo va agrosanoat majmui korxonadari reja topshiriqlarini bajarishni ta'minlay olmadilar. Mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish sohalarida ham sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmadi.

«Qayta qurish»ning so'nggi yillarida respublika ishchilari va xizmatchilarining ijtimoiy rivojlanishida murakkab va ziddiyatli jarayonlar sodir bo'ddi. Ularning miqdor jihatidan o'sishida sifat o'zgarishlari yuz bermadi, bu ko'rsatkich aholining tabiiy o'sishidan orqada qoldi, bu hol ishchi kuchining ancha ortiqcha bo'lib qolishiga olib keldi.

Shunday qilib, mustabid Sovet davlatida qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari sanoat ishlab chiqarishining yuqori samarada rivojlanishiga ob'ektiv ravishda to'siq bo'ldi. Markazning amriga bo'yso'ngan respublika industriyasi mahalliy aholining tub manfaatlarini hisobga olishga mo'ljallanmagan edi, shu sababdan uni sotsialistik asosda isloh qilishga o'rin ish muqarrar ravishda barbod bo'ldi. Salbiy holatlarning ortib borishi natijasida O'zbekiston qishloq xo'jaligining samaradorligi yildan-yilga pasayib bordi. 1989 yilning boshlarida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hatto o'rtacha yillik darajaga ham bormadi, 3 milliard so'mlikdan ko'proq mahsulot berilmay qoldi. g'alla, paxta, poliz ekinlari tayyorlash rejalari surunkasiga bajarilmay keldi. Faqat 1986—1987 yillar mobaynida yetkazib berilmagan paxtaning miqdori 1.576 ming tonnadan ortiq edi. Asosiy dehqonchilik ekinlarining hosildorligi barqaror pasayib bordi.

Paxta yakkahokimligi bilan bog'liq illatlar respublikaning qishloq iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etdi. Chigit ekiladigan maydonlar ko'p bo'lishiga (75%) qaramasdan, paxta ekiladigan yerlar doimiy ravishda ko'paytirib borildi. Ayni vaqtda paxta yetishtirish reja topshiriklari ham ko'paydi, bu O'zbekistonning imkoniyatlariga mutlaqo mos kelmas edi. Mazkur muammoni qushib yozishlar, ko'zbo'yamachiliklar, paxtaterimi davrida shaharliklar, talabalar, maktab o'quvchilarining mehnatidan surunkali foydalanish evaziga hal qilishga intildilar. «Yalpi» paxta hosili, poliz va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdori ortidan quvib, ko'pgina xo'jaliklarni yetishtirish texnologiyasini buzdilar, ekinlarga oshirilgan miqdordaaazotli

o'g'itlar solindi, ayniqsa, paxta zararkunandalariga qarshi kurashda, uning bargini to'kishda zaharli kimyoviy moddsalardan me'yorsiz foydalanildi. Natijada atrof muhit zaharlandi, yerning tarkibi buzildi, insonlar sog'ligiga zarar yetkazildi.

Paxtachilikda pestitsidlarni haddan tashqari ishlatish oqibatida bevosita ko'zgatashlanib turuvchi ijtimoiy-ekologik ofat yuz berdi, ya'ni atrof muhit (tuproq, suv manbalari, havo) yo'l qo'yib bo'lmas darajada ifloslandi. Ekologik tanglikning ikkinchi sababi — vazirliklarning zararli kimyoviy korxonalarni CHirchiq, Samarqand, Navoiyda, shuningdek, ko'proq ekologik tizim juda zaif bo'lgan va aholi zich yashaydigan hududlarda joylashtirilishi bo'ldi: Farg'ona vodiysi ana shunday joylardan bo'lib, bu yerda «Farg'onaazot», «Fergananeftorgsintez» birlashmalari, qo'qon kimyo zavodi, Yangi qo'qon kimyo kombinati va boshqa korxonalar joylashtirilgan.

O'zbekiston KP MQning 1984 yil 23 iyun XVI plenumidan keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar ishlab chiqarish samaradorligini pasayishi, qishloq xo'jaligida vujudga kelgan og'ir vaziyat, mamlakat hayotidagi inqirozli ko'rinishlariga alohida e'tibor qaratilib, asosan buning sababchilari mahalliy kadrlar deb topilib, O'zbekistonda boshlangan “tozalash” ishi mutlaqo xalqqa qarshi qaratilgan tusda avj oldirildi. Plenumda yuqori pog'onadagi sobiq rahbarlarining xato va kamchiliklariga urg'u berib, ularni shunchaki tanqid qilish bilan cheklendi. Haqiqiy tanqid va ta'qiblar mahalliy rahbar kadrlar boshiga tushdi. Oqibatda bu davrda O'zbekistonda rahbar xodimlarga qarshi boshlangan dastlabki ta'qib O'zbekiston KP MQning sobiq birinchi kotibi Sh.R.Rashidovga qaratilib, uning faoliyati davomida qilingan yuksak ishlar, islohotlar ham qo'shib qoralandi. “Sharof rashidovchilik” degan va O'zbekistondagi korruptsiyaning ramziga aylantirilgan siyosiy yorliq ta'qib chiqarildi³⁶. Sh.Rashidovdan keyin rahbarlik qilgan I.Usmonxo'jaev davrida asosan markaz ko'rsatmalari bajarildi. Sh.Rashidovning davrini, uning atrofida turgan mahalliy rahbar kadrlarni, respublika sha'ni va mavqeini qoralash KPSS MQda puxta ishlab chiqildi. Respublika uchun markazdan uyushtirilgan “paxta ishi” “o'zbeklar ishi” uydirmalari go'yoki “poraxo'rlar”ga qarshi qaratilgan bo'lib, qonunsizlik va ommaviy qatag'onlarning avjga chiqishiga sabab bo'ldi vaminglab aybsiz mahalliy aholini og'ir tazyiqlarga duchor etdi, jumladan, ko'plab rahbar va qishloq xo'jalik xodimlarining hayotini girdobga aylantirdi.

1984 yildan boshlab, sobiq Kompartiya rahbarlarining taklifiga binoan O'zbekistonda mamlakatning turli mintaqalaridan “desantchilar” ya'ni KPSS amaldorlari kela boshladilar. Yangi desantchilar O'zbekistonda tartib o'rnatish uchun emas, balki ular ittifoqning respublikadagi tayanchi bo'lish va mamlakatda “sovetlarcha” usulda tartib o'rnatishlari lozim edi. Markazdan yuborilgan xodimlar O'zbekistondagi partiya va hokimiyat tizimlaridagi asosiy

³⁶O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: SHarq, 2000. – B. 546.

o'rinlarni egallab olib, qirg'in boshladilar. Respublikadagi vaziyatni o'rganib, yo'q xato va kamchiliklarni bor qildilar. Ularning siyosiy o'yinlari natijasida O'zbekiston tarixda ko'rilmagan ayovsiz tajribalar maydoniga aylantirildi. Mahalliy rahbarlarni badnom etish, ta'qib ostiga olish, ularni Rossiya, Ukraina, Belorussiyalardan kelgan sodiq kishilar bilan almashtirish bilan shug'ullandilar. O'zbekiston KP MQ, Ministrlar Soveti, Oliy Sovet, Respublika prokuraturasi, Ichki Ishlar Vazirligi shunday "desantchi" kadrlar qo'l ostiga o'tdi. 1984 yilda 5 ta, 1985 yilda 33 ta, 1986 yilda 86 ta, 1987 yilda 27 ta, 1988 yilda 2 ta, 1989 yilda 3 ta xodim O'zbekiston Ichki Ishlar vazirligiga yuborildi³⁷.

Bundan tashqari, 1984-1989 yillar ichida turli bahona va sabablar bilan 10 mingdan ortiq kishi ishdan olib tashlandi. Kadrlarni almashtirish siyosati tez amalga oshdiki, hatto, bir idoraga bir yilda 3 ta yangi rahbar kelardi. Sun'iy ravishda o'ylab topilgan "paxta ishi" mahalliy kadrlar salohiyatiga juda og'ir zarba berdi. Natijada jamoa xo'jaligi raislari va sovet xo'jaligi rahbarlarining 60%i lavozimlaridan olib tashlandi, qishloq xo'jalik mutaxassislarining taxminan 45%i, paxtachilik brigada boshliqlarining har uchinchisi vazifalaridan bo'shatildi³⁸. Bu ishlar kadr tanlashdagi yangi yo'l emas, balki, ularni tahqirlash, obro'sizlantirish, yerli milliy kadrlar g'ururini paymol qilish siyosati edi³⁹. Jarayon go'yoki "poraxo'rlarga" qarshi qaratilgan bo'ldi. Faqatgina 1983 yildan 1989 yilgacha bo'lgan vaqtda O'zbekistondagi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qo'shib yozish, poraxo'rlik, o'g'riliklar haqidagi 800 dan ortiq jinoiy ishlar tekshirilib, 5000 dan oshiq kishi jazoga hukm qilinganligi, ulardan 600 nafari rahbar xodimlar, o'n nafari mehnat qahramonlari edi⁴⁰. O'zbekistonda bu yillarda butun jazoga tortilgan begunoh mas'ul va xo'jalik xodimlari 25 ming kishiga yetdi⁴¹. Gdlyan-Ivanov rahbarligidagi jazo otryadining ortida turgan kuchlar uzoq vaqt pinxoniy siyosat olib bordi. Ligachev, Razumovskiy, Mogilynichenko, Bessarobov, Smirnov, Ponomerov kabi sovet ma'murlari bu ishlarning boshida bo'lishdi⁴². Bu guruhning "ishi" boshidanoq qonunchilikka umuman zid holda, tergov qilinuvchilar va ularning yaqinlariga nisbatan ochiqdan-ochiq zo'ravonlik qilish bilan ajralib turdi. Bemorlar, ko'p bolali onalar, qariyalar ham ayab o'tirilmadi. Mahalliy rahbar kadrlarning "vaqtincha" qamoqdasqaqlanishlari yillab davom etdi. Nohaqq qamoqqa olinganlarning ba'zilar og'ir tahqirlashlarga bardosh berolmay, o'z jonlariga qasd qildilar. Kadrlarni obro'sizlantirish, ularning oila-a'zolari, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlarini ham ayovsiz jazolash siyosati

³⁷Azizxo'jaev A. Chin o'zbek ishi. – Toshkent: Akademiya, 2003. – B. 47.

³⁸Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari(1865-1990 yy.) / D.A.Alimova tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 308.

³⁹Yusupov E. Istiqlol shabadalari. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 49.

⁴⁰Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari(1865-1990 yy.) / D.A.Alimova tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 308.

⁴¹Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: протывоборство идей и идеологии. – Ташкент: Узбекистан, 2002. – С. 75.

⁴²Jo'rabekov I. Yangi O'zbekiston- yangi qadamlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – B. 75, 80.

O'zbekistonda keng tus oldi. Necha minglab kishilar tazyiq, quvg'in va qatag'onga duchor qilindi, qanchadan-qancha odamlar tergov izolyatorlarida saqlab turildi. Ataylab o'ylab topilgan ko'pdan-ko'p, jinoiy ishlar qo'zg'atildi. Ba'zi tergovlar dalillarni soxtalashtirib, begunohlarga nisbatan faqat ayblash yo'lini tutdilar. Jismoniy zo'ravonliklar, ruhiy ta'sir etish, majburlab bo'yinga qo'yish va e'tirof etishlar ommaviy tus ola boshladi. Shu tariqa O'zbekistonga kelganlar adolatni qaror toptirishgaemas, aksincha ko'proq begunoh mahalliy kadrlarni qamatish natijasida yillik hisobotlarini boyitishga zo'r berdilar⁴³.

Hamma respublikalardan farqli o'laroq O'zbekistonda boshqalarga o'rnak bo'lishi uchun respublika kadrlarining "ta'zirini berib qo'yish"ga qaratilgan harakat yuqori bo'lgan. Ya'ni tizimga sig'magan va hukmron tuzumni yoqtirmagan aholi guruhlari antigumanistik choralar bilan yo'q qilish kabi siyosat qurbonigaaylandilar⁴⁴. Sovet tuzumining O'zbekistonda XX asrning 1916, 1930, 1950, 1980 yillarida qatag'on siyosatini avj oldirganining asosiy sababi har avloddan chiqayotgan milliy g'ururli, malakali mahalliy kadrlar yo'q qilinishi, sovet siyosatiga zid bo'lgan ta'sirlardan "tozalanishi" kerak edi. SHuning uchun ham aynan yuqoridagi yillarda ming-minglab mustaqil, erkin fikrga ega bo'lgan, xalqni istiqlolga chorlovchi vatanparvar milliy kadrlar sovet siyosatining qurboniga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng «paxta ishi» qayta ko'rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar. O'z navbatida O'zbekistonning mohir, taniqli davlat va jamoat arbobi Sh.R. Rashidovning pok nomi tiklandi. Shuningdek, mehnatkash o'zbek xalqining yuzi yoruq ekanligi asoslandi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan 2000 yil 12 mayda Toshkent shahrida Yunusobod mavzesida mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga baqishlab o'rnatilgan yodgorlik majmuining ochilishi bugungi minnatdor avlodning ajdodlarimiz oldidagi chuqur ehtiromi ramzidir.

11-Modul: O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991yy.)

1.Respublika ijtimoiy siyosiy hayotida o'zgarishlar. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustivorligining o'sib borishi. O'zbekistonda "Davlat tili" to'g'risidagi qonun.

2.Birinchi Prezident I.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida sovet davrining so'ngi yillari inqirozi masalalarining aks etishi.

3.Isлом Karimovning O'zbekistonning Birinchi Prezidenti etib saylanishi.

⁴³Azizxo'jaev A. CHin o'zbek ishi. – Toshkent: Akademiya, 2003. – B. 47.

⁴⁴Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологии. – Tashkent: Узбекистан, 2002. – С. 24.

4. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. 1991 yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi

1. Respublika ijtimoiy siyosiy hayotida o'zgarishlar. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustivorligining o'sib borishi. O'zbekistonda "Davlat tili" to'g'risidagi qonun.

1980 yillarning oxirlaridan boshlab respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1989 yilda I.A. Karimovning milliy rahbar bo'lishi O'zbekiston tarixi sahifalarining haqqoniyligini ochishga ustivor darajada ta'sir ko'rsatdi. Islom Karimov millat va xalqning asl manfaatlarini ifoda etib, darhol davlat mustaqillik g'oyasini ilgari surdi. U o'zining respublikada tutgan yo'lini, "desantchilar" zo'ravonligiga qarshi kurashini milliy siyosiy partiyalar va harakatlarni tashkil etish uchun sharoitlarni yaratib berish bilan mustahkamladi. Markaz mazkur takliflardan ochiq noroziligiga qaramay, O'zbekiston KP MQning 1990 yil mart plenumida "siyosiy tizimni yangilashni iqtisodiy mustaqillik muammosidan ajralgan holda qarab chiqish mumkin emas"ligi qayd etib o'tildi va O'zbekistonning siyosiy mustaqilligi yaxlit kontseptsiyasi ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasida 1990 yil 24 martda I.A. Karimovning O'zbekiston SSR Prezidenti qilib saylanganligi davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishining muhim shartlaridan biri bo'ldi. sovet davlatida yil sayin iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayot tarzi qanchalik chuqurlashib borsa, "kadrlar malaka" sini oshi-rish, mamlakatda sodir bo'layotgan inqirozli holatlarni, o'zgarishlarni, ularning ahamiyati va oqibatlarini "marksizm-leninizm" ta'limotidan kelib chiqqan holda go'yoki chuqur "anglab yetish" kabi holatlar chuqurlashib boraverdi. Mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimi o'zining tuzilishi va xususiyatlariga ega bo'lib, boshlang'ich siyosiy maktablar muntazam o'qishga tayyor bo'lmagan tinglovchilar uchun yo'naltirilgan va ularga siyosiy va iqtisodiy bilimlar berildi. Tinglovchilarning bu guruhida kommunistik ahloq darajasi va asoslari bo'yicha ham ta'lim berish yo'lga qo'yildi. O'rta va oliy guruhdagi mashg'ulotlarga tayyor bo'lmagan tinglovchilarning o'qishi tashkil etilib, ularga asosan partiya tarixi, siyosiy iqtisod, falsafa ilmiy kommunizm fanlaridan dars berildi. Oliy guruhdagi kadrlar tayyorlash tizimi esa asosan rahbar kadrlarni, ilmiy va badiiy yo'nalishdagi ziyolilarni, xalq xo'jaligidagi mutaxassislarni o'qitishni tashkil etib, ularni o'qitish mehnat va jamoa faoliyatlarini hisobga olgan holda olib borildi. Biroq kadrlar masalasiga bunday yondashuv va usullar ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga befarqlik bilan qarash, rejalarni qog'ozda bajarish bilan cheklanish holatlari kuchaydi.

Ushbu bobga xulosa qilib ta'kidlash lozimki, sovet davlatining kadrlar masalasidagi siyosati butun boshli millatni badnom etish jarayoni bilan bog'lanib ketgan edi. Respublika xo'jalik rahbarlari yuqoridan beriladigan topshiriqlarni ko'r-ko'rona bajaruvchi ijrochi shaxslarga aylanib qolgan edilar.

Mazkur yillardan kadr tanlashda ko'p hollarda partiya tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy fikr-mulohazalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, mehnat jamoasining fikrini o'rganish esa nomigagina o'tkaziladigan bir tadbirga aylanib qoldi. Markaz esa kadrlar siyosatini og'ishmay amalga oshirishda mahalliy millatga mansub kadrlarga nisbatan muntazam ta'qib uyushtirib turdi. Vaqti-vaqti bilan mahalliy kadrlarni siltab "hushyor" qilib turish respublikalarda olib borilgan kadrlar siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanib qoldi. Yuqoridagi siyosat 1980-yillar o'rtalariga kelib ayniqsa O'zbekistonda milliy kadrlarni qatag'on qilishda yaqqol namoyon bo'ldi. Biroq, 1980 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar milliy kadrlar ongiga ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuz berayotgan turg'unlik holati, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi o'zining salbiy oqibatlari bilan aniq ko'zga tashlana boshladi. Bu sharoitda o'zining rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo'lgan tuzum-ning siyosatiga barcha sabablar pishib yetildi. 1990 yillarning boshiga kelib turg'unlik va tanazzul holatini boshidan kechirayotgan sovet ittifoqi parchalana boshladi. Natijada hayotning o'zi sovet tuzumi g'oyasining "yagona", "asosiy" emasligini isbotlab berdi. Istiqloлга erishgan har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olib, jumladan, O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va jamiyat qurishga kirishdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yangilashga, ularning tarbiyasi, ma'naviyati, salohiyatiga xizmat qiladigan mukammal tizimni shakllantirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "asosiy vazifalarni hal etish uchun kuchli, qudratli davlat, yuksak malakali, ahloqan barkamol kadrlar kerak". Boisi, kadrlar jamiyatni harakatga keltiradi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotini jonlantiradi.

1989 yil 21 oktyabrda „O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunning 1-moddasining 1-qismida „O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir", deb yozib qo'yildi. SHunday qilib, uzbek tili davlat tili maqomini oldi. „O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi Qonunning 10-moddasi O'zbekistonda mustaqillikka erishish ostonasida sud tizimining yangicha asoslarda barpo etila boshlanganini ko'rsatuvchi dalillardan biri, bu tizimda boshlangan tub amaliy yangilanishlarning debochasi bo'lgani shubhasiz.

2. Birinchi Prezident I. Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobida sovet davrining so'ngi yillari inqirozi masalalarining aks etishi.

"O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidan o'rin olgan Islom Karimovning O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashi tarixi rahbar kadrlarga ibrat va namuna bo'lishi shubhasiz. Jumladan, uning strategik qarorlar qabul qilish tajribasi, muammoning nostandart yechimlarini ilgari surishi, rahbar kadrlar mas'uliyatini oshirish, ularning ishga munosabatini tubdan o'zgartirish borasidagi mulohazalari, rahbar kadrlarni tanlash va ularni joy-

joyiga qo'yishda yangicha yondashuv va mezonlarni ilgari surishi, rahbar kadrlarning xalqqa munosabatini o'zgartirish talabini qo'yishi bilan bog'liq fikrlar rahbar kadrlar mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari:

- Vaziyatga holis baho berish;
- Marrani baland olib faoliyat yuritish;
- Milliy taraqqiyot yo'lida barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish;
- Odamlarning bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash;
- So'z va ish birligi;
- Xonanishinlik, kabinetdan chiqmay ish yuritish printsiplining inkor etilishi;

– Islom Karimov respublika rahbari bo'lib ish boshlagan birinchi kunlaridanoq inson manfaatlarini, xalqimiz manfaatlarini eng asosiy ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Buni Yurtboshimiz 1989 yil 24 iyunda Ministrlar sovetida bo'lib o'tgan yig'ilishdagi nutqi yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu nutqning asosiy qismi butun yurtimiz, jumladan, Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining o'tkir muammolarini xal qilish, xususan, odamlarni ish bilan, qo'shimcha daromad manbalari bilan ta'minlash, mahalliy muhandis-texnik kadrlar, ishchilarni tayyorlash, yoshlarga e'tibor, ijtimoiy sohadagi adolatsizliklarga barham berish masalalariga bag'ishlangan edi. Ijro intizomining talab etilishi kabi Islom Karimovga xos xislatlarni yangi avlod rahbar kadrlarida qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi

“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida mamlakatimizda istiqloлга erishish, xalqimizning qonuniy manfaatlarini va erkinliklarini ta'minlash borasidagi ichki siyosatga daxldor eng ustuvor masalalar Vatanimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, tenglar ichida teng bo'lishini ta'minlashdek tashqi siyosatga oid ulug'vor vazifa bilan birgalikda olib borilganini ko'ramiz. Bu o'z navbatida Islom Karimovning zamonaviy O'zbekiston davlatchiligini tiklash va rivojlantirishning barcha masalalarining kontseptsiyasini kompleks tarzda ishlab chiqqani va bir butun holda, o'zaro uzviy bog'liqlikda amalga oshirgani, uning naqadar uzoqni ko'zlab ish tutadigan siyosatchi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ya'ni, davlat, mamlakat yaxlit bo'lgani, uning o'z oldiga qo'ygan umumiy strategiyaga – ana shu davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlash strategiyasiga buysundiriladi. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobidan o'rin olgan barcha chiqishlar, noyob hujjatlar misolida bu haqiqatga to'la ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Haqiqatan ham, Islom Karimov O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlagan birinchi kunlardanoq, qanchalik og'ir va murakkab bo'lmasin, ichki va tashqi siyosat masalalarini bir nuqtadan – faqat va faqat respublikamiz manfaatlaridan turib hal etish bo'yicha keng ko'lamli faoliyat olib boradi

Rossiyaning “Известия”, “Комсомольская правда”, “Рабочая Трибуна”, Germaniyaning “Di TSayt”, Hindistonning “Tayms of India” singari jahondagi

nufuzli nashrlarga bergan intervyulari, respublika va Ittifoq miqyosidagi katta yig'ilishlardagi chiqishlarida, ayniqsa O'zbekiston Oliy Kengashining 1992 yil 4 yanvardagi navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida yurtimizning ichki hayotidagi o'zgarishlar, real vaziyat mustaqil tashqi siyosat yuritishni taqozo etayotganini asoslab beradi. Muallifning fikricha mustaqil tashqi siyosat – mustaqil milliy davlatchilikning eng muhim ustuvor atributi va shartidir. Shuni aytish kerakki, O'zbekistonning ichki siyosati qanchalik chuqur o'ylangan bo'lsa, uning tashqi siyosati ham aynan ana shu tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgani va amalga oshirilgani mazkur kitob sahifalarida atroflicha yoritib berilgan.

3. Islom Karimovning O'zbekistonning Birinchi Prezidenti etib saylanishi.

O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan 1989 yilni yoz oylari va 1990 yilni bahorida O'zbekiston hayotida uning rahbarligida burilish davri bo'ldi. Xuddi shu paytlarda o'zbek halqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo'llari ishlab chiqildi. Xususan, teng huquqli Mustaqil O'zbekistonning inson manfaatini himoya qilish ustivor vazifa deb maqsad qo'ygan demokratik yo'lda rivojlanishi bosh strategik yo'nalish deb belgilandi. Ana shu yo'lning boshida, 1989 yilni iyunidan O'zbekistonning rahbari, 1990 yilni martidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida Islom Abdug'anievich Karimov turdi.

Sovetlarning kuchi tugayotgan va alamini kimdan olishini bilmay turgan bir paytda Kommunistik mafkura va amaliyotning hayotga zid tomonlarini ikirchikirigacha tushunib yetgan va dadil oshkora qila biladigan jasoratli dovyurak I. Karimov o'sha chirib borayotgan tizim uchun "ittifoqchi respublikalarda eng xavfli" shaxsga aylandi.

Asrlarga teng qisqa vaqtda O'zbekistonda erishilgan yutuqlar, xususan, mamlakatda o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, diniy, milliy qadriyatlarmizning tiklanishi, jamiyatda o'rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O'zbekiston respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o'rnining ortib borishini butun halqimiz, jahon jamoatchiligi Islom Karimov nomi bilan bog'laydi.

O'zbekiston xalqi istiqloq yillarida erishilgan mislsiz yutuqlarni haqli ravishda Islom Karimov nomi va faoliyati bilan bog'laydi.

Islom Karimov mamlakatda amalga oshirilgan ulkan ishlar, tarixiy o'zgarishlarning tashabbuskori va rahnamosidir:

O'zbekiston mustaqilligining asoschisi, mamlakat mustaqil taraqqiyot dasturini ishlab chiqqan va milliy taraqqiyot yo'lini belgilab bergan atoqli davlat arbobidir;

demokratik talablar va xalqaro mezonlarga to'la javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy muallifi va uni hayotga tatbiq etishning tashkilotchisidir;

markaziy hokimiyat va uning joylardagi bo'g'inlarini isloh qilish, davlat, jamiyat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi siyosiy-ijtimoiy tizim tamoyillarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi;

xalqning o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan iqtisodiy islohotlarning yangi modelini ishlab chiqdi. Bu rivojlanish yo'li iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, qonun ustuvorligi, o'tish davrida davlatning bosh islohotchi ekanligi, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoya kabi mashhur besh tamoyilni o'z ichiga oldi va u dunyoda "O'zbek modeli" deb e'tirof etildi;

O'zbekiston davlatining hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini himoya qilishga qodir Qurolli kuchlar, CHegara va Ichki qo'shinlarni zamonaviy islohotlar asosida tashkil etish ishiga boshchilik qildi;

KPSS Markaziy Komiteti boshchiligidagi kuchlar O'zbekistonda adolatsizlik va tazyiqlarni avj oldirgan yillarda o'zbek xalqining nomini nohaq tahqir va haqoratlardan himoya qilish, xalqimizning or-nomusini, milliy g'ururini tiklashda fidoyilik namunasini ko'rsatdi;

xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, bebaho tarixiy merosimizni hayotga qaytarishni davlatimizning ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tardi;

xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'-e'tiborini yuksaltirish, o'zbek nomini butun dunyoga tarannum etishga ulkan hissa qo'shdi;

odamlarning tafakkurini o'zgartirish, ularning ongida yangi milliy g'oya, milliy mafkura asoslarini shakllantirish va mustahkamlash ishiga rahnamolik qildi;

yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlik va hamjihatlikni qaror toptirish, uni saqlash hamda mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shdi;

mohiyat-e'tiboriga ko'ra, mutlaqo yangi ta'lim-tarbiya tizimi – Kadrlar tayyorlashning milliy dasturini yaratish va uni amalga oshirishda bevosita yetakchilik qildi;

mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi nufuzini oshirish, vakolat va huquqlarini kengaytirish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tizimi sifatida uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tashabbuskori bo'ldi;

Muxtasar qilib aytganda, Islom Karimov O'zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi, yurtimizning yorug' istiqboli yo'lida ko'pmillatli xalqimizni birlashtirib, uni ulug' maqsadlar sari boshlab bordi.

4. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. 1991 yil avguts voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi

Isloim Karimov rahbarligida qabul qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi" O'zbekistonda yangi davlat, yangi jamiyat qurish yo'lida nihoyatda qat'iy va sobitqadam faoliyat olib borilganini ko'rsatadi. Ittifoqda darz ketgan tuzum tanazzulga yuz tutgani sari, respublikamizda mustaqillikka erishi, uning asoslarini mustahkamlash jarayoni jadal davom etdi. 1991 yil 31 avgustda

O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida qaror" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" qonun qabul qildi. Butun jahon xalqlariga, xalqaro tashkilotlarga yangi va mustaqil davlat vujudga kelganligini bildiradigan "Bayonot" ham qabul qilindi. Mustaqil O'zbekistonda vujudga kelayotgan yangi jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy asoslari mustahkamlana bordi, yurtimiz tsivilizatsiyasiga xos qadriyatlarga asoslanadigan yangi tizim shakllana boshladi.

O'zbekiston mustaqilligi va vujudga kelayotgan yangi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy asoslari tadrijiylik asosida mustahkamlanib borildi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991 yil 18 noyabrda qaroriga asoslangan, 1991 yil 24 dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to'g'risidagi referendum va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari buning yana bir isboti bo'ldi.

O'tgan o'n yilliklar tarixi sobiq ittifoqqa xos tanazzulning oqibatlari nihoyatda dahshatli bo'lishi mumkinligidan, ushbu jarayonda o'z yo'lini to'g'ri belgilab ololmagan davlatlarning ahvoli bugun ham o'nnglanib ketmayotganidan, xalqi esa puch va'dalar, avantyuristik loyihalarga aldanib, abgor bo'lib qolayotganidan dalolat berib turibdi. Garchand oradan yigirma yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsada, agar dunyoga vaxshat solib turgan ulkan imperiyaning tanazzuli va nurab ketishining oqibatlari o'sha vaqtda aniq-tiniq anglab olinmasa, xalqimiz bu dahshatli bo'hrondan beshikast olib chiqib ketilmasa nima bo'lar edi, degan savol har qanday sog'lom fikrlovchi kishining yuragini zirqiratib yuborishi aniq.

Ammo o'sha paytdachi? O'sha paytda buni hammamiz ham bugungidek tushunarmidik? Hodisalar po'rtanasida qolib ketganimiz uchun voqealarning qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglarmidik? "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi bu masalada ham aniq-tiniq javoblar beradi. vaziyat qanchalik tahlikali va murakkab bo'lishiga qaramasdan, o'sha daqiqalardayoq muammolarning birdan-bir to'g'ri yechimlari topib, voqealar jarayonini oldindan ko'rib faoliyat olib borgani, bugungi dorilamon kunlarga yetish oson bo'lmaganini yaqqol ko'rsatadi.

12-Modul:O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish.

1.1991 yil 31 avgustda O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi.

2.Umumxalq saylovida I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining prezidenti etib saylanishi.

3. Siyosiy isloxtlar. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi.Ko'ppartiyaviylik tizimigaasos solinishi.

4. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar.

5. Sud hokimiyati isloxtarlari. Mahalliy davlat organlari, fuqorolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlari.

6. Millatlararo tinchlik va totuvlik. Axborot tizimini erkinlashtirish.

1.1991 yil 31 avgustda O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi.

Tarixda hech bir xalq yoki millat o'z ozodligi va mustaqilligini osonlik bilan qo'lga kiritmagan. Shu jumladan bizning ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz ham bir necha bosqinchilar zulmi ostida yashab, doimo ozodlik uchun kurashib keldi. Bularga To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Amir Temur singari qaxramonlarimiz boshchiligidagi kurashlar, so'ngi 130 yildan ortiqroq iskanja va istibdod davridagi ozodlik kurashlari guvohidir. Shu bilan birga, istiqloлга erishish va uning ne'matlaridan bahramand bulish bir kunlik va hatto bir necha yillik ish emasligi ham tarixdan ma'lum. O'zoq davr ozodlik kurashlarida million-millionlab ota-bobolarimiz shahid ketdilar.

Biz bugun erishgan istiqlolimiz ana shu qurbonlar, kurashlar evaziga ekanligini ham hech qachon yoddan chiqarmasligimiz lozim. Yana shuni ta'kidlash joizki, kurashlar olovida necha bor kuyib yongan bu tabarruk zamin, jonajon Vatanimiz-O'zbekiston o'zining og'ir, musibatli o'tgan tarixi bilangina emas, balki jahon madaniyatiga o'z munosib hissasini qo'shgan fozilufuzalolarni yetishtirib berganligi bilan ham jahonga mashhurdir.

Mustaqil yurtimizning bu buyukligi va zaminimizning muqaddasligi haqida Birinchi Prezident I. Karimov: «Butun umrini iymon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va xalollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi»,⁴⁵ deb bejiz ta'kidlamagan edilar.

Darhaqiqat, ana shunday kurashlar, yurt va xalq buyukligi vatan ozodligiga olib keldi. Qisqa bo'lsada, keng mazmunga boy mustaqil taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqdamiz.

XXI asr bo'sag'asida Vatanimiz tarixida buyuk voqea sodir bo'ldi. Birinchi Prezident Islom Karimov 1991 yil 31 avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning Davlat mustaqilligini e'lon qildi. Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida» Oliy Kengash Bayonoti qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi, - deb ta'kidlanadi Bayonotda, to'la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo'ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar

⁴⁵ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z kulimiz bilan quramiz. T., «O'zbekiston», 1999.7-jild, 184-b.

hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi». Mazkur sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qilinib, 1 sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. SHuningdek, Oliy Kengashda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. 17 moddadan iborat ushbu qonunning birinchi moddasida: «O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir», - deb qonunlashtirilib qo'yildi. O'zbek xalqining muqaddas, tarixiy orzusi ushaldi. U siyosiy mutelik va asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekistonning Davlat mustaqilligi xalqimizning o'zoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo'ldi. O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligini quvonch bilan kutib oldi va ma'qulladi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov yurtimiz istiqloli imkoniyatlari haqida tuxtab: «Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umum e'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand kilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik»¹, - deb ta'kidlagan edi. «O'zbekiston xalqi mustaqillik tufayli quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ldi:

1. o'z taqdirini o'zi belgilash, davlat va jamiyatning siyosiy tizimini mustaqil yaratish, demokratik yo'l asosida saylangan organlar orqali hokimiyatni butun to'laligi bilan boshqarish;
2. ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarga, tabiiy va xom ashyo resurslariga to'la egalik qilish, ulardan mamlakat manfaatlari yo'lida foydalanish;
3. taraqqiyot yo'lini jahon tajribalari, tarixiy an'analar va xalqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tanlash;
4. milliy davlatchiligimiz an'analariga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat qurish;
5. ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
6. tariximizni holisona yoritish, milliy va diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash, hayotimizni eski hukmron mafkura va mustabid tuzum asoratidan xalos etish;
7. yosh avlodni haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalash, ularga zamon talablari darajasida bilim berish va kasb-hunar o'rgatish;
8. ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini to'la namoyon etish;

¹Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. T., «O'zbekiston», 1997, 105-b.

9. yurtimiz xavfsizligi, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash;

10. xalqaro munosabatlarda mustaqil sub'ekt sifatida ishtirok etish, barcha nufuzli tashkilotlarga teng huquqlilik asosida bo'lib kirish, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli shartnoma va bitimlar tuzish.

SHunday qilib, mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berdi. Xalqimizga berilgan huquq va imkoniyatlar erishgan istiqbolimizni mustahkamlashga xizmat qila boshladi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi»? mavzuida 1991 yil 29 dekabrda o'tkazilgan referendum natijalarida yaqqol ko'rindi. Umumxalq referendumida saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi yoki 9 mln. 898 ming 707 kishi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini yoqlab 9 mln. 718 ming 555 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi.

Demokratik qoidalarga to'laamal qilib o'tkazilgan Prezident saylovining natijalariga ko'ra saylovda ishtirok etgan fuqarolarning 86 foizi Islom Abdug'anievich Karimov nomzodini yoqlab ovoz berdilar. Ana shu tariqa dunyo xaritasida yana bitta, katta imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Bu tarixiy voqeani nafaqat xalqimiz, xorijiy mamlakatlardagi do'stlarimiz, vatandoshlarimiz katta xursandchilik va umidlar bilan kutib oldilar. Qisqa fursatda dunyo davlatlari tomonidan mustaqil O'zbekistonning tan olinganligi esa erishgan istiqbolimizning olamshumul ahamiyatidan darak edi.

2.Umumxalq saylovida I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylanishi.

O'zbekistonda davlat Mustaqilligi qo'lga kiritilgach, boshqaruvning demokratik tizimi shakillantirila boshlandi. Prezidentlik Respublika boshqaruvi, davlat boshqaruvini o'zagini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sakkizinchi sessiyasida “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida”gi qonun qabul qilindi.

1991 yil 29 dekabrda demokratik me'yor va tartiblarga mos ravishda, umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylash xuquqi asosida tarixda birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida umumxalq saylovi bo'lib o'tdi. Unda 9 900 958 kishi yoki ovoz berish xuquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 94,2 foizi ishtirok etdi. Islom Karimov nomzodi uchun 8 514 125 saylovchi o'z ovozlari berdilar yoki saylovda qatnashganlarni 86 foyizi o'z ovozlarni berdilar. I.Karimov mustaqillikni birinchi kunidanok Mamlakatda demokratik xuquqiy davlat kurish, yunaltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning jaxon hamjamiyatiga kushilishini ta'minlash buyicha kattiy va kizgin siyosat yuritib kelmokda. O'zbekiston qaxramoni, ko'plab ilmiy asarlar mualifi, akademik, qatorxorijiy unversitetlarning faxriy doktori. Prezident I.A. Karimov oilali bo'lgan. Uning

rafikasi Tatyana Akbarovna-O'zbekiston Fanlar Akademiyasi iktisod inisitutini ilmiy xodimi. Oilasida ikki kizi va nabiralari bor.

1995 yil 26 martida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi karoriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddatini 1997 yil 2000 yilgacha o'zaytirish masalasi buyicha umumxalq referendumini bo'lib o'tdi. Unda 11245628 kishi yoki ovoz berish xuquqiga ega bo'lgan fuqarolarni 99,3 foizi ishtirok etdi. Ovozberishda katnashganlarni 99,6 foizi Prezident vakolatini 2000 yilgacha o'zaytirishga yoqlab ovoz berdi. Referendum natijasi Prezidentning ichki va tashki siyosati umumxalq tomonidan ma'kullanishi va kullab kuvvatlanishidan mamlakat barcha Aholisi o'nga bo'lgan tula ishonchidan guvox beradi. Xalqimiz O'zbekistonning Davlat mustaqilligiga erishuvini, iqtisodiy mustaqilligini, mamlakat xavfsizligini mustaxkamlashi va jaxon hamjamiyatida uning obru-e'tiborini oshib borishi haqli ravishda I.Karimov faoliyati bilan bog'liq. Prezidentimizning tutgan yuli tufayli fuqarolarning xuquqlari, ularning ijtimoiy ahvoli va millatidan kat'iy nazar himoya qilinadigan, barqarorlik, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlik qonunlariga og'ishmay amal qilish, ish bilan ta'minlaydigan demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati kurish yulidan izchil olg'a qarab bormoqda.

Tanlangan mustaqil yul tufayli respublika bozor munosabatlari sari izchil ilgarilab bormoqda. Ko'p ukladli iqtisodiyot va bozor munosabatlariga o'tish O'zbekistonda MDXdagi boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq ishlab chiqarishning inqirozlarisiz, aytaylik mamlakat xayotining ta'minlaydigan asosiy yo'nalishlarda yoqilg'i-energetika va oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlash kabi sohalarda ijobiy siljishlar sezilmoqda. Xalq xo'jaligini jiddiy ravishda qayta qurish amalga oshirilmoqda, o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanmoqda. Respublikamizda kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilib, keksalar va nog'ironlar, ko'p bolali onalar va yoshlar haqida g'amxo'rlik, o'tish davridagi og'ir sharoitlarda shaharlarni obodonlashtirish, qishloqni gaz va suv bilan ta'minlash, ta'lim va sog'likni saqlashni rivojlantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar xalqimizda qizg'in xayrixoxlik uyg'otmoqda. Ma'naviy-ruxiy tiklanish, milliy an'analarga qaytish, kishilardan diniy e'tiqod va tuyg'ulariga xizmat qilish xalqimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda.

3. Siyosiy isloxtlar.O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi.Ko'ppartiyaviylik tizimigaasos solinishi.

Demokratik, huquqiy davlat rivojlanishining mantig'i, ichki qonuniyatlari davlat xokimiyati organlari va boshqaruvining siyosiy partiyalar va jamiyat birlashmalari-kasaba uyushmalari, faxriylar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari, ijtimoiy va ijodiy jamg'armalar, fuqorolarning boshqa ko'ngilli birlashmalari bilan har tomonlama yaqin aloqalari va hamkorligini taqozo etadi.

Boshqa soʻz bilan aytganda, haqiqiy demokratiya fuqorolarning Prezident va xokimiyatning vakillik organlariga saylovlarda qatnashishidagina iborat boʻlmay, balki ularning mamlakatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy jarayonlarning borishiga, davlat va jamiyatning barcha ishlari boshqaruviga bevosita, shuningdek jamiyat birlashmalarining faoliyatida ishtirok etish orqali har kuni taʼsir oʻtkazishini ham bildiradi.

Oʻzbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari. Ijodiy uyushmalar ommaviy harakatlar va fuqorolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalar sifatida eʼtirof etiladi.

Demokratiya va bozor isloxotlarining chuqurlashuvi bilan fuqorolarning ijtimoiy tashabbuskorligi, fuqarolik jamiyati qayta tiklanmoqda va tobora kattaahamiyat kasb etmoqda.

"Fuqarolik jamiyati" va "Jamiyat" tushunchalari aynan bir narsa emas. Jamiyat-bu kishilar umumiyliigi, davlatning butun belgilarini ham oʻz ichiga oladigan birligi. Fuqarolik jamiyati bu jamiyatning bir qismi. Xokimiyatning davlat organliri va boshqaruvdan tashqari qismi.

Fuqarolik jamiyati davlatning vujudga kelishi bilan yuzaga keladi va shakllanadi. Mavqei, uning demokratik darajasiga muvofiq belgilanadi.

Fuqarolik jamiyati va davlatning oʻzaro aloqalari obʼektiv muqarrar. Davlat hokimiyat tizimi va faoliyatida demokratik tamoyillar va meʼyorlar qanchalik toʻla chuqur mujassam boʻlsa, fuqarolik jamiyatining faoliyati ham shunchalik keng, uning davlat bilan aloqalari xilma xil boʻladi. Agar davlat, yaqin oʻtmishda boʻlganidek, fuqarolik jamiyat manfaatlaridan oʻzilib qolsa, unda u muqarrar ravishda inqirozga uchraydi, oʻzining tabiiy-tarixiy, ijtimoiy vazifasidan mahrum boʻladi.

Davlatda demokratiya va fuqarolik jamiyatining yetuklik darajasi fuqorolarning siyosiy va jamoat tashkilotlarining taʼsiri va taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Mustaqillikning oʻtgan 26 yil mobaynida Oʻzbekistonda davlat va jamiyat qurilishi va ijtimoiy siyosiy taraqqiyot tajribalari shuni koʻrsatadiki, mamlakat demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida maqsadga qarab ishonch bilan olga siljimoqda. Ularning tobora chuqurlashib borayotgan va samarali hamkorligi mamlakatda siyosiy barqarorlik, fuqorolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlikni taʼminlamoqda.

Mamlakat mustaqil davlat maqomiga ega boʻlganidan keyin istiqloq talablariga mos ravishda kadrlar siyosati ishlab chiqildi. Mamlakatda eng avvalo mahalliy boshqaruv organlari kadrlarini davr talabiga mos darajada mustahkamlashga kirishildi. 1994 yil 4 yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy kengashining 9-sessiyasida "Oʻzbekiston Respublikasi-ning mahalliy xokimiyat idoralarining qayta tashkil etish toʻgʻrisida" qonun qabul qilindi. Oliy kengash shu xususda qabul qilgan qarorida "Iqtisodiyotni bozor

munosabatlariga o'tkazish sharoitiga ijroya xokimiyatini mustahkamlash zarurligi munosabati bilan:

1. O'zbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarida vakillik xokimiyatiga hamda ijroya boshqaruv xokimiyatiga boshchilik qiladigan xokimlar lavozimi ta'sis etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki-viloyatlarning xokimlari O'zbekiston Respublikasining prezidentiga va xalq deputatlari tegishli kengashlariga xisob beradilar.

Prezidentning joylaridagi rasmiy vakillari tashkil etiladi. Ular prezident tomonidan tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

Qonun talablari asosida joylarda shahar va tuman xokimlarini tanlash, tayinlash, ishini amalga oshirish uchun tashkilotchilik ishlari amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda Respublikada beshta siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda

1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis quriltoyida tashkil topgan. Ushbu quriltoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston XDPsining "O'zbekiston ovozi", "Golos O'zbekistana" gazetasi va "Muloqat" jurnali nashr etilmoqda.

2. 1995-yil 18-fevralda O'zbekiston "Adolat" sotsialdemokratik partiyasi to'zildi. Partiyaning Toshkentda bo'lgan 1-ta'sis quriltoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr qilinmoqda.

3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi. U 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. "Milliy tiklanish" haftalik gazetasi nashr qilinmoqda.

4. 1998-yil 28-dekabrda O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyaning 1998-yil 28-dekabrda ta'sis konferentsiyasida uning Dasturi va Nizomi tasdiqlandi. Partiyaning "Fidokorlar" gazetasi nashr etilmoqda.

5. 2003-yil ohirida O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatlarini ximoya qilishdan iborat. O'zLDPning "XXI asr" haftalik gazetasi nashr qilinmoqda.

1995-yil may oyida jamoatchilikning tashabbusi biln O'zbekiston "Xalq birligi" harakati tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

"Xalq birligi" harakatining "Birlik" va "Edinstvo" haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi farmoniga muvofiq, respublika yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi nodavlat xayriya-jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. 2001-yil 25-aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar kuriltoyida o'zini-o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot- O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati to'zildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi.

4. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar.

Mustaqillik xalqimizgao'z taqdirini, taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash, milliy davlatchilikni tiklash, demokratik-huquqiy davlat barpo etish, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish imkoniyatini yaratdi. Mustaqillik davlat boshlig'ini, xokimsiyatning vakillik organlarini xalq tomonidan demokratik yo'l bilan erkin saylab qo'yilishini ta'minladi.

O'zbeki stonda Oliy davlat vakillik organi-parlamentni shakllantirishda xalqaro tan olingan huquqiy tamoyillarga va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanildi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990 yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. U 1990-1994 yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi. SHu yillar ichida Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qarorlarni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasida bir palatali parlament-Oliy Majlisni shakllantirishga kirishildi.

1993 yil 28 dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Oliy Kengashining XIU sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida", 1994 yil 22 sentyabrda bo'lib o'tgan XU1 sessiyada "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Ularda qonunchilik sohasida tub islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yiladi.

Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston respublikasining Oliy Majlisi to'g'risidagi" qonunga muvofiq Oliy Majlisning mutloq vakolatlari jumlasiga:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- O'zbekiston respublikasi qonunlarini qabul qilish va ularga o'zgartirish qo'shimchalar kiritish;

- O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

- Ma'muriy, hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi chegaralarini o'zgartirish;

- Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

- Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini idora etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

- Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimini va vakolatlarini belgilash;

- Xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;
- Oliy majlis va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash, Markaziy Saylov komissiyasini tuzish;
- Vakolati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash;
- Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarini saylash;
- Vazirlar mahkamasi a'zolarini Bosh prokuror va uning o'rinbosarlarini tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi prezident farmonlarini tasdiqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi.

Saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan O'zbekiston respublikasining fuqarolari parlamentga saylanish huquqiga egadirlar. Bunda ularning kelib chiqishi, ijtimoiy va moddiy ahvoli, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti tili, dinga munosabati faoliyat turi bo'yicha hech qanday cheklashlarga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga "Oliy Majlisga saylovlar to'g'risidagi" Qonunda belgilanganidek, sudlangan, saylovga tayinlangan kundan o'tgan 5 yil mobaynida O'zbekiston hududida yashamagan, xarbiy ixtisosli, diniy xizmatchi fuqarolar deputatlikka nomzodlar ro'yxatiga olinmaydi.

Hokimiyat taqsimlash tamoyilini amalda bajarish maqsadlaridan kelib chiqib, hukumat a'zolari, sudyalar, prokuratura organlarining mansabdor shaxslari, vazirlik idoralari rahbarlari va uning o'rinbosarlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari, vazirlik idoralari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, ijro etuvchi organlarning mansabdor shaxslari Oliy majlis deputati bo'la olmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil sentyabrda bo'lib o'tgan XU1 sessiyasi 1994 yil 25 dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazishga qaror qabul qildi. Saylovlarni qonun tartiblari asosida o'tkazish uchun Respublika bo'yicha 250 okrug, 7195 ta uchastka saylov komissiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga XDP dan, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan hokimiyatning vakillik organlaridan jami 700 nomzod ro'yxatga olindi. 1994 yil 25 dekabrda hamma joyda saylovlar qonun talablari muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tdi. Nomzodlardan birontasi yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995 yil 25 yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi. Bu demokratik yo'l bilan parlamentni shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi dastlabki tajribasi bo'ldi.

O'zbekiston respublikasining mustaqil taraqqiyoti davrida respublika bir palatali parlamenti yangi jamiyat qurishning ishonchli huquqiy asoslarini yaratuvchi 446 tadan ortiq qonun, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur va mingdan ortiq qarorlar qabul qildi. Respublika parlamenti jamiyatimizda siyosiy muvozanatni, tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishda ishonchli omil sifatida faoliyat yuritdi.

Ikki palatali parlament haqida. Birinchi Prezident Islom Karimov 2000 yil 25 may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosida yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir.

2001 yil 6-7 dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil- yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilgani, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palata qilib tuzish zarur degan xulosaga keldi.

Ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi hayotning o'zidan, hokimiyat tarmoqlarini aniq ajratish asosida milliy davlatchilik institutlarini yanada mustahkamlash zaruriyatidan kelib chiqadi. Ma'lumki demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asrning so'ngi o'n yilliklarida ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendentsiyasiga aylandi.

Ikki palatali parlamentning bir qator ijobiy tomonlari bor:

- Populistik maqsadni, ayrim guruxlar manfaatini ko'zlovchi mukammal bo'lmagan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.
- Mamlakat mintaqalarining manfaatlari to'laroq inobatga olinadi.
- Milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentning nufuzi ortadi, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati o'rtasidagi munosabatlar mutanosiblashadi.
- Parlament qabul qilayotgan qonunlarning sifatini yaxshilashga, xalqning xoxish irodasini to'laroq nomoyon bo'lishiga imkon beradi.
- Parlament ishida demokratik fikrlar xilma-xilligi ko'proq namoyon bo'ladi.
- Jamiyatni ideallashtirishni tezlashtiradi.
- Deputatlar faoliyatini professionallashtirishga, siyosatchilar tabaqasini shakllantirishga ko'proq imkoniyat beradi.

Oliy majlis 2002 yil 27 yanvar kunikelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish bo'yicha qaror qabul qildi. Referendum 2002 yil 27 yanvar kuni demokratik asosda keng jamoatchilik va xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning tashabbuskor guruxlari kuzatuvchilar ishtirokida bo'lib o'tdi. Referendumda fuqarolarning 91,58 foizi ishtirok etdi.

2002 yil 12-13dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy majlisning 10 sessiyasida xalqimizning xoxish irodasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik

palatasi to'g'risida" konstitutsiyaviy qonunlarni hamda ularni amalga kiritish to'g'risida qarorlarni qabul qildi.

Oliy majlis tarkibida ikki palata tuziladi. Yuqori palata- Senat, quyi palata- Qonunchilik palatasi, deb ataladi. Ikki palataning vakolat muddati besh yil deb belgilangan. Quyi palataga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 ta deputat saylandi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda 6 nafardan jami 84 kishi saylandi. Senatning 16 nafari fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat uchun alohida xizmat qilgan katta tajribaga ega bo'lgan obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan saylanadi.

5. Sud hokimiyati isloxlari. Mahalliy davlat organlari, fuqorolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlari.

Demokratik davlat qurilishida sud hokimiyati ni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. 1993 yil 2 sentyabrda "Sudlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun sudlar faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi. Konstitutsiyaning 106-moddasiga muvofiq: "sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarda, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalardan mustaqil holda ish yuritadi".

Sud tizimi 5 yil muddatga saylanadigan konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlaridan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo'jalik sudlaridan iborat.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning faoliyatini konstitutsiyaga mos ekanligini nazorat qiladi. Oliy sud fuqorolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini tartibga soladi. Xo'jalik sudlari esa, xo'jalik nizolarini ko'rib chiqadi. Sud'yalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sud'yalar siyosiy partiyalar va harakatlarga a'zo bo'la olmaydilar. Oliy sud va Oliy xo'jalik sudlari, uning a'zolari Oliy Majlisning deputati bo'la olmaydilar. Barcha ishlarda ochiq ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risidagi", va 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoiy, jinoiy protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi haqida"gi qonunlar asosida yanada takomillashib bormoqda. Sud ishlarida qonuniylikka amal qilishga, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sud himoyasi huquqi bilan ta'minlanishiga, fuqarolar huquq va erkinliklarining himoyalashiga e'tibor tobora yaxshilanib bormoqda. Sud hokimiyati

qonunning ustunligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi ta'minlash yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari 2012 yil 30-31 avgust kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi senatining to'qqizinchi yalpi majlisida ma'qullangan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun-hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi" O'zbekiston respublikasi Qonuni mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati rivojlantirish kontseptsiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish yuzasidan O'zbekiston respublikasi oliy sudi tashabbusi bilan parlament muhokamasiga kiritilgan. Qonunning asosiy maqsadi ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, ayblanuvchini lavozimidan vaqtincha chetlashtirish, tarzidagi protsessual majburlov choralarini qo'llashning yangi huquqiy mexanizmini yaratish, suddan jinoyat ishini qo'zg'atish huquqini chiqarib tashlash, sud tergov vaqtida jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlanganda sud tomonidan qaror qabul qilishning huquqiy mexanizmini belgilash, sudda jinoyat ishi yuzasidan ayblov hulosasini o'qib eshittirish majburiyatini prokurorga yuklash, sudga hukmning faqat qaror qismini e'lon qilish huquqini berish yo'li bilan jinoyat ishlarini sudda ko'rish tartibini yanada soddalashtirishdan iborat. Umumiy ta'kidlaganda, Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual, Fuqarolik protsessual, Xo'jalik protsessual kodekslari, "Prokuratura", "Sudlar to'g'risidagi" O'zbekiston respublikasi qonunlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu o'zgartirish va qo'shimchalar odil sudlov sifatini yanada yaxshilash barobarida qonunbuzarlik, jinoiy qilmish uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha

1.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

«Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

1.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

1.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instantsiyalarni qisqartirish;

elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

1.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarini kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

1.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

1.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilishni o'z ichiga oladi.

6. Millatlararo tinchlik va totuvlik. Axborot tizimini erkinlashtirish.

O'zbekiston polietnik, ya'ni ko'p elatli davlat turiga mansub bo'lib, hozirda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. davlatga o'z nomini bergan millat - o'zbeklar – 80,4% soni bo'yicha ko'pchilikni tashkil qiladi. turli elatlar va konfessiyalar vakillari o'zaro hurmat, tushunish va to'la kelishuvchanlik muhitida faoliyat ko'rsatmoqdalar;

O'zbekiston fuqarolari, ularning millatidan qat'iy nazar, mustaqil O'zbekistondagi elatlararo kelishuv va moslashuvchanlik fenomeni-davlatimizdagi barqarorlik va fuqarolar tinchligining eng muhim faktorlaridan biridir, degan yagona fikrdalar;

- fuqarolarning millatlaridan qat'iy nazar ularning huquqiy tengligi, iqtisodiy va ijtimoiy erkinligi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan;
- tub millat boshqa etnik guruhlar bilan birgalikda umumijtimoiy tafakkurni shakllantirish jarayonlarini tezlashtirish va rag'batlantirishning ulkan salohiyatini tashkil etadi, yuzaga kelgan millatlararo munosabatlar esa tinchlik va barqarorlikni, har bir oilaga munosib hayotni ta'minlash kafolati bo'lib xizmat qiladi;
- kelajakda bashorat etish mumkinki, O'zbekistondagi elatlararo va konfessiyalararo mutanosiblik o'zbek xalqining ma'naviy yangilanishi va milliy tafakkurning o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatning yangilanish va uning demokratiyalashuvida kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi, "respublikaning jahon hamjamoatchiligi bilan integratsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi"

2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar quyidagilar qilib belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;
- fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;
- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;
- favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish. Bu ishlar bo'yicha yurtimizda ko'plab yangilik va islohotlar amalga oshirilmoqda.

13-Modul: Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

1. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Iqtisodiy islohotlar, uning strategik yo'nalishlari va bosqichlari.

2. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar

3. Ilm-fanning rivojlanishi. Madaniyat va sport.

4. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi.

5. BMT, YeXHT bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirilishi. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi.

1. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Iqtisodiy islohotlar, uning strategik yo'nalishlari va bosqichlari.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishni o'ziga xos yuli ishlab chiqildi. Bu yulning ilmiy nazariy asoslari, koidalari I.Karimovning "O'zbekiston-bozor munosabatlarigao'tishni o'ziga xos yo'li" va boshqa asarlarida puxta ishlab chiqildi va iqtisodiy islohotlar uchun dasturul amal bo'lib xizmat qildi.

Jamiyatni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangilashning o'z yo'li 2 ta iqtisodiy asosning birikuviga asoslanadi:

Birinchidan-jahon tajribalarini xar taraflamao'rganish, iqtisodiy islohotlarni o'tkazish bo'yicha jahon tajribasida to'plangan barcha ishlarini keng qo'llash.

Ikkinchidan-Mamlakatning o'ziga xos sharoitini an'analari, urf odatlari, O'zbek xalqining xayot tarzini xar tamonlama keng xisobga olish.

O'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yuli vaandozasini tanlab olish juda kattaahamiatga molik. Bu yo'l vaandoza iqtisodiyoti bozor munosabatlarni asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asirlik tajribasiga, shuningdek O'zbekiston xalqining milliy tarixiy Me'rosi, turmish tarzi, ananalar va ruxiyati xususiyatiga tayanishi lozim⁴⁶.

Bozor munosabatlarigaasoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o'zining hayotiyiligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

– iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tazyiqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak:

- 1) mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish;
- 2) bahoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish;
- 3) bozor infratuzilmasini shakllantirish;
- 4) aholini ijtimoiy himoyalash.

– davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, u islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim:

- 1) davlat islohotchi rolini bajaradi;
- 2) Ijtimoiy sohagaalohida e'tibor beriladi;
- 3) Iqtisodiy faoliyatning huquqiy asosini yaratadi;
- 4) Iqtisodning erkinlashtirilishini ta'minlaydi;
- 5) Ijtimoiy muammolarni hal qiladi;
- 6) Ishbilarmonlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi;
- 7) Ijtimoiy siyosat orqali ijtimoiy muammolarni bartaraf etadi va boshqalar.

– bozor munosabatlariga o'tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlargaamal qilinishi shart:

- 1) qonun ustivorligi;
- 2) Qonun oldida hammaning tengligi;
- 3) Yuridik va jismoniy shaxslar o'z ish faoliyatini qonun asosida bajarishi;
- 4) Davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy bo'linish tamoyilini ta'minlash kiradi.

– bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtdaaholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish:

- 1) aholini ish bilan ta'minlash
- 2) daromad siyosatini yuritish: pul daromadi;

⁴⁶I.Karimov O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishni o'ziga xos yuli. T.: O'zbekiston, 1993, 5-bet.

- 3) ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy adolatni ta'minlash;
- 4) aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- 5) xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash;
- 6) har kimning mehnat qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, qobiliyatiga yarasha ish bilan ta'minlash.

– ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo'nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur:

- 1) islohotlarni bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan amalga oshirish;
- 2) ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berib, asta-sekin boshqaruvning demokratik, erkin iqtisodiy boshqaruviga o'tish;
- 3) yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik;
- 4) kishilar tafakkuri, ongini bosqichma-bosqich takomillashtirish;
- 5) odamlarning qashshoqlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- 6) siyosiy sohani, davlat va jamiyat qurilishini asta-sekin isloh qilish va h.k.

Haqiqatdan ham bugun ya'ni mustaqilligimizning 26 yillik taraqqiyotida erishilgan yutuqlarga va natijalarga holisona baho berib, aytish mumkinki, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olingani tufayli xalqimizning og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'linganini hayotning o'zi ko'plab misollarda isbotlamoqda. Yurtimizda o'tgan davrda barcha jabhalarda yuqori o'sish sur'atlariga erishmoqda, jamiyatimizda barqarorlik, uning ma'naviy-ma'rifiy negizlari mustahkamlanmoqda, hayotimizda amalga oshirilayotgan ulkan yangilanish va o'zgarishlar, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, nufuzli xalqaro tashkildotlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Birinchi Prezident Islom Karimov iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilishni tubdan o'zgartirish to'g'risida: "Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida-iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat g'oyat muhim vazifani hal etish kerak bo'ladi. Bu Respublika uchun strategik ahamiyatga egadir. Tarkibiy tuzilishda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini vaaholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning eng asosiy shartlaridan biridir"-deb yozadi. Birinchi Prezident I.Karimovning ko'rsatmalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning oldiga qo'yilgan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo'ldi: iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishiga chek qo'yish; importga qaramlikni tugatish; mamlakatning eksport salohiyatini oshirish; xalq iste'moli mollariga aholining talabini qondirish va boshqalar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 3,7 barobar, aholi boshiga nisbatan real daromadlar 7 barobar, nafaqalarning o'rtacha miqdori- 9 barobar, ish haqi 18 barobar o'sdi. Mamlakatimizda uy-joy fondi qariyb 2 barobarga oshdi. Bugun yurtimizda oilalarning 98,5%i o'z uy joyi yoki

kvartirasiga, qishloqdagi oilalarning 97,5%i tomorqasiga ega. So'ngi 9 yil mobaynida mamlakatimiz yiliga 8,2 foiz o'sishga erishmoqda. Jahonda, ayniqsa, 2008 yildan buyon davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida bunday ko'rsatkichlarga ega davlatlar juda kam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan **“O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmonida**“Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida:

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

printsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi selektsiya navlarini hamda yuqori mahsulдорlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav

jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subventsiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish masalalari ilgari surilgan.

2.Bozor infratuzilmasining shakllanishi.Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar.

Bozor infrastrukturasi deyilganda tovar va pul bozorida, mehnat resurslari bozorida iqtisodiy vositalar - tegishli moliya va bank-kredit tizimi, sug'or'ta, auditorlik, yuridik va xususiy firmalar tizimi tushuniladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida infrastrukturani shakllantirish muhim jarayon bo'lib, uni tashkil etish anchagina vaqt talab etadi.

Ushbu masalada ko'pgina islohotlar, o'zgartirishlar amalga oshirildi. Masalan: Davlat buyurtmasi tugatilib, o'rniga zarur mahsulotlarni erkin narxlarda xarid qilish joriy etildi. Tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi. Kim oshdi savdosi o'tkazila boshlandi, brokerlik va dillerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'ldi. Ko'chmas mulk sotish joriy etildi. Banklararo valyuta birjasi tashkil etildi. Davlat sug'urta boshqarmasi o'rniga davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Ishsizlik muommasini hal etish uchun Respublika miqyosida 250 ga yaqin mehnat birjalari barpo etildi. 1995 yil dekabrda Oliy Majlisning IV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va banklar faoliyati to'g'risida» alohida qonunlar qabul qilindi.

«Paxtabank», «G'allabank», «Savdobank», «Tadbirkorbank», «Mevasabzavot bank» kabilar tashkil etildi. 1994 yil 1 iyuldan esa O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'm muomalaga kiritildi. Neft mustaqilligini ta'minlash maqsadida ham jiddiy ishlardan biri, ya'ni Buxoro neftni qayta ishlash zavodini ishga tushirilishi ham yirik iqtisodiy yutuqlardan bo'ldi. Janubiy Koreya bilan O'zbekistonning hamkorligida «O'zDEU» qo'shma korxonasi tashkil etilishi, ishga tushirilishi hamda avtomobillar ishlab chiqilishi O'zbekiston iqtisodiyotida o'lgan, yirik voqea bo'ldi. Demak O'zbekistonda ham o'zbek mashinasozligi vujudga kela boshladi.

1998 yil ayrim rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy krizis, jahon bozorida O'zbekistonning muhim eksport mahsulotlari-paxta tolasi, rangli metallarning narxini tushib ketishi mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy ahvoriga ta'sir qilmay qolmadi. SHo'nga qaramasdan, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik davom etdi. Xususan, 1998 yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,4 foiz, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishi 5,8 foizga ortdi. Iste'mol mollari ishlab chiqarish 7,2 foiz ko'paydi. Avvalgi yillardagi kabi qat'iy moliya-kredit siyosati amalga oshirildi. Natijada inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keldi.

Endilikda mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqbolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995 yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo'lgan o'z ichki ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo'l oldi.

O'zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln. tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 1997 yili bu ko'rsatgich 7,9 mln. tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Jumladan, 1997 yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna dizel yoqilg'isi, 450 ming tonna

mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990 yilgi 40,8 mlrd.kubometr dan 1998 yil salkam 54 mlrd. kubometr ga ko'paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foizi, qishloqlarda esa 17 foiz aholi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1997 yili 64 va 48 foizini tashkil qildi.

O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda. Endilikda jahonning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim to'zilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomaning imzolanishi O'zbekistonning xalqaro savdosi va xorijiy investitsiyalardan unumli foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi.

1999 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 3.592 qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan. SHundan 1917 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab turgan qo'shma korxonalarning asosiy qismi-1400 tasi Toshkent shahrida, 107-Toshkent, 85-Samarqand, 51-Andijon, 49-Farg'ona va Namangan viloyatlarida joylashgan. SHulardan biri O'zbekiston — Germaniya «Kaolin» qo'shma korxonasi 17 aprel 1999 yil ishga tushirildi. CHet el sarmoyalari, ayniqsa neft va tabiiy gaz tarmoqlarida katta o'rin tutadi. Bu sohalarga 1994 y. atigi 10 mln. dollar xorijiy sarmoya jalb qilingan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1995 y. — 395, 1996 y. — 546, 1997 y. — 845, 1998 yili deyarli, 1.145 mln. dollardan oshdi.

Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq SSSRning parchalanib ketishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O'zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o'rtasidagi kooperativ aloqalarning o'zlashishi natijasida harbiy sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar injener va malakali ishchilari qiyin ahvolda qoldilar. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti, yirik iqtisodchi mutaxassis I.A. Karimov vaziyatni har tomonlama o'ylagan holda Navoiy tog'-metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o'tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdin tushgan foydalarni besh yil davomida korxonalar ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlatlar korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to'la mustaqillik berildi. Hisob-kitoblar, katta jamoaning mehnati o'z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan tonnalab olingan oltinlar davlatni valyuta zahirasi to'ldirdi. Arzon va sifatli uran olish ham yo'lga qo'yildi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi «Nyumont» firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxonalar qurilishi bilan ishlar yana qizib ketdi. «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasiga firma tomonidan ajratilgan 200 mln. dollar investitsiya yordamida oddiy sharoitdagi yarim asrlik ishlar ikki yilda o'z natijalarini berdi. Navoiy tog'-metallurgiya kombinati oltin rudasini qazib olishdan to'la zargarlik bezaklarini tayyorlaydigan jahonda to'la tsiklda ishlaydigan yagona korxonaga aylandi.

O'zbekistonning istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa uning muhim tarmog'i-avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog'liq. 1992 yilning avgust oyida Janubiy Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida to'zilgan bitim asosida «O'zDEU avto» qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida yengil avtomashinalar ishlab chiqarishga kirishildi. 1996 yilning mart-iyul oylarida «O'zDEU» avtokorxonasi «TIKO», «NEKSIYA», «DAMAS» yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999 yilni 1 iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko'proq «NEKSIYA», 51 mingdan ko'proq «TIKO», 40 mingdan ko'proq «DAMAS» avtomashinalari ishlab chiqarildi. SHu jumladan, 20 mingdan ortiq avtomobil eksportga jo'natildi. Korxonada 2004 yili to'la quvvatni o'zlashtirib, har yili turli rusumdagi 200 ming avtomobilni ishlab chiqaradigan bo'ladi. Endilikda «DEU» korxonasi bilan shartnomaga ko'ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqarish rejalashtirildi.

1993 yilda GFRdagi «Mercedes Bents AG» korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnoma to'zildi. 1994 yili «Do'stlik» avtomobil zavodida dastlabki 350 «Mercedes Bents» yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995 yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur «Kochholding» kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning So'g'diyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999 yil mart oyida o'zining mahsulotini bera boshladi.

Prezidentning 1992 yil 28 yanvar farmoniga muvofiq «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tuzildi. 1993 yildan boshlab, aviakompaniya zamonaviy A-310, BOING -767, BOING-757, RL-85 samolyotlariga ega bo'ldi. 1991 yili Xalqaro avia yo'li Dehli va Karachigacha uchgan bo'lsa, endilikda MDH va AQSH marshrutlari yo'nalishida O'zbekiston samolyotlari uchmoqda.

3. Ilm-fanning rivojlanishi. Madaniyat va sport.

Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviylik, sinifiylik yondashuvlaridan, xukmron kommunistik mafkuraga xizmatkor bo'lishdan holos etildi. Necha 10 yillar davomida bo'zib ko'rsatilgan yoki bilmay kelgan tarixiy voqealarni holislik, tarixiylik, xaqqoniylik tamoyillari asosida tadqiq qilishga kirishildi va dastlabki ilmiy-tarixiy asarlar yaratildi.

SHuni yurtboshimiz ta'kidlagandek "Tarix xotirasi, xalqning, jonojon o'lkaning, davlatimiz xududining holis va xaqqoniy tarixini tiklash milliy o'zligi anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va ustirish jarayonida muhim o'rin tutadi. O'zbek olimlarini kuch-g'ayratlari bilan tariximizning qo'ldan-qo'l sahifalari, eng avvalo temuriylar davri, Buxoro va Xiva shaharlarini 2100 yillik yubileyi munosabati bilan bir necha ming yillik tarix XIX-asr ohiri XX-asr boshlari tarixi shunday kashf etildi.

Vatanimiz tarixida xali o'rganilmagan dolzarb muommolar ko'p. O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sohalarini

holisona ilmiy asosida yoritish vazifalari prezident I.Karimovning bir gurux tarixchilar bilan 1998 yil iyun oyida bo'lgan suxbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida belgilab berildi.

Ma'naviy xayotdagi eng muhim voqealardan biri 1998 yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan "Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil etilishi bo'ldi. Ma'naviyat va Ma'rifat jamoat markazining viloyat, shahar va tuman bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda, taboro ko'proq mahallalar, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, shahar va qishloqlarning aholisini ma'naviy-ma'rifiy ishlarga jalb etmoqda, aholi o'rtasida aql-zakovat, ilm, ziyo, ma'rifatni tarqatmoqda.

Markaz qoshida "Oltin me'ros" xalqaro jamg'armasi, "Ma'naviyat" nashriyoti tashkil qilingan. "Tafakkur" jurnali aholi orasida keng tarqalmoqda, xalqning milliy uyg'onishida, yoshlarni tarbiyalashda muhim rol' uynamoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmishidagi asosiy ahamiyati va o'rni tiklandi. 1995 yil 21 dekabrda Respublika Oliy Majlisi yangi taxrirdagi "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanishi va muxofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Oliy Davlat hokimligi, mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlari faoliyati korxonalar, muasasalar va tashkilotlarning hisob-kitob statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda. Respublikaning ma'muriyat xududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik o'rinlarining nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. SHuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o'z fo'rniga qo'yildi.

1993 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qilindi. 1995 yil may oyida ushbu qononga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. Bu qonunlar o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeining yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'la joriy etilishi 2005 yilgacha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Milliy davlatchiligimiz tajribasi, Amur Temir to'zliklari, Farobiy, Navoiy kabi allomalarning odil davlat qurish haqidagi dono fikr-muloxazalari mustaqillik davrida demokratik xuquqiy davlat qurilishida katta madad ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida dinning eng avvalo islom dinining ham milliy ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqei tiklandi. Qadim zamonlardayoq yurtimizda din erkinligi mavjud bo'lgan otashparastlar budiylar, moniylar, musulmonlar va boshqa diniy e'tiqoddagilar inoqlikda yashagan, tenglik, erkinlik g'oyalariga amal qilingan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan shaharlarda hamma dindagilarni ibodatxonalarida mavjud bo'lgan.

Xalqimiz ma'naviy jihatdan ko'pginaafzalliklarga ega bo'lgan islom dinidir. Buyuk vatandoshlarimiz Muhammad ibn-Ismoil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba xisoblanuvchi "Saxiyx al-Buxoriy" nomli asar yaratib islom tarixida misli ko'rilmagan ilmiy manbaa yaratdi. Imom-at-Termiziy, Boxovudin Naqshbandiy, Xoja Ahmad Yassaviylar insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, ahloqiy va xuquqiy xikmatlarni yaratdilar. Mustaqillik sharofati tufayli ana shu allomalarimizning nomi tiklandi, xalqimiz ularning ma'naviy me'rosidan bahramand bo'ldi.

Boxovudin Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlanishi, uning nomi bilan bog'liq masjid majmuasining tiklanishi fikrimizning dalilidir. Navro'z bayrami, Ro'za va Qurbon xayitlarining tiklanishi faqat dindorlar uchun emas, bu bayramlarning tiklanishi aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusm, an'ana va udumlarimizning, kadriyatlarimizni tiklanishi, ajdodlar ruhini qayta uyg'onishidir.

Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshida din ishlari bo'yicha maxsus ko'mita to'zildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida" qonunida davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati o'zining aniq ifodasini topgan.

Mustaqillika erishgandan so'ng, dinga, shu jumladan islom diniga munosabat tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlarni moxiyati yurtboshimiz I.Karimovni quyidagi so'zlarida o'z ifodasini topgan: "Islom dini otabobolarimizning muqaddas e'tiqodi. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida ma'naviyatda, boy me'rosi va o'zligini saqlab qolgan".

Mustaqillik tufayli Ramozon va Qurbon xayiti kunlari bayram va dam olish kunlari deb e'lon qilindi. Sho'rolar davrida har yili boryo'g'i 15-20 ta kishiga haj safariga borishga ruxsat berilgan bo'lsa, 1991 yildan boshlab har yili 3-3,5 ming o'zbekistonlik fuqarolar ana shu muqaddas ziyoratni amalga oshirmoqdalar, minglab fuqarolar Umra safariga, ya'ni Makka Madinaga xayit'dan boshqa kunlarda bormoqda. Keyingi yillarda respublikamizda 30 000 dan oshiq fuqaro xaj va umra safarida bo'ldilar.

Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib, 100 ming nusxada nashr etildi. O'nlab va yuzlab diniy mavzudagi kitoblar chop etildi, ro'znoma va oynomalarda, radio va televideniya orqali islom tarixi, madaniyati, axloqi, buyuk muxaddislar, mufasrlar, fakixlar, mutasavvuflarga bag'ishlangan ma'lumotlar e'lon qilinmoqda, islom tarixiga oid ko'p qismli fil'mlar ko'rsatilmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kundan boshlab milliy mafkura, O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol g'oyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay, erkin va ozod yashash, o'zini-o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, g'oyalari majmuyi, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida o'z oldiga qo'ygan yuksak marralarga yetish jarayonida, ya'ni ozod, erkin va farovon hayot qurish, eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish, mustahkam suyanch va tayanch bo'ladigan barkamol yosh avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish va ularga sharoitlar yaratish borasida katta zalvorli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ertangi kunimiz, degan edi Birinchi Prezident Islom Karimov, - hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlar va xalqlardan kam bo'lmaslik, ertangi istiqbolimiz, barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishi, bizning o'rnimizga kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, voyaga yetkazishga chambarchas bog'liqdir.

1997 yil 29 avgust Oliy Majlisni IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tugrisida"gi Qonun i va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul kilindi.Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida mamlakatimizda ta'lim isloxati o'tkazilishidan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limni vazifalari dasto'rin i ro'yobga chiqarish boskichlari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli asoslab berildi. Mazkur dasto'rning asosiy maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qoralashlardan va sarqitlardan to'la holos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatdaamalga oshirilayotgan yangilanishi rivojlangan demokratik xuquqiy davlat kurilishi jarayonlaiga moslash.

Milliy Dasturda ta'lim isloxtlari uch boskichda o'tkazilishi ko'zda tutiladi:

1-bosqich 1997-2001 yillar.

2-bosqich 2001-2005 yillar.

3-bosqich 2005 yildan keyingi yillar.O'zbekiston davlatining buyuk kelajagi hozirgi kunda, asosan, maktablarda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiya olayotgan iste'dodli ijodkor va tashabbuskor yoshlarga bog'liq. Chunki bu yoshlar mamlakatimiz iqtisodiyoti, madaniyati va ishlab chiqarish sohalarida ijod qiladigan, kelajagimiz poydevorini yaratadigan yoshlardir. Xalqimiz hayotimizni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangilanish dasturini bajarishda yoshlarning imkoniyatlariga umid bilan qaramoqda. Negaki, biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz avvalo, ongi mustaqil fikrlaydigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli insonning doimo jamiyat, yurt, xalqqa foydasi tegadi, boshqalarga ortiqcha yuk bo'lmaydi, hamma yutuqlarga o'z mehnati vaaqli bilan erishadi. O'z fikr o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi⁴⁷.

⁴⁷ I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. 134-bet.

Barkamol avlod va yangi avlod kadrlari uyg'un tushuncha bo'lib, bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, hozirgi zamon ilm fan yutuqlari asosidagi yangi milliy ta'lim standartlari bo'yicha ilm olgan, izlanuvchan, mehnatkash kadrlar tushuniladi.

So'nggi paytlarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgani bo'ldi. Jumladan, ingliz tilini o'rganish bog'chadan boshlab, barcha ta'lim turlari bosqichlarida o'qitilishi joriy etilgan. Bu esa, yoshlarimizga dunyodagi davlatlar tarixini, madaniyatini, ilm-fan yutuqlarini chuqur bilishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga kirish yo'lida tashlagan muhim qadamlaridan ham biridir. Birinchi Prezident Islom Karimovning 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori⁴⁸uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimiga, mamlakatimiz umumta'lim, kasb-hunar, akademik litsey, oliy ta'lim muassasalari zimmasiga yangi vazifalarni yukladi. Qarorda chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan yuksak ma'rifatli, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizimni yanada kuchaytirish nazarda tutilgan.

Shuni e'tiborga olib, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda xorijiy davlatlardagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarining Toshkent shahrida 6 ta filiallari ochildi. Xalqaro Vestminster universiteti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetining filiallarida talabalar jahon ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim olayotganligi e'tiborga molikdir. Ushbu oliy o'quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi, kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va bularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda⁴⁹.

SHuningdek, ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnikaviy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JIGA xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOICO agentligi, UNESCO, Jahon banki, TESIS-TEM'US ochiq jamiyati instituti, AQSH, Angliya, Frantsiya, Yaponiya, Xitoy va boshqa daqvlatlar oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorlik tobora kengayib bormoqda⁵⁰.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Ma'rifat, 2012 yil 12 dekabr, № 99 (8540).

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir" O'quv qo'llanma. Toshkent. O'qituvchi. 2012. 103-bet.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mustaqillik-barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir". O'quv qo'llanma. Toshkent. 2013. 107-bet.

Har yili ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh qilishga yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizi, davlat byudjeti xarajatlarining 35 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Mamlakatimizda savodxonlik darajasi jahonda eng yuqorilaridan biri bo'lib, bu boradagi ko'rsatkich 99,2 foizni tashkil etmoqda⁵¹. Zero, "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur" degan ulug'vor g'oya bugungi kunda tobora hayotda o'z aksini topib borayotganligidan dalolat bermoqda. Jahon intellektual mulk tashkiloti va yetakchi xalqaro biznes-maktablardan biri – "INSEAD" tomonidan 2012 yilda inson kapitalining taraqqiyot darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston 141 mamlakat orasida 53-o'rinni, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi, jumladan, ta'lim maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha esa dunyoda beshinchi o'rinni egallagani bejiz emas⁵².

Mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib, hayotga kirmoqda. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sohasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalar kundan-kunga rivojlanmoqda va hozirgi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha va ta'lim sohasidagi barcha sa'y-harakatlarimizning dastlabki quvonchli mevasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal, aniq, lo'nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodini qo'rganda, hech shubhasiz har bir ezgu niyatli insonning qalbida g'urur va iftixor tuyg'ulari to'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning "Harakatlar strategiyasi" dasturida 2017-2021-yillarda ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda quyidagilargav aldohidaahamiyat berilgan:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

⁵¹O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mustaqillik-barcha ezgu rejalar va marralarimizning mustahkam mezonidir." O'quv qo'llanma, - Toshkent: 2013. – 6-bet.

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy yivilizaiya rivojidagi roli va ahamiyati". O'quv qo'llanma. Toshkent: 2014. 66-67-betlar.

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda yashayotgan yoshlarning har biri, ertaga ularning mamlakati dunyo bilan tenglashayotganda, kimgadir emas, faqat o'zlarining harakatlari va mehnatlariga bog'liq ekanini anglab yetsagina, hayotimizning chinakam hal qiluvchi kuchiga aylanadi. O'ziga ishongan odam kelajakka ishonch bilan yashaydi va Vatan, Yurt ravnaqi uchun o'zining yuksak hissalarini albatta, qo'shadi.

4. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishidagi o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikaning suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan o'lgan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekistonni 180 davlat tan olgan. Dunyodagi 130 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlarni o'rnatilgan. Toshkentda 43 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Biz jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani hal qilar ekanmiz, jahon hamjamiyatining o'zi bugungi kunda serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz. XX asr ohirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyatini va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakrordir.

Integratsiya xaqda gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bo'nga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlangan, shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajada dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida integratsiya jarayonlarida qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan o'zoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir sub'ekt bilan sherikchilikning mustaxkamlashimiz boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir. Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda eng avvalo Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 1994 yil 2 martda O'zbekiston BMTgaa'zo bo'lganligiga 14 yil to'ldi. Biz o'zimizning bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimizni Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik tinchlik va totuvlikda ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi deb bilamiz.

XX asrning ohirgi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kiradi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o'zgarib, birbiriga qarama-qarshi bo'lgan SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy to'zum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Lekin endilikda sovuq urushlar munosabatlarini tuqdiradigan kuchlarning yangi o'choqlari vujudga kelmoqda. SSSRning parchalanishi va sotsialistik sistema haloqati natijasida dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi va o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega. O'rta Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb

vazifalar deb belgilandi. Chunki ittifoq davrida O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri aloqa qila olmaydigan mamlakat bo'lib, tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadagi kadrlarga ega emas edi.

I. Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida mustaqil tashqi siyosatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosatining qoidalari qonunlashtirildi. Bu qoidalar «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'qrisida»gi, «CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi hujjatlarda o'z ifodasini topdi. I. Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini 48 (1993) va 50-yubiley (1995) sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston hukumati respublika tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar to'zish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovo'zkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan o'zoqlashmaslik.

Tashqi siyosatdagi ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik printsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish bilan birga O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida mavqeini ham oshirib bormoqda.

5. BMT, YeXHT bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo'lidan borib Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. SHu bilan

birga O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakolatxonalari respublikamizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferentsiyasi, qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I.A.Karimov 1999 yili aprelda SHimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasto'rin ing a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi.

O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan to'zilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotigaa'zo bo'lib kirdi va Trans Osiyo temir yo'lini qurilishida faol ishtirok etmoqda. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga kattaahamiyat berilmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillargaamal qiladi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
2. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar to'zish;
3. Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazish;
4. Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalar bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirilishi. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni davlat va jamiyat hayotining barcha sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida qabul qilingan.

Ushbu ustuvor yo'nalishlar Harakatlar strategiyasida belgilangan bo'lib, unda davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq va ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar hamda tashqi siyosat yuritishning muhim printsiplari nazarda tutilgan.

Farmonda Harakatlar strategiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida uni yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirish tartibi belgilangan.

SHunga ko'ra hamda mamlakatimizda 2017 yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinganidan kelib chiqib, Farmon bilan **2 ta** muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjat – 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o'rinlarda – **Harakatlar strategiyasi**) hamda Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" daamalga oshirishga oid **Davlat dasturi** tasdiqlandi.

Davlat dasturi **V bo'lim, 320 banddan** iborat bo'lib, uning **I bo'limi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlariga** bag'ishlangan.

2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi:

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifati tubdan yaxshilash;

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali

mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.